

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

TURKIYA TARIXI

5120300-Tarix (Xorijiy mamlakatlar tarixi)

Oliy ta‘lim tizimi tarix va sharqshunoslik
yo‘nalishlari talabalari ushun

TOSHKENT-2018

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Turkiya tarixi” deb nomlanib “O‘rgani-
layotgan mamlakat tarixi (Turkiya)” fani dasturi asosida yozildi. Ush-
bu qo‘llanma to‘rt qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi Kichik Osiyo-
ning qadimgi davr tarixiga bag‘ishlangan, ikkinchi qismi esa, Kichik
Osiyoning o‘rta asrlar tarixiga bag‘ishlangan, uchinchi qismi Usmoniy
imperiyasining yangi davr tarixi va to‘rtinchi qismida esa, Turkiya-
ning eng yangi davr tarixi kabi masalalar yoritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma professor-o‘qituvchilar va talabalar, qo-
laversa arab mamlakatlari tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar omma-
siga mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar: s.f.n. **N.A. Abdullayev**
katta o‘qituvchi **Z.M. Qodirov**
kata o‘qituvchi **X.X. Hamidov**
Sh. Ikromov

Mas’ul muharrir: *t.f.n. K.S. Azimov*
Taqrizchilar: *t.f.n. U.A. Abdullayev*
t.f.d. S.B. Shodmonova

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta
maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 7 dekabrda 1000-sonli
buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Zamonaviy tarixshunoslikda Turkiya tarixini odatda eramizning XIII asrida, Usmon bekligi paydo bo'lgan davrlarga bog'lashadi. Bu beklik keyinchalik juda katta va kuchli imperiyaga aylangan edi. Bundan tashqari, turk tarixi hozirgi Turkiya yerlarida o'sha paytlarda paydo bo'lgan Suljuqiylar davlatining barpo etilishi paytida boshlangan degan fikrlar ham bor. Bu turkiy qabilalar Kichik Osiyo yerlarga VIII-X asrlar oralig'ida ko'chib o'tgan vaqtiga ham to'g'ri keladi. Turkiya tarixining etnomadaniy manbaalari chuqur tarixga borib taqaladi. Uning yerlari qadimiy qabilalar tomonidan zabt etilgan. Jumladan, xetlar, greklar, frigiyaliklar, lidiyaliklar, galatiyaliklar, armanlar, ossuriyaliklar bilan birgalikda boshqa qabilalarga mansub xalqlar ham shular jumlasidan bo'lishgan. Rimliklar va forslar bu yerda quldorlik davlati tarkibiga kiruvchi o'z mustamlakalarini barpo qilishgan. Uning hududida Kir, Aleksandr Makedonskiy, rimlik sezarlar va yunon-pravoslav Vizantiya – “ikkinchi Rim” imperiyalari o'z hokimiyatini o'rnatishgan.

Agar Turkiya davlatini Turkiya deb nom olishidan oldingi tarixiga nazar tashlab, Xett qirolligidan boshlab (m.a II asrdan) Vizantiyagacha gapiradigan bo'lsak, bir necha tomlik kitob yozish mumkin. Ammo tarixni o'rganuvchilarni tarixning eng muhim, ayniqsa etnik jihatlari bilan tanishtirish judayam muhim.

Bu tarix yo'q joydan boshlanib qolmagan. Turklardan oldingi Anatoliya va Bolqon tumanlari - turk ahli paydo bo'lgan joy aholisining yutuqlari ko'chib kelgan turklar tomonidan uqib, o'zlashtirib olingan. Bular ichida: qo'shni dehqonchilik va shahar madaniyati, hunarmandchilik, shaharsozlik, memorchilik va san'atdan ham bir parcha bo'lgan. Bu yerdagi Osiyodan kelgan turklar va mahalliy turklar, bir-biridan farq qilishiga qaramasdan bir-biri bilan aralashib ketardi.

1930-1940 yillarga kelib esa, turklarning kelib chiqishi va qadimgi G'arbiy Osiyo aholisi, xett va shumerlarni turkiyligi haqidagi taxminlar tabora ko'payib borardi. Bu fikrga asos bo'lmasada, bu bazi bir turk tarixshunoslarini bu fikrdan qaytishga unday olmayapti. Qadimiy turklarni qachon va qayerda shakllangani, kelib chiqishi, qanday, qachon va qaysi yo'llar bilan ular Anatoliya va Bolqonga kelib qolishi ham qisqa tar'rifni talab qiladi. Shu sababdan Yevroosiyodagi ko'chmanchi xalqlar rivojiga hissa qo'shgan faktorlarni ham o'rganish kerak, yohud shundagina bu mintaqaning etnik tarixi va ko'chman-

chilikning genezisidagi qadimiy turklarning oʻrnini bilib olish mumkin. Buni tagiga yetish koʻp turk manbaalarini turklarning qadimgi dunyodagi marifatparvarlik hissasi haqidagi noaniq va xato fikr yuritishidan, turklarning rivojlanishi birinchilardan boʻlganidan va skif, sak, sarmat va boshqa eroniy tilida gaplashadigan koʻchmanchi turklardan kelib chiqqanligidan kelib chiqib ham juda zarur.

I-BOB. KICHIK OSIYO QADIMGI DAVRDA

1. Qadimgi turklar

Qadimgi Turk sivilizatsiyasining tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi va milodiy eraning VIII asrigacha, ya'ni Turk xoqonligi barham topgungacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Turkiy xalqlar tarixida qanchadan-qancha fojiali voqealar sodir bo'ldi, ammo taqdirning shu murakkab sinovlariga qaramasdan, turk xalqlari o'z nomi, g'ururi va qadim madaniyatini saqlab qola oldi.

Biroq qadimgi turklar¹ madaniyati insoniyatning ibtidosiga daxldor bo'lsa-da, zamonaviy falsafa, tarix va madaniyatshunoslik fanlarida «turkiy sivilizatsiya» atamasi nisbatan kech paydo bo'lgan. Buning sababi shundaki, «sivilizatsiya» tushunchasining o'zi jamiyat taraqqiyotining alohida sifat darajasini belgilash uchun Yevropa faniga Ma'rifatchilik davrida (XVIII asr) kiritilgan bo'lib, asosan, G'arb ijtimoiy fanining o'sha davrdagi ilmiy tushunchalari doirasida shakllantirilgan. «Sivilizatsiya» tushunchasi, birinchi navbatda, G'arb madaniyatidagi o'zlikni anglash jarayonini aks ettiradi. So'nggi ikki-uch asr davomida G'arb tadqiqotchilari bu tushuncha yordamida G'arb jamiyatining boshqa «oddiy» xalqlardan farqini, to'g'rirog'i, «ustunligi»ni aniqlashda foydalanib keldilar. Shu davrda geosiyosiy kenglikda hukmron bo'lib olgan Yevropa jamiyati sivilizatsiyaviylik me'zoni ham hisoblanib, yevropalik bo'lmagan, «notsivilizatsiyaviy», «qoloq» xalqlar intilishi lozim bo'lgan namuna sifatida qaraldi. Shu sababli XVIII–XX asr tadqiqotchilarining tushunchasida insoniyatning sivilizatsiyaviy taraqqiyoti Yevropa bilan bog'liq hamda bu tushunchaning asosini davlat, yozuv, moddiy asoslar va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Turkiy xalqlar dunyosi esa mutlaqo boshqacha, aytish mumkin-ki, o'zgacha sivilizatsiya. Turkiy xalqlarning hayot tarzi faqat ko'chmanchilikka asoslangan, deb hisoblovchi yevropalik tadqiqotchilar tomonidan ular tarixi ham, davlatchiligi ham, madaniyati ham bo'lmagan, faqat tili yaqin qabilalarning aralashuvidan iborat etno-lingvistik birlik sifatida qaralib kelindi. Hozirgi kunda ham bir qator olimlar tomonidan qadimgi turklarga nisbatan «ko'chmanchi sivilizatsiya» atamasi qo'llanilmoqda. Aslida ko'chmanchilik qadimgi turklarning birlamchi hayot tarzi bo'lmagan va ularning katta qismi o'troq hayot kechirgan.

¹ Qadimgi turklar deganda xunlar (gunlar) ham nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, yozma manbalarni bilmaslik (turkiylarning qadimgi yozuvi – Urxun-Enisey yozuvlari bilan ham yevropaliklar faqat XIX asr oxirida tanishdi) va ehtimol, turklar bosqinlari, ular keltirgan dahshat va qo‘rquv haqida saqlanib qolgan xotiralar, genetik darajada, beixtiyor turklar madaniyatining qabul qilinmasligiga sabab bo‘ldi. Agar arablarning Ispaniyadagi kichik bosqinini aytmasak, qadim zamonlardan beri Yevropaga¹ turklardan boshqa hech bir xalq bostirib kirmagan. Shu sababli bosqinchilik yoki u bilan bog‘liq vahshiylik deganda yevropaliklar ko‘z oldida, birinchi navbatda, turklar namoyon bo‘ladi. Tarixda turklar (xunlar, gunlar, qipchoqlar, saljuqlar va boshq.)ning bosqinlari tabiiy ofatlarga tenglashtiriladi. Ayni paytda ajablanarlisi shundaki, yevropaliklarning bosqinlari, makedoniyalik Aleksandrdan boshlab rimliklar va salibchilargacha bo‘lgan yurishlar salkam insonparvarlik aksiyasi deb qaraladi².

Yuqoridagi omillarning hammasi qo‘shilib, XVIII–XX asr Yevropa tadqiqodchilari tomonidan turklar dunyosining varvarlar jamiyati sifatida kamsitilishiga olib keldi.

Shu sababli XVIII–XX asrlardagi lokal sivilizatsiyalar konsepsiyalarida va madaniy-tarixiy tiplar bayonida hamda sivilizatsiyalar muammolari bilan shug‘ullanayotgan ko‘pchilik hozirgi zamon olimlarining konsepsiyalarida ham «turkiy sivilizatsiya» tushunchasi mavjud emas. Shuningdek, bu tushunchaning yo‘qligi yevropalik olimlarning etnogenez, antroposferaning ta’siri, passionarlik kabi masalalarga e’tiborsizligidan bo‘lishi ham mumkin. Aslida turk sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bevosita turklar dunyosining etnogenezi bilan bog‘liqligi hozirgi zamon olimlarining asarlarida batafsil tadqiq qilingan.

Turkiy sivilizatsiyaning mavjudligi to‘g‘risidagi gipoteza qadimgi matnlarni taqqoslash asosida turkiyalik olimlar tomonidan taklif qilingan. Xususan, 1924 yili Fransiyaning Vishi shahrida «Glozel bitiklari» deb nom olgan, taxminan mil. avv. XXV asrga mansub deb hisoblanayotgan yozuvlar topildi. Yevropalik tilshunos olimlar o‘zlariga ma’lum bo‘lgan hind-evropa tillari bilan solishtirish asosida bu yozuvni o‘qish uchun bir necha o‘n yillar samarasiz urindilar. Kelib

¹ Dunay daryosining g‘arb tomoni nazarda tutilayapti, chunki Sharqiy Yevropaning kata qismi azaliy turk yerlari hisoblanadi.

² Будаев Н.М. Западные тюрки в странах Востока. http://bukvy.net/books/guman_nauki/51246-Zapadnie-tyurki-v-tranah-Vostoka.html. –С. 12.

chiqishi turk bo'lgan pariqlik pianinochi X. Tarjan tasodifan yozuvdagi turkcha so'zlarga e'tibor qaratadi va bitikni qadimgi yozuvlar bo'yicha mutaxassis Kozim Marshanga jo'natadi. K. Marshan turk tillaridan foydalangan holda Glozel bitiklari matnini o'qidi va 1993 yili bu haqda Sarbonna universitetida ilmiy ma'ruza bilan chiqdi¹.

Bugunga kelib «turkiy sivilizatsiya» faqat publisistik va lingvistik adabiyotlarda emas, falsafiy-tarixiy va madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda ham umumiy qabul qilingan kategoriyaga aylandi. Ammo shunga qaramasdan, turklar dunyosini mustaqil sivilizatsiya sifatida qabul qilish muammosi bugun ham muhim va dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, qadimgi turklar dunyosining sivilizatsiyaviy parametrlarini umumiy qabul qilingan sivilizatsiya nazariyasi doirasida qarab chiqish yuqoridagi muammoga aniqlik kiritishi va turkiy xalqlarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini tan olish imkonini berishi mumkin².

Qadimgi turklar amalga oshirgan ikkita kashfiyot – egar jabduq, brichka³ va temirning kashf etilishi⁴ ular taqdirida ikki xil rol o'ynadi. Birinchidan, metalldan yasalgan mehnat quollarining paydo bo'lishi qishloq xo'jaligida haqiqiy inqilobga olib keldi, oziq-ovqat ko'paydi va bu hol, o'z navbatida, demografik bo'hronga, aholi sonining keskin o'sishiga sabab bo'ldi. Endi temir aslahalar bilan qurollangan va ikkinchi kashfiyot tufayli qattiq egar, uzangi va yugan bilan «beza-tilgan» otda va ham transport vositasi, ham uy rolini o'ynagan namat o'ralgan aravada uzoq masofaga yurish mumkin bo'ldi va shiddat bilan ko'payib borayotgan turklar yaqin atrofni, keyinchalik esa ancha uzoqdagi hududlarni ham bemalol zabt etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ikkinchidan, qadimgi turklarning aynan istilochilik intilishlari ularning ko'chmanchi sivilizatsiyalar dunyosiga mansubligi to'g'risidagi fikrga asos bo'ldi. Agar ko'chmanchilikka shunday nuqtai nazardan

¹ Qarang: Мингазов Ш. Этруски и тюрки. <http://kitap.net.ru/mingazov/etruski.php>.

² Qarang: Аязбекова С.Ш. «Тюркская цивилизация» в системе цивилизационных классификаторов. <http://lib2.znate.ru/docs/index-347339.html>.

³ Brichka (to'rt g'ildirakli arava) ham asli turk ixtirosi bo'lib, xalqlarning Buyuk Ko'chishida asosiy transport vositasi bo'lgan. Bu paytda Yevropada ikki g'ildirakli jang aravalari urf bo'lgan.

⁴ Agar xaliblar rudani toblab qizdirish orqali temir olgan bo'lsalar, turklar rudani eritishni kashf etganlar. Rudani eritish orqali ancha sifatli temir olingan.

qaralsa, yangi haqiqiy ko'chmanchilari ispanlar, inglizlar, fransuzlar va ruslar bo'lib chiqadi. Zotan, masalan, ispanlar va inglizlarchalik uzoq hududlarga qadimgi turklar hech qachon bostirib bormagan.

Turklar Oltoydan Atlantik okeanigacha bo'lgan masofani ikki yarim asrda bosib o'tdi, yiliga o'rtacha qirq kilometr siljidi.

Ikki yarim asr davomida odamlar to'xtovsiz ko'paydi, doimiy yangi yerlarni o'zlashtirdilar, keyin esa bu yerda kichik o'g'il qolib, katta o'g'illar navbatdagi yerlarni o'zlashtirish uchun jo'nab ketdilar. (Ota uyida kichik o'g'ilning qolishi qadimiy turk odati bo'lib, u hozir ham saqlanib qolgan bo'lib, u hozir ham saqlanib qolgan¹).

Aslida hali millatlar shakllanmagan, muqim chegaralar mavjud bo'lmagan qadimgi davrda (nafaqat qadimgi davrda) deyarli barcha xalqlar bosqinchilik bilan shug'ullangan va faqat eng kuchlilarigina g'alabaga erishgan va katta imperiyalar tashkil qilgan. Qadimgi turklar esa juda kuchli xalq edi. Shuningdek, XX asrda olib borilgan tadqiqotlar turklar ko'chib kelgan yoki bosib olgan, deb hisoblangan Sharqiy Yevropaning katta qismi azaliy turk yerlari ekanligini ko'rsatdi. Masalan, rus tadqiqotchisi S. Ye. Malovning (1880–1957) yozishicha, «miloddan besh asr ilgari turklar, asosan, hozir yashayotgan hududda (kichik o'zgarishlarni hisobga olmaganda) istiqomat qilgan. Yevropada Dunay daryosi, Volganing o'rta va quyi oqimi hamda Ural havzasi turklarning eng qadimgi makonlari bo'lgan»².

Bundan tashqari, tarixda xo'jalik faoliyatining bironta tipi sof holda mavjud bo'lmagan. Xo'jalik doim kompleks holda mavjud bo'ladi va ayrim faoliyat turlari ustuvor bo'lib, boshqa birlari yordamchi tur holatida bo'lishi mumkin. Chorvachilikning turli shakllari yarim o'troq, ko'pchilik hollarda to'liq o'troq holatdagi dehqonchilik bilan qo'shib olib borilgan. Ko'plab turk xalqlarining dehqonchilik bilan shug'ullanganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, amerikalik biolog va fiziolog olim Jared Daymondning yozishicha, «Qishloq xo'jaligi mustaqil paydo bo'lgan markaz maqomiga da'vogar to'qqizta nomzod ichida o'simliklarni madaniylashtirish (taxminan mil. avv. 8500 yil) va hayvonlarni xonakilashtirish (taxminan mil. avv. 8000 yil)

¹ Qarang: Аджи М. Азиатская Европа /Мурад Аджи. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2008. –С. 33–34.

² Гумбатов Г. Историческая прародина тюрков. <http://prochtu.ru/text.php?avtor=1520&f=html&kniga=1&p=view> –С. 13

vaqtining aniq oʻrnatilganligi nuqtai nazaridan, Janubi-Gʻarbiy Osiyo¹ peshqadamlik qiladi; umuman, oziq-ovqat mahsulotlarini birlamchi ishlab chiqarishning radio uglerod usuli bilan aniqlangan davri boʻyicha ham shu mintaqa oldingi oʻrinda turadi»². Shuningdek, turk tilidagi qishloq xoʻjalik va oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari, atamalar ham turklarning faoliyat turlari faqat koʻchmanchi chorvachilikdan iborat boʻlganligi haqidagi daʼvoni rad etadi. Hozirgi zamon turk tillarida saqlanib qolgan va keng qoʻllaniladigan bugʻdoy, arpa, tariq, qovun, tarvuz, oshqovoq, gʻoʻza kabi koʻplab atamalar va palov, beshbarmoq kabi milliy taomlarning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqalishi va haqiqiy turkcha ekanligi turklarning, ayrim olimlar taʼkidlayotganidek, faqat koʻchmanchi chorvachilik bilan emas, asosan, oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullanganligidan dalolat beradi.

Yuqorida aytilganidek, Kichik Osiyoning shimoli-sharqiy qismida yashagan xaliblar taxminan mil. avv. XIV asrda birinchi boʻlib temirni eritish va qoʻllashni oʻrganganlar. Lotin tilidagi «chalibus» – «poʻlat» aynan shu qabilaning nomidan olingan va lotin tilidan kelib chiqqan yevropa tillarida hozirgacha qoʻllaniladi. Rus tilidagi «kalibr», «kalibrovka» soʻzlari ham shu qabila nomi bilan bogʻliq.

Ayni paytda yevropalik olimlarning koʻpchiligi koʻchmanchi hisoblaydigan qadimgi turklarda metallurgiyaga oid oltin, kumush, temir, jez kabi atamalar haqiqiy turkcha boʻlib, boshqa tillardan kirib kelmagan va bu turklarda qadimdan metallurgiyaning, qilich, bolta, qalqon, uzuk, sirgʻa, bilaguzuk kabi soʻzlar esa qurolsozlik va zargarlikning ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Maʼlumki, doimiy koʻchib yurgan xalq keng miqyosda metallurgiya bilan shugʻullanish imkoniyatiga ega emas.

Qadimgi Turk sivilizatsiyasining shakllanishida imperiyachilik omilining roli hali yetarli tadqiq qilingan emas. Zero, tabiiy savol

¹ Janubi-Gʻarbiy Osiyoga hozirgi Turkiya, Eron, Iroq, Afgʻoniston, Saudiya arabistoni, Arabiston yarimorolidagi kichik davlatlar, shuningdek, Gruziya, Ozarbayjon va Armaniston kiradi. Olimlarning taxmin qilishlaricha, bu hududning katta qismida shu davrda (mil.avv. V–III ming yillik) turk va moʻgʻul xalqlarining ajdodlari boʻlgan qadimgi oltoy qabilalari yashagan. Qarang: Каримов Б.П. Тангрианство и становление тюркского мира. <http://tengrifund.ru/konferencii/2-aya-konferenciya/tengrianstvo-i-stanovlenie-tyurkskogo-mira>.

² Qarang: Джаред Даймонд. Ружья, микробы, сталь. <http://knigosite.org/getbook/78652/rtf>. –С. 83.

tugʻiladi: qanday omillar qadimgi turklarga ulkan imperiyalar yaratish imkonini berdi? Qanday kuch turli qabila, xalq va irq'larga mansub kishilarni yagona davlatga birlashtirdi? Faqat qurol kuchi bilan bunday ulkan imperiyalarni yaratish mumkin emasdi. Demak, juda katta hududga tarqalib ketgan koʻplab xalqlarni birlashtiruvchi qandaydir universal mafkura zarur edi. Tangriylik Buyuk Dashtda yashayotgan xalqlarni birlashtiruvchi shunday mafkura rolini oʻynadi. Shunday mafkuraning mavjudligi Turk eli (tarix adabiyotlarida Turk xoqonligi deb ataladigan davlatni qadimgi turklarning oʻzlari aynan «Turk eli» deb ataganlar) singari davlatlarning shakllanishi uchun asos boʻldi. Koʻpincha sivilizatsiyaga xos belgilar sifatida qaraladigan ancha rivojlangan yozuv va bu yozuv orqali ifodalangan tarixiy xotira ham bevosita Turk eli shakllanishining natijasi edi.

Qadimgi turklar koʻhna dunyoning etnik tarixida ham favqulodda buyuk rol oʻynagan. Ular juda katta hududlarni bosib olgan, mahalliy aholi bilan aralashib, butun boshli qitʼalarning etnik xaritasini bir necha bor oʻzgartirib yuborgan, ulkan imperiyalar bunyod qilgan, ijtimoiy taraqqiyot yoʻnalishini oʻzgartirgan, madaniyatlar sintezida oʻziga xos koʻpriklar rolini oʻynagan va oʻzlari ham jahon madaniyatida katta iz qoldirgan.

Qadimgi turklarning lingvistik tarixi ham juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Qadimgi turk tili bilan tungus-manchjur va moʻgʻul tillari oʻrtasida koʻp yaqinlik va umumiylik bor. Bu tillarni qiyosiy-tarixiy oʻrganish natijasida ularning eng qadimgi rivojlanish bosqichlari aniqlangan. Ular quyidagicha: Oltoy davri (bu davrda turk, moʻgʻul va tungus-manchjur tillari yagona oltoy tili sifatida mavjud boʻlgan). Xunn davri (bu davr mil. avv. V asrdan milodiy IV asr oxirigacha boʻlgan davrni qamrab oladi, shunda turkiy-moʻgʻul, tungus-manchjur tillari ajralib chiqayotgan edi). Turkiy tillar xunn davrida ikki qismga ajralgan: Sharqiy xunn va Gʻarbiy xunn. Gʻarbiy xunn tillariga bulgʻor, avar, xazar, chuvash, bajnoq, gagauz, Bolqon yarimorolidagi aksariyat tillar, qumiq, qaraim, oʻzbek, turkman, ozarbayjon va boshqa bir qator tillar kiradi. Sharqiy xunn tillariga qadimgi uygʻur, qirgʻiz, tuva, xakas, shor, yoqut, chulim, tatar, oltoy va Sharqdagi koʻpgina tillar mansub. Bu tillar milodiy eraning V asrigacha – qadimgi Turk davlati tashkil topib, yozuv takomillashgunga qadar boʻlgan turkiylarning ota-bobolari tillaridir¹.

¹ Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 45–46-бетлар.

Qadimgi turklar tarixi Buyuk Dasht bilan bog‘liq. Ussuriydan Dunay va Karpatgacha bo‘lgan Yevroosiyo kengliklari Buyuk Dasht yoki qipchoq Dashti deb atalgan. Uning shimoliy chegarasi Sibir taygasi va Sharqiy Yevropa o‘rmonlari hisoblanadi, janubda esa Xuanxe daryosi, Eronning tog‘ yonbag‘ri cho‘llari va vohalari, Kaspiy dengizi va Kavkaz tog‘lari bilan chegaradosh. Qadimda bu dashtni yunonlar Skifiya, forslar Turon, xitoylar esa Bey-xu (shimoliy varvarlar dashti) deb atashgan. Buyuk Dasht geografik jihatdan ikki qismga bo‘linadi: sharqiy qismi Ichki, Markaziy yoki O‘rtaliq Osiyo deb ataladi va u Mo‘g‘uliston, Jo‘ng‘oriya hamda Sharqiy Turkistonni o‘z ichiga oladi. Sibirdan uni Sayan, Xamar-Daban va Yabloneviy, Tibetdan – Kunlun (Qorong‘u tog‘) va Nanshan tog‘ tizmalari, Xitoydan – Buyuk Xitoy devori, dashtning g‘arbiy qismidan esa Tog‘li Oltoy, Tarbag‘atoy, Saur va G‘arbiy Tyan-Shan ajratib turadi. Buyuk Dashtning g‘arbiy qismiga hozirgi Qozog‘iston, Yettisuv, O‘zbekistonning bir qismi, qora dengiz bo‘yidagi dashtlar va Dunayning bir qismi kiradi. Buyuk Dasht – siyrak aholiga, keskin o‘zgaruvchan iqlimga, suvsiz cho‘llarga ega bo‘lgan ulkan sovuq hudud¹.

Qadimgi turklarning ota yurti – Qadimgi Oltoy², shu Buyuk Dashtning tarkibiy qismi, keskin o‘zgaruvchan iqlimli yurt.

Asosan dashtdan iborat, turk etnik birligining yashash muhiti bo‘lgan shu yurt va undagi ancha og‘ir yashash sharoiti Qadimgi Turk sivilizatsiyasini vujudga keltirgan da’vatga aylandi va xalqning jangovar xarakterini, faqat shu sivilizatsiyaga xos jihatlarni belgilab berdi. A.J. Toynbi konsepsiyasiga binoan uni «dasht da’vati» deb atash mumkin. Shu da’vat bilan qadimgi turklar Sibir o‘rmonlaridan chiqib, dasht kishilariga aylandilar va Buyuk Dashtning kimsasiz kengliklari ularning yangi vatani bo‘lib qoldi. Mutlaqo notanish geografik muhit ularda moslashish bilan bog‘liq katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Ammo turklar bu qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tdilar, avvalgi hayot tarzlaridan nimaniki saqlab qolish mumkin bo‘lsa, hammasini qoldirdi, nimadan voz kechish lozim bo‘lsa, hammasidan, ba’zan, hatto, qadimgi an’analarga zid bo‘lsa-da, voz kechdilar.

¹ Qarang: Гумилев Л.Н. Хунну. Степная трилогия. <http://www.ozon.ru/context/detail/id/1474933/>. –С. 7.

² Qadimda “Oltoy” atamasi hozirgiga nisbatan ancha keng hududni bildirgan. Sharqda butun Janubiy Sibir, Baykal va Baykal ortini ham qo‘shganda, g‘arbda Pomirgacha Oltoy hisoblangan. Qarang: Аджи. М. Азиатская Европа /Мурад Аджи. –М.: АСТ: АСТ Москва, 2008. –С. 21.

Yangi mamlakatda sharoit shafqatsiz va berahm boʻlib, faqat bu yerning qonunlariga rioya qilgan kishigina yashab qolishi mumkin edi. Qancha bolalar chaqaloq paytidayoq vafot etganligi, bu dasht qanchadan-qancha nimjon va kasalmand kishilarni halok qilganligi endi maʼlum emas. Tirik qolganlari, lotin tarixchisi Ammian Marsellin (330–400) yozganidek: «Dashtda tugʻilib, uning bagʻrida oʻsganlar bolalikdan sovuq, ochlik va chanqoqlikda chiniqqan hamda shu dashtning shafqatsiz xarakterini oʻzlariga meros qilib olganlar. Turklar bejiz oʻzlarini zabardast deb atamaganlar»¹.

Sivilizatsiya uchun boshqa bir ragʻbatlantiruvchi kuch qadimgi turk xalqining yangi yerlarni oʻzlashtirish uchun qilgan harakati boʻldi va ularning gʻarb va janub tomon intilishlari bu yerlardagi mahalliy aholi bilan muqim aloqalar oʻrnatilishiga olib keldi. Shu tariqa oʻziga xos geografik landshaftga ega boʻlgan Markaziy va Oʻrta Osiyoni², Sharqiy Yevropani birlashtirgan, Gʻarbiy Yevropa chegaralari bilan tutashgan qadimgi turk etnosining umumiy makoni shakllandi. Shu makonda qadimgi turk davlatlari vujudga keldi, rivojlandi va yakun topdi.

Bu ulkan makonda bir-biridan juda uzoq yashagan qadimgi turklar mutlaqo yakkalanib hayot kechirmaganlar. Gʻarbdagi skiflar, Volga va Janubiy Ural boʻylaridagi sarmatlar, Oʻrta Osiyo sak (shak) va massagetlari, Sayan-Oltoy dinlinlari, tagar va mayemir qabilalari, Moʻgʻuliston, Baykalboʻyi va Ordos aholisi bir xil qurol va ot anjomlariga ega boʻlgan, sanʼatda bir xil obrazlar va ruhiy holatlardan foydalangan, bir-biriga tushunarli tilda soʻzlashgan. Mahalliy anʼanalar ham saqlanib qolsa-da, ular madaniyatdagi yaqinlikni susaytir-

¹ Qarang: Рахманалиев Р. Империя тюрков. Великая цивилизация. admw.ru/books/Imperiya-tyurkov--Vel... –С. 3.

² Markaziy Osiyo va Oʻrta Osiyo geografik atamalari uzoq vaqt aniq belgilangan chegaraga ega boʻlmagan. A. Gumbold Osiyoning bir qismini – shimol va janubni geografik kenglik bilan, gʻarbni esa Kaspiy dengizi bilan chegaralaydi, ammo sharqiy chegara nomaʼlumligicha qoladi. Rixtgofen janubda Tibetdan shimolda Oltoygacha, gʻarbda Pomirdan sharqda Xingangacha boʻlgan chegarani “Markaziy Osiyo” deb ataydi. “Oʻrta Osiyo” deb esa tor maʼnoda Turkiston havzasi, yaʼni gʻarbda Kaspiy dengizidan sharqda Pomirgacha, shimolda Orol-Irtish havzasidan janubda Kopetdogʻ va Hindikushgacha boʻlgan mamlakatlarga aytiladi. Qarang: Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. <http://www.centrasia.ru/cnt.php?st=6>

madi. Buyuk Dasht moddiy va ma'naviy madaniyat unsurlarining birligi orqali Yevroosiyaning g'arbu sharqini birlashtirdi¹.

Qadimgi turklarda hokimiyatni tashkil qilishning ustivor shakli harbiy demokratiyaga asoslangan davlat bo'lib, dastlab mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida paydo bo'lgan. Qadimgi turklar butun Yevroosiyo bo'ylab o'ndan ziyod shunday imperiyalar, original davlatlar tashkil qildi, hudud yaxlitligi va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizim asosida tinch va osoyishta yashash istagida bo'lgan ko'plab xalqlarni birlashtirdi. Vujudga kelgan sivilizatsiyaning o'ziga xos jihati shunda ediki, turklar Yevroosiyo kengliklarida barcha etnoslarni birlashtirib, sinergetik² butunlikni hosil qiluvchi g'oyani yarata oldilar. Yevroosiyo hududida turk etnosi boshchiligida integrasion jarayonlarning bunday amalga oshirilishi qadimgi turklar sivilizatsiyasining keng hududga tarqalishiga olib keldi³.

Bu sivilizatsiyaviy makonda vujudga kelgan davlatlarning ko'pchiligidan xotira bo'lib faqat ularning nomigina qolgan. Yangi shakllangan xalqlar turklarning buyuk o'tmishini ular xotirasidan o'chirib tashlash uchun barcha vositalardan foydalandi. Turon tarixi qayta-qayta yozilib, unda o'ziga xos buyuk sivilizatsiyani yaratgan qadimgi turk xalqining nomi butunlay tilga olinmadi.

Turkiy olimlardan biri yaqin o'tmishdagi shunday holatni quyidagicha ta'riflaydi: «Men ilgari o'z ajdodlarimni, ildizimni bilmaganligim uchun xijolat tortib, uyalib yurardim. Hozir ham shunday noqulaylik his qilaman, ammo butunlay boshqa munosabat bilan – bizning ajdodlarimiz naqadar sof, halol, mag'rur va ulug'vor kishilar bo'lgan ekan. Biz, ularning avlodlari kim bo'ldik. Ular bizdan ustun edi. Ammo bugun jarangdor bir his ongimiz va qalbimizni egallaydi: biz tenglashadigan, o'rnak oladigan, faxrlansak arziydigan ajdodlarimiz bor... Biz ham, albatta, ulardek bo'lamiz»⁴.

Mashhur Britaniya ensiklopediyasida ham qadimgi turklar mamlakati haqida ma'lumot keltirilgan. Ammo zamonaviy Yevropani o'zlarining yevromarkazchilik g'oyasi qay darajada imkoniyat bersa,

¹ Qarang: Файзрахманов Г. Древние тюрки в Сибири и Центральной Азии. <http://padabum.com/d.php?id=9651>. –С. 31–32.

² Sinergetika (yunonchadan – «faoliyat») yoki murakkab tizimlar nazariyasi – dinamik turg'un, noevolyutsion, ammo adaptiv bo'lgan tizimlarning faoliyat yuritishi.

³ Qarang: Аязбекова С.Ш. «Тюркская цивилизация» в системе цивилизационных классификаторов. <http://lib2.znate.ru/docs/index-347339.html>.

⁴ Бисенбаев А. Мифы древних тюрков. http://nogaystan.ucoz.ru/load/ak_bisenbaev_mify_drevnix_tjurkov/1-1-0-3. –С.24.

turk mavzusi shu darajada qiziqtiradi. Ular uchun butun dunyo Yevropaga bir ilova bo‘lib tuyuladi. Shu sababli bugungi turkiylar Turon davlati asoschisi Alp Er To‘nga va xon Balamir haqida hech narsa bilishmaydi. Shoh qoratunning yuksalishi haqida-chi? Donishmand Donad qaysi ishi bilan o‘z nomini abadiylashtirdi? «Ko‘chmanchilar» haqidagi qalin kitoblarda ular to‘g‘risida hech narsa yozilmagan. Balki mualliflar aynan qipchoq shohlari – Balamir, qoratun, Donad dashtliklarni Yevropaga boshlab kelganligi, turklar oldida Vizantiya va Rim tiz cho‘kkanligi haqida yozish u yoqda tursin, hatto, o‘ylashga ham uyalishar. Qadimgi turklar ichida eng ulug‘i, xalqning faxri – Attila haqida ham haqiqat hali to‘liq aytilmagan.

Attila turklarning Buyuk ko‘chishini yakunladi: Yevropa unga tobe bo‘ldi, unga o‘lpon to‘ladi...

Yengilmas Attilani Rim qo‘shinlari yoki birlashgan Yevropa mag‘lub eta olmadi, uni o‘z ulug‘vorligi mahv etdi. Ulug‘vorlik –bu juda og‘ir yuk. Bu yuk Attiladay buyuk jangchini halok qildi, uning o‘limi esa gunn xalqining tinchligini olib ketdi! Sarkardaning o‘limidan so‘ng undan bir yuz sakson to‘rt nafar(!) o‘g‘il qoldi, qizlarini esa hech kim sanamagan. Tanida Attila qoni ko‘pirib turgan taxt da’vogarlari tinchgina navbat kutib o‘tirishlari mumkinmidi? Albatta, yo‘q. Shafqatsiz o‘zaro urushlar boshlandi... Turklar o‘zaro jang qildilar. Bu urush ular bo‘yniga qullik zanjirlari osilguncha davom etdi¹.

Biz, zamonaviy avlod ko‘pincha ajdodlar faoliyatiga bugunning nazari bilan boqib, soddagina «yaxshi – yomon» tarzida baho berishga harakat qilamiz va shundan kelib chiqib, ularni tan olamiz yoki rad etamiz. Ammo o‘ylab qaralsa, tarixda o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimiz, nomini ming yillardan beri ko‘plab xalqlar faxr bilan yod olib kelayotgan Attiladek buyuk zotlar bizning bahomizga, tan olishimizga muhtojmikin?

Attiladan keyin ulardan qolgan hududlarda turlicha atalgan ko‘plab davlatlar tashkil topdi. Ularni ham ancha rivojlangan, L.N. Gumilev ta’biri bilan aytganda, passionar turk qabilalari tashkil qildilar, ularning har birida ko‘p sonli turkiylar yashadi.

Ba’zan davlat halokatga uchraganda, etnos, uni yaratgan xalqning nomi ham tarixdan o‘chib ketgan. Shu tariqa Xunn imperiyasi halokatga uchragandan so‘ng xunlar ham etnik birlik sifatida barham

¹ Qarang: Аджи М. Азиатская Европа /Мурад Аджи. –М.: АСТ: АСТ Москва, 2008. –С. 35.

topdi, gunnlar ham Attiladan keyin tarqalib ketdi, Buyuk Turk xoqonligi inqirozga yuz tutgandan so'ng turk-yutlar ham tarix sahnasidan tushib ketdi. Ammo «turk» nomi butunlay yo'qolib ketmadi. Aksincha, u Osiyo va Yevropa bo'ylab keng tarqaldi. Arablar Amudaryodan shimolda yashaydigan barcha xalqlarni turklar deb atadi, ular esa bu nomni qabul qildilar, zero qadimgi turklar etnik birlik sifatida barham topgandan so'ng «turk» tushunchasi Buyuk Dashtda yashovchi barcha xalqlar uchun shon-shuhrat va jasorat ramzi bo'lib qoldi. Keyinchalik bu etnonim til oilasining nomiga aylandi, qadimgi turklarning bevosita avlodi bo'lmasa-da, ular tilini qabul qilgan ko'plab xalqlar endi turk deb atala boshlandi¹.

Qadimgi turklarning insoniyat tarixidagi roli juda ulkan. Turk madaniyatining yutuqlarini ko'plab boshqa xalqlar qabul qildi. Qadimgi turklar madaniyati Volga Bulg'oriyasi, Oltin O'rda, Qozon, Ashtarxoniylar, Qrim, Qosim, Tuman (Tyumen), Sibir xonliklari, No'g'oy O'rdasi, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy davlatlar, Kichik Osiyodagi Saljuqiylar va Usmoniylar imperiyalarida davlatchilik va madaniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Qadimgi turk davlatlarining tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati barcha turkiy xalqlarning tarixiy merosidir².

Qadimgi turklar o'rniga kelgan boshqa qabilalar va xalqlar o'z davlatlarini yaratdilar. Sharqiy Yevropada ham tanida turk qoni oqsada, boshqacha nom bilan ataluvchi, o'zga dinga sig'inuvchi va o'zga cha tilda so'zlashuvchi xalqlar, ularning davlatlari vujudga keldi. Shu tariqa etnogenez va yangi etnoslar shakllanishining murakkab jarayonlari davom etdi. Bu jarayonlarning rag'batlantiruvchi kuchi, yangi etnik birliklarning asosi bo'lib turklar qolaverdi. Shu bois Xitoydan Atlantika okeanigacha bo'lgan katta hududdagi xalqlarning tili, urfodatlar va xarakterida qadimgi turklar ta'siri hamon sezilib turadi.

Qadimgi turklar sivilizatsiyasining chegaralarini etnolingvistik hamda makon va zamon nuqtai nazaridan belgilash biz yuqorida bayon qilgan sivilizatsiyalarnikiga nisbatan ancha murakkab, zero bu qadimgi sivilizatsiyalar ichida nafaqat hududi jihatidan eng kattasi, balki insoniyat tarixida egallagan o'rniga ko'ra ham eng buyuklaridan biridir.

¹ Qarang: Гумилев Л.Н. Древние тюрки. –М.: Айрис-пресс, 2004. –С. 9.

² Qarang: Файзрахманов Г. Древние тюрки в Сибири и Центральной Азии. <http://padabum.com/d.php?id=9651>. –С. 176.

Xett davlati

Tayanch soʻz va iboralar: *savdo koloniyalari, tuliya, pankus, “tosh uylar”, “uchinchi daraja vorislari”, “dengiz xalqlari”, Boʻgʻoz qoya, Yazili qoya, mixxat, xurritlar, Teshub, Telepin, “Xett mam-lakatining 1000 xudosi”.*

Xett davlatining vujudga kelishi, rivoji, buyuk davlatga aylanishi tarixi ikki davriy bosqichdan iborat:

1. Qadimgi Xett saltanati (miloddan avvalgi XVIII - XVI asrlar) davri.

2. Yangi Xett saltanati (miloddan avvalgi XIV - XIII asrlar) davrida Buyuk Xett davlati.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Kichik Osiyoda, qabilalar ittifoqi asosida hududiy jihatdan uncha katta boʻlmagan shahar - davlatlar vujudga keldi. Bu davlatlar safiga Kanes, Kussar (Kushshar), Burusxand (Burushxand), Nesa (Nesha), Xalpa (Zalpuva) va Xattusa (Xattushash) shaharlari kirardi. Bunday shahar - davlatlar shakllanishida Kichik Osiyoda miloddan avvalgi XX - XVIII asrlarda paydo boʻlgan savdo koloniyalari muhim rol oʻynagan. Xalqaro savdo aloqalari shu kabi koloniyalar orqali amalga oshirilar edi. Savdo ishlarida oltin, kumush, qoʻrgʻoshin, mis kabi tabiiy boyliklar asosiy oʻrin tutgan. Xalqaro savdo aloqalari - Kichik Osiyoning iqtisodiy rivojida muhim omil boʻlgan. Shuningdek, bu yerda sudxoʻrlikning turli shakllari mavjud boʻlgan. Shahar-davlatlar shohlar tomonidan boshqarilishiga qaramay, ularning ichki ishlari ozod aholining umumiy majlislarida hal qilingan. Ozod aholi oʻrtasida boy savdogarlar, sudxoʻrlar katta mavqega ega boʻlgan.

Savdo koloniyalari mahalliy qabilalarning xoʻjalik taraqqiyoti uchun keng imkoniyat yaratadi va quldorchilik munosabatlarini yanada yoyilishiga sharoit tugʻdirardi. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar xett jamiyatida tabaqalanish keng quloq yoyishiga zamin yaratdi.

Kichik Osiyoda ilk bor alohida yirik davlat tuzishga intilish miloddan avvalgi XVIII asrning birinchi yarmidan boshlanganini koʻramiz. Kussar shahri hokimi Pitxan (Putxan) qoʻqqisdan tunda Nesa shahriga hujum qilib uni bosib oladi. Pitxanning vorisi shoh Anitta poytaxtni Nesaga koʻchirib, bu yerda istehkomlar, ibodatxonalar barpo etadi. Koʻp oʻtmay, Xalpa shiddatli janglardan soʻng, Xattusa shahrini bosib oladi. Bundan xabar topgan Burusxand shahri hokimi Anittaga

o‘z xohishi bilan taslim bo‘ladi va taxtni topshiradi. Tez orada Kanesh shahri ham Anitta ixtiyoriga o‘tadi. Shunday qilib, Anitta yirik davlat hokimi - shohi bo‘lib qoladi. Tadqiqotchilar bu davlatga Qadimgi Xett saltanati deb nom berganlar (miloddan avvalgi XVIII - XVI asrlar). Bu davlatda urug‘ - qabila tuzumi sarqitlari juda kuchli bo‘lgan.

Xett shohlari davlatda xalq lashkarlariga tayangan holda hukmronlik qilgan. Mamlakatda qurol olib yurish huquqiga ega bo‘lgan barcha shaxslar shoh huzuridagi majlisda ishtirok etganlar. Bu majlis xettlar tilida “pankus” deb atalgan. Zodagonlar, oliy lavozim egalari xalq majlisi faoliyatiga rahbarlik qilar hamda uni boshqarishda faol ishtirok etardilar.

Davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan eng muhim masalalarni hal etishda zodagonlar deb atalgan kengash “tuliya” ga yig‘ilgan. Zodagonlar ichida shoh oilasi a‘zolari, o‘g‘illari, yaqin qarindoshlari alohida o‘rin tutgan.

Qadimgi an‘analarga ko‘ra shohlar shoh oilasi a‘zolaridan, ko‘proq shoh nabiralaridan, xususan, singillarining o‘g‘illaridan saylanardi. Xett saltanatini birlashtirish siyosati Anittaning to‘rtinchi vorisi shoh Labarna (Tabarna) hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 1680 - 1650 yillar) tugallandi.

O‘z qudratiga ishongan Labarna mavjud an‘anani buzib, taxt vorisi etib o‘g‘li Xattusili I (miloddan avvalgi 1650-1620 yillar) ni tayinlaydi. Xattusili I poytaxtni Xattusaga ko‘chiradi. U o‘zidan avvalgi shohlarga xos siyosat yuritib, Shimoliy Suriyaning yirik savdo markazi – Xalpa (Aleppo)ni bosib olishga urinadi. Tarixiy hujjatlarda aytilishicha, shoh salomatligi yomonlashgani sababli zafarli yurishini amalga oshirolmay, o‘z tug‘ilgan shahri – Kussarga qaytib keladi. Xattusili tomonidan taxt vorisini tayinlash shov-shuvga sabab bo‘lib, keskin kurashlarni keltirib chiqaradi. O‘g‘li to‘satdan qazo qilganidan so‘ng, Xattusili qadim an‘analarga amal qilib, o‘z nabirasini taxtga o‘tqizadi. Bu holdan norozi bo‘lgan shoh oilasi a‘zolari o‘rtasida g‘ulg‘ula ko‘tariladi. Ammo pankus shoh tarafini olib, uning qarorini ma‘qullaydi.

Shoh Mursili I davrida (miloddan avvalgi 1620 - 1590 yillarga yaqin) Xett saltanatida mamlakatni markazlashtirish jarayoni kuchayadi. Xattusa mamlakatning yagona poytaxti bo‘lib qoladi. Boshqa yirik shaharlar, hatto Kussar ham ikkinchi darajali shaharga aylanadi. Mursili I Xalpani egallashga muvassar bo‘lib, so‘ng u janubiy-sharqqa

– Bobil tomon yo‘l oladi va miloddan avvalgi 1595 yilda Old Osiyoning bosh markazini osonlik bilan bosib oladi.

Biroq asta-sekin tashqi siyosat yutuqlari ichki ziddiyatlar tufayli barbod bo‘la boshlaydi. Xett zodagonlari shoh hokimiyatining mustahkamlanishini istamas edilar. Ular shoh ko‘p sonli da‘vogarlar orasidan tanlanadigan qadimgi tizimga qaytishni istardilar. O‘zaro kelishmovchiliklar vaqtida Mursili singlisining eri tomonidan o‘ldiriladi. O‘zaro ichki kurashlar bir necha o‘n yillar davom etib, bu hol Xett davlatining siyosiy mavqeiga putur yetkazadi.

Siyosiy beqarorlikka shoh Telepin davrida (1520 - 1490 yillar) chek qo‘yildi. U qabul qilgan farmonga ko‘ra taxt vorisi etib, asosan, shoh farzandi – shahzoda tayinlanar edi. Shohning o‘g‘li bo‘lmagan holda taxtga uning ona tomonidan jiyani o‘tirishi kerak bo‘lgan. Buning ham iloji bo‘lmasa, u vaqtda taxtga shohning “uchinchi daraja vorislari” – kuyovlari da‘vo qilish huquqiga ega bo‘lishgan.

Taxt vorisiga oid bu tartib doimiy bo‘lib qoldi. Shoh doimo o‘g‘il, aka-uka, qarindosh va imtiyozli harbiy vakillarni majlisga – pankusga chaqirib turishi shart edi. Pankusda tuliya hal qiluvchi rol o‘ynagan. Shoh tuliyaning ruxsatisiz oila a‘zolaridan birontasini ham o‘linga hukm qila olmagan. U o‘z oilasini quvg‘in qilish, mol-mulkini musodara qilish huquqiga ega bo‘lmagan.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, Xett davlatida shoh hokimiyati cheklangan. Telepinning o‘limidan so‘ng uning o‘g‘li hukmdorlik qilgan qisqa vaqt ichida Xett davlatida siyosiy beqarorlik boshlanib, taxtni bir necha shahzoda egallaydi. Natijada Xett davlati ancha zaiflashadi. Bu davr O‘rta Xett saltanati (taxminan miloddan avvalgi XV asr) nomini oladi.

Yangi Xett sulolasi davrida Buyuk Xett davlati. Miloddan avvalgi XIV asr boshlarida Xett saltanatining tiklanish davri boshlanadi. Bu tiklanish Xett hukmdorlari ichida eng ko‘zga ko‘ringan, tajribali diplomat, qobiliyatli sarkarda shoh Suppiluliumma nomi bilan chambarchas bog‘liq.

Old Osiyoda qudratli Misr saltanati, Bobil va Mitanni davlatlarining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan qulay xalqaro vaziyatdan Suppiluliumma ustalik bilan foydalanib, Xett saltanatining qudratini yanada oshirishga muvaffaq bo‘ladi.

Xettlar harbiy qo‘shinida ot qo‘shilgan yengil va tezyurar aravalar joriy qilindi. Aravalarda uch jangchi: haydovchi, yoyandoz, qalqon

ko'targan askar joylashib, ular dushmanga qaqshatqich zarba berish imkoniga ega bo'lgan.

Suppiluliumma poytaxt Xattusu va boshqa shaharlar atrofini qal'alar bilan o'rab mustahkamladi. U, avvalo, qo'shinini Arsav shohligiga qarshi qaratdi. Suppiluliumma diplomatiya yo'li bilan o'sha davrning qudratli davlati - Kisvadna ustidan nazorat o'rnatdi. O'z qizini shoh Xayyasiga turmushga berib, Pontiya tog'larining janubiy etaklarida mavqeini mustahkamladi. Bu yerlar metall, jumladan, temirga boy edi.

Bu vaqtda Misrning zaiflashuvidan foydalanib, Suppiluliumma O'rta yer dengizining sharqidagi shohliklarning o'zaro kurashiga faol aralasha boshladi. Xetlar O'rta yer dengizi sohillari, Iordan daryosining dengizga quyilish qismiga qadar kirib bordilar. Suppiluliumma xetlarning eng xavfli dushmani – Mitanni davlatini bo'ysundirdi. Bundan avval u Suriyaning Xalpa, Nuxashshe, Niyu va Karxemish shaharlarini bosib oldi. Karxemish Xett davlatining eng mustahkam va asosiy qal'asiga aylantirildi. Suppiluliumma yordami bilan Mitanni davlati shohi Tushrattining o'g'li Tushratti Mattivaza taxtni egallaydi. Xullas, Suppiluliummaning faoliyati tufayli Xett saltanati qudratli harbiy davlatga aylanadi.

Mursili II hukmdorligi davrida (miloddan avvalgi 1340 yilga yaqin) Xett davlati yanada kuchaydi. Ushbu hukmdor asosiy dushmani – Arsavi podsholigi bilan keskin kurash olib bordi. Ular o'rtasidagi hal qiluvchi jang Janubiy Frigiyadagi Valma shahrida yuz berdi. Jangda Arsavi qo'shinlari mag'lub bo'lib, shoh Arsavi va uning vorisi qo'shni Axxiyava davlatiga qochib ketishadi. Xett qo'shini Apasu shahrini qo'lga olib, Egey dengiziga qadar chiqadi. Arsavi davlati Xett shohiga tobe bo'lib qoldi. Shunday qilib, Kichik Osiyoning yirik qismi xetlar qo'l ostiga o'tadi. Bu – Xett davlati harbiy qudratining eng yuksalgan davri sifatida tarixda qoldi.

Ammo Mursili II hukmronligi yakunida Old Osiyodagi siyosiy vaziyat birmuncha murakkablashdi. Ramzes II davrida Misr o'z harbiy-siyosiy qudratini ancha mustahkamlab, O'rta yer dengizining sharqidagi viloyatlarni qaytarib olish uchun urushlar olib bordi. Old Osiyoda hukmronlik uchun o'sha davrning ikki qudratli davlati - Misr imperiyasi hamda Buyuk Xett saltanati o'rtasida daxshatli janglar boshlandi.

Misr shohi Ramzes II bilan Xett davlati hukmdori Muvatal o'rtasidagi hal qiluvchi jang Oront daryosi sohilidagi Kadesh shahri yaqinida yuz berdi. Bu jangda Ramzes II mag'lubiyatga uchradi.

Ramzes II magʻlubiyatdan tegishli xulosa chiqarib, kuchli qoʻshin tuzadi, shu bilan birga, diplomatiya usullarini ishga soladi va xettlarni Oʻrta yer dengizining sharqiy qismidan siqib chiqaradi. Ana shu davrda Falastin va Suriyada Misr tomoniga oʻtish maqsadida harakat boshlandi. Bu vaqtga kelib, Xett saltanatida ham ichki ahvol ancha murakkablashdi. Muvataldan soʻng taxtni uning ukasi Xattusili III egallaydi, ammo u Misrga qarshi kurasha olmaydi. Buning ustiga, Xett podsholigining janubiy-sharq tarafida Ossuriya yana kuchaya boshlagan edi.

Misr va Xett saltanati oʻrtasida miloddan avvalgi 1296 yilda tuzilgan sulh shartnomasiga binoan, Suriyaning katta qismi va Shimoliy Finikiya xettlar ixtiyoriga, Falastin va Janubiy Finikiya esa, Misr ixtiyoriga oʻtdi. Ikki davlat oʻrtasida savdo aloqalari oʻrnatildi. Xett hukmdorining qizi Ramzes II nikohiga oʻtdi. Xattusili III bilan Ossuriya oʻrtasida toʻqnashuvlar boshlandi.

Miloddan avvalgi XIII asrning oxirlariga kelib “dengiz xalqlari” (Egey dengizi orollari aholisi) nomini olgan qudratli koalisiya vujudga keldi. Ular Old Osiyoga toʻfon kabi yopirildilar. Misr ular hujumini bir amallab qaytargan boʻlsa, Xett davlati ular xurujiga dosh berolmadi. Poytaxt – Xattusa dushman hujumi natijasida taslim boʻldi. Miloddan avvalgi 1190 yilga yaqin Buyuk Xett davlati inqirozga yuz tutdi. Miloddan avvalgi XII - VIII asrlarda omon qolgan kichik-kichik xett davlatlari Ossuriya tomonidan bosib olindi. Natijada, vaqt oʻtishi bilan Xett tili va yozuvi yoʻqolib, ularning nomi butunlay unut boʻldi.

Yangi xettlar saltanati davrida iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar. Yangi xettlar saltanati davrida iqtisodiy, xoʻjalik va ijtimoiy munosabatlarni oʻrganishdagi asosiy manba – oʻsha davrda qabul qilingan qonunlar toʻplamidir. Undan maʼlum boʻlishicha, iqtisodiyot asosini chorvachilik tashkil etgan. Xoʻjalik ishlarida ishchi qoramollar va yuk tashuvchi hoʻkizlarning ahamiyati katta edi. Otlardan, asosan, harbiy maqsadda foydalanilgan.

Xettlarda dehqonchilik ikkinchi oʻrinda turar va u ob-havoga bogʻliq edi. Sunʼiy sugʻorishdan deyarli foydalanishmagan. Xett saltanatida yirik sunʼiy sugʻorish inshootlari juda oz boʻlgan. Dehqonchilikda, koʻpincha, arpa yetishtirilgan boʻlib, baʼzan arpa qiymat meʼyori vazifasini oʻtagan. Arpadan tashqari bugʻdoy navlari yetishtirilgan, shuningdek, bogʻdorchilik, uzumchilik ham bir qadar rivoj topgan.

Kichik Osiyoda Shumer, Akkad va Misrdan farqli o'laroq, xurmo daraxtidan faqat manzarali o'simlik sifatida foydalanilgan, chunki tabiiy sharoitda uning mevasi pishib ulgurmasdi. Shoh mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanib, ularning ma'lum qismi hukmdorning xususiy mulki bo'lgan. Bundan tashqari ibodatxonalar, jamoalarga tegishli hududlar bor edi. Jamoa yerlarining bir qismi amalda xususiy mulkka aylangan.

Hunarmandchilik ancha rivojlanib, qonunlar va boshqa hujjatlarning guvohlik berishicha, Xett davlatida temirchi, duradgor, konchi, kulol va tikuvchilar bo'lgan.

Qurol-aslaha yasashda, asosan misdan, keyinchalik, bronzadan foydalanilgan. Temir, dastlab Kichik Osiyoda topilgan bo'lishiga qaramay, bu davrda xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan. Temirdan, ko'pincha (xaykalcha) diniy urflar maqsadida hamda harbiy qurollar tayyorlanar edi.

Hunarmandlar ichida ozod ishchilardan tashqari qullar ham anchagina bo'lgan. Ko'p hunarmandlar shaxsiy ehtiyojlari maqsadida yoki davlat xizmati uchun xo'jalik ishlari bilan ham shug'ullanganlar.

Yangi Xett davlatida tashqi savdo rivoj topdi. Uning ustidan davlat nazorati o'rnatildi. Oliy hokimiyat keng miqiyosda iqtisodiyotga aralashar edi. Bu yerda diniy-xo'jalik mahkamalari katta rol o'ynagan. Ular odatda "tosh uylar" deb atalib, ular vafot etgan shohlar tomonidan tashkil qilingan. Mahalliy "tosh uylar" markaziy "tosh uylar"ga bo'ysungan. Ularning ixtiyorida ibodatxona xazinalari, oldisotdi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, mirshablar bo'lgan. Rasman bu "tosh uylar" biron-bir ibodatxonaga tegishli bo'lsa-da, amalda podsho yoki uning rafiqasi qaramog'ida edi.

"Tosh uy", nafaqat, ma'muriy-moliya ishlari, balki, qisman, harbiy ishlar bilan ham shug'ullangan. Katta-kichik yer egalariga tegishli yerlar ayrim hollarda sotib olingan va sotilgan. Egasi jinoiy ish qilgan yerlar shoh foydasiga musodara qilingan.

Muqaddas shaharlarning boshida shoh yoki malika turar, bu shaharlar yerlari podsho mulki hisoblangan. Yangi xett davlatida hukmdorlarni ilohiylashtirish yana kuchaydi. Hukmdor mulkiga qasd qilgan odam qattiq jazo olar, "tosh uy"ni buzgan kishi esa, o'linga hukm qilinib, mol-mulki musodara qilingan.

Yangi xett podsholigi davrida jamiyatning tabaqalashuv jarayoni kuchayadi. Qullar, asosan, harbiy asirlar hisobiga ko'paya boshladi.

Shu bilan birga asirga tushganlarning ma'lum qismi xett qo'shinlariga qo'shilgan va ularga yer berilgan. Bosib olingan yerlarning aholisi esa, tom ma'noda qulga aylantirilgan. Qullarning ma'lum qismini qarzdorlar tashkil etgan, ya'ni ocharchilik yillarida "otasi o'g'lini kumushga sotgan" qullar ham bor edi. Qullarning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lib, o'g'rilik qilgan qulning burni yoki qo'li kesilgan. Erkin odamlar kamdan-kam o'limga hukm qilingan.

Oila munosabatlarida patriarxal prinsiplar hukmron bo'lgan. Ayolni urish, jarohat yetkazish yoki garovga berish ma'n etilgan. Onasini xafa qilgan o'g'il uydan haydab yuborilgan. Ota onaga nisbatan ko'proq huquqlarga ega bo'lgan. Qul bilan ozod kishi o'zaro turmush qurishiga ruxsat etilgan. Qulga turmushga chiqqan ozod ayol to'rt yildan so'ng qulga aylanib, undan tug'ilgan farzand ham qul hisoblangan.

Xett madaniyati. Xett madaniyatiga qadimgi Misr va Mesopotamiya sivilizatsiyalari muayyan ta'sir ko'rsatdi. Xettlar mamlakatida xudolar haqida minglab esdaliklar uchraydi. Masalan, momaqaldiroq xudosi Xattusa shahrining oliy himoyachisi hisoblanib, u bir qo'lida chaqmoq, ikkinchi qo'lida oy bolta tutgan holda tasvirlangan.

Xattusada ayol xudo momaqaldiroq xudosining rafiqasi sifatida izzatlangan. Hosildorlik xudolariga e'tiqod keng quloq yoygan. Muqaddas jonivorlar – ho'kiz, sher hamda qushlarga e'tiqod muhim o'rin tutgan. Ba'zan shohlar quyosh xudosiga o'xshatilgan.

Xett yozma manbalari orasida hukmdorlarning o'ziga xos tarjimai hollari saqlanib qolgan. Ular saroy mirza (kotib)lari tomonidan bitilgan. Xett solnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo'lib tasvirlashga harakat qilingan. Arxivlarda miloddan avvalgi XXIII asr oxirida Kutiy shohi Impakruning Aqqodga qilgan yurishi haqidagi tarixiy doston saqlangan.

Xett saltanatida sakkiz mahalliy va chet tillarida so'zlashilgan. Shuning uchun bu yerda uch tilli: shumer - babil - xett lug'atlari mavjud bo'lgan. Shuningdek, ismlarga oid mashhur darslik yozib qoldirilgan. Bu darslik xett tilida yozilib, unda ko'plab qadimgi hind tiliga oid atamalar uchraydi. Xett davlati avvalo harbiy davlat bo'lgani uchun mudofaa, harbiy istehkomlar qurish ishlariga alohida e'tibor berilgan. Shaharlar ikki qatorlik devorlar bilan o'ralgan. Shahar devorlari yirik tosh bloklardan tuzilgan.

Xett haykalchalari, bo'rtma naqshlari xurrit haykalchalarini eslatib turgan.

Qadimgi Xett madaniyati o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, ular haqida arxeologik qazishma ishlari, ayniqsa, Yazili - Qoyadagi bo'rtma rasmlar orqali boy ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Xett ahlining o'nlab xudolari tasvirlangan ushbu rasmlarda xurritlar va bobilliklar san'ati ta'siri ko'rinib turadi.

Bo'g'oz-Qoya yaqinida arxeologlar tomonidan Xett davlati poytaxti – Xattusa shahri qoldiqlari topilgan bo'lib, bu shahar antiqa me'morchilik namunalari bilan ajralib turadi. Shahar bahaybat toshlardan terilgan devori hamda baland minoralari bilan birga mustahkam qal'ani tashkil etgan. Shahardagi qasrlarning devorlari tosh plitalar bilan bezatilgan bo'lib, shahar darvozasi oldida dushmanga vahima solish uchun ikki ulkan sher haykali o'rnatilgan.

Xett davlatida binokorlik ishlarida katta-katta toshlardan foydalanilgan. Mudofaa inshootlari tizimi, saroylarning qurilish rejasi go'zal haykallar bilan bezatilgan. Poydevor ustiga qurilgan o'ziga xos ustunlar xett me'morchiligining Egey va Miken me'morchiligidan andoza olganini ko'rsatadi.

O. Genri o'zining "Xetlar" kitobida turk arxeologlari Aloj – Xyuyukda miloddan avvalgi III ming yillikka mansub bir qancha qabr va ularda saqlanayotgan ajoyib buyumlarni qazib olganlari haqida yoza-di. Bu buyumlar orasida kumush va bronzadan yasalgan turli hayvon haykallari, oltin ko'za, idish va taqinchoqlar bor edi. Jonivorlar haykalchalari ichida eng ko'p uchraydigan - kiyik haykali. Chunki xetliklar kiyikni muqaddas hisoblaganlar.

Xett davlatida yasalgan buyumlarning boshqa o'lkalarda va, aksincha, o'zga yerda ishlangan buyumlarning ushbu qadimgi davlat hududida topilishi Kichik Osiyoda yashagan xett qabilalari bilan Suriya va Shimoliy Mesopotamiyadagi xurritlar, shuningdek, Egey dengizi orollari va Yunonistonning mintaqaviy qismida yashagan egey qabilalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

Xett davlatida Shohlar ilohiylashtirilib, xudoga tenglashtirilgan. Shoh hayot vaqtida davlatni boshqarish bilan birga bosh ruhoniy sifatida eng muhim diniy marosimlarni amalga oshirgan. U o'lganidan keyin ruhiga atab motam-ma'raka marosimi ado etilgan.

Podsho va malikalarning motam marosimlari 13 kun va undan ortiq davom etgan. Motamning birinchi kuni jasad maxsus pechda kuydirilgan. Keyingi kunlari marhumning kuydirilgan xoki yig'ib olinib, maxsus stol ustiga joylangan. Uning atrofiga non, turli pishiriq va

ichimliklar qo'yilgan. Xetlar marhumning ruhi taomlarni iste'mol qiladi, deb ishonganlar.

Shohlar qo'lida quyosh xudosi hassasini tutgan holda tasvirlangan. Yazili - Qoyadagi bo'rtma rasmlarda momaqaldiroq xudosi Teshubning shohni o'z o'g'li kabi quchog'iga olib turgani tasvirlangan. Saroy taomillariga muvofiq Xett shohini "quyoshim" deb atash lozim bo'lgan. Xuddi shu kabi unvonlar Suriya hukmdorlarining miloddan avvalgi XIV asrga oid diplomatik xatlarida uchraydi. Xett davlatida xudo darajasiga ko'tarilgan shohga e'tiqod qilish ana shu tariqa tashkil topgan.

Din va adabiyot. So'nggi vaqtlarga qadar saqlanib kelgan ba'zi bir ibtidoiy xususiyatlar xett dinida mavjud bo'lgan. Matriarxatning qadimgi shakllaridan biri bo'lgan xett dinida hosildorlik kuchlarini o'zida aks ettirgan tabiat onasi – ulug' ma'buda e'tiqodi asosiy o'rin tutadi. Xett san'atida bu ma'buda, odatda, uzun kiyim va silindr shaklidagi bosh kiyimidan parda tushib turgan holda tasvirlangan. Shu bilan birga Xett o'lkalarida tog'lar, tabiat kuchlari – momaqaldiroq, yashin, shu bilan bir vaqtda yog'in tufayli yuzaga keladigan hosildorlik xudosi Teshubga sig'inilgan. Teshub Xett davlati tashkil topayotgan davrda shoh, davlat va shoh homiysi bo'lgan xudoga aylangan. Uni beliga qilich taqqan, chap qo'lida bir tutam yashin, o'ng qo'lida esa jang boltasi ushlagan zo'r jangchi qiyofasida tasvirilaydigan bo'ldilar; bu chaqmoq va yashin xudosining qudratini ifodalagan. Shu bilan birga, biz xett dinida yana bir xudo, ya'ni o'lib, qayta tiriluvchi tabiat xudosi Telepin obrazini uchratamiz. Ushbu xudo, odatda, kalta kiyimda, yoniga xanjar taqqan va ikki tomonli bolta tutgan, soqol – mo'ylovi chiqmagan yosh yigit qiyofasida tasvirlangan. Xett xudolari ko'proq yovvoyi hayvonlar ustida yoki tog' cho'qqilarida tasvirlangan. Bu hol tog'lik xalq va ovchilarga oid dinning o'ziga xos jihatlari ifodalaydi. Xetlar uzoq vaqt oliy davlat xudolari hamda turli mahalliy xudolarga e'tiqod qilib keldilar, bu esa qadimgi urug'chilik tuzumining qoldig'idir. Masalan, Xett davlati bitimlarida oliy xudolar bilan birga "Xett mamlakatining 1000 ta xudosi" tilga olinadi.

Jodugarlik Xett dinidagi ibtidoiy zamondan qolgan sarqitlardan biri bo'lib, uzoq vaqtga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelgan. Haqiqatda, jodugarlik xett adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. Xett davlati qonunlarida yomon niyatli jodugarlik bilan shug'ullanish jinoyat hisoblanib, bunday jodugarlar qattiq jazolangan. Jodudan kasalliklarni haydash, odam a'zolarining ishdan chiqqan a'zolarini qayta tiklash

uchun foydalanilgan. Uning yordamida xetliklar turli falokat va omadsizliklarga qarshi kurashishgan: oilalarda nizolarga barham berish, uylardan yovuz ruhlarni haydash, hosil taqchilligiga yo‘l qo‘ymaslik va h.k. Jodugarlik orqali dushmanga tavqi la‘nat yo‘llanib, do‘stlarga omad tilangan.

Butun xett madaniyati singari, xett adabiyoti ham Ossuriya va Bobilning kuchli ta’siri ostida yuzaga kelgan. Xetliklar Shimoliy Suriya va Shimoliy Mesopotamiya orqali kirib kelgan Bobil mixxat yozuvidan keng foydalanishgan. Xetliklar o‘z yozuvlarini yarata olmaganlar. Ko‘pgina Bobil diniy asarlari xett tiliga tarjima qilingan. Bobil - aqqod tili uzoq vaqt davomida Xett davlatidagi hukmron davlat tili va adabiy til bo‘lib keldi. Biroq zamonlar o‘tishi bilan xett adabiyotida o‘ziga xos mahalliy xususiyatlar paydo bo‘ldi. Ya’ni ba’zi asarlarda muallif nomi keltiriladi. Masalan, kohin Kellning xudolar kurashi haqidagi afsonasi yoki mitannilik Kikkulining yilqi boqarlikka oid asari shular jumlasidandir.

Bo‘g‘oz qoya arxivlarida Gisgimmas haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Bu rivoyatlar matnini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Gisgimmas afsonalari Shumer va Aqqodagi Gilgamesh haqidagi afsonaning aynan o‘zi. Garchi qahramonning ismi xett tiliga moslashtirilganiga qaramay, Gilgamesh va Gisgimmas yagona obraz bo‘lib qolavergan.

Xett davlati tarixi va madaniyati Kichik Osiyoda yashagan xetlar Old Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o‘rtasida vositachi vazifasini o‘taganligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xett madaniyatining o‘ziga xosligi, harbiy monarxiya ehtiyojlariga muvofiqligi bilan ajralib turgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Xett saltanati va Yangi Xett saltanati o‘rtasidagi asosiy farq nimadan iborat edi?
2. Xett madaniyati va uning rivojlanish xususiyatlari haqida nima bilasiz?
3. Xett me’morchiligi qaysi qadimiy davlat me’morchiligiga o‘xshab ketadi?
4. Madaniyatning qaysi sohasida Mesopotamiyaning Xett davlatiga ta’siri kuchliroq bo‘lgan?

Frigiya va Lidiya

Tayanch soʻz va iboralar: *Briglar, "Iliada", Gerdiy, Midas, Kibela, Attis, "mosxlar", "mushklar davlati", meonlar.*

Frigiya - Kichik Osiyoning shimoliy-gʻarbida joylashgan tarixiy viloyat. Frigiya aholisi - frigiyaliklar (Yevropadan koʻchib kelganlar). Miloddan avvalgi II ming yillikda Frigiya gullab-yashnadi va oʻz hududini kengaytirishga erishdi. Gomer "Iliada" sida Frigiya Troyaga yunonlarga qarshi kurashishda yordam bergan, soʻng Troya ustidan oʻz "hukmronligini oʻrnatdi" deb yozilgan.

Miloddan avvalgi XII asrda Frigiya Xett davlati qulashida katta rol oʻynadi va uning katta qismini oʻziga qoʻshib oldi. Shu asr oxirida esa Frigiya Ossuriya bilan toʻqnash keldi. Tiglatpalasar I yozuvlarida Frigiya "mushklar davlati" deb tilga olinadi (yunoncha "mosxlar").

Miloddan avvalgi X - VIII asrda Frigiya poytaxti Gordion shahri boʻlgan.

Miloddan avvalgi IX asrda Frigiya Egey dengizida oʻz hukmronligini oʻrnatdi. Miloddan avvalgi VIII asrda esa Frigiyaning xalqaro mavqei biroz yomonlashdi. Uning shimoliy va shimoliy-gʻarbiy hududlarini Yevropadan koʻchib kelayotgan yangi xalqlar egallay boshlashdi, Sharqda esa Ossuriya bilan toʻqnashuvlar koʻpaydi.

Frigiya shohi Midas (ossuriyacha - Mita) miloddan avvalgi 717 yilda Urartu bilan ittifoq tuzadi, lekin 713 yili Ossuriyadan bir necha marta magʻlubiyatga uchragandan keyin Sargon II bilan shartnoma tuzadi va gʻolibga boj toʻlashga majbur boʻladi. Frigiyaga kimmer qabilalari ham xavf solar, miloddan avvalgi VII asrning 70 - yillarida ular Frigiyaning ancha qismini bosib olgan edilar.

Gerodot soʻziga koʻra frigiyaliklar Yevropada yashagan paytlarida oʻzlarini briglar deb atashgan. Osiyoga koʻchib kelganlaridan keyin esa oʻz nomlarini frigiyaliklarga oʻzgartirganlar. Yozuv va ismlarga asoslangan holda aytish mumkinki, frigiyaliklar tili hind-evropa tillari turkumiga kirgan va yunon tili bilan bogʻliq.

Xett davlati bilan bevosita aloqadagi mahalliy aholi bilan yaqin frigiyaliklar tez orada Old Osiyoning qadimgi jamoalariga xos boʻlgan sivilizatsiya darajasiga yetib oldilar. Arxeologik manbalarga asoslangan holda aytish mumkinki, dehqonchilik Frigiya jamoasining iqtisodiy asosi boʻlgan. Frigiyaning hududi boʻylab koʻplab istehkomlar qurilgan edi.

Frigiyada qazishlar paytida topilgan sopol idishlar oʻtgan davrdagi hunarmandchilik anʼanalarining taraqqiyot darajasini koʻrsatadi.

Unda Xett davlati, Kichik Osiyo va hatto Kipr kulolchiligining namularini ko‘rish mumkin.

Shoh va amaldorlar qo‘rg‘onlarda dafn qilinib, hunarmandchilik taraqqiy etishi tufayli tosh maqbaralar qurila boshlandi.

G‘arbiy sohildagi yunon shahar-davlatlari bilan Frigiya savdo aloqalarini o‘rnatgan bo‘lib, bu yunon va frigiya jamiyatlari madaniyati yaqinlashuviga olib kelgan. Ossuriya va yunon manbalarida faqat ikki Frigiya podshosi – Gordiya va Midas ismi keltiriladi. Ayrim mutaxassislar bu ismlar emas, balki shohlik amallari nomi deb xisoblashadi.

Frigiyaliklar dehqonchilik, chorvachilik bilan, shuningdek marmar qazib olish, oltin konlarini o‘zlashtirish, junni qayta ishlash bilan shug‘ullanishgan. Savdo-sotiq ishlari ko‘proq yunonlar va rimliklar bilan olib borilgan. Frigiyaliklar asosan qishloq joylarda yashashgan, lekin bir necha Gordion, Kelena, Kotiy kabi katta shaharlar ham bo‘lgan.

Frigiya madaniyatining Egey dengizi atrofida yashaydigan xalqlar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan o‘xshash tomonlarini ko‘rish mumkin. Qadimgi Frigiya alifbosi yunon alifbosining bir varianti bo‘lib, Frigiya va Yunoniston madaniyatining yaqin aloqalarini ko‘rsatadi. Kadimgi Yunon afsonalarida Frigiya shohi Midasga katta o‘rin berilgan. Ularga ko‘ra shoh qo‘li tekkan narsa oltinga aylangan.

Sakarya (Sangariy) daryosi vohasida topilgan qadimgi Frigiya yozuvlari, shuningdek G‘arbiy Kichik Osiyo va Kappadokiya shaharlaridan ham topilgan. Bularning bari, Frigiya davlati gullagan davrida uning chegaralari g‘arb va sharqqa tomon keng hududlarni egallaganligini ko‘rsatadi. Yunon madaniyati Frigiyaga Germa vohasi orqali kirib kelgan. Shu yo‘l bilan Frigiya madaniyati o‘z ta‘sirini Kichik Osiyoning g‘arbiy sohilidagi yunon aholisiga o‘tkazgan. Frigiya musiqasi yunonlar tomonidan qabul qilinib, qadimgi yunon madaniyatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VIII asrda paydo bo‘lgan frigiya yozuvi alifboli bo‘lib, yunon alifbosi bilan o‘xshash joylari bor edi. Ayrim harflarning ma‘nosi hali to‘liq o‘rganilmagan.

Shuningdek miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi qadimgi Frigiya yozuvi Tiana, Likaoniya va Kichik Osiyoning boshqa o‘lkalaridan topilgan. Bu esa Frigiya kimmeriyalar bosqiniga qadar egallagan hududni aniqlashga yordam beradi. Milodiy I asrlarga oid yangi Frigiya yozuvi asosan yunon harflaridan tarkib topgan.

Frigiyaliklarning dini Kibela xudosi, uning yori, o'lib, qayta tiriladigan xudo Attisaga e'tiqod qilish keng tarqalishi bilan ajralib turadi. Keyinchalik bu e'tiqod Yunoniston va Rimda ham keng tarqalib ketdi.

Frigiya adabiyoti mavjud bo'lganligini faqat antik mualliflarning qisqa ma'lumotlari orqali bilib olish mumkin. Yunon an'analari Gomer-gacha yashagan va frigiyalik yoki troyalik "Iliada"ni yozgan frigiyalik Dares, matalchi Ezop, faylasuf – ateist Diogen haqida ma'lumotlarni saqlab qolgan. Bir qator yunon rivoyatlari va afsonalarining qahramonlari (Tantal, Pelops, Niobse, Marsiy) frigiyalik bo'lganlar. Shohlar Gordiya va Midas haqidagi afsonalar ham keng tarqalgan. Bularning barchasi frigiyaliklar va yunonlar madaniyati va ma'naviyati o'zaro yaqinligini ko'rsatadi.

Frigiya musiqasi va cholg'u asboblari Sharq va G'arbda ham mashhur bo'lib, yunon musiqa shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishida katta o'rin tutgan.

Uylar, maqbaralar, ibodatxonalarning qoyalarda qurilganligi Frigiya me'morchiligining o'ziga xos xususiyati edi. Bunga misol qilib, "Midas maqbarasi" ni (miloddan avvalgi VIII asr Yazil - qoya) keltirish mumkin. Frigiyaliklar inshootlarida yunon, xett me'morchiligi ta'sirini ko'rish mumkin. Shuningdek, Frigiya kulolchiligida ham xett va kiprliklar ta'siri nomoyon bo'ladi.

Lidiya. Frigiyaning boy madaniyati Kichik Osiyoning g'arbidagi Germa daryosi vohasida istiqomat qilgan qabilalarga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Ushbu voha Frigiya davlati hududida joylashgan bo'lishi ham mumkin. Uning markaziy qismi Midiya tilida Sfarm, yunoncha - Saru deb nomlangan. Miloddan avvalgi VII asrda Germa vodiysi aholisini ossuriyaliklar va yunonlar avval meonlar, so'ng lidiyaliklar deb ataganlar. Lidiyaliklar tili xetlar tiliga o'xshagan bo'lishi mumkin.

Yunonlarning dalolat berishicha, Germa daryosi vodiysi "jannatmakon" yurt edi. U dehqonchilik va bog'dorchilik uchun qulay va sun'iy sug'orishga xojat bo'lmagan. Bu yerda oltin konlari ham bor edi. Lidiyada hunarmandchilik yuqori rivojlanganligini oltin, tosh va fil suyaklaridan yasalgan buyumlardan bilib olsa bo'ladi.

Zargarlikdan tashqari Lidiyada to'qimachilik va terini qayta ishlash ham ravnaq topgan. Hunarmandchilikning rivoji uchun turli xom ashyo talab etilgan. Lidiya o'z xom ashyo bazasiga ega bo'lmaganligi sababli xom ashyo qo'shni davlatlardan olib kelingan. Bu o'z navbatida savdo-sotiqning ham rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Lidiyaning savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashuvi ham bu sohaning mamlakat hayotida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Yunonlarning tarixiy an‘analariga ko‘ra tarixda birinchi bo‘lib lidiyaliklar tangalar zarb qilgan. Gerodot ham buni ta’kidlab “lidiyaliklar juda ko‘p tangalarga ega” deb yozadi.

Germa vodiysini egallagan Frigiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi hamda sinfiy munosabatlar ta’sirida Lidiyada quldorlik tuzumi kuchayib bordi.

Lidiya kuchli harbiy qo‘shinga ega bo‘lib, uning asosini piyodalar emas, balki uzun nayza bilan qurollangan otliqlar tashkil qilgan. Ular asosan zodagonlar, yirik va o‘rta hol quldorlardan yig‘ilar edi.

Lidiya tarixida bizga ma’lum bo‘lgan dastlabki voqealar kimmer va frakiya qabilalari bosqini (miloddan avvalgi VII asr boshlari) hamda buning natijasida ro‘y bergan sulolalar almashuvi edi. Miloddan avvalgi 692 yil yangi sulolaning birinchi shohi Giges (Guggu) taxtga o‘tirdi. Ossuriya yordamiga tayangan holda u miloddan avvalgi 665 yilda bostirib kelgan kimmeriyliklarni mamlakatdan haydab chiqaradi va ularni sharqqa chekinishga majbur qiladi. Keyinchalik Giges Misr shohi Psammetix I bilan aloqa o‘rnatdi. Misr shohi Giges yordamida Ossuriya istilosidan ozod bo‘lish maqsadida unga yordam berish uchun qo‘shin jo‘natadi.

Tez orada Lidiya yana kimmeriyalar bosqini qurboni bo‘ladi. Miloddan avvalgi 654 yilda Giges jang maydonida halok bo‘ladi va bosqinchilar mamlakatning katta qismi, hatto Sardni ham bosib olishga erishadilar. Ko‘p yillik kurash natijasida Gigesning o‘g‘li Ardis (miloddan avvalgi 654 - 505 yillar) kimmeriyalarni Lidiyadan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi.

Mamlakat bosqinchilardan ozod qilinganidan so‘ng, Ardis Kichik Osiyoning g‘arbiy dengiz bo‘yida joylashgan yunon shahar-davlatlarini bosib ola boshladi. Ardis sohilning markaziy qismida, yirik yunon shahri Milet va Priena shahrini istilo qiladi. Lekin Miletga qarshi harbiy yurishlarda u muvaffaqiyatga erisha olmaydi va keyinchalik bu ishni uning o‘g‘li va nabirasi davom ettiradi. Ichki kurash va nizolar ushbu shahar-davlatlarining tez taslim bo‘lishiga yana bir sabab bo‘ldi. Lidiya shohlari bundan foydalanib, bu shaharlarni osonlikcha bosib olar, aksincha, sharoiti barqaror shaharlarda qattiq qarshilikka duch kelar edilar.

Ardis nabirasi Aliatt hukmronligi davrida sharqda yana bir xavf – Midiya davlati paydo bo‘ldi. Midiya davlati shoh Kiaksar davri – miloddan avvalgi 615 - 605 yillarda Ossuriya davlatini yakson qiladi va Urartuni egallagach, so‘ng Kichik Osiyoni istilo etishga kirishadi.

Miloddan avvalgi 591 yilda Lidiya va Midiya davlatlari o‘rtasida olti yil davom etgan urush boshlandi. Bu urush miloddan avvalgi 585 yil 28 mayda Galis daryosi bo‘yida yakunlandi. Miletlik faylasuf Falesning aytishicha, shu kuni Quyosh tutilishi sodir bo‘lgan. Gerodot “Kun birpasda tunga aylandi” deb yozadi. Bu voqea kurashayotganlarga kuchli ta’sir qilib, afsonada aytilishicha, ular bobilliklar yordamida tinchlik tuzishga shoshilishgan. Ushbu shartnomaga ko‘ra Galis daryosi Midiya va Lidiya o‘rtasidagi chegara qilib belgilangan. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida Aliatt o‘z qizini Midiya shohi Kiaksarning o‘g‘li Astiagga beradi. Miloddan avvalgi 585 yil esa Astiag otasining o‘rnini egallab Midiya taxtiga o‘tiradi.

Shunday qilib, sharqda Midiya davlati bilan birgalikda o‘z mavqeyini mustahkamlagan Aliatt yunon shahar-davlatlariga qarshi bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyodagi qabilalarni (paflagon, vifin, kariy va boshqalar) ham bo‘ysundirish niyatida edi.

Astiagning o‘g‘li Krez (miloddan avvalgi 560 - 546 yillar) oxir-oqibat Kichik Osiyo yunonlarini o‘ziga tobe qilib, ularni Lidiyaga boj to‘lashga majbur qildi. Natijada Krez Kichik Osiyoning likiyalik va kilikiyaliklar yashaydigan joylaridan boshqa barcha hududlarning yagona hokimiga aylandi. Lidiyaning Kichik Osiyodagi yunon shaharlari bilan munosabatlari madaniyatning o‘zaro mushtaraklashuvi va boyishiga sabab bo‘ldi. Lidiyaliklar ham frigiyaliklar kabi yunon alifbosini o‘rganib, o‘zlarida tatbiq etishdi. Mamlakatda yunon tili keng miqiyosda o‘rgana boshlandi.

Lidiya shohlari Gigesdan boshlab o‘z yunon qo‘shinlariga, so‘ng esa xalqiga ta’sir o‘tkazish maqsadida yunon ibodatxonalariga qimmatbaho sovg‘alar yo‘llar va ularning yordamiga suyanar edi.

Miloddan avvalgi 550 yil Krez Lidiya davlatiga qarashli Midiyani bosib olgan Eron shohi Kirga qarshi urush ochdi. Lidiya kuchli otliq qo‘shiniga ega bo‘lishiga qaramay, miloddan avvalgi 547 yil bu urushda mag‘lubiyatga uchradi. Fors qo‘shinlari hech qanday qarshilikka uchramay avval Sardni, so‘ng yunon shaharlarini ham egallashdi. Shu davrdan boshlab Kichik Osiyo Axamoniylar davlati tarkibiga kiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Frigiyaning tashqi siyosatidagi rolining pasayishiga qanday omillar sabab bo'ldi?
2. Lidiya mavqei va iqtisodining yuksalish sabablari nimada?

Forslarning Kichik Osiyoga yurishi

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida paydo bo'lgan va miloddan avvalgi VI asrning II yarmida barcha Yaqin Sharq davlatlarini zabt etgan Eron shohi Doro I miloddan avvalgi VI asrning oxirlarida, o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Bu hukmdor davrida bu ulkan davlatni idora qilish tizimi tashkil etilib, qo'shinlar harakatlanadigan strategik va savdo yo'llari takomillashtirilgan, qaram qilingan qabila va xalqlardan olingan xirojlar Eron poytaxtiga keltirilgan. Forslar hukmronligi ostidagi viloyatlardan doimiy sur'atda katta xiroj undirilishi natijasida mazkur viloyatlar asta – sekin inqirozga yuz tutgan. Shu sababli, Eron davlati yangi hududlarni egallashga kirishadi. Yangi yerlarni istilo qilish va Eron davlatini kengaytirish siyosati butun davlat va ijtimoiy-iqtisodiy tabiiy natijalar bo'lgan. Miloddan avvalgi VI asrdayoq forslar Kichik Osiyoning Egey dengizi bo'yidagi boy yunon polislarini zabt etib, so'ng Kichik Osiyoning ayrim orollari va Egey dengizining shimolidagi yunon koloniyalarini bo'ysindirib olganlar. Bu istilolar jarayonida forslar Marmar va Qora dengizlarning Yevropa qirg'oqlarida yashovchi frakiyaliklar va skiflarning jangari qabilalariga qarshi kurashganlar.

Doro I Eron davlatiga xos istilochilik siyosatini davom ettirib, Kichik Osiyodagi yunonlarning boy shaharlari ustidan hukmronligini mustahkamlash maqsadida miloddan avvalgi 513 yilda Frakiya orqali Shimoliy Qora dengizning shimoliy qismiga – skiflarga qarshi yurish boshlaganlar. Turli qabilalardan iborat Doro I qo'shini tarkibida Kichik Osiyo yunonlarining harbiy bo'linmalari hamda Gelespont hamda Qora dengizning Yevropa qirg'og'idagi forslarga qaram bo'lgan yunon shaharlari aholisidan tuzilgan otryadlar ham bo'lgan. Eron qo'shini tarkibida muhandislik qismlari bo'lib, ularda tajribali yunon olimlari xizmat qilib, ularning yordami bilan Bosfor orqali va Dunay daryosi orqali panton ko'priklari qurilgan.

Qora dengiz bo'ylarining shimoliy qismi tabiiy sharoiti to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmagan Doro I qo'shinlari skiflarning asosiy kuchlarini tor-mor qilishga intilib, bepayon sahroda qolib ketadilar.

Ko'chmanchi skiflar forslarning bosqiniga qarshi kurashda eng maqsadga muvofiq taktika qo'llaganlar. Ular qat'iy jangdan voz kechib, Eron qo'shini yo'llaridagi quduqlar va oziq-ovqatlarni yo'q qilganlar. Forslarning asosiy kuchlaridan ajrab qolgan kichik otryadlarga hujum qilib muvaffaqiyatsizliklardan so'ng yurishni to'xtatishgan va ortga qaytishgan. Lekin bu yurish natijasida forslar Vizantiya va Bolqon yarim orolining butun sharqiy qismini egallaganlar. Makedoniya forslar oliy hokimiyatini tan olgan. Eron davlatining chegaralari Gretsiyaga yaqinlashib qoldi. Forslar Egey dengizini Qora dengiz bilan bog'lab turgan bo'g'ozlarni egallab, Gretsiyaning Qora dengiz bilan aloqa yo'llarini to'sganlar. Biroz ilgari Misrni zabt etgan forslar greklarning Navkratis bilan savdo aloqalarini ham izdan chiqardilar. Shimoliy Qora dengiz bo'yi va Misrdan Gretsiyaga g'alla va boshqa tovarlar kelib turar edi. Forslar Gretsiyaning raqibi finikiyaliklarning dengiz savdosiga homiylik qilganlar.

Kichik Osiyodagi etno-madaniy jarayonlar

Turkiya Osiyoning g'arbiy qismi va Yevropaning janubi-sharqiy qismida joylashgan davlat. Turkiy qabilalar dastlab Vizantiya imperiyasining Kichik Osiyodagi viloyatlariga melodiy IV asrdayoq kirib kelganlar.

Kichik Osiyo hududi qisman yoki butunlay qadimgi va ilk o'rta asrlardagi davlatlar (Xett podsholigi, Lidiya, Midiya, Ahamoniylar davlati, Aleksandr Makedonskiy imperiyasi, Salavkiylar davlati, Pont podsholigi, Rim, Vizantiya, Konya sultonligi) va boshqalar tarkibida bo'lgan.

Turk tarixining etnik-madaniy manbalari chuqur ildizlarga ega. Turkiyaning yerlarida xett, frigiya, imidiy, yunon, arman, ossuriylar kabi qadimgi xalqlar yashagan edi. Fors va rimliklar bu yerda o'z mustamlakalarini o'rnatishdi. Bu hududga Kir, Makedonskiy, Rim sezarlari, Yunon Vizantiyasi imepriyalari o'z hukmronligini o'tkazgan.

Turk tarixi o'zidan-o'zi boshlanmaydi, turkiy xalq shakllangan hududlardagi turklardan oldingi Anatoliya va Balqon sivilizatsiyasining ko'plab yutuqlari ko'chmanchi turklar tomonidan o'zlashtirilgan edi.

Oldin Suljuqiylar yashagan hududlarning yuragi bo'lgan, keyin esa Usmoniy turklar davlatining ajralmas qismiga aylangan zaminlar hozir Osiyo va Yevropa tutashadigan joyda joylashgan. Bu – Anatoliya yerlaridir. Bolqon yarimorolidan uni Qora dengiz bo'g'ozlari – Bosfor va Dardanell, hamda Marmar dengizi ajratib turadi. Marmardan tashqari,

uning qirg'ochlari shimoldan Qora, g'arbdan Egey hamda janubdan O'rta yer dengizi suvlari bilan yuvilib turadi. "Anatoliya" so'zi grekcha "Anatoli" bo'lib "Quyosh chiqishi" yoki "Sharq" degan manolarni berishi mumkin. Bunday nomni unga greklar berishgan, ya'ni ular qadimgi Kichik Osiyoning o'rtasida joylashgan keng o'lkani shunday deb atashardi. Turk tilida esa bu "Anadolu" deyiladi.

Anatoliya hozirgi Turkiyaning 97% maydonini egallaydi. Qolgan 3% esa Yevropa hududida joylashgan bo'lib, Bolqon yarimorolining bir chetini egallab turadi. Buni Yevropa Turkiyasi, sharqiy Frakiya yoki sharqiy Rumeliya deb ataymiz. XV asr – XX asr boshlarida Usmoniy imperiyasi Osiyoning va Yevropaning katta qismiga egalik qilgan hamda Afrikada ham yerlari bo'lgan. Anatoliyadan tashqari Usmoniy imperiyasi Gretsiya, Bolgariya, Serbiya, Dalmatsiya, Bosniya va Gertsogovina, Vengriya, Transilvaniya, Albaniya, Makedoniya, Frakiya, Moldaviya, Valaxiya, Podoliya, Qora dengizning shimoliy qirg'og'idan boshlab Kubanning sharqiy qirg'og'igacha, Azov, Qirim, janubiy Gruziya, Armanistonning bir qismi va Kudriston, Siriya, Livan, Palastin, Mesopotamiya, Arabiston, Tripolitaniya va Kirenaika, Jazoir, Tunis, Misr, Krit va Kipr orollariga ham egalik qilgan. Ammo, bazi bir Bolqon yerlarini hisobga olmaganda, turklarning mustamlakachiligi katta ko'chmanchilik deb hisoblanmagan. Bu ko'chish turk garnizonlari hamda sulton vassallari bilan chegaralangan. Shundan xulosa qilish mumkinki, Turk xalqining paydo bo'lishi ba rivoji Anatoliyadan boshlangan.

Anatoliya – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini tutashtirib turuvchi ko'prik hisoblanadi. Bunday hol doim iqtisodiy va madaniy boyliklarning foydasiga ishlagan. Bu yerlar sharq va g'arbning aloqalarini bo'glab turadigan vosita bo'lib xizmat qilgan. Aytish mumkinki, qadimiy va o'rta asrlarning Xett qirolligi, Vizantiya imperiyasi, Kichik Osiyoning Saljuqiylar davlati va Usmoniylar imperiyasining rivoj topishi Anatoliyaga juda ham qattiq bog'langan. XVI asrning o'rtalaridagi buyuk geografik topilmalardan, xususan Hindistonga suv yo'li ochilganidan hamda Yevropadan Osiyoga yangi savdo yo'llari barpo etilgandan so'nggina Anatoliya dunyoviy savdo sotiqa o'z o'rini yo'qota boshladi. Bu esa turk davlatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan boshqa G'arb davlatlaridan ortda qolishiga ta'sir qilmay qolmadi. Anatoliya geografik bo'laklarga bo'linadi, jumladan: Kichik Osiyo yarimoroli (Anatoliya yarimoroli), Siriya-Mesopotamiya platosi

deb atalgan g'arbiy qirg'og'i va Arman-Kurd tog'li hududlari. (Oxirgi nom bilan atalgan o'lkada mahalliy aholisining katta qismi arman va kurdlardan tashkil topgani uchun qadimiy geograflar tomonidan shunday atalgan). Turkiyada bu tog'li o'lkani Sharqiy-Anatoliya tog'lari deb atashadi. Eng qadimgi va an'anaviy nom bu Arman tog'laridir. Aytib o'tish o'rinliki, Anatoliya va Kichik Osiyo bu geografik sinonimlar bo'lib, boshqa davlatlarda uni Osiyo Turkiyasi deb atashga o'rganishgan.

Kichik Osiyo, boshqacha qilib aytganda Anatoliya yarimoroli o'rtasida janubiy tarafidan Tavra tog' tizmasi bilan, shimoldan esa Pont tog'lari bilan xoshiyalangan O'rta Anatoliya tepaligi ko'rinib turadi. To'glar zanjirga o'xshab keng yoyilgan va ularning kesilgan joylari kamligi uchun qulay bandargohlarni topish juda mushkul. Ammo, Egey qirg'oqlari navigatsiya uchun juda ham qulay: bu yerda dengiz cheksiz bo'g'ozlarga ega bo'lib ular g'arbiy va o'rta Anatoliyaning ichki hududlari bilan yaxshi tutashgan. Kichik Osiyoning g'arbidagi chiroyli va tabiiy portlarning ko'pligi qadimiy greklar uchun Anatoliyaga ko'chib o'tish ishlarini ancha yengillashtirgan. Anatoliyaning sharqida joylashgan Arman-kudr tog'liklari baland plato, to'g tizmalari, dengiz sathidan 4000-5000 metr balandlikda joylashgan tepaliklar, tog' daralari va chuqurliklarni o'z ichiga oladi. Tog'likdan janubroqda Suriya-Mesopotamiya platosining turklarga qarashli qismi, dengiz sathidan 500 metrlar ko'tarilgan tekislik va balandliklar bor.

Osiyo Turkiyasi o'zining ob-havosining rang-barangligi bilan boshqa joylardan ajralib turadi. Bu birinchi o'rinda davlatning relief-lari bilan bo'qliqdir. Anatoliyaning g'arbidagi ob-havoni eslatib yuboradigan o'rta dengizning yumshoq va issiq havosi uning markazida tubdan kontinental (issiq, quruq) iqlimga aylanadi. Qora, Marmar, Egey hamda O'rta yer dengizi sohillarida esa subtropik iqlimli vohalar mavjud.

Markaziy Anatoliyadagi yassi tog'liklar yaylov chorvachiligi uchun yaratilgan ajoyib imkoniyatlar bilan birgalikda, Osiyo Turkiyasida dehqonchilikni har-xil turlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyatlar ko'p. Bular ichida: tuprog'i unumdor va yaxshi sug'oriladigan va odatda sun'iy yo'l bilan sug'orilib turishi kerak bo'lgan yerlar bor. Bunday sharoitlarning turli tumanligi Anatoliyaga ko'chib o'tgan ko'chmanchi turk qabilalari uchun mahalliy aholi ancha vaqtdan beri shug'ullanib kelayotgan xo'jalikning tayanchi bo'lgan chorvachilikni ancha

vaqtgacha saqlab qolishga yordam berdi. Hamda ular yangi dehqonchilik sirlaridan asta-asta bohabar bo'la boshlashdi. Anatoliyaning to'g'li tumanlari metal qazilmalarga juda ham boy bo'lib, mis va temir konlarini o'zlashtirishga imkoniyat yaratgan.

Anatoliyaning ko'p hududlari relyefi bir-biriga xabar yuborish yoki bitta joydan ikkinchi joyga ko'chib otishga unchalik ham qulay emas. Ayniqsa mamlakatning sharqida yetib borish qiyin bo'lgan joylar anchagina. Boshqa joylar bilan aloqa faqatgina to'g daralaridan, dengizdan va dovonlar orqali saqlab turilgan. Arman-kurd tog'liklarida ham yetib borish mushkul bo'lgan hududlar tog'lar bilan o'ralgan. Hozirgi kunda bu yerda yashayotgan kurdlar mamlakatning boshqa hududlari bilan arang aloqa qilishadi. Sharqiy Anatoliyaning bunday yakkalanib qolgani etnik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi: aynan shu yerda zich va ko'p sonli turli etnik jamiyatlari saqlanib qolib, boshqa turk aholi bilan chatishmagan – armanilar, aysorlar va kurdlar, laz va gruzinlar to'liqligicha o'z jamiyatini saqlab qolishgan. Anatoliya yerlari bu qadimiy madaniyatning bitmas tuganmas yodgorliklari xazinasidir, huddi yirik butun jahon qadimiy yodgorliklar muzeyiga o'xshaydi. Arxeologlar odamzotga o'tgan davrning tengi yo'q ijod namunalari qaytarib berishgan, ammo ularning qanchadan-qanchasi hali ham ko'zdan yashiringan. Butun Anatoliya bo'ylab qadimiy va mashhur shaharlar vayronaga aylanib qolib ketgan. Shu yerda, aynan Turkiya hududlarida eski Troya mamlakatining vayronalari yotadi.

Ammo Anatoliya o'tmishi antiklikdan ham ko'ra uzoqroqqa – asrlar tubiga borib taqaladi. Yuz yillik o'lchov u uchun yetarli emas, uni ming yilliklar bilangina o'lchash mumkin.

Insoniyat ushbu rohatbaxsh maskanga qadimgi tosh asri – paleolit davrlaridanoq o'rnasha boshlagan edi. Taxminan 10 ming yil avval bu yerda anchayin yuqori madaniyatga ega jamiyat hayot kechirgan doimiy manzilgohlar paydo bo'lgan. Anatoliya dashtlarida asosan tekis va doirasimon shakldagi past tepaliklarni tez-tez uchratish mumkin. Ular o'sha maydonning bir markazini anglatgan tarzda tekis kengliklarda yastanib yotadi. Bu esa tabiatdagi inson tomonidan – ibtidoiy odam tomonidan vujudga keltirilgan ilk o'zgarishdir. Mazkur balandliklar Anatoliyada “xyoyuk” deb ataladi. Bular boshqa mamlakatlarda ham uchraydi. Eron va O'rta Osiyoda ularni “tepa” yoki “tyube” deb ataydilar, Suriya, Falastin va Mesopotomiyada

“tell”, Bolqonda “turar joy tepaligi” deb ataladi. Bularning barchasi – asrlar davomida bir joyning o‘zida bir-birining o‘rnini almashib turgan ko‘plab manzilgohlardan paydo bo‘lgan bir qatlamdir. Loydan ko‘tarilgan burungi shaharning xarobalari yangi binokorlikning asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Anatoliya janubidagi bunday tepaliklardan biri – Chatal-xyoyukni ingliz arxeologi Jeyms Melaart qazib ochdi. Ushbu tepalikning eng ostki qatlamida miloddan avvalgi VII ming yillikka tegishli shahar mavjud bo‘lgani aniqlandi. Melaartning kashfiyotiga qadar Falastindagi Iyerixongina bundayin qadimiy yosh bilan maqtana olar edi. Ovul atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, ichkariga darvoza orqali kirilgan. Loydan qurilgan turar joylar Kavkaz ovullari kabi bir-biriga zich qilib ko‘tarilgan. Ularda eshik bo‘lmagan, uy ichiga tomdan ochilgan tuynik orqali yog‘och narvonlar yordamida kirilgan. Loydan yasalgan supachalar stol, so‘ri va o‘rindiqlar vazifasini bajargan. Ularning ostiga vafot etganlarni ko‘mganlar. Arxeologlar odam bosh chanoqlari hamda suyaklarini topishgan. Chatal-xyoyuk aholisi ziroatchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar: arpa, bug‘doy va no‘xat yetishtirganlar; qo‘y, echki, sigir va cho‘chqa boqib ko‘paytirganlar. Bu haqda qazilmalar paytida topilgan don va hayvon suyaklari qoldiqlari so‘zlaydi. Chatal-xyoyukda san’at asarlari ham topilgan. Ularning yoshi 90 asrga teng. Devorga solingan suratlarda jonivorlar tasvirlangan. Loy, ganch va toshdan yo‘nilgan ayol shaklidagi haykalchalar hosildorlik ma’budalariga bag‘ishlangan. Kichik Osiyodagi ayol ma’budalar – Kibel, Ishtar, Ma, Efes Artemidasiga bo‘lgan hurmat manbasi mana qaerdan. Ziroatchilik homiylariga, ayol urug‘ boshilariga sajda qilish matriarxat davrida rasm bo‘lgan, Chatal-xyoyukning pastki qatlamlari esa aynan mana shu davrga daxldordir.

Anatoliyaning janubida yana bir tepalik - Xajilar qazib ochildi. Uning yoshi va madaniyati Chatal-xyoyukniki bilan aynan bir xil. Ikkala kashfiyot ham shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Anatoliya sayyora-mizda insoniyatning ilk bor doimiy qarorogohi paydo bo‘lgan, o‘troq ziroatchilik hamda chorvachilik vujudga kelgan, ya’ni insoniyat tarixidagi ilk taraqqiyotlardan biri – neolit sodir bo‘lgan manzilga daxldor. Bu yangi tosh asri madaniyati va iqtisodiyotida ulkan burilish yasadiki, bunda insoniyat xo‘jalik yuritishdan ishlab chiqarishga, yovvoyi mevalarni to‘plash va hayvonlarni ov qilishdan o‘simliklarni

madaniylashtirib o‘stirish va uy hayvonlarini boqib ko‘paytirishga o‘tgan edi. Kichik Osiyo shu hududning, ya’ni Bolqon yarimoroli va Eron tepaliklari o‘rtasidagi hududning deyarli markazi bo‘lgan. Aynan Janubiy Anatoliyada neolit inqilobining ilk o‘chog‘i bo‘lgani ehtimoldan uzoq emas. Buyuk biolog N.I. Vavilovning safdoshi hisoblanmish P.M.Jukovskiy Kichik Osiyoni ko‘pgina madaniy o‘simliklarning birlamchi vatani deb hisoblaydi.

Yangi tosh asrining arxeologik topilmalari esa tilsiz. Ular ushbu davrning madaniy va xo‘jalik yutuqlarini chechanlik bilan namoyish etadilar, ammo neolit odamlari qaysi tilda gaplashganini aytib bera olmaydilar.

Bizga esa Ivan Buninning:

Daxmayu mo‘miyo, jasadlar ham jim,

Faqatgina hayot so‘zlari:

Ko‘hna zulmat qa‘ridan, olam qabristonidan

Faqatgina yozuv saslari,

-degan fikriga qo‘shilishdan boshqa chora qolmaydi.

Etnik tarixda “avtohtonlik” degan bir tushuncha mavjud. Avtohtonlar deganda mahalliy aholi, aboriginlar tushuniladi. Ammo aholi ko‘chib yurishlari tarixda shu qadar erta boshlanganki, qay bir aniq xalqni u yoki bu mamlakatning avtohtonlari deb atash nihoyatda mushkul. Bir xalqning boshqasidan avval bo‘lgani va ularning davrlarini yozma manbalardagi tarixiy shohidliklarga asoslanib aytish mumkin xolos. Arxeologik dalillar, rivoyat va afsonalar esa doim ham ishonchli mo‘ljalni bermaydi.

Agar tarixiy fanlarda hozircha ma’lum bo‘lgan dalillardan kelib chiqsak, Kichik Osiyo avtohtonlari tillari hozirgi Kavkaz xalqlari – abxaz, adigey, ehtimol, gruzinlar bilan o‘xshash bo‘lgan qabilalarni aytish mumkin. Bular – xattlar, urartlar va xurritlar, keyinchalik esa – kask va mosxlar. Xatt, xurrit va urart tillarining Kavkaz tillari, ayniqsa, abxaz-adigey tillariga o‘xshashligi haqidagi gipoteza so‘nggi paytlarda o‘tkazilgan tilshunoslik tadqiqotlari natijasida o‘z asosli isbotini topadi. Bundan tashqari, “kask” va “mosx” so‘zlari “kasogi” (o‘rta asrlarda ma’lum bo‘lgan Kavkaz urug‘i) va “mesxi” (guzin jamoasi) nomlari bilan bir-biriga juda yaqindir. Anatoliyadagi eng katta daryo – Qizil irmoq – Galisning qadimgi nomi kartvel guruhi (guzin, laz, megrel) tilidagi “daryo”, “suv” (guzincha “sxali”) so‘zlaridan kelib chiqqan. Bundan kelib chiqqan holda, ammo o‘ta ehtiyotkorlik bilan aytish mumkinki, Anatoliyaning neolit davri

aholsining tili miloddan avvalgi VII-V mingyilliklarda ushbu mas-kanda miqdor jihatidan nisbatan ustunlik qilgan Kavkaz xalqlariga yaqin bo'lgan.

Kichik Osiyo yarimorolining markazida, Qizil irmoqning burilish joyida topilgan Anatoliya yozma yodgorliklarining ilk namunalari xattlar nutqini bizgacha yetkazib kelgan. Bu mixxat bilan yozilgan loy taxtachalar. Xattlar tili hind-yevropa tillaridan emas, yuqorida aytib o'tilganidek, Kavkaz xalqlari tillariga yaqin bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikka kelib G'arbiy va Markaziy Anatoliyada hind-yevropa tillari (luviy, palay, xett) ustunlik qila boshlaydi. Bu Kichik Osiyoga Yevroosiyoning boshqa ko'plab hududlari bilan bo'lgani kabi, hind-yevropa qabilalarining nihoyatda ulkan ko'lamda ko'chib borishlari bilan bog'liqdir. Anatoliyaning avvalgi xalqlari esa yo bu tillarni o'zlashtirganlar yoki Kavkaz tomonga siqib chiqarilgan. Shu o'rinda bizda hind-yevropaliklar Kichik Osiyoga qay tarzda kelib qoldilar degan va o'z navbatida, ularning dastlabki vatani qayer bo'lgan degan savollar tug'iladi.

Bu muammo bir talay farazlarni paydo qildi. Ulardan nisbatan ko'p tarqalgani – hind-yevropaliklarning dastlabki vatani Shimoliy Qora dengiz oldi va Kaspiy oldi, Dneprdan to Volgaga qadar cho'zilgan dashtlarda bo'lgan. Mana shunda hind-yevropaliklar Anatoliyaga Bolqon orqali va Kavkaz dovonlari osha, shuningdek, Eron aylanma yo'llari orqali o'tgan bo'lishlari mumkin. So'nggi paytlarda olimlar - T.V.Gamkrelidze va V.V.Ivanov surgan taxminga ko'ra, hind-yevropaliklarning dastlabki vatani Anatoliya va Eronning tutashgan joyi – Van va Urmiya (Rezaye)da bo'lgan.

Hind-yevropa tilini qayd etgan eng ko'hna matnlarni xetlar o'zidan keyin qoldirgan. Xetlarning hind-yevropa oilasiga mansub ekanligi hatto tilshunos bo'lmagan insonga ham kundek ravshan. Ba'zi xett so'zlari hatto rus tilidagi so'zlarga ham juda o'xshab ketadi. "Nebo" xett tilida "nepis" (nebesa!), "otes" – "tati" (tyatya!), "noga" – "pata" (pyata!), "dva" – "tva", "tri" – "tri", "ti" – "ti", "vino" – "viana", "serp" – "sarpa", "voda" – "vadar" va hokazo. Jalaga topinish bilan bog'liq bo'lgan xudolardan biri Perua deb atalgan (ruslarda – Perun).

O'zlaridan oldin yashagan xatlardan farqli o'laroq, xetlar yozuvda ham mixxatdan, ham ierogliflardan foydalanganlar. Ular o'zlarini "nesitlar" (neslar) deb ataganlar, ammo qo'shni xalqlar ularni Markaziy Anatoliyaning oldingi xalqi – xattlar nomi bilan saqlab

qolganlar. Tarixiy adabiyotlarda xatlar xatlar nomi bilan, nesitlarni esa ikkala xalq o'rtasidagi merosga urg'u bergan holda xatlar deb atash qabul qilingan.

Miloddan avvalgi II asrda Xatlar davlati Qadimiy Sharqdagi Misr va Bobil bilan bir qatorda uchinchi eng qudratli mamlakat bo'lgan. Xatlar podsholigi davrida jamiyat ko'p tarmoqli bo'lib: qullar, erkin dehqonlar mavjud bo'lgan va feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lgan. Qadimiy Sharqning boshqa jamiyatlaridagi kabi yerlar quyidagicha taqsimlangan: hukumat yerlari (podsho oilasiga tegishli bo'lgan), cherkov yerlari va jamoaviy yerlar. Hukumat va cherkov yerlari asosan qal'a ichida joylashgan. Ulardan bir qismi "saxxan" deb nomlanuvchi vaqtinchalik shartli ijaraga berilgan. Bu yer nazorati kabi edi; saxxan egasi davlatga xizmat ko'rsatishga majbur bo'lgan. Xatlar qonunining moddalaridan birida xabar berilishicha: "Agar biror kishi podsho tomonidan taqdim qilingan maydon-dalaga egalik qilsa, u shu maydonga egalik qilishga bog'liq davlatga xizmat qilishi kerak". Bunga e'tibor qaratish kerakligining boisi, feodalizmning ilk belgilaridan bo'lgan yerni ijaraga berish tizimi Anatoliyada mingyilliklar davomida ma'lum ravishda qayta- qayta tiklanib, yangilanib borgan. Masalan, Vizantiyada bu tizim yetarlicha keng tarzda rivojlangan. Yerdan foydalanish tizimi, grek tilida "proniya" deya atalib, odatiy shartli yerdan foydalanish hisoblangan; saljuqiylarda bu "iqto" deya nomlangan, Turk-Usmoniylarda esa – "timor" va "zeamet" kabi nomlar bilan atalgan.

Xatt qirolligining poytaxti – Xattusa – Turkiya Respublikasining poytaxti Anqaradan 150 km lar sharqda joylashgan. Uni qazib olishda ko'plab qo'lyozma hujjatlar topilgan bo'lib, ularni chexiyalik olim Bedrjix Grozniy 1915 - yilda tarjima qilgan. Bu hujjatlarning ko'rsatishicha, miloddan avvalgi XIX-XVIII asrlarda xatlar butunlay assimilatsiyalangan va xatt xalqi shakllangan. Shu davrdagi Xatt yozuvlarida g'arbiy va markaziy Anatoliyaning mavjudligi haqida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. Xatt tilidagi alohida yozma manbalar faqat grek tilidagi duolar ko'rinishida saqlanib qolgan. Anatoliyada xatt tiliga o'xshash yana ikki maishiy til bo'lgan: luviy va palay. Diplomatik yozuvlar tili esa akkadlar tili (Bobil va Ossuriyaning somiy (semit) tili) bo'lgan bo'lib, xattotlar qiya yozuvlar uchun shuningdek shumer so'z belgilaridan foydalanishgan.

Shu bilan birga, xett sivilizatsiyasining rivojlanishida xettlarning hissasi katta bo'lgan. Nesitlar ulardan jamoatchilik tuzumining ko'pgina elementlarini, masalan, saroy ahli va mansabdorlar, ruho- niylar lavozimlarini o'zlashtirib olganlar. Juda kam hollardagina xett lavozimlari xett muqobili tomonidan egallab olingan. "Tabarna"- hukmdor, "Tavannana" - qirolicha va "Tuxkanti" - qiroli so'zlari xett tilidan olingan. Shuningdek, ba'zi qirollik elementlari - nayzaning alohida turi, krivulina-hassa, qirolning xatt tilida "Xalmasuitta" (tarjima - ustida o'tiriladigan narsa) deb nomlangan an'anaviy taxti.

O'tmishdoshlarining erishgan yutuqlariga tayangan holda, nesitlar, qoldiqlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan rivojlangan irrigatsiya tizimini ishlab chiqishgan. Ularga nafaqat o'simliklarning, balki mevali daraxtlar, hususan anor va uzum yetishtirish madaniyati yaxshi tanish bo'lgan. Hind-yevropa ahliga mansub bo'lgan vinochilik sirlari ham bu odamlarga begona bo'lmagan. Vino degan so'z aslida uzum novdasi, yaniy "viniya", ruschadagi o'ralib chiqmoq degan so'zdan kelib chiqqan. U har-xil shaklda qadimiy misrliklar (vins), semitlar (vayn) hamda gruzinlarning (gvini) tiliga kirib borgan. Hamma qadimgi hind-yevropa ahliga hos bo'lganidek xettlarning hayotida va xo'jaligida chorvadorlikka katta ahamiyat berilgan. Ular yirik shohli va mayda shohli chorva boqishgan.

Yilqichilik asosan harbiy maqsadlar uchun xizmat qilgan. Otlar harbiy qurollar ortilgan aravaga bog'lanib, o'sha qurollar xettlarning forslarga, ossuriy hamda boshqa mamlakatlar bilan kurashida ishlatilgan.

Miloddan avvalgi VIII yuzyillikda bir nechta kichik davlatlarga bo'linib ketishdan. Oldin Xett qirolligi mil. avv. XIII asrgacha majud bo'lgan. Ammo Kichik Osiyoning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismida xett, luviy va palay tillari bizning eramiz boshlanishiga qadar saqlan- gan va aholi tomonidan ishlatilgan. Anatoliya janubida, Vizantiya cherkov kotiblari Isavrlar tilida xett-nesit tilining oxirgi alomatlari haqida bizning eraning VI asrida qayd etib ketishgan.

Kichik Osiyoda Xett xalqining tuzilishi ikkita tarkibiy qismga bo'linadi – xatlar va nesitlar, va shu struktura boshqa ancha yillar o'tgach yangi Anatoliya etnoslarini tashkil topishida qolip sifatida ishlatilgan – greklar, vizantiyaliklar va albatta turklar. Barcha etnoslar ikkita asosiy xalqni chatishishidan – ko'chib kelganlar va mahalliy aholini ularga singib ketishidan tashkil topgan.

Xetlar davridagi Anatoliya tarixi hozirgi kunda Turkiyada juda mashhur.

Chunki aynan o‘sha bir necha ming yillar avval yashab o‘tib ketgan xetlar Anatoliyada juda ham kuchli va mustaqil davlat barpo etishgan. Qadimiy tarixning bunday misoli Usmoniylar imperiyasi-ning qoldiqlaridan yangi Turkiya qurayotgan kamolchi va turk inqilobchilarini juda ham ruhlantirgan. Dunyoda yagona xett mada- niyati muzeyi Anqarada joylashgan. Bu yerda yozuv, naqsh, deh- qonchilik qurollari, harbiy qurollar hamda dinga bog‘liq narsalar saqlanadi. Undan tashqari, sher, kiyik, buqa va shunga o‘xshash ma- rosimlar uchun mo‘ljallangan ma’buda atributlari tilla va misdan ya- salgan bo‘lib hozirgi paytda muzey vitrinalarida o‘z panohini topgan. Xett mamlakati Egey dunyosi bilan chambarchas bog‘langan, xusu- san, Troya – arxeologik qazilmalar va qadimiy hikoyalari bilan mashhur o‘tmishdagi mamlakat. Troya xettlarning forslar bilan urushida Xetlar tomonida bo‘lgan.

Miloddan avvalgi XIII asrda, Egey dengizi yon atroflarida grek qabilalari ittifoqi paydo bo‘lgan. Ulardan: Axeylar (xett matnlarida buni axiyava deb ko‘rishimiz mumkin) va Dinaylar (Dunay so‘zi bilan bog‘liq degan fikrlar bor). Bu qabilalar avval Bolqondan Kichik Osiyoga kelib, Troyani yo‘q qilib, keyin esa xettlarni sindirishgan. Shu vaqtning o‘zida Bolqondan Anatoliya tomon greklarning yangi qabilasi, frigiylar yurish qila boshladi. Bu qabilalar markaziy Anatoliyada, jumladan Singariya, hozirgi Sakarya daryosi atroflarini egallashgan. Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbiy qismiga greklarga tili yaqin bo‘lgan Frakiylar ko‘chib o‘tishgan. Ularning asosiy massasi Bolqon yarimoroli janubi-sharqiy qismiga ega chiqishdi va bu hudud Frakiya degan nom oldi.

Miloddan avvalgi birinchi asrning boshida g‘arbiy Anatoliyada quldorlik bilan shug‘ullanadigan davlatlar, shular jumlasida Frigiya, Kiriya, Lidiya, shahar va respublikalar Ioniylar ittifoqi paydo bo‘lgan. Aholining bir qismi bu yerlarga miloddan avvalgi IX asrda ko‘chib kelgan greklar va keyinchalik ular bilan chatishib ketgan mahalliy aholi va yana bir qismi greklar bilan birlashmagan mahalliy aholi bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VIII va VII asrlarda Kichik Osiyo Kavkaz to- mondan – kimmeriylar, keyin esa skiflar yurishlari qurboniga aylangan. Nomadlar qo‘shini to‘liqligicha otliq askarlardan iborat bo‘lib, ular qadi- miy sharqning otdan nayza otish uslublarini juda yaxshi o‘zlashtirgan edi. Ko‘chmanchilar Egey sohillarigacha yetib bordiyu ammo ularning Anatoliyaga safari uzoqqa cho‘zilmadi va hech qanday iz qoldirmadi.

Dushman ko'chmanchilar hujumiga dosh bera olgan qirol Krez (560-546) davridagi Lidiya mamlakati o'z hokimiyatini butun g'arbiy va markaziy Anatoliyada o'rnatdi. Ammo miloddan avvalgi 546 yilda Lidiya davlati fors hukmdori Kir tomonidan yo'q qilingan va Kichik Osiyo Ahamoniylar davlati yerlariga qo'shilgan.

Ammo forslar Anatoliya ustidan ko'p hukmdorlik qila olishmadi. G'arbdan yangi bosqinchilar afsonaviy yo'l boshlovchi va lashkarboshi Aleksandr Makedonskiy bilan kelishdi. Miloddan avvalgi 333 yilda forslar lashkarlarini yengib o'tgach, Makedoniya Anatoliyani o'zining bepoyon imperiyasiga qo'shib oldi. Grek ko'chmanchilari va makedonlar to'liqini Kichik Osiyoga yog'ilib bordi. Ular o'zi bilan o'zlari-ning madaniyati va an'analarini olib kelishdi. Greklar mustamlakachiligi kuchayib ketdi va hammabop grek tili keng tarqaldi.

Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tanazzulga uchraganidan keyin Anatoliyaning bazi bir hududlari ellinistik davlatlar tarkibiga kirar edi. Bular Salavkiylar va Misr ptolomeylari davlatlari edi. Bu yerda mustaqil qirolliklar ham tashkil etildi: Vifiniya, Pergam, Pisidiya, Kappadokiya hamda Paflagoniya. Shu davlatlarning barchasi grek tilida so'zlashib grek madaniyatiga bo'ysunishardi. Ushbu davlatlarning hammasida yunon tili va madaniyati qaror topgan edi. Lekin Eron madaniyati o'zining ta'sirini yo'qotmagan edi. Bu davlatlarning hukmdorlari va zodagonlarining aksari forslardan bo'lgan. Misol uchun Kappadokiya shohi fors Aryarat bo'lgan.

Bu davrda ellinizmning markazi sifatida Anatoliyaning markazidagi Galatiya edi. Mill.avv. III asrda bu yerlarga keltlarning galata qabilasi kelib o'rinishgan edi. Uzoq ko'chishlardan so'ng ular Anqara yaqiniga kelib joylashdilar va u yerni o'zlariga poytaxt qilib olgan edilar. Hususan, Anqara yoki Ankira nomi o'sha paytlarda "langar" ma'nosini bergan. Keltlar uzluksiz ko'chishlari bilan ma'lum bo'lgan hind-yevropa xalqlaridan biri edi. Keltlar ko'plab hududlarda o'zlaridan xotira sifatida shahar va viloyatlar nomlarida iz qoldirishgan: Ispaniyada – Galisiya, Fransiyada – Galliya, Ukrainada – Galitsiya, Anatoliyada – Galatiya, Ruminiyada – Galats, Ukrainada – Galich, Istanbulda – Galata mavzesi. Keyinchalik keltlar boshqa xalqlar bilan aralashib ketgan. Bizning davrgacha ularning avlodlari Bretan (Fransiya)da yashovchi bretonlar, Britaniya orollarida yashovchi irlandlar, uelsliklar va gellar saqlanib qolgan. IV asrgacha Anatoliyadagi galataliklar keltchada gapirishsa

ham, yozuvda yunon alifbosidan foydalanishgan. Sal keyinroq ular anatoliyalik yunonlar bilan aralashib ketishdi.

Eski va yangi era oralig'ida G'arbiy va Markaziy Anatoliya Rim saltanati tarkibiga kirib ketgan edi. IV asrda Rim saltanati ikki qismga, g'arbiy hamda sharqiy hududlarga bo'lindi va har biri o'zining o'z imperatoriga ega edi. Bir butun yaxlit saltanat darajasiga yana qaytishgan bo'lsada baribir 395 yilda sharqiy qismi poytaxti Konstantinopol bo'lgan Sharqiy saltanat sifatida Rimdan ajralib chiqdi. Aynan shu yildan olimlarning talqiniga ko'ra Vizantiya nomi bilan Sharqiy Rim imperiyasi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsada, baribir o'zida Rim an'analari davom ettirgan. "Vizantiya imperiyasi" yoki "Vizantiya" nomi poytaxt Konstantinopolning oldingi o'rnidagi nom "Vizantiy" nomi bilan bog'liq. Bundan tashqari Konstantinopolning "Yangi Rim" degan rasmiy nomi ham bor edi.

Rim hukumati Anatoliya aholisining etnik ko'rinishiga ta'sirini o'tkazmadi. Til va madaniyat jihatidan u baribir yunon bo'lib qolgan edi. Lotin yozuvi rimliklar tomonidan faqat davlat darajasida qo'llan-sada millatlararo munosabatlarda qo'llanmagan. VII asrdayoq, yunon tili davlatning barcha soha faoliyatida asosiy darajaga chiqib oldi. Lotin tilini faqat rim huquqini biladigan huquqshunoslar bilar edi.

Rim vizantiyaliklarning o'zlarini nomlashlarida o'z ta'sirini o'tkazdi. Ular o'zlarini Yunonistondagi yunonlar kabi ellin deb emas, "romeylar" (rimliklar) deb atashgan. Bu etnonim XI asrda saljuqiy turklar bostirib kelishiga qadar vizantiyalik yunonlar tomonidan muomalada bo'lgan. Hozirga qadar turklar Kiprda yashovchi yunonlarni rumlik ("romey" so'zining arabcha talaffuzi) deb nomlashadi. Yunonistonda yashovchi millatni esa "yunan" ya'ni, yunon qabilalaridan biri bo'lgan "Ionian" nomini arabchasiga talaffuz qilinishi bilan izohlash mumkin.

Vizantiya xristian davlati edi. IV asrdayoq xristianlik Rim imperiyasining davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng, tez orada butun G'arbiy va Markaziy Anatoliya aholisining deyarli barchasi shu dinga e'tiqod qila boshlagan edi. Xristianlikning provaslav shakli bu hududlarda yakka hukmron dinga aylanib olgan edi. Rim katolik cherkovidan ajralib chiqib, Konstantinopolda patriarx boshchiligidagi o'z markaziga ega bo'lib olgan edi. Anatoliya sharqida xristianlikning nestorianlik va yakoviylik yo'nalishlari tarqalgan bo'lib, armanlar o'zlarining arman-grigoryan cherkovini tuzib olishgan edi.

III asrlardayoq, Anatoliya hududlari Rim va kuchga to'lgan Eron Sosoniylari o'rtasidagi kurash maydoniga aylangan edi. VI va VII asr boshida vizantiyaliklar va forslar o'rtasida ayovsiz kurashlar bo'lib o'tdi. Anatoliyaning ko'plab shaharlari bir necha o'n yillar davomida qo'ldan-qo'lga o'tdi va 609-619 yillarda hatto forslar uch marotaba Bosforgacha kirib borishdi.

Ana shu vaqtda Yaqin Sharqda yana bir qudratli kuch paydo bo'ldi. Yengil qurollangan, tezyurar sahro tuyalari bilan Arabistonning ko'chmanchi arablari butun dunyoga "islom" dinini yoyish va "kofirlardan" tozalash uchun o'zlarining harakatini boshlashgan edi. 651-yilda Vizantiya bilan urushlarda kuchsizlangan Eronni arablar egallashadi. Anatoliya yana bir bor jang maydoniga aylandi. Endi bu safar xristian Vizantiyasi va musulmon Arab xalifaligi o'rtasida kurash kechdi. Arablar ikki bor Konstantinopolni qamal qilishdi, lekin chekinishga majbur bo'ldilar. Shundan keyin xalifalik va Vizantiya o'rtasidagi vaziyat barqarorlashgandan so'ng chegaralar belgilanib, Anatoliyaning janubiy-sharqiy hududlari arablar qo'lga o'tdi.

Kichik Osiyo hududlarida ko'plab slavyan koloniyalari mavjud edi. Bu haqda ko'plab tarixiy ma'lumotlar mavjud. Tarixga "Foma Slavyan" nomi bilan kirgan 821-825 yillarda Anatoliyada bo'lib o'tgan qo'zg'olonda slavyanlardan tashqari Kichik Osiyoning boshqa etnoslari ham qatnashgan edi. Vizantiya harbiy qismlarida VII-VIII asrlarda 30 minglik yollanma slavyan qo'shini xizmat qilgan. Manbalarga ko'ra, ba'zi paytlarda slavyanlarning arablar tarafiga o'tib ketish hollari ham uchrab turgan. X asrda Konstantinopolda rus savdo koloniyasi bo'lgan. Varyag-rus drujinasi imperator Vasiliy II ga isyonchi feodallarni bostirishda yordam bergan. 1018 yil Vizantiya isyon ko'targan bolgarlarning bir qismini Armaniston hududlariga ko'chiradi. Anatoliya hududida hozirga qadar "Bulgardag'i" – "Bolgar tog'lari" toponimi saqlanib qolgan.

Anatoliyaning sharqiy viloyatlari tarixi, ayniqsa etnik kelib chiqish tarixi bir muncha murakkablik kasb etadi. Bu hududlarning shimoliy qismida kavkaz tillari oilasiga mansub tilda gaplashuvchi xalqlar yashaganligi ma'lum. Mill.avv. II mingyilliklarda bu hududlarda abxaz, gruzin, adigeylarning ajdodlari mosx va kasklar yashashgan. Mill.avv. I mingyilliklarda mosxlar Frigiya hududlarigacha yetib borishgan va ular yashagan hududlarni ossuriyaliklar "mushklar mamlakati" deb nomlashgan. Bu vaqtlarda Qora dengiz bo'ylarida Trapezunt

(hozirgi Trabzon), Kerasunt (Giresun), Sinopa (Sinop) va boshqa yunon koloniyalari vujudga kelgan edi. Mill.avv. IV asrda kartvel-larning chan (jan, chan) va kolx qabilalari Pont ellin davlati tarkibiga kirgan edi. “Chan” etnonimi hozirda Turkiya hududidagi Janik tog‘i nomida saqlanib qolgan. Pontda yunonlardan tashqari forslarning ta’siri ham sezilarli bo‘lgan. Boy pont zodagonlari kelib chiqishi forslardan bo‘lgan. Pontda shoh sulolasini eroniy oqsuyaklaridan bo‘lgan Mitridat asos solgan.

Pont shohligi Mitridat Yevpator VI (120-63) davrida shuhratining cho‘qqisiga chiqqan. Bu shoh o‘z davrida qudratli bo‘lgan Rimga qarshi chiqqan. U Armaniston bilan ittifoqlikda butun Kichik Osiyo, Yunoniston va butun Qora dengiz bo‘ylari hududlarini egallab olgan edi. Uning buyrug‘i bilan butun Kichik Osiyodagi 80 mingdan oshiq rimliklar tor-mor keltirilgan. Bu hodisa sabab endi boshlangan rim madaniyati va lotin tilining Anatoliya hududlarida tarqalish jarayonlarini uzib qo‘ydi. Rim bilan noteng kuchlar sabab kuchsizlangan Mitridat hozirda o‘zining nomi bilan ataladigan tog‘ yonida Pantikape (hozirgi Kerch)da o‘z joniga qasd qiladi.

Milodiy III asrda laz qabilalari (rimliklar va forslar chan va kolxlarni shunday atashgan) rim hukmronligidan qutilishgan bo‘lsada, keyinchalik Vizantiya ta’siriga tushib qolishadi. IV-VI asrlarda lazlar orasida xirstianlik tarqala boshlaydi. XIII asr boshlarida Anatoliyaning shimoliy-sharqida Gruziya ko‘magida yunon-lazlar davlati Trapezund imperiyasi tashkil topadi. Bu imperiya to turklar 1461 yilda bosib olgunlariga qadar hukm suradi.

Xett manbalariga ko‘ra, Turkiyaning sharqida va Arman-kurd tog‘lari hududlarida janubiy mosx va kasklar, mill.avv. II mingyillikkacha hayas qabilalari yashaganlar. Bu xalq armanlarning shakllanishida yadro vazifasini o‘tagan. Armanlarni “hay” deb atalashi shu etnonim bilan bog‘liq. G‘arbda tog‘li hududlarda xettlar tiliga yaqin tilda so‘zlashuvchi hind-yevropa qabilalariga mansub xalqlar yashagan. Bu xalqlarning va hayaslarning aralashuvi arman tilining shakllanishiga asos bo‘ldi. Yangi bu xalqni forslar – *armaniy*, ya‘ni frigiyaliklarga qarindosh bo‘lgan va keyinchalik haylarga qo‘shilib ketgan qabila nomidan olingan.

Mill. avv. I mingyillikda tog‘larning markazida, Van ko‘li atrofida Urartu davlati tashkil topdi. Urartlar tili kavkazliklar tiliga yaqin bo‘lgan. Bu xalqning yuksak madaniyati va turmush tarzini gruzinlar va armanlar keyinchalik o‘zlashtirishgan.

Mill. avv. VII asrda skiflarning hujumlari natijasida urartlar davlati tanazzulga yuz tutadi. Mill. avv. 625-yilda Anatoliyaning sharqiy hududlari eroniy xalq midiyaliklar va mill. avv. 550-yilda forslar qoʻliga oʻtadi. Aynan oʻsha vaqtlarda armanlar togʻlarning janubiy-gʻarb hududlariga koʻchib oʻtishadi va Urartu aholisi bilan aralashib ketishadi. Ahamoniylar saltanatining qulashi bilan bu hududlarda Kichik Armaniston (hayaslar yashagan hududlarda), Sofen yoki Soplak (janubiy-gʻarbiy togʻ hududlari), Buyuk Armaniston (Van koʻli atrofiga) kabi arman davlatlari vujudga keladi. Mill. avv. I asr boshlarida shoh Tigran II (95-56) boshchiligida butun arman yerlari birlashtirilib qudratli Armaniston davlati vujudga keladi. Qishloq xoʻjaligining taraqqiyoti darajasi boʻyicha bu davlat oʻsha davrning ilgʻor davlatlaridan biri boʻlgan. Armanlar nafaqat boshqoli, balki yem-hashak ozuqa oʻsimliklarini yetishtirishni bilishgan. Tigran II Suriya, Finikiya va Kilikiya hududlarini egallab, oʻsha yerlik hunarmandlarni Armanistonga olib kelgan. Arman shaharlariga rim bosqinidan qochib koʻplab yunonlar kelib oʻrnashganlar. Armanlardan tashqari shaharlarda yunonlar, forslar, ossuriyaliklar va yahudiylar yashaganlar.

Mill. avv. 66 yilda Armaniston ikki qudratli davlat Rim va Parfiya taʼsiriga tushib qoladi. III-IV asrlarda Parfiya oʻrnini Sosoniylar egalaydi. Armaniston uchun endi Vizantiya va Sosoniylar oʻrtasida kurash kechadi va oqibatda 387 yilda uni boʻlib olishadi.

Arman madaniyati Qadimgi Yunon va Qadimgi Erondek buyuk sivilizatsiyalarning taʼsirida shakllandi. Eronning taʼsiri midiyaliklar, forslar va parfiyalik tomonidan arman tilida seziladi, misol uchun Tigran, Artashes, Artavazd kabi arman shohlarining ismlari kelib chiqishiga koʻra eroniy hisoblanadi. Milodiy III asrda Armanistonda xristianlik dini tarqala boshlaydi va u IV asrda davlat dini darajasiga koʻtariladi. IV va V asrlarda armanlar yunon alifbosi asosida oromiy xati belgilaridan foydalanib oʻz alifbolarini yaratadilar.

VII asr oxirida Armanistonni arablar bosib oladi. Arablar hukmronligi 885 yilga qadar davom etadi. Bagratiylar davrida Armaniston 886 yildan boshlab xoʻjalik va madaniy jihatdan rivojlangan. Qazishma ishlari natijasida Ani, Axlat, Kars kabi arman shaharlaridan topilgan hunarmandchilik va sihlab chiqarish buyumlari shuni koʻrsatadiki, oʻrta asr arman shaharlari Gʻarbiy Yevropa shaharlaridan rivojlanishda ancha oldinda boʻlgan.

X asr o'rtalarida Armaniston Vizantiya ta'siriga tushib qoladi. XI asrda saljuqiy turklar bosqini arafasida vizantiyaliklar armanlarning barcha yerlarini egallab olishgan edi. XI asr oxirida ko'plab armanlar saljuqiy turklar bosqinidan qochib Kichik Osiyoning janubiga borib o'rnavadilar va u yerda 1080 yilda Kilikiya arman davlatini barpo etadilar. U yerda aholi tarkibi rang-barang bo'lib, arablar, armanlar, yunonlar, ossuriyaliklar, shaharlarda esa ko'plab italiyaliklar va fransuzlar yashaganlar. 1375 yilda Kilikiya misrliklar tomonidan bosib olinadi va 1516 yilda turklar tomonidan Misr bosib olingunga qadar ularning hukmronligi ostida qoladi.

Arman-Kurd tog'larining chekka janubiy hududi va Mesopotamiyaning shimoliy hududlariga mill. avv. III mingyillikda urartlarga qondosh hurritlar kelib o'rnavadi. Mill. avv. II mingyillikda ular Mitanni davlatiga asos solishadi va unda bizga ma'lum bo'lmagan hind-yevropa xalqlariga mansub (balki, ilk eroniy) qabilalar hissasi bor ekanligi ma'lum. Xetlar va ossuriyaliklarning zarbalari natijasida mil. avv. XV-VIII asrlarda Mitanni kuchsizlanadi va oqibatda bu davlat forslar ta'siriga tushib qoladi. Bu hududlarni turli davrlarda navbatma-navbat kimmeriyalar, skiflar (saklar), midiyaliklar, forslar, parfiyaliklar va nihoyat Eron sosoniylari o'z ta'sir doirasiga olib egalik qilishadi.

Uzoq vaqt davomida eroniylarning madaniy va til jihatidan ta'siri hamda tog'li viloyatlarning qadimgi eroniy qabilalarning filtratsiyasi natijasida janubiy chekka tog' va Mesopotamiyaning shimoliy hududida eronliklarga qondosh bo'lgan yana bir etnos - kurdarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. VII asrda kurdlar tarqoq holda yashasa ham xalq sifatida shakllangan holda arab istilochilariga qarshi chiqishadi.

Kurdlarni kelib chiqishiga ko'ra, ehtimoliy ikki asosga: eroniy va kavkazliklarga bog'lashadi. Bu xalq nomining kelib chiqishi sharqiy gruzinlar – kartlar nomidan olingan, balki hurritlar va urartlarga ham aloqasi bo'lishi mumkin. Mill. avv. 401 yilda yunonlarning hozirgi Turkiya Kurdistoni hududlaridan o'tgan harbiy yurishlari ishtirokchisi bo'lgan antik tarixchi Ksenofont bu hududlarda o'zlarini karduh deb ataydigan qabilani uchratganini yozib qoldirgan. Boshqa manbalarda ham bu hududlarda kurtiylar yashaganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gruzinlarning forsha "gurj" atamasi ham "kurd" atamasiga ancha o'xshash. Bu o'xshashliklar bejiz emas. Kurd tilining etnogenezida eroniy til katta rol o'ynagan. Arablar istilosidan keyin kurdlar o'zlariga ko'plab ossuriy, arab va arman elementlarini singdirganlar. Ko'plab

kurd qabilalarining dini islom bo'lgan. Faqat ba'zi qabilalar islomdan oldingi zardushtiylikka mansub dinlarga e'tiqodini saqlab qolishgan.

Bu hududga turklarning ommaviy ravishda kirib kelishidan oldingi davrdagi Anatoliyaning etnik tarixi shunday kechgan edi. Kichik Osiyo aholisi o'sha vaqtlarda turli tuman bo'lib, yunon, arman, kurd, gruzin, arab, ossuriyalik, laz kabi boshqa ko'plab etnoslardan iborat bo'lgan. Ularning xo'jalik hayoti turlicha bo'lgan. Misol uchun, arman va yunonlar yuqori taraqqiy etgan yerga ishlov berish va shaharlarda yashash madaniyatiga ega bo'lishgan. Kurdlar va arablar esa, yaylov va ko'chmanchilik bilan chorvadorlikda tengi yo'q bo'lishgan. Yunonlar va lazlar dengiz bo'ylarida azaldan baliqchilik bilan shug'ullanib kelishgan va malakali dengizchilar sifatida mashhur bo'lishgan. Bundan tashqari dehqonchilik bilan shug'ullanadigan yunonlar, armanlar, ossuriyaliklar yaylov va ko'chmanchi chorvadorlik bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Ko'plab ko'chmanchilar (arab va kurdlar) dehqonchilik bilan shug'ullanish asnosida o'troqlasha boshlaganlar. Shaharlar aholisi asosan yunonlar, armanlar hamda ossuriylardan tashkil topgan bo'lib, ular hunarmandlar va savdogarlar qatlamini tashkil etgan.

Kichik Osiyoning lingvistik ko'rinishi ham rang-barang bo'lgan. Bu hududlarda dunyoning yirik tillari oilasiga mansub tillar: hind-yevropa (yunon, arman, kurd), semit (arab, ossuriylar, yahudiylar), kavkaz (laz, gruzin) tillarini uchratish mumkin.

Bu hududlarda xristianlikka e'tiqod qiluvchilar provaslav, nestorian, yakobinlar, arman-grigoryan oqimlariga mansub bo'lgan. Musulmonlar esa, islom aqidasi bo'yicha sunniylar (ular ko'pchilikni tashkil qilgan) va shia (asosan Sharqiy Anatoliya hududlarida) vakillaridan iborat bo'lgan.

Bu murakkab etnik substrat (ustunlikka ega tilning boshqa tillarga ta'siri) avvalo tarix izni bilan XI-XIII asrlarda bu yerlarga kelib o'r-nashgan turkiy qavmlar – saljuqiylar, o'g'uz va turkmanlar ko'ri-nishida bu hududlarga kelib o'r-nashishi bilan yakun topdi. Ko'chib kelgan turklar mahalliy aholi bilan aralashib ketishi natijasida turk millati shakllandi.

II-BOB. KICHIK OSIYO O‘RTA ASRLARDA

Buyuk saljuqiylar davlatining tashkil topishi va kengayishi

Saljuqiylar¹ sulolasining asoschisi manbalarda Taqoq degani ta’kidlanadi. “Taqoq” turkiy tilda “temirli yoy” degani. Taqoq/Taq o‘q – temirli o‘q jasoratli va andishali, uddaburon kishi bo‘lgan. “Turklar hukmdori uning qo‘liga boshqaruv tizginini berib, o‘zi uning fikri va tadbirkorligining chirog‘idan tarayotgan nurlardan porlab turardi. Turklar malikining ismi Yabg‘u bo‘lgan”. Yabgu (yafgu, yavgu) – g‘arbiy turklar oliy hukmdorining unvonu. Bu yerda yabg‘uning ismi Ali bo‘lib, bu – Abu-l-Favaris Shoh-Malik ibn Ali (vaf. 998 y.), Jand hokimi edi. Taqoqning yabg‘u Ali huzurida xizmatda bo‘lganini Ibn al-Asir (VIII, 22), Abu-l-Fido (II, 163) va boshqa mualliflar ham aytganlar.

Yabg‘u Ali islom mamlakatiga yurish qilish uchun o‘z lashkarini yig‘moqchi bo‘lganida Taqoq uni bu ishdan to‘xtatmoqchi bo‘lgan, biroq turklar yabg‘usi unga qarshi chiqa boshladi. Shunda Taqoq o‘z fikrida turib, yabg‘uni yuziga uradi. Mirxond (MITT, 450) yozadiki, bahs vaqtida yabg‘u Taqoqni qilich bilan urib, yarador qilgan. Shundan keyingina Taqoq yabg‘uni cho‘qmor bilan urib otdan yiqitgan ekan² Yabg‘u uni tutib olib, bandi qilishni buyuradi.

Taqoqning o‘g‘li Saljuq yabg‘uning saroyida tarbiya topib ulg‘aygan. Saljuq balog‘atga yetgach, yabg‘u unga qo‘shin qo‘mondonligini topshirib, unga “Suboshi” unvonini berdi³. Suboshi (syu-begi, arabcha “qoid al-jaysh) – harbiy boshliq, qo‘shin qo‘mondoni, lashkarboshi. Uning itoatida tarxon, yina, yug‘rush (yag‘liz)lar bo‘lgan.

Saljuq ibn Taqoq yabg‘u xotini va saroy fitnasi sababli o‘z otliq va piyoda qo‘shini bilan Somoniylarga qarashli yerlarga ravona bo‘ladi. Saljuq yabg‘u oldidan, taxminan 935 yoki 985-86 yili yuz nafar otliq, 1500 tuya va 50 ming qo‘y bilan chiqib ketadi. Ular, taxminlarga ko‘ra, 382/992 yili islomni qabul qilishgan⁴.

¹ Mufassal qarang: Агаджанов С.Г. Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI - XII вв. – Москва, 1991.; Shu muallif. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии. IX-XIII вв., 1969. – С. 179-180.; Shu muallif. Сельджуки и Туркмены в XI-XII вв. Под ред. Чл.кор. АН ТССР А.А. Рослякова. – Ашхабад: Ылым, 1973. – 163 с.

² Ибн ал-Асир, VIII, 22.

³ Коналевский, 129, 189; Bosworth. The Gaznavids, 218–219; Koymen, I,99).

⁴ ал-Утбий, I, 176.

Ular Jand nohijasini yashash uchun tanlab, u yerdan yabg‘u tomonidan yuborilgan xiroj yig‘uvchi omillarni haydadilar. Manbalarning ma‘lumotiga qaraganda Saljuq va uning hamrohlari musulmon bo‘lib Janddagi “kofir” yabg‘u ma‘muriyatini ta‘qib qila boshladilar. Saljuq “Malik al-G‘oziy” unvoniga musharraf bo‘lib, tez orada musulmon turk aholining qo‘llashi bilan Jandni yabg‘u Ali qo‘lidan ozod qildi¹.

Saljuq Jandda vafot etadi va o‘zidan keyin o‘g‘illar – Mikoil, Mo‘so, Isroil² deb atalmish Yabg‘u Arslon qoldilar. Bu amirlarning yashash makonlari Movarounnahrdagi Nuri Buxoro³ degan joy bo‘lgan.

Amir Mikoil ibn Saljuq yaminu-d-davla Abulqosim Mahmud ibn Sabuktegin⁴ xizmatida edi. Nocip ud-davla Sabuktegin (977-997)ni esa Nishopur bozoridan somoniylar sipohsolori Ali Tegin sotib olgan. Bu turk yigitini xizmat pog‘onasidan tez ko‘tarilganini Nizomulmulk ham eslaydi (Siyosatnoma, b.111 va keyingilari). Unga somoniy amiri Mansur II (997–999) homiylik qilgani ma‘lum. Mazkur amir bilan u G‘aznaga borib, Mansur va uning vorislariga sadoqat bilan xizmat qiladi. Somoniylarning oxirgi amiri Mansur II Sabukteginga G‘azna amirligini in‘om etdi va 20 aprel 977 yili u G‘azna amiri deb e‘lon qilindi. 994 yili Afg‘oniston va Hindistondagi g‘alabalaridan keyin Sabuktegin qo‘mondonligida Abevardda Somoniylar qo‘shini xorazmshoh Abu Ali Ma‘mun I (992–997)ni tormor etib, “Nosir ad-davla va-d-din” unvonini oladi, uning o‘g‘li Mahmud esa “Sayf ad-davla” (davlat qilichi) degan laqab oladi va xalifaning tutqusi bilan somoniylarga qarshi harakatini kuchaytiradi. Sulton Mahmud (998–1030) – G‘azanaviylar sulolasining eng nomdor sultoni, sarkarda va

¹ Ибн ал-Асир, VIII,22; Мирхонд, IV, 72; Ibn Funduq. *Tarikh-i Bayhaq* / ed. Ahmad Bahmanyar (Tehran, n.d.), 71; qiyos uchun Koymen, I, 113–116; Мирхонд, IV,72.

² Рашид ад-дин I, 293.; Kafesoglu. Selcuk ogutlari. 117-130.

³ al-Bundārī ‘Alī ibn Muhammad al-Isfahānī. *Tawārīkh Āl-i Saljūq*, abridgement of ‘Imād al-Dīn al-Isfahānī’s book (*Kitāb Zubdat al-Nusra wa Nukhbat al-’Usra*). – Leiden: E. J. Brill, 1889.5; Ибн ал-Асир, VIII, 22; Ibn al-Jawzī ‘Abd al-Rahmān ibn ‘Alī ibn Muhammad. *al-Muntazam fī Tā’rīkh al-Mulūk wa al-Umam*, Haydarabad Deccan: Dā’irat al-Ma’ārif al-’Uthmāniyya, 1940 - кейинчалик Ибн ал-Жавзий, VIII, 233; Жузжоний, I, 118; Мирхонд, IV, 97. Наршахий, 10-11; Бартольд. Туркестан, 171.

⁴ Шарқнинг машхур сулолалари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.179-180.

siyosatchisi¹. Somoniylar itoatidan chiqqan Mahmud xalifa nomini xutbada o'qittirdi va xalifa al-Qodir (991–1031)dan Xurosonni boshqarish uchun manshur (farmon) hamda “Voliy amir al-mo‘minin”, “Yamin ad-davla”, “Amin al-milla” degan laqablar oldi. Fotimiylar da’vatchisi Taxartini qatl qilgani, qarmatiya mazhabini tugatgani uchun esa Mahmud xalifa al-Qodirdan “Nizom ad-din” va “Nosir al-Haqq” laqablarini olgan. Mahmudning o‘g‘li Mas‘ud taxtga chiqqach (1031–1041), G‘aznaviylar saltanati Lohurdan Samarqand va Isfahongacha yoyilgan edi. Mas‘ud “Nosir ad-din Alloh”, “Hofiz Ibod Alloh”, “Zohir xalifat Alloh” va boshqa laqablar egasi bo‘ldi.

Ibn al-Asirning ma’lumotiga binoan (VIII, 22), Mikoil ibn Saljuq turklar bilan bo‘lgan janglarda halok bo‘lgan. Al-Husayniy esa Mikoilni Isroil bilan adashtirgan. Keyingi voqealar shu Isroil nomi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Hijriy 416/1025-1026 yili sulton Mahmud sharqiy qoraxoniylar hukmdori Qodirxon Yusuf (1026–1032) bilan uning akasi Ali Teginga qarshi Movarounnahrni qo‘lga kiritish uchun ittifoq tuzadi. Yo‘lda u saljuqlar manzillariga duch keladi. Aftidan, Mahmud saljuqlarni Ali Tegin bilan ittifoq tuzishlaridan xavfsirab ularni Xurosonga ko‘chirmoqchi bo‘lgan. Shu bilan u g‘aznaviylarning davlat chegaralarini saljuqiylarning kuchlari bilan himoya qilmoqchi edi².

Mikoil Mahmud ibn Sabuktegin taklifini rad etadi va ko‘chib ketishni xohlamaydi. Shunda sulton Mahmud uni qabilasining a‘yonlari bilan birga tutib olishni buyuradi. Hamda uning qabiladoshlarini ham zo‘rluk bilan ko‘chirishga amr etadi. Shunda hojib Abu-l-Horis Arslon – sulton Mahmudning sarkardasi va sobiq quli, Tus va Xurosonning voliysi sulton maslahatiga kirmay ularni ozod qiladi va ular Xurosonga qochib o‘tishadi³.

Mikoil Xuroson amidi Abu Sahl Ahmad ibn al-Hasan al-Hamduniy⁴ bilan yaqinlashadi. Amid Mikoildan olingan hadiyalari o‘rniga ularga Dandanakon yaylovlarida qo‘nishlariga ijozat berdi va ular shu joyda qoladilar. Juzjoniyy (I,119 va keyingilari.), Abu-l-Fazl Bayhaqiyyning “Tarix-i Nosiriy” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, sulton Mahmud Jayhundan 4 ming saljuq oilalarini ularning amirlari Yag‘mur, Bug‘a, Ko‘k-Tosh, Qizil, Mansur va Anas-o‘g‘li boshchi-

¹ Mufasssal qarang: Mercil E. Sultan Gazneli Mahmud. – Ankara, 1987. – S. 168.

² Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах. – С. 109-114.

³ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор. – Б.15.

⁴ Байхакийда – Хамдавий.

ligida ko‘chirib, ularni Xurosonning Farova, Saraxs va Abevardida joylashtirgan. Bularni manbalarda Iroqi Ajamda joylashganlari uchun “Iroq turkmanlari” (turkmon – turklarga o‘xshagan qavm) deyishgan.

422 yili rabi’ II oyida/28 mart–25 aprel 1031 yil sulton Mahmud ibn Sabuktegin vafot etganda, u o‘z mamlakatida turklar – Saljuq hamrohlarining avlodlarini joylashtirganidan afsus chekar, ulardan xavfsirar va ularni kelib bu joyni egallashlaridan norozi bo‘lgan¹.

Sulton Mahmud vafot etgandan so‘ngra uning taxtini o‘g‘li Abu Said Mas‘ud ibn Mahmud ibn Sabuktegin egalladi. U turklarga qarshi G‘aznadan qo‘shin yuboradi. Ular turklarga hamla qilib yo‘lboshchilari Yabg‘u Arslon deganni asir olishadi. Uning asl nomi Isroil ibn Saljuq edi. Isroilni G‘aznaga yuborib, qal‘alardan biriga zindonband etadilar va shu yerda u 1032 yili vafot etadi. Undan ikkita o‘g‘il qoladi, birining nomi Qutulmish bo‘lgan.

Saljuqlarning boshqa bir qismi Arslon vafotidan keyin Buxoro atrofida qoladilar. Biroq ularni ham sulton Mahmud tormor etadi. Shundan keyin saljuqlarni Xurosonga majburan ko‘chirish boshlandi. Mas‘ud barcha saljuqlarning chorvalarini haydab olib kelish uchun ularning oldilariga Tus shihnasini yubordi. Xuroson shihnasining ismi, yuqorida ma‘lum bo‘lganidek – Abu-l-Horis Arslon hojib bo‘lib, u saljuqlarni Xurosonga ko‘chirishlariga qattiq qarshilik qilardi. Mazkur shihnaning zulmidan qutulish uchun saljuqlar Xuroson amidi Abu Sahl al-Hamduniyni o‘rtaga solib, katta miqdordagi hadiyalar evaziga Dandanakon atrofidagi yaylovlarni qo‘lga kiritdilar.

Sulton Mahmud vafotidan keyin hukumat tepasiga kelgan Mas‘ud (1030– 1041) Yag‘mur, Bug‘o, Qizil va Ko‘k-Tosh boshchiligidagi saljuqiylar lashkarini huzuriga chorladi. Saljuqlarning otliq qo‘shiniga “saroyning johil hojibi bo‘lgan Xumor Tegin Turshoh” tayinlandi (Bayhaqiy, 536). Tez orada bu qo‘shin jazo berish maqsadida Belujistonga yuborildi. Saljuqiy askarlari maosh olmaganlari bois o‘zlarining g‘aznaviy sarkardalaridan norozi edilar. Ko‘p o‘tmasdan ularning amirlari Mas‘udga qarshi suiqasd uyushtirdilar. Lekin u amalga oshmadi va Mas‘ud Yag‘murni tarafdorlari bilan yo‘q qilishga qaror qildi. Ularni tutib olib qatl qildi². Bu ham saljuqiylarning noroziligi va harakatlariga sabab bo‘ldi³ 1031, 1033 va 1034 yillarda saljuqlar Faro-

¹ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор ад-давла ас-салжукийя. – Б.16.

² Байхакий, 355, 548.

³ Агаджанов С.Г. Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI - XII вв. – Москва, 1991. – С.195.

va, Gurgon, Hindiston, Xuroson va Saraxsda bosh ko'tardilar, biroq bu harakatlar qattiq tarzda bostirildi¹.

1035 yili may oyining boshlarida saljuqlar 10 ming otliq askar bilan To'g'ulbek va Dovud, Yabg'u Ertosh boshchiligida Marvdan Nisoga kelishadi. Ular Xuroson amidi Abu-l-Fazl ibn al-Muizz as-Suriyga noma yuborib, g'aznaviylarga shimoldagi chegaralarni himoya qilishda o'z xizmatlarini taklif qiladilar. Bu maktub matnini Bayhaqiy (576–577) keltirgan.

Shundan keyin amir Mikoil ibn Saljuq vafot etadi. Undan o'g'illar – amir Ertosh yabg'u, Chag'ribek Dovud (Ertosh-yabg'u Yusuf Yinalning o'g'li bo'lgan. Chaqir – ko'kko'z degani, biroq uning nomi Chag'ri (Lochin) dan olingani aniq. Chag'ribek 990-1060 yy. amir edi) va To'g'ulbek Muhammad qoldilar. Ularning qabilalari va boshqa turklar To'g'ulbek atrofida jam bo'lishadi, chunki u aka-ukalari orasida eng ulug'i bo'lgan.

Turklarning kuchayib ketayotgani xabarini eshitgan Mas'ud ibn Mahmud ibn Sabuktegin ularga qarshi yurish boshlaydi va Nishopurga 3 iyun 1035 yili kelib tushdi².

1035 yil iyulidagi jangda g'aznaviylar mag'lub bo'ldilar va saljuqiylar ularga nisbatan o'zlarini ancha erkinroq tutib, yangi yerlarga talablari ham oshadi. G'aznaviylarning zaifligidan foydalanib sajuqiylar yangi hududlarga bostirib kira boshladilar.

To'g'ul o'ziga Nishopurni, Chag'ribek Dovud Marv va tog'dan o'tish joyidan nari tarafini tanladi. Hijriy 428 yili, rajab oyining birinchi juma kuni /22 aprel 1037 yili Marv aholisi "Malik al-Muluk" (shohlar shohi) laqabi bilan Chag'ribek nomiga xutba o'qidilar³.

Shundan keyin To'g'ulbek "as-Sulton al-muazzam Ruknu-d-dunyo va-d-din Abu Tolib" degan laqabni oldi⁴. Bayhaqiy ma'lumotiga qaraganda Saraxs yaqinidagi Suboshining mag'lubiyatidan so'ng Nishopurga To'g'ulbekning amakivachchasi Ibrohim Yinal 200 nafar otlig'i bilan keladi. U shaharga elchi yuborib shahar qozi kaloni Sayyid Abula'luga u saljuqlar qo'shinining ilg'or qismi bo'lganini xabar berib, shaharni topshirish va xutbada Mas'ud nomini o'qimas-

¹ Маркрян, С.А. Общественно-политические изменения в Иране в эпоху "Великих сельджуков" (1038-1092 гг.). Дисс.канд. ист. наук. – Тбилиси, 1984. – С.46.

² Садриддин ал-Хусайний. Ахбор. – Б. 17.

³ Ибн ал-Асир, VIII, 24.

⁴ Байхакий 673; Ибн ал-Асир, VIII, 25.

likni talab qildi. Shahar a'yonlari tavakkal qilmasdan shaharni topshirdilar. Sha'bon oyi 428 hijriyda. (30 may –27 iyun 1037) Nishopurda To'g'ulbek nomiga xutba o'qildi.

Manbalardan ma'lum bo'ladiki, saljuqiylar o'zlariga aynan To'g'ulbekni qabila boshlig'i qilib saylaydilar. Xutba ham Nishopurda uning nomiga o'qildi. To'g'ulbek uch minglik lashkari bilan Nishopurga kirib, ertasi g'aznaviy sultonlarining taxtiga o'tirdi. Uning huzuriga shahar qozisi va Ali ibn Abu Tolib avlodlarining boshlig'i – naqib Sayyid Zayd ibn Muhammad ibn al-Muzaffar Bayhaqiy (vaf. 1048/49) itoat izhor etib keldilar¹.

Nishopurni saljuqiylar 429 hijriy yil ramazoni (7 iyun – 6 iyul 1038)da oldilar va saljuq askarlari shaharni talon-toroj qilmoqchi bo'lganlarida To'g'ulbek ramazon oyini sabab ko'rsatib ularga buni man qildi. Ramazon o'tgach Chag'ribek yana talashni talab qildi va bu navbatda ham To'g'ulbek uni to'xtatdi. Bu vaqtga kelib To'g'ulbek xalifa al-Qoim bi amrilloh(1031–1075)dan talash va murdakashlik qilishni maslahat bermaydigan maktub olgan edi. Shunda Chag'ribekka 40 ming dinor berib uni To'g'ulbek talon-tarojdan to'xtatdi. Bu mablag'ning 30 mingini nishopurliklar bergandilar.

29 mart 1039 yilgi Balx muhorabasida Chag'ribek dastalarini g'aznaviylar mag'lub qilgandilar².

Sulton Mas'ud yarashish uchun ularning huzurlariga elchilarni yubordi. Shunda sulton saroyiga amir Yabg'u kelib yaxshi qabul qilinadi³.

Sulton Mas'ud Nishopurdan Saraxsga kelganida davlatini saqlashdan umidini uzdi. 1039 yili iyunida Saraxsda saljuqiylarni Mas'ud tormor qiladi. Biroq saljuqiylar tezda o'zlarini tartibga keltirib, ustiga g'aznaviylar qo'shinini suv bilan ta'minlaydigan anhorni to'sdilar. Natijada Mas'ud mag'lub bo'ladi.

Sulton Mas'ud Marv tarafiga otlandi va ikkala lashkar Dandanakon darvozalari oldida uchrashdi⁴. Sulton va uning qo'shini tor-mor bo'lib qochishdi.

G'alabadan keyin To'g'ulbek, endi sulton nomi bilan Abu Ishoq al-Fuqoiy orqali xalifa al-Qoim bi amrillohga maktub yuborib

¹ Байхақий, 676–677.

² Байхақий, 694–695.

³ Байхақий, 697.

⁴ Саллобий Али Муҳаммад. Давлат ас-саложиқа. – Б. 28 ва кейингилари.

g'alabadan uni xabardor qiladi. Bu g'alaba sharafiga To'g'rubek Marv va Xuroson aholisini uch yillik xiroj to'lashdan ozod qiladi.

Sulton Mas'udning o'g'li Mavdud taxtga kelgani bilan (1041–1049) uning ukasi Majdud ham taxtga da'vo qila boshladi. Biroq G'aznaga borish yo'lida 11 avgust 1041 yili Lahorda to'satdan vafot etadi¹.

Mavdud saljuqiylar bilan urush olib bormoqchi bo'ldi, ammo 1043 yilning avgustida u Alp Arslon tomonidan mag'lub qilindi. Mavduddan so'ng taxtga uning yosh o'g'li Mas'ud I o'tirdi. U bir yil hukm surdi. Mas'ud I ning o'g'li Abulhasan Ali uni taxtdan tushirdi². Ali taxtni ikki yil egallab turadi. Uni afg'onlar taxtdan tushirdilar va sultonlik Mahmudning o'g'li Abu Mansur Abd ar-Rashidga (1050 y.) o'tadi.

G'azna sultonlarining To'g'rubuzon otli bir qullari bo'lgan. Ulardan qochib saljuqiy maliklari qoshida panoj topgan edi. Uni turklardan iborat qo'shin bilan qaytarib yubordilar, lekin Abdurashid u bilan urushishdan o'zini olib qochib, u yerdagi qal'alardan birida yashirinib oladi. To'g'rubuzon sulton va amirlar qarorgohini qo'lga olib, davlat taxtini ham egalladi. Ozod qilgan qullardan biri, oldin sulton Mas'udning joriyalaridan bo'lmish Jalila ismli ayolga uni majburlab uylandi. U sulton Abdurashidni qal'adan chiqishga majbur qildi va o'z qo'li bilan uni va ukalari Sulaymon va Shujo'ni o'ldirdi. Bir kechada u yana o'n nafar garovga olingan sulton Mas'ud farzandlarini ham shaxsan qatl qiladi³.

Sulton Mas'udni ham Anushtegin ismli bir quli bo'lgan. U bir kuni To'g'rubuzon huzuriga keladi va uning boshi ustiga kelib uni va o'n nafar xizmatkorlarini o'ldiradi. (Ibn al-Asir (VIII, 62) ma'lumotiga qaraganda To'g'rubuzonni hind amiri Xirxiz nomli, Juzjoniy va Bayhaqiy esa uni silohdor Anushtegin "To'g'rubuzon" o'ldirgan degan. Fikrimizcha oxirgi ma'lumot to'g'ri).

Qal'adan sulton Mas'udning o'g'li Faruxzodni ozod qilib davlat taxti ustiga o'tirgizdi. Bu voqea 443 yili zu-l-qa'da oyida/5 mart–3 arel 1052 yil sodir bo'ladi⁴.

¹ Ибн ал-Асир, VIII, 28.

² Қаранг: Kesik M. Turkiye Selçuklu Devleti tarihi Sultan I. Mesud donemi (1116 - 1155). – Ankara, 2003.

³ Ибн . ал-Асир, VIII, 61-62.

⁴ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор... – Б. 30.

To'g'ul Buzondan keyin Mas'ud o'g'li Farruxzod taxtga o'tiradi. Uning hukmronligi davrida saljuqiylar qo'shini Bust tevaraklariga yaqinlashadi. Ularga qarshi Farruxzod Anushteginni – To'g'ul Buzon qotilini yuboradi. Saljuqiylar qo'shini tormor keltirildi¹. Ibn al-Asir ma'lumotiga qaraganda amir Xirxiz (yoki – Anushtegin) Chag'ribek Dovud va uning o'g'li Alp Arslon qo'shinini mag'lub qilib lashkarning barcha narsalarini qo'lga oldi. Farruxzod saljuqiylarga qarshi ulug' amir (amiri kabir) Gulsariqni yubordi. U ham Alp Arslonni mag'lub qiladi.

Farruxzod taxtda 451 yili, shanba kuni 16 safargacha/ 5 aprel 1059 yil qoldi. Farruxzoddan keyin uning ukasi Ibrohim, Sulton Mas'udning o'g'li hukmronlik qiladi.

Sulton Ibrohimning Mas'ud degan o'g'li sulton Alp Arslon qiziga, so'ngra Malikshoh ibn Alp Arslon ibn Dovud ibn Mikoil as-Saljuqiyning qizi – Javhar xotunga uylangan edi. Kelinning qalinpulisi G'aznadan Isfahonga olib kelindi. Bu xotin Isfahonda "Mahd al-Iroq" (Iroq beshigi) laqabini oldi (Xotunning forscha ismi Gavhar ekanini Sadriddin al-Husayniy keltiradi. Sulton Ibrohim o'zidan keyin 40 qiz va 36 nafar o'g'il qoldirgan edi. Uning bir qizi "Tabaqoti Nosi-riy"ning muallifi Juzjoniyning katta buvisi bo'lgan ekan)².

Mahmud ibn Sabuktegin vafotidan so'ngra davlat taxtiga Aloud-davla Abulmuzaffar Mas'ud (III) o'tirib 492 yildan 508 yilgacha hukmronlik qiladi.

1115 yili Mas'ud III vafotidan so'ngra 12 o'g'il qolgan edi³. O'g'li Kamol ad-davla Sherzod uning taxtini meros qilib oladi, bir yildan keyin uni ukasi Arslon o'ldirdi. Mas'ud III ning tirik qolgan o'g'illaridan Bahromshoh Sulton Sanjar himoyasiga o'tadi⁴. Arslon faqat Zamindovar va Garmser hukmdori edi. Arslon o'z otasining bevasi Sulton Sanjar singlisiga qarshi chiqqanida Ibrohim tuzgan shartnoma buzildi va g'aznaviylar taqdiri ham hal bo'ldi. Sanjar Zobulistonni zabt etib G'aznaga qo'shin tortdi. Arslon mag'lub bo'lib Hindistonga qochdi va 511 yili shavvol oyida vafot etadi. Bahromshoh (1118–1153) hukmdor deb e'lon qilindi. Uning davrida g'aznaviylar imperiyasining qolgan qismlarini G'uriylar bosib olishdi. Xusravshoh

¹ Ибн ал-Асир (VIII, 62).

² Табақоти Носирий. – Б.104, 108-109.

³ Ибн ал-Асир, VIII, 269.

⁴ Ибн ал-Асир, VIII, 270; Жузжоний, 108.

(1153–1160) va Xusrav-Malik davrlarida (1160–1182) gʻaznaviylar mulklari Gʻuriylar tarafidan butunlay bosib olindi.

Xuroson Sabuktegin avlodlari qoʻshinlaridan ozod boʻlgach bu yerda saljuq maliklari joylashdilar va Malik Chagʻribek Marvga kirdi va butun Xuroson uning itoatiga oʻtadi.

Tez orada 430 yili/3 oktabr 1038–22 sentabr 1039 yili saljuqiylar mulklarni oʻzaro boʻlib oldilar: Chagʻribek Dovud ibn Mikoil ibn Saljuqqa Nishopurdan Jayhungacha, keyin Movarounnahrda qoʻlga kiritilishi mumkin boʻlgan barcha yerlar tegdi. U Xorazm, Buxoro va Balxni egalladi. Ibrohim ibn Yinal, sulton Toʻgʻrulning togʻasiga Kuhiston va Jurjon/Gurgon, Abu Ali al-Hasan ibn Muso ibn Saljuqqa Hirot, Bushanj, Sijiston va Gʻur viloyati tegdi. Shu 430 yili sulton Toʻgʻrulbek Iroqni bosib oladi.

Taʼkidlash lozimki, Dandanakondagi 1040 yili iyun oyidagi gʻalabadan keyin saljuqlar oʻzlarining birinchi qurultoy (sʻezd)lariga yigʻildilar. Unda Chagʻribek Dovud, Toʻgʻrulbek, Ertosh-Yabgʻu, boshqa togʻa va amakivachchalar, qabila oqsoqollari, qoʻshin amirlari qatnashdilar¹. Bu qurultoyda Toʻgʻrulbek asosiy oʻrinda edi va uning chiqishidan soʻngra shunday qarorga kelindiki, tuzayotgan davlatda butun Saljuq urugʻi masʼuldir va aksariyatning manfaati uchun u birlashishi lozim. Hammaning maqsadi bir – “Dunyoga egalik qilish” va alohida urugʻlarning manfaatlari unutilib, umumiy maqsad uchun barcha birlashishi zarur².

Bu murojaatnoma yangi tashkil topgan saljuqiylar davlatining birinchi akti edi. Bu maktubdan keiyn gʻaznaviy va saljuqiylar davlatlarining mulklari oʻrtasidagi boʻlinish yuz berdi. Dandanakon gʻalabasidan bir yil

¹ Er-Ravendi Muhammed b. Ali b. Suleyman er-Ravendi. *Rahat-us-Sudur ve Ayet-us-Surur*. (Gonuller// Rahati ve Sevinc Alameti.) Farsca metinden Turkceye ceviren Ahmet Ateş. I.cilt. Ankara, 1957. С. 101–103; Нишопурий, 17.

² Нишопурий, 17–18; al-Bundārī ‘Alī ibn Muhammad al-Isfahānī. *Tawārīkh Āl-i Saljūq*, abridgement of ‘Imād al-Dīn al-Isfahānī’s book (*Kitāb Zubdat al-Nusra wa Nukhbat al-’Usra*). – Leiden: E. J. Brill, 1889.7–8; Er-Ravendi Muhammed b. Ali b. Suleyman er-Ravendi. *Rahat-us-Sudur ve Ayet-us-Surur*. (Gonuller// Rahati ve Sevinc Alameti.) Farsca metinden Turkceye ceviren Ahmet Ateş. I.cilt. Ankara, 1957, 101–102; Рашид ад-дин, 11/5, 18-19.; Саллобий Али Мухаммад. *Давлат ас-саложиқа*. – С.39-42. Маркарян, С.А. *Общественно-политические изменения в Иране в эпоху "Великих сельджуков"* (1038-1092 гг.). Дисс.канд. ист. наук. – Тбилиси, 1984. – 76.

o‘tgandan keyin To‘g‘rul nomi bilan Nishopurda tanga zarb qilindi. Keyin Rayda tangalar uning nomi bilan zarb qilindiki, bu To‘g‘rulni rasmiy jihatdan saljuq davlatining rahbari sifatida ko‘rsatardi.

Sulton To‘g‘rul Shihobu-d-davla Qutalmish ibn Isroil ibn Saljuqni Armaniston tog‘lari va Ozarbayjonga yubordi va u bu yerlarni zabt etdi. U Mosul va qo‘shni bo‘lgan Diyor Mudar nohiyalarini arablar amiri Quraysh ibn Badron ibn al-Musayyib ibn al-Muqallad al-Uqayliydan tortib oldi (Alam ud-Din Izz ad-davla Abu-l-Maoli Quraysh ibn Badron – uqayl qabilasidan. Nisibin, Mavsula va Anbarning hukmdori. Hijriy 453 yili (1061) vafot etgan).

448 yili/21 mart 1056 – 9 mart 1057 yil amir al-muminin al-Qoim bi amrilloh malik Dovud ibn Mikoil ibn Saljuqning qizi Arslon Xotun Xadichaga uylandi va 100 ming dinor qalinpuli berdi. Shu bilan birga To‘g‘rulbek xalifaning qiziga uylanadi. Xalifa To‘g‘rulga yetti qavat sarpo berib, unga marjon va bilakuzuklar hadiya qilib, u bilan ahdnoma imzolab, qo‘l ostida bo‘lgan mulklarga uni hukmron etib tayinladi, xutbada esa uni “sulton al-Mashriq va-l-Mag‘rib” (Sharq va g‘arb sulтони) deya tilga oladi. Sulton To‘g‘rulbek Bag‘dodga 447 yilning ramazonida/24 noyabr – 23 dekabr 1055 yil kirdi. Uning nomiga xutba o‘qilib, tanga zarb qilindi. To‘g‘rulbek “Rukn ad-davla va-d-Din as-Sulton al-Muazzam Abu Tolib To‘g‘rulbek Yamin amir al-Muminin” degan faxriy laqablarni oladi.

Biroq bu yerda Bag‘dodda sodir bo‘lgan voqealar saljuqiylarning xalifalik ishlariga aralashuvlariga sabab bo‘ldi. Abu-l-Haris Arslon al-Muzaffar al-Basosiriy (1060 y. o‘ld.) – turk sarkardasi, Fors va Iroq Buvayhiylarining davrida (932–1055) Bag‘dod qo‘shinining qo‘mondoni bo‘lgan¹. Xalifa al-Qoim bi amrilloh davrida vazir Al-Basosiriyning o‘zboshimchaligi va u boshqarayotgan shialik guruhlarining faoliyati xalifa amir al-muminin al-Qoim bi amrilloh va vazir paic apuaco Abu-l-Qosim Ali ibn Maslamaning noroziliklariga olib keldi. Bag‘dodliklar sulton To‘g‘rulga maktub yo‘llab al-Basosiriyga qarshi yordam so‘rashadi.

14 zu-l-hijja 449 yili, chorshanba kuni/11 fevral 1058 yili, chorshanba kuni sulton qat‘iyat bilan Xurosondan katta lashkar bilan chiqadi. U Bag‘dod hududlariga yaqinlashgach al-Basosiriy qochib ketadi, cho‘llarni kezib o‘tib Shomning shaharlaridan bo‘lmish ar-

¹ Саллобий Али Мухаммад. Давлат ас-саложиқа. – С. 48 ва кейингилари.

Rahbaga kelib tushadi. Misr hukmdori al-Mustansir (Abu Tamim Maod al-Mustansir billoh – Fotimiylardan bo‘lgan Misrning sakkizinchi xalifasi (1036–1094)) unga qimmatbaho sarpolar va hadiyalar yuboradi. Al-Basosiriy bilan birga Bag‘dodda Oli Buya (Buvayhiylar) xonadonidan al-Malik al-Rahim Abu Nasr – Azduddavla Xusravning nabirasi ham bor edi (Abu Nasr Xusrav Firuz al-Malik ar-Rahim [1048 – 1055) – Buvayhiylar sulolasining oxirgi vakili, Fors va Iroq (Bag‘dod)ning hukmdori.)¹. Al-Basosiriy uni tashlab qochadi.

Sulton Turulbek Bag‘dodga 450 yili safar oyining 25 sanasida/23 aprel, 1058 yil keladi. Sulton To‘g‘rulning Bag‘dodga kirishi bilan fotimiy xalifaning nomi xutbadan olib tashlandi va 1055 yili dekabrda Abu Nasr al-Malik al-Rahim al-Jibaldagi Siravon qal‘asida hibsgilindi. Keyin Ray yaqinidagi Taborak qal‘asiga tashlandi. 450 yili ramazonning oxirlarida u tutqunlikda shu qal‘ada vafot etdi.

Buvayhiylar sulolasi 334 yil, jumada II oyidan 447 yil ramazonning oxirigacha, ya’ni 113 yilu 4 oy hukm surgan.

Sulton To‘g‘rul ibn Mikoil ibn Saljuq Bag‘doddan 5 rabi II kuni 452 /9 may 1060 yil chiqib ketgan. U juma kuni, 18 ramazon 455 / Payshanba, 4 sentabr 1063 yili vafot etadi.

To‘g‘rulbek Marvda, akasi al-Malik Chag‘ribek Dovud ibn Mikoil ibn Saljuq qabri yonida dafn etilgan².

Saljuqiylardan malik Chag‘ribek Dovud, yuqorida aytilganidek 1040 yilning kuzida Balx yaqinida g‘aznaviylar qo‘shinini sulton Mavdud boshchiligida mag‘lub qilib Balxni qamal qiladi. Qamalda g‘aznaviylarning amirlaridan biri Oltintosh bo‘lgan. U shaharni Chag‘ribekka topshirib uning xizmatiga o‘tadi va malik Chag‘ribek Dovudga mingta otni abzallari bilan hamda dastasi 60 misqolli la‘ldan bo‘lgan bir pichoq hadya qiladi. Bu pichoq saljuqiylarning xazinalarida 548 /29 mart 1153–17 mart 1154 yilgacha, o‘g‘uzlarning istilolarigacha bo‘lganini Sadriddin al-Husayniy xabar bergan³.

Juzjon, Bodg‘is, Xuttalon va boshqa shaharlarni bosib olgan Chag‘ribek sariq kasalligiga (icterus) chalindi. Bundan foydalangan g‘aznaviy sulton Mavdud 1044 yili Balx va Toxaristonni qo‘lga

¹ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.161 ва кейингилари.

² Коумен М.А. Туғрул-бей. – Ankara, 1986. – S. 122/

³ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор...– Б. 45.

kiritish uchun lashkar yuboradi. Biroq saljuqiylar Alp Arslon boshchiligida g‘aznaviylarni tormor etishdi.

U otasi malik Dovud huzuriga kelganida g‘alabadan kasallik yo‘q bo‘lib sog‘ayib ketadi.

Shu yili bahorda malik Dovud o‘g‘li bilan birga Termez qal‘asi tomon azm qilib ravona bo‘ladi. Qal‘a kutvoli shayx al-kotib al-Bayhaqiy edi. Malik Dovud unga yozdi: “G‘azna sultonlariga umid va ishonchni qo‘ygin. Ular haqidagi yodgorlik Xurosondan yo‘qolgan va ularning baxtiyorlik izlari yopilib ketgan”. Amirak al-Bayhaqiy (Kutvol – qal‘a boshlig‘i. Termiz qal‘asining kutvoli bo‘lgan Abu-l-Hasan ibn Muhammad – “Amirak Bayhaqiy” laqabi bilan 15 yil davomida qal‘ani saljuqiylardan himoya qilgan. Qal‘ani topshirib, saljuqiylarga xizmat qilishdan bo‘yin tovlab u G‘aznaga ketadi va u yerda 1056 yili vafot etadi) ularning madadidan umidini uzib qal‘adan chiqdi va o‘zining mulklarini, Bayhaqdagi uyini vazir Abu Ali ibn Shozon/Shodon (Abu Ali ibn Shazan/Shodon – Balx mutavallisi, malik Alp Arslon vaziri¹. Uning xizmatida kotib vazifasida bo‘lg‘usi vazir Nizomulmulk xizmat qilgan²)ga berdi, o‘zi G‘aznaga ketdi.

Malik Dovud Balx, Toxariston, Termiz, Qubodiyon, Vaxsh va Valvolijga sulton Alp Arslonni voliy etib tayinlab unga yordamchi qilib vazir Abu Ali ibn Shodonni bergan. Mazkur vazir kerakli darajada bu viloyatni tartibga keltirdi va o‘limi yaqinlashgach u sulton Alp Arslondan vazirlikni undan keyin Nizomulmulkka berishni so‘radi³.

Shundan keyin Xorazm hukmdori isyon ko‘taradi (Shu vaqtda Xorazmni Jand hukmdori Shoh-Malik g‘aznaviylar buyrug‘i bilan egallagan edi. Shoh-Malik muhorabalardan birida (1043 y.) halok bo‘lgach, Xorazm 1077 yilgacha saljuqiylar mamlakati tarkibiga kirgan)⁴. Malik Dovud Xorazm sari ravona bo‘lib, bir haftada Hazorasgni

¹ Koymen M.A. Buyuk Selçuklu imparatorluğu tarihi. III. Alp Arslan ve zamanı. – Ankara, 2001. – S. 66.

² Bosworth C. Edmund, Towards a Biography of Nizam al-Mulk: Three Sources from Ibn al-‘Adim, // Geoffrey Khan (ed.), Semitic Studies // Honour of Edward Ullendorf. – Leiden, 2005.

³ Анвари, Хасан. Истилохоти девонии давраи Газневи ва Салжуки. (Терминология диванов эпохи Газневидов и Сельджукидов). Второе издание. – Тегеран: Интишороти Сухан ва китобхонаи Тахури, 1373 г.х. (1954). – С.22.

⁴ Ибн ал-Асир, VIII, 33–34.; Маркарян, С.А. Общественно-политические изменения в Иране в эпоху "Великих сельджуков" (1038-1092 гг.)...– С. 168.

zabt etdi. Keyin u Gurganj nohiyalarini o‘z tobeligiga kirgizdi va tez orada boshqa o‘lkalar ham uning tasarrufiga kirgani xushxabari tarqaldi. So‘ngra unga qipchoqlar amiri qo‘shildi va u Dovud qo‘lida islomni qabul qildi. Shundan keyin ular o‘rtasida qarindoshlik paydo bo‘ldi.

Keyinroq sulton Mavdud tevarak maliklariga nomalar yozib ulardan madad so‘rab yordam berishga da‘vat qildi. Zikr qilingan amirlar o‘z mulklaridan sulton Mavdudning o‘lgan xabarini eshitmay yurishga chiqqan edilar. Ulardan biri Isfahon amiri al-amir Kolijor cho‘lda barcha lashkari halok bo‘ldi va o‘zi xasta bo‘lib Isfahonga qaytdi (Imodad-din Abu Kolijor ibn Sulton ad-davla, kokuiy (1024– 1048) – saljuqiylarning birinchi yurishlari davrida Hamadon va Nihovand hukmdori. G‘aznaviylarning ittifoqchilaridan. O‘rtada sulh bitimi imzolangach sulton To‘g‘rulbek Abu Kolijorning qiziga, Abu Kolijor esa Chag‘ribek Dovudning qiziga uylanadi). Imodad-din Abu Kolijor ibn Sulton ad-davla, Kakuiy (1024– 1048) – saljuqiylarning birinchi yurishlari davrida Hamadon va Nihovand hukmdori. G‘aznaviylarning ittifoqchilaridan edi. O‘rtada sulh bitimi imzolangach sulton To‘g‘rulbek Abu Kolijorning qiziga, Abu Kolijor esa Chag‘ribek Dovudning qiziga uylangan edi¹.

Sulton Mavdudning vafot etgani xabarini eshitgan turklar hoqoni Termezga kirib uni xarob qildi, aholini talab, mollarini musodara qiladi. Amir Xushika Xorazm viloyatiga bostirib kirdi, ammo malik Dovud uni haydab chiqardi, sulton Alp Arslon bo‘lsa xoqonni qaytardi. Xoqon esa Jayhunga Buxoro tarafidan yaqinlashgach malik Dovud bilan sulh tuzib qaytdi.

G‘aznada sultonlik hokimiyati, aytilganidek sulton Farruxzod ibn Mas‘udga o‘tadi va u Xurosonga lashkarini yig‘ib yuboradi. Ularni amir Qutbiddin otabek Gulsarig‘ kutib oldi. Biroq uni asirga olib, zanjirband qiladilar va G‘aznaga yuboradilar. Davlat arkonlaridan ko‘pchiligi ham asirga tushadilar. Chag‘ribek Dovud Sulton Farruxzodning taxtga kelish paytida Abd ar-Rashidning o‘ldirilishidan xabar topgach, lashkarini olib G‘aznaga yurgan. Unga qarshi hojib Xirxiz boshchiligida qo‘shun chiqadi. Dovud tormor bo‘ladi va shundan keyin Farruxzod Xurosonga yurish boshlaydi. Saljuqiylar mag‘lub bo‘lishadi².

¹ Нажотова, Н. Б. Газневидо-сельджукидские отношения в XI-XII вв./ Дисс... канд. ист. наук. – Душанбе, 2011. – 34.

² Нажотова, Н. Б. Газневидо-сельджукидские отношения в XI-XII вв./ Дисс... канд. ист. наук. – Душанбе, 2011. – С. 46.

Alp Arslon otasi malik Dovud ibn Mikoildan ruxsat soʻrab oʻz lashkari bilan ularga qarshi yuradi. Gʻazna qoʻshinidagi koʻp sonli amaldor va mashhur arboblardan asirga tushadilar. Shunda sulton Farruxzod asir tushgan saljuqiy amirlarni ozod qilib, amir Qutbiddin otabek Gulsarigʻga qimmatbaho sarpolar hadiya etadi. Shundan keyin Sabukteginilar va Saljuqiylar har birlari oʻz mulklarida mustaqil hukm surishiga va begona mulkini bosib olishdan oʻzlarini tiyishga rozi boʻladilar. Bu sulhnoma matnini shayx Abulfazl al-Bayhaqiy (Abu-l-Fazl Muhammad ibn Husayn al-Bayhaqiy (995–1077)) tuzgan edi.

Malik Dovud 70 yil umr koʻrib, ogʻir jigar xastaligidan 452 yili safar oyida/7 mart – 4 aprel 1060 yili Saraxsda vafot etadi.

Alp Arslon Muhammad ibn sulton Chagʻribek Dovud Mikoil ibn Saljuq davlat idorasida Nizomulmulkka tayangani maʼlum¹.

456 yili, rabi I oyida sulton Alp Arslon Raydan Rum tarafiga ravona boʻladi. Bu yurishi uchun sulton bir guruh kurd bosqinchilari Xulvon darasidagi yoʻlda qaroqchilik qilishlarini sabab qilib koʻrsatadi. Sulton ularga zarba berib bu nohiyalar hukmronligini sulton amir Bek Arslonga beradi.

Bundan keyin sulton Ozarbayjon, Gruziya va Rumga qarshi yurishni boshlaydi va bu oʻlkalarni bosib oladi. Uning yurishlari davr manbalarida bayon qilingan.

1066 yili yanvarida sulton Alp Arslon Movarounnahr va Xorazmdagi amirlar qoʻzgʻolonini bostiradi. Sulton Isfahonga u yerdan Kirmon sari ravona boʻladi. Uni birodari malik Qovurd ibn malik Dovud ibn Mikoil ibn Saljuq (Alp Arslonning ukasi Qovurd Imod ad-davla Ahmad Qaro Arslon ibn Dovud Chagʻribek (?–1073) Kirmon saljuqiylari davlatining (1041–1183) asoschisi boʻlgan²) kutib oladi. Keyin u Kirmondan Xurosonga, soʻngra Mangqishlogʻ sari yuradi. U yerda amir Kavshutni qamal qilib kuch bilan qalʼadan chiqishga uni majbur qiladi, soʻngra amirning itoatini qabul qilib, qalʼaga yubordi.

¹ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор...– Б. 46, 50. Саллобий Али Мухаммад. Давлат ас-саложиқа. – С. 71 вва кейингилари.

² Қаранг: Кирмоний Афзалуддин Абу Ҳомид. Салжуқиён ва ғуз дар Кирмон / Таҳрири Мирзо Мухаммад Иброҳим Хубайси. Муқаддима, тасҳиҳ ва таҳшияи Бостони-и Поризи (Мухаммад Иброҳим). – Техрон: Интишороти Куруш, 1373/1994. – 746 с. (форс тилида).; Mercil E. Kirman selçukluları. – Ankara, 1989.

Bundan keyin sulton Saljuq qabrini ziyorat qilish uchun Jand va Sabron tarafiga boradi. Shundan keyin u Xorazmning Gurganjga qaytadi va o'g'li Arslon Arg'unni Xorazm amiri etib tayinlaydi. Shu yerdan Marvga, keyin Roykonga kelib, bu yerda o'g'li Jaloluddavla Malikshohni o'z vorisi etib tayinlaydi¹.

Ibn al-Asir va al-Bundariyning axborotlariga binoan 462 (20 oktabr 1069–8 oktabr 1070) yili Vizantiya imperatori katta qo'shin (200 ming askar) bilan Konstantinopoldan chiqib Suriyaga yurish qiladi va Manbij shahrini qamal qildi, uni talon-toroj qilib, barcha aholisini qirib tashladi. So'ngra ocharchilik xavfidan poytaxtiga qaytadi. Bu vaqtda Vizantiya malikasi Yevdokiya Makremvolitissa – imperator Konstantin Duka (1067)ning bevasi edi. 31 dekabr 1068 y. Yevdokiya Roman Diogenga erga tegadi va 1 yanvar 1069 y. u imperator deb e'lon qilingan edi.

Manbij aholisi sulton Alp Arslonga murojat qildilar va u 462 yili, zu-l-qa'da oyida Hamadondan chiqdi va Suriyadagi Halab va Diyor Bakrni zabt etdi. Shu yerdan 463 yili rajab oyida Vizantiyaga qarshi lashkar tortib Arjish, Malazgird, Arzon, Bitlis, Xilatni zabt etdi va bu yerdan askarlarini Ozarboyjondagi Xoy va Solmas shaharlariga olib ketdi.

Chorshanba kuni, 15 zu-l-qa'da 463 yili sulton va Vizantiya imperatori Xilot va Malazgird orasidagi az-Zuhra degan joyda yaqinlashdi. Sulton imperatorga yarashishni taklif qildi, biroq u vaqtincha yarash Rayda bo'lishi mumkin deb javob berdi.

Muhoraba Alp Arslon g'labasi bilan yakunlandi. Roman Diogen asir tushadi. Roman Diogen asirda bo'lganida saroy ahli tazyiqi bilan Yevdokiya o'zining katta o'g'li Mixail VII Dukani (1072–1078) imperator deb e'lon qiladi. Roman Diogen sulton tomonidan ozod etilgani va u imperiyaga qaytayotgani haqidagi xabarni eshitib, imperator Mixailning amakisi Ioann Duka Yevdokiya dan Roman Diogenni taxtdan tushirilgani haqida manifest talab qildi. Yevdokiya bu talabni ijro qilmagani uchun monastirga qamaladi. Keyinchalik bo'lib o'tgan o'zaro urushlarda Roman Diogen yolg'izlanib qoldi va Adanada qamal qilindi. U monastirga borish sharti bilan taslim bo'lib, taxtdan voz kechdi. Biroq bunga qaramasdan u ko'r qilindi va 1072 yili Proti orolida vafot qildi².

¹ Қаранг: Kafesoglu I. Meliksah devrinde Buyuk Selçuklu imparatorlugu. – Istanbul, 1953.

² Розен Р. Арабские сказания о поражении Романа Диогена Алп-Арсланом. II. Имад-эд-дин Исфаханский // Записки Восточного отделения (Имп.) Русского археологического общества (ЗВОРАО), I вып II. – СПб., 1886. – С.42-46.

Sulton Alp Arslonga xalifa al-Qoim bi amrillohdan g'alaba munosabati bilan muboraknoma keldi. Unga xalifa "Al-Valid as-sayyid al-ajall, al-Muayyid al-mansur, al-Muzaffar, as-Sulton al-a'zam. Malik al-Arab va-l-Ajam, Sayyid muluk al-umam, Ziyo ad-din, G'iyos al-muslimin, Zahir al-imom, Kahf al-anom, Azud ad-davla al-qohira, Toj al-milla al-bohira, Sulton diyor al-muslimin, Burhon amir al-muminin" unovnlarni bergan edi¹.

Sulton Alp Arslon 465 yilning boshida/sentyabr 1072 yili Movarounahr yurishiga o'tlanib Jayhundan Termizga keladi. U bilan birga 100 ming otliq – xalq dastalari, hasharchilar, g'ulomlar va oddiy qora xalq bor edi. Uning mo'ljali Qoraxoniylar hukmdori Shams al-mulk Tamg'och – Shams al-mulk Abu-l-Hasan Nasr I ibn Ibrohim (1068-1080) edi². Uning otasi Imod ad-davla Abu-l-Muzaffar Ibrohim ibn Ilek Nasr – Tafg'och at-Turkistoniylar haqida ma'lumotlar mavjud³. Xalifa al-Qoim bi amrilloh saroyiga elchilar yuborib u Imod ad-davla, Toj al-milla, Izz al-Umma, Kahf al-Muslimin, Malik ash-Sharq va-s-Sin, Tafg'oj ibn Bug'roxon, Sayf Amir al-Muminin, kabi unvonlarni olgan. Imod ad-davla 470 h.y. ramazon oyida (18 mart –16 aprel 1078) vafot etgan. Alp Arslon vafotidan foydalangan Shams al-Mulk Termezni bosib olib, Amudaryodan kechib o'tib Balxgacha keladi. Ikki yildan so'ng sulton Malikshoh Termezni qayta qo'lga oldi va Samarqandga qo'shin yo'lladi. Biroq Nasr yarash uchun vazir Nizomulmulkni o'rtaq solib Alp Arslon qiziga uylanib, sulh tuzdi.

Sultonning hamrohlari Marv nohiyasidagi Barzan (Sibt al-Javziyda – Berun) uzoq qamaldan keyin qal'a garnizonini taslim bo'lishga majbur qildilar. Qal'a hokimi Yusuf al-Xorazmiylar sultonga taslim bo'lishidan oldin xotini, uch nafar o'g'lini o'zi o'ldirib, ikkita pichoqni yashirgan holda qal'adan chiqadi, ammo qo'lga olinadi. U sultonga hamla qilib uni arador qildi⁴.

Sulton bundan keyin uch kun yashadi va rabi I oyining oxirgi shanbasi, 465/8 dekabr 1072 yili vafot etdi. Uning hukmronligi o'n yil davom etdi. Uning o'g'illari – Malikshoh, Takesh, Ayoq, Tutush,

¹ Sumer F., Sevim, A. İslam kaynaklarına göre Malazgirt savaşı (Metinler ve çeviriler). – Ankara, 1971. – S.120.

² Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах. – С. 104 ва кейингилари.

³ Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде // В. кн. Страны и народы Востока. – Москва, 1971. Вып. X. – С. 170-178.

⁴ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор... – Б. 72.; Шазарот аз-захаб, 51/286.

Bo‘ri Bars, Arslon Arg‘un. Uning Sora va Oysha ismli qizlari bo‘lgani ham ma‘lum¹.

Sulton o‘z o‘g‘li Malikshohni voris etib, vaziri Nizomulmulkka itoatli bo‘lishini vasiyat qilgan edi².

Sulton Malikshoh Marvga qaytganida barcha hukmdorlar unga itoat qildilar. Sulton o‘z amakisi Qovurd ibn malik Dovudga maktub yozib taxtga kelishini ma‘lum qildi.

Xoja Sharaf al-Mulk Abu Sa‘d Muhammad ibn Maysur ibn Muhammad al-Xvorazmiy (vaf. 496/6 noyabr 1100–25 oktabr 1101 y.), al-mustaufiy, sulton Alp Arslon va Malikshohlar davrida “mustaufi al-mamlaka” (davlatning moliya maslahatchisi) va “sohib divon az-zimam va-l-istifo” (zimmiylardan tushadigan soliqlar devonining boshlig‘i Nizomulmulkka bergan maslahati bilan sulton Nishopurni poytaxt sifatida tanlagandi³.

Qovurd Kirmonni meros sifatida olib, janubga yurish qilib Fors ko‘rfazidagi Hurmuz bandariga keldi va bu yerning hokimi bergan kemalar yordamida Arabiston yarimoroli sohiliga borib tushdi va Ummonni istilo qiladi. Alp Arslon vafotidan so‘ng uning vasiyatiga binoan Qovurdga Fors va Kirmon viloyatlari tegadi. Malik Qovurdga akasi sulton Alp Arslon vafoti haqidagi xabar yetib borgach, u Ummondan Kirmonga kelib taxtga da‘vo qiladi⁴.

Amir Temur Oq – amir Farruxshohning o‘g‘li va vazir Nizomulmulk malik Qovurdga noma yuborib uni itoatga da‘vat qildilar. Qovurdbek shoshilinch bilan Ummondan Kirmonga ravona bo‘ldi va besh ming otliq va to‘rt ming piyoda askar bilan sulton xazinasi turgan Rayga yurish qildi. Biroq Malikshoh undan ilgariroq yetib keldi va Qovurd umidini bog‘lagan turkmanlarga 500 ming dinor va 5 ming sarpo va qurol-aslihalarni tarqatib berdi. Qovurdbek ikki kunga kech qoldi va uning muqaddimasi Rayga yaqin joyda tormor etildi. Muhoraba 465 yili sha‘bon oyida bo‘lib Qovurdbek mag‘lub bo‘ladi.

Vazir Nizomulmulk va amid Abu-r-Rizo ishtirokida asrga tushgan Qovurd bo‘g‘ib o‘ldirildi. Qovurdbek zaharlangan. U bilan birga besh nafar o‘g‘li asir tushgan. Malikshoh buyrug‘iga binoan ularning ko‘zlariga mil tortiladi. Ulardan ikki nafari halok bo‘lishadi, Sul-

¹ Саллобий Али Муҳаммад. Давлат ас-саложиқа. – С.83.

² Садриддин ал-Хусайний. Ахбор... – Б. 78.

³ O‘sha asar – B. 80.

⁴ O‘sha asar – B. 80.

tonshoh, Turanshoh va Mardonshohlar esa tirik qolishgan. Muhammad ibn Ibrohim Qovurdbekning ikki nafar o'g'li – Amironshoh va Sultonshoh haqida axborot bergan. Boshqa variantlarga Kirmoniy Afzaluddin Abu Homid. Saljuqiyon va g'uz dar Kirmon. – S.346-347. 2 izoh. Oxirgi manbaning ma'lumotiga qaraganda Qovurdning 40 qizi bo'lib ulardan sakkiz nafaridan birini Shamsiddin Abu Tolib Zaydga va yetti nafarini uning o'g'illariga uzatgan.

Shu yilning ramazon oyida sulton Isfahonda ramazonni o'tkazib Fors viloyatini amir Ruknuddavla Qutlug' teginga, Ummon va Kirmon mamlakatlarini malik Qovurd o'g'illariga beradi (quyiroqda ularning Kirmondagi hukumatlari yoritilgan).

Sulton Rayga qaytganida ukasi Ayozy vafotining xabari keladi. Amir Shihob ad-davla Qutb al-milla Ayozy – sulton To'g'ulbekning katta o'g'li bo'lib, u ham Qovurdbe kabi taxtga da'vo qilgan. U 466 h. y. (6 senyabr 11073–26 avgust 1074) vafot etgan.

So'ngra sulton boshqa ukasi malik Shahobuddavla Takeshga Balx va Toxaristonni beradi.

Malikshoh "Mahd al-Iroq" (Iroq beshigi) laqabini olgan qizi Gavharmalikni G'azna hukmdori sulton Mas'ud ibn Ibrohimga uzatadi.

Raydan sulton Jurjon, Saraxs va Bodg'is sari ravona bo'lib amir al-umaro unvonini olgan jiyani Usmon ibn malik Dovudga Valvolij viloyatini berdi. Sulton unga: "Al-Malik al-Muayyid Rukn ad-din (Malik – dinning madadi va tayanchi)", deb xitob qildi. Sulton unga marosimlarda navba (nauba – musiqiy qutlash, tabriklash. Katta urib chalinadigan asbobl ar bilan harbiy musiqachilar/nag'orachlar ijro etishgan. Faqatgina sulton sharafiga besh marta navba chalishgan. Navba soni saroy amaldorlarning unvon va masablariga qarata bajarilgan. Sulton martabasidan past kishilarga navba man qilingan edi) urishiga ijozat berdi va unga qora chodir tikishni amr qildi.

Sulton Hirot viloyati va G'archiston nohiyalarini esa ukasi Bo'ri Barsga beradi.

Shu orada xalifa al-Qoim bi amrillohi – Abu Ja'far Abdulloh ibn al-Qodir billoh Ahmad ibn al-amir Ishoq ibn al-Muqtadir billohi Ja'far ibn al-mu'tazid al-Abbosiy al-Bag'dodiy 13 sha'bon, 467 yili vafot etadi. Onasi Badr ad-Dajiy ismli arman ayoli bo'lgan.

Al-Qoim bi amrillohga al-Muqtadiy voris bo'ldi. Uning to'liq ismi Abulqosim Izzatiddin Abdulloh ibn az-Zaxirat ad-din Muhammad ibn al-Qoim bi amrilloh ibn al-Qodir ibn Ishoq ibn al-Muqtadir

ibn al-Mu'taziddir. Uning onasi umm al-valad (joriya) armaniy ayol bo'lgan¹.

Uning xalifalik davrida musulmonlar qayta ar-Ruha va Antokiyani vizantiyaliklar qo'ldan tortib olishadi². 480 hajriy yili xalifa shofiiy shayxi Abu Ishoqni sovchilikka yuborib Malikshoh qiziga uylangan. Bu nikohdan Ja'far degan farzand olamga keladi³. Malikshoh qizining sepini 130 tuyaga ortib Bag'dodga yuborgani ma'lum⁴. Malikshoh qizini Sa'duddavla Gavharoin, amir Barsuq va boshqa a'yonlar kuzatib borgan⁵.

471 h. y. (14 avgust 1078–3 iyul 1079) Malikshoh, Naxshab yaqinida qoraxoniylar qo'shinlarini mag'lub etib, Samarqandni qamal qilishadi va xoqonni taslim bo'lishga majbur qildi. Sulton uni Isfahonga olib ketadi va uni keyinroq kechirib Samarqandga ketishiga ruxsat berdi.

Malikshoh Isfahondan Rayga qaytib, so'ngra Antokiyaga yurish qiladi. Matteos Urfaesi ma'lumotiga qaraganda (161), Antokiya (Antioxiya)ni saljuqiylar 477 h. y. (10 may 1084–28 aprel 1085) zabt etishgan. Shaharni Sulaymon ibn Qutalmish (1074-1085) olgan. Vizantiya Antokiyada 358 h. y. (25 noyabr 968–13 noyabr 969)dan egalik qilib kelgan. Antokiyani zabt etgan Sulaymon ibn Qutalmish Vizantiyani sharqdagi oxirgi tayanch punktidan mahrum etgan edi.

Malikshoh davrida saljuqiylar Suriya va Antokiyani zabt etib, Konstantinopolgacha borishgan. Malikshoh bu viloyatlarga 3 mln. tilla dinor o'lpon soldi va ular sulton xazinasiga kelib tushardi⁶.

Sultoni Abulhoris Sanjar ibn Malikshoh ibn Alp Arslon ibn Dovud ibn Mikoil ibn Saljuq, yamin amir al-muminin juma kuni, 25 rajab oyi, 477 yili al-Jazira nohiyasidagi Sanjar shaharchasida tavallud topadi.

Saljuqiylar manfaatini yoqlab yozgan ba'zi muarrixlar, jumladan Sadriddin Husayniy Sanjarni olamga kelishini ham ilohiy asos bilan talqin qilmoqchi bo'lib soxtalashtirish yo'ldan ham borgan⁷. Bir

¹ Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах. – С. 79.

² Қаранг: Nicolle D. Armies of the Caliphates 862-1098. – Oxford, 1998. – С.124.

³ Саллобий Али Муҳаммад. Давлат ас-саложиқа. – С.90.

⁴ Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. 2/308, 309.

⁵ Саллобий Али Муҳаммад. Давлат ас-саложиқа. – С.90.

⁶ Муфассал қаранг: Семенов Л.А. Из истории средневековой Сирии. Сельджукский период. – Москва: Наука, 1990. – 246 с.

⁷ Садриддин ал-Хусайний. Ахбор... – Б. 80.

tarafdin bu soxta rivoyat Sanjar hukumatining ilohiylashtirish legiti-matsiya usuli edi¹.

Malikshoh ibn Alp Arslon ibn Dovud ibn Mikoil ibn Saljuq nomini olgan saljuqiylar sultoni Isfahondan chiqqanida Bag‘dodga ra-vona bo‘lib, kasallikdan 16 shavvol, 485 yili vafot etadi².

Ibn al-Asir Sulton Malikshohni katta hududlarda hukm surganini ta’kidlab yozadi: “uning nomi bilan xutba Xitoy kengliklaridan Suri-yadagi Tarungacha o‘qilardi. Unga Yaman va Hijoz itoat qilar edi. Har yili u Konstantinopol hukmdoridan xiroj olardi. Taroz, Isfijob, Koshg‘ar, Bolosog‘un va boshqa uzoqdagi mamlakatlarning hukm-dorlari unga tobe edilar. Unga Samarqand va Movarounnahr hukmdorlari ham itoat qilardilar”³.

Malikshoh davrida juda ham ko‘p madrasa, masjid va boshqa qurilishlar amalga oshirilgan. 467 h.y. sulton va uning vaziri Nizomul-mulk barcha munajjimlarni da’vat qilib Navro‘z (22 mart) kunini yangi yilning birinchi kuni deb qabul qilishni taklif qilishadi. Bu taqvim “Jaloliya” degan nom oldi. Shu yili sulton farmoni bilan rasad-xona barpo etildi va unda mashhur olimlardan Umar ibn Ibrohim al-Xayyom, Abu-l-Muzaffar al-Isfizoriy, Maymun ibn an-Najib al-Vositiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar. Sulton rasadxona uchun maxsus mablag‘ ajratdi. Mazkur rasadxona Malikshoh vafotigacha faoliyat ko‘rsatgan.

Malikshoh davrida Umar Xayyom, Muhammad ibn Ahmad al-Bayhaqiy, G‘ars an-Ne‘ma, Abd ar-Rahmon al-Isfahoniy, Mahmud al-Koshg‘ariy, Abd al-Qohir al-Jurjoniy, ulamolar Abu-l-Qosim al-Qu-shayriy, Abu Ishoq ash-Sheroziy, al-G‘azzoliy, Abdulloh al-Ansoriy, shoir va adiblar al-Muizziy, al-Lomi‘iy, al-Gurgoniy, Abu-l-Maoli an-

¹ Cahen Claude. *Le Maliknameh et l’histoire des origines seljukides* // *Oriens* 2/I (1949), 31-65.

² Cahen C. *Seldjukides de Rum, Byzantins et Francs d’apras Seldjuknameh anonyme*. *Annales de l’Institut de Philologie et d’Histoire orientates et slaves de l’University de Bruxelles*, XI. Bruxelles, 1951. – S. 79.

³ *Ибн ал-Асир* (VIII, 121), *Отабеки*, 11; Ibn Khallikān. *Shams al-Dīn Ahmad ibn Abī Bakr. Wafayāt al-A’yān wa Anbā’ Abnā’ al-Zamān* / ed. Muhyī al-Dīn ‘Abd al-Hamīd. Cairo: Maktabat al-Nahda al-Misriyya, 1948., III, 440– 446; Er-Ravendi Muhammed b. Ali b. Suleyman er-Ravendi. *Rahat-us-Sudur ve Ayet-us-Surur*. (Gonuller// Rahatı ve Sevinc Alameti.) *Farsca metinden Turkceye ceviren Ahmet Ateş*. I.cilt. Ankara, 1957, 134–135.

Naxxos, Abu Tohir al-Xotuniy, ibn al-Xabbariy, Zafir al-Hamadoniyy va boshqa mutafakkirlar yashagan.

Arman mualliflari sulton Malikshohni “shafqatli, xiradmand, nasroniylarga xayrixoh sulton”, deb aytishgan¹;

Undan keyin o‘g‘illari – Berkyoruq, G‘iyosiddin Muhammad, Abulhoris Sanjar va ularning eng kichiklari Mahmud qoldilar. Bu farzandlaridan tashqari Malikshohning – Ahmad va Dovud ismli o‘g‘illari hamda olti nafar qizi bo‘lgan².

Sulton Malikshoh vafotidan keyin saljuqiylar davlati inqirozga yuz tutadi. Malikshoh farzandlari, aka-ukalari va nabiralari o‘rtasida boshlangan toju taxt uchun kurash uning davlatini turli hududlarda zaif qiladi. Bu davlatning turli vazifasida bo‘lgan amirlar ham bu kurashga aralashdilar. Asosiy kurash Malikshohning katta o‘g‘li Berkyoruq va uning kenja o‘g‘li Mahmud o‘rtasida boshlandi³. Mahmudning onasi bo‘lgan Turkon xotun vazir Tojalmulk ash-Sheroziydan foydalanib Bag‘dodda, yuqorida aytilganidek to‘rt yoshdan endi oshgan o‘g‘lini taxtga chiqaradi. 13 yoshga kirgan Berkyoruq esa otasi vafot etganida Isfahonda edi. Aytish kerakki, davlat va taxt manfaatlarini o‘ylab Nizomulmulk halokatidan oldin esa Berkyoruq nomzodligini qo‘llagan edi⁴.

Anatoliyada saljuqiylar davlatining tashkil topishi va salib yurishlari

Alp Arslonni Malazgirdagi g‘alabasidan keyin (1071 yil) Vizantiya harbiy qudrati shu darjada zaiflashdiki, chegara va mamlakat xavfsizligini ta‘minlay olmay qoldi. Vizantiya hududlariga uning chegarasida jamlanib turgan o‘g‘uzlar bostirib kirib uning keng dala va daralarini to‘ldirdilar. Bir vaqtning o‘zida Rum yerlarini saljuqiy sarkardalari bosib olib bu yerlarda mustaqil beyliklarni tashkil qila boshladilar⁵.

¹ Вардан, 129–134.

² Ибн ал-Асир, VIII, 145–146 148.

³ Қаранг: Ozaydin A. Sultan Berkiyaruk devri Selçuklu tarihi (485-498/1092-1104). – İstanbul, 2001. – С. 12 ва кейингилари.

⁴ Кирмоний Афзалуддин Абу Ҳомид. Салжуқиён ва ғуз дар Кирмон / Таҳрири Мирзо Муҳаммад Иброҳим Хубайси. Муқаддима, тасҳиҳ ва таҳшияи Бостони-и Поризи (Муҳаммад Иброҳим). – Техрон: Интишороти Куруш, 1373/1994. – С. 261-262.

⁵ Sumer F., Sevim A. İslam kaynaklarına göre Malazgirt savaşı (Metinler ve çeviriler). – Ankara, 1971. – S. 90.

Bu jarayonni Alp Arslon Roman Diogenni Vizantiya taxtidan tushirilishi va yangi imperatorni Roman Diogen tomonidan asirlikdan ozod etish chog'ida imzolangan shartlarni bajarishdan bosh tortgandan keyin boshlab yuboradi.

Masalan Arzirim hududida Saltuq, Arzinjonda Mingyujuq, Mardin va Xarputda Alp Arslonning eng mashhur sarkardasi Ortuq, Sivas, To'qat, Amasya, Qaysariyada Donishmand g'oziy o'z beyliklarini barpo qiladilar¹.

Xudi shu vaqtga yaqin 1073-1074 yy. Anatoliyaga Qutulmishning o'g'li Saljuqning nabirasi Sulaymon ham kirib keladi.

Qutulmish vafotidan keyin uning barcha o'g'illari asir olingan edi. Malikshoh sulton bo'lganidan keyin ularni ozod qiladi. Ba'zi taxminlarga ko'ra ular saljuqiylar orasidagi toju taxt talash vaqtida paytdan foydalanib o'zlari qochib ketishgan².

Anatoliyaga kelgan Sulaymon o'z atrofiga ko'chmanchi o'g'uzlarni jamlab Vizantiya shaharlari bo'lmish Malatiya (Meliten), Qaysariya (Kesariya), Sivas (Sevastiya), Oqsaroy va Konya (Ikanium)ni bosib oladi.

1075 y. u Marmar dengiziga chiqib Nikeya (Iznik) istehkom shaharni, keyin Izmitni zabt etib barcha bosib olingan yerlarda Iznik shahri poytaxti bo'lgan saljuqlar davlatini tuzgani haqida e'lon qiladi.

Bu haqda Bag'dodga xabar berishadi va abbosiy xalifa Konstantinopolning yaqin chegarasida sunniy islom davlati tashkil topganidan xursand bo'lib uning qonuniyligini tan olib Sulaymonga sulton unvonini beradi³.

Malikshoh yana bir mustaqil saljuqiylarning davlati tashkil topganidan ancha xavotirga tushadi. Bu ikkala saljuqiy davlatlari o'rtasidagi munosabatlar ham taranglashib Malikshoh Anatoliyaga Sulaymonga qarshi lashkar yuborib uni Buyuk saljuqiylarga tobe qilmoqchi edi⁴.

1080 yilga kelib. Sulaymon o'zining g'arbiy chegaralarini Egey dengizigacha kengaytiradi. Anna Komnina yozishicha: "Sulaymon butun Sharqni bosib oldi. Uning sultonlik qasri Nikeyada bo'lsa ham uning otliq va piyoda askarlari Bosforgacha yetib bordilar. Vizan-

¹ Sümer F. Oğuzlar (Türkmenler). Tarih-boy, teşkilâti-Destanlari. Ankara. 1972. S. 136.

² Budge Ernest A. Wallis. The Chronography of Gregory Abul Faraj ... V. 1 ... P. 226.

³ Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 63.

⁴ O'sha asar – B.56.

tiyaliklar ularni sohil bo‘ylab o‘z koshonalarida bemalol yurishlarini ko‘rib doimiy qo‘rquvda nima qilishni bilmay turardilar»¹.

Keyinchalik imperator Aleksey I Komnin (1081-1118 yy.) Bosfor va Vifiniyaga bevosita chegaradosh bo‘lgan hududlardan siqib chiqardi. 1081 y. Vizantiya Nikeya poytaxti bo‘lmish turkiy saljuqiy davlatini tan olishga majbur bo‘ladi va Vizantiya imperatori Aleksey Komnin bilan sulton Sulaymon o‘rtasida tinchlik shartnomasi imzolanadi².

Bu yarashishdan keyin Sulaymon sharq va janubi-sharqiy chegaralarini kengaytirishga kirishadi.

U Kilikiya armanlarining (1082-1083 yy.) yerlarini hamda Antioksiya (1084 y.) shahrini bosib oldi³. Keyin u Suriyaga lashkar tortadi. Bu vaqtda Suriya hukmdori Malkishohning ukasi Tutush edi. Bu yurishi bilan Sulaymon Buyuk saljuqiylar saltanatiga tajovuz qilgan-dek bo‘ladi. Sulaymon Suriyadagi bir necha mulklarni bosib olib 1085 y. Halab (Aleppo)ni qamal qiladi. Shu yerda 1086 y. iyun oyida Tutush va Sulaymon qo‘shinlari o‘rtasida katta jang bo‘lib Sulaymon halok bo‘ladi⁴. Culton yaqinlari va qo‘shinining katta qismi asirga olinadi. Sulaymonning o‘g‘illari Qilich Arslon va Qulon Arslon Malikshoh amriga binoan poytaxtga yuborildi.

Sulaymon halokatidan keyin uning saltanati parchalanib uning hududlarida bir nechta mustaqil beyliklar tashkil topadi. Saljuqiylarning bu davlatidan g‘arbda bir kichik bo‘lagigina qoladi. Sulaymon yurishdan oldin Iznikda o‘ziga Abulqosim degan vazirini o‘rinbosar etib tayinlab ketgan edi.

Abulqosim ham o‘zining buyuk sarkarda ekanini isbotlagan holda 1092 yilgacha imperator Aleksey Komninni va Buyuk saljuqiylar davlatining sultoni Berkyoruqning Iznikni bosib olish harakatlariga qarshi turib beradi.

Berkyoruq taxtga chiqqanida Iznikka sarkarda al-Barsuq qo‘mondonligida 50 minglik lashkarni yuboradi. Abulqosim esa Sulaymon farzandlari uchun Iznikni saqlaydi va Malikshoh vafotidan keyin

¹ Комнина Анна. Алексиада ... – С. 137.

² O‘sha asar.

³ Brooks E.W. Chronique de Michel le Syrien, patriarche Jacobite d’Antioche (1166-1199) / ed. and tr. J.B. Chabot. // English Historical Review, Vol. 19 (1904). – P. 768-70.

⁴ Abu 'l Farac, Gregory (Bar Hebraeus). Abu' Farac Tarihi. Cilt 1 ... – S. 333.

Qilich Arslon va Qulon Arslon Anatoliyaga qochib keladilar¹. Iznikka yetib kelganlarida Sulaymonning katta o‘g‘li sulton Qilich Arslon I (1092-1107 yy.) nomi bilan taxtga chiqadi. Sulton hukmronligining birinchi yillarida muttasil Vizantiya bosqiniga qarshi kurash olib borishga majbur bo‘ladi².

1095 y. Qilich Arslon I jangda g‘olib chiqib Vizantiya bilan sulh tuzadi va g‘arbiy chegarasida tinchlikni o‘rnatib sharqqa yurib o‘g‘uz beyliklarini birlashtirib saljuqiylar davlatini oldingi chegaralarida qayta tiklamoqchi bo‘ladi.

Bu vaqtga kelib G‘arbiy Osiyoning harbiy-siyosiy vaziyatini o‘zgartirgan voqealar sodir bo‘ladi. Kichik Osiyoda barcha yerlaridan mahrum bo‘lgan Vizantiya imperatori Aleksey Komnin papa Urban II dan harbiy madad so‘rab murojaat qiladi.

Tarixda yevropaliklarning Vizantiyaga yordami “salib yurishlari” nomi bilan kirgan³.

“Salibchilar” atamasi salib yurishi ishtirokchilari o‘z kiyimlariga salib (xoch, krest) tikib olishgani uchun paydo bo‘lgan. Yurish qatnashchilari gunohlardan poklanadi deb hisoblangani uchun yurishda nafaqat risarlar, balki oddiy aholi hattoki bolalar qatnashgan⁴.

Falastin uzoq davr arab davlatlari hukmi ostida bo‘lib, ular xristianlarga bag‘rikenglik bilan yondoshishgan. Falastindagi xristianlar uchun muqaddas sanalgan maskanlarni ziyorat qilishlariga mone‘lik qilishmagan. Saljuqiy turklar esa mutaassibliklari bilan arablardan ajralib turishgan. Endi xristianlar uchun Quddusga borish oldingidek xavfsiz bo‘lmay qoldi. Rim papalari Falastinni saljuqiylardan tortib olishmasa ziyoratgohlariga borish yo‘q darajaga tushib qolishidan xavfsirashdi.

Salib yurishi Rim papasi Urban II tashabbusi bilan Quddus va Falastinni musulmonlardan ozod qilish maqsadida amalga oshirilgan.

¹ Cahen C. Osmanlılardan önce Anadolu’da Türkler. Cev. Yıldız Moran. – İstanbul, 1970. – S. 78-82.

² Муфассал қаранг: Demirkent I. Turkiye Selçuklu hukumdarı Sultan I. Kılıc Arslan. – Ankara, 1996.

³ Мишо Г. История крестовых походов. – Москва – Санкт-петербург, 2004.

⁴ Қаранг: Васильев Л.С. История востока. Том 1-2. – Москва: МГУ, 2003.; Великие сражения крестоносцев. 1097-1444. – Москва: ЭКСМО, 2008. – 224 с.; Жан де Жуанвиль, Жоффруа де Виллардуэн. История крестовых походов. Перевод с английского И.Е.Полоцка. – Москва, 2008. Заборов М.А. Введение в историографию крестовых походов. – Москва, 1966.

Dastlab rim papasining murojaati faqat fransuz risarlariga qaratilgan edi, lekin keyinchalik katta masshtabdagi harbiy kampaniyaga aylanib ketdi. Salib yurishi g'oyasi barcha G'arbiy Yevropa davlatlarini qamrab oldi.

Salib yurishining sabablaridan biri Vizantiya imperatori Aleksey I ning Rim papasidan yordam so'rashi edi. Bir necha asr Vizantiya imperiyasi g'arb xristianlari uchun jangovar musulmonlar hujumlari-dan ajratib turadigan bufer zona edi. Biroq 1071 yildagi Mansikert (Malazgird) jangida mag'lub bo'lgan Vizantiya imperiyasi Kichik Osiyodagi katta hududidan ajraldi. Mag'rur Vizantiya imperiyasi muqarrar halokatdan qutulish uchun Rim papasidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Birinchi salib yurishidan oldin Anatoliyaning katta qismi islomning sunniylik yo'nalishidagi Rum saljuqiylari hukmi ostida edi. Xristianlar bilan kurashishga qaraganda saljuqiylarni ichki qo'zg'olonlarni bostirish, taxt talashishlar, shialarning isyonlari qattiq tashvishga solardi. Falastinni markaziy hokimiyatdan deyarli mustaqil amirlar boshqarishardi. Misrning katta qismini shia yo'nalishidagi Fotimiylar sulolasi boshqarardi. Saljuqiylar Fotimiylarning bir qism yerlarini bosib olishdi. Shuning uchun Aleksey Komnin salibchilarga Fotimiylar bilan ittifoq tuzishga maslahat berdi. 1076 yili saljuqiylar Quddusni bosib olishgan bo'lsa ham 1098 yil Fotimiylar shaharni qaytarib olishdi. Fotimiy shialar salibchilarni dahshatli dushmanlaridan qutqaruvchi xaloskor qiyofasida tasavvur qilishardi. Lekin ularning xomxayollari qimmatga tushdi¹.

O'sha davrda Yaqin Sharqdagi musulmon davlatlari taxminan bir vaqtda o'z rahbarlarini yo'qotib qo'yishdi. 1092 yili Saljuqiy sulton Malikshoh, vazir Nizom ul-Mulk, 1094 yili Bag'dodda al-Muqtadiy va fotimiy al-Mustansir vafot etdi. Bu voqealardan so'ng Misrda taxt uchun kurash, Saljuqiylar davlatida ayirmachilik harakatlari, Suriyada o'zaro urushuvchi mayda davlatlar vujudga keldi.

Yurish boshlangach Vizantiyaga yordam berish ikkinchi darajali masala bo'lib qoldi. Urban salibchilar tomonidan istilo qilinajak o'lkalar aholisini qatl etishlari va talashlariga ruxsat berdi. Uning fikricha qurbonlar dinsizlar hisoblanardi.

Ispaniyadagi Rekonkista harakati, Sisiliyaning normanlar tomonidan bosib olinishi va Shimoliy Afrika qirg'oqlariga bosqin uyushti-

¹ Федоров - Давыдов А.Л. Крестовые походы. – Москва, 2007. – С.32-34.; Эпоха крестовых походов / Под редакцией Э. Лависса и А. Рамбо. Перевод М. Першензона. – М. - СПб., 2007. – С. 348-349.

rishlari G'arbiy Yevropaning XI asrdagi tashqi siyosatini belgilab berardi. Birinchi bo'lib Quddusni turklardan tortib olish g'oyasini Rim papasi Grigoriy VII boshladi va yurishni o'zi boshqarishni xohlardi. Uning chaqiruviga 50 mingga yaqin kishi quloq osdi. Lekin Germaniya imperatori bilan kurash papaning g'oyalarini amalga oshirishga to'sqinlik qildi. Grigoriydan keyingi papa Viktor III o'tmishdoshining g'oyasini davom ettirib ishtirokchilar gunohini kechishini ma'lum qildi, biroq yurishda uning o'zi qatnashmasligini ma'lum qildi. Musulmonlarning dengizdan bo'layotgan bosqinlaridan aziyat chekayotgan Piza, Genuya va Italiyaning boshqa dengizbo'yi hududlari aholisi flotni jihozlab Afrika sohil-lariga yurish boshlashdi. Bosqin davomida Tunisning ikkita shahriga o't qo'yildi, lekin bu yurish ommani o'ziga jalb qila olmadi.

1095 yil martda Urban II Pyachensa soboridagi yig'inda qatnashdi. Bunda xristianlarga taalluqli masalalar ko'rilgan bo'lib, yig'in so'ngida salib yurishi uyushtirish haqida gap borgan. O'sha yili yozda papa Janubiy Fransiyada bo'ldi. 18 noyabrda esa Klermonda sobor bo'ldi. Soborda xristianlarga oid barcha masalalar ko'rib chiqildi, jumladan qirol Fillipning cherkovdan chetlatilishi ham. Oxirida salib yurishini tashkillashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Birinchi salib yurishi 1095 yil 26 noyabr kuni Fransiyaning Klermon shahri soborida Rim papasi Urban II tomonidan e'lon qilindi.

Ommaviy salib yurishiga targ'ib qilgan kishi bu pikardiyalik tarki dunyo qilgan hech vaqosiz Pyotr Amenskiy bo'ldi. Patriarxdan ijozat olgach Pyotr Rimga papa Urban II huzuriga yordam so'rash uchun bordi. Keyin u oyoqyalang, boshyalang bo'lib bitta kiyim bilan butun Yevropani kezib chiqdi. U o'zini Golgofada bo'lganini va mahalliy xristianlarning ahvolini kuzatib bu holatdan qattiq tashvish chekayotganini omma orasida tarqata boshladi. Shuningdek tinglovchilarga Quddusni ozod qilish zarurligini tushuntirardi. Oddiy xalq uning gapdonligiga mahliyo bo'lib qolib uni avliyo sifatida ko'ra boshladi. Hattoki uning eshagini junidan qirqib olishni ulkan baxt deb bilishdi. Shunday qilib g'oya keng omma orasida tarqaldi. Keyinchalik Pyotr Amenskiyning Falastinda umuman bo'lmagani ma'lum bo'ldi. Valter Gotshalk nomli kishi esa boshqa hududlarda odam yig'a boshladi. Qishning oxiriga borib 15 ming kishini to'play oldi. Avval u Pyotr bilan birgalikda harakat qildi, keyinroq undan ajralib frank, shvab va lotaringiyaliklardan iborat ulkan olomon to'pladi¹.

¹ Эпоха крестовых походов / Под редакцией Э. Лависса и А. Рамбо. Перевод М. Першензона. – М. - СПб., 2007. – С. 348-349.; Заборов М.А. Введение в историографию крестовых походов. – Москва, 1966.

Birinchi salib yurishining birinchi bosqichi 1096 yilning apreldan oktyabrigacha davom etadi. Yurish Urban II ning 1096 yil 15 avgustdagi qaroridan bir necha oy avval boshlangan edi. Salib yurishi o‘tkaziladigan yillari Yevropani o‘lat, qahat va ochlik larzaga solgan edi. Buning natijasida ko‘plab kishilar qashshoqlashgan bo‘lib salib yurishida qatnashishni iqtisodiy holatlarini yaxshilashning birdan bir yo‘li deb bilardilar. Bundan tashqari 1095 yildagi Oy tutilishi, meteor yomg‘iri va boshqalarni yurishning muvaffaqiyatli bo‘lishiga bashorat qilishdi. Salib yurishi G‘arbiy Yevropada katta qiziqish uyg‘otib turli xil manbalar bo‘yicha 300 minggacha kishi qatnashgan. Yurishda hattoki ayollar va bolalar ham qatnashgan¹.

Valter boshchiligidagi olomonda bor-yo‘g‘i 8 ta ot bor edi. Qolganlar eshaklarda va piyoda edilar.

Ba‘zi tarixchilar bu yurishni “oshiqcha tomoqlar”ni yo‘qotish uchun rim-katolik cherkovi tomonidan uyushtirilgan tadbir deb ta’kidlashadi. Konstantinopolgacha yo‘lga chiqqanlarning yarmi ham yetib kelmadi.

Birinchi bo‘lib salibchilarning hujumiga uchragan kishilar himoyalari uchun shahar yepiskoplariga pul to‘lashlariga qaramay yevropalik yahudiylar bo‘lishdi. Yurish aynan shu shaharlardan boshlandi. Mayns shahri yahudiylari salibchilarning bolalarni ham ayamay qirishayotganini ko‘rib ommaviy ravishda o‘z jonlariga qasd qilishdi.

Pyotr Amenskiy izdoshlari Ruan va Kyoln shaharlarida yahudiylarni qatag‘on qilishdi. Shuningdek Reyn bo‘yidagi Trir, Mayns, Shpeyer va Vorms shaharlaridagi yahudiylarni ham talon-taroj qilishdi. “Solomon bar Simeon” solnomasi bo‘yicha, “bir kishi akasini, boshqasi ota-onasini, ota-onalar bolasini o‘ldirardi”. Mahalliy ruho-niylar va mahalliy hukumat vakillarining yahudiylar qirg‘inini to‘xtatishga urinishiga qaramay salibchilar tomonidan minglab yahudiylar o‘ldirildi. O‘z qilmishlarini oqlash maqsadida salibchilar Urban II ning Klermon soborida qilich bilan nafaqat musulmonlarni, balki xristianlardan boshqa dindagi barcha kishilarni qilich bilan bo‘ysundirish haqida so‘zlagan nutqini dalil qilib olishdi. Cherkovning tinch aholini qirg‘in qilmaslik va boshqa dindagilarni yo‘q qilmasdan ularni

¹ Mathieu, (d'Edesse). Chronique. – Paris, 1858. – P. 214; Тиган О. Selçyuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 100; Мишо Г. История крестовых походов. – М. - СПб., 2004. – С.21.

xristianga aylantirish lozimligi rasman ta'kidlanishiga qaramay, yahudiylarga qarshi tajovuzlar barcha salib yurishlarida kuzatildi. Yevropa yahudiylari salibchilarga qarshi turish uchun o'zini mudofaa qilish bo'linmalarini tashkil qilishdi yoki o'z kvartallarini himoya qilish uchun yollanma qo'shından foydalanishdi va katolik cherkovining mahalliy ierarxlari bilan bitim tuzishdi. Shuningdek yahudiylar salibchilarning navbatdagi yurishidan dindoshlarini, hattoki Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikadagi musulmonlarni xabardor qilib turishdi. Bundan tashqari mablag'lar to'plab salibchilarga qarshi faol kurashayotgan musulmon amirlarining iqtisodiy quvvatini oshirish uchun yuborishdi.

Salib ostida to'plangan olomon 1096 yili bahorida asosiy harakatga o'tdi. Ular o'zlari bilan ta'minot zaxirasi olishmagan edi. Shuning uchun ular tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun yo'llarida uchragan manzilgohlarni talashdi. Ular Vengriya chegaralariga yaqinlashishganda u yerda ehtiyot chorasini ko'rib qo'yishdi. O'rta asrlarda Yevropadan Falastin ziyoratiga yo'lga chiqqan ziyoratchilarga bepul ovqat tarqatishardi. Lekin hech vaqosiz salibchilar bunday imtiyozga ega bo'lishmagani uchun talonchilik bilan kun ko'rishdan boshqa choralar qolmadi.

Qirol Kaloman qo'shini bilan chegarada salibchilarni kutardi. Agar salibchilar tartibsizlik chiqarmay tinchgina Vengriyani kesib o'tishga rozi bo'lishsa, ularni o'tkazib qo'yish va oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyatini oldi. Birinchi bo'lib yetib kelgan Gotshalk boshchiligidagi olomon graf Emikon Leyningen boshliq guruhning Chexiyada knyaz Bryachislav tomonidan yo'q qilingani haqida xabar oldi. Buning uchun o'ch olishni maqsad qilgan Gotshalk guruhi Vengriyada talon-taroj boshladi. Dunay bo'ylab harakat qilayotgan salibchilarga Nish yaqinida bolgarlar, vengrlar va vizantiyaliklarning birlashgan qo'shini qaqshatqich zarba berdi. Olomonning taxminan to'rt dan biri halok bo'ldi, biroq qolganlar deyarli talofatsiz avgustda Konstantinopolga yetib kelishdi. Keyinroq bu yo'ldan Pyotr va Valter boshliq olomon o'tdi. Ular oldingilardan ibrat olib Vengriyadan tartibni buzmay o'tishdi. Biroq Bolgariya chegarasida ularni dushmanona kutib olishdi. Ular chegara bo'ylab Vizantiya imperiyasiga kelishdi. Ko'p yo'qotishlarga qaramay salibchilar soni 180 ming kishini tashkil qilardi. Aleksey Komnin Pyotrga elchi yuborib tartibni saqlagan holda Konstantinopolga tezda kelishsa barcha zarur narsalar bilan ta'minlashini bildirdi. Haqiqatan ham salibchilar belgilangan joylarda oziq-

ovqatlar bilan ta'minlanishdi, o'sha yer aholisi ularga yaxshi munosabatda bo'ldi. Pyotr faqat Adrianopolda ikki kun to'xtab 1096 yil 1 avgust kuni Konstantinopolga yetib keldi. Bu yerda unga Valterning qolgan-qutgan guruhi birlashdi. Imperator ularga belgilangan joyda risarlarni kutishni, bu holatda turklarni yengib bo'lmashligini tushuntirdi. U Pyotr bilan suhbatlashgach uning bir xayolparast ekanligini tezda payqadi va unga sovg'alar berib qo'shiniga shaharda zo'ravonlik qilmasliklarini buyurishini maslahat berdi. Salibchilar shahar ko'chalarida yurib ajoyibotlardan ko'zlari o'ynab ketdi. Ularning sotib oladigan pullari bo'lmagani uchun kuch ishlatib tortib olishga harakat qilishdi. Shuningdek o't qo'yishlarni, xavfsizlik xodimlari bilan janjallar uyushtirishdi. Salibchilar nazarida, ular xristianlar dushmanlariga qarshi kurashdan kuch bilan ushlab qolingan edilar. Vizantiya imperatori salibchilardan tezroq qutulish uchun ularni Bosfor orqali Kichik Osiyoga o'tkazib qo'ydi.

Salibchilar Nikeyadan shimoliy-g'arbdagi Yelenopolga o'rnatishdi. Bu yer saljuqiylarga qarashli bo'lib, salibchilar ehtiyot choralarini ko'rishlari talab qilinardi. Lekin o'zboshimcha olomon Pyotrning buyrug'iga itoat qilmay atrofdagi manzilgohlarni talashga o'tdi. Bir guruh salibchilar Nikeya yaqinida turk bo'linmalarini mag'lub etdi. Pyotr bular bilan biror natijaga erishishga ko'zi yetmay risarlarni kutish uchun Konstantinopolga qaytib ketdi. Oradan ko'p o'tmay salibchilar halokatga uchrashdi. Reno de Brey boshliq katta guruh Saljuqiylar davlati poytaxti Nikeyaga yurish boshlab yo'ldagi oz sonli turk garnizonini yengib Kserigordon qal'asini bosib oldi. Lekin sulton Qilich Arslon qal'ani suv bilan ta'minlaydigan manbalaridan mahrum qilgach, qal'ani topshirishga to'g'ri keldi. Keyin sulton salibchilar lageriga josuslarni yuborib Nikeya egallangani haqida ma'lumot tarqatishni buyurdi. Yelenopoldagi salibchilar lagerida Nikeya turklardan tortib olingani haqida yolg'on xabar tarqaldi. O'ljalardan quruq qolmaslik uchun barcha Nikeyaga shoshildi. Salibchilar hiylaga uchib 21 oktabr kuni turklar tomonidan Nikeya va Drakon manzilgohlari orasidagi tor vodiya qo'yilgan qopqonga tushib qolishdi. Taxminan 25 oktabr kuni salibchilar batamom tor-mor etildilar. Ulkan olomondan faqat 30 ming kishi qutulib qolgan bo'lib ular Bosfor orqali grek qayiqlarida Vizantiya imperiyasi hududiga bir amallab qochib o'tishdi¹.

¹ Мишо Г. История крестовых походов. – Москва - СПб., 2004. – С.24.

1101 yildagi salibchilarning yurishi halokatga uchragach Suriyaga o‘rnashib olgan salibchilar qo‘shni musulmon davlatlariga qarshi kurashishga majbur bo‘lishdi. Bundan tashqari salibchilar 1099 yil bahoridan greklar bilan dengizbo‘yi shaharlari ustidan hukmronlik qilish uchun kurash boshlashgandi. Nihoyat, salibchilar orasida o‘zaro kurash boshlandi. Yaqinda tashkil etilgan tamplier va gospitaler risarlari Quddus qirolligini qo‘llab-quvvatlashardi¹.

1103 yili Qilich Arslon I Marash shahrigacha yurish qilib Antioxiya salibchilariga qarshi yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Biroq bu maqsadi amalga oshmadi. Salibchilarga qarshi ittifoqchilar bo‘lmish Qilich Arslon va Kumushtegin Donishmand orasidagi munosabatlar taranglashib keyin ochiq adovatga aylandi. Buning sababi Kumushtegin Donishmandni salibchilar bilan o‘z ixtiyori bilan Qilich Arslonni ogohlantirmasdan muzokaralar olib borishi bo‘ldi. Ulardan 100 ming dinor olib u Boemundni asirlikdan ozod qiladi. Bundan tashqari Donishmand qo‘shini Qilich Arslon maqsad qilib uni amalga oshirmagan Malatyani bosib oladi.

Qilich Arslon I buni ochiq dushmanlik sifatida baholab 1103 yili Donishmandiylarni mag‘lub qiladi. 1105 yil iyunida u Malatyani qamal qilib, sentabr oyida Yog‘isiyon Donishmand g‘oziy o‘g‘lini taslim qildi. Shu yili Qilich Arslon II butun Sharqiy Anatoliyani o‘z davlatiga qo‘shib oladi.

1106 yili salibchilar birinchi marta Vizantiya davlatiga barham bermoqchi bo‘lishdi. Yevropalik risarlar Aleksey Komninga bergan qasamlarini unutilib Vizantiyaning sobiq hududlarini o‘zlashtira boshladilar.

Salibchilarning rahnamolari imperator qarshiligi va uning noroziligiga qaramasdilar. Endi Aleksey Komnin o‘z hududlarini nafaqat saljuqiylar balki nasroniy risarlardan ham himoya qilishi lozim bo‘ldi.

1104 y. Boemund Torentskiy Vizantiya davlatiga qarshi harbiy yurish tashkil etish uchun Yevropaga yo‘l oladi. 1105 yili sentabr oyida u Rimga kelib papa Pasxaliy II bilan uchrashadi. Boemund papaning Vizantiyaga qarshi harbiy amaliyotlarni boshlash uchun roziligini olishda katoliklar va pravoslavlarning o‘zaro qarama-qarshiliklaridan foydalandi va Aleksey Komninning salibchilarga qarshi musulmonlardan ham foydalanishda aybladi².

¹ Мишо Г. История крестовых походов. – С.60.

² Комнина Анна. Алексиада. – С. 337-338.

Boemund papaning roziligini olib 1106 yili bahorida Parijga kelib Fransiya qiroli bilan, mart oyida Angliya qiroli Genrix I bilan uchrashdi va avgust oyida Italiyaga kelib yurishga tayyorlana boshladi.

Anna Komnina yozganidek: “Boemund Vizantiya taxtini zabt qilish uchun eng kuchli qo‘shin jamladi¹.

Bu rejalardan xabar topgan Aleksey Komnin Konstantinopoldan chiqib Fessalonikiga yurish qildi. 1106 yili oktabr oyining boshlarida Boemund floti Andriatik dengizidan o‘tib Avlon portida salibchilarni Ellada sohillariga tushiradi. Boemund Bolqon yarimoroliga kalit bo‘lgan Dirraxiy shahrini qamal qiladi. Aleksey Komnin ochiq jangga kirishmay Boemund qo‘shinini o‘rab olib ularni oziq-ovqatdan mahrum etadi. Salibchilar oxiri elchilar yuborib sulh so‘rab Komninga murojaat qilishadi. Dekabr oyi 1108 yili Avlonda Boemund Vizantiya imperatori bilan sulh tuzadi. Sulh mazmunini Anna Komnina o‘z asarida keltirgan. Sulh shartlariga ko‘ra Boemund o‘zini yana Aleksey Komnin va uning o‘g‘li Ioanning xizmatkori va vasaliga aylanib, Vizantiya hududlaridagi barcha yerlaridan voz kechadi, bundan tashqari u o‘z jiyani Tankred bilan agarda u Vizantiya shaharlarini ozod etmasa murosasiz kurash olib borish majburiyatini oladi. Buning evaziga Boemund Aleksey Komnindan “sharqiy viloyatlar”dan unga yerlar berishni so‘raydi. Shartnomada qayd etilishicha Boemund vafotidan keyin taqdim etilgan bu yerlar imperiya ixtiyoriga o‘tishi kerak edi².

Avlon shartnomasi aslida Boemundning mag‘lubiyatini ko‘rsatsa ham uning biror sharti bajarilmadi. Yarim yildan so‘ng Boemund vafot etadi, uning jiyani Tankred esa sulh shartnomalarini tan olmadi³.

Shu vaqtda Buyuk saljuqiylar saltanatining taxtiga chiqqan Muhammad Tapar ichki siyosiy vaziyatni tartibga keltirmoqchi bo‘lib o‘z hokimiyatini kuchaytirishga kirishadi.

Vaziyatdan foydalangan Qilich Arslon 1107 yili mart oyida saltanat hududlariga bostirib kirib Mosulni zabt etadi. Shahar ma‘muriyatini o‘zgartirib o‘g‘li Mas‘udni unga hokim etib tayinladi. Mosul Jome masjidlarida Qilich Arslon nomiga xutba o‘qila boshlandi.

Bunga javoban Muhammad Tapar Mosulga lashkar yuboradi. Muhammad Taparning qo‘shini shaharga yaqinlashganida Sharqiy

¹ Комнина Анна. Алексиада.– С.330.

² O‘sha asar – В.364-372.

³ Мишо Г. История крестовых походов. – С.50.

Anataoliyadagi beylar Qilich Arslon itoatidan chiqib o‘z qo‘shinlari bilan uning dushmani tomoniga o‘tadilar. 14 iyun 1107 yili bo‘lgan jangda Qilich Arslon lashkari mag‘lub bo‘lib o‘zi halok bo‘ladi. Buyuk saljuqiylar davlati bu yerda ham tiklandi, Qilich Arslonning o‘g‘li qo‘lga olinib Muhammad Tapar saroyiga yuborildi.

Mag‘lubiyat va Qilich Arslon I halokatidan so‘ng Kichik Osiyodagi turkiy saljuqlarning davlati yana barham topdi. Bundan vizantiyaliklar va salibchilar foydalanib saljuqiylar bosib olgan yerlarni janubiy-sharqdagi Jeyhangacha zabt etdilar. 1110 yili Qilich Arslon I ning o‘g‘li Shohinshoh asirlikdan qochib Konyaga keladi.

Shohinshoh I (1110-1116 yy.) o‘z otasining taxtini zabt etib Kichik Osiyodagi saljuqiylar davlatining uchinchi sultoni sifatida tarixda qoladi. Uning davri haqida ma‘lumotlar juda ham kam. U muttasil vizantiyaliklarga qarshi kurash olib borgan aniq.

1116 y. imperator Aleksey Komnin Shohinshoh lashkarini mag‘lub etib uni sulh shartnomasiga imzo qo‘yishga majburladi. Shartnomaga binoan saljuqlar Kichik Osiyoni tark etishlari lozim edi. Anna Komnina ma‘lumotiga qaraganda imperator sulton Shohinshoh bilan uchrashib unga Vizantiya imperatori vassalligini taklif qilib, ularga Roman Diogen taxtga chiqmasdan Malazgird jangida mag‘lub bo‘lganidan oldin yashayotgan hududlarga borib yashashlarini aytgan¹.

Ertasi shartnoma imzolandi va Aleksey Komnin Shohinshoh va uning yaqinlarini zo‘r taqdirladi. Biroq bitim kuchga kirmadi. Mazkur voqealardan bir necha kun o‘tgach Shohinshoh ukasi Mas‘ud tomonidan taxtdan tushirildi va uning amri bilan qatl etildi.

Mas‘ud I (1116-1155 yy.) taxtda 39 yil o‘tiradi. Uzoq yillar u Donishmandiylar davlati bilan kurash olib bordi. 1130 yilga kelib bu davlatning chegaralari sharqda Furotdan g‘arbdagi Sakaryagacha cho‘zilgan edi. Danishmandiylar qo‘llarida Malatiya, Sivas, Qaysariya va Anqarani ushlardilar. Ular muvaffaqiyat bilan sharqda salibchilar va armanlar, g‘arbda vizantiyaliklar bilan kurash olib borganlar. 1034 y. Bag‘dod xalifi islom olamida Muhammad Donishmand xizmatlarini taqdirlab Anatoliyadagi eng qudratli hukmdor deb “malik” unvonini beradi.

1143 y. malik Muhammad Donishmand o‘z davlatining poytaxti Qaysariyada vafot etadi. Uning o‘g‘illari orasida taxt uchun kurash boshalanadi va davlat uchta mustaqil beylikka bo‘linib ketadi².

¹ Комнина Анна. Алексиада. – С. 337-338

² Abu 'l Farac Gregory (Bag Hebraeus). Abu'l Farac Tarihi. Cilt 1 ... – S. 267.

Donishmandiylar zaiflashganlaridan foydalangan Mas'ud I 1144 y. Jayhon viloyatini ma'muriy markazi Elbiston bilan birga bosib oladi. So'ngra Mas'ud g'arb tarafga lashkar tortib vizantiyaliklarga zarba berib Denizli shahrini zabt etadi.

Mas'ud qo'shinlari shimoliy-g'arbda Eskishahargacha harakat qilib, 1146 yili Nikeyaga yaqinlashdilar. Mas'ud I ning harbiy zafarlari Vizantiya imperatori Manuel Komnin (1143-1180 yy.)ni unga qarshi Konstantinopoldan chiqishiga majbur qildi. U Frakiya shaharlari va Menderes vodiysini saljuqlardan ozod qilishga erishadi. Manuel Komnin saljuqiylarga Filomelion (Aqshahar) ostonasida qattiq zarba beradi.

Vizantiya qo'shini saljuqiylarni ta'qib qilib Aqshaharga kiradilar. Komnin ularning poytaxti Konya sari yurdi va uning devorlari ostida qattiq jang bo'ladi. Vizantiya qo'shini 20 ming askarlaridan ayrildi. Imperator Konstantinopolga qaytib shu yurish davomida qo'lga kiritilgan barcha yutuqlaridan mahrum bo'ladi.

1147 yilga kelib sulton Mas'ud I o'zining davlati chegaralarini kengaytirib uni mustahkamlashga erishdi.

1147 yil yozida Sisiliya qiroluqi Rojer II Vizantiyaga qarshi harakat qilib Kefaloniya, Korfa orollarini egallab Korinf va Fivani taladi. Buning uchun Rojer Misr sultoni bilan ittifoq tuzdi.

1147 yil 10 sentyabrda nemis risarlari Konstantinopolga yetib kelishdi. 1147 yilning oxirida Fransuzlar Konstantinopolga yetib kelishdi.

Shu vaqtda Vizantiya imperatori Saljuqiylar bilan sulh tuzdi, imperator turklarni dushman deb bilmasligini va yurishda g'arbliklar ishtirok etayotganini tushuntirgandi¹. Oldinroq Sisiliya humdori Rojer Misr sultoni bilan sulh tuzgandi. Vizantiya imperatori Manuel tartibsizlik chiqishidan xavotirlanib nemis calibchilarni Bosfora shoshilinch o'tkazib qo'ydi. Ular Nikeyada to'xtab dam olishdi. Nemis calibchilari rahbari Konrad birinchi calib yurishi qatnashchilari yurgan Doriley, Konya va Gerakley orqali yurishni ma'qul ko'rdi.

1147 yil 26 oktyabrda Doriley yaqinidagi Kappadokiyada bo'lgan jangda calibchilar batamom tor-mor etildi. Turklar jangda odatdagidek taktika qo'llab chekinishdi va quvish asnosida asosiy qo'shindan ajralib qolgan otliqlarni yengishdi, so'ng qolganlarni tor-mor etishdi. Konrad Nikeyaga qaytib fransuzlarni kuta boshladi. Nemislar og'ir mag'lubiyaga uchragan paytda Lyudovik VII Konstantinopolga yetib

¹ Abu'l Farac Gregory (Bar Hebraeus). Abu'l Farac Tarihi. Cilt 1 ... – S. 298.

kelgandi. Kutilganidek fransuzlar va vizantiyaliklar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Fransuzlar orasida nemislar mislsiz g'alabalarga erishayotgani haqida xabarlar tarqala boshladi. Fransuzlar "xayrli" ishdan ortda qolmaslik uchun Bosfordan tezroq o'tkazib qo'yishlarini talab qila boshlashdi. Fransuzlar Nikeyaga kelishgach haqiqiy ahvol bilan tanishishdi. Shundan so'ng Lyudovik va Konrad birlashib harakat qilishga kelishib olishdi. Nikeyadan Dorileyaga boriladigan yo'l urush asoratlari (calibchilarning jasadlari) bilan qoplangani uchun qirollar qo'shinga bu manzarani ko'rishga imkon bermay Adramitiy, Pergam va Smirna orqali yurishdi. Ularning rejasi bo'yicha bu yo'lda qarshilikka uchramasliklari kerak edi. Lekin taxminlar o'zini oqlamadi. Yo'l davomida turklarning hujumlariga uchrab turishdi. 1148 yil yanvarda Laodekiyadan janubdagi tog' yo'li bo'ylab yurayotgan fransuz qo'shini Xonada saljuqiylardan mag'lub bo'ldi. Yurish juda sekin davom etib calibchilar yo'lda ko'p kishilaridan ayrilishdi¹.

1148 yil boshlarida qirollar Efesga ayancli qo'shinlari bilan yetib kelishdi. Vizantiyaliklar ularni Bosfordan o'tkazishayotganda qo'shin sonini 90 minggacha chamalashgandi. Efesda Vizantiya imperatori qirollarni Konstantinopolda dam olishga taklif etdi. Konrad qolgan qo'shini bilan dengiz orqali Konstantinopolga jo'nadi.

Fransuz calibchilari Pamfiliyadagi Vizantiyaning port shahri Antaliyaga kelib u yerdan grek kemalarida Antioxiyaga jo'nadi. Lyudovik qiyinchilik bilan Antaliya shahriga yetib olgach Vizantiya hukumatidan kema so'radi va 1148 yil 19 martda Antioxiyaga yetib keldi. Fransuzlarni Antioxiya knyazi Raymund quvonch bilan kutib oldi.

Konrad 1148 yil bahorda Konstantinopoldan Quddusga qarab yurdi. Quddus qiroli uni yaxshi kutib oldi va 50 ming kishilik qo'shinga bosh bo'lib Damashqqa yurish qilishga ko'ndirdi. O'sha paytda musulmonlarning asosiy qo'shini Damashqda emas, balki Mosulda edi. Quddusda buni e'tiborga olishmadi. Konrad boshliq 50 ming kishilik qo'shin Damashqqa qarab yurdi. Bundan xabar topgan Damashq amiri Mosul amiri Nuriddin bilan calibchilarga qarshi ittifoq tuzdi.

Damashq juda kuchli qal'a bo'lib qattiq himoya qilinardi. Calibchilar Damashqqa yetib kelib qamalni boshlashdi. Biroq quddusliklar calibchilar qamal qilgan tomondan shaharni olib bo'lmasligi va qal'ani narigi tomondan qamal qilishga maslahat berishdi. Calibchilar

¹ Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 82.

maqsadsiz qamalni davom ettirish bilan birga Mosuldan yetib kelgan Sayfiddinning va Halabdan uning akasi Nuriddining qo‘shini bilan ham to‘qnashishdi. Konrad 28 iyulda Quddusga chekindi. Ular omadsizlikka uchrashgach Antioxiyaga borib fransuzlar bilan birlashishga ham xohishlari qolmadi. 1148 yil kuzda Konrad Vizantiya kemalarida Konstantinopolga keldi va 1149 yil boshida u yerdan Germaniyaga ketdi.

Lyudovik VII kelajakdagi rejalari bo‘yicha a‘yonlari bilan maslahatlashdi. Bir guruh unga Fransiyaga qaytmasdan Yevropadan keladigan madad kuchlarini kutishni maslahat berdi. Boshqa guruh Konrad kabi qaytib ketishni maslahat berdi, Lyudovik ularning maslahatini qabul qilib 1149 yil boshida norman kemalarida Janubiy Italiyaga ketdi. U yerda norman qirollari bilan uchrashgach 1149 yil kuzda Fransiyaga yetib keldi.

Boshda juda katta natija kutilgan yurish natijasiz tugadi. Yurishning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi musulmonlarda calibchilar davlatini tugatishga umid uyg‘otdi. Nemislarning omadsizligini fransuzlar masxara qilishdi. Bu keyingi calib yurishlarida nemis va fransuzlarning birlashib harakat qilmasliklariga asosiy sabab bo‘ldi.

Mas‘ud I ning salibchilar ustidan qo‘lga kiritilgan g‘alabalari unga islom olamida katta shuhrat keltirdi. Bag‘dod xalifasi unga uch marta tug‘ va sultonlikning boshqa nishonlarini yubordi.

1149 yili Mas‘ud I o‘zi o‘g‘li va taxti vorisi Qilich Arslon bilan sharqda joylashgan franklarga qarshi yurish boshladi. Shu yili u Marashni qamal qilib u yerdagi salibchilarga Antioxiyaga borishlariga ijozat berdi.

1150 y. u salibchilar qo‘lidan Gyoksun, Bexis, Goynuq, Ayntab, Dulu va Rabanni tortib olib o‘g‘li Qilich Arslonga beradi.

1152 y. Mas‘ud I Donishmandiylarni uning hukumatini tan olishlariga majbur qiladi va ularning hududlarini o‘z davlati tarkibiga kiritadi.

Sulton Mas‘ud I G‘arbiy Osiyodagi saljuqiylar davlatini tuzishda buyuk xizmat ko‘rsatgan sulton bo‘ladi. O‘z otasidan Konya poytaxti bo‘lgan bir beylikni meros qilib olgan Mas‘ud umrining oxirida Kichik Osiyo yarimorolining katta qismiga egalik qildi.

Mas‘ud I davrida saljuqiylar davlatida pul zarb etish boshlanadi. Salibchilar va vizantiyaliklar ustidan g‘alabalarga erishgan Mas‘ud I mintaqadagi eng qudratli hukmdorga aylandi. Mas‘ud I davrida Manuel Komnin bilan bitim imzolandi va uning shartlariga ko‘ra Vizantiya saljuqiylarga har yili o‘lpon to‘lgan.

Anatoliya saljuqiylar davlatida markaziy va mahalliy boshqaruv, harbiy-siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim, qo‘shin va harb ishi

Alouddin Kayqubod I davrida saljuqiylar davlati Kichik Osiyo yarimorolining katta qismini egallagan edi. G‘arbda ularning davlati Kichik Osiyo yarimorolining aksar qismini, asosan Markaziy va Sharqiy Anatoliyani egallab Vizantiyaning Nikey davlati bilan Inebolu – Eskishehir – Kyutaxya – Denizli – Bodrum bilan chegaradosh edi. Shimolda Qora dengizning bir qism sohillari va ikkita bandar – Sinop va Samsun kirardi¹. Shimoliy-sharqda saljuqiylar davlati unga tobe bo‘lgan Vizantiya Trabzon imperiyasi va Gruziya bilan, sharqda Arman davlatlari, janubiy-sharq va janubda kurd davlatchalari va Suriya arablari, Antakiya, tobe Kilikiya armanlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Saljuqiylarga g‘arbda O‘rta yer dengizi bo‘ylaridan Antaliyagacha bo‘lgan yerlar, sharqda Silifkgacha bo‘lgan hudud tobe bo‘lgan².

Aholining ko‘pchiligini turk(o‘g‘uz)lar tashkil qilgan. Malazgird jangidan 140 yil o‘tgach o‘g‘uzlar ketma-ket o‘z vatanlaridan Kichik Osiyoga ko‘chib borganlar. XI asrda o‘g‘uz yabg‘uligidagi 24 ta shaharda bir necha million o‘g‘uz yashagan bo‘lsa, XIII asrga kelib u yerda atigi 4 ta shahar qolib, aksar aholi Anatoliya va G‘arbiy Osiyo mamlakatlariga ko‘chib borishgani ma’lum bo‘lgan³.

O‘g‘uzlar ko‘p farzandli ekanlari bois ko‘chgan aholilari soni ham XIII asrga kelib bir necha karra oshib borgan. O‘g‘uzlar butun Kichik Osiyo hududlarini to‘ldirib mahalliy grek aholisini bu yerlardan siqib chiqaradilar.

Endi yana “o‘g‘uz” so‘zini (tor ma’noda) “turk” so‘ziga aylangani haqida. X asrning oxiriga kelib musulmon tarixchilari o‘g‘uzlrga nisbatan “turkman” (ya’ni turkka o‘xshagan, monand) terminini ishlat-

¹ Жаворонков П. И. Никейско-латинские и никейско-сельджукские отношения в 1211-1216 гг. Византийский Временник. Том 37. – Москва, Наука, 1976, с. 48-61.

² Histoire des Seldjoukides d’Asie Mineure par une anonyme. Depuis l’origine de la dynastie jusqu’ a la fin du regne de Sultan Ale-ed-Din Keikoubad IV fils de Suleimanshan 765/1364. Texte person publiu d’aprus le MS. de Paris [par] Prof. Dr. Feridun Nafiz Uzluk. – Ankara, 1952. – S. 32-72.; Исфакхони Довуд. Ташкилоти низомии Салчукиён (Военная организация Сельджукидов). // Баррасихои таърихи. -№5. – Техрон, 1352. - 277 с.

³ Öztüna T U. Türkiye tarihi. 2. cilt. – Istanbul, 1964. – S. 9.

gan. Vaqt o'tishi bilan haqiqatda ham turkman etnonimi o'g'uz etnonimini siqib chiqardi. Tushunmoq kerakki, bu ikkala nom o'sha bir xalqni bildirgan va XI asrda har ikkala nomdan foydalanishgan¹.

Muarrixlar Bayhaqiy va Gardiziy o'g'uz-saljuqiylarga nisbatan "turkman" so'zini ishlatganlar. Arab olimlari To'g'ul lashkarini o'g'uz qo'shinlari deb aytishgan². Biroq Sanjar davrida muarrixlar o'g'uzlarni yana o'g'uz deyishgan.

XIII asrdan boshlab o'g'uzlarga nisbatan "turkman" va "turk" atamalaridan foydalanishgan. Faqat ko'chmanchi o'g'uzlarni turkman, o'troq qatlamini turk deb atashgan³.

Vaqt o'tishi bilan Kichik Osiyodagi saljuqiylar davlatida yashayotgan o'g'uzlarni ham musulmon va ham nasroniylar olamida turk deb aytadigan bo'ladilar.

Anatoliyada endi turklar yashayotganlari bois, Yevropa va G'arbiy Osiyoda taxminan XIII asrning o'rtalaridan boshlab saljuqiylar davlatiga nisbatan Turkiston yoki Turkiya degan so'zlarni ishlata boshladilar⁴.

Saljuqiy turk (tyurk)lar islomning sunniy mazhabida bo'lib, ularning davlatiga islom Erondan tarqalgan edi. Buyuk saljuqiylar saltanatida ham din va davlat arbolarining ko'pchiligi eroniylardan bo'lib, fors tilida so'zlashardilar.

Saljuqiy turkiyaning ko'pchilik aholisi qishloq joylarda yashab ham o'troq va ham ko'chmanchilik bilan kun ko'rishgan. Mamlakatning g'arbida hamda Janubiy va Janubi-sharqiy Anatoliyada ko'proq ko'chmanchi aholi yashagan. O'troq aholi esa asosan Markaziy Anatoliyada bo'lgan. Dehqonlar yana chorvachilik (qo'ychilik), g'allakorlik hamda bog'dorchilik va uzumchilik bilan mashg'ul bo'lishgan. Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan to'la ta'minlagan, buning ustiga chorvachilik mahsulotlarini grek va arab davlatlariga eksport ham qilishgan⁵.

Ibn Battuta bu davrdagi Konyadagi mevazorlar, bozorlarning to'kin-sochinligi, arzonchilik haqida yozib turklarning Suriya va Misr bilan savdo olib borishlarini yozgan⁶.

¹ Запорожец. Селджуки. – С.228.

² Sumer F. O'guzlar (Türkmenler). Tarihleri-boy teşkilatı ... – S. 105.

³ Запорожец. Селджуки. – С.228.

⁴ Sumer F. O'guzlar (Türkmenler). Tarihleri-boy teşkilatı ... – S. 106.

⁵ Akdağ M. Türkiye'nin iktisadi ye içtimai tarihi. Cilt 1. (1243-1453). – Istanbul, 1995. – S.25.

⁶ Ибн Буттута. Саёҳатнома. – Б.412.

Dehqonchilikka mos bo'lgan barcha yerlar davlatga tegishli bo'lgan. Shuning uchun ham yerda ishlayotgan o'troq va ko'chmanchi aholi davlatdan yerni ijaraga olgan toifaga kirardilir. Turkiyada saljuqiylar hamda usmonlilar davrida dehqonlarni raiya, ya'ni soliq to'lanadigan, o'z hukmdoriga itoat qiladigan aholi deb aytishgan.

Dehqonlardan olingan soliq davlat xazinasiga yoki davlat xizmatida bo'lgan amaldor shaxs, harbiy xizmatchilarga maoshlari o'rnida to'lanardi. Yer cheklari, ularning hajmi, olinadigan soliq miqdori davlat tomonidan qat'iy belgilanib ro'yxat(reestr)ga olingan.

Iqto uchun ajratilgan yerlardan tashqari saljuqiylar davlatida yana ikki xil yerga egalik shakli bo'lgan: vaqf yerlari va xususiy yerlar (mulk). Mulk bu yer egasining xususiy mulki sanalib uni sotishi, meros qoldiriishi va hadiya etishi mumkin bo'lgan. Alouddin Kayqubod o'z sarkardasi Hisomiddin Cho'ponga ko'p yillik sadoqatli xizmati uchun shaxsiy mulk qilib Qastamonu shahrini hadiya qilgani ma'lum¹.

Qishloq joylarda qonun va tartibni saqlash ustidan qishloq oqsoqoli – katxuda, ko'y (ko'cha, mahalla) kadxudasi (to'g'risi kadxudo) nazorat qilardi. Kadxudo qishloqda yoshi ulug' va hurmatli kishilardan bo'lgan. Qishloq yoshlari ham tashkilotga (gençlik ocaği) birlashib u qishloq oqsoqoli tomonidan tayinlangan va unga tobe bo'lgan yigitboshi tomonidan boshqarilgan. Yoshlar tashkiloti katta kuchga ega bo'lib, kerak bo'lgan vaqtda, masalan tartibsizliklarni bosish ishlariga jalb qilingan.

Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, yaxshi tashkil qilingan va hunarmandlar aholining talabini, xorij, Sharq davlatlari va Xitoydan olib kelinadigan zaru zevar mahsulotlaridan tashqari qondirardilar².

Ba'zi tovarlar saljuqiylar davlatidan eksport qilingan. Ibn Buttuta Oqsaroy shahrida gilamlarni ko'rib ularning sifatidan hayratlangan. U bu gilamlar Suriya, Iroq, Hindiston va Xitoyga eksport qilinganini yozadi³.

Saljuqiylar davlatining ilk davrida. Ya'ni Kichik Osiyoga o'g'uzlar kelishlaridan oldin hunarmandchilik bilan asosan greklar va armanlar mashg'ul bo'lishgan. O'g'uzlar ularning qo'llarida shogird bo'lgan. Tez orda ular ham barcha hunarlarni o'zlashtirib oldilar⁴.

¹ Uzunçarşılı I.H. Osmanlı devleti te~keşkilâtına medhal. – Ankara, 1988. – S. 115.

² Mercil E. Türkiye Selçuklularında meslekler. – Ankara, 2000. – S. 32.

³ Ибн Баттута. Саëҳатнома. – Б. 422.

⁴ Mercil E. Türkiye Selçuklularında meslekler. – Ankara, 2000. – S. 38.

Shahar jamiyatining ijtimoiy tizimida hunarmandlar maxsus o‘rin egallaganlar. Har bir shaharda turli kasb va korning egalari (nonvoylar, to‘quvchilar, etikchi, ko‘nchilar, qassob va h.) va hunar ahli bo‘lib aholining turli narsalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirardilar.

Hunarmandlar va ustaxonalar alohida sexlarga birlashganlar. Har bir sex muayyan bir mahsulot ishlab chiqarishiga o‘z monopoliyasini o‘rnatgan edi. Bir sexga birlashgan hunarmandlarning soni juda ko‘p bo‘lgan. Ibn Buttuta ma’lumotiga qaraganda Antaliyada ko‘nchilar sexiga 200 usta a’zo ekan¹.

Har bir ustaxonada bir nafar usta bo‘lib, qolganlari shogird sanalgan. Sexdagi eng hurmatli ustani “axi” (birodar) deyishgan. Axiylar haqidagi ma’lumotni ham birinchi marta Ibn Battuta keltiradi va bu atamaning ma’nosini beradi. Shaharda nechta hunarmandlar ustaxonasi bo‘lsa shuncha ularning boshliqlari – axilar bo‘lgan. Axiylarning ustidan axiy chalabiy nazorat qilgan. Axiylar nafaqat o‘z hunarmandlarini himoya qilishardi, balki ular shaharga kelgan ajnabiylar, sayyohlar, darvishlarni o‘z zoviyalarida qabul qilib ularni yashash joyi, oziq-ovqat, mablag‘ bilan ta’minlardilar va ularni bosqinchilardan himoya qilishardi².

Axiyning farmoyishiga binoan ustaxonalarda ishlangan pullar hisobidan zoviya va takiyalar qurib, ularni jihoz va kerakli narsalar bilan ta’minlar edilar. Shu zoviyalarda mehmonlar, darvish va sayyohlar yashaganlar. Ularga shaharga kelgan kunlaridan boshlab ketib qolgunlaricha axiylar mezbonlik qilgan. Ularning mehmondorchiligidan bahramand bo‘lgan Ibn Battuta bunday e’zoz va hurmatni boshqa joylarda hech ko‘rmaganini yozgan³.

Axiylar hunarmandlarning jamoalariga rahbar bo‘lib, ishsiz va oila qurmagan yoshlarga ham moddiy yordam bergan holda ular orasida ham katta nufuzga ega bo‘lgan. Ular nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy hayotda ham katta ta’sirga ega edilar. Ibn Bibining yozishmalaridan ma’lum bo‘ladiki, sulton G‘iyosiddinni taxtdan tushirish maqsadida Konyani Rukniddin tomonidan to‘rt oy davomida qamal qilinganidan keyin, mudofaa natijasiz ekanini aytib ayni shu axiylar o‘rtaga tushib yarash matnini tayyorlaydilar. Ularning taklifi bilan bitimni ikkala tomon ham imzolaydilar⁴.

¹ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – С. 423.

² Mercil E. Türkiye Selçuklularında meslekler. – Ankara, 2000. – S. 45.

³ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Б 444.

⁴ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca’feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). I. cilt. – S. 52

Natijada Rukniddin Sulaymonshoh yana sulton bo'lib, G'iyosiddin Kayxusrav surgunlikka yuz tutadi. Shahar aholisining keyingi ijtimoiy pog'onasida shahar a'yonlari va igdishlar turgan. Igdishlar shahar tumanlari ustida turganlar bo'lib, ularni shu tuman aholisi saylagan va shahar qozisi saylov natijasini tasdiqlagan¹.

Igdishlar shahar hayotida katta rol uynagan. Jumladan, ular aholi diqqatiga yuqori amaldorlarning qarorlari va sultonning amru farmonlarini yetkazib turganlar. Tuman igdishlarning faoliyatini shahar igdishi (igdiboshi) nazorat qilgan. Shu ijtimoiy pog'onada katta savdogarlar, tojirlar turishgan. Ijtimoiy munosabatlarda eng yuqori pog'onanai siyosiy hokimiyat va katta mulklari bo'lgan maliklar, amirlar va ularning oilalari egallagan².

Davlatda mutlaq hokimiyat sultonga tegishli bo'lgan. Mamlakatning ichki va tashqi hayotiga oid eng muhim qarorlarni uning o'zi qabul qilgan. Sulton oldida maslahat hamda ijroiya organi sifatida devon yoki Ulug' devon turgan.

Ulug' Devon tarkibiga yuqori martabali amaldorlar, eng avvalo sulton yo'qligida devon ishlarini boshqaradigan vazir kirgan. Vazir davlatda ikkinchi shaxs sanalib, sulton oldida uning amru farmonlarining bajarilishi va mamlakatdagi vaziyat haqida javob berardi. Vazir sultonning maxsus farmoni bilan tayinlangan. Rasmiy qabul vaqtida vazir boshida maxsus toj yoki kuloh kiygan. Vazir davlatining ramzi tilla siyohdon va qalamdon bo'lgan. Devon majlislarida vazir yonida uning kotiblari va tarjimonlar o'tirgan.

Vazirdan tashqari Ulug' Devon tarkibida vazir darajasiga yaqin turgan amaldor va mansabdorlar turgan. Ularning har birining itoatida ma'muriy devon, kichik devon bo'lgan.

Vazir amalidan keyin oliy martabali amaldor noib (niyobati saltanat) bo'lgan. Sulton bilan vazir bir vaqtning o'zida poytaxtda bo'lmaganlarida noib sulton oldida davlat ishlari bo'yicha javobgar bo'lgan. Uning davlatining ramzi oltin qilich bo'lgan.

Mamlakatning moliyaviy ishlariga mustavfiy degan amaldor mas'ul edi³.

¹ Baykara T. I. Giyasu'd-din Keyhusrev (1164 - 1211) Gazi-Şehit. – Ankara, 1997. – S. 62.

² Запорожец. Селджуки. – С. 247.

³ Baykara T. Türkiye Selçuklularının sosyal ve ekonomik tarihi. – İstanbul, 2004. – S. 14.

Ulug' devonda tug'roiy ham yuqori darajadagi amaldor sanalgan. Uning itoatida devoni tug'ro bo'lgan. Bu devonning xodimlari sultonning rasmiy maktublari, amr va farmonlari, normativ aktlarini tayyorlardilar. Ularga sulton tug'rosi-muhrini bosgani bilan qonun mohiyatiga ega bo'lardi.

Iqto sifatida berilgan davlat yerlarini parvona unvonidagi amaldor ro'yxatga olib, nazorat qilgan. Parvona yana iqto berish haqidagi farmon – yorliqni tayyorlardilar.

Amiri oriz va uning ma'muriyati qo'shin ta'minoti, muntazam qo'shinning maoshi, shaxsiy tarkibning hisob-kitobini olib borardilar. Eng katta va harbiy strategik jihatdan muhim bo'lgan viloyatlarda bu devonning bo'limlari yoki namoyandalari bo'lgan.

Ulug' devonning tarkibiga kirmagan muhim amallardan biri amiri dod (adolat amiri) bo'lgan. Uning devonidagi ma'murlar jinoiy ishlar yuzasidan tekshirish olib borib, qamoqqa olish va tergov ishlarini olib borardilar. Tergov jarayoni vaqtida xizmat qiladigan tavkitxona () ham shu devonga qaragan.

Amiri dod barcha amal va mansabdagi shaxslarni hatto vazir va Ulug' devon a'zolarini ham tutib olishi mumkin bo'lgan. Ibn Bibi bu devon faoliyatini Alouddin Kayqubodga qarshi suyuqasd uyushtirgan amaldorlarni fosh qilish jarayonida bayon qilgan. Gunohkorlar qatli-dan keiyn ham sulton o'ziga nisbatan bir nechta mansabdorlarning adovatini bilib amiri dod orqali ularning molu mulklarini musodara qilib o'zlarini mamlakatdan haydab chiqaradi¹.

Ulug' devon a'zolari hamda boshqa muhim vazifa egalariga xizmatlari evaziga iqto berilgan.

Ma'muriy-hududiy jihatdan saljuqiylar davlati bir qancha viloyatlardan iborat edi. Ularning nomi ko'p holatda shu viloyat markazi bo'lgan shahar nomi bilan bir xil edi (Qaysari, Arzinjon, Sivas viloyati va h.).

XIII asrning o'rtalarida saljuqiylar davlatining tarkibiga 30 dan ortiq viloyatlar kirgan. Saljuqiylar davlatida uch tipdagi viloyatlar bo'lgan. Birinchi turini, unga eng ko'p viloyatlar mansub edi, suboshi (genarl-gubernator) boshqargan. U viloyat qo'shinlarining qo'mondoni sanalgan. Viloyat qo'shinlari otliq askarlardan iborat bo'lib ular-

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'iyе Fi'l-Umuri'l-Ala'iyе (Selçuk-Name). I. cilt. – S.289.

ning aniq miqdorini suboshi (iqto egasi sifatida) xizmatga olib, ularga ta'lim berib, kiyintirib va qurollantirishi zarur bo'lgan. Viloyat markazlarida soliq omillari va xodimlari bo'lib, davlatga tushadigan kirimlarni nazorat qilardilar. Viloyatlardan olingan soliqlar poytaxtga yuborilardi. Ular Ulug' devon va mustavfiy devoniga kelib tushardi. Soliqning bir qismi "rusumi urfie" (urfiy rasm) sifatida sulton xazinasiga tushib, uning shaxsiy daromadi sanalgan.

Viloyatlarning ikkinchi turida maliklar, ya'ni sultonning farzandlari va qarindoshlari hokim bo'lishgan. Urush vaqtlarida maliklar ham o'z qo'shinlarini sulton xizmatiga yuborishlari shart bo'lgan.

Viloyatlarning uchinchi turi chegaradagi viloyatlar bo'lib, ularni uj deyishgan. Saljuqiylarda nasroniy davlatlar bilan chegaradosh viloyatlarni uj deb atashganidan ma'lum bo'ladiki, bu viloyatlar faqat Vizantiya bilan chegaradosh bo'lgan.

Bu chegara hududi Inebolu-Eskishehir-Kutaxya-Bodrum orqali o'tgan. Bu chegara viloyatda asosan ko'chmanchi o'g'uzlar yashagan va o'zlarining uj-beylariga itoat qilganlar.

Bu chegara ikki uj-viloyatga (o'ng va so'l) bo'lingan bo'lib, ular o'rtasidagi chegara Anqara-Eskishehir orqali o'tgan. Har bir viloyatni beylarbey boshqarib, ularga ujbeylar tobe bo'lgan.

Safarbarlik vaqtida har bir beylarbey ko'chmanchi turkman-o'g'uzlardan iborat alohida qo'shin tuzishlari lozim edi.

Viloyat va ularga teng hududlar saljuqiylar davlatining harbiy kuchlari uchun manba bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek har bir iqto egasi o'zi kuch to'plab, ularni harbiy ishga o'rgatib, qurollantirib va kiyintirishi, maosh to'lashi lozim bo'lgan. Bunday otliq qo'shinning soni iqto hajmiga bog'liq bo'lgan.

Ibn Bibi iqtoning hajmi, undan olingan soliq miqdori va shunga yaraSha sulton qo'shiniga qancha sarboz berishlari haqida ma'lumot beradi.

Masalan 1220 yilning boshlarida Alouddin Kayqubod Kamolidin Komyorga 100 ming dirhamga teng daromadi bo'lgan Zara viloyatini iqto sifatida beradi. Komyor buning evaziga 60 otliq sarbozni xizmatga olib, o'rgatib, qurollantirishi lozim bo'lgan¹. Bundan ma'lum bo'ladiki, Alouddin Kayqubod davrida iqto egalari yiliga bir nafar otliq askar uchun 1670 dirham sarflagan.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ye Fi'l-Umuri'l-Ala'ye (Selçuk-Name). I. cilt. – S.290.

Safarbarlik e'lon qilinganda iqto sohibi o'zining otliq dastasi bilan suboshi xizmatiga kelishi talab qilingan. Suboshi esa barcha qo'shini bilan sulton qarorgohiga yetib kelishi lozim edi. Urushga safarbarlik quyidagicha bo'lgan: sulton lashkar yig'ish bo'yicha yozma farmon bergan. Ularga sultonning tug'rosi – muhri bosilgan.

Choparlar ularni saljuqiylarning barcha viloyat va muzofotlariga olib borishgan. Harbiy ma'rakalarning muvaffaqiyati ko'p holatlarda safarbarlik muddati bilan bog'liq bo'lgan. Kechiktirish yoki farmonni bajarmaslik vaqtida qattiq jazo berishardi

Gruziya bilan urush olib borish chog'ida Rukniddin Sulaymon shunday farmon chiqarib uni barcha viloyatlarga, shu jamladan maliklar hokim bo'lgan viloyatlarga yuborgani ma'lum.

Ibn Bibi ma'lumotiga qaraganda Elbistondan o'z qo'shini bilan sultonning ukasi malik G'iyosiddin To'g'ulshoh birinchi bo'lib hozir bo'lgan. Keyin malik Faxriddin yetib kelgan. Arzirim maliki Alouddin Soltuq esa safarbarlikka kechikkan. Natijada sulton Alouddin Soltuqqa kechikkani uchun jazo berib, uning mulkini tortib olib Arzirim viloyatini G'iyosiddin To'g'ulshohga berish haqida farmon chiqaradi¹.

Aksincha, urushdan keyin qo'lga kiritilgan g'alabalari uchun sulton o'z maliklarining yer mulklarini juda ham kam kengaytirishlariga amru farmon bergan.

Safarbarlik e'lon qilingandan so'ng 8-9 kunda qo'shin sulton ko'rsatgan joyga yetib kelsa bunday safarbarlik muvaffaqiyatli hisoblangan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, viloyatdagi iqto egalarining qo'shinlari doim harbiy jihatdan tayyor bo'lishlari talab qilingan.

Iqto tizimi asosida tuzilgan lashkar butun saljuqiylar nizomiy kuchlarining asosini tashkil qilgan. Qo'shinning bu qismini otliq sipohiy deyishgan.

Iqto qo'shinidan tashqari saljuqiylar lashkarida professional qo'shin bo'lib ular xizmatlari evaziga maosh olishgan. Bu qo'shin poytaxtda joylashgan bo'lib to'g'ridan to'g'ri sultonga bo'ysingan. Ular piyoda askarlar va otliqlar bo'lgan. Saljuqiylar davlatiga mo'g'ullar birinchi hujum uyushtirganlarida ular Sivasgacha bostirib kirgan. Shunda sulton o'zining bosh qo'mondoniga ularni to'xtatishni buyuradi. Shunda Kamoliddin Komyor ixtiyoriga doimiy qo'shin

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'iyе Fi'l-Umuri'l-Ala'iyе (Selçuk-Name). I. cilt. – S.93.

beriladi. Ularning tarkibiga sultonning otliq va piyoda gvardiyasi kirgan¹.

Doimiy qo‘shin turli elat va xalqlarga mansub bo‘lgan asirlar va qullar (g‘ulomlar) hisobidan tuzilgan edi. Biroq ularning harbiy tyoyorgarlik tizimi bizga noma‘lum. Faqat ularning ta‘limi uzoq muddat davom etgani aniq.

Bu muddat ichida g‘ulomlar va asir tushganlar til o‘rganib, o‘g‘uzlarning rasm-rusum va udumlari bilan tanishardilar, harbiy bilimlarni mukammal o‘zlashtirardilar. Natijada asir tushgan va g‘ulomlar hisobidan sultonga sadoqatli bo‘lgan professional harbiy tuzilmalar shakllanardi. Sulton ularga o‘zining xavfsiziligini himoya qilish va murakkab, og‘ir harbiy vazifalarni bajarish kabi ishlarni ishonib topshirardi.

Asir va g‘ulomlar orasidan buyuk sarkardalar va davlat arboblari yetishib chiqqan. Ular ichida jumladan, Muboriziddin Ertoqush bo‘lgan. Uni G‘iyosiddin Kayxusrav I Antaliya suboshisi, keyin shahzoda Alouddin Kayqubodning otabegi etib tayinlagan edi. Bundan tashqari Jaloliddin Qoratoy, amir Shamsiddin Xoso‘g‘uz, Sayfiddin Torumtoy va b. ham bo‘lgan².

Otliq sipohiy va muntazam doimiy lashkar bilan birga safarbarlik chog‘larida sulton qo‘shiniga vassal davlatlarning qo‘shinlari ham kelib qo‘shilishi talab qilingan. Masalan Arman shohi Levon bilan sulh tuzganda u Alouddin Kayqubodga har yili ming nafar otliq sipohiy va 500 nafar charkchi yoki zambarakchi yuborishi shart qilingan edi³.

Zarurat paydo bo‘lganida davlat xazinadan o‘g‘uz (turkman)lar va ajnabiylar hisobidan yollanma askarlarni xarid qilish uchun ham mablag‘ ajratgan.

Quruqlikdagi kuchlar tarkibida lahimchi (lag‘imchi) degan harbiy dasta bo‘lgan. Ular qamal jarayonida katta rol uynagan. Ular qal‘a va istehkom devorlari ostidan lahm qazib ularni teshardilar yoki portlatib hujumga yo‘l ochardilar. Ayni shu lahm qazish yo‘li bilan Alouddin Kayqubod qo‘shinlari mustahkam bo‘lgan Chemishkezek qal‘asini bosib olganlar⁴.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti‘l-Ala‘iye Fi‘l-Umuri‘l-Ala‘iye (Selçuk-Name). I. cilt. – S.420.

² Uzunçarşılı I.N. Osmanlı devleti teşkilâtına medhal ... – S. 101.

³ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti‘l-Ala‘iye Fi‘l-Umuri‘l-Ala‘iye (Selçuk-Name). I. cilt. – S.352.

⁴ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti‘l-Ala‘iye Fi‘l-Umuri‘l-Ala‘iye (Selçuk-Name). I. cilt. 299-305.

Bundan tashqari saljuqiylar qo‘shinida ko‘p miqdorda manjaniqlar bo‘lgan. Ularning yordamida qal‘a devorlarini uzoqdan tosh otib buzib tashlangan. Manjaniqlar bilan yana dushman qal‘alari va shaharlariga, dushman saflari orasiga yonayotgan neft to‘ldirilgan idishlarni otardilar. Bu esa dushmanni sarosimaga tushirardi.

Jang maydonida qo‘shin muayyan bir tartibga ega edi. U muqaddima, markaz, chap va o‘ng qanot hamda arergarddan (qo‘shinning orqadagi qismi) iborat bo‘lgan. Qo‘shinda razvedka bo‘linmasi ham bor edi.

Harbiy amaliyot o‘tkazish uchun qarorni sulton qarorgohida yozma shaklda qabul qilib, uning bajarilishiga kirishardilar.

O‘rta yer va Qora dengiz atrofidagi yerlarni bosib olgach saljuqiylarda harbiy flot paydo bo‘ladi. Biroq u Yevropa floti bilan raqobat qila olmasdi. Shunga qaramasdan Kolonoros qal‘asini qamal qilganda Alouddin Kayqubod uni dengiz tarafidan floti yordamida ham qurshab olgan¹.

Qora dengizda esa saljuqiylar avvallari Sinop va Samsun portlarida qo‘lga kiritilgan kemalar bilan flot tuzishgan.

Sulton Alouddin Kayqubod davrida Qrimning Qora dengizdagi sohilida joylashgan va savdo yo‘llari ustida nazorat qilishni ta‘minlaydigan Sudak shahrini bosib olish uchun desant amaliyotini amalga oshiradi. “Tog‘ kabi”² bo‘lgan kemalarda Sinopdan Qrimga otliq qo‘shin saljuqiylar armiyasining qo‘mondoni Hisomiddin Cho‘pon boshchiligida olib o‘tiladi³.

Shahar ostonasida qipchoqlar qo‘shini joylashganini razvedka ma‘lum qiladi. Saljuqiylarning desant qo‘shinlari jangga kirishib ikki kun ichida qipchoqlarning qo‘shinini butunlay tormor etdilar. Shahar Ibn Bibi ma‘lumotiga qaraganda qamalga tayyorgarlik ko‘rgan. Shahar devorlari mustahkam, qurol-yaroq va oziq-ovqat zaxira qilingan edi. Shaharda okoplar va boshqa mudofa inshootlari qurilgan edi.

Saljuqiylarning otliqlari shaharga yaqinlashganida ularning boshlariga tosh, o‘qlar, yonayotgan neft yomg‘irdek yog‘a boshladi. Keyin shahar darvozalari lang ochilib saljuqiylarga qipchoqlarning kavaleriyasi hujum qiladi. Saljuqiylar bu yerda ham o‘z taktikalaridan

¹ Запорожец . – С. 240.

² Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). I. cilt. – S.325.

³ Якубовский А. Рассказ Ибн-ал-Биби о походе малоазийских турок на Судак, половцев и русских в начале XIII в. // Византийский Временник. Том XXV. 1927. – Ленинград, 1928, с. 53-76.

foydalanib avval orqaga chekinganday bo‘lib qochdilar va shahardan uzoqlashib dushmanni o‘zlari bilan olib ketdilar. Muayyan masofagacha yetib borib pistirmada turgan kuchlar bilan qipchoqlarning otliqlarini qirib tashlaydilar. Kechga borib saljuqlar Sudakka qaytib keldilar shahar yaqinida joylashib shahar aholisiga psixologik ta‘sir o‘tkazish uchun tadbir o‘ylab chiqdilar. Ular bazm barpo qilib kechasi bilan musiqa va kuy chalib ziyofat uyushtirdilar. Ertalab shahar aholisi nomidan elchilar kelib omonlik tiladilar va sulton belgilagan miqdorda o‘lpon to‘lashni taklif qildilar¹.

Sudakni zabt etgan saljuqiylar yana kemalarda Sinopga qaytib keldilar.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib saljuqiylar harbiy tashkilotlarini quyidagicha tavsif etsa bo‘ladi. Ularning harbiy kuchlari quruqlikdagi kuchlar, harbiy va harbiy-transport flotidan iborat bo‘lgan. Quruqlikdagi kuchlar qo‘shinning asosiy qismini tashkil etgan iqto kavaleriyasi – sipohiylar hamda son jihatdan kamroq bo‘lgan maosh olib xizmat qiladigan professional (muntazam) lashkardan iborat bo‘lgan. Muntazam qo‘shin poytaxtda joylashib, otliqlar va piyoda askarlardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari urush vaqtlarida tobe davlatlarning qo‘shini ham qurolli kuchlar tarkibiga kirgan.

Lashkarda eng oliy mansab bosh qo‘mondon – maliku-l-umaro bo‘lgan. Unga xizmati evaziga iqto (poytaxtdan uzoq bo‘lmagan viloyat) berilgan. Lashkar soni doimiy va oldindan belgilangan bo‘lmagan. Uning soni qo‘yilgan vazifani bajarishi bilan bog‘liq edi. Muntazam qo‘shinning sonigina domiy bo‘lib u 10 ming nafarga yetardi. Bu raqam shuni ko‘rsatadiki, saljuqiylarning qo‘shini ko‘p sonli bo‘lmagan².

Masalan, Suriya bilan bo‘lgan urushda sulton Izzaddin Kaykovus I ning armiyasi 22 ming nafar bo‘lgan³. Yassichaman muhorabasida 100 minglik Jaloliddin qo‘shiniga Alouddin Kayqubod 40-45 minglik qo‘shini bilan qarshi turdi. 1234 y. saljuqiylar davlati hududlariga Suriya va Misr qo‘shinlari bostirib kirganda Kamoliddin Komyorning armiyasida eski va yangi sarbozlar, sipohiy va muntazam kuchlardan iborat 50 minglik qo‘shin bo‘lgan⁴.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca’feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). I. cilt. – S.339.

² O‘sha asar – B.209.

³ O‘sha asar – B.395.

⁴ O‘sha asar – B.444.

Saljuqiylarning qo‘shinlari kam bo‘lishiga qarmay oldiga qo‘yilgan vazifani bajarish uddasidan chiqardi. Biroq saljuqiylar qo‘shini va uning boshliqlarining ustunlik jihatlaridan biri shu ediki, ular o‘zgaruvchan sharoitlarga, dushmanning qurol-yaroqlari, tashkiliy tuzulmasi va taktikasiga tezlik bilan moslashib ketishardi. Birinchi salib yurishi jarayonida son jihatdan ortiq va og‘ir o‘tliqlarga ega bo‘lishlariga qaramay ular yevropolik risarlardan mag‘lub bo‘lgan edilar. Ikkinchi salib yurishi jarayonida esa yevrpaliklarga har doim afzallik beradigan og‘ir himoya vositalari va qurollari endi saljuqiylarga yordam bera boshladi. Shu yurishdan boshlab saljuqiylar biror-bir muhorabani boy bermaganlar. Saljuqiylar keyinchalik biror-bir marta mag‘lub bo‘lmay yengil qurollangan va tez harakatlanuvchi saljuqiy turkmanlar mamlakatning ichkarisiga chekinib temir bilan burkanib quyosh nuri ta‘sirida hamda suvsizlik va ochlikdan holdan toygan lashkarga hujum qilib, salibchilar ustidan ham g‘olib chiqib, ularni Eskishehir oldida (oktabr 1147 y.) qirib tashladilar. Shunda salibchilar lashkaridan o‘ndan bir qismi tirik qoldi xolos¹.

Bundan tashqari saljuqiylar salibchilar tajribasini o‘zlashtirib ular ham og‘ir qurol-yaroqdan foydalanadigan bo‘ldilar. Masalan yuqorida tilga olingan Yassichaman muhorabasida, Ibn Bibi ma‘lumoti bo‘yicha saljuqiylarda temir sovutlar bo‘lgan².

Saljuqiylar lashkarining yana bir afzalligi ularning urush olib borish taktikasida bo‘lgan. Bu yerda misol tariqasida Vizantiya imperatori Manuelni Qumdanli yaqinida mag‘lub etilishini keltirish mumkin. 1176 yili senyabrida 700 minglik Vizantiya armiyasi Qumdanliga yurish boshlaydi. Uni Qilich Arslon I saljuqiylar qo‘shini bilan kutib olib, urushga kirmay chekinib 10 minglik qo‘shin bilan Miriokefalon darasiga olib kirdi. Daradan chiqadigan tor joyda Qumdanlida imperator armiyasi kamsonli saljuqiylar qo‘shini tomonidan tor-mor etildi. 100 ming askari bilan imperator asirga tushdi³.

Saljuqiylar qo‘shini va uning qo‘mondonlarida katta tajriba va urush olib borishda qatiyatlik bo‘lgan. Kichik Osiyodagi saljuqiylar

¹ Қараңг: Altan E. İkinci Haçlı Seferi (1147 - 1148). – Ankara, 2003. – S.18-56.

² Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca’feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). I. cilt.– S.406.

³ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca’feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). I. cilt.– S.208-209.

davlatining butun tarixida ularning lashkari turli sharoit va vaziyatlarda ketma-ket urush olib borganlar.

Bu holat, ya'ni taktikadagi ustunlik va harbiy amaliyotlardagi boy tajriba ularning g'alaba qozonish sirlaridan biri bo'lganini isbotlaydi. Saljuqiylar son jihatidan emas, balki aql bilan g'olib chiqqanlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, saljuqiylar qo'shinining kamsonligi iqtisodiy va moliyaviy jihatlarga bog'liq. Ularda ko'psonli lashkarni tuzish imkoni bo'lmagan. XIII asrning o'rtalarida iqto tizimi orqali ko'psonli armiyani tuzish imkoni bo'lmagan. Sababi iqto mulklarining hammasi ham ko'p hosil beradigan yer va dehqonchilik vohalaridan iborat bo'lmagan. Bundan tashqari davlat ham yangi samarador yerlarni bosib olish uchun zaiflik qilardi.

Saljuqiylar davlatining harbiy tizimining yana bir kamchiligi unda qo'shinni boshqarishning tashkiliy tizimi, boshqaruvi yo'qligida bo'lgan. Bu esa qo'shin idorasini murakkablashtirib qo'ygan edi. Shuning uchun ham kamsonli qo'shinni urush maydonida boshqarish ham qulay bo'lgan¹.

O'rganilayotgan davrda bu kamchilik barcha sharq davlatlaridagi qo'shinlarga xos bo'lgan. XIII asrning boshlarida faqat mo'g'ullar armiyasida aniq boshqaruv va tashkiliy tizim bo'lgani va bu ular g'alabalarining omili ekani barchaga ma'lum. Ularning qo'shinida avvali birlik 10, ularning 10 tasidan 100 (sada), so'ngra 1000 (hazora) tashkil topgan edi. Amiri hazora shu 1000lik dastani boshqargan. O'n-ta minglik tumanni tashkil qilib uning qo'mondoni amiri tuman yoki noyon deyilgan. Mo'g'ullarning qo'shini 20 tuman, ya'ni 200 ming sarbozdan tashkil topgan edi. Mo'g'ullarning bunday harbiy tashkilotini usmonli turklar o'z qo'shinlarida joriy qilganlar².

Mo'g'ullarning G'arbiy Osiyoga yurishlari, saljuqiylarning mag'lubiyati va uning oqibati

Saljuqiylar davlatining ichki ahvolidan xabardor bo'lgan mo'g'ullar G'iyosiddin Kayxusravni ham zaif bir hukmdorligini tushunib G'arbiy Osiyoga bostirib kirishga qaror qiladilar. 30 minglik mo'g'ullarning lashkari noyon Bayju³ qo'mondonligida 1242 yili kuzida Arzirumni qamal qilishadi.

¹ Марков Г.Е. Кочевники Азии. Структура хозяйства и общественной организации. – Москва, 1976. – С.18-23.

² Муфассал қаранг: Лорд Кинросс (Патрик Бульфур). Рацвет и упадок Османской империи. – Москва, 1999. – 696 с.

³ Байжу-нуён, Турконтой ўғли, йисут кабиласидан. Буролдой тумани қўмондони,амир. Муизз ал-ансоб. – Б.31, 42.

Arzirum garnizoni suboshi Sinoniddin Yoqut boshchiligida shaharni mudofa qilishadi va hatto hujumga o'tib mo'g'ullarga zarbalar ham beradi. Biroq qamalning birinchi kunlaridanoq Arzirum voliysi Duvini yashirincha Bayju bilan til biriktirib, omonlik evaziga kechasi shahar darvozalarini ochib berdi. Mo'g'ullar shaharga bostirib kirib uning himoyachilarini qirib tashlashdi. Suboshi Yoqut va uning o'g'lini tutib olib dorga osdilar. Yosh yigit va ayollar asirga olindi, shahar va uning atrofidagi aholi esa qirib tashlandi.

Sulton iqto egalari va unga tobe davlatlar qo'shinlarini urushga safarbar etadi. Qo'shin saflarini yangi musulmon va nasroniy askarlar bilan ko'paytirishga qaror qilindi. Bu maqsadlar uchun katta mablag' ajratildi. Faqatgina Suriyadagi arablarni xizmatga jalb qilish uchun 100 ming tilla dinor va bir necha million kumush dirham yuborildi¹.

1243 yil qishida Qaysari atrofida 70 mingdan ortiq qo'shin to'plandi. Ularning bir qismi iqto otliqlari va bir qismi sultonning muntazam qo'shinlaridan iborat edi. Shu kuchlar bilan sulton Sivasga yurish qiladi. Bu yerda u yollanma qo'shin va vassal davlatlarining kuchlari kelishini kutishi kerak edi. Sivasning o'zidayoq lashkar sarkardalari orasida keyingi reja ustida nizo chiqadi. Tajribali va yoshlari ulug' sarkardalar sultonga Sivasda turib dushmanni kutishni taklif qiladilar. Sivasda bu vaqtda oziq-ovqat zaxiralari va qurol-yaroq yetarli bo'lgan. Bundan tashqari bu yerga yollangan askarlarning yetib kelmasliklari ham ularning qarorlari to'g'riligidan dalolat qilardi.

Boshqa sarkardalar, asosan yosh va tajribasiz, urushni ko'rmagan boshliqlar sultonni mo'g'ullarga qarshi borishga undab Sivasda qolishga qarshi edilar. Sulton nima qilishini bilmay qoldi. U ancha vaqt bir qarorga kela olmay, oxiri Kosedag (Zara va Sushehir orasidagi tog') tomoniga yurish boshladi.

Yurish va keyingi voqealar saljuqiylar qo'shinidagi holatni va boshqaruv darajasini yaqqol ko'rsatdi. Birinchidan bu voqealar sultonning harbiy ishlarda tajribasizligi va nodonligini ko'rsatdi. Shunga qaramasdan u yangi kuchlarni jalb qilish uchun Suriya va boshqa davlatlarga maliku-l-umaro Shamsiddin Isfahoniyni yuboradi.

Bu davrga kelib butun qo'shinni boshqarish uchun biror-bir markaz, tahlil guruhi, buyruq va farmonlarni yetkazadigan xizmatlar, saljuqiylar

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'iyeh Fi'l-Umuri'l-Ala'iyeh (Selçuk-Name). 1. cilt. – S.65-66.

davlatining harbiy tizimi yo‘q edi. Qo‘shinning markaziy boshqaruvi bo‘lmagani sabab bu yurish avvaldan mag‘lubiyatga mahkum edi.

Kosedagga yetib kelgan qo‘shin qulay joyni egallaydi. Ularning mavqelarini faqat shturm bilan olish mumkin edi. Ularning atrofi yemxashak va suvga boy edi. Bundan tashqari tog‘ yo‘llari saljuqiylarning ilg‘or dastalari bilan qo‘riqlanardi.

Razvedka ma‘lumotlariga qaraganda noyon Bayju 40 ming qo‘shin bilan bu paytda Arzinjon atrofidan Kosedag tomoniga harakat boshlagan edi. Sultonning lashkari soni yollanma askarlarlar kelmasdan 90 mingdan oshdi¹.

“Johil va nodon”² yosh sarkardalar sultonga o‘z mavqeini tashlab son jihatdan kam bo‘lgan dushmanga qarshi borishni maslahat berdilar. Tajribali sarkardalar va vazir egallagan mavqelarini tashlab ketishni avantyura deb baholadilar. Sarkardalar orasidagi kelishmovchilik va nizolar oxiri tahqirlar bilan yakunlandi. Sarxush bo‘lgan Muzafariddin o‘g‘li o‘zboshimchalik bilan mo‘g‘ullarga qarshi borishga qaror qiladi³.

Ertalab 3 iyun 1243 y. u o‘z qo‘shini bilan mo‘g‘ullar egallagan pozisiyalarga hujum qiladi. Mo‘g‘ullar tez orada bu hujumni qaytarib Muzafariddin o‘g‘li qo‘shinlarini qirib tashladilar. Undan keyin hujumga o‘tgan (20 minglik) boshqa kuchlarni ham mo‘g‘ullar tor-mor etadilar.

Shu bilan tarixga “Kosedag jangi” nomi bilan kirgan bu muhoba tugadi. Sulton vahimaga tushib Konyaga qochdi. Rohbarsiz qolgan qo‘shin tarqalib ketdi. Kosedagdan noyon Bayju qarshilik ko‘rmay Sivasga yaqinlashdi. Sivas qozisi Najmiddin Kirsheherli Xorazmda bo‘lganida mo‘g‘ullardan yoriq olgan ekan, shu yorliqni ko‘tarib shaharning a‘yonlari bilan chiqib mo‘g‘ullarni katta hadiya va tuhfalari bilan kutib oladi.

Bayju yorliqni ko‘rib Sivas taslim bo‘lishidan xabar topib shaharliklar va ularning mollariga omonlik berdi. Biroq u qo‘rxona va mudofa inshootlarining bir qismini buzib tashlash uchun farmon beradi.

Konya yo‘lida turgan yana bir shahar Qaysari edi. Sivasga nisbatan bu shahar Bayjuga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Bayju shaharni qamal qilib uni 15 kun davomida manjaniqlar yordamida o‘qqa

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala' iye Fi'l-Umuri'l-Ala' iye (Selçuk-Name). 1. cilt. – S. 68.

² O‘sha asar – B. 68.

³ O‘sha asar – B. 68.

tutdi. Shahar hunarmandlari o'zlarining axi deb nomlangan rahbarlari ostida zudlik bilan buzilgan devorlarni qayta tiklardilar. Orada shahar dastasi ham chiqib mo'g'ullarga zarba berardilar. Bayju qamalni to'xtatib keyingi yili Qaysariga kelmoqchi edi¹.

Biroq uning baxtiga Qaysarining igdiboshisi Xojukog'lu Xussam shahardan qochib chiqib Bayjudan o'zi, oilasi va molu mulkning omonligi uchun kafolat olib, shaharliklar oxirgi kuchlari bilan qarshilik ko'rsatayotganlari haqida xabar beradi.

Ertasi shahar garnizonining qo'mondoni suboshi Faxridin Ayoq va amir Samsamuddin Qaymaz Bayjudan ultimatum oldilar. Unda shunday deyilgan edi, shahar o'z ixtiyori bilan taslim bo'lsa ularga omonlik va molu mulklariga daxl qilinmaydi.

Shaharni zabt etib Bayju barcha himoyachilarini qatl qildi. Qaysari talon-taroj qilinib yoqib yuborildi. Shahar aholisi ham qirib tashlandi.

Qaysaridagi fojia mo'g'ullar bosqinining boshida saljuq davlatining rahbariyati, jumladan oliymaqom amaldorlar va sulton o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatdi. Kosedagdan keyin vazir Muheziddin Amasiyaga qochib ketadi. Amasiyaning vaziri va qozisi Faxriddin o'z ixtiyori bilan mo'g'ullar noyoni Bayju qarorgohiga borib saljuqiylar bilan sulh tuzishni so'radi².

Noyon vazir va qozining kelishlaridan mamnun bo'lib, ularning sulton mo'g'ul xoqoning hokimiyatini tan oladi va doim o'lpon to'lab turadi degan va'dalariga ishonadi.

Kelishuvga ko'ra, mo'g'ul xoqoni har yili 360 ming kumush dirham, 10 ming bosh qo'y, 1000 bosh qoramol, 1000 bosh tuya oladi³. Boshqa ma'lumotga qaraganda sulton to'lashi kerak bo'lgan o'lpon miqdori 400 ming tilla dinor hajmida belgilanadi⁴.

Vazir Konyaga qaytib kelganida saroyda uni G'iyosiddin Kayxusrav kutib olib muzokaralar natijasidan xursand bo'lib, vazirga juda qimmat hadiyalar berib, ko'p mulklarni iqto sifatida hadiya qiladi⁵.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ie Fi'l-Umuri'l-Ala'ie (Selçuk-Name). 1. cilt. – S. 73-74.

² O'sha asar – B. 75-76.

³ O'sha asar – B. 75-76.

⁴ Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S.445-446.

⁵ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ie Fi'l-Umuri'l-Ala'ie (Selçuk-Name). 1. cilt. – S.82.

Mo'g'ullar an'anasiga binoan nuyon qarorini Ulug' xon tasdiqlashi kerak edi. Bu davrda O'qtoy vafotidan keyin Ulug' xon taxti bo'sh turar edi. Shuning uchun G'iyosiddin Kayxusravni Chingizxon avlodlari orasida eng yoshi ulug' bo'lgan Botu tasdiqlashi mumkin bo'lgan. 1243 yili Botuxon Oltin O'rda degan nom olgan davlatga asos solgan edi. Uning tarkibiga G'arbiy Sibir, Xorazmning shimol qismi, Volga bo'yidagi Bulg'or yerlari, Shimoliy Kavkaz, Qrim, Volga va Dunay orasidagi dashtli hududlar kirardi. Rus knyazliklari ham Oltin O'rdaga tobe bo'lgani ma'lum.

Oltin O'rda poytaxti Saroy shahriga maliku-lumaro Shamsiddin Isfahoniy, Amasiya qozisi Faxriddin, tarjimon Majiddin Muhammad (Ibn Bibining otasi)dan iborat elchilar guruhi yuboriladi. Botu elchilarni qabul qilib mo'g'ullar va saljuqlar o'rtasida yangi sulh bitimini imzoladi.

U G'iyosiddin Kayxusravga o'z davlatini o'zi boshqarishi uchun farmon berib unga davlat ramzlari sifatida yoy, o'q, qilich va kuloh berib yubordi. Shamsiddin Isfahoniy Botudan Kilikiya armanlariga qarshi yurish uchun ijozat so'rab, uning roziligini oladi¹.

G'iyosiddin Kayxusrav Oltin O'rdadan elchilikdan qaytgandan so'ngra Shamsiddin Isfahoniyni vazir etib tayinlaydi. Unga oltin qilich hadiya qilib, iqto sifatida Qirshehri berdi va unga butun davlat boshqaruvini topshirdi.

1245 yili saljuq qo'shini Isfahoniy boshchiligida armanlarning Kilikiyadagi shohligiga hujum qildilar. Buning bahonasi arman shohining saljuqlarga to'laydigan o'lponni Kosedag mag'lubiyatidan keyin to'lamaganlari hamda ularning bu mag'lubiyatdan keyin dushmanlik siyosatlarini bo'ldi. Bundan tashqari Ibn Bibining bergan ma'lumotlariga qaraganda musulmonlar mo'g'ullar bosqinidan qochib Arman tog'larida panoh qidirganlarida ularni armanlar talon-taroj qilgan; Malatiya va Qaysaridan ham qochib Sis (Kilikiya armanlari davlatining poytaxti) orqali Halabga boradigan musulmon ahli ham shunday yovuzlikka duch kelganlar. Bundan tashqari sultonning onasi va qizi Suriyaga o'tib ketmoqchi bo'lganlarida arman shohi ularni tutib olib mo'g'ullarga berib yuborgan².

¹ Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S.450-451.

² Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'iyeh Fi'l-Umuri'l-Ala'iyeh (Selçuk-Name). 1. cilt. – S.79.

Muvafaqqiyatli amalga oshirilgan bu yurish natijasida Armaniston bilan tinchlik bitimi imzolandi. Unga binoan arman shohi saljuqiylar davlatiga uch yillik o'lon to'lab, harbiy yurish xarajatlarini qoplashi, qochoqlarga yetkazgan zararni to'lashi hamda mo'g'ullar bosqini davrida bosib olgan saljuqiylar yerlarini qaytarib berishi lozim edi¹.

1246 yili to'satdan sulton G'iyosiddin Kayxusrav I vafot etadi. Vazir Isfahoniy huzuriga o'ziga sadoqatli bo'lgan oliymartabali amaldorlarni chaqirib olamdan o'tgan sultonning qaysi o'g'lini taxtga chiqarish uchun maslahat qilmoqchi bo'ladi. G'iyosiddin Kayxusrav I ning 11 yoshli to'ng'ich o'g'li Izzaddin Kaykovus² taxtga ko'tarildi. U Izzaddin Kaykovus II nomib bilan 1246-1249, 1249-1254, 1257-1259, 1259-1262 yy. sulton taxtiga o'tirgan. Uning vaziri Shamsiddin Muhammad Isfahoniy bo'lib barcha davlat qudratini qo'lga oladi. Buning ustiga u sulton onasiga uylanib barcha o'zining raqiblari va dushmanlarini yo'q iqlib tashladi.

1246 yili mo'g'ul davlatining poytaxti bo'lmish Qoraqurumda Ulug' xonni saylash uchun qurultoy chaqirildi³. 1241 yilning oxirida Ulug' xon O'qtoy vafot etganida uning akasi va taxtga da'vogarlardan biri bo'lgan Chig'atoy va Chingizxonning boshqa o'g'illari davlatni qurultoygacha shahzodalarning onalari Turkina xotun boshqarib turishiga rozilik beradilar. Turkina xotun oqila va dono ayol edi. Barcha taxtga da'vogar shahzodalarning roziliklari uning mavqeini ancha mustahkamladi. Tez orda O'qtoydan keyin Chig'atoy ham vafot etadi. Shuning uchun ham Ulug' xon saylash masalasi ancha orqaga surilgan edi⁴.

Qurultoyga barcha chingiziy shahzodalar, mo'g'ullarga tobe davlatlarning hukmdorlari, ulug' noyonlar, Chingizxonning nabiralari, qisqasi juda ko'p mehmonlar hozir bo'lishdi. Ular uchun ikki ming yurta barpo etildi. Bag'dodning qozikaloni Faxriddin, franklarning elchilari ham kelishdi⁵.

Sulton Izzaddin Kaykovusga ham qurultoyga hozir bo'lishi buyurilgan edi. Biroq vazir Isfahoniy yosh sulton joni va o'zining mav-

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'iyе Fi'l-Umuri'l-Ala'iyе (Selçuk-Name). 1. cilt. – S.87.

² Уни яна Рукниддин Қилич Арслон ва Алоуддин Кайкубод номли укалари бўлган.

³ Джувейни, Ата-Мелик. Чингисхан. История завоевания мира ... – С. 172.

⁴ Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах. – С. 117-126.

⁵ O'sha asar – B. 173.

qeidan xavfsirab sulton o‘rniga uning ukasi Rukniddin Qilich Arslonni shahzodaning otabeki Bahouddin Tarjumon hamrohligida yubordi.

Qurultoyda O‘qtoyning o‘g‘li Guyuk (1246-1248 yy.) Ulug‘ xoqon etib saylanadi. Yangi xoqon barcha qo‘shinlar va zabt etilgan xalqlar ustidan hukmronlikni Yeljigitoyga berib, unga eng birinchi Rum, Gruziya, Halab, Mosul, Diyorbakr ishlarini topshirdi. Ular faqat mo‘g‘ullarga o‘lpon to‘lashlari talab qilindi. Guyuk qurultoyga kelgan hukmdorlarga yorliq va paysalar topshirdi¹. Saljuqiylar davlatining sultoni etib qurultoyda hozir bo‘lgan Rukniddin Qilich Arslon tayinlandi, Izzaddin Kaykovusni esa Guyuk taxtdan tushirdi.

1249 yili Rukniddin Qilich Arslon ikki ming mo‘g‘ul otliqlari bilan Sivasga keladi. Bu yerda taxt egasining almashgani ma‘lum qilindi. Rukniddin Qilich Arslon Bahouddin Tarjumonni yangi vazir etib tayinladi va 25 mart 1249 yili Shamsiddin Isfahoniy qamoqqa olinib, shu kuni qatl qilindi.

Bu voqealar mamlakatni ikkiga bo‘ldi. Yangi sulton hukumatini Arzinjon, Sivas, Qayseri, Malatiya, Xarput va Diyorbakrda tan olishadi. Mamlakatning boshqa qismlari Izzaddin Kaykovusga itoat qilishardi. Izzaddin Kaykovus o‘zining ukasiga taxtni berishni aslo xohlamasdi.

14 iyun 1249 y. Oqshahar atrofida jang bo‘ldi va Rukniddin Qilich Arslon mag‘lub bo‘ladi. Natijada, mutaxassislarning ta‘kidlashlaricha mamlakatda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan qaror qabul qilindi. Saltanat taxtiga Konyada uch nafar aka-uka birga o‘tirib hukm suradigan bo‘lishadi. Saroy a‘yonlari va amaldorlar Izzaddin Kaykovus II, Rukniddin Qilich Arslon IV va Alouddin Kayqubod II bu qarorni qabul qiladilar.

Uch sultonlik davri 1249 yildan 1254 yilgacha davom etadi. 1253 yili Konyaga xoqon elchisi kelib Izzaddin Kaykovus I ni Ulug‘ xoqon huzuriga borishini talab qiladi.

Izzaddin Kaykovus II xoqon huzuriga borishdan hadiksiradi va itoatsizligidan qattiq jazoga tortishini ham bilardi. U Mo‘g‘ulistondan sog‘-omon qaytib kelganida ham mamlakatda Rukniddin Qilich Arslon yolg‘iz o‘zi hukmronlik qilishini tushundi. Izaddin Ulug‘ xoqon saroyiga g‘arbda turkmanlar isyonini bostirishni bahona qilib bormaydi. U o‘rniga ukasi Alouddin Kayqubodni yubordi, biroq u Qoraqurumgacha yetib bormasdan yo‘lda vafot etadi. Taxminlarga ko‘ra aka-uka Alouddin mo‘g‘ul xoqoni qarorgohidan yakka

¹ Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах.

hukmronlik qilish haqida yorliq olib kelishini bilib uni yo‘q ilish payiga tushadilar¹.

Izzaddin Kaykovus Alouddin Kayqubod IIning otabeki bilan til biriktiradi va 1254 y. sulton o‘ldiriladi².

Izzaddin Kaykovus va Rukniddin Qilich Arslon o‘rtasidagi munosabatlar yanada taranglashib ketadi. 1254 y. Rukniddin Konyani tark qilib Qaysariga keldi va shu yerda taxtga o‘tirdi. Ular mamlakatni ikki qismga bo‘lmoqchi edilar biroq bu ish samara bermadi. Aka-uka lashkar to‘plashga kirishdilar. Navbatdagi jangda yana Rukniddin mag‘lub bo‘ldi va Sisga chekindi. Biroq uni yo‘lda turkmanlar tutib olib Qaysariga olib keldilar. Bu yerda uni Izzaddin kutib olib Borgulu qal‘asiga tashladi³.

O‘zaro urushlar mamlakatning iqtisodiy holatini yomonlashtirdi va buning nishonasi kumush dirhamining qadrsizlanishi bo‘ldi. Rasmiy og‘irligi 3,21 gr. bo‘lgan kumush tanga 1256 yilga kelib 2,73 gr. og‘irlikka tushadi⁴. Narxlar oshib qimmatchilik bo‘ladi⁵. Saljuqliylar davlati mo‘g‘ullarga to‘lanadigan o‘lponni to‘lashda ham qiynaladilar.

Ta‘kidlash lozimki, saljuqiylar davlati ustida Ulug‘ xoqonga itoat qilmayotgan humdorning bo‘lishi mo‘g‘ullarning yangi bosqiniga sabab bo‘lishi aniq edi va bu sulton Izzaddin Kaykovusni ham kelajagiga xavf solardi.

1251 yili Chingizxonning nabirasi Mengu (1251-1259 yy.) mo‘g‘ullarning Ulug‘ xoni etib saylanadi. Mengu G‘arb yerlarini bosib olish uchun ukasi Xulaguni elxon qilib yubordi. Xulagu G‘arbiy mo‘g‘ullar davlatiga asos soladi. Bu davlat 1256 yildan XV asrning o‘rtalarigacha mavjud bo‘lgan. Bu davlat, ya‘ni elxoniyalar davlatining tarkibiga Eron, Afg‘oniston, Turkmaniston, Kavkaz orti, Turkmaniston, Iroq va Kichik Osiyoning sharqiy hududlari kirgan. Bu davlat Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasining asosiy qismini tashkil qilgan⁶.

1256 y. avgust oyida Xulagu (1256-1265 yy.) Anatoliyaga noyon Bayjuni yuboradi. Sulton Bayju qo‘shinlarini Konyaga borayotib

¹ Koca S. Sultan I. İzzeddin Keykavus (1211 - 1220). – Ankara, 1997. – S. 80.

² Turan O. Selyuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 473.

³ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti‘l-Ala‘iye Fi‘l-Umuri‘l-Ala‘iye (Selçuk-Name). II. cilt. – S.140-143.

⁴ Akdag M. Türkiye'nin iktisadi ve içtimai tarihi. 1. cilt (1243-1453) ... – S. 36.

⁵ O‘sha asar – B. 36.

⁶ Запорожец. – С.262.

Arzirumdan Oqsaroygacha boʻlgan joylarni xarob qilayotganidan xabar topib janga tayyorgarlik koʻra boshladi. Qoʻshin yigʻib u yurish boshladi. Ibn Bibi maʼlumotiga qaraganda sulton saroy gʻulomlari taʼsirida harakat boshlagan. 14 okyabr 1256 yili Oqsaroy yaqinida boʻlgan qonli urushda sulton Izzaddin Kaykovus IIning lashkari tormor qilinadi va yaqinlari bilan Antaliyaga, soʻngra Denizliga qochadi. Noyon Bayju oʻz odamlariga sultonni tutib olib kelishlarini buyurdi. Biroq sulton qochib Denizlidan grek va Nikeya davlatining hukmdori Laskaris qoshidan panoh topadi.

Izzaddin qochishi bilan Bayju Rukniddin Qilich Arslonni ozod qilishni buyurdi. 1256 yil noyabrida Rukniddin Konyaga keladi va 1257 yilning martida yangi davlat organlari tashkil etildi.

Konyadan sulton Rukniddin Hamadonga, Xulagu huzuriga keladi. Bu yerda Xulagu Rukniddinga saljuqiylar davlatini boshqarishi uchun yorliq beradi.

1257 y. elxon Xulagu Eronni butunlay bosib olib, Bagʻdod yurishiga tayyorgarlik koʻra boshladi. Shu sababdan u oʻz noyonlarini, jumladan Bayjuni ham chaqirib keldi. 1258 yili Xulagu Bagʻdodni zabt etadi. Poytaxt talon-taroj qilindi, aksar aholisi qirib tashlandi, xalifa al-Mustansir va uning oʻgʻli qatl qilindi¹. Mazkur xalifa halokati bilan Iroqda Abbosiylar xalifaligi ham tugatildi².

Izzaddin Kaykovus saljuqiylar mamlakatida bir vaqtning oʻzida Rukniddin Qilich Arslon va moʻgʻullarning qoʻshinlari boʻlmaganidan foydalanib Laskaris oldidan Konyaga qaytib keladi va 3 may 1257 yili taxtga oʻtiradi. Hukumatni qoʻlga olib u poytaxt va viloyatlarda Rukniddin Qilich Arslon tomonidan mansablarga tayinlangan odamlarni qamatishtan boshladi.

Oʻz navbatida Rukniddin akasining qilmishlaridan xabardor boʻlib Bayon boshchiligidagi moʻgʻullar qoʻshini bilan birga qaytdi. Rukniddin bir muddat Arzinjonda qolib ketadi va 1258 yili bahorda turk va moʻgʻullardan iborat qoʻshin Arzinjondan Toqat sari yoʻlga tushadi.

Sivas va Toqat orasida ularni Izzaddin lashkari kutib oladi va boʻ urushda Izzaddin Kaykovus moʻgʻullar va Rukniddin qoʻshinini magʻlub qiladi.

Sulton Rukniddin Qilich Arslon elxonga elchi yuborib undan harbiy yordam soʻraydi. Elxon noyon Alinjan boshchiligida yana bir das-

¹ Джамал ал-Карши. Мулхакат би-с-Сурах. – С. 79.

² Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – С. 180.

ta yuboradi. Shu kuchlar bilan Rukniddin Niksarni zabt etadi. Biroq u Toqatni zabt eta olmadi.

Sulton Izzaddin o'z tarafiga turkmanlar va kurdlarni jalb qilib Arzinjonni egallamoqchi bo'ldi. Elxon Rukniddinga madad berish uchun Bayjuni qo'shini bilan yuboradi. Bayju Iroqdan Elbistongacha yurish qilib bu shaharni oldi va 7 ming aholisini qatl qilib yosh yigit va qizlarni asirga olib ketadi. Elbistondan u Malatiyaga yurib uni bosib oldi va o'lim jazosi ostida aholini Rukniddin itoatiga kirgizdi. Shundan keyingina u qamalda bo'lgan Bag'dodga qaytadi¹.

Uning ketishi bilan aka-uka orasidagi urush olovi yanada balandroq yondi. Oxiri 1259 yili elxon Xulagu Tabrizga ikkala sultonni chaqirib saljuqiylar davlatini ikkiga bo'lingani haqidagi qarorini ma'lum qiladi. Qizil Irmoq daryosining g'arbiy taraflaridan Vizantiyagacha bo'lgan yerlar sulton Izzaddin Kaykovusga, Qizil Irmoq daryosining sharqidan Arzinjongacha bo'lgan hududlar sulton Rukniddin Qilich Arslonga berildi.

Elxon buning ustiga saljuqiylar to'laydigan o'lpon miqdori ko'payishini, saljuqiylar davlati hududlarida bo'lgan mo'g'ullar qo'shining xarajatini ular ko'tarishlarini ham aytadi. Ulug' xoqon Mengu saljuqiylar davlati ikkiga bo'linishi haqidagi qarorni tasdiqladi va shu bilan aka-ukalar orasidagi taxt talashlarga yakun yasaladi.

Saljuqiylar davlatidagi voqealar rivoji Muinaddin Sulaymon nomli odam bilan bog'liq². U sulton Rukniddin Qilich Arslon saroyida parvona mansabini egallardi. Bu vazifaga uni mo'g'ul xoni tayinlab yorliq yuborgan edi.

1262 yili yozda parvona Anatoliyada Izzaddin Kaykovus Misr sultoni Beybars bilan mo'g'ullarga qarshi yurish uchun muzokaralar olib borayotgani haqida mo'g'ullarga xabar beradi.

Elxon Xulagu zudlik bilan Izzaddinni qamoqqa olish uchun buyruq berib Konyaga qo'shin yuboradi.

Mo'g'ullarni kelishidan ilgariroq Izzaddin o'z harami va a'yonlari bilan Konstantinopolga Vizantiya imperatori Mixail Poleolog oldiga qochib ketadi. Biroq Ulug' xoqon talabi bilan imperator Izzaddinn va uning ikki o'g'lini qal'aga bandi qilib, amaldorlarini qatl qiladi³.

¹ Запорожец. – С. 265.

² У ҳақда қаранг: Каумаз Н. Пervane Му'ину'д-din Suleyman. – Ankara, 1970.

³ Успенский Ф.И. История Византийской империи. Т. 5. – Москва, 2005. – С. 310-311.

1264 y. Oltin O‘rdaning Ulug‘ xoni Berke (u Botuning vafotidan keyin 1256-1266 yy. xon bo‘lgan edi) talabi bilan Izzaddin Kaykovus va uning o‘g‘illari ozod etildi. Xon unga iqto sifatida Qrimni, jumladan Sudak shahrini beradi. Izzaddin Kaykovus surgunlikda 17 yil, undan 15 yilini Qrimda o‘tkazib 44 yoshda vafot etgan¹.

Izzadinning Konstantinopolga qochib ketishi bilan saljuqiylar davlati yana birlashdi. Uning poytaxti Konyada Rukniddin Qilich Arslon hukm surdi. Biroq 1266 yili parvona endi Rukniddin arablar bilan birgalikda mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi qo‘zg‘alon ko‘tarmoqchi ekanligi haqida mo‘g‘ullarga xabar beradi.

Shu yili Rukniddinni yoy ipi bilan bo‘g‘ib qatl qilib, u kasallikdan vafot etgan deb mamlakat aholisiga e‘lon qiladilar.

Konyada sulton taxtiga Rukniddinning ikki yoshli o‘g‘li G‘iyosiddin Kayxusrav III (1266-1284 yy.) ko‘tariladi. Unga mo‘g‘ullar parvona Muiniddin Sulaymonni otabek qilib tayinladilar. Shu davrdan boshlab Sulaymon mamlakatda cheklanmagan qudratga ega bo‘ladi.

Sulaymon olib boradigan siyosat butunlay mo‘g‘ullarning manfaatlariga mos edi. Uning davrida mo‘g‘ullar noyonlari saljuqiy suboshilarini amallaridan chetlatib, iqto egalarini ham siqib tashladilar. Biroq ular oldingi mulk egalariga nisbatan faqat soliqlarni yig‘ib olardilar, xolos. Iqto yerlarida endi mo‘g‘ul askarlari joylashdilar. Bunday holat saljuqiylar harbiy tashkilotining asosiga barham berardi. Otliq va sarbozlarning soni kamayib ketdi².

Saljuqiylarning muntazam qo‘shinlarining soni ham g‘ulomlarni xizmatda ushlab turish uchun mablag‘ kamligidan kamayadi. Mamlakatda mavjud mo‘g‘ullar askarlarini boqish uchun sarflanadigan xarajatlar o‘sib borardi. Davlat xazinasiga tushumlar ham yildan-yilga qisqarib borardi.

Ulug‘ xoqonga o‘lpon va mo‘g‘ullarning boshqa talablarini qondirish uchun soliqlar miqdori doim oshib borardi. Bundan tashqari amaldorlar va davlat a‘yonlari, ayniqsa devon a‘zolari o‘z jonlaridan xavfsirab shaxsiy xarajatlarini ham kamaytirdilar. Mo‘g‘ullar saljuq davlatining moliya tizimini ham nazorat ostiga olib devon tarkibiga o‘zlariga tobe davlat mushoviri martabasidagi amaldorni kiritadilar.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca‘feri er-Rugadi). El Evamirti’l-Ala’iye Fi’l-Umuri’l-Ala’iye (Selçuk-Name). II. cilt. – S.162.

² Turan O. Selyuklular zamaninda Türkiye tarihi ... – S. 526.

O'lpin miqdorini oshirish uchun ular cultonni "orfi rüsümü" urfiy rasm bo'lgan sorliqdan ham mahrum qildilar. Aholi bu soliqni sulton va uning oilasi uchun to'lar edi. Sulton boshqa saljuqiy a'yonlari qatorida mo'g'ullar tomonidan ajratilgan iqto davromadi hisobidan yashashi lozim bo'ldi¹.

Davlat barcha aholi ko'zi oldida butunlay obro'sini yo'qotdi. Mamlakatda mo'g'ullarga itoat qilmaslik va qarshilik harakatlari boshlandi. Ko'chmanchi turkmanlar mo'g'ullar qo'shinining dastalari-ga ham hujum qila boshladilar. Mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish uchun aholi Misr sultoni Beybarsga umid bog'ladi. Chunki Beybars-ning mamluklari 1260 y. Xulagu lashkarini Ayn Jolut yaqinida tormor qilib, islom va nasroniylar olamida mo'g'ullarning mag'lub bo'lmasliklari haqidagi ovozasini yo'qqa chiqqargandilar.

1276 y. Diyorbakr voliysi Hisomiddin Bayjar o'z qo'shinlari bilan Suriyaga ketadi. Shu yili turkman (o'g'uz)larning Xatir qabilasi mo'g'ullarga qarshi qurolli harakatlarini boshlaydi. Qabila boshliqlari muvafaqqiyatga erishganda sulton G'iyosiddinni o'z tomonlariga ag'darishga va u harakatni boshqarishiga umid bog'lardilar. Shu 1276 y. qabila a'zolaridan biri Ziyouddin Xatirog'lu Beybars oldiga borib, uni Anataoliyaga kelib mo'g'ullarni u yerdan haydab chiqarish uchun yordam berishini iltimos qiladi. Xudi shu vaqtda bu qabilaning boshqa vakili Sharafiddin Xatirog'lu parvona, noyonlar va mo'g'ul qo'shinlari ketishlaridan foydalanib mo'g'ullarga qarshi qurolli chiqish uchun saljuq beylari orasida ham targ'ibot ishlarini olib bordi².

Ko'p o'tmasdan Elbistonga arab elchisi Sharafiddin Xatirog'luga sulton Beybarsdan maktub olib keladi va unga sultonni mo'g'ullarga qarshi kurashda ishtirok etishi uchun roziligini yetkazadi. Sharafiddin Xatirog'lu bu ma'ulumotni saljuq beylari, jumladan Qaramanning o'g'li Maxmudga yetkazadi.

Sharafiddin beylarni qo'shinlari bilan Nigdaga kelishlarini so'radi. Shu vaqtda Elbistonga Beybars qo'shinlarining muqaddimasi yetib keladi. Mahmud Qaraman ko'chmanchi turkmanlar bilan birga mo'g'ullar bilan jang olib borib Ichel viloyatini ozid qiladi. Qaramanlar g'alabalari haqidagi fathnomani Sharafiddin Xatirog'lu butun Anataoliya bo'ylab tarqatadi.

¹ Akdag M. Türkiye'nin iktisadi ye içtimai tarihi. 1. cilt (1243-1453) ... – S. 36.

² Запорожец. – С. 267.

1276 y. kuzda Anatoliyaga Muinaddin parvona 30 minglik mo'g'ul armiyasi bilan keladi. Misr sultoni Beybars esa 1277 yil bahorida Halab atrofida qo'shinini jamladi. Aprelda u Diyorbakrga kelib, keyin Qaysariga yurish qiladi.

Beybars harakatlaridan xabar topgan mo'g'ul va saljuqiylar qo'shinlari parvona boshchiligida Qaysaridan Misr sultoniga qarshi yuradi. Ibn Bibi ma'lumotiga qaraganda Beybars lashkari mo'g'ul va saljuqiylar qo'shından son jihatdan kam bo'lgan¹.

Elbistan yaqinida bo'lgan qonli urushda mo'g'ullar tor-mor bo'lalilar. Bu savashda olti ming kishi halok bo'ladi, qolganlari tarqalib ketishadi. Saljuqlar qo'shini jangga kirishmay, bir qism beylarning dastalari Beybarsga taslim bo'lishadi.

Urushdan oldin va undan keyin ham saljuqlarning bir necha davlat a'yonlari arablar tomoniga o'tadilar. Ular orasida parvonaning o'g'li beylarbey Mahzubiddin Ali, harbiy vazir (ariz al-jaysh) amir Kamoliddin, saljuqiylarning qozi ul-quzzoti Hisomiddin, Arzinjon Sinop va Sivas voliyari bo'lgan².

Bu voqealardan keyin mo'g'ullarning munosabati parvonaga nisbatan o'zgaradi va 1277 yili avgust oyida uni qatl qilishadi.

Beybars mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonib 12 iyul 1277 yili Qaysariga kelganida katta tantana bilan kutib olishadi.

Misr sultoni unga atab barpo qilingan saljuqiylar taxtiga o'tirdi. Juma namozidagi xutba uning nomi bilan o'qildi. Biroz muddatdan so'ngra sulton Anatoliyadan Suriyaga qaytadi va shu yili vafot etadi.

Anatoliyadan sulton Beybars ketgani bilan u yerga elxon Abaqa keladi. U Elbiston yaqinidagi urush maydoniga kelib saljuqiylar davlatining musulmon aholisi, asosan o'troq turklar va ko'chmanchi turkmanlarga nisbatan qatag'onlik siyosatini boshlaydi. Bu tadbiri natijasida bir necha yuz ming odam qatl qilinadi. Shuncha miqdordagi aholi asirlikka olib ketiladi³.

Elxon noyon Kang'urtoygga Qaramoniylarni yo'q qilib uning nomidan Anatoliyani boshqarishga farmon berdi. Orada Qaramoniylar ham kuchayib Anatoliyaning siyosiy maydoniga chiqib javlon ura

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ie Fi'l-Umuri'l-Ala'ie (Selçuk-Name). II. cilt. – S.187.

² Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 515-546.

³ O'sha asar – B. 551.

boshladilar. Bu turkiy sulolaning asoschisi Karaman/Qahramon Ibn Bibi ma'lumotiga qaraganda Tavra tog'larida ko'mir qazuvchi bo'lib, har kuni Ermenek shaharchasiga olib kelib, sotib kun ko'rgan bir kishi bo'lgan. Bayjuning ikkinchi yurishi natijasida aholining yashash darajasi nihoyatda pasayib ketadi. Soliqlarning yuki oila boqishga imkon bermadi. Shuning uchun u 1256 yili Qaraman bir guruh tuzib yo'llarda bosqinchilik qila boshladi. Unga qarshi jo'natilgan qo'shinlarni u mag'lub qilib, har daf'a harbiy sarkarda sifatida o'z mahoratini ko'rsatardi. Shunda sulton Rukniddin Qaramanni davlat xizmatiga oladi va uni amir etib katta bir hududni iqto sifatida beradi.

Qaysariga Beybars kirib kelganida vafot etib ketgan Qaramanning o'g'li Shamsiddin Mahmudbey uning huzuriga ukasi Alini yuborib barcha Qaramanlar xonadoni nomidan Beybarsga sadoqat izhor qiladi. Beybars Mahmudga Larenda (hozirgi Qaraman shahri) dan O'rta yer dengizigacha bo'lgan yerlarni hadiya qiladi¹.

1277 yili may oyida Beybars Anatoliyada, sulton, parvona va boshqa amaldorlar Toqatda bo'lgan vaqtlarida Qaramoniylar turkmanlar yordamida Konyani o'rab olib uni zabt etadilar.

Qaramonlilar bilan birga Konyaga Jimri (Tojik tilidagi gumroh, daydi, qochoq ma'nosida – Z.Q.) degan bir kishi ham kirib keladi. U o'zini asl ismi Siyovush, Qrimda surgunda bo'lgan sulton G'iyosiddin Kaykovusning o'g'li deb tanishtirdi. Haqiqatda ham G'iyosiddin Kaykovusni bir o'g'lining ismi Siyovush bo'lgan. Uning bu da'vosini tasdiqlaydigan bir necha guvohlar ham topiladi. Ular Siyovushni Qrimda ko'rganliklari va shu Jimri o'sha Siyovush ekaniga guvohlik berdilar. Shunday guvohlardan birini Taqi Sivasli derdilar. U yaqinda Sudakdan kelganini va Siyovushni shaxsan bilganini, unga savod o'rgatganini ta'kidladi. Shu odam, Ibn Bibi ta'biri bilan aytganda “kaz-zob” so'zidan keyin Jimri-Siyovushga ishonch ortdi.

Birinchi bo'lib Soxta-Siyovushga Mahmud Qaramon ishonib unga qasamyod qildi. Keyin Konyaning igdishboshisi, a'yonlar, axiylar² va oddiy shaharliklar bayat qiladilar³.

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ye Fi'l-Umuri'l-Ala'ye (Selçuk-Name). II. cilt. – S.202.

² Ибн Буттута. Саъхатнома. – Б. 289-290.

³ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ye Fi'l-Umuri'l-Ala'ye (Selçuk-Name). II. cilt. – S.209.

1277 yil, may oyida Siyovush-Jimrini Konyada taxtga koʻtardilar. Yangi devon tuzildi va unda vazir amalini Mahmud Qaramon oldi. Devon birinchi qarorlarining birida turk tilini davlat tili deb eʼlon qilgan. Biroq bu qaror amalga oshmadi. Davlat tili oldingidek fors tili boʻlib qoldi.

Shu vaziyatda sulton Gʻiyosiddin Kayxusravning vaziri Faxriddin Ali elxon Abaqadan yordam soʻradi. Moʻgʻullar qoʻshini kelishini kutmasdan vazir saljuq qoʻshinlarini toʻplab Konyaga yuboradi. Bundan xabar topgan Mahmud Qaramon va Jimri oʻz qoʻshinlari bilan Oqshaharga otlandilar. Shu yerda 1277 yili iyun oyida jang boʻladi va Mahmud bilan Soxta Siyovush gʻalaba qozonadi. Ular katta boyliklar bilan Konyaga qaytadilar. Bu gʻalabadan keyin Qaramoniylar va Siyovush qoʻllariga Anqaradan Oʻrta yer dengizigacha boʻlgan hududlar oʻtadi. Qaramoniylar Arzirumgacha yurish qilib Anataoliyani moʻgʻullardan ozod qilishlarini eʼlon qiladilar¹.

30 iyun 1279 y. moʻgʻullar bilan Siyovush va Qaramoniylar orasidagi ikkinchi toʻqnashuv boʻlib oʻtadi. Bu dafa qoʻzgʻolonchilar magʻlub boʻlib, Jimri-Siyovush tutib olinib qatl qilinadi. Biroq Qaramoniylarning magʻlubiyati saljuqiylar davlatining mavqeini kuchaytirmadi va mamlakatning ichki siyosiy vaziyatini barqaror qilmadi.

Elxonlarning saljuqiy sultonlari bilan munosabatlari faqat bir oʻlchov bilan aniqlanardi. Bu ham boʻlsa ulardan qaysi biri mamlakatni yaxshi idora qilib moʻgʻullarga oʻlponni vaqtida va talab qilgan miqdorda toʻlasa shu sulton taxtda qolardi.

Saljuqiy sultonlar aksaran bu talablarga javob bermasliklari bois elxonlar Anatoliyada oʻz voliyalarini tayinlab, sultonlarni diqqat doiralardan butunlay chiqarib tashlagan edilir.

Saljuqiylar sulolasining sultonlari taxtga chiqqanlari bilan alaqachon mustaqil hukmronlikdan mahrum etilgan edilar. Masalan, 1284 y. sulton Gʻiyosiddin Kayxusrav III tutib olinib Arzinjonga surgun qilindi va keyin oʻldirildi.

Uning oʻrniga elxon Apgʻyn taxtga Gʻiyosiddin Masʻud II, curgunda vafot etgan Izzaddin Kaykovus II ning oʻgʻlini oʻtkazdi.

1296 y. sulton Gʻiyosiddin Masʻud II ham taxtdan tushirilib surgun qilinadi. Ikki yil ichida saljuqiylar taxti boʻsh turdi. Moʻgʻullar

¹ Ibn Bibi (el-Hüseyin b. Muhammed b. Ali el-Ca'feri er-Rugadi). El Evamirti'l-Ala'ye Fi'l-Umuri'l-Ala'ye (Selçuk-Name). II. cilt. – S.210.

mamlakatni o'zlari boshqardilar. 1298 y. elxon Gayxatu taxtga Kostantinopolda bo'lgan Izzaddin Kaykovus II ning nabirasi Alauddin Kayqubod III ni ko'taradi.

Alouddin Kayqubod o'zining hukmronligida rasmiy jihatdan ancha chegaralangan bo'lib, elxondan olingan yorliqning mazmuniga qaraganda barcha ishlarda Anatoliyaning Ulug' hukmdori noyon Abushqaning roziligini olishi kerak edi.

Shu talabni birinchi marta buzgani uchun Alouddin Kayqubod III 1302 yili taxtdan olinib Isfahonga surgun qilinadi.

XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida saljuqiylar davlati nomiga mavjud edi xolos. Bu sulolaning vakillari Xulagular davlatining tanazzulidan o'z davlatlarining manfaatlari uchun foydalanmoqchi bo'ldilar.

1312 y. elxon O'ljaytu Suriya va Misr mamluklar davlatiga qarshi urush boshlaydi. Biroq bu urush mo'g'ullarning mag'lubiyati bilan tugaydi. Ularning mavqelari Markaziy va G'arbiy Osiyoda ancha zaiflashdi.

1315 y. bahorida mamluklar Xulagular davlatining zaifligidan foydalanib Anatoliyaning junubiy-sharqiga hujum qiladilar. Ular Malatiyaga yurish qilib tezda mo'g'ullar qarshiligini yo'q qilib shaharni talon-taroj qilib buzib tashladilar.

1316 yili elxon O'ljaytu vafot etadi va uning vorisi Abu Said Bahodir davrida (1316-1335 yy.) Xulagular o'rtasida taxt uchun kurash avj oladi.

Bunday vaziyatda Xulagular davlatida qo'shin qo'mondoni amir Cho'pon (Suldus qabilasidan) kuchayib ketadi¹.

1317 yili Cho'pon o'zining o'g'li, mo'g'ullar noyoni Temirtoshni Anatoliyaning ulug' hukmdori etib tayinlaydi. Bu vaqtda Konyada saljuqiylar taxtini sulton Qilich Arslon V (1310-1318) egallab turardi. Temurtosh sultonni pisand qilmay Qaysari shaharini o'ziga poytaxt qilib Anatoliyani boshqarardi. 1318 yili Izzaddin Qilich Arslon V vafot etganida uning o'g'li va qonuniy vorisi Alouddinga (1365 yili vafot etgan) ham boshqa saljuqiylarning vakillariga ham taxtni egalashlariga yo'l qo'ymadi.

Aytish mumkinki, Temurtosh Kichik Osiyoda saljuqiylar sultonlari hukumatini bekor qiladi. Uning bu ishi mamlakatda biror-bir

¹ Küprülü M.F. Osmanlı imparatorluğunun Kuruluşu. – Ankara, 2003. – S. 67.; Муизз ал-ансаб. – С. 112.

qarshilikni ham yuzaga keltirmagani qiziq. Saljuqiylar sulolasining namoyandalari ham qarshilik ko'rsatmay taxt uchun ham kurashmadilar. Shu bilan saljuqiylar jimgina tarix qa'rida yo'q bo'lib ketadilar.

Shunday qilib 243 yil (1075 -1318 yy.) davomida mavjud bo'lgan Kichik Osiyodagi saljuqiylar davlati siyosiy maydondan ketishadi.

Keyingi o'n yil ichida Anatoliyada davlat qudrati Temurtosh qo'lida bo'ldi. U turkmanlar kuchlarini asosan g'arbiy va janubiy chegara hudulariga chekinishga majbur qiladi.

1321 y. u Kilikiyadagi armanlar yerlarini bosib oladi. Temurtosh davrida Anatoliyaning ichki vaziyati ancha barqaror bo'ldi. Temurtosh kuchli hukmdor bo'lganidan oddiy aholi o'rtasida ancha shuhrat orttiradi. Buning yana bir sababi shu ediki, u musulmon hukmdor sifatida islom qonunlariga rioya qilib ularning yordamida jamiyat va davlat organlarini mustahkamladi.

Shunday siyosati natijasida Temurtoshning obro'si va qudrati aholi o'rtasida ortib borib, 1322 yili Anatoliyani tanazzulga uchrayotgan elxoniylar davlatidan mustaqil deb e'lon qilmoqchi bo'ladi¹. Tabrizda bundan xabardor bo'lishganida amir Cho'pon katta qiyinchiliklar bilan elxon tomonidan o'g'lini kechirilishi va uni Anatoliyaning Ulug' hukmroni qilib qoldirishiga erishadi.

1327 yili amir Cho'pon elxonning g'azabiga duch kelib qatl etiladi. Temurtosh ham o'z joni xavf ostida qolganini tushunib Anatoliyadan qochib Misr mamluklari sultoni Nosir oldiga boradi. Biroq 1328 yili yozida Qohiraga sulton Abu Said Bahodir oldidan elchilar kelishadi. Elxon talabi bilan 1328 yil, avgust oyida Temurtosh qatl qilinadi.

Temurtoshning qochishi va uni qatl etilishidan keyin mo'g'ullar Markaziy va qisman Janubiy Anatoliyada o'z hukumatlarini saqlab qoladilar. 1330 yilga kelib elxoniylar hukumati faqat Anqaraning g'arbiy yerlarigacha yetardi. Bu ham bo'lsa ular qo'shin harakati uchun qulay bo'lgan yo'llar atrofidagi shaharlar ustidan nazorat o'rnatdilar xolos. Bu holat uzoqqa bormadi va 1335 yili elxon Abu Said vafotidan keyin elxoniylar davlati ham barham topadi va mo'g'ullar Anatoliyani tark etishadi².

Saljuqiylar davlatining barham topishi va mo'g'ullarni Kichik Osiyodan ketishlari natijasida bu mintaqadagi vaziyat yangicha ko'ri-

¹ Turan O. Selçuklular zamanında Türkiye tarihi ... – S. 647.

² Küprülü M.F. Osmanlı imparatorluğunun Kuruluşu. – Ankara, 2003. – S. 70.

nish paydo qiladi. Saljuqiylar davlati egallagan hududda hali ham sunniy turklar – o‘g‘uzlar ko‘pchilikni tashkil qilardi.

Siyosiy jihatdan esa bu mintaqa bir necha davlatlarga bo‘linib, ular hududlar, aholi soni, harbiy kuch va mustaqillik darajasi bo‘yicha bir-birlaridan farq qilardilar. Ularni turklar tarixida beylik deyishgan. Ularning ba‘zilari yo‘q bo‘lib, ba‘zilarini kuchli beyliklar zabt etganlar. Qolganlari mustaqillikni qo‘lga kiritib alohida davlat sifatida faoliyat ko‘rsatganlar.

Kichik Osiyoning g‘arbga mo‘g‘ullardan qochib juda ko‘p ko‘chmanchi o‘g‘uzlar ko‘chib borishadi. Va mustaqil beyliklarning tashkil topishi saljuqiylar davlati barham topishidan oldin boshlangan edi.

Markaziy Anatoliyada bu jarayon mo‘g‘ullar ketishlaridan keyin boshlanadi. Hudud va qudrat yuzasidan ulardan eng kattalari Qaramoniylar va Germiyoniylar bo‘lgan.

Qaramoniylar Avshar qabilasidan bo‘lgan va ular mo‘g‘ullar ketishlaridan oldin Konyani o‘zlariga poytaxt qilib, o‘z mustaqilliklarini e‘lon qiladilar. Ular saljuqiylar davlatining vorisligiga da‘vo qilib, XV asrning oxirlarigacha Usmoniylar davlatining jiddiy raqiblaridan biriga aylandilar.

Germiyoniylarning beyligi turklarning g‘arbga qilgan yurishlarida alohida rol o‘ynab, shu bilan usmoniylarning bosiqinchilik yurishlariga sharoit yaratib bergan. Germiyoniylar ham o‘g‘uzlardan bo‘lib, ular Kichik Osiyoga XIII asrning o‘rtalarida kelishlaridan oldin Eronning Fors va Kirmon viloyatlarida yashaganlar. Bir muddat Germiyoniylar Malatiya atroflarida keyin taxminan 1286 yili Kyutaxya atrofiga kelib o‘rnashadilar. Sulola asoschisi Alisher saljuq sultonlariga sadoqat bilan xizmat qilgan. U saljuqlar qo‘shinlari tarkibida Meandr (Menderes) vodiysidagi Tripolis shahrini bosib olish va Filadelfiyaning (hozirgi Alashahar-tur. Alaşehir) qamalida ishtirok etadi.

Beylik muqtaqilligini Alisherning o‘g‘li Ya‘qub Germiyon e‘lon qiladi va uning davrida beylik qudratli va siyosiy jihatdan kuchli davlatga aylanadi. Ya‘qubning qo‘l ostida bo‘lganlar Ayasulug, Manisa, Balikesir va Kichik Osiyoning g‘arbida joylashgan boshqa shaharlarni bosib olishadi.

Keyinchalik ularning ba‘zilari alohida beyliklarni barpo qiladilar. Masalan, Germiyoniylar qo‘shinining qo‘mondoni suboshi Mahmud Oydin o‘zining Oydiniylar beyligini tuzadi. Uning tarkibiga Izmir, Birgi, Tire, Ayasulug, Alashehir kirgan¹.

¹ Orkun H.N. Türk tarihi, C. IV ... – S. 121.

Bu beylik poytaxti Birge bilan Germiyoniylar tobeligiga o‘tadi.

Yaqub Germiyoniy davrida unga tobe Manisa poytaxi bo‘lgan Saruxan, Balikesir poytaxti bo‘lgan Karasi beyliklari ham tuziladi. Karasi beyligi tarkibiga Balikesirdan tashqari Manyas, Bergam, Edremit va Gyordes hamda Egey dengizidagi hududlar Edremitdan Chanakqalagacha bo‘lgan joylar kirgan.

Kichik Osiyoning janubiy-g‘arbida 1309 yili Menteshiylar beyligi tuziladi. Unga Mugla, Milas, Dalaman, Fethiedirlar kirgan¹. Ibn Buttuta bu beylikka kelganida hukmdori sulton Shujouddin O‘rxonbek ibn Mentasha (Mantasha o‘g‘lu) bo‘lgan².

Menteshedan sharqroqda Hamid xonadoni (Hamido‘g‘li Dundor) poytaxti Egridir bo‘lgan beylik tuzadi³. Uning janubiy chegarasi O‘rta Yer dengizining 250 km. sohillari bo‘lib markazida Antaliya shahri joylashgan. Uning shimoliy chegarasi Oqshahar ko‘lidan o‘tgan. Beylik tarkibiga Yalvach, Uluborlu, Isparta, Akshehir va boshqa shaharlar kirgan.

Ashraf xonadoni poytaxti Beyshehir bo‘lgan beylik tuzishadi. Uning asoschisi Sulaymon Ashraf saljuqiylarning oliymartabali amaldorlaridan biri bo‘lgan. Unga Beyshehir shahri iqto sifatida berilgan edi. Beylik hududi kichik bo‘lib poytaxt atrofidagi hududlardan tashqari Sayidshahar va uning tevaraklari kirgan.

Anatoliyaning janubida Suriya va Misr mamluklari davlati ta’sirida D(z)ulqodir va Ramazon beyliklari tashkil topadi. Ularning birinchisini 1339 yili Zayniddin Qoraja – o‘g‘illarining bay’at urug‘ining peshvosi bo‘lgan Dulqodirning o‘g‘li barpo qiladi. Beylik tarkibiga Marash, Elbiston, Malatiya va Xarput kirgan. 1521 yili bu beylikni Usmoniylar davlati o‘ziga qo‘shib oladi⁴.

Ikkinchi beylikka o‘g‘uzlarning yuregir urug‘ining peshvosi Ramazon XIV asrning o‘rtalirida asos soladi. Bu davlatning potaxti Adana shahri bo‘lgan. 1608 yili bu davlat Usmoniylar imperiyasining tarkibiga kiradi.

¹ Orkun H.N. Türk tarihi, C. IV. – S. 121.

² Ибн Баттута. Саёҳатнома. Тухфат ан-нузор фи ғароиб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор / Мапсўл муҳаррири ва муқаддима муаллифи Н.Иброҳимов. – Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 296-297. (Милас султони ҳақида).

³ Ибн Баттута. Саёҳатнома.. – Б. 292 (Эгридир султони ҳақида).

⁴ Anadolu Selçukluları Devleti Tarihi. (Anonim). Farsca’dan Turkce’ye ceviren Prof. Dr. Feridun Nafiz Uzluk. – Ankara, 1952. – S. 7-38 va кейингилари.

Markaziy Anataliyada 1340 yili hudud jihatidan eng katta va qudratli davlat Ertena beyligi tashkil topgan. Bu beylikning asoschisi mo'g'ullarning Anataliyadagi ulug' hukmdori Alouddin Ertena, kelib chiqishi uyg'ur bo'lgan noyon bo'lgan.

Bu beylikning tarkibiga Qaysari, Anqara, Amasiya, Toqat, Sivas, Chorum va Arzinjon kirgan.

Alouddin Ertenaning o'g'li Ali vafotidan keyin (1380 y.) beylikni o'g'uzlarning solur qabilasidan bo'lgan Burhoniddin boshqargan. 17 yildan so'ng Burhoniddin o'limidan keyin beylikni uning o'g'li boshqaradi va uning nomi Burhoniylar beyligi bo'ldi.

Shimolda poytaxti Qastamon bo'lgan Jondor/Jandar beyligi 1309 yili tuziladi. Uni sulola asoschisi Shamsiddin Yamon Jondorning o'g'li, o'g'uzlarning kayi urug'idan bo'lgan Shujoiddin Sulaymon barpo etadi. Uning tarkibiga Qora dengiz sohillaridagi 40 dan ortiq shaharlar Eregli shahridan to Qizil Irmoq bo'ylarigacha uzunligi 350 km bo'lgan yerlar kirgan.

Jondor daryosidan g'arbroqda (Sakariya daryosigacha) Umurxon beyligi bo'lgan.

Sinopda mo'g'ullar ketishlaridan oldin Parvona beyligi tuziladi. Unda Muiniddin Sulaymonning avlodlari hukm surgan. Yuqorida aytilganidek Muiniddin sulton Izzaddin Kaykovus II va Rukniddin Qilich Arslon IV saroylarida parvona hamda G'iyosiddin Kayxusrav IIIga otabek bo'lgan.

Parvona Ulug' devondagi mansablarning biri bo'lib Muiniddin davrida atoqli otga aylanadi. 1266 yili Sinopni olishi munosabati bilan shahar unga iqto sifatida beriladi. O'sha vaqtdan Sinopda uning o'g'illari hukm surganlar. Ularning oxirgisi Chalabiy Parvona bo'ldi. Uning vafotidan keyin beylikni Jondor beyligi bosib oladi.

Kichik Osiyoning shimoliy-g'arbida Syogyut, Bilejik, Karajahisor, Inegyol hududlarida Usmon beyligi shakllanadi. XIII asrning oxirlarida bu kichik beylik o'zining mustaqilligini e'lon qiladi.

Ibn Battuta o'zining "Sayohatnoma" asarida 30 dan ortiq beyliklar haqida ma'lumot beradi. Uning esdaliklariga qaraganda 1333 y. Oqsaroy, Nig'da, Qaysari, Sivas, Amasiya, Kumushxona, Arzinjon, Arzirum elxon itoatida bo'lgan¹.

¹ Ибн Баттута. Саѣхатнома. Тухфат ан-нузор фи ғароиб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор / Мапсѣул мухаррири ва мукаддима муаллифи Н.Иброҳимов. – Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 289.

Larenda (Qaraman), Konya, Alanya, Antaliya, Egridir, Gyolhisar, Qarayog‘och, Denizli (Tung‘uzli)¹, Mug‘la, Milas, Birgi/Berka, Tire (hozirgi Saljuq), Izmir², Manis, Barg‘ama, Balikesir/Bali Kasriy, Bursa, Qastamon mustaqil turk davlatlari, beyliklari tarkibiga kirardi³.

Ibn Battutaning ma‘lumotlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, saljuqiylar davlati barham topganidan keyin va mo‘g‘ullarning uzoq davom etgan zulmlariga qaramasdan Kichik Osiyoda Malazgird jangidan 250 yil o‘tsa ham ijtimoiy muhit degradatsiyaga duch kelmagan.

Yagona saljuqiylarning davlati o‘rnida bir nechta turkiy davlatlarning majmui tashkil topadi va ularning aksariyati tepasida o‘g‘uz qabilalarning peshvolari turardilar.

Bu mayda turk davlat (beylik)lari saljuqiylar davlatida bo‘lgan barcha davlat tashkilotlari, jumladan qo‘shinni ham (kichikroq doirada bo‘lsa ham) qayta tuzdilar, jamiyat esa o‘z madaniyati va ijtimoiy tizimini saqlab, hunarmandchilikdagi malaka va mahoratlarini unutmay, saljuqiylar davridagi rivojlangan turmush tarzlarini ham saqlab qoladilar.

Buni biz Ibn Battutaning esdaliklarida ham ko‘ramiz. U G‘arbiy Osiyo (Bilodi Rum)ni “Turk yurti” deb, 1233 yili yozadi: “Rum diyori” deya ataladigan bu o‘lka dunyoning eng go‘zal diyori. Alloh dunyoning boshqa shaharlariga alohida-alohida bergan go‘zalliklarning barchasi unda jamlangan. Aholisi xushsurat, pokiza libosli kishilar, taomlari juda mazali. Unda yashaydiganlar Allohning juda ko‘p shafqatli bandalari bo‘lib, shu boisdan bo‘lsa kerak: “Baraka Shomda, shafqat esa Rumda”, – degan naql bor. Zero, bu diyorning kishilari mehru shafqatga juda qattiq e‘tibor qaratadilar. Qachon bu yurtdagi biron zoviya yoki hovliga borib tushsak, erkak va ayollardan iborat qo‘shnilarimiz darhol ahvolimizni yo‘qlab keladilar. Ayollari o‘zlarini olib qochmaydi. Ketadigan bo‘lsak, biz bilan go‘yo o‘z qarindoshlari, oila a‘zosidek xayrlashadilar. Ketishimizdan afsus chekib, ayollari ko‘zlariga yosh ham olishadi”⁴.

¹ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Б. 293

² Kurat A.N. Caka Bey. İzmir ve civarındaki adaların ilk Turk Beyi (1081 - 1096). – Ankara, 1996.; Kurat A.N. IV-XVIII yuzyillarda Karadeniz kuzeyindeki Turk kavimleri ve Devletleri. – Ankara, 2002.

³ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Б. 298 ва кейингилари.

⁴ O‘sha asar – B. 288.

Ibn Buttuta Qastamon atrofidagi bir zoviya (axiylar tomonidan tashkil etilgan musofir va darvishlar uchun joy)ni ko‘rib katta ta’ssurat olganini aytgan¹. Bunday zoviyalarni u Kichik Osiyoning ko‘p shaharlarida ko‘rganini yozadi. Uning mushohadasi bo‘yicha ma’lum bo‘ladiki, bu davrda butun Antaliyada arzonchilik va to‘kin sochinlik bo‘lgan ekan. “Qishloqlardan birida, o‘sha yurtda uchratganim eng yaxshi va yirik bir zoviyada to‘xtadik. Uni Allohga tavba qilgan Faxruddin ismli amir bino qildirgan bo‘lib, zoviyaning nazoratini va undagi darveshlar holidan xabar olib turishni o‘g‘liga topshirgan edi. Shuningdek, qishloqda bozor qurdirib, uni jome masjidga vaqf qilib bergan. Ushbu zoviyaning foydasidan ikki muborak Hamar, Shom, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa yurtlardan keladigan har bir darveshga kelgan kuni yuz dirham, safarga chiqadigan kuni uch yuz dirham pul hamda bu yerda turgan vaqti uchun maosh tayinlagan. Ushbu maosh non, go‘sht, yog‘ bilan pishirilgan guruch, shirinlikdan iborat edi. Rum diyorida kelgan darveshlarning har biriga o‘n dirham berilar va uch kun mehmon qilinardi”².

U Kichik Osiyodagi ko‘p shaharlarni ko‘rib ularning ta’rifini keltiradi. Shaharda barcha aholi uchun qulay sharoitlar (hammomlar, bozor va rastalar, bandargohlar va h.o.) borligini ham u ta’kidlab o‘tgan. Ibn Battuta turklarning mehmondo‘stligi, musofirparvarliklarini alohida maqtaydi.

Anataoliyadagi turkiy davlatlarda pul zarb qilingan. Ularda sul-tonning laqablari yoki nomi, otasi nomi zarb qilinib, boshqa tomonida shahodat kalimasi, zarb qilingan joyi, yili yozilardi³.

Sultonlar qasrlarda yashagan. Qasrda sul-tonning saroyi, saroy ahli, amaldorlari va uning harami yashagan.

Ibn Battuta Oydin beyligi poytaxti Berkada hukmdori sulton Muhammad ibn Oydin qasri tavsifini bergan. “Biz qarorgoh yo‘lagiga yetganimizda yigirmaga yaqin ipak kiyimlar kiygan, sochlari yozilgan, opoq yuzlariga qizil yugurgan, bag‘oyat xushsurat xizmatkorlarni ko‘rdik... Sulton bilan ko‘pgina zinalardan ko‘tarilib, har burchagida misdan yasalgan yirtqich hayvonlar haykallari o‘rnatilib, o‘rtasida suv otilib turgan favvorasi bor go‘zal bir xonaga kirdik. Unda aylanasiga

¹ Ибн Баттута. Саѣхатнома. – Б.317.

² O‘sha asar – B. 319.

³ Uzunçarşili I.H Osmanli devleti tarihine medhal ... – S. 135.

bir-biriga tutash, ustiga gilamlar to‘shalgan supalar mavjud bo‘lib, ulardan biri ustida sultonning taxti joylashgan edi... oltin va kumush idishlarda limon suvidan qilingan gulob va kichkina bo‘lakli shirinliklar keltirishdi. Idishlarda oltin va kumush qoshiqlar bor edi. Taqvo qilganlar chinni idishlar va yog‘och qoshiqlarni ishlatdilar...¹”

Sulton o‘z davlatini saljuqiylar davriga o‘xshab devon orqali boshqargan². Sulton nomi juma namozidagi xutbada tilga olinar edi. Har bir beylikning o‘z qo‘shinlari, ba’zilarining harbiy floti ham bo‘lgan. Anatoliyadagi turk davlatlarining asosini harbiy tashkilot tashkil qilgan. Uning asosiy qasmini harbiy otliq sipohiylar tashkil qilardi. Ularni iqto egasi xizmatga jalb qilib, o‘rgatib, yaqrolantirishi lozim edi. Ularning barcha sarf-xarajatlari ham iqto egasi zimmasida bo‘lgan. Saljuqiylarga o‘xshab ularda ham yer davlatniki hisoblanardi. Hukmdorlar yer qit‘alarini (mulklar, qishloq, shahar) xizmatlari evaziga, eng birinchi harbiy xizmatlari uchun o‘z amaldor va mansabdorlariga berilardi. Aniqrog‘i iqto egalari bu aholidan soliqlarni xizmati uchun yig‘ib olishardi. Iqto egasi vafot etganida, ko‘p hollarda iqto o‘g‘liga o‘tardi va o‘g‘il ota vazifasini bajarishi shart bo‘lgan. Hukumat o‘zgarganda iqto egasi yerga egalik (soliq yig‘ish huquqi) uchun hukdordan hujjat olishi kerak edi. Bu hujjatga yangi hukmdorning muhri, tug‘rosi qo‘yilardi³.

Qo‘shinning asosiy qismini muntazam professional harbiylar tashkil qilgan. Ular asosan poytaxtda bo‘lib, doim harbiy yurishga tayyor bo‘lganlar. Qo‘shin qul bozorlaridan sotib olingan qul-g‘ulom, mamluklardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari harbiy sarkardalar va qabila peshvolari Vizantiya hududlariga qilgan yurishlari davomida asir olinganlardan 1/5 ni sultonga berishlari shart edi⁴.

Qo‘shindagi sarboz va sipohiylarning soniga kelsak ba’zi hukmdorlarda u juda ham ko‘p bo‘lgan. Masalan, XIV boshlarida Qaramoniylarning qo‘shinlari soni 25 ming otliq va 25 ming piyoda askarlardan iborat bo‘lgan. Ashrafiylarning armiyasida 70 mingdan ortiq otliq, Monteshe beyligida 100 ming askar, Germiyoniylar qo‘shinida 40 ming kishi xizmat qilgan. Biroq ularga tobe bo‘lgan davlatlar

¹ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Б.305.

² Uzunçarşili I.H Osmanli devleti tarihine medhal ... – S. 138.

³ O‘sha asar – B. 141.

⁴ O‘sha asar – B. 144.

qo‘shini bilan birga unig soni 170 mingga yetgan (Oydiniylar qo‘shini 70 ming, Karasi - 40 ming, Saruxan - 20 mingdan iborat bo‘lgan)¹.

Anatoliyadagi turkiy davlatlarning ba’zilarida yana harbiy-dengiz kuchlari ham bo‘lgan, deb aytilgan edi. G‘arbiy Anatoliyada Menteshe, Oydin, Saruxan, Karasi beyliklarida harbiy flot bo‘lgan. Ular o‘z g‘alabalari bilan Vizantiya va mintaqadagi boshqa davlatlarni bezovta qilib turganlar. 1364 y. Menteshe floti ikki yuz galerkadan iborat bo‘lgan. Oydin beyligida ikkita verf bo‘lib, biri Izmirda, ikkinchisi Ayasluq (Saljuq)da bo‘lgan. Uning floti 400 katta va kichik kemalardan iborat bo‘lgan. Bu flot 30 mingdan ortiq qo‘shinni dengiz orqali olib o‘tishi mumkin edi².

Shimolda Sinopda Chelebiy Parvonaning floti bo‘lgan. Ibn Battuta G‘oziy Chelebiyni jasur va mahoratli dengiz sarkardasi deb maqtaydi. Uning yaxshi harbiy floti nasroniylar bilan muvaffaqiyatli urushlar olib borgan. Artilleriya paydo bo‘lmasdan oldin dengiz muhorabalari taran uslubida, dushman kemasini qisuv (abordaj)ga olib, unga o‘tib qo‘l jangi usulida olib borilgan. Ibn Battuta ma’lumotiga qaraganda Chelebiy kemalari a’zolari orasida maxsus guruh bo‘lib, ular dushman kemasiga yaqinlashganda suvga sho‘ng‘ib maxsus dastparma bilan ularning tubini teshardilar. Shunda dushman kemasi cho‘kib ketardi³.

Chelebiy Parvona beyligi Jondor davlati tarkibiga kirganida Sinopda kemasozlik yanada rivojlanadi. Ismoil Jondor kemasozlikka ko‘p ahamiyat berib yangi turlarini ko‘p qurishga buyruq bergan. 900 tonna yuk ko‘taradigan kema qurish o‘sha davrdagi katta muvaffaqiyat sanalgan⁴.

G‘arbiy Anatoliyadagi beyliklar, ayniqsa Germiyon, Menteshe, Saruxan, Oydin va Karasi, XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Vizantiyaga katta xavf tug‘dirardilar. 1302 y. Karasi va Saruxan beyliklariga qarshi Andronik II o‘g‘li va u bilan hukmronlik qilayotgan Mixail chiqadi. Biroq u tor-mor etilib, qochishga majbur qilinadi. Andronik II Yevropa yollanma qo‘shinlaridan, aniqrog‘i Ispaniyadan madad so‘raydi. Bular kataloniyalik drujinalar bo‘lib, Aragon qiroliga

¹ Uzunçarşılı I.H Osmanlı devleti tarihine medhal. – S. 143.

² O‘sha asar – B. 145-146.

³ Ибн Баттута. Саёҳатнома. – Б.320.

⁴ Uzunçarşılı I.H Osmanlı devleti tarihine medhal ... – S. 146.

xizmat qilardilar. Ularning orasida zodagon dvoryanlar va mayda risarlar bo'lgan. Kataloniyaliklarning asosiy kuchlarini mavrlar, yoki ispan piyodalari tashkil qilgan.

Ular zich saflarda jang qilib o'sha vaqtda Yevropada eng sara qo'shin hisoblangan. Ispan yollanma qo'shinini Rojer de Flor boshqargan¹.

1302 y. Rojer de Flor Filadelfiya (Alashehir)ni qamal qilgan, turklarni mag'lub qilib shaharni ozod qiladi. Kataloniyaliklar bir necha G'arbiy Anatoliyadagi beyliklarning qo'shinlarini mag'lub qilib, dengiz bo'ylaridagi yerlar va Meandr (Menderes) vodiysini turkmanlardan ozod qiladi².

Ispanlarning kichik Osiyoda qolishlari imperator Andronikka yoqmadi va ulardan xavfsirab ispanlarni Frakiyaga bulg'orlar hujumini qaytarish bahonasida yuboradi.

1305 y. Rojer de Flor Adrianopolga yosh imperator Mixail qabuliga borayotganida o'ldirildi. Keyin Mixailning kavaleriyasi to'satdan Rojer drujinasiga tashlanib ularning katta qismini qirib tashlaydi. Kichik Osiyodan kataloniyaliklarning ketishlari bilan G'arbiy Anatoliya beyliklari tezda Egey sohillaridagi yerlarni qayta qo'lga kiritdilar.

Buning ustiga 1305 y. harbiy flotdan foydalanib Karasi va Oydin beyliklari Frakiya va Makedoniyadagi Vizantiya mulklariga hujumlar uyushtirdilar³. Bu bosqinlar bosqinchilik xarakteriga ega bo'lmagan. Turklar boyliklarni qo'lga kiritib Anatoliyaga qaytardilar⁴.

Shunday qilib, G'arbiy Osiyoda turkiy saljuqiylar davlatining barham topishi va alohida beyliklarning tashkil topishi aslida turg'unlik davri bo'lmadi. Yagona bir katta turk davlati o'rniga mayda davlatlarning majmuasi paydo bo'ldiki, ularda saljuqiylarning davlat tizimi, jumladan harbiy qurumi qayta tiklandi.

Bu davrda Kichik Osiyodagi turkiy davlatlar katta muvaffaqiyat bilan harbiy flotda ham yutuqlarga erishdilar. XIV asrning boshlarida Kichik Osiyo yarimoroli (Trapezund greklar davlatining Qora dengiz sohillaridagi va Konstantinopolning Osiyo qismidagi yerlaridan tashqari) Vizantiyadan tortib olindi.

¹ Успенский Ф.И. История Византийской империи. Т. 5 ... – С. 382.

² O'sha asar – B. 383-386.

³ Wittek Paul. Osmanli imparatorluğunun kuruluşu / Çeviren Güzin Yalter. – İstanbul, 1971. – S.35.

⁴ Oikonomidis N. Avrupa' da Türkler (1305-1313) ye Küçük Asya'da Sırlar (1313) // Osmanli beyliği. Editor Elizabeth Zachariadou. 2. baski. – İstanbul, 2000. – S. 173.

Gʻarbiy Anatoliyadagi beyliklar saljuqiylar davlati erishmagan ishni qilib Egey dengizi qirgʻoqlarini bosib oldilar. Buning ustiga XIV asrning birinchi yarmida ular Yevropada joylashgan Vizantiya hududlariga ham bosqinchilik qilardilar. Shu bilan ular Usmon beyligini Kichik Osiyoning shimoliy-gʻarbini bosib olishi va Marmara dengizi sohillariga chiqishi uchun yordam berdilar va Usmoniylarni Rumeliyada muvaffaqiyatli tarzda bosqinchilik yurishlari olib borishlari uchun sharoit yaratib berdilar.

Saljuqiylar davlatining anʼanalari, asosiy tashkilotlari va tuzumining taʼsirini Misr mamluklari davlatida ham koʻrish mumkin. Misrda saljuqiylar davlat boshqaruvi tizimi qolip sifatida shunday toʻgʻridan-toʻgʻri barpo qilingan. Ular saroy boshqaruvi, maʼmuriy boshqaruv, askariya ishi va qoʻshin boshqaruvini, hatto saljuqiylar davlatida joriy boʻlgan unvon va mansablarga oʻzlashtirgan edilar¹.

Usmoniylar imperiyasi

Barbod boʻlgan Saljuqiylar davlati oʻrnida XIV asr boshlarida Anatoliyada va XV asrda Vizantiya imperiyasi hududlarida 1453 yili Konstantinopolning olinishi Usmoniylar imperiyasini Yevropa va Yaqin Sharqdagi eng kuchli davlatlardan biriga aylantirdi. Yaxshi boshqariladigan va kuchli harbiy salohiyatga ega armiyasi bilan XVI va XVII asrlarda Yevropa davlatlariga doimiy va jiddiy tahdid solib turdi. Oʻrta Yer dengizi, Shimoliy Afrika, Bolqon yarimoroli, Yaqin Sharq davlatlari va Qora dengiz atroflariga egalik qilgan Usmoniylar davlati buyuk imperiya sifatida Arab xalifaligi, Vizantiya va Rimning haqli vorisi sanalar edi.

Usmoniylar imperiyasining rivojlanishini, Rim kabi boshqa imperiyalar qatori inson tanasining rivojlanishi bilan solishtirish mumkin. Rivojlanish umumiy sifatleri bilan 3 asosiy bosqichni bosib oʻtgan:

- yoshlik, yuksalish va oʻsish davri;
- yetuklik, rivojlanish va kuchayish davri;
- va nihoyat, zavolni anglatuvchi, qarilik.

Tashkil topish davri XIII asr oxiridan to XV asrgacha; gullab yashnash davri XV asr oxiridan XVI asr oʻrtalarigacha, u davrda

¹ Маний Мухаммад Бадр Мухаммад Бихжат. Асар ал-хизорат ас-салжукийя фи дували шарк ал-олам ал-исломи ала хизоратийн ал-Аййубийа ва-л-мамлукийа би Миср. Жузь ал-аввал. – ал-Қоҳира: Зуҳра аш-Шарк, 2002. – 274.

buyuk sultonlar Mexmed II Fotix, Yovuz Salim va Buyuk Sulaymon boshqarganlar, imperiyaning tanazzuli Buyuk Sulaymon boshqaruvining oxirlariga to‘g‘ri keladi. Yangi davrning yaqinlashishi birinchi jahon urishining oxirlariga, Usmoniylar bilan birga Romanovlar va Gabsburglar sulolalarini ham tanazzuliga to‘g‘ri keldi.

Usmoniylar imperiyasining oxirgi davrlarigacha tarixini yoritishdagi bu chizma qanchalik to‘g‘ri? Haqiqatdan XVII-XVIII asrlarda tanazzul haqida gapirish mumkinmi?

Keyinchalik guvohi bo‘lamizki, bunday baho bugungi kunga kelib shubha uyg‘otmoqda. Imperiya tomonidan qoldirilgan boy arxiv ma‘lumotlari Usmoniylar tarixini qayta o‘rganishga yordam beradi. Bu ma‘lumotlar imperiyaning gullab-yashnagan davrini emas balki, uning tanazzulini anglashga yordam beradi. Haqiqatan esa qulay o‘qish va tushinish uchun biz yuqoridagi uch davrga amal qilamiz.

XIII asr oxiri va XV asrgacha beklik shakllanadi va rivojlanadi. Bu beklik avval Erto‘g‘rul va uning o‘g‘li Usmon tomonidan boshqariladi. Usmoniylar imperiyasi nomi ostida ularning avlodlari taqdiri shakllanadi. Vizantiyani mag‘lub etgan va Saljuqiylar davlatiga vorislik qilgan bu imperiya tez orada Anatolii va Bolqon yarimorolining ma‘lum qismida o‘rnashib oladi. 1453 yil 29 mayda Mexmed II tomonidan Konstantinopolni olinishi Usmoniylarga Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi oxirgi xalqani in‘om qildi. Natijada turklar Vizantiya imperiyasining vorisiga aylandi.

XV asr oxiridan boshlab ayniqsa XVI asrda bu davlat o‘zining oltin davrini yashab o‘tdi. Sulton Salim I va Buyuk Sulaymon sezilarli darajada o‘z hududlarini kengaytirishga erishdilar. Ularning hukmronligi ostiga O‘rta yer dengizining katta qismi kirgan, Osiyodan Afrikagacha bo‘lgan yo‘llarni nazorat qilishgan. Karl V ustidan qozonilgan g‘alaba, viloyatlarning aqlli boshqaruvi davlatning gullab yashanashidan dalolat beradi. San‘atning misli ko‘rilmagan tarzda rivojlanishi Usmoniylar imperiyasiga yorqinlik berib uni qadimgi dunyoning ilk buyuk davlatiga aylantirdi. XVI va XVII asrlardagi sayyohlarning hikoyalarida ko‘proq uning qudrati, muhtasham poytaxt, manarxlarning buyukligi va samarali boshqaruv yoritib berilgan. Agar diniy muammo bo‘lmaganda mukammal davlatga aylangan bo‘lar edi. U shu davrda siyosiy va diniy qarama-qarshiliklardan kuchsizlangan Yevropa uchun tahdid solib turgan.

Shuning bilan birga Usmoniylar imperiyasi o'zining musulmon-sunniylar orasidagi muhim o'rnini ta'kidlaydi. Lekin ularning musulmon davlatlaridagi ustunligi chegaralangan edi. Chunki ba'zi davlatlar, Marokash, Forslar davlati (Safaviylar) keyinchalik Hindistondagi Boburiylar davlati o'z erkinligiga intilishardi. XVI asr oxirgi 10 yilligida imperiyaning tanazzuli boshlandi. Aynan shu yillarda ilk bor devolvatsiya, inflyatsiya va narxlarning o'sishi kuzatiladi. Poraxo'rlik, korrupsiya fuqarolar va harbiylarning barcha qatlamini qamrab oldi. Oldinlari harbiy qo'shinlarda omadga sababchi bo'lgan tartib-intizom, jangovar tayyorgarlik sustlashgan. Harbiy yurishlar ko'p xarajatli va ishonchsiz tus ola boshladi. XVII asr so'ngi va XVIII asr boshi va oxirida harbiy yurishlar mag'lubiyat va foydasiz kelishuvlar, hududlarning yo'qotilishi bilan yakunlanar edi. Imperiyaning ilk asrlarida davlatning boyishiga sababchi bo'lgan urushlar endi uning xonavayron bo'lishiga olib kelayotgan edi. Harbiylar orasidagi qo'zg'alon va to'ntarishlar, fraksiyalarning kurashlari natijasida hukumat viloyatlar nazoratini yo'qotdi. Aslzodalar joylarda hokimiyatni qo'lga olib ancha mustaqillikni qo'lga kiritishdi. Imperiyaning tanazzuliga sababchi bo'lgan bu kabi omillar qatorini ko'plab davom ettirish mumkin.

Usmoniylar davlatining tashkil topishi

Ko'p yillar davomida Usmoniylarning paydo bo'lishi va ularning XIV asr oxirigacha bo'lgan tarixi kam o'rganilgan. Tarix yaqin davrlargacha faqatgina dushmanlik ruhida bo'lgan grek manbalaridan yoki keyinchalik Usmoniy sultonlarni maqtab yozadigan turk tarixchilari asarlaridan o'rganilgan. Usmoniylar va Yevropa arxivlaridan olingan yangi xujjatlar va ularning tanqidiy analizi Usmoniylarning kelib chiqishini tushunishga yordam beradi.

Biz bilamizki, Usmoniylar kelib chiqqan qabila o'g'uzlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar bo'lib, yozda tog'larga ketar edi. Shaharlardan uzoqlarda chodirlarda yashovchi qabilalar O'rta Osiyodan kelgan Saljuqiylardan yoki XIII asr birinchi yarmida mo'g'ullar tomonidan g'arbg'a keltirilgan turkiy qabilalardan kelib chiqqan. Anatolidagi qabilalarning ilk boshliqlari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Ular haqida faqatgina afsona va tarixiy uydurmalar qolgan. Ishonchli dalillar shuni ko'rsatadiki, Usmoniylar sulolasi nomiga Erto'g'ul asos solgan. Bu haqda Erto'g'ulning o'g'li Usmon nomidan zarb etilgan tangalardagi yozuvlar guvohlik beradi. Afsonaga e'tibor beramiz.

Afsona

Usmoniylarning kelib chiqishi haqida turli taxminlar mavjud. Ko'plab yilnomalarda kichik farqlar bilan uchraydi.

Erto'g'ul qachondir otasi Sulaymon shoh va ikki akasi, Sunqur Tegin va Kuntug'dilar bilan Kichik Osiyoga borishadi. Ular u yerda ko'p yillar qolib ketadi va keyin ortga qaytishadi. Erto'g'ulning o'zi Anatolida to'rt yuz shatr bilan qoladi. U o'zining uch o'g'lidan biri Sari Yatini Ko'nyadagi saljuqiylar sultoni Alouddinning oldiga ular uchun yer ajratishini so'rab yuboradi. Taxminan 1260 yilda Alouddin Sakarya daryosi bo'yidagi Soyyutda joy ajratadi va Vizantiyadan himoya qilishni tayinlaydi. 1280 yil Erto'g'ulning o'limidan so'ng uning o'g'li Usmon beklik boshiga keladi va tezda greklarga qarshi boradi.

Haqiqat

Usmoniylar yilnomalarida bu tarix siyosiy maqsadlarda o'ylab topilgani aytiladi. XIV asr boshlaridagi turk va vizantiya manbalarini qiyosiy o'rganish orqali quyidagi dalillarni aniqlash mumkin.

XIII asrda turk qabilalari mo'g'ullar zulmidan qutilish uchun G'arbga qochishadi. Anatoliya yassi tog'liklarining tub aholisi ularni siqib chiqaradi, ular Ko'nyadagi saljuqiylar sultonligi g'arbiy chegarasida to'planishadi.

Yangi yaylovlarni qidirib turk qabilalari chegara hududlarida o'rnatib olishadi. Yaqinda joylashgan Vizantiya markazlari ularga mahsulotlarini sotish va zahiralarni to'ldirishga yordam beradi.

Sangarios (hozirgi Sakarya) daryosi qal'alar bilan mustahkamlangan hudud bo'lib Vizantiya va turk bekligi o'rtasidagi chegara hisoblanardi.

Boshlanishida turklar va Vizantiyaliklar jiddiy to'qnashuvlarsiz yashaganlar. Chegaralar o'tib bo'larli, musulmonlar va xristianlar bozorlarda bir-birlari bilan aloqalarni mustaxkamlab yashar edilar. Aloqalarning rivojlanishiga Vizantiyada yashovchi xristianlikni qabul qilgan turklar o'z hissalarini qo'shdilar.

Lekin o'zaro ishonch rishtalari va tinch hayot bir kun nihoyasiga yetishi kerak edi. To'qnashuvlardan to'qnashuvlarga turklarning o'z kuchiga ishonchi ortib bordi. Usmon boylik orttirishga o'ch bo'lgan, sarguzasht izlovchi va urushlarga tayyor bo'lgan jangchilarni yig'di. Qonunshunoslar va "ziyolilar" Anatoliyani tashlab unga yangi davlat qo'rishda yordam berish uchun kelishardi. Usmon bu insonlar jamoasini kerakli oqim bo'yicha harakatlantira oladi va ularni o'z

bayrogʻi ostida birlashtiradi. 1302 yil 27 iyulda Usmon Nikomediya (Izmit) vizantiyaliklar bilan boʻlgan jangda gʻalaba qozonadi. Shundan soʻng Usmon Anatoliyaning shimoliy-gʻarbida beklilikning boshiga keldi. U vizantiyaliklarga qarshi tura oldi va kuchli boʻlgan Germiyon, Karaman, Jondor, Saruxan, Teke va Mentsha kabi qoʻshni turkman bekliliklari bilan kurash olib bordi.

XIII asr oxirigacha Usmon Vizantiyaning Vifiniya viloyatining sharqiy qismida nazorat oʻrnatdi. 1317 yil Usmon (1326 yil vafot etgan) qoʻshin boshqaruvni oʻz oʻgʻli Oʻrxonga qoldiradi va Sakarya daryosi vodiysini kechib oʻtib Brusa (Bursa) ostonalarini himoya qiladigan mudofaa inshootlarini egallaydi. Oqibatda 1326 yilda Bursa shahri taslim boʻladi va shu paytda sharqdagi Bolu shahri ham taslim boʻladi.

1326 yildan 1365 yilgacha Brusa (Bursa) Usmoniylar davlatining poytaxti boʻladi.

Oʻrxonning xizmatlari shundan iboratki u haqiqatdan Usmoniylar davlatiga asos soldi. U ichki boshqaruv oʻrnatdi: 1327 yildan Usmoniylar tangasi bosila boshlandi, tanganing bosilishi mustaqillikni anglatar edi, haqiqiy armiyaga asos solinishi va uning asosiy qismini yanicharlar-professional askarlardan tashkil topgan sara qism tashkil qilar edi, undan tashqari kavaleriya qayta tashkil etildi. Bunday Usmon armiyasida “kofirlar dunyosini” egallash kabi diniy mafkuraviy gʻoyalarni koʻrmaslik mumkin emas edi. Bursadagi Shahodat masjididagi yozuvga asosan Oʻrxon “Sulton-gʻolib, iymon uchun kurashchi” unvonini olgan. Lekin u ortodoksal islomni emas balki koʻplab turkiy qabilaviy urf-odatlarini oʻzida ifoda etuvchi Alaviylik va oʻn ikki imomni eʼzozlovchi oqimga xayrihoh edi.

Oʻrxon va uning valiaxdi Murod I (1362-1389) Vizantiyaga qarshi doimiy va yengilmas urushlar olib bordi: Bursadan soʻng ular Nikeyani/Izmit (1331) va Nikomediyaning/Izmit (1337) egallab olishdi. 1354 yil Usmoniylar Dardanelni kechib oʻtib, bir necha yil davomida Gallipolini (1354), Adrianopol/Edernani (1362-1371) egallashdi va bu yerlar asrlar davomida ularning Yevropadagi tayanchi boʻldi. Serblar va bolgarlar ustidan qozonilgan koʻplab gʻalabalar, jumladan, Marisa (1371) yaqinidagi va Kosovo maydonidagi (1389) gʻalabalar natijasida Bolqonning katta qismini egallashdi. Keyingi muvaffaqiyatli yurishlardan soʻng Makedoniya, Bolgariya va Serbiya ham qoʻlga kiritildi. Yevropadagi har bir urushda bosqinchilik birinchi oʻrinda

turar edi. Ko‘p xolatlarda bu tinchlik bilan amalga oshirilar va ularning davlati asosini mustahkamlar edi.

1389 yil to‘rtinchi usmoniy hukmdor, Yildirim (“Yashin”, “Chaqmoq”) nomini olgan Bayazid I Yevropa va Osiyodagi juda katta hududni meros qilib oldi. Juda katta maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan sulton o‘z davlati hududlarini kengaytirishni xohlar edi. Boshlanishiga u o‘z e‘tiborini sharqqa qaratdi va birin ketin barcha turk yerlarini (Saruxan, Oydin, Mentеше, Hamid, Karaman, Germiyon va Sivas) egallab, butun Anatoliyani o‘ziga bo‘ysundirdi. Nikopolisda (1369 yil 25 sentabrda)gi Balqonni ozod qilishga kelgan salbchilar ustidan qozonilgan g‘alaba uning o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirdi. Lekin u Temur bilan bo‘lgan Anqara jangida (1402 yil 20 iyul) yengiladi va asrga tushadi. Hududlari bo‘linib ketgan Usmoniylar davlati Bayazidning to‘rt o‘g‘li o‘rtasida taxt uchun kurash maydoniga aylanadi. Faqatgina 1413 yil Mexmed I o‘z aka-ukalari ustidan g‘alaba qozonishga muvaffaq bo‘lgach, u va uning avlodlari ko‘plab qo‘zg‘alon va isyonlarni bostirishga to‘g‘ri keladi.

Mexmed I ning yeng muhim maqsadi davlatni tiklash va birlashtirish edi. Uning o‘g‘li Murod II hududiy bosqinchilik yo‘lidan borib Venesiya, Vengriya kabi Bolqondagi Usmoniylarning dushmanlari ustidan muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritdi. Yevropada Usmoniylar Frakiya, Makedoniya, Fessaliya, Dobruja, Bolgariya va Serbiyaning bir qismini nazorat qilar edi. Vizantiya Konstantinopolning chegaralari va uning atrofigacha, shuningdek Moriyagacha qisib qo‘yilgan edi. Anatoliyada Smirna (Izmir), Sinop va Trapezundgina (Trabzon) Usmoniylarga bo‘ysunmas edi.

1451 yil Mexmed II o‘z otasi Murod II dan taxtni qabul qilib olganda imperiya oldingiday ikkiga bo‘lingan edi. Qadimiy musulmonlar yerlari – Anatoliya Yaqin Sharq Islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylangan edi. Yaqindagina qo‘lga kiritilgan Rumeliya avvalgi taassurotlari va chegara hududi aholisi urf-odatlarini, shuningdek eklektik din va qalandarlik afsonalari bilan yashar edi. Ularning orasida Bursadagi eski poytaxt va Edernadagi yangi poytaxt ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak edi. 1453 yil 29 mayda sultonning taxtga kelishidan ikki yil o‘tib, qamalning boshlanganiga 7 hafta bo‘lganida, yanicharlar Konstantinopolning qal’a devorlarini shturm qilishga kirishdi. Ko‘plab shaharliklar jang maydonida xalok bo‘lishdi. Muqaddas Sofiya

ibodatxonasi gumbaziga Usmoniylar bayrog‘i o‘rnatildi. Xristian Yevropasida bu voqea katta shov-shuvga sabab bo‘ldi.

Usmoniylar imperiyasining gullab-yashnashi Mexmed II ning hukmronligidan (1451) Sulaymon Qonuniy (1566) hukmronligining oxirgi yillariga to‘g‘ri keladi. 100 yil davomida Usmoniylar imperiyasi butun Bolqon Yevropasi, Markaziy Yevropaning bir qismi, Arab Yaqin Sharqi va Shimoliy Afrika (Marokashdan tashqari) hududlariga tarqaldi. Bu davr intellektual fikrlarning o‘sishi, san‘at va badiiy ijodning rivojlanishi, shuningdek ko‘plab sulton masjidlarining barpo etilishi bilan ajralib turadi. Asosiysi shundaki, Sulton barcha savdo yo‘llarini nazorat qilar edi: Hind dengizidan Kaspiy dengizi yoki Fors ko‘rfazi orqali o‘tib, savdo yo‘llari Arab dunyosidan O‘rta Yer dengiziga chiqar edi. Keyin Davlat poytaxti va G‘arbiy Yevropaga yo‘l olar edi. Yevropa shu davrga kelib Keyptaun orqali raqobatchi bo‘lgan savdo yo‘lini ochishga ulgurmagan edi. Savdo imperiyani juda katta resurlar bilan ta‘minlar va bu daromad hududiy bosqinchiliklardan keladigan boyliklarga qo‘shilar edi.

Bu davrning buyuk muvafaqqiyati 1453 yil 29 mayda Mexmed II (Fotix) tomonidan Konstantinopolni olinishidir. Bu shaharga egalik qilish sultonga Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi yetishib bo‘lmas bog‘ichni va Vizantiya imperiyasining vorisi maqomini berdi. Shuningdek, diniy jihatdan islomning xristianlar ustidan g‘alabasini anglatar edi. Sulton musulmon dunyosida katta mavqega ega bo‘ldi.

XVI asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi hududlari uch yo‘nalish bo‘yicha kengayib bordi:

- sharqda, Usmoniylar armiyasi Salim I Yovuz (1512-1520) fors Safaviylarini Chaldiron kengliklarida (1514 yil 23 avgustda) yengadi: sharqiy Anatoliya va Ozarbayjon Usmoniylar hukmronligi ostiga o‘tadi.

- janubda, Usmoniylar imperiyasining shiddatli janglari oqibatida Misr, Suriya va Arabiston g‘arbida ikki asr hukmronlik qilgan Mamluklar saltanati egallanadi. Keyin o‘zining yangi yerlaridan foydalanib o‘z hukmronligini yoki turli yo‘nalishlar bo‘yicha nazoratini kengaytiradi: g‘arbda Shimoliy Afrikada Morokash chegaralarigacha, janubda Arabiston va Afrikadagi Qizil dengizning ikki qirg‘og‘i bo‘ylab, sharqda Hind dengizi, keyinroq Iroqda va u Fors ko‘rfazida platsdarm vazifasini o‘taydi. Bundan keyin Usmoniylar imperiyasi islomning ikki muqaddas shahri Makka va Madina, islomning yuragi hisob-

langan arab davlatlari ustidan ham hukmronlik o‘rnatadi. Bu ularning mavqeini ko‘tarish bilan birga ularga mas’uliyat ham yuklaydi.

- g‘arbda, Sulaymon I Yevropada yangi urush boshlaydi. Uning armiyasi Belgradni (1521 y), Rodosni (1522) keyin Vengriyaning Budosini (1526) yegallaydi, lekin Venada (1529 yil sentabr-oktabr) mag‘lubiyatga uchraydi.

Sulaymon I Qonuniy davrida 1520 yildan 1566 yilgacha Usmoniylar imperiyasi o‘z kuch-qudratining yuqori cho‘qqisiga erishadi. Bir vaqtda san’at, fan va adabiyotning rivojlanishi bo‘yicha Usmoniylar sivilizatsiyasining ham gullagan davri edi. Bu madaniyatda eng oliy darajada hukmdorni ilm-fan homiysi, himoyachisi va ilhomlantiruvchisi sifatida ko‘rish mumkin.

Usmoniylar davlatida feodal munosabatlarning rivojlanishi

Usmoniylar davlatining hududlari kengayishi bilan bir vaqtda feodal munosabatlarning rivojlanishi ham davom etdi. Bu jarayon XIV asrning oxiriga kelib, Usmoniylar o‘troq hayot tarziga o‘ta boshladilar va ularning turmush tarzi dehqon yer egalarini ekspluatatsiya qilishdan iborat bo‘lib qolgan edi. Ekspluatatsiya qilish shakli saljuqiylar davridagidek – chorakorlikdan iborat bo‘lib qolgan edi.

Davlat tuzumi ham rivojlana boshladi. Sulton O‘rxon davrida davlat idoralari tuzila boshlandi, vazirliklar paydo bo‘ldi, ularning boshida bosh vazir turardi, bu davrda vazir va amaldorlardan iborat majlis organi – devon tashkil topdi.

Mamlakat viloyat va tumanlarga bo‘lingan edi, ularni yirik feodallar boshqarar edilar. Sudlar maxsus ruxoniy sudyalar – qozilar qo‘lida bo‘lib, huquqiy kodeks – shariat hisoblanardi.

Qabila sudlarida to‘ralar ham mavjud edi.

Sulton O‘rxon davrida ilk usmoniy tangalari zarb qilindi. Bunga juda katta ahamiyat berilar edi. Chunki tangani mustaqil zarb etish, hukmdorning nomini juma namozida va bayram kunlarida (xutbada) tilga olinishi musulmon davlatlarida davlat hukmdorlarining mustaqil ekanligiga ishora edi. Usmoniylar davlatida qonun chiqargan birinchi sulton Maxmud I (1359-1389) hisoblanadi. Uning davrida birinchi qonunlar chiqa boshlaydi. 1368 yildagi qonun rasmiylashtirildi, ya’ni bu qonun bo‘yicha bosib olingan yerlar davlat mulki hisoblanadigan bo‘ldi. 1375 yildagi qonunga ko‘ra yerlar mayda harbiy lenlarga –

tumanlarga, yiriklari – zeametlarga bo‘linadigan bo‘ldi. Harbiy feodallar – lenlar olar edilar, ular silohiyalar deb atalardi.

Armiya tuzilishida ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Usmon I va O‘rxon davrida istilolar otliqlar yordamida amalga oshirilgan edi, biroq ular qo‘rg‘onni ishg‘ol qilishda yaroqsiz bo‘lib qoldi. Bundan tashqari sulton ixtiyorida bo‘ladigan doimiy qo‘shin (armiya) zarur bo‘lib qolgan edi. Shu maqsad bilan maoshga xizmat qiluvchi piyoda va otliq askarlar qo‘shini tuzildi. Birinchi shunday piyoda askarlar 1361 yoki 1363 yilda xristian asirlaridan tuzilgan edi. Askarlarga yanicharlar (turkchada “yeni cheri” – yangi qo‘shin) deb nom qo‘yildi. Yurishlarda qo‘lga olingan asirlarning $\frac{1}{5}$ qismini sultonga olib kelinar edi. Ilk davrda askar jangchilarning soni 1 mingdan 3 minggacha edi va ular “ajem ochagi – yangi olingan askarlar” deb ataldi. Mashhur turklarning yanichar qo‘shini shu tariqa vujudga keladi. XV asrning 20-yillarida dev tizimi qo‘llanila boshlandi. Tizimga asosan aniq vaqt oralig‘ida (3,5,7 yillar orasida xristian o‘g‘il bolalari va yigitlarini 8 yoshdan 20 yoshgacha) yanichar qo‘shini komandirlarining maxsus vakillari yigitlar orasidan sog‘lom va baquvvat bolalarni tanlab turk oilalariga yuborardilar. Tanlovdan o‘ta olmaganlar esa qullikka berib yuborilardi. Turk oilalariga kelgan bolalar ularning uyida bir necha yil yashar, ishlar edilar, islom dinini qabul qilardilar. Shundan so‘ng ular maxsus maktablarga yuborilar edi. U yerda ularga harbiy san‘at sirlari o‘rgatilar edi va ular musulmon fanatizimi ruxida sultonga o‘ta sodiq qilib tarbiyalanardilar. Mafkuraviy tarbiya bekto-shi ordeni bilan birgalikda olib borilar edi. Tarbiyalangan, har taraflama to‘g‘ri keladigan yigitlar yanichar qo‘shiniga qabul qilinar edilar. Yillar davomida qo‘shinning soni ko‘paya bordi hamda siyosiy roli oshib bordi. Doimiy otliq qo‘shini (sipohiyalar - otliq askarlar) tuzildi.

XVI–XVII asrlarda Usmoniylik imperiyasi

Imperiyaning bosqinchilik siyosati. XVI asr birinchi yarmida usmoniy hukmdorlar Yevropa, Osiyo va Afrikada yangi hududlarni bosib olib, o‘z yerlarini ancha kengaytirdilar.

XVI asr boshida Turkiyaning¹ Sharqiy chegarasida Safaviylar hokimiyati (1502–1736 yillarda Eronda turkiy qavmdan bo‘lgan

¹ Дастлаб «Туркия» атамаси 1190 йили салибчилар хроникасининг муаллифи томонидан турк қабилалари Кичик Осиёда забт этган ерларга нисбатан қўлланилган. Кейинчалик Ғарбда Усмонийлар империясини Туркия, ҳукмрон халқни эса турклар деб аташган.

Safaviylar sulolasi boshqargan davlat. Ular shialarning 12 o‘ram sallasini o‘rab yurganligi uchun qizilboshlar deb ham atashgan) kuchaydi. 1510 yilga kelib Ismoilshoh I (1502–1524) ilgari Oqquyunli davlati tarkibiga kirgan deyarli barcha yerlarni qo‘lga kiritdi. Islom dinining shialik oqimini davlat diniga aylantirgan Safaviylar davlatining kuchayishi, nafaqat Usmoniylarning Sharqdagi ekspansiyasini cheklab qo‘ydi, balki uning ichki xotirjamligiga ham putur yetkazdi.

1514 yili Manu shahri yaqinidagi Chaldiron tekisligida bo‘lib o‘tgan jangda Usmoniylar qo‘shini qizilboshlilarga qattiq zarba berdi. Usmoniylar Safaviylarning poytaxti Tabrizni egalladi, lekin Eronda mustahkamlanib ololmasdan Onado‘liga chekinishdi. Tabrizni tashlab chiqayotib usmoniylar 700 dan ziyod hunarmandlar oilasini o‘zlari bilan olib ketishdi va Istambulga joylashtirishdi. 1515 yili imzolangan sulhga ko‘ra Armanistonning bir qancha tumanlari Erzurum shahri va Iroqning shimoliy qismi Mosul shahri bilan birga Turkiya tasarrufiga o‘tdi.

Eron urushi tugagandan so‘ng usmoniylar arab yerlariga yurish boshladi. Bu paytda Suriya va Misr mamluklar qo‘l ostida birlashtirilgan bo‘lib, bu davlatga Ismoilshohning ittifoqchisi Sulton Kansux al-Guri boshchilik qilardi. 1516 yil yozida Usmoniylar armiyasi Sulton Salim I (1512–1520) qo‘mondonligida Shimoliy Suriyaga bostirib kirdi. Xalab yaqinidagi birinchi jangdayoq (1516 yil 24 avgust) turklar to‘liq g‘alabani qo‘lga kiritdilar. Jangda turk artilleriyasi qo‘shinning ustunligini ta‘minladi. Mamluklar sultoni Kansux al-Guri halok bo‘ldi.

Misrda esa mamluklar ancha qattiq, ammo muvaffaqiyatsiz qarshilik ko‘rsatdilar. 1517 yil boshlarida Salim I armiyasi Qohiraga kirdi. Mamluklar qo‘shinlari Yuqori Misrga chekinishdi. Lekin tez orada ular ham tor-mor qilindi. Ularning yo‘lboshchisi Tumanbey Qohirada osib o‘ldirildi. Shundan so‘ng musulmonlarning muqaddas yurti hisoblangan Xijoz (G‘arbiy Arabiston) bosib olindi. Tez orada Salim I Ka‘baning kalitini ham qo‘lga kiritdi.

Suriya va Misr ustidan Turkiya hukmronligi o‘rnatilganidan keyin ham bu mamlakatlardagi feodal tartib va feodal munosabatlarda hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmadi. Urush paytida mamluklarni quvvatlagan Suriya va Livan feodallari yer-mulklarining bir qismidan ajraldilar, ammo Salim I tomoniga o‘tgan feodallar esa aksincha, mamluklardan tortib olingan yerlar hisobiga yer-mulklarini kengaytirib oldilar. Faqat Xalab okrugidagina turklar harbiy tizim joriy qilib, yerlarni turk

sipohlariga taqsimlab berdilar. Xalab viloyati Suriya xalqining qoʻzgʻolonlarini bostirish uchun harbiy istehkomga aylantirildi.

Sulaymon I (1520–1566) davrida Usmoniylar imperiyasi oʻz harbiy yutuqlarining eng choʻqqisiga koʻtarildi. Misr egallab olinganidan soʻng Usmoniy sultonlarning hokimiyati butun Shimoliy Afrika qirgʻoqlaridan to Marokkogacha boʻlgan hududlarda oʻrnatildi.

1522 yili turk floti Rodosni egalladi, bu esa usmoniylarga Sharqiy Oʻrta Yer dengizida ustunlikka erishish imkonini berdi. Oradan 30 yil oʻtgach turklar, hatto, Maltani egallashga harakat qilib koʻrishdi, biroq bu ekspedisiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Yevropada esa Sulaymon I Gabsburglar imperiyasi bilan qattiq kurash olib bordi. Belgradning bosib olinishi va Moxach yaqinida venger-chex qoʻshinining tor-mor keltirilishi (1526) turklarga Venesiyani bosib olish uchun yoʻl ochib berdi. 1520 yili usmoniylar Venani egallashga harakat qilib koʻrdi. Biroq harakat muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 1547 yilgi shartnomaga koʻra, Veng-riya hududlari Turkiya va Avstriya oʻrtasida boʻlib olindi. Transilvaniya Turkiyaning vassaliga aylandi, oldinroq bosib olingan Moldaviya va Valaxiyaning ichki avtonomiyasi sezilarli darajada qisqartirildi.

Janubda esa usmoniylarning qoʻshinlari Qizil dengizning butun qirgʻoqboʻyi yerlarini va Janubiy Arabistonni bosib oldi. 1537 yil turklar yirik flot tuzib, Qizil dengiz orqali savdoga katta ziyon yetkazayotgan portugallarni Hind okeanidan quvishga harakat qilishdi, biroq bu ekspedisiya muvaffaqiyat keltirmadi.

Sharqda esa, turklar qator janglardan soʻng, 1555 yili Eron shohi Tahmaspni tinchlik shartnomasini imzolashga majbur qildi. Unga koʻra, butun Gʻarbiy Armaniston (Van koʻli havzasi), Gʻarbiy Gruziya va Iroq (Bagʻdod bilan birga) Turkiyaga oʻtdi.

Sulaymon Qonuniy (yevropaliklar uni Sulaymon Ajoyib deb atashadi) oʻzining 46 yillik hukmronligi davrida 13 marotaba harbiy yurishlarda ishtirok etdi, shulardan 10 tasi Yevropada olib borildi. Venaning qamal qilinishi, Hindiston qirgʻoqlariga ekspedisiya, Maltani bosib olishga urinish – bular hammasi usmoniylarning bosqinchilik rejalari katta boʻlganligidan dalolat beradi. XVI asr birinchi yarmida turk armiyasi uyushtirgan yirik bosqinchilik yurishlari, uning katta harbiy kuchga ega boʻlganligini tasdiqlaydi. Maʼlumotlarga koʻra, Usmoniylar imperiyasining aholisi 25–30 mln kishini tashkil etgan. Bu paytga kelib turk sultonlari sharqdan gʻarbgacha 7 ming km,

shimoldan janubgacha 5 ming km va hammasi bo‘lib, taxminan 8 mln km² yerni egallab turishar edi (Turk manbalarida Qonunchi Sulton Sulaymon I vafot etgan 1566 yili Usmoniylar imperiyasining hududi 14 mln 893 ming km² ni tashkil etardi. Shundan 2 mln km² ga yaqini Yevropada, 4,5 mln km² ga yaqini Osiyoda va qolgan qismi Afrikada joylashgan).

Imperiyaning iqtisodiy ahvoli. Usmoniylar imperiyasidagi aholining ko‘pchiligi qishloqlarda yashar, qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lib, dehqonlarning ko‘pchiligi davlatga yoki katta yer egalari qaram edi. Dastlab aholining tarkibi har xil bo‘lib, XVI asr davomida ular bir xil, huquqsiz, shafqatsiz ekspluatatsiya qilinadigan olomonga aylandi.

XVI asrga tegishli soliq ro‘yxatlari va qonunchilik dalolatnomalari aholining asosiy qismi band bo‘lgan qishloq xo‘jaligi qanday ahvolda bo‘lganligini tasavvur qilishga yordam beradi. Dehqon xo‘jaliklari, asosan, don ekinlari – bug‘doy, arpa, tariq yetishtirishardi, ko‘pchiligi esa sabzavotchilik bilan band edi. Kamroq miqdorda paxta yetishtirilardi. Juda ko‘plab tumanlarda uzumchilik, bog‘dorchilik va asalarichilik yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, biroq umumiy olganda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi juda qo‘lqo‘l edi.

Xo‘jalik taraqqiyotidagi jonlanish asosan shaharlarda sezilarli edi. Masalan, shu davrda Usmoniylar imperiyasidagi 14 ta yirik shaharning aholisi (Istambuldan tashqari) o‘rtacha 41% ga o‘tdi. Shaharlar aholisi tez ko‘payib borishining asosiy sabablaridan biri, hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshib borishi edi. Yirik yer-mulk va boyliklarni qo‘llarida to‘plab olgan turk feodallari keng qurilishlar olib borishi, qimmatbaho buyumlar sotib olish, ko‘plab hunarmandlar va rassomlar mehnatiga haq to‘lay olish kabi katta imkoniyatlarga ega edi. Shuning uchun ham shaharlarda zodagonlar va yirik feodallarning ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hunarmandlarning soni tez o‘tib bordi.

Ishlab chiqarishda, asosan to‘qimachilik – jun va ipak matolar to‘qish, teriga, metallga ishlov berish, har xil turdagi qurol-yarog‘lar ishlab chiqarish ayniqsa o‘tdi.

Bu paytda hunarmandchilikda mayda ishlab chiqarish hukmron bo‘lib, yollanma ishchi kuchidan foydalanilmas edi. Hunarmandchilik butunlay qo‘l mehnatiga asoslangan edi. Tor doirada ishlab chiqarish hunarmandlarni o‘z ishining usta mutaxassisi bo‘lib yetishuviga imkon yaratdi. Imperiyaning o‘zida va Yevropada Bursada ishlab

chiqarilgan barqut, Ushak va Koneda to‘qilgan gilamlar, Anqaradan keltiriladigan, echki junidan to‘qilgan matolar, ayniqsa mashhur edi. Bolgariyaning Somonovo shahrida ko‘plab temir buyumlar, Diyorbakir, Erzurum, Kastomon shaharlarida misdan buyumlar yasash, Iznik shahrida esa ko‘proq kulolchilik yaxshi rivojlangan edi.

Shaharlarning o‘sib borishi va hunarmandchilikning kengayishi bilan savdo-sotiq ham rivojlanib bordi. Dehqonlarning xarid quvvati cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, ular shahardan ayrim hunarmandchilik mahsulotlarini, jumladan, tuz, matolar, ayrim mehnat qurollari va kundalik xo‘jalik mollari sotib olishga majbur edilar. Albatta qishloqdan shaharga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ham keltirilardi. Savdo operatsiyalarining asosiy qismi bozorlarda ma’lum belgilangan kunlarda, ko‘proq juma kunlari bo‘lib o‘tar edi. Usmoniylar imperiyasining ayrim hududlarida, xususan, Bolqonda yarmarka savdosi ham kengayib bordi. Biroq yarmarkalardagi savdoning umumiy hajmi unchalik katta emasdi. Ko‘plab savdogarlar tashqi savdo bilan ham shug‘ullanishardi. Yevropa mamlakatlaridan, Eron va Hindistondan matolar, metall, bezak buyumlari va turli taqinchoqlar keltirilardi.

Hukumat esa xazinaga yaxshigina daromad keltiradigan ichki rivojlanishdan ko‘proq manfaatdor edi. Sulton hukumati yo‘llar va ko‘priklarni tiklash va qo‘riqlash bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar ko‘rdi. Asosiy karvon yo‘llarida ko‘plab karvonsaroylar qurildi. Biroq og‘ir feodal munosabatlar sharoitida savdo-sotiq erkin rivojlana olmasdi. Ko‘p sonli ichki bojlar, transport vositalarining rivojlanmaganligi, dengiz aloqalarining og‘irligi – bularning hammasi savdoning rivojlanishiga to‘sqinlik qilar edi.

Davlat tuzumi. Armiya. XV asr ikkinchi yarmida Usmoniylar davlati imperiyaga aylandi (shungacha Usmoniylar sultonligi deb atalgan bo‘lsa, endi Usmoniylar imperatorligi deb yuritila boshlandi), uning hukmdorlari esa harbiy kuchga tayangan holda cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ldilar.

Markaziy hokimiyatning va sultonning ta’siri sezilarli darajada o‘sdidi. Islom qonunshunoslari tomonidan «Xudoning yerdagi soyasi» deb e’lon qilingan sulton cheklanmagan huquqlarga ega bo‘ldi. Uning shaxsi muqaddas va daxlsiz hisoblanardi.

Imperiyada sultondan keyingi asosiy shaxs buyuk vazir bo‘lib, u siyosiy-ma’muriy va harbiy masalalar bilan shug‘ullanardi, boshqa

hamma vazirlar, davlat arboblari, viloyat hokimlari esa unga bo'y-sunardi. Asosiy masalalar davlat kengashi – devonda muhokama qilinardi. Dastlabki sultonlar devonning hamma yig'ilishlarida ishtirok etishar, lekin XV asr oxirlaridan boshlab kamroq qatnashadigan, keyinroq esa umuman qatnashmaydigan bo'lishdi. Devonning asosiy tarkibi buyuk vazir, asosiy davlat arboblari, moliya boshqarmasi boshlig'i, vazirlar, qonun ishlab chiqaruvchilar va tashqi aloqalar bo'yicha mas'ul kishilar, shuningdek, davlatning oliy ruhoniysi – poytaxt muftiysi yoki Shayxulislomdan iborat bo'lgan.

XVI asr o'rtalarida Usmoniylar imperiyasi 21 ta viloyatga bo'lingan edi. Ularning har biriga viloyatdagi harbiy va ma'muriy hokimiyatni to'liq qo'lida tutib turuvchi beklarbegi boshchilik qilardi. Har bir beklarbegi o'z saroyi, devonxona va devoniga ega edi. Viloyatlar sanjaklarga bo'lingan bo'lib, ularga sanjakeylar boshchilik qilardi. Sulaymon I hukmronligi davrida 250 ta sanjak bor edi.

Usmoniy hukmdorlar butun diqqat-e'tiborlarini jangovar armiya tuzishga va bosib olingan hududlarda harbiy tartib-qoidani joriy qilishga qaratdilar. Usmoniylarning harbiy kuchlari quruqlikdagi qo'shinlar va flotdan iborat edi. Turk floti XV asr oxiridan boshlab, ya'ni sulton hukumati imperiyaning port shaharlarida dengiz va daryo kemalarini doimiy qura boshlagandan keyingina juda tez o'sa boshladi. XVI asrning birinchi yarmida turk floti ispan, portugal va Venesiya eskadralari ustidan g'alaba qozonib, O'rta Yer dengizida hukmronga aylandi. Bir qator hollarda, masalan, Maltani qamal qilishda 300 tagacha harbiy kemalar ishtirok etgan.

Usmoniylar imperiyasining quruqlikdagi armiyasi ham juda kuchli edi. Bu armiya «Saroy qullari» deb ataluvchi markaziy qo'shin va viloyatlardagi ko'ngillilar qismlaridan iborat edi. Markaziy qo'shinda butunlay davlat tomonidan ta'minlanadigan yanicharlar korpusiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, qo'shinda artilleriya qismlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, turk sultonlari uning holati yaxshi bo'lishi uchun ko'proq qayg'urar edilar. Sulaymon armiyasida 300 dan ortiq turli hajmdagi to'plar bor edi. Yanicharlarning piyodalar korpusidan tashqari sultonning otliq gvardiyasi ham mavjud bo'lib, u yurishlar paytida sulton va buyuk vazirni qo'riqlar, janglarda yanicharlarga yordam berar edi.

Turk sultonlarining markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun qilgan harakati qo'shin sonining oshib borishida ham o'z aksini topdi.

XV asr o'rtalarida yanicharlar korpusi hammasi bo'lib 3–5 ming kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, Sulaymon davriga kelib 12 ming kishini tashkil etdi. Umuman muntazam armiyada shu davrda 50 ming kishi xizmat qilardi.

Usmoniylar armiyasining asosiy qismini viloyatlardagi ko'n-gillilar tashkil qilardi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, sipohiylar armiyasi XVI asr o'rtalarida 130 mingdan 200 ming kishigacha bo'l-gan.

XVII asr birinchi yarmida Usmoniylar davlatining ichki va tashqi ahvoli. Bu davrga kelib imperiyaning ichki ahvoli ancha yomonlashdi. Hatto XVII asr 40-yillarida ham xazinaga kelib tushayotgan soliq yig'imlarining miqdori XVI asr 90-yillaridagi miqdorni, ya'ni 360 mln aqchani tashkil etardi.

Shaharlar va shahar hunarmandchiligi taraqqiyoti ham sekinlashdi. Harbiy mulk tizimining buzilishi va yerga xususiy mulkchilikning shakllanishi ma'lum darajada qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'payishiga olib kelgan, biroq bu jarayon boshqa oqibatlarga – dehqonlarning xonavayron bo'lishi va ular xarid quvvatining pasayishiga ham olib keldi.

Usmoniylar imperiyasi iqtisodiyotidagi o'zgarishlar uning butun ijtimoiy-siyosiy hayotida siljishlarni keltirib chiqardi. Uning ta'siri asosan armiyada kuchli bo'ldi. Muntazam qo'shinlar sonining oshishi davlat byudjetiga og'ir ta'sir qildi. Armiya xarajatlarining oshib ketishi byudjet tanqisligiga va xazinaning bo'shab qolishiga olib keldi. Natijada, juda ko'p marotaba yanicharlarning qurolli qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Bu holatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan feodal guruhlar ustalik bilan foydalandi. Faqat 1617–1623 yillarning o'zida yanicharlarning isyonlari natijasida to'rt marotaba sultonlar almasldi.

XVI asr oxirlarida imperiyaning turli viloyatlarida ayirmachilarning chiqishlari kuchaydi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalanib yirik feodallar mustaqil hukmdorlarga aylanib ola boshladilar. Odatda, sulton hokimiyati faqat viloyatlardan keladigan soliq tushumlaridagina manfaatdor bo'lganligi uchun, ularning ichki boshqaruviga aralashmas edi.

XVII asr birinchi yarmida Usmoniylar olib borgan urushlar natijasi uning harbiy quvvati zaiflashganligini ko'rsatdi. Armiyaga yirik mablag'lar ajratilayotgan bo'lishiga qaramasdan, u iqtisodiy jihatdan Usmoniylardan ko'ra tezroq rivojlanayotgan davlatlardan harbiy-texnik jihatdan tobora ortda qolmoqda edi.

1606 yili Sitvatorokeda uzoq davom etgan avstro-turkiya urushiga yakun yasagan tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra, Turkiya Avstriyani nafaqat 1547 yildan beri davom etib kelayotgan 30 ming dukatlik yillik xirojdan ozod qildi, balki birinchi marotaba uni teng huquqli xristian davlati sifatida tan oldi. Oradan bir necha yil o'tgach, Avstriya jahon savdosida ham bir qancha yengilliklarga ega bo'ldi.

Turk feodallari Eron bilan uzoq urush olib borishdi. XVII asr boshlarida Eron shohi Abbos turklardan Kavkaz ortidagi ko'pgina hududlarni va Iroqni tortib oldi. Lekin tez orada turk sultoni Murod IV harbiy harakatlarni boshlab yubordi. To'rt yil davom etgan urushdan so'ng 1639 yili Qasri Shirinda ular o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Iroq, Bag'dod bilan birga, yana Turkiyaga o'tdi, bundan tashqari, G'arbiy Gruziya, G'arbiy Armaniston va Kurdistonning bir qismi ham Turkiyada qoldi.

Turkiya bir vaqtning o'zida Polshaga qarshi ham harbiy harakatlari olib bordi. Ular o'rtasidagi mojaroning asosiy sababi, ukrain yerlari masalasi edi. 1620 yili turklar polyak qo'shinlarini yengib, Ukrainaga kirishdi. 1621 yili Xatin yaqinida bo'lib o'tgan jangda Zaporozhe kazaklari ko'rsatgan qahramonliklar tufayli turklar mag'lubiyatga uchradi. Biroq turklar Polshaga bosimni susaytirmadilar, Ukrainaga qarshi agressiyani ham kengaytirdilar.

XVII asr birinchi yarmida rus hukumati Turkiya bilan tinch munosabatlarni qo'lladi, chunki ularning umumiy dushmani bo'lgan Polshaga qarshi birlashish zarurati mavjud edi. Turklar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini saqlab qolish uchun harakat, ayniqsa, Azov uchun olib borilgan kurashlarda yaqqol ko'rindi. 1637 yili Don kazaklari Turkiyaning Eron bilan urushda band ekanligidan foydalanib Azovni qurshab oldilar va ikki oylik qamaldan so'ng qal'ani egalladilar. 1641 yil yozida turklar Eron bilan urushni tugatib, Azovga harakat qilishdi. Qamal 4 oy davom etdi, lekin 6 mingga yaqin kazak qal'ani qattiq turib himoya qildilar. Anchagina zarar ko'rgan va hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmagan turklar qamalni to'xtatib, qaytib ketishga majbur bo'ldilar, lekin Turkiya bilan munosabatlarning keskinlashuvini istamagan rus hukumati Azovni tozalash va uni turklarga qaytarib berish to'g'risida kazaklarga buyruq berdi.

XVII asr 50-yillari boshida rus-turk munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda 1654 yili Rossiyaga Ukrainaning qo'shilishi bilan yakun topgan ukrain xalqining Bogdan Xmelnitskiy boshchili-

gidagi ozodlik harakatlari boshlanib ketdi. Ularga qarshi kurashish maqsadida polyak panlari Turkiya va Qrim xoni bilan til biriktirdilar. Ukrainani o'zining bosqinchilik ob'ekti hisoblagan Turkiya ukrain xalqining hayotiga ochiq qurolli aralasha boshladi. Hatto ayirmachi o'ng qirg'oq ukrain getmanlarini qurollantirdi. Mana shu aralashuv Rossiya va Turkiya o'rtasidagi urushni keltirib chiqardi. Harbiy jihatdan susaygan Usmoniylar imperiyasining xalqaro mavqei ham zaiflasha boshladi.

III-BOB. USMONIYLAR IMPERIYASI YANGI DAVRDA

Islom dinining tarixiy taraqqiyotga ta'siri

Har qanday tarixiy hodisaga bo'lgani singari islom diniga ham ijtimoiy hayotdagi va madaniyatdagi hodisa sifatida qarash lozim. Paydo bo'lish jarayonida va rivojlanishining dastlabki yillarida islomning tarixiy taraqqiyotga ta'siri progressiv bo'lgan. Birinchidan, u arab qabilalarining ilgarigi majusiylik dinlarini yagona monoteistik din bilan almashtirdi va bu bilan arablarning xalq bo'lib shakllanishi uchun imkoniyat yaratdi. Ikkinchidan, arablarning, arab tili va madaniyatining Arabiston yarimoroli chegaralaridan chiqib, keng tarqalishi hamda o'rta asrlarning yirik davlati – Arab xalifaligining tashkil topishi uchun juda katta rag'batlantiruvchi kuch bo'ldi. Madaniyat rivoji nuqtai nazaridan islom bir etnik va diniy makonga – arab-islom jamiyatiga turli mamlakatlar – Shimoliy Afrika va Sharqiy O'rta Yer dengizi bo'yidagi Vizantiya provinsiyalari, Eron, O'rta Osiyo davlatlari, Hindiston, hatto, G'arbiy Yevropa davlatlarida (masalan, Ispaniya) o'sha paytda ma'lum bo'lgan barcha madaniy va ilmiy yutuqlarni mujassamlashtirdi.

Din va siyosatning yaxlitlik prinsipi azaldan islomning hokimiyat to'g'risidagi konsepsiyasiga xos bo'lgan. Shu jihatdan islom boshqa dinlardan keskin farq qiladi. Masalan, xristian mamlakatlarida davlat hokimiyati hech qachon cherkov tashkilotlari bilan qo'shilib ketmagan. Rim imperiyasida dastlab yangi dinga qarshi, hatto qattiq kurash olib borildi va faqat IV asrdagina xristianlik rasmiy dinga aylandi. Ammo shunda ham davlat va cherkov o'zlarining alohida hokimiyat tizimlariga ega bo'lgan hamda ular tepasida imperator va bosh ruhoniy turgan. Keyinchalik ham masalan, Yevropada bu ikki tizim faqat alohida-alohida mavjud bo'lmasdan, ba'zi hollarda bir-biriga muxolifatda ham bo'lishgan: Fransiyada kardinallar va qirollar, Rossiyada podsholar va patriarxlar. Umumiy «xristiancha» qoidadan kichkina teokratik katolik davlati Vatikan istisno xolos, bu yerda Rim papasi ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatning boshlig'i hisoblanadi.

Arab xalifaligida, Usmoniylar imperiyasida, boshqa musulmon davlatlarida butunlay boshqacha holat edi. Islom bu yerda faqat din emasdi, u musulmonlarning hayotiga to'liq kirib borgan, inson faoliyatining mafkuraviy, huquqiy-siyosiy, ma'muriy, qidiruv-jazo, harbiy, sud va maishiy sohalarini to'liq qamrab olgan edi. Musulmonlarda

faqat diniy tashkilot va odatlargina bir xil emasdi. Qonunchilik, sud va jazo tizimi, armiya, maktab – bularning hammasi islom prinsiplari asosida faoliyat yuritardi. Chunki islom boshqa dinlardan farqli o‘laroq, paydo bo‘lgan paytdan boshlab siyosiy hokimiyat uchun kurash olib bordi. Boshqa dinlarda bo‘lgani singari din davlat diniga aylanmasdan (masalan, xristianlik davlat diniga aylanishi uchun paydo bo‘lgandan keyin 400 yilga yaqin vaqt kerak bo‘ldi), islomda xalifalik ko‘rinishidagi davlat to‘liq diniy tamoyillar asosida shakllantirildi. Shuning uchun islom dini jamiyat va shaxs hayotining hamma jabhalarini qamrab olgan totalitar¹ dinga aylandi.

Yangi davrga kelib islom olamida fan o‘z imtiyozlarini yo‘qotishdan qo‘rqadigan musulmon ruhoniylari tomonidan siqib qo‘yilgan edi. Dunyoviy ta’lim mavjud emasdi. Musulmon maktablari XVIII asrda sxolastika² va obskurantizmning³ o‘chog‘iga aylangan edi. Aholining ko‘pchiligi keng ma’nodagi dunyoviy bilim va savodga ega emasdi.

1500 yili Yevropaning 12 ta mamlakatida yirik bosmaxonalar mavjud bo‘lib, ularda 40 ming nomdagi kitoblar chop qilingan bo‘lsa, musulmon xalqlarida, masalan, Usmoniylar imperiyasida XVIII asrgacha burjuacha taraqqiyotning va industrial sivilizatsiya shakllanishining zarur vositalaridan biri bo‘lgan kitob chop etish hali yo‘q edi. (O‘zbekistonda birinchi litografiya (tosh bosma) 1874 yili Xivada Otajon Abdalov tomonidan ochilgan). Aslida faoliyat yuritayotgan bosmaxonalar shundaygina imperiya bo‘sag‘asida turardi. Masalan, Vengriyada birinchi bosmaxona 1473 yili, turklar bosqinidan oldin, Chernogoriyada – 1493 yili ochilgan edi. Bundan ham ajablanarlisi shuki, imperiya hududining o‘zida ham birinchi bosmaxona 1494 yili yahudiy-espanollarda paydo bo‘ldi. Ular inkvizitsiya xavfidan qochib Ispaniyadan bu yerga kelishgan edi. Istambuldagi armanlarda bosmaxona 1562 yili, greklarda esa 1627 yili paydo bo‘ldi. Faqat 1729

¹ *Тоталитар* (лотинча *totalitas* – яхлит, тўлиқ) – жамиятнинг ҳамма жабҳаларини тўлиқ қамраб олган ҳукмрон ғоя, мафкура ёки сиёсий тузумга нисбатан қўлланилади.

² *Схоластика* (грекча *scholasticos* – мактабга мансуб) – ўрта аср «мактаб фалсафаси». Уларнинг фаолиятида универсалийлар ҳақида баҳс асосий ўрин тутди.

³ *Обскурантизм* (лотинча *obscurantis* – ёруғликни тўсувчи, қоронғи қилувчи) – маърифат ва фанга ўта душманлик муносабати, жаҳолат. Обскурант – маърифатга душман киши.

yili birinchi musulmon kitob – arabcha-turkcha lug‘at chop etildi. Iogann Gutenberg (1399–1468) 1445 yili kashf etgan kitob chop qilishni musulmonlar qariyb 300 yildan keyin o‘zlashtirishdi.

Faqat XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib sog‘lom fikrlovchi musulmon ulamolari islomning ba’zi taqiqlari ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘layotganligini tushunib yetdilar. Misrda mamlakatning bosh muftiysi Muhammad Abdo XIX asr oxiridagina islomni yangi, burjuacha hayot talablariga moslashtirishga harakat qildi. U 1899 yili o‘z fatvosida foizli kreditning mumkinligini asosladi va banklarga pul qo‘yish va kapitaldan foyda olishga ruxsat berdi. (O‘zbekistonda birinchi bank tashkiloti – Rossiya imperiyasi davlat bankining filiali – 1875 yil 10 mayda Toshkentda ochilgan). Ko‘plab tarixchilarning aytishlaricha, bu islomda islohotlarning boshlanishi bo‘lib, u asosan shariat sohasidagi ayrim juz‘iy o‘zgartirishlar bilan yakunlandi. Usmoniylar imperiyasida shariat islohotlari 1908–1909 yillardagi «Yosh turklar» inqilobidan so‘ng, Eronda esa 1905–1911 yillardagi inqilobdan keyin boshlandi. XVI asrda xristianlikda bo‘lgan Reformatsiya singari to‘liq islohot islomda amalga oshirilmadi. XX asr boshlarida shariat qoidalari yuridik amaliyotdan to‘liq olib tashlangan yagona islom davlati Turkiya edi. (O‘zbekistonda Rossiya bosqinidan so‘ng shariat qoidalari asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich yuridik amaliyotdan chiqarilib borildi). Bu yerda 1918–1924 yillardagi inqilobdan so‘ng din faqat davlat ishlaridan uzoqlashtirilib qolmasdan, g‘arbiy yevropacha huquq joriy qilindi. Turklar bu borada o‘ta oddiy ish tutishdi: Shveysariyaning fuqarolik kodeksi va Italiyaning jinoyat kodeksi turk tiliga tarjima qilindi hamda kichik o‘zgarishlar bilan hozirgi zamon turk qonunchiligining asosi etib qabul qilindi.

Islom ta’limoti yana bir sababga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan edi – u fatalizm¹ ruhi bilan sug‘orilgan. Musulmonlar qismat, taqdir, tavakkul kabi tushunchalarga boshqa dinlar vakillariga nisbatan ko‘proq ishonadilar. Islom ta’limotiga ko‘ra har bir kishining taqdiri Alloh tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan, tug‘ilgandan

¹ *Фатализм* (лотинча *fatalis* – қисмат) – антидиалектик дунёқараш концепцияси бўлиб, унга кўра оламдаги ҳамма жараёнлар зарурият тақозосига бўйсунди, эркин танлаш ва ижодга ўрин қолдирмайди, ҳаммаси олдиндан белгилаб қўйилган.

«peshonaga yozib qo'yilgan» va undan qochib qutulib bo'lmaydi. Insonning hayot yo'li, o'lim vaqti, joyi va sababi belgilab qo'yilgan. Taqdirni o'zgartirishga qanchalik urinmasin, baribir «peshonaga yozilgani bo'ladi». Shu sababli musulmonlar har bir gapga «insholloh» – «hammasi Allohning ixtiyorida», deb qo'shib qo'yishadi. Axir «islom» so'zining o'zi ham «bo'ysunmoq» degan ma'noni anglatadi – xudoga, taqdirga bo'ysunmoq, Alloh belgilab bergan yo'lga bo'ysunib ergashmoq. Allohning hukmiga to'liq havola qilingan shaxsning itoatkorligi va taqdirga bo'ysunishi – bular faqat diniy fatalizm va fido-yilikning emas, o'z davrida Gegel yozganidek, ijtimoiy tuzumning prinsipiga aylangan «ommaviy qullikning», bugungi kunda esa diniy ekstremizm va terrorizmning ham manbaidir.

Islom aqidaparastligi, uning bahslar va shubhalar uchun yopiqligi islom mamlakatlaridagi ijtimoiy va siyosiy hayotga, bu yerdagi xalqlarning mentalitetiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Dunyoning ilg'or qismidagi intellektual integratsiyalashuv, shuningdek, yangi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, kishilarning yangi, munosib hayot qurish uchun qilayotgan inqilobiy intilishlari islom dunyosini chetlab o'tdi. Yagona aqidaning so'zsiz hukmronligi ostida, «ommaviy qullikda» yashashga ko'nikkan jamiyat keyinchalik mustamlakachilarning bosqinini va, hatto mahalliy aholini kamsitishga qaratilgan mafkurasini ham, keyin esa partiya yoki bitta shaxsning cheklanmagan hokimiyatini ham katta qarshiliklarsiz qabul qildi.

Yangi davrda musulmonlar orasida burjuacha tadbirkorlikning rivojlanishiga ham tashqi iqtisodiy munosabatlarning islomiy konsepsiyasi to'siq bo'ldi. XVI–XIX asrlarda islom davlatlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy siyosatga butunlay qarama-qarshi siyosat olib borildi. G'arbiy Yevropa davlatlarida ilk kapitalistik munosabatlar rivojlanishi davrida (1500–1750) davlat merkantilizm¹ siyosatini olib bordi va bu yangi ishlab chiqarish usullari qaror topishida katta rol o'ynadi. Bu siyosatning asosini quyidagilar tashkil qiladi:

¹ Меркантилистлар бойликнинг асосий манбаи ишлаб чиқариш эмас, айланма капиталнинг кўплиги деб ҳисоблаганлар ва бойликни пул капиталининг кўплигида деб билганлар. Шу сабабли четга товар чиқариб, мамлакатда пулни (олтин ва кумуш) кўпайтириш фаровонликка хизмат қилади, деган принципга асосланганлар.

- tashqi aloqalarda faol savdo balansiga ega bo'lishga intilish, ya'ni ko'proq chetga sotish va kamroq sotib olish;

- proteksionizm¹, ya'ni import tovarlariga yuqori boj to'lovlarini joriy qilish orqali o'z sanoatini himoya qilish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- va nihoyat, o'z savdogarlarining savdo ekspansiyasini, ya'ni ular tomonidan yangi bozorlarning egallab olinishini qo'llab-quvvatlash.

Islom mamlakatlarida shu davrda butunlay boshqacha bo'ldi. Masalan, Usmoniylar imperiyasini oladigan bo'lsak, u bu borada shunday siyosat olib bordiki, buni antimerkantilizm deb atashimiz mumkin. Zamonaviy terminlar bilan ataganda, bu «ochiq eshiklar» siyosati, erkin bozor siyosati edi.

Islomning «savdo muqaddasligi» to'g'risidagi konsepsiyasidan kelib chiqib, musulmon ulamolari mamlakat obodligi ichki bozorda iste'mol mollarining ko'pligi bilan belgilanadi, deb hisoblardi. Shu munosabat bilan import rag'batlantirilib, eksport cheklanardi. Hokimiyat mamlakatga har qanday chet el tovarlarining kiritilishiga hech qanday qarshilik qilmasdi. Bundan ham ajablanarlisi, chet el savdogarlariga, ayniqsa, import bilan shug'ullanuvchilariga turli xil imtiyozlar berilgan edi. Ushbu siyosat oqibatida tabiiyki mahalliy sanoat, manufaktura ishlab chiqarishi va hunarmandchilik og'ir ahvolga tushib qolgan, chet el ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatda davlatning proteksionis-tik himoyasidan mahrum qilingan edi. Raqobat esa, ayniqsa yevropaliklar bilan kuchli edi. Ularning fabrika va zavodlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlari manufakturalar va hunarmandlarning tovarlariga nisbatan sifatli va arzon edi. Chet el savdosiga bunday munosabat chet el savdogarlari uchun juda katta imtiyozlar tizimining shakllanishiga, chet el ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatda esa taslimchilik kayfiyatiga olib keldi.

Shunday qilib, islom musulmonlar hayoti va faoliyatining barcha sohalariga kirib borgan, musulmon jamiyatining barcha institutlarini

¹ *Протекционизм (французча protectionnisme лотинча protectio – панада сақлаш, ҳимоя қилиш) – давлатнинг иқтисодий сиёсати бўлиб, мамлакатга киритиладиган чет эл товарларига юқори бож солиғи ўрнатиш, айрим товарларни киритишни чеклаш ёки тўлиқ тақиқлаш йўли билан миллий ишлаб чиқаришни чет эл рақобатидан ҳимоя қилишга қаратилган.*

qamrab olgan edi. Yangi davrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida shakllangan yangicha dunyoqarash, demokratik g'oyalar, insonning tadbirkorligi va tashabbuskorligiga ochilgan keng imkoniyatlarning islom mamlakatlarida qaror topishi uzoq va og'ir jarayon bo'ldi. Ba'zi mamlakatlarda bu jarayon hamon davom etmoqda.

Imperiyaning inqirozi

Bir qancha podshohlarning davlat mavqei va nufuzini ko'tarishga qilgan urinishlariga qaramay, ikki asr XVII va XVIII asrlar shonshavkatga to'la XVI asrdan ko'ra tushkunroq asrlar bo'ldi.

Usmoniylar flotining Lepanto yaqinidagi mag'lubiyati o'z ortidan jiddiy oqibatlarga olib kelmagan bo'lsada, shu sababli Usmoniylar flotining O'rta yer dengizidagi mutloq hukmronligi oxiray boshladi va ular hamma joyda mudofalanishlariga to'g'ri keldi. Usmoniylarning XVI asr oxirida Vengriyada Gabsburglardan, XVII asr boshlarida Ozarbayjon va Gruziyada forslardan mag'lubiyati, Anatoliya va Suriyadagi qo'zg'olonlar davlatning kuchsizlanganidan darak berar edi. Inqirozga shuningdek moliyaviy qiyinchiliklar va Anatoliyadagi dehqonlar qo'zg'olonlari ham sabab bo'ldi.

Agar XVII asr boshlarida Ahmed I (1603-1617) ajdodlari yo'qotgan barqarorlikka erishishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, lekin uning o'g'li Usmon II ning taqdiri (1618-1622) umuman fojeali yakunlandi: birinchi marta sulton taxtdan tushirildi va o'ldirildi (may 1622). Uning vorisi Murod IV (1623-1627) podsho hokimiyatini qayta tiklaydi, qo'zg'olonchilarni bostiradi va imperiyadagi holatni to'g'rilaydi, lekin undan so'ng tartibsizliklar yana boshlanadi. Usmoniylar davlatida 20 yil davom etgan sezilarli o'sishni ko'rish uchun buyuk vazir Mexmed Kyoprulyuni sulton Mexmed IV (1648-1687) davrida hokimiyatga kelishini (1656 sentabr) kutish kerak. Afsuski harbiy muvaffaqiyatsizliklar (1683 yil Venadagi mag'lubiyat, Rossiyaning Ukraina va Qrimdagi muvaffaqiyatlari) va Usmoniylar tomonidan birinchi marta tuzilgan samarasiz shartnoma davlat mavqeini tushirdi.

XVIII asr uchun xarakterli uch jihat:

- Tashqi muammolar, Usmoniylar imperiyasi doim o'z qo'shnilari Rossiya, Avstriya va Forslar davlati bilan urush holatida bo'lgan. Bu muammolar Usmoniylarning hududiy yo'qotishlariga va ularning ustuvor timsolini tushishiga olib keldi.

- Gʻarb bilan aloqalarning oʻrnatilishi, gʻarb davlatlarining rivojlaniishi sabablarini va texnika tarqqiyotini oʻrganish uchun Usmoniylar Yevropaning koʻplab davlatlariga oʻz elchilarini yubora boshlaydi: Vena, Parij, Moskva va Varshavaga (1719-1723).

- Armiyada islohat oʻtkazilishi. Urushlardagi qiyinchiliklar va magʻlubiyatlar davlatning ichki holatiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatar edi. Bular Usmoniy davlat arboblari davlat asosiy tizimlarida avvalo armiya va flotda islohatlar oʻtkazishga majbur qildi. Chunki armiya sezilarli magʻlubiyatlarga uchragan edi.

Umuman olganda Usmoniylar imperiyasi koʻplab qiyinchiliklarni boshidan kechirar va katta davlatlarning hujumlarini qaytarishga qiyinalar edi. Unga Gʻarb tomonidan koʻrsatilayotgan bosim, arab viloyatlari va Bolqonda koʻtarilayotgan qoʻzgʻolonlarga qarshilik qilish qiyin boʻlib qoldi. Bunday holat XIX asrda inqirozga olib keldi, keyinchalik uni “sharq masalasi” deya nomlandi. Bu taʼrif imperiyaning boʻlinishiga olib kelgan voqealarga toʻgʻri keladi: Gresiyaning mustaqilligi (1829), Misrda Muhammad Ali bilan toʻqnashuv (1824-1841), Jazoirning fransuzlar tomonidan bosib olinishi (1830).

XVII-XVIII asrlar –tanazzul asrimi?

Yaqin vaqtlargacha Usmoniylar imperiyasining inqiroz davri XVII-XVIII asrlar deb hisoblangan. Lekin bizning davrimizda tarixchilarimizning fikri har-xil. U asrlarda sodir boʻlgan voqealarda ular inqiroz alomatlarini koʻrishadi lekin tanazzulni emas. Chunki tanazzul tushunchasi davomiylikni, qaytarilmaslikni va koʻp qirralikni bildiradi. Usmoniylar imperiyasi hayoti davomida juda koʻplab inqirozlarni Fransiyadagi diniy urushlar yoki markaziy Yevropadagi oʻttiz yillik urushlarni boshidan kechirdi. Lekin bu nuqtai nazardan tanazzul haqida gapirish mumkin emas. Tanazzul haqida gapirilganda maʼlum vaqt davlatning barcha hayot sohalari, siyosiy va harbiygina emas, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalari ham achinarli holatga tushib qoladi.

Soʻnggi tadqiqotlar bu ikki asrni salbiy baholashga sezilarli turtki beradi. Shuni taʼkidlashimiz lozimki, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi sulton va uning oʻgʻillariga xayriya fondlari orqali Istanbul va Makka shaharlarini qurish ishlari, viloyatlardagi haj yoʻllarini taʼmirlashga toʻsqinlik qilmadi. Albatta bular oldingi asrlardagi qurilish ishlaridan kamroq boʻlsada, sezilarli darajada edi. Koʻplab amaldorlar Anatoliya va Yaqin Sharq shaharlarida kutubxona, fontan va qasrlar qurdirishdi. Agar baʼzi hunarmandchilik sohalari jumladan,

ipak tayyorlash Bursada, yungchilik Salonikada, XV va XVI asrlarda saviyasi tushib ketgan bo'lsada hunarmandchilikning boshqa turlari xususan Bolgariyada yung, kigiz va Anqara tumanida angor yungi ishlab chiqarish rivojlandi. Oldingidek mis va boshqa metallarga ishlov berish rivojlangan. Aynan XVII va XVIII asrlarda shahar hunarmandchiligi rivojlanib, ularning ijtimoiy ta'siri o'zining yuqori cho'qqisiga yetgan. Bu davrda yangi ekin turlarining makkajo'xori, qaxva, tamaki ekishni o'zlashtirish qishloq xo'jaligi rivojlanishiga turtki berdi va bu ichki va tashqi savdoni rag'batlantiruvchi omilga aylandi.

Kyoprulyu islohotlari. Yangi bosqinchilik yurishlari uchun mablag' topish maqsadida buyuk vazir Mahmed Kyoprulyu (1656–1661) sipohiylik qo'shinining ilgarigi imkoniyatlarini qayta tiklashga asosiy e'tiborni qaratdi, chunki bu ish hukumatning harbiy xarajatlari bir necha barobar qisqartirishi mumkin edi. Mahmed Kyoprulyu va uning vorislari – Fozil Ahmet Kyoprulyu va Qora Mustafo Kyoprulyu tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar feodal ko'ngillilar safining ko'payishiga olib keldi. Kyoprulyu turk qo'shinlarining jangovar qudratini oshirishga, Kichik Osiyo va Suriyadagi feodallarni bo'ysundirishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Biroq Kyoprulyu islohotlari oldingi harbiy-feodal tizimni to'la tiklay olmadi. Kyoprulyu islohotlarini xarakteriga ko'ra, ikki uchli tayoqqa o'xshatish mumkin edi. Bir tomondan bu islohotlar bir necha yillar davomida harbiy muvaffaqiyatlarni ta'minladi, ikkinchi tomondan esa – sipohiylik tizimining so'nggi zaxiralarini ham safarbar qilib bo'ldi. Turklarning yangi g'alabalari feodal ekspluatatsiyaning kuchaytirilishi, dehqonlarning ommaviy kambag'allashuvi hisobiga amalga oshgan edi. Oqibatda, Kyoprulyu islohotlari sipohiylik tizimining to'la barbod bo'lishiga olib keldi. 1683 yili turklarning Vena ostonalaridagi mag'lubiyati Usmoniylar imperiyasining harbiy va siyosiy qudratini qaytarib bo'lmasligini aniq-ravshan ko'rsatib berdi.

Usmoniylar imperiyasi inqirozining boshlanishi

XVII asr oxiri – XVIII asr boshlariga kelib imperiyaning turg'unlik davri (tavaqquf davri) tugab inqiroz davri boshlandi. Bu davrni turk tarixchilari «Rijot davri» deb atashadi. XVIII asrdan boshlab Usmoniylar imperiyasi birin-ketin ilgari egallab olgan hududlarini yo'qota boshladi. Buning sababi, birinchidan, Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy rivojlanish natijasida harbiy va siyosiy salohiyatning

o'sishi bo'lsa, ikkinchidan, Usmoniylar davlatida yuz berayotgan chuqur iqtisodiy inqiroz edi. Davlatning iqtisodiy inqirozi uning siyosiy va harbiy tushkunligini ham tezlashtirdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli turk armiyasining harbiy qudrati asosini tashkil etuvchi sipohiyalar (otliq qo'shin) soni 200 ming kishidan 20 mingtagacha kamayib ketdi. Shu vaqtdan boshlab armiyada asosiy rolni yanicharlar o'ynay boshladi. Yanicharlar bosib olingan yerlardan zo'rlik bilan olib kelingan xristian bolalaridan tarbiyalangan edi. Ular faqat harbiy xizmat uchun mo'ljallangan bo'lib, oila qurishi, boshqa kasb-hunar bilan shug'ullanishi qat'iy taqiqlangan edi. Yanicharlar davlat xazinasidan katta miqdorda maosh olardi, yanicharboshi sultonning eng ishongan kishisi hisoblanardi. Lekin vaqt o'tishi bilan yanicharlar korpusida ham juda katta o'zgarishlar yuz berdi.

XVIII asr boshlariga kelib yanicharlar oila qurish va boshqa kasb bilan shug'ullanish huquqini oldilar. Ular orasidagi temir intizom yo'qoldi va yanicharlar ichidan juda katta imtiyozlarga ega bo'lgan harbiy aristokratiya shakllandi. Shu davrdan boshlab yanicharlar saroy to'ntarishlarining harakatlantiruvchi kuchi va bosh ishtirokchisiga aylandi. Ular harbiy islohotlarga va yangicha armiyaning shakllanishiga qarshi edilar. Bu hol Usmoniylar harbiy qudratining zaiflashuviga olib keldi.

1664 yili turklar Sentgotxard shahri (Vengriya) yaqinida avstro-venger qo'shinlari bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchradi. Biroq o'zini o'nglab olgan turklar Avstriyaga qarshi yangidan urush boshladi va 1683 yili Venani qamal qildi. Shu payt avstriyaliklarga yordamga kelgan Polsha qiroli Yan Sobeskiy turklarga qaqshatqich zarba berdi va mag'lubiyatga uchratdi. Bu mag'lubiyatlar tasodifiy bo'lmasdan, aslida Usmoniylar imperiyasida boshlanib ketgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning natijasi edi.

1703 yili imperiya taxtiga o'tirgan Ahmad III (1703–1730) tahdid solayotgan inqirozni bartaraf qilish, hech bo'lmasa uni biroz kechiktirish uchun ilk islohotchilik harakatlarini amalga oshirdi. Bu davr turk tarixida «Lola davri» deb nom olgan. Islohotchilik harakatlari asosiy tashabbuskori Damat Ibrohim Posho edi. U 1718 yili bosh vazir lavozimini egallagach, Usmoniylar davlatidagi islohotlarning nafaqat tashabbuskori, balki rahbariga aylandi. Ibrohim Posho islohotlari inqirozni to'xtatgandek edi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, agar tarixda ko'plab imperiyalarning inqirozi uning asoschisi

vafot etgandan boshlanib juda tez barham topgan bo'lsa, Usmoniylar imperiyasida XVII asrdayoq boshlangan inqiroz XX asrgacha ma'lum o'zgarishlar bilan davom etib, Turkiya Respublikasi tashkil topishi bilan yakunlandi.

1711 yili turklar Azovni Rossiyadan qaytarib oldi, 1714 yili Venesiyadan Moraviyani tortib oldi. Lekin 1716 yili boshlanib ketgan harbiy harakatlar va turklarning davomli mag'lubiyatlari vujudga kelgan muvaffaqiyatli holatning o'tkinchi ekanligini, inqirozning muqarrarligini ko'rsatib berdi. 1716 –1718 yillardagi Usmoniylar davlati bilan Avstriya o'rtasidagi urush Pojarevask tinchlik shartnomasi bilan yakunlandi. Shartnomaga ko'ra usmoniylar Kichik Valaxiya, Bosniyaning bir qismi va Belgraddan mahrum bo'ldilar.

Yuzaga kelgan umumiy tushkunlik oqibatida mamlakat ichkarisida norozilik harakatlari kuchaydi. Ibrohim Posho aholini tinchlantirish maqsadida madaniy islohotlarni amalga oshira boshladi. Lekin 1722 yili Eron safaviylari bilan boshlanib ketgan urush bunga imkon bermadi va mamlakatning iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. 1730 yili imperiya poytaxti Istambulda sobiq matros Patron-Xalil boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar tomonidan sulton Ahmad III taxtdan ag'darildi, Ibrohim Posho esa qatl qilindi. Ammo taxtga kelgan usmoniylar xonadoni vakili Mahmud I 1731 yili qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi, Patron-Xalil tarafdorlari qatl qilindi. Bosh vazir lavozimiga Xumbarachi¹ Ahmat Posho keldi. U armiyani isloh qilishni davom ettirdi. Lekin Ahmat Poshoning bu harakati yanicharlarning qattiq noroziligi va qarshiligiga uchradi.

1730 yili Eron bilan boshlangan urush 1736 yilgacha davom etdi. Turkiyaning ahvolini yanada og'irlashtirgan holat shu bo'ldiki, hali Eron bilan urush harakatlari tugamasdan, 1735 yili Avstriya va Rossiya ham Usmoniylarga qarshi urush e'lon qildi.

1736 yili usmoniylar Tabriz va Hamadonning Eronga o'tganligini tan oldi. Yevropadagi urush harakatlari natijasida Belgrad Usmoniylar imperiyasi tarkibiga o'tgan bo'lsa-da, 1739 yilgi Belgrad shartnomasiga muvofiq Zaporozje va Azov Rossiya hududiga qo'shildi.

Turklarning Yevropadagi hukmronligiga eng katta zarbani 1768–1774 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi berdi. Urush usmoniylarning

¹ *Хумбарачи* – туркларда замбаракни ўқловчи киши шундай аталган. Бу ерда фамилия сифатида қўлланилган.

magʻlubiyati bilan yakunlandi. 1774 yili imzolangan Kuchukqaynarji shartnomasiga muvofiq faqat Bolqon mamlakatlaridagina turklar oʻz hukmronligini saqlab qoldi. Usmoniylar oʻz tarixida birinchi marta Rossiyaga toʻvon toʻlash majburiyatini va Qrim xonligining mustaqilligini tan oldilar.

1774 yili taxtga oʻtirgan Sulton Abdulhamid I (1774–1789) hukmronlik qilgan yillari ham Rossiya-Turkiya munosabatlaridagi asosiy muammo Qrim muammosi boʻlib qolaverdi. 1783 yili Rossiya Qrimni rasman oʻz hududiga qoʻshib oldi. Bu Usmoniylar imperiyasidan tortib olingan islom diniga eʼtiqod qiluvchi va turkiy tilda soʻzlashuvchi ilk davlat edi. Qrimning Rossiyaga qoʻshib olinishi oʻzini islom dinining xalifasi deb eʼlon qilgan sultonning obroʻsiga putur yetkazdi va imperiyaning ichki ahvolini yanada ogʻirlashtirdi. Imperiyaning turli hududlarida sultonga qarshi kayfiyat kuchaydi.

Sulton Abdulhamid I Angliya va Shvesiyaning gij-gijlashi bilan va mavjud ogʻir ahvoldan chiqish maqsadida 1787 yili Rossiya-ga urush eʼlon qildi. Rossiyaning ittifoqchisi boʻlgan Avstriya darhol turklarga qarshi urushga kirdi. Natijada turklar ikkita frontda urush olib borishga majbur boʻldi. Buning ustiga urushning dastlabki kunlaridanoq Turkiya armiyasining urushga tayyor emasligi koʻrinib qoldi. A.Suvorov qoʻmondonligidagi rus qoʻshinlari Fakshan, Rimnik va Ismoil qalʼasi yonidagi janglarda turk qoʻshinlarini magʻlubiyatga uchratdi. Urush harakatlari shunday davom etayotgan bir paytda Sulton Abdulhamid I vafot etib, taxtga uning jiyani Sulton Salim III keldi.

Salim III islohotlari. Salim III aqlli, vaziyatni toʻgʻri baholay oladigan kuchli diplomat va islohotchi edi. Uning davrida imperiyaning tashqi siyosati sifat jihatidan oʻzgarib, yangi bosqichga koʻtarildi. U Prussiya bilan ittifoqchilik shartnomasini imzoladi. Bu hol urushning yakuniga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Bundan tashqari, Angliya va Fransiyaning Yaqin Sharqda Rossiya nazorati oʻrnatilishiga qarshi ekanligidan ham xalqaro munosabatlarda ustalik bilan foydalanildi. Natijada 1791 yili Avstriya bilan Sistova separat sulhi imzolandi va Rossiya ham urushni toʻxtatishga majbur boʻldi. Bu Usmoniylar imperiyasini toʻla taslim boʻlishdan saqlab qoldi. Shu yili Rossiya bilan Yassi tinchlik shartnomasi imzolanib, ikki davlat oʻrtasidagi chegara Dnestr boʻylab oʻtkazilishi belgilandi. Turklar oʻzlarining Gruziyaga boʻlgan daʼvolaridan voz kechishdi, Rossiyaning Moldaviya va Valaxiya ustidan hukmronligini tan olishdi.

Urushdan soʻng Salim III imperiyani isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1792 yildan 1796 yilgacha bir necha farmonlar chiqardi. Bu farmonlarga koʻra harbiy majburiyatni oʻtashdan bosh tortgan mulkdorlarning mol-mulklari musodara qilindi, armiya qayta tuzilib, yangicha intizom joriy qilindi, harbiy muhandislik va dengiz floti bilim yurtlari tashkil etildi. Yevropaning ilgʻor usullari asosida toʻp quyish oʻzlashtirildi, xorijdan mutaxassislar taklif etilib, flot uchun 23 ta yirik harbiy kema qurildi va flot qayta tashkil qilindi.

Salim III islohotlari «Yangi tuzum» (Nizom-i-jadid) deb nom oladi. Islohotlardan maqsad, markaziy hokimiyatni kuchaytirish orqali imperiya yaxlitligini asrab qolish edi. Islohotchilar armiya-ni davlatning tayanchi deb qarashar va shu sababli asosiy eʼtibor uni kuchaytirishga qaratilgan edi.

Islohotlar soʻzsiz progressiv ahamiyatga ega va agar toʻliq amalga oshirilganda Usmoniylar imperiyasini taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishi mumkin edi. Ammo mamlakatdagi mulkdor qatlamlarining katta qismi hamda har qanday islohotlarni davlat va dinning asoslariga zarar yetkazadi, deb hisoblagan musulmon ruhoniylari islohotlarga qarshi edi. Nizom-i-jadidga, ayniqsa yanicharlar qattiq qarshilik koʻrsatishdi, chunki yevropacha taʼlim olgan va intizomli armiyaning shakllanishi yanicharlar korpusining barham topishiga olib kelishini ular yaxshi tushunishar edi. Bundan tashqari islohotlarni oʻtkazish katta xarajatlar talab qilib, aholiga yangi soliqlar solinishiga olib keldi va keng xalq ommasining noroziligini keltirib chiqardi. Bularning hammasi qoʻshilib, oqibatda oʻtkazilayotgan islohotlarning toʻliq muvaffaqiyatsizligiga olib keldi.

Bolqon va Kichik Osiyodagi yarim mustaqil davlatlarning boshliqlari, Vidin Poshosi Usmon Pazvand oʻgʻli, Yanin Poshosi Alimar ham joriy qilinayotgan yangiliklarga ochiqchasiga qarshi chiqishdi. Hukumat esa ularni oxirigacha boʻysundira olmadi. Shunday qilib, islohotlar zabt etilgan xalqlar orasida milliy-ozodlik harakatlarining paydo boʻlishiga toʻsiq boʻla olmadi. Sulton hukumati 1793–1796 yillari Belgrad Posholigiga avtonomiya huquqini berishga majbur boʻldi.

XVI–XVIII asrlarda Usmoniy turklar madaniyati. Usmoniylar davlatida falsafa diniy va dunyoviy qarashlar oʻrtasidagi raqobat bilan xarakterlanadi. Mamlakatda mavjud boʻlgan madrasalarda dunyoviy fanlarni oʻqitish juda yomon ahvolda boʻlib, mad-rasa darslari asosan

diniy, ijtimoiy va siyosiy hayotni o‘z ichiga olgan shariat va fiqh fanlari bilan cheklangan edi.

XVII asrdan Yevropaning ilg‘or g‘oyalari ta’siri ostida yirik shaharlar, asosan poytaxt Istambulda dunyoviy fanlarni rivojlantirishga harakat boshlanadi. O‘z davrining ilg‘or kishilari – sivaslik Abdulmajid Nuri kabilar madrasalarda dunyoviy bilimlarni ham o‘qitish tarafdorlari edi. Shunday kishilarning tashabbusi va ta’siri tufayli mamlakatdagi mavjud diniy jaholatga qaramasdan dunyoviy bilimlar sohasida ham olimlar yetishib chiqdilar.

Ulardan biri XVII asrdagi Turkiyaning buyuk olimi Koshib Chalabiydir (1609–1657). U o‘zining «Eng to‘g‘risini topish uchun haq tarozisi» nomli asarida dunyoviy bilimlarning ahamiyatini va diniy mutaassiblikning salbiy tomonlarini ochib berishga harakat qiladi, tarix, geografiya va manbashunoslikka bag‘ishlangan yuzlab asarlar yaratdi.

Matematika va astronomiya sohasida Xizir Xalifa Tabariy, Mulla Mehmet Chalabiy, Koshipzoda Mustaf o kabi olimlar barakali faoliyat ko‘rsatdilar.

Shu davrda turk adabiyotida ham o‘ziga xos faollik kuzatiladi, yirik asarlar yaratiladi. Shulardan Avliyo Chalabiyning (1682 yili vafot etgan) «Sayohatnoma» asari tarixiy-etnografik manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Tarixiy yo‘nalishdagi shunday asarlardan yana biri Sulton Ibrohim I ning kotibi Kochi Bekning «Risola» nomli asaridir. Asarda davlat xazinas va soliqlar tizimi to‘g‘risida batafsil ma’lumot beriladi.

Fan va adabiyotdagi ba’zi yutuqlarga qaramasdan XVII asrdagi siyosiy va iqtisodiy inqiroz barcha sohaga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Inqiroz, ayniqsa adabiyot va me’morchilikda yaqqol ko‘zga tashlandi. XVII asr oxiriga kelib fors va arab tilining ta’siri tufayli adabiyot turk xalqi uchun tushunarsiz holatga keldi. Tilni «tozalash» uchun qilingan ko‘plab harakatlardan so‘ng «Usmoniycha» deb nomlangan adabiyot yaratildi.

Me’morchilikda ham XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida tushunarsiz, milliylikdan ancha yiroq bo‘lgan qorishiq uslublar yaratildi. Vaholanki, XV–XVII asrlarda turk me’morlari buyuk tarixiy obidalarini yaratishgan edi. Ayniqsa XVI asrning buyuk me’mori Sinon o‘zining betakror binolari bilan turk me’morchiligi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Boburiylarning Dehli, Laxur va Agradagi saroylari turk me’morlari tomonidan bunyod etilgan edi. Sinon Osiyoda birinchi bo‘lib binolar qurilishida «barokko» uslubini qo‘llagan usta edi. Undan so‘ng me’morboshi lavozimida ishlagan Dalgich Ahmad va

Sadafkar Mehmet og‘alar ham Sinonning ilg‘or g‘oyalarini davom ettirdi, uning uslubida binolar qurdirdi. Ular Istambuldagi Sulton Ahmad I jome masjidini va «Yangi jome»ni bunyod etdilar. XVII asr turk me‘morchiligining ajoyib namunalari sifatida sultonning To‘pqopi saroyidagi Bag‘dod va Ravon ko‘shklarini ham aytib o‘tish lozim. Bu binolarning ustasi o‘sha davrdagi me‘morboshi Hasan Og‘a edi.

XVI–XVII asrlarda Usmoniylar imperiyasida naqqoshlik va miniatyura san‘ati ham yaxshi rivojlanadi. Naqqoshlikda bezak vositasi sifatida asosan miniatyura rasmlaridan va yozuvlardan foydalanilar edi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashagan mashhur naqqosh va xattot Naqqosh Usmon, ayniqsa, bu san‘atning rivojiga katta hissa qo‘shdi. U o‘zining «Hunarnoma» va «Surnoma» kabi asarlarida bu san‘at sirlari haqida batafsil fikr yuritadi. Uning bu ikki asariga 600 ga yaqin risolasi jamlangan.

Yevropa va arab madaniyatining ta‘siriga qaramasdan XVI–XVIII asrlardagi turk madaniyati asosan milliylik va o‘ziga xoslikni saqlab qola oldi. Ammo yuqorida aytilganidek, imperiyada boshlangan siyosiy va iqtisodiy inqiroz madaniyat rivojiga ham ta‘sir etmasdan qolmadi.

Usmoniylar imperiyasi yangi davr boshlarida ham mintaqaning eng kuchli harbiy-feodal davlati bo‘lib qolayotgan edi. Ammo Yevropa davlatlarining jadal iqtisodiy taraqqiyoti ularning harbiy-texnik imkoniyatlarini ham oshirdi va bu hol Turkiyaning siyosiy mavqeiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada islohotlar uchun qilingan qator urinishlarga qaramasdan, XVII asrdayoq boshlangan inqiroz holatini yengib o‘tishning iloji bo‘lmadi. XVIII asrning oxiriga kelib inqiroz imperiya hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi.

XIX ASR – XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA

Fransuz qo‘shinlarining Misrga bostirib kirishi. Salim III ning taxtdan ag‘darilishi. Greklar qo‘zg‘oloni va uning oqibatlari. 1798 yil iyulda Usmoniylar imperiyasi uchun katta ahamiyat kasb etgan voqea sodir bo‘ldi: uning boy o‘lkalaridan biri – Misrga Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuzlar armiyasi bostirib kirdi. Dastlab fransuzlar mamluklar armiyasini yengib, mamlakatda o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo tez orada qo‘zg‘olonlar va partizanlar urushi boshlanib, amalda fransuz qo‘shinlari Misrda qamalib qolgan edilar.

Dastlab Salimning munosabati aniq bo'lmadi, chunki Napoleon o'zi-ning maqsadi sultonga bo'ysunmayotgan Misrdagi mamluk beylarini jazolash ekanligi to'g'risida safsatabozlik qilayotgan edi. 1798 yili fransuzlarga qarshi harakatning keng ko'lami aniq bo'lgandan so'ng, sulton Fransiyaga urush e'lon qildi va Muhammad Ali ismli alban sarkardasi boshchiligidagi qo'shinlarni mamluklar va misrliklarga yordamga yubordi. Napoleon turk qo'shinlariga qarshi chiqdi, ammo Falastindagi Akka qal'asidan nariga o'ta olmasdan ortga, Misrga chekinishga majbur bo'ldi.

Fransuzlar juda katta qiyinchiliklar bilan mamluklar, turklar va ularning ingliz ittifoqchilari hujumiga dosh berayotgan edi. 1801 yili Misrni inglizlar egalladi, ammo ular bu yerda o'rnashib ololmadilar, shuningdek, Salimning o'z hokimiyatini tiklash uchun urinishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. 1805 yili Misrda navbatdagi qo'zg'olon ko'tarildi va Muhammad Ali mamlakatning hukmdori deb e'lon qilindi. Sulton o'z obro'sini saqlab, Muhammad Aliga posho unvonini in'om qilgan bo'lsada, amalda Turkiya Misr ustidan o'z hukmronligini yo'qotdi.

Turkiyaning qoloqligi va kuchsizligi G'arb mamlakatlarining undan o'z maqsadlarida foydalanishini osonlashtirdi. 1806 yili Napoleonning elchisi Sebastiani turli va'dalar va do'q-po'pisalar bilan Portani¹ Rossiya bilan mojaroga boshladi va rus-turk urushini keltirib chiqardi.

1806-1807 yil qishida rus armiyasi Moldaviya va Valaxiyaga kirdi, 1807 yil bahorda turklar armiyasi unga qarshi jang boshlaganda, Istambulda davlat to'ntarishi yuz berdi. An'anaga ko'ra armiyaga buyuk vazir boshchilik qildi va ko'pgina vazirlar ham u bilan birga jo'nab ketdilar. Salim III ga va islohotlarga qarshi kuchlar bundan foydalanib qoldilar. Buyuk vazirning mu-ovini va shayx ul-islom boshchiligida fitna tayyorlandi. Bosfor portlari garnizoni qo'zg'olon ko'tardi. Ularga Istambulda qolgan yanicharlar ham qo'shildilar va Salim III taxtdan ag'darildi. Yangi sulton Mustafo IV yanicharlar va

¹ *Порта* (французча – Porte, итальянча – Porta, сўзма-сўз таржимаси – эшик, дарвоза) Европа дипломатик хужжатлари ва адабиётида қўлланилган Усманийлар ҳукумати (буюк вазир ва девон идораси)нинг расмий номи. Порта – туркча пошо каписи (пошо эшиги), арабча – баб-и-али (юкори ташкилот, баланд эшик) сўзларининг ноаниқ таржимаси. Порта атамасини Усманийлар империясига нисбатан қўллаш нотўғри, уни фақат империя ҳукуматига нисбатан қўллаш мумкин.

ulamolar qo'lida qo'g'irchoq edi. Oqibatda, 1808 yil 8 iyulda islohotlar tarafdorlari yangi to'ntarish uyushtirib, taxtga sulton Mahmud II ni o'tqazishdi. Biroq 1808 yil oktyabrda yanicharlarning isyoni natijasida islohotlar tarafdorlari o'ldirildi. Mahmud II Usmoniylarning oxirgi avlodi bo'lganligi uchungina tirik qoldi, ammo 20 yilga islohotchilik faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

Bunday beqaror holatdan Angliya foydalanib qolishga harakat qildi. 1807 yil martda Aleksandriyaga yetti ming kishilik ingliz qo'shinlari tushirildi ammo Muhammad Ali ularni tor-mor qilib, Misrdan quvib chiqdi. Shunga qaramasdan, 1809 yili Angliya sultonni shartnoma tuzishga majbur qildi, Unga ko'ra sulton oldingi kapitulyatsiyalarni (tengsiz shartnomalar) tasdiqladi hamda Bosfor va Dardanell bo'g'ozlarini barcha chet el harbiy kemalari uchun yopish majburiyatini oldi.

Rus hukumatining Usmoniylar imperiyasiga munosabati ikkiyuzlama, munofiqona xarakterda edi. Bir tomondan, Muqaddas ittifoqning monarxlar legitim (qonuniy) huquqlarini inqilobiy tahdidlardan (bu yerda greklar va slavyanlarning milliy-ozodlik harakatidan) himoya qilish to'g'risidagi doktrinasi Metternix tashabbusi bilan Usmoniylar imperiyasiga ham joriy qilingan edi. Ezilgan slavyan xalqlari va pravoslav mazhabidagi Gresiyaga nisbatan Rossiyada hamdardlik kayfiyati mavjudligiga qaramasdan, Aleksandr I va Nikolay I bu xalqlarni bir necha marta isyonchilikda ayblab keldilar. Boshqa tomondan esa, Rossiyaning real manfaatlari Bolqonda kuchayib borayotgan G'arb davlatlari ta'siriga qarshi ruslar pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida turklarga qarshi milliy-ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlashni talab etardi.

1821 yili greklar qo'zg'oloni boshlandi. Moreya va Egey dengizidagi orollarni qamrab olgan qo'zg'olon mustaqillik uchun umumxalq kurashiga aylanib ketdi. Bu kurashning harakatlantiruvchi kuchlari grek dehqonlari va taraqqiyotning nisbatan yuqori darajasiga erishgan shahar savdo burjuaziyasi bo'ldi. 1822 yili greklarning milliy hukumati tuzildi.

Sulton Mahmud II o'z kuchlari bilan qo'zg'olonni bostira olmadi, Kichik Osiyo va Rum feodallari esa bo'ysunish va qo'shin berishdan bosh tortdilar, sulton yordam so'rab Misr poshosi Muhammad Ali ga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Hokimiyatni egallagandan so‘ng Muhammad Ali Misrda bir qator islohotlarni amalga oshirgan edi: 1811 yili mamluklarni yo‘q qilib, ular o‘rniga Yevropa tipidagi muntazam armiyani tuzdi, chet el savdosini monopollashtirdi, o‘ziga qarashli yerlarda barcha kapitulyatsiyalarni bekor qildi, moliyani tartibga keltirdi va boshqa shu kabi ishlarni amalga oshirdi.

1811 yili Muhammad Ali sultonning iltimosiga ko‘ra qo‘shinlarini Arabistonga jo‘natdi va 1818 yilga kelib, shiddatli janglar natijasida vahhobiylar davlatini tor-mor qildi. Bunda u o‘z maqsadlarini – Arabiston va uning muqaddas shaharlari ustidan o‘z hokimiyatini o‘rnatishni hamda Qizil dengiz qirg‘oqlaridagi strategik va savdo yo‘llarini egallab olishni ham ko‘zlagan edi.

Bundan tashqari Muhammad Ali Yuqori Misr va Sharqiy Sudanni ham bosib oldi. 1820-yillarning boshiga kelib u sulton armiyasidan ancha ustun bo‘lgan muntazam armiyaga ega bo‘lib, endi o‘zining mustaqil arab imperiyasini tuzish haqida o‘ylayotgan edi. Shu sababli u sultonning greklar qo‘zg‘olonini bostirishda qatnashish haqidagi taklifiga Suriya va Krit oroli ustidan boshqaruvning unga berilishi evaziga rozi bo‘ldi.

1824 yili Muhammad Ali o‘z o‘g‘li Ibrohim posho qo‘mondonligida ancha katta qo‘shin va flotni greklar qo‘zg‘olonini bostirish uchun jo‘natdi. Qo‘shinlar Krit va Moreyaga tushirilib, greklarni dahshatli jazoladi. 1826 yil bahoriga kelib deyarli butun Moreya misrliklar va sulton qo‘shinlari tomonidan egallandi va sulton g‘alabani nishonlashi mumkin edi.

Ammo sultonning greklar qo‘zg‘olonini bostirishga va Gresiyani imperiya tarkibida ushlab turishga qilgan umidi amalga oshmadi. 1826 yili Peterburgda Portadan greklarga qarshi qurolli harakatlarni to‘xtatish talab qilingan ingliz-rus protokoli, 1827 yil 6 iyulda esa Londonda Gresiyaga avtonomiya berilishi ko‘zda tutilgan ingliz-fransuz-rus kelishuvi imzolandi. Kelishuvni imzolagan davlatlar greklarga yordam berish bahonasida turklardan ozod qilinayotgan hududlarda o‘z siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlashni ko‘zlayotgan edilar.

Ibrohim posho boshchiligidagi misrlik qo‘shinlar greklar qo‘zg‘olonini bostirib, 1827 yili iyunda qo‘zg‘olonchilarning oxirgi tayanchi – Afinani egallagan bir paytda, kelishuvni imzolagan uchta davlat qo‘shinlari 1827 yil oktyabrda Navarin ko‘rfazida misrliklar flotini yo‘q qilib tashladi. Vujudga kelgan vaziyatdan unumli foydalanish

maqsadida 1828 yil bahorda Rossiya Turkiyaga urush e'lon qildi, Fransiya esa Moreyaga qo'shin kiritdi.

1828–1829 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi turk qo'shinlarining to'liq mag'lubiyati bilan yakunlandi. Osiyoda general Paskevich Erzurum qal'asini egallab, Turkiyaning hududiga ancha kirib bordi. Yevropada esa general Dibich 20 minglik armiyasi bilan Bolqonga keldi va Adrianopolni egallab, Istambulga xavf solib turardi. Poytaxt aholisi sarosimaga tushib qoldi. Yevropa davlatlarining elchilari Istambulga rus qo'shinlari kirishining oldini olish maqsadida Rossiya bilan sulh tuzilishi uchun faol harakat qildilar.

1829 yil 14 sentyabrda Adrianopol shahrida sulh imzolandi. Bu paytda chor hukumati Usmoniylar imperiyasini yo'q qilishning vaqti emas deb hisoblab, Porta siyosatiga Rossiya ta'sirini kuchaytirish bilan kifoyalanishni ma'qul ko'rdi. Shuning uchun Adrianopol sulhi urushgacha mavjud bo'lgan Rossiya – Turkiya chegarasiga kam o'zgartirish kiritdi. Gruziya va Armanistonning Turkiyadan olingan qismi, shuningdek, Qora dengiz qirg'oqlarining shimoli-sharqiy Rossiyaga tegishliligi to'liq e'tirof etildi. Ammo shartnomaning hududiy moddalari emas, siyosiy moddalari muhimroq edi. Porta Serbiya va Gresiyaga (Gresiya mustaqil qirollik deb tan olindi) avtonomiya berish majburiyatini oldi. Shuningdek, Moldaviya va Valaxiyaning alohida holati ta'kidlanib, bu knyazliklarning maqomini ishlab chiqish va ularning hukmdorlariga homiylik qilishda Rossiyaning ishtirok etish huquqi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, Porta Qora dengiz va uning bo'g'ozlarida Rossiya va boshqa davlatlarning savdo kemalari qatnoviga qarshilik qilmaslik majburiyatini oldi. Turkiyaga kontributsiya yuklatilib, u to'languncha Dunay qal'alarida Rossiyaning okkupatsiyachi qo'shinlari saqlanib turadigan bo'ldi.

Bu voqealarning eng muhim natijasi «usmoniylar merosi» uchun kurashning keskinlashuvi bo'ldi.

«Misr inqirozi»ning kelib chiqishi. Rossiya bilan urush tugagandan so'ng Turkiya Jazoir ustidan ham o'z hukmronligini yo'qotdi. 1830 yili fransuzlar Jazoirga qo'shin tushirdi va u Fransiya mustamlakasiga aylandi. Keyin o'z rejalarini amalga oshirish uchun sharoitni ma'qul hisoblagan Muhammad Ali ham sultonga qarshi chiqdi. U ma'lum darajada Fransiyaning qo'llashiga erishgan edi.

Kuzda Ibrohim posho boshchiligidagi Misr qo'shinlari yurish boshladilar. Ular Akka qal'asini egallab, Suriyaga kirib bordilar. Ma-

halliy arab aholisi ham misrliklarni qo‘llab-quvvatladi. 1832 yilning bahor-yoz oylarida Ibrohim posho butun Suriyani (Falastinni ham), Kilikiyani egalladi va Tavr daryosidan o‘tib Anatoliyaga kirib keldi. 1832 yil dekabrda Konya yaqinidagi jangda sulton armiyasi tor-mor qilindi, buyuk vazir asir olindi. Istanbulga yo‘l ochildi.

Sultonni Rossiyaning aralashuvi qutqarib qoldi. Nikolay I ning fikricha Muhammad Alining Istanbul taxtini egallashi Usmoniylar imperiyasida fransuzlarning ta’sirini kuchaytirib yuborar edi. Bundan tashqari, Rossiya uchun Bosfor qirg‘oqlarida Muhammad Ali boshchiligidagi yangilangan, kuchli imperiyadan ko‘ra, sultonning kuchsiz hokimiyati turgani ma’qul bo‘lardi. Shu sababli Rossiya sultonga o‘z yordamini taklif qildi, sulton esa ilojsizlikdan buni qabul qildi.

1833 yili fevralda rus qo‘shinlari Bosfora kirib, misrlik qo‘shinlarning Istanbulga borish yo‘lini to‘sganidan so‘ng, Angliya aralashuvida Muhammad Ali bilan muzokaralar boshlandi. Natijada 1833 yil mayda sulton bilan Muhammad Ali o‘rtasida kelishuv imzolanib, unga ko‘ra Muhammad Ali Misr, Suriya, Falastin va Kilikiya ustidan o‘z boshqaruvini saqlab qoldi. Buning evaziga u Anatoliyadan qo‘shinlarini olib ketish va sultonning syuzerenitetini¹ rasman tan olish majburiyatini oldi.

Rus desant qismlari Turkiyadan Rossiyaga qaytib ketishidan oldin, 1833 yil 8 iyulda Hunkar-Iskelesi deb nomlangan rus-turk ittifoq shartnomasi imzolandi. Unga binoan, ehtiyoj tug‘ilganda sultonning talabiga ko‘ra rus hukumati zarur sondagi o‘z qo‘shinlarini sulton ixtiyoriga berishi lozim edi. O‘z navbatida, shartnomaning maxfiy protokoliga ko‘ra sulton chet el harbiy kemalari uchun Dardanell bo‘g‘ozini yopish majburiyatini oldi.

Hunkar-Iskelesi shartnomasini Yevropa davlatlari Rossiyaning kuchayishi uchun asos deb hisoblab, unga norozilik bildirdilar. Ayniqsa Angliya va Fransiya o‘z noroziliklarini Turkiya qirg‘oqlarida harbiy-dengiz kuchlarini namoyish qilish bilan bildirdilar. Bundan Avstriya ham xavotirga tushib qoldi. Ammo chet davlatlarning noroziligiga qaramasdan rus-turk shartnomasi bekor qilinmadi.

¹ *Сюзеренитет* – сюзеренларнинг ўз вассалларига нисбатан олий ҳуқуқи.

Mahmud II islohotlari. Chet el kapitali ekspansiyasining¹ kuchayishi. Salim islohotlaridan Mahmud islohotlarigacha o'tgan o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida Usmoniylar imperiyasining iqtisodiy hayotida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Imperiyaning iqtisodiyoti umuman feodal xarakterini saqlab qolgan bo'lsa-da, Bolqonda, Suriyada, Misrda va G'arbiy Anatoliyada tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi tezlashdi.

Rum va Anatoliyaning g'arbidagi turk feodallari o'z dehqonlarini barshchina va yarim feodal korandachilik asosida ekspluatatsiya qilar edi. Bu pomeshchiklar orasida savdo-sudxo'rlik tabaqasi vakillari tobora ko'payib, bozor bilan yaqin aloqada edilar va shu sababli o'zaro feodal urushlarning to'xtatilishi hamda markaziy hokimiyatning kuchayishi tarafdorlari edi. Aynan shu feodallar Mahmud II islohotlarining asosiy tayanchi bo'ldi.

Islohotlarini harbiy sohadan boshlagan Mahmud II 1826 yil may oyi-da chet ellik ofiserlar yordamida yangi qo'shin tashkil qilish to'g'risida farmon imzoladi. Kutilganidek, oradan bir oy o'tgach, 1826 yil iyunda yanicharlar isyon ko'tardilar. Mahmud uchun bu kutilmagan hodisa emasdi, aytish mumkinki, uning o'zi yanicharlarni bir yo'la tugatish maqsadida ularni bu qo'zg'olonga undadi. Yanicharlarni jazolash bir necha kun davom etdi, bu juda dahshatli va qonli bo'ldi. O'n minglab yanicharlarning jasadlari Marmar dengizi va Bosforga uloqtirildi.

Islohotlarning keyingi bosqichi asosan quyidagilarni amalga oshirishga qaratildi: harbiy-len tizimini bekor qilish (1834), katta qiyinchilik tug'dirayotgan ichki bojxonalarga barham berish, viloyatlar hokimlarining to'g'ridan-to'g'ri sultonga bo'ysunishini ta'minlaydigan yangi boshqaruv tizimini joriy qilish. Bu turk feodallari sultonni qo'llaydigan, yetarli majburlash kuchiga ega bo'lgan viloyatlarga tegishli bo'lib, chekka o'lkalar amalda mustaqil bo'lgan hukmdorlar va noiblar qo'lida qolaverdi.

Hukumatdagi eski lavozimlar o'rniga 1836–1838 yillari yevropacha tipdagi ichki ishlar, tashqi ishlar, moliya vazirliklari tashkil qilindi. 1826 yili Istambulda harbiy-tibbiyot bilim yurti ochildi, 1832 yildan turk tilida birinchi gazeta – «Voqealar kundaligi» nashr qilina boshladi.

¹*Экспансия* – империалистик давлатларнинг янги хуудларни босиб олишга интилиши. Сиёсий, иқтисодий ва ҳарбий экспансия каби турлари мавжуд.

O'zgarishlarning eng muhimi harbiy-len tizimini bekor qilish bo'ldi. Ammo islohot oxirigacha yetkazilmadi. Burjuacha-kapitalistik rivojlanish yo'lida muhim to'siqlardan biri, avvalgidek, xususiy mulkning moliyaviy ta'minlanmaganligi bo'lib, bu asosan burjuaziyaga tegishli edi. Mahmud II mulkni musodara qilish tizimini rasman bekor qildi, amalda esa o'zboshimchalik va zo'ravonlik davom etaverdi. Turk va boshqa millat (grek, arman) savdo burjuaziyasi katta sarmoyaga ega bo'lsada, uni sanoatga joylashtirish imkoniyatiga ega emasdi.

Turkiyada kapitalizmning rivojlanishiga yana bir to'siq tobora kuchli kirib kelayotgan chet el kapitali edi. Maxmud II bunga nafaqat qarshilik qildi, balki uni rag'batlantirdi ham.

1830-yillardan kapitalistik davlatlarning Osiyo bozorlariga keng ko'lamda kirib kelishi boshlandi. Kapitulyatsiya rejimi bilan bog'langan Turkiya ham bu jarayonga qarshilik qila olmadi. 1838 yili Angliya Portani savdo konvensiyasi imzolashga majbur qildi. Unga ko'ra Turkiyaga olib kiriladigan barcha ingliz tovarlariga qiymatining 5% i miqdorida boj solig'i o'rnatildi. Natijada turklarning kosibchilik sanoati narxi arzon bo'lgan chet el tovarlari bilan raqobatlashish uchun oxirgi imkoniyatidan mahrum bo'ldi.

Tanzimatning boshlanishi. 1840 yilgi London konferensiyasi. Turkiyaning G'arb davlatlariga qaramligining kuchayishi faqat iqtisodda emas, siyosiy sohada ham namoyon bo'ldi. Inglizlar savdo konvensiyasi tuzar ekanlar, turklar bozorini iqtisodiy bo'ysundirishdan boshqa maqsadlarni ham ko'zlagan edi: Porta bilan konvensiyani tan olishni istamayotgan Misr poshosi o'rtasida mojaro keltirib chiqarish, sultonni Muhammad Aliga qarshi qo'yish, Misr va boshqa Arab mamlakatlarini bo'ysundirish va bir yo'la, Turkiyani Rossiya bilan ittifoqchilikdan chiqarish.

1839 yil mayda sulton o'z qo'shinlariga Muhammad Aliga qarshi yurish boshlashni buyurdi. Ammo natija Porta uchun halokatli bo'ldi. 24 iyun kuni shimoliy Suriyaning Nizib degan joyida bu urushning birinchi va oxirgi jangi bo'ldi. Sulton qo'shinlari butunlay tor-mor qilindi. Bir necha kundan keyin Mahmud II vafot etdi. Shundan keyin Misr portiga jo'natilgan turk floti Muhammad Ali tomoniga o'tib ketdi. Shunday qilib Turkiya bir yo'la armiyasi, floti va sultonidan ayrildi. Taxtga kelgan 16 yoshli Abdul Majid faqat yosh bo'lganligi uchungina emas, tug'ma aqli zaifligi sababli ham imperiyani real boshqarishga da'vo qilolmas edi. Fransiya tomonidan

qo‘llab-quvvatlanayotgan Muhammad Ali Usmoniylar imperiyasini o‘ziga bo‘ysundirish umidida regentlikka da’vo qilayotgan edi. Bunga qarshi Angliya va Avstriya yangi sultonni qo‘llashini e‘lon qildi. Bu davlatlarning bosh vazirlari Palmerston va Metternix Rossiyaning xufiya kelishuvi oldini olish maqsadida Turkiya ishlariga Yevropa davlatlarining jamoa bo‘lib aralashuvini taklif qildilar. Nikolay I bu taklifni qabul qildi. U ingliz-fransuz ziddiyatlarini yanada chuqurlashtirishni ko‘zlab, Hunkar-Iskelesi shartnomasining foydasidan voz kechishga qaror qildi. 1839 yil iyulda Porta Muhammad Ali bilan muzokaralarga kirishmaslik va Yevropa davlatlari o‘z qarorlarini qabul qilmaguncha o‘zboshimchalik bilan biron-bir qadam qo‘ymaslik talabi bildirilgan notani oldi. Bu Palmerstonning ikki bor g‘alabasi edi: Hunkar-Iskelesi shartnomasi barham topdi, Turkiya esa ochiqdan-ochiq G‘arb davlatlarining vasiyligi ostiga o‘tdi.

Ana shunday og‘ir sharoitda Turkiyaning hukmron doiralari islohotlar yo‘li bilan imperiyani halokatdan saqlab qolish uchun bu safar ancha jiddiy harakat boshladilar. Islohotlarsiz imperiya tarkibidagi turk bo‘lmagan xalqlarning ozodlik harakatlarini bostirish, xalq ommasining noroziligini pasaytirish va Usmoniylar imperiyasining butunligini saqlab qolish mumkin emasdi. Bu qarashning tarafdorlari Mustafo Rashid posho boshchiligidagi kichik, ammo nufuzli, yevropacha ta‘lim olgan turk feodal byurokратiyasi edi. Mustafo Rashid posho tayyorlagan memorandum «Tanzimat»¹ nomi bilan ma‘lum bo‘lgan islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Sultondan xatti-sharif ko‘rinishidagi rozilik xatini olgan Rashid posho, 1839 yil 3 noyabr kuni sulton saroyining Gulxona deb atalmish bog‘ida, vazirlar, ulamolar, diplomatik korpus vakillari, shuningdek, musulmon bo‘lmagan diniy jamoalar boshliqlari guvohligida o‘zi tayyorlagan hujjatni e‘lon qildi.

Gulxona xatti-sharifida ta‘kidlanadiki, «so‘nggi bir yuz ellik yil ichida turli voqealar va har xil sabablar shunga olib keldiki, muqaddas qonunlar va ulardan kelib chiqadigan qoidalar avvalgidek qo‘llanilmay qoldi, mamlakat qudrati va ichki farovonlik zaiflik va kuchsizlikka aylandi».

Shu munosabat bilan memorandumda «yangi nizomlar o‘rnatish yo‘li bilan Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kiruvchi viloyatlarga

¹Арабча «танзим» сўзидан олинган бўлиб, «тартиб ўрнатиш» маъносини билдиради.

yaxshi boshqaruvning foydasini» ko‘rsatishga va‘da berildi. Yangi nizomlar o‘rnatilishi asosan quyidagilardan iborat bo‘lishi ko‘zda tutildi: 1) qaysi dinda bo‘lishidan qat’i nazar imperiyaning barcha fuqarolarini hayot, qadr-qimmat va mulk daxlsizligi bilan ta‘minlash; 2) muntazam badal undirish va taqsimlashni, otkup¹ tizimini bekor qilish; harbiy xizmatga adolatli chaqirish va uning aniq muddatini o‘rnatish. Mohiyati jihatidan bu aslida burjuacha talablar bo‘lib, hayot va mulk kafolatiga birinchi navbatda savdo burjuaziyasi muhtoj edi.

Tanzimatning ushbu dastlabki akti adliya, ma‘muriy qurilish, maorif, moliya, harbiy va boshqa sohalardagi bir qator keyingi islohotlar uchun muqaddima bo‘lib xizmat qildi. Ammo Tanzimat qoloq imperiyaning chuqur ichki va tashqi qiyinchiliklarini hal etmadi, hal etishi mumkin ham emasdi. Tanzimat mustahkam ijtimoiy tayanchga ega emasdi. Uni quvvatlagan pomeshchiklar turk feodal sinfining kichik qatlami edi xolos. Bundan tashqari u ko‘plab turk bo‘lmagan millatlarning ham ehtiyojlarini qondirolmas edi. Tanzimat Turkiyaning mustaqil siyosat yuritish imkoniyatini ham mustahkamlamadi.

Porta o‘zining Muhammad Ali bilan ziddiyatini ham mustaqil hal qila olmadi. 1840 yil 15 iyulda Turkiyaning Londondagi elchisi Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya vakillari bilan konvensiya imzoladi. Konvensiya ushbu davlatlarning «Usmoniylar imperiyasi butunligi va mustaqilligi ustidan» kuzatishini e‘lon qildi, ya‘ni Turkiyani bu to‘rtta davlatga qaram holatga solib qo‘ydi. Konvensiyaning asosiy mazmuni Muhammad Aliga ultimatum talablarini qo‘yishdan iborat bo‘lib, agar u ushbu talablarni qabul qilmasa, yuqoridagi davlatlar sultonga harbiy yordam ko‘rsatishi aytilgan edi.

Aslida konvensiya Turkiya manfaatlarini emas, G‘arb davlatlari, birinchi o‘rinda Angliyani himoya qilardi. Inglizlar ushbu ayyorona diplomatik qadam bilan Fransiyani voqealardan chetlashtirdi, Muhammad Aliga qarshi kollektiv harbiy harakatlarga Nikolay I ning roziligini oldi, rus harbiy kemalari uchun bo‘g‘ozlar yopildi, Rossiya va Avstriya yordamida Misrning mustaqilligini tugatdi va O‘rta Yer dengizininig strategik yo‘llarida o‘zi o‘rnashib oldi. Turkiya masalasi-da Rossiya bilan Angliya siyosatining farqi shunda ediki, ruslar Turkiyaning Yevropa davlatlari o‘rtasida bo‘lib olinishi orqali Sharq

¹Откуп – ижара, бирор турдаги солиқ ундириш ҳуқуқини давлатдан сотиб олиш.

muammosini hal qilmoqchi bo‘lsalar, inglizlar bu masalani Turkiyani to‘liq egallab olish orqali hal qilishga umid qilardilar.

Muhammad Ali London ultimatumini qabul qilishdan bosh tortganidan so‘ng 1840 yil kuzda Angliya-Avstriya birlashgan floti Bayrutni, Suriya portlarini va Aleksandriyani bombardimon qildi. Misr taslim bo‘ldi. Muhammad Ali Misr va Sudan ustidan o‘zining merosiy egalik huquqini saqlab qoldi, ammo Krit, Arabiston, Suriya, Falastin va Kilikiyadan ayrildi, sultonga flotini qaytarib berish, armiyasini 18 ming kishigacha qisqartirish, verflar¹ va arsenallarini² yo‘q qilish, 1838 yilgi ingliz-turk konvensiyasini Misrga ham joriy qilish, ya’ni ingliz tovarlari uchun mamlakatni ochish, sultonga o‘lpon to‘lash majburiyatlarini oldi. Bu aslida Muhammad Alining barcha rejalari, umrining mazmuniga aylangan ishlarining barbod bo‘lishi edi.

Misr inqirozining muhim natijasi 1841 yil 13 iyulda Londonda bo‘g‘ozlar to‘g‘risida xalqaro konvensiyaning imzolanishi bo‘ldi. Bir tomondan Yevropa davlatlari – Angliya, Rossiya, Fransiya, Avstriya va Prussiya, boshqa tomondan – Turkiya Dardanell va Bosfor bo‘g‘ozlari «Porta tinchlik holatida turgan paytlarda chet el harbiy kemalari uchun doimiy yopiq bo‘lishi» to‘g‘risida konvensiya imzoladilar. Bu bilan Angliya o‘zining Rossiya ustidan diplomatik g‘alabasini mustahkamladi: bo‘g‘ozlar rejimi endi Rossiya bilan Turkiyaning ikki tomonlama keli-shuvi asosida emas, Qora dengizda hududga ega bo‘lmagan davlatlarning ko‘p tomonlama konvensiyasi bilan tartibga solinadigan bo‘ldi. Yevropa «katta siyosatiga» qaytgan Fransiya Angliya bilan Turkiyaning Rossiyaga qarshi harakatlariga ko‘maklasha boshladi.

Misr inqirozi bartaraf qilinib, taxtga bevosita xavf yo‘qolgandan keyin turk hukmron doiralarining islohotlarga qiziqishi ham so‘ndi. Albatta islohotlar mamlakat ijtimoiy hayotiga ma’lum jonlanish baxsh etdi, xalq ta’limini bir oz yaxshiladi. Ayniqsa diniy maktablar bilan bir qatorda dunyoviy maktablarning ham ochilishi va 1847 yili maorif vazirligining joriy qilinishi islohotlarning muhim jihati bo‘ldi. Biroq Tanzimat qonunchilik sohasining faqat yuzaki qisminigina o‘zgartirib, davlat va jamiyat tuzilishidagi chuqur nuqsonlarni bartaraf qila olmadi. Otkup tizimi bekor qilinmadi, hayot va mulk daxlsizligi faqat

¹ *Верфь* – кемалар куриладиган ёки таъмирланадиган корхона.

² *Арсенал* – курул-яроқ омбори; ўқ-дори ва курул-яроқ ишлаб чиқариладиган ёки таъмирланадиган корхона.

qog'ozdagina qolib ketdi, musulmonlar bilan musulmon bo'lmaganlarning huquqiy tengsizligi saqlanib qoldi. Shu sababli Tanzimatni keng xalq ommasi qo'llab-quvvatlamadi.

Qrim urushi (1853–1856) va uning Turkiya uchun oqibatlari. Tanzimatning ikkinchi davri. Shunday bir sharoitda Nikolay I usmoniylar merosidan o'z ulushini olish vaqti keldi, deb hisoblaydi. 1853 yil mayda Turkiyadagi barcha pravoslav xristianlarga Rossiyaning homiylik qilish huquqini tan olish to'g'risida Portuga ultimatum topshiriladi. Nikolay I G'arb davlatlari bilan osonlikcha kelishmoqchi bo'ldi, ammo ularning birortasi ham Usmoniylar imperiyasining bo'linishi va Rossiyaning kuchayishini istamasligini hisobga olmadi. Porta ultimatumni rad etdi va 1853 yil kuzda urush boshlandi. Sinop jangida admiral Naximov tomonidan turk floti tor-mor qilindi. Shunda Angliya va Fransiya urushga qo'shilib, Qora dengizga o'z harbiy kemalarini kiritdilar. Shu tariqa rus-turk urushi Yevropa urushiga aylandi.

Bu urushda Turkiya bo'ysunuvchi rolini o'ynadi. 1854 yili Porta ingliz bankirlaridan o'ta og'ir shartlar bilan birinchi qarzni oldi. Birinchisidan keyin yana qarzlarni bo'lib, ular Turkiyani asoratga solishning quroliga aylandi. Shu yili ingliz-fransuz-turk ittifoq shartnomasi imzolangan bo'lib, u Turkiyaga Rossiya bilan separat muzokaralar olib borishni taqiqlaydi. 1854 yil rus armiyasi Dunay knyazliklarini tashlab chiqqanida, urush Turkiya uchun o'z mazmunini yo'qotgan edi.

1856 yil 30 mart kuni Parijda imzolangan sulh Turkiyaning ahvolini yanada og'irlashtirdi. Tashqaridan qaraganda turklar g'olib bo'lib ko'rinardi. Parij traktatiga ko'ra Rossiya janubiy Bessarabiyaning yo'qotdi, Qora dengizda harbiy flot qal'alarga ega bo'lish huquqidan ayrildi, sulton Serbiya, Moldaviya va Valaxiya ustidan syuzerenitetni saqlab qoldi. Bundan tashqari, Angliya, Fransiya va Avstriya o'zaro alohida shartnoma imzolab, Usmoniylar imperiyasi hududiy yaxlitligiga har qanday tahdidni shartlashuvchi davlatlar urush uchun bahona deb qarash majburiyatini oldilar.

Urushda Rossiya mag'lubiyatga uchradi. Ammo Turkiya ham g'alaba qozonmadi. Hatto rasman ham Parij traktati «Qora dengizning neytralligini» belgiladi, Rossiyaga qo'yilgan cheklovlar Turkiyaga ham joriy qilindi. Turkiyaning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi prinsipi faqat Rossiyaga qarshi qaratilgan bo'lib, G'arbiy Yevropa davlatlarining Turkiya ichki ishlariga aralashishiga xalaqit bermadi. 1859 yili inglizlar va fransuzlar eskadrasi Hijozning Jidda portini bombardimon qildilar,

1860 yili fransuzlar Liviyaga, Bosniya va Gersegovinaga, 1866–1868 yillari Kritga harbiy intervensiyani amalga oshirdilar.

1856 yilgi xatti-humoyun. Parij traktatining Turkiyaga faxrlidek bo‘lib ko‘ringan, uni Yevropa davlatlari «konsertiga» qo‘shish haqidagi qarori aslida halokatli oqibatlarga olib keldi. Bunda G‘arbning kapitalistik davlatlari avvalo o‘zlarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlagan edilar.

1856 yil 18 fevralda e‘lon qilingan va xatti-humoyun deb atalgan sulton yorlig‘i aslida G‘arb davlatlarining Turkiya ustidan hukmronligini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, Istambuldagi va boshqa port shaharlardagi turk bo‘lmagan burjuaziya vakillari uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish orqali chet el kapitalining Turkiyaga kirib kelishini yengillashtirar edi.

1856 yil kapitali to‘liq inglizlar va fransuzlarga tegishli bo‘lgan Usmon bankini ta‘sis qilish to‘g‘risida qonun e‘lon qilindi. Bank juda katta imtiyozlarga ega edi: u banknotlar¹ chiqarish va emissiya² huquqini oldi, barcha soliq va yig‘imlardan ozod qilindi, butun mamlakatni o‘z filiallari bilan o‘rab oldi, o‘zining monopol holatidan foydalanib, faqat tashqi savdoni emas, Turkiya ichki savdosining ham katta qismini o‘z nazoratiga oldi.

Tanzimatning bu davrida (1856–1870) qabul qilingan muhim qonunlardan harbiy-len tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan yer egaligi doirasini kengaytirgan yer kodeksi va chet elliklarga yerga egalik qilish huquqini beruvchi qonun bo‘ldi. Shu davrda Porta chet ellik kapitalistlarga Izmir-Oydin, Izmir-Kasaba, Istanbul-Edirna temir yo‘llarini qurish va keyinchalik ularni Yevropa temir yo‘l tizimi bilan bog‘lash uchun konsessiya ham berdi.

Bunday sharoitda Usmoniylar imperiyasining tashqi qarzi to‘xtovsiz o‘sib bordi. 1856 yili 75 mln frankdan boshlangan qarz 1870 yili 2,5 mlrd ni tashkil qildi. Shundan 1,5 mlrd naqd olingan qarz bo‘lsa, qolganini qarzlilar bo‘yicha protsentlar tashkil qildi. Qarzlilar evaziga Turkiya chet elliklarga bojxona va boshqa daromadli joylarni berishga ham majbur bo‘ldi.

¹*Банкнот* – банк томонидан чиқариладиган ва пул ўрнида юрадиган процентсиз кредит билетлари.

²*Эмиссия* – қимматли қоғозлар ва қоғоз пул чиқариш.

Shunday qilib Tanzimatning ikkinchi davridagi islohotlar Usmoniylar imperiyasidagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotni o'zgartira olmadi. Tanzimat mamlakatda sanoat rivojlanishi uchun sharoit yaratmadi.

Ma'rifatchilik va konstitutsiya uchun harakatning paydo bo'lishi. «*Yangi usmoniylar*». Mamlakatda feodal qoldiqlarning saqlanib qolayotganligiga qaramasdan burjua munosabatlari ham rivojlana boshlagan, bozor munosabatlari aholining ko'plab qatlamini qamrab olayotgan edi. Ammo burjua munosabatlarining jadal rivojlanishi uchun feodal qoldiqlar, sanoatni egallab olgan chet el kapitali, komprador burjuaziya to'siq bo'layotgan edi. 1870-yillari jamiyatning ilg'or qatlamlari orasida mavjud holatga qarshi norozilik kayfiyati shakllana boshladi. Kelib chiqishi feodal bo'lsada, g'oyasi burjuacha bo'lgan ziyolilar bu norozilikning ifodachilari bo'ldilar. Mahmud II islohotlari va tanzimat dunyoviy ta'limga, siyosiy va madaniy hayotning rivojlanishiga, 1860-yillari turk adabiyoti va publisistikasining paydo bo'lishiga yo'l ochdi.

Shakllanayotgan yangi turk adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari – Ibrohim Shinasi, Namiq Kemal, Ziyobey va boshqalar birinchi turk ma'rifatparvarlari bo'ldilar. Ular «Usmoniylar ma'rifat jamiyati» va «Kitobsevarlar jamiyati»ni tashkil qildilar. Bu ma'rifatchilik tashkilotlari, shuningdek, Ibrohim Shinasi tashkil qilgan «Tasvar iefkyar» («G'oyalar ifodachisi») gazetasi jamiyatni yangi g'oyalar va tushunchalar bilan tanishtirdi. Bu jumladan, turk adabiy tilida «vatan», «millat», «vatanparvarlik», «inqilob» kabi yangi so'zlarning paydo bo'lishida ham aks etdi. Umuman olganda, bu o'zgarishlar turk aholisidan burjua millatining shakllanish jarayoni boshlanganidan, milliy ongning o'sganligidan dalolat beradi.

1865 yili Istambulda maxfiy siyosiy tashkilot tuzilib, o'z oldiga Turkiyada konstitusion tuzum joriy qilinishiga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Tashkilot 250 ga yaqin a'zoga ega bo'lib, ularning orasida dramaturg Namiq Kemal hamda boshqa yozuvchi va jurnalistlar vakillari bilan bir qatorda amaldorlar, ofiserlar va savdo burjuaziyasi vakillari ham bor edi. Tashkilot a'zolari o'zlarini «yangi usmoniylar» deb atadilar. Yevropada bu tashkilot «Yosh Turkiya», uning ishtirokchilari – «yosh turklar» nomini oldilar.

«Yosh turklar» sulton Abdul Azizni konstitutsiya qabul qilishga ishontirish yoki majbur qilish umidida edilar. 1865 yili ular tashkil-lashtirgan fitna tez orada fosh qilindi. «Yosh turklar»ning bir qismi

qamoqqa olindi, ba'zilari chet elga qochib ketdi. Ularga xayrixoh bo'lganlar ham ta'qib va qatag'onga uchradilar.

1875–1876 yillardagi Bolqon inqirozi. 1870-yillarga kelib usmoniylar hukumatining navbatdagi islohotchilik kursi ham puchga chiqqanligi aniq bo'lib qoldi. Barcha harakatlarga qaramasdan XIX asrning oxirgi choragiga kelib Turkiya yarim mustamlaka, chet el kapitaliga qaram mamlakatga aylangan edi. Agar Fransiya-Prussiya urushigacha Turkiya asosan Angliya va Fransiya nazorati ostida bo'lsa, endi Usmoniylar merosi masalasiga Germaniya bilan Avstro-Vengriya ham qo'shildi.

Inqiroz ayniqsa Bolqon yarimorolida, uning turklar qo'l ostidagi viloyatlarida keskin namoyon bo'ldi. Bu yerlarda milliy-ozodlik harakatlari ancha kuchli edi. 1875 yil yozda Gersegovinada, keyin esa Bosniyada xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Turkiya hukumati jazo otryadlarini jo'natib, bu yerda qirg'in uyushtirdi. Qo'zg'oloni bostirish uchun ketgan xarajat moliyaviy inqirozga olib keldi: 1875 yil oktyabrda hukumat moliyaviy bankrotlik e'lon qildi. Usmoniylar hukumati mamlakatda o'sib borayotgan xalq noroziligini musulmon fanatizmi o'zaniga yo'naltirishga harakat qildi va xristian aholini qirg'in qilish uchun ig'vo uyushtirdi. Tartibsizliklar chog'ida Salonikida fransuz va nemis konsullari o'ldirildi.

Qo'zg'olon, qirg'inlar va Salonikidagi voqealardan G'arb davlatlari Usmoniylar imperiyasiga navbatdagi bosim o'tkazish maqsadida foydalandilar. 1856 yilgi Parij traktatini imzolagan davlatlar 1876 yil yanvarda Turkiyadan Bosniya va Gersegovinada zudlik bilan islohot o'tkazishni talab qildilar. Sulton hukumati bu talabni qondirishga rozilik bildirdi. Ammo davlatlarning da'volari chuqurlashib bordi. Natijada vujudga kelgan sharoit faqat Usmoniylar imperiyasida ichki inqiroz emas, xalqaro inqirozni ham keltirib chiqardi.

«Yosh turklar» to'ntarishi va «Midxat konstitutsiyasi». 1871 yili sulton Abdul Azizning bosh vaziri Maxmud Nadim posho «yosh turklar»ning avf etilishiga erishdi. Aslida bu chalg'ituvchi fitna bo'lib, «yosh turklar»ni chet ellardan qaytarish va ular ustidan nazorat o'rnatish uchun o'ylab topilgan edi. 1873 yili jamiyat legal holatga o'tishi bilan yana tormor qilindi, Namiq Kemal va boshqa a'zolari qamoqqa olindi.

1876 yili mayda yosh turklar yana faollashib qoldilar. Ular murojaat e'lon qilib, vakillar palatasini yig'ish va Abdul Azizni boshqa sulton bilan almashtirishga chaqirdilar. Bundan bir qator boy doira-

larning vakillari ham manfaatdor edilar va ular o‘z tomoniga davlat arboblardan biri – Midxat poshoni og‘dirishga erishdilar. Midxat posho liberal pomeshchiklar va shakllanayotgan burjuaziya manfaatlarini ifoda etardi. U Usmoniylar imperiyasini saqlab qolish uchun chuqur islohotlar o‘tkazish zarurligini tan olardi va xalq ommasiga nisbatan terrorni keng qo‘llashga ham tayyor edi.

1876 yil 22 mayda Istambulda juda katta namoyish boshlandi. Unda musulmon diniy maktablarining o‘quvchilari, savdogarlar, hunarmandlar va shahar kambag‘allari qatnashdi. Sulton saroyi oldida 40 mingdan ziyod namoyishchilar yig‘ildi va ular talabi ostida sulton buyuk vazir Nadim posho va bir qator hukumat a‘zolarini almashtirishga majbur bo‘ldi. Yangi hukumat tarkibiga Midxat posho ham kirdi.

Xalq harakatining ko‘lami faqat sultonni emas, «yosh turklar»ning o‘zlarini ham qo‘rqitib yubordi. Xalqning yangi inqilobiy chiqishlari oldini olish maqsadida «yosh turk»lar saroy to‘ntarishi taktikasini qo‘lladi.

1876 yil 30 may kechasi Abdul Aziz taxtdan ag‘darildi va keyin o‘zini o‘zi o‘ldirdi deb e‘lon qilindi. Bir oz vaqt taxtda Midxat poshoning odami hisoblangan ruhiy kasalmand Murod V o‘tirdi. Keyin yangi kelishuvga erishildi: taxtga boy feodallar va ruhoniylarga ma‘qul bo‘lgan Abdul Hamid keldi, Midxat posho esa buyuk vazir lavozimini egalladi va bo‘lg‘usi konstitutsiya loyihasini tayyorlashga ruxsat oldi.

Yosh turklarga bunday yon berish imperiyaning og‘ir ahvolidan kelib chiqqan edi. Sulton Abdul Hamid ham shu sababli konstitutsiyani qabul qilishga majbur bo‘ldi.

1876 yil 23 dekabrda qabul qilingan «Midxat konstitutsiyasi» Turkiyani konstitusion monarxiya deb e‘lon qildi. U ikki palatali parlament tuzilishini ham ko‘zda tutgandi. Deputatlar palatasi yuqori mulkiy senz asosida saylovchilar tomonidan saylanardi, senatorlar esa sulton tomonidan umrbod muddatga tayinlanardi. Imperiyaning barcha fuqarolari, Bolqondagi xristian aholisi ham, usmoniylar deb atalib, qonun oldida teng hisoblanadi. Ammo davlat tili deb turk tili, davlat dini deb esa islom dinining e‘lon qilinishi, turk va musulmon bo‘lmagan aholining qonun oldida tengligini ta‘minlamayotgan edi. Konstitutsiya sulton hokimiyatini deyarli to‘liq saqlab qoldi. U avvalgiday vazirlarni tayinlashi va bo‘shatishi, urush e‘lon qilishi va sulh tuzishi, harbiy holat e‘lon qilishi va qonunlarning faoliyatini to‘xtatishi mumkin edi. Bu konstitutsiya o‘zining barcha kamchi-

liklariga qaramasdan agar hayotga tatbiq etilganda o'sha davrdagi Turkiya uchun progressiv ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi. Konstitutsiya Yevropa davlatlarining konferensiyasi ochilishiga bag'ishlandi. Sulton konstitutsiyaning e'lon qilinishi konferensiyaning ochilishini keraksiz qilib qo'yadi, deb o'ylagan edi, ammo bunday bo'lmadi. Angliya tomonidan zimdan qo'llab-quvvatlangan Turkiya Bolqonda islohotlar o'tkazish to'g'risidagi Yevropa davlatlari taklifiga rozi bo'lmadi. Bu hol rus-turk munosabatlarini yanada murakkablashtirdi. 1877 yil boshida konferensiya yopildi. Rossiya Turkiya bilan urushga tayyorlana boshladi.

Konferensiyadan keyin konstitutsiya va uning muallifi Midxat posho sultonga boshqa kerak bo'lmay qoldi. Avvaliga Midxat posho sultonning buyrug'iga ko'ra o'lim jazosiga hukm qilindi, ammo Arabistonning talabiga ko'ra u mamlakatdan surgun qilindi. Namiq Kemal va «yosh turklar»ning boshqa arboblari ham imperiyaning uzoq hududlariga surgun qilindi.

XX asr arafasida imperiya. Rossiya – Turkiya urushi 1877 yil bahorda boshlandi. Urush boshlangandan so'ng Ruminiya parlamenti mamlakatni mustaqil deb e'lon qildi (1877 yil 9 may) va Rossiya tomonida urushga kirdi. Porta aslida bu urushga uni da'vat etgan Angliyaning yordamiga ishongan edi, ammo hech qanday yordam bo'lmadi. Rus qo'shinlari Dunaydan o'tdi, Osiyoda esa Armaniston chegaralariga kirib keldi. 1878 yil boshida Turkiyaning harbiy holati og'ir, armiya tor-mor qilingan, ruslar imperiya poytaxtiga yaqinlashayotgan edi. Sulton Abdul Hamid esa bu halokatli holatdan parlamentni tarqatib yuborish va «Midxat konstitutsiyasi»ni bekor qilishda foydalandi. Deputatlarning bir qismini qamoqqa olib, mamlakatni yakka o'zi boshqarishini e'lon qildi.

1878 yil martda Istambul yaqinidagi San-Stefano degan joyda ruslar bilan sulh imzolandi. Uning asosiy sharti mustaqil Bolgariya davlatini tuzish bo'ldi. Angliya va boshqa G'arb davlatlari Rossiya pozitsiyasining kuchayishidan xavfsirab, Berlinda kongress chaqirish va San-Stefano sulhining shartlarini qayta ko'rib chiqilishiga erishdilar. Ammo Rossiyaning g'alabasini inobatga olib, kelishuv yo'lini izlashga majbur bo'ldilar.

Berlin kongressining qaroriga ko'ra Shimoliy Bolgariya vassal knyazlikka (amalda mustaqil) aylandi, Janubiy Bolgariya esa avtonomiya huquqini oldi. Sulton Serbiya, Chernogoriya va Ruminiyaning

to'liq mustaqilligini tan oldi. Batumi, Kars va Ardagan Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi, Qrim urushi natijasida boy berilgan Bes-sarabiyaning janubiy qismi ham unga qaytarildi.

Turkiya iqtisodiy qaramligining kuchayishi. Berlin kongressidan so'ng Turkiya batamom Yevropa davlatlarining yarim mustamlaka-siga aylandi. Hali kongress arafasida Angliya Krit orolini bosib oldi. Kongress Bosniya va Gersegovinaning Avstriya tomonidan okkupatsiya qilinishiga sanksiya berdi. 1881 yili Fransiya Tunisni egallab oldi (qo'shni Jazoir bundan ellik yil oldin zabt etilgandi). 1892 yili Angliya Misr ustidan o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Berlin kongressidan keyin Turkiyani iqtisodiy qaram qilish jarayoni ancha kuchaydi. Usmoniylar imperiyasining kapitalistik davlatlar tovarlari uchun bozor va xomashyo bazasi sifatidagi ahamiyati ham oshdi. 1880 yildan 1890 yilgacha Yevropa davlatlariga Turkiya eksporti 1,5 marta oshdi va endi u faqat xomashyodan tashkil topdi.

Imperiyani moliyaviy qaram qilish ham yakunlandi. Berlin traktati Turkiyaga 800 mln frank kontributsiya to'lash majburiyatini yukladi. 1879 yili sulton hukumati navbatdagi bankrotlik holatini e'lon qildi. Kreditorlar bilan muzokaralar natijasida yangi kelishuv-ga erishildi. Kreditorlar Usmoniylar qarzining nominal miqdorini 5,3 mlrdan 2,4 mlrdgacha kamaytirishga rozi bo'ldilar. Buning evaziga Turkiya hukumati mamlakat moliyasi ustidan amalda chet el nazorati o'rnatilishiga rozi bo'ldi. Sultonning 1881 yilgi dekreti kreditorlarga Usmoniylar Davlat qarzi boshqarmasini tuzishga rux-sat berib, ularni alohida huquq va imtiyozlar bilan ta'minladi. Ta-maki va tuz monopoliyasidan, spirtidan tushadigan yig'imlar, gerb yig'imi, Marmar dengizi va Bosfor bo'g'ozida baliq ovlashdan tushadigan soliqlar, Istanbulda, Adrianopolda, Bursada ipak savdo-sidan olinadigan soliq va boshqa ko'pgina yig'imlar Boshqarma ixtiyoriga berildi.

Bularning barchasi Turkiyaning moliyaviy ahvolini yanada og'ir-lashtirdi va 1890 yili yangi qarzlar olishga majbur qildi. «Usmoniylar» bankidan tashqari chet elliklarning yangi banklari paydo bo'la bosh-ladi: Istanbulda Fransiyadagi eng katta bank «Lion kredit»ning filiali ochildi, 1888 yili bir nechta G'arbiy Yevropa banklari hamkorlikda Saloniki bankini ta'sis qildilar, 1899 yili Nemis-falastin banki tuzildi va h.k. Mamlakatda turk kapitaliga faqat bitta bank (qishloq xo'jalik) qarashli bo'lib, u ham nihoyatda kuchsiz edi.

Turkiyaning moliyaviy qudrati sustligidan foydalangan chet el kapitali temir yo‘llar qurilishiga, tabiiy boyliklarni ekspluatatsiya qilishga, tamaki savdosiga yirik konsessiyalar oldilar. Chet el kapitali (inglizlar, fransuzlar, nemislar, avstriyaliklar, belgiyaliklar, italyanlar, XIX asr oxiridan esa amerikaliklar ham) turk iqtisodiyoti va moliyasining barcha muhim tarmoqlarini: tashqi savdoni, temir yo‘llarni, konlarni, kommunal tashkilotlarni, banklarni va aloqa vositalarini egallab oldilar.

Turkiyada burjua-inqilobchilik harakati. «Birdamlik va taraqqiyot» qo‘mitasi. Sanoat va savdoning bunday rivoji turk burjuaziyasini og‘ir ahvolga solib, uning rivojiga to‘siq bo‘layotgan edi. «Yosh turklar»ning mag‘lubiyatiga, sulton Abdul Hamid II ning shafqatsiz rejimiga qaramasdan bir qism ziyolilar konstitutsiyaning tiklanishidan umid uzmagandilar. XIX asrning oxirida sulton hokimiyatini cheklash uchun harakat yana jonlandi. Harakatga keyinchalik mashhur bo‘lgan maxfiy «Birdamlik va taraqqiyot» tashkiloti boshchilik qildi. Ushbu nomdagi dastlabki qo‘mita 1889 yili Istanbul harbiy-tibbiyot bilim yurti talabalari tomonidan tashkil qilingan edi.

Birinchi qo‘mita tez orada barbod qilindi, ammo 1894 yili yangi qo‘mita tuzilib, unga turk intelligensiyasining ko‘zga ko‘ringan arboblari qo‘shildilar va sultonlikni burjua-demokratik davlatiga aylantirish uchun jonbozlik qildilar. Ular ham o‘zlarining o‘tmishdoshlari singari yosh turklar deb ataldi. Yosh turklar harakatining asosini amaldorlar, ofiserlar va harbiy bilim yurtlarining o‘quvchilari tashkil qilardi.

«Birdamlik va taraqqiyot» qo‘mitasi imperiya aholisi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini rivojlantirib yubordi. Istanbulda inqilobiy va raqalar chop etadigan maxfiy bosmaxona tashkil qilindi. Parijda, Jenevada va Misrning bir necha shaharlarida hukumatga qarshi gazetalar nashr qilinadi. 1897 yili yosh turklar sulton saroyi oldida o‘zlarining birinchi siyosiy namoyishini uyushtirdilar. Namoyishdan keyin qatag‘onlar boshlandi: 13 kishi qatl qilindi, 70 dan ziyod kishi surgun qilindi. 1899 yili yangi sud jarayoni bo‘ldi. Asr oxiriga kelib tashkilot to‘liq tor-mor qilingan edi. Bu vaqtda 50 ming siyosiy mahbuslar turmalarda bo‘lsa, yana 80 ming kishi chet ellarda edi. Ammo harakatning o‘zi yo‘q qilinmadi, XIX asr oxiridagi Usmoniylar imperiyasining umumiy inqirozi siyosiy faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Yosh turklar inqilobi. Turkiyada feodal-mustabid tuzumni ag‘darib tashlagan va 1876 yilgi konstitutsiyani tiklagan inqilobiy voqealar «Yosh turklar inqilobi» nomini olgan. Bu inqilobiy voqealarning

markazi Makedoniya bo'ldi. Saloniki shahrida faoliyat yuritayotgan «Birdamlik va taraqqiyot» tashkilotining vakillari harbiy qismlarda tashviqotni kuchaytirdi.

1908 yil martda Edirne shahrida joylashgan ikkita otliq polk maoshning vaqtida berilmaganligi sababli isyon ko'tardi. Shu yil bahorda yosh turklar xorijiy davlatlar konsullariga memorandum yo'llab, Makedoniyaning ichki ishlariga chet davlatlarning aralashuviga qarshi norozilik bildirdi. Sulton hukumati ayni paytda armiyadagi norozilikni to'xtatishga harakat qildi. Salonikidagi qo'shinlar ofiserlarining bir qismini qamoqqa olish boshlandi. Iyunning oxirida Resnadagi garnizon ofiseri Niyoz bey qo'zg'olonchilar otryadini tuzdi. Otryad garnizon kassasidan pul va ombordan qurollar olib toqqa chiqib ketdi. Otryadga boshqa garnizonlardan ham ofiserlar o'z askarlari bilan kelib qo'shila boshladilar. Sulton qo'zg'olonni kuch bilan bostirishga buyruq berdi, ammo qismlar buyruqni bajarishdan bosh tortdilar. Hatto turk bo'lmagan mahalliy aholi ham qo'zg'olonchilarni qo'lladi. Qurollangan 30 ming kishilik albanlar ham ularga kelib qo'shildi. Sulton Abdul Hamid II Salonikiga Anatoliyadan qo'shin jo'natishga qaror qilganda qo'shinlar qo'zg'olonchilarga qarshi chiqishdan bosh tortdilar. Makedoniyada esa ko'plab shaharlarda hokimiyatni qo'lga olgan yosh turklar qo'mitalari konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildilar. Sulton qo'zg'olonchilarning talablarini qondirishga majbur bo'ldi. 24 iyul kuni 1876 yilgi konstitutsiya tiklanganligi to'g'risida sulton farmoni e'lon qilindi. Deputatlar palatasini chaqirishga va'da berildi. Shaharlarda konstitutsiyani qo'llab mitinglar bo'lib o'tdi. Bu mitinglarda turli millat va dinlar vakillari birodarlashib ketdilar. Siyosiy mahbuslar turmalardan ozod etildi. Yosh turklarning talablariga ko'ra bir necha vazirlar va amaldorlar o'z lavozimlaridan chetlatildi. Bir qancha saroy a'yonlari qamoqqa ham olindi.

1908 yil oktyabrda «Birdamlik va taraqqiyot» tashkilotining kongressi bo'lib, unda siyosiy partiya tuzish haqida qaror qabul qilindi. Yangi partiya dasturida sulton hokimiyatini cheklash, parlamentning vakolatlarini kengaytirish, vazirlarning parlament oldida javobgarligi prinsipini o'rnatish, 21 yoshdan oshgan barchaga saylov huquqini berish zarurligi haqida aytiladi. So'z, matbuot va yig'ilishlar erkinligi e'lon qilindi. Ammo yosh turklar boshqa millatlarning Turkiyadan ajralib chiqish huquqini tan olmadilar.

Turkiyaning kuchsizlanib qolganligi va xalqaro obroʻsining tushib ketganligidan foydalanib, Avstro-Vengriya Bosniya va Gersegovinani bosib ol-di, Bolgariya esa oʻz mustaqilligini eʼlon qildi. Yosh turklar Avstro-Vengriya siyosatini qoraladi. Ular boʻlib oʻtgan parlament saylovlarida 230 oʻrindan 150 tasini egalladilar va hukumatni shakllantirdilar. Ammo saylovlardan soʻng xalq manfaati yoʻlida hech qanday islohotni amalga oshirmagan yosh turklar tezda obroʻsizlanib, oʻz ommaviyliklarini yoʻqotdilar. Usmoniylar imperiyasi tarkibidagi koʻplab turk boʻlmagan millatlar ham ularning avtonomiga boʻlgan huquqlarini tan olmagan uchun yosh turklardan norozi edi. Bularning hammasi yigʻilib oʻng kuchlarga yangi davlat toʻntarishini amalga oshirish imkonini yaratdi. 1909 yil 12 apreldan 13 ga oʻtar kechasi Istambul garnizoni soldatlari isyon koʻtardilar, isyonni yosh turklar tomonidan xizmatdan boʻshatilgan ofiserlar ham qoʻllab-quvvatladi. Yosh turklar yoʻlboshchilari Salonikiga qochishga ulgurdilar. Sulton isyonchilarning yosh turklarni mamlakatdan haydash toʻgʻrisidagi talabini maʼqulladi. Salonikida yashiringan yosh turklar ham javob tayyorlay boshladilar. Ularning qoʻl ostida 100 ming askardan iborat ikkita armiya korpusi bor edi. 16 aprel kuni shu qoʻshinlar Istambulga yurish boshladi. Poytaxt quruqlik va dengizdan oʻrab olindi. Qisqa harbiy toʻqnashuvlardan soʻng poytaxt yosh turklar qoʻliga oʻtdi. Koʻplab isyonchilar dorga osildi, 10 minglab isyon qatnashchilari Istambuldan quvib yuborildi. 27 aprel kuni sulton taxtdan tushirildi. Taxtga yangi kelgan sulton Mexmet V mamlakatni boshqarishga layoqatsiz shaxs edi. 1909 yil yozda konstitutsiyaga bir qator oʻzgarishlar kiritildi. Sulton vazirlarni tayinlash va boʻshatish, parlamentni chaqirish va tarqatib yuborish huquqlaridan mahrum qilindi. Ayni paytda matbuotni hukumat nazoratiga oluvchi qonun qabul qilindi. Nemis generali fon der Gols taklifiga binoan harbiy islohot oʻtkazilib, turk qoʻshinlarida nemis harbiy tizimi joriy qilindi.

Yosh turklar natural soliq – asharni va soliqlarning otkup tizimini oʻzgarishsiz qoldirdi. Kasaba uyushmalari va ish tashlashlar taqiqlandi. Bu holatga qarshi kurdlar, armanlar va albanlarning qoʻzgʻolonlari boʻlib, barchasi hukumat tomonidan shafqatsiz bostirildi.

Uchta urushda: Italiya bilan Liviya uchun va ikkita Bolqon urushlaridagi magʻlubiyatlar Turkiya jamiyatini larzaga keltirdi. Italiya bilan muvaffaqiyatsiz urushdan keyin 1912 yil iyulda yangi davlat toʻntarishi

yuz berib, yosh turklar hokimiyatdan chetlatildi. Yangi hukumat 18 oktyabr kuni Italiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. Sulhga ko'ra Tripolitaniya, Kirenaika Italiyaning mustamlakasi deb tan olindi.

1912 yil 18 oktyabrda Bolgariya, Gretsiya, Serbiya va Chernogoriyadan iborat Bolqon davlatlari koalitsiyasi tuzilib, ular bilan Turkiya o'rtasida yangi urush boshlandi. Turkiyaning Makedoniyaga avtonomiya berishdan bosh tortganligi urushning boshlanishiga sabab bo'ldi. Turkiya qo'shinlari bir qator mag'lubiyatlarga uchragandan so'ng 1912 yil 3 noyabrda Porta sulh tuzishda vositachilik qilishni so'rab buyuk davlatlarga murojaat qildi. Ammo sulh shartlarining o'ta og'irligi Istambulda keskin noroziliklar tug'dirdi. Bu holatdan yosh turklar navbatdagi davlat to'ntarishini amalga oshirish uchun foydalandilar. 1913 yil 23 yanvar kuni Enver bey va Tal'at bey boshchiligidagi 200 ga yaqin yosh turk ofiserlari hukumat rezidensiyasini o'rab oldilar va vazirlar yig'ilishi ketayotgan zalga bostirib kirib, harbiy vazirni o'ldirdilar, bosh vazir, ichki ishlar va moliya vazirlarini hibsga oldilar. Shundan so'ng yosh turklarning yangi hukumati shakllantirildi. Ammo bu davlat to'ntarishi harbiy harakatlarga o'z ta'sirin ko'rsatmadi. 1913 yil mayda Londonda imzolangan sulhga ko'ra Usmoniylar imperiyasi o'zining Yevropadagi yerlaridan deyarli to'liq ajraldi. Faqat ikkinchi Bolqon urushi davrida turklar Serbiya, Ruminiya va Gresiya bilan birga Bolgariyaga qarshi harakat qilib Adrianopolni qaytarib olishga erishdilar.

1913 yilning oxiridan boshlab mamlakatda hokimiyat yosh turklar partiyasining uchta vakili: Enver bey, Tal'at bey va Jemal beylar qo'liga o'tdi. Ular davrida Turkiya tashqi siyosatda Germaniyaga suyanib harakat qildi, u esa o'z maslahatchilari yordamida Turkiya armiyasi ustidan nazorat o'rnatdi. Bu paytda Turkiyaning iqtisodiy ahvoli murakkabligicha qolaverdi. Byudjet tanqisligi va davlat qarzlari oshib bordi. Turkiya shunday holda Birinchi jahon urushiga kirib keldi.

Mamlakatni modernizatsiya qilishga intilgan yosh turklar inqilobi absolyut monarxiyani konstitusion monarxiya bilan almashtirdi. Parlament tashkil qilinib, unda ko'pchilik o'rinlarni modernizatsiya tarafdorlari egalladilar. Ular Turkiyaning burjuacha taraqqiyot yo'liga o'tishini boshlab berdilar, xolos.

Turkiya Birinchi jahon urushi yillarida

Urushning boshlanishi. Birinchi Jahon urushining bosh sababi ikki harbiy-siyosiy guruh o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish edi. Dunyoning yetakchi davlatlari o'z yovuz maqsadlari yo'lida ma'naviy tubanlikka ketib bo'ylik orttirish uchun millionlab insonlarni qurbon qilishga bel bog'ladilar. 1914-yilning 28-iyulida serbiyalik millatchi tomonidan Sarayevoda Avstriya-Vengriya taxti vorisi F. Ferdinand o'ldirildi. Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga juda haqoratli talablar qo'yilgan ultima'tum yubordi. Serbiya hukumati ultima'tumning faqat birgina talabiga, ya'ni suiqasd yuzasidan o'tkaziladigan tergov ishlarini Avstriya-Vengriya davlat huquqiy idoralari olib borishiga rozilik bermagan. Bu esa Avstriya-Vengriyaning 28-iyulda Serbiyaga urush e'lon qilishiga bahona bo'ldi. Serbiya ittifoqchisi Rossiya bunga javoban 29-iyul kuni qisman harbiy safarbarlik e'lon qildi. Bundan Germaniya hukmron doiralari 1-avgustda Rossiyaga, 3-avgustda esa uning ittifoqchisi Fransiyaga urush e'lon qilish uchun bahona sifatida foydalandi. Germaniya Belg'yaning betaraflik maqomini buzib, bu davlatga hujum qildi. Belgiyaning betarafliigi to'g'risidagi xalqaro hujjatni bir vaqtlar Prussiya ham imzolagan edi. Biroq, 1914-yilda Germaniya hukumati bu hujjatni surbetlik bilan «bir parcha qog'oz» deb atadi. Germaniyaning Belgiyaga hujumiga javoban Angliya Belgiyani himoya qilish bahonasi bilan 4-avgust kuni Germaniyaga urush e'lon qildi. Urush shu tarzda boshlanib ketdi. 15-avgust kuni Yaponiya Germaniyadan Xitoydagi mustamlaka hududlarini Yaponiyaga berish talabi bilan chiqdi. Rad javobini olgach, 23-avgustda Yaponiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Germaniya 1914-yilning oktyabr oyida Usmonli turklar imperiyasini, keyinchalik Bolgariyani o'z tarafida turib urushda qatnashtirishga muvaffaq bo'ldi. Tez orada Kavkazorti, Suriya va Falastinda, Bolqon yarim orolida, shuningdek, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalarida yangi frontlar vujudga keldi. Faqatgina Serbiya va Belgiyadan tashqari barcha davlatlar uchun bu urush bosqinchilik urushi edi.

Yashin tezligida g'alabaga erishishning barbod bo'lishi. Germaniya armiyasi generali fon Shliffen yashin tezligida g'alabaga erishish rejasini tuzib chiqqan edi. Rejaga ko'ra Germaniya armiyasi betaraf Belgiya hududi orqali Fransiyaga hujum qilishi, Germaniya-Fransiya chegarasida to'plangan Fransiya armiyasini qurshab olib, uni

kuzgacha tor-mor etishi va shu orqali Fransiyaning taslim bo'lishiga erishishi kerak edi. So'ngra qisqa vaqt ichida Rossiyani ham tor-mor keltirish mo'ljallangan edi. 3-avgustda shiddat bilan hujumga o'tgan Germaniya armiyasi yaqin bir oy ichida Parijga yaqinlashib qoldi Fransiyaning taslim bo'lishi muqarrardek edi. Hatto, hukumat vaqtincha bo'lsa-da, Parijdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Biroq, Shliffen rejasi amalga oshmay qoldi. Bunga Fransiya hukumatining iltimosiga ko'ra 17-avgust kuni Rossiyaning Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi boshlagan hujumi sabab bo'ldi. G'arbiy frontda Germaniya harbiy qudratining ma'lum darajada kuchsizlanishi Fransiyaning saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi, bu hol Fransiya kuch to'plab qarshi hujumga o'tishiga imkon yaratdi. Germaniya rus armiyasini Sharqiy Prussiyadan siqib chiqarsada, rus armiyasi Avstriya-Vengriyaga qarshi hujumini davom ettirdi. Marna daryosi bo'yida Fransiya va Angliyaning birlashgan armiyasi 1914-yilning sentyabrda Germaniya qo'shinlariga qarshi hujumga o'tdi. Marna jangida har ikki tomondan 2 mln. ga yaqin jangchi qatnashdi. Bu jangda Angliya va Fransiya armiyasining qo'li baland keldi. Og'ir ahvolga tushib qolgan nemis qo'mondonligi 9-sentyabrda butun G'arbiy front bo'ylab chekinishga buyruq berishga majbur bo'ldi. Marna jangida erishilgan g'alaba tufayli Germaniyaning yashin tezligida g'alaba qozonish rejasi barbod bo'ldi.

Turkiyaning urushga kirishi. Turkiya hukmron doiralarning aksariyati Germaniya tarafida turib urushda qatnashishni maqsadga muvofiq deb hisoblardi. Chunki, ularning fikricha, Turkiyaning o'zi bosib olishi mo'ljallangan yerlar yo Rossiya qo'l ostida, yoki Angliya qo'l ostida edi. Ana shu bosqinchilik niyatini amalga oshirish ilinji Turkiyani 1914-yilning 2-avgustida yashirin sharoitda Germaniya bilan ittifoq shartnomasini imzolashga olib keldi. 11-oktyabr kuni Germaniya Turkiyaga katta miqdorda qarz taklif etdi. Turkiyadan shu qarzni olgan zahotiyoq urushga kirishga va'da oldi. Germanparast, harbiy vazir va Bosh qo'mondon Anvar poshsho 29-oktyabr kuni Turkiya flotiga nemis admirali Sushan qo'mondonligida Qora dengizga chiqishga va Rossiyaning hududlarini o'qqa tutishga buyruq berdi. 2-noyabr kuni Rossiya Turkiya hujumiga javoban unga urush e'lon qildi. Urush harakatlari uzunligi 350 km bo'lgan Kavkaz frontini vujudga keltirdi. 5-6-noyabr kunlari Angliya va Fransiya ham Turkiyaga urush e'lon qildilar. 1915-yilning 19-yanvarida Antanta harbiy dengiz kuchlari Turkiyaga qarshi Dardanell bo'g'ozida harbiy operatsiyalarni

boshlab yubordi. Germaniya mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlardan foydalanib, Turkiyaga yordam ko'rsatdi. Natijada, Angliya harbiy dengiz flotiga katta talafot yetkazildi. Bu operatsiya natijasida 200 ming ingliz soldati halok bo'ldi va yaralandi.

“Buyuk chekinish”. Sharqiy front 1915-yilda asosiy urush harakatlari maydoniga aylandi. Germaniya va Avstriya-Vengriya o'z qurolli kuchlarining yarmiga yaqinini Rossiyaga tashlashga qaror qildilar. Ittifoqchilarning qo'shinlari 1915-yilning bahorida hujum harakatlarini Galitsiyadan (G'arbiy Ukraina) boshladilar. Natijada, 1915-yilning bahori va yozida rus armiyasi qonli mudofaa janglari olib borishga majbur bo'ldi. Rus armiyasi mislsiz darajada talafot ko'rdi. 850 ming soldat va ofitser halok bo'ldi. 900 ming nafari esa asirga tushib qoldi. Rus armiyasi qattiq qarshilik ko'rsatsa-da, kuchlar noteng bo'lgan janglar natijasida Polshani, Boltiqbo'yi, G'arbiy Belorussiya va G'arbiy Ukrainaning bir qismini tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Bu chekinish birinchi jahon urushi tarixiga «buyuk chekinish» nomi bilan kirgan.

1915-yilning 15-sentyabr kuni Bolgariya va Turkiya, 6-sentyabr kuni esa, Avstriya-Vengriya va Bolgariya o'rtasida ittifoqchilik shartnomalari imzolandi. Shu tariqa «To'rtlar ittifoqi» vujudga keldi. 14-oktyabr kuni Bolgariya Serbiyaga hujum qildi. Germaniya, Avstriya-Vengriya qo'shinlari shimoldan Serbiyaga hujum qildilar. Shu tariqa Serbiya Germaniya va uning ittifoqchilari tomonidan bosib olindi.

1916-yilning 17-avgust kuni Ruminiya bilan Antanta davlatlari o'rtasida shartnoma imzolandi va Ruminiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urushga kirish majburiyatini oldi. Buning evaziga unga Transilvaniya, Bukovina va Banatning katta qismi va'da qilindi. 28-avgust kuni Ruminiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e'lon qildi. Biroq, harbiy jihatdan mustahkam tayyorgarlik ko'rmagan Ruminiya armiyasi tezda tor-mor etildi. **Tomonlarning rejalari.** 1917-yilda Antanta qurolli kuchlarining son jihatdan ustunligi 40% ni tashkil etardi. Hatto, harbiy-iqtisodiy jihatdan qoloq Rossiya ham 1917-yilning boshlarida oylik o'q-dori va harbiy texnika ishlab chiqarish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga erishdi. Antanta yilning boshlaridayoq hujumni boshlashni rejalashtirdi. Hal qiluvchi zarbani esa yozda berishga qaror qildi. Ayni paytda, «To'rtlar ittifoqi» ham qo'l qovushtirib o'tirgani yo'q. 1916-yilning 29-avgustida general-feldmarshal fon Gindenburg Germaniya armiyasining qo'mondoni etib tayinlandi va ko'p o'tmay Germaniya armiyasining 1917-yilgi harakat rejasini tuzib chiqdi. Reja front

chizig`i hajmini kamaytirish maqsadida armiyani oldindan mustahkam darajada tayyorlab qo`yilgan marralarga qaytarishni nazarda tutardi.

Urushayotgan davlatlar ahvoli. Urush uning ishtirokchilari bo`lgan davlatlar hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko`rsatdi. Iqtisodiyot harbiy maqsadlarga bo`ysundirildi. Chunonchi, og`ir sanoatning 70%, yengil sanoatning esa 50% urush ehtiyojlarini qondirish uchun ishladi. Urush, ayni paytda, qishloq xo`jaligini ham og`ir ahvolga solib qo`ydi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamaydi. Deyarli barcha davlatlarda oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Natijada, hukumatlar oziq-ovqat mahsulotlariga kartochka tartibi (qat`iy belgilangan me'yor) joriy etdilar. Aholi o`rtasida shovinizm zo`r berib targ`ib etila boshlandi. Shu tariqa, urush parlament demokratiyasiga qattiq zarba berdi. Uning aholi ko`z o`ngida obro`si tushib ketdi. Butun urush davomida bironta ham parlament qonli qirg`inga qarshi norozilik bildirmadi. Endi davlat ishlab chiqarishni tartibga sola boshladi. Banklar, xomashyo taqsimoti va harbiy buyurtmalar ustidan davlat hokimiyatinig nazorati kuchaydi. Aholi urushdan charchagan va urushning tezroq tugatilishini talab etib hukumatga qarshi bosh ko`tara boshlaganlar. Shu tariqa, urushning dastlabki yillarida jamiyatda qaror toptirilgan fuqarolik birligi buzildi. Ba'zi frontlarda soldatlarning birodarlashuvi, dushman tomonlarning bir-biriga o`q otmasligi yuz berdi. Chunki, armiya ham urushdan charchagan edi.

1917-yilning aprel oyida Antantaning G`arbiy frontdagi qurolli kuchlari hujumga o`tdi va hujumda 100 dan ortiq diviziya ishtirok edi. Biroq, Germaniya mudofaa chizig`ini yorib o`tishga muvaffaq bo`linmadi. Aksincha, bu janglar oqibatida katta qurbonlar berildi. Bu qurbonlar Fransiya qurolli kuchlarining bosh qo`mondoni Nivel nomi bilan «Nivel qirg`ini» deb nom oldi. 1917-yilning oktyabr oyida Kaporetto yonida Italiya armiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Angliya va Fransiyaning shoshilinch ravishda 14 diviziyani Italiya frontiga tashlashigina Italiyani saqlab qoldi. 1917-yilning noyabr oyida ingliz armiyasining hujumini qaytarishda Germaniya yana bir yangi qurol-ognemyotni qo`lladi. Kavkaz frontida urush harakatlari 1917- yilda deyarli to`xtadi. Mesopotamiya va Falastin frontlarida ingliz armiyasining harakatlari kuchaydi. 1917-yilning mart oyida inglizlar Bag`dod shahrini egalladilar. Kuzga kelib Turkiya Arabiston yarim orolini to`la, Falastinning esa bir qismini boy berdi. Sovet Rossiyasi 1918-yilning 3-mart kuni "To`rtlar ittifoqi" bilan ularning shartlari asosida

Brest tinchlik shartnomasini imzoladi. Shartnomaning shartlari Rossiya uchun juda og'ir edi. Shartnomaga ko'ra, Rossiya o'z armiyasini to'la demobilizatsiya qilishi, harbiy flotini portlarga qaytarishi lozim edi. Shuningdek, Rossiya Boltiqbo'yi, Polsha, Finlandiya va Ukrainadan voz kechar edi. Ukraina va Finlandiya mustaqil davlatlar deb tan olindi. Kavkazdagi Kars, Ardagan va Batumi Turkiyaga berildi. Bundan tashqari, Rossiya Germaniyaga 6 mlrd. marka miqdorda reparatsiya to'laydigan bo'ldi. **Vudro Vilsonning tinchlik dasturi.** AQSh Prezidenti VVilson 1918-yilning 8-vanvarida I Janon urushidan so'ng imzolanadigan tinchlik shartnomasi va qayta tuzilajak dunyo siyosiy xaritasi bo'yicha AQSh hukumatining nuqtayi nazarini dunyoga ma'lum qildi va u tarixga "Vilson tinchlik dasturi" nomi bilan kirgan. Bu dastur keyinchalik g'olib Antantaning mag'lub «To'rtlar ittifoqi» bilan imzolangan tinchlik shartnomalariga asos bo'lib xizmat qilgan. **Urushning so'nggi bosqichi.** G'arbiy frontda butun diviziyalarning 80 foizini, artilleriyaning 90 foizini to'plagan Germaniya 1918-yilning mart oyida hujumga o'tdi. Bu uning oxirgi hujumi bo'ldi. Biroq, bu hujum biror-bir jiddiy muvaffaqiyatga olib kelmadi. Shunday bo'lsa-da, har ikki tomon 300 ming kishini qurbon berdi. Shunday sharoitda Angliya va Fransiya yagona qo'mondonlik tuzishga qaror qildilar. Fransiya generali Fosh birlashgan kuchlarning qo'mondoni etib tayinlandi. 18-iyul kuni Fransiya qo'shinlari qarshi hujumga o'tdi. Shu hujumdan so'ng Antanta hujumini to'xtatishning iloji bo'lmadi. 15-sentyabr kuni Bolgariyaga qaqshatqich zarba berildi. 28-sentyabr kuni esa Bolgariya bitim imzolashga majbur bo'ldi. Shu tariqa, Bolgariya «To'rtlar ittifoqi» davlatlari ichida birinchi bo'lib urushdan chiqdi. 29-oktyabr kuni Avstriya-Vengriya yarashish bitimini imzolash haqida Antantaga murojaat qildi. 3-noyabr kuni shunday shartnoma imzolandi va Avstriya-Vengriya ham urushdan chiqdi. 30-oktyabr kuni Turkiya Antanta bilan yarash bitimini imzolashga majbur bo'ldi. Urush Germaniyada inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. 9-noyabrda Germaniya imperiyasi quladi. Imperator Vilgelm II taxtdan voz kechdi va mamlakatdan qochib ketdi. 10-noyabr kuni sotsial-demokrat Ebert boshchiligida yangi hukumat tuzildi. 11-noyabr kuni Kompen o'rmonida marshal Foshning shtab vagonida Antanta bilan yarash bitimi imzolandi. Shutariqabirinchi jahon urushi Antantaning g'alabasi bilan tugadi. 1919-yil 28-iyunda Versalda sulh shartnomasi imzolandi. German bloki davlatlari talandi, ko'pgina hududlaridan ajraldi, 132 mlrd.

marka reparasiya to'laydigan bo'ldi. Birinchi jahon urushida dunyoning 38 davlati ishtirok etdi. Ularda 1,5 mlrd. dan ortiq aholi yashar edi. Urushga 74 mln. ga yaqin kishi safarbar etildi. Jami 10 mln. kishi o'ldirildi, 20 mln. kishi esa yarador bo'ldi. Bundan tashqari, juda ko'p kishilar kasallik va ochlikdan o'lib ketdi. Birinchi jahon urushida uning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar. Insoniyat birinchi jahon urushigacha bo'lgan 1000 yil davomida yuz bergan barcha urushlarda ham bunchalik qurbon bermagan edi.

IV-BOB. TURKIYA ENG YANGI DAVRDA

Respublika sari mashaqqatli yo‘l Imperiyaning so‘nggi kunlari

1918-yilning 30-oktabrida tuzilgan Mudros bitimi Antanta va Turkiya davlatlari o‘rtasidagi Birinchi jahon urushidagi harbiy harakatlarga chek qo‘ydi. O‘sha davrda inglizlar Yaqin Sharqda kommunikatsiya va tabiiy (neft) resurslarni nazorat ostiga olgan edi.

Britaniya hukumatining orzulari ro‘yobga chiqdi, ya‘ni Yaqin Sharqda to‘liq ingliz tartibi o‘rnatildi. Bitimga, asosan, Bosfor, Dardanell, Istanbul, Antanta qo‘shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi. Turkiya hukumati rahbarlari Anvar Poshsho, Tal‘at Poshsho, Jamol Poshsholar o‘z yaqinlarini olib nemislarning kemasida Germaniyaga qochishdi.

Bitim imzolash marosimiga kelgan dengiz vaziri Rauf Bey shunday deydi: “Bitim biz o‘ylagandan ham ziyoda bo‘ldi. Millat g‘ururi va davlatimiz mustaqilligi saqlanib qoldi”.

Mudros bitimi imzolanganda M.Kamol Halabda edi. U turk armiyasi qoldiqlarini qabul qilish uchun Adanaga yetib keldi. Bosh vazir Ahmed Izzat Poshsho unga ingliz qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatmasdan Istanbulga qaytishini aytdi. M.Kamol poytaxtga qaytib, Bosh shtabga o‘tdi.

Imperiya rahbarlari Parlament deputatlari bilan uchrashuv o‘tkazgach, uni Sulton qabul qildi. 3-noyabrda ingliz qo‘shinlari tomonidan Mosul okkupatsiya qilindi.

10-noyabrda Fransuz va Ingliz harbiy kemalari Novorossiyskka kirdi. 9 oy davom etgan turk okkupatsiyasidan so‘ng Batumi egallandi. 1918-yildan boshlab ruslar turk qo‘mondonligidan Kavkazortini tashlab chiqib ketishni talab qildi.

1919-yil mart oyida inglizlar Samsun orqali Urfaga yetib kelishdi. 27-noyabrda Istanbul inglizlarning Qora dengiz armiyasi qo‘mondoni Jorj Milin shtabi bilan kelishib, ittifoqchilar armiyasini Turkiyaga mas‘ul qilib tayinladilar. Noyabr oyida okkupatsiya guruhlari va Antanta kemalari Turkiyaga kirib kelgandi. AQSh qo‘shinlari Istanbul, Bosfor va Dardanell orqali qish o‘rtalarida Qora dengizga kirib keldi, o‘n minglab qurol-aslaha Turkiya hududiga joylashtirildi. Mersin, Adana va Iskendurun shaharlarini fransuzlar nazoratga olgan, yunonlar Izmirni egallagandi. Komissar etib britananiyalik admiral tayinladi.

Sulton Vahdeddin Turkiyaning g'olib bo'lgan davlatlar bilan munosabatlarini yaxshi tutib turishi lozim edi. 1918-yil 21-dekabrda Vahdeddin okkupantlarning tazyiqi ostida parlamentni tarqatib yuboradi.

1919-yilning mart oyida sulton qayn ukasi Farid poshshoni bosh vazir, hukumat boshlig'i qilib tayinlaydi. Barcha hodisalar turk aholisi orasida okkupatsiyaga qarshi tashkilotlarning tashkil qilinishiga olib keld. Turkiya okkupatsiya qilingandan so'ng Sharqiy O'rta Yer dengizi, Yaqin Sharq, Rossiyaning janubi, Qrim, Kavkaz va Kaspiy dengizi bo'yi hududlariga aralashish imkoni tug'ildi. Sharqiy O'rta Yer dengizida, Yaqin Sharqda, Bolqonda va Rossiya janubida Qrim, Kavkaz va Kaspiy bo'yi hududida bu imkoniyatdan maksimal darajada foydalangan ingliz armiyasi bo'ldi.

Denikin o'z memuarlarida shunday yozgan edi: "Bunday katta hududda faol harakatga o'tgan jangovar inglizlar va fransuzlar o'zaro chiziq bilan bo'lib olishdi. Bu hudud Bosfordan Don bo'ylab Saritsingacha borardi". Uning so'zlaridan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki Istanbul, Anatoliyani egallagan okkupantlar Yevro Osiyoning katta hududlari, Rossiya hududlari, Qora dengiz, Kaspiy dengizi havzalarini, Kavkaz va Bolqonlarni nazorat qilish va harbiy harakatlar olib borish imkoniga ega bo'ldi. Denikinning ta'kidlashicha Istanbulga kelgan yuqori lavozimli shaxslar Rossiyada tartib o'rnatish kerakligini aytishardi. Shimoliy Kavkaz va Kavkazorti xalqlari hududlarning bir qismini bolsheviklar qo'llab-quvvatlashga tayyor edi. Bolsheviklarga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatayotgan viloyatlar orasida Dog'iston ham bor edi. U yerga katta miqdorda qurol va harbiy zahiralari, hatto turk askarlari ham kirib keldi. U yerda fashizm kayfiyati yuqori darajada edi.

1918-yilning 2-sentyabrida Turkular Bakuni egallab oldi, Dog'istonda turk posbonlari paydo bo'ldi. O'zaro kelishuvga ko'ra u yerga turk diviziyasini kiritish va'da qilindi. Barcha yo'llar Rossiyadan Ozarbayjonga Anatoliyaning Shimolidan o'tar edi, shuning uchun bu yo'l ishonchli qo'llarda bo'lishi shart edi.

Rossiya bilan aloqalar kuchli edi. Dog'istonga turli qo'shinlar kela boshladi. 1918-yilning noyabr oyidagi kapitulyatsiyadan keyin eshelonlar Bakuga va Tiflisga ketdi. Ularning o'rniga Roulenon boshchiligidagi ingliz otryadi keldi. Dog'iston imomi Najmiddin Rossiya bilan aloqani targ'ib qilib boshladi. Janubga hukmron Rossiya qo'shinlarining kirib kelishi mag'lub bo'lgan Turkiyaga nisbatan interventsia hisoblanardi. Istanbul shahri boshqaruv uchun qulay

norasmiy shtab kvartiraga aylandi. Bu hol Turkiyadagi keyingi hodisalarning rivojlanishini belgilab berdi.

Aytib o'tish lozimki, Usmoniylar imperiyasi va Shimoliy Kavkaz xalqlari o'rtasida azaliy yaqin qarindoshchilik aloqalari o'rnatilgandi. Usmoniylar hukumati mudhish xatoga yo'l qo'ydi. 1853-yil Qrim urushi davrida imom Shamil Shimoliy Kavkazda Ruslarga qarshi jang qilayotganda, Usmoniylar armiyasi bilan aloqa o'rnatgandi, lekin hech qanday natijaga erishilmadi.

1918-yilning bahorida Kavkaz xalqlari bolshiveklar ta'siriga kirib qolgandi. Kavkazga inglizlar kirib kelgandan keyin ular Denikin qo'shinlarini bolsheviklarga qarshi jang qilishi, Kavkaz ularning ishlariga aralashmasligini talab qildi. Denikin armiyasining har qanday mustaqil harakati inglizlar tomonidan man qilinardi.

Shunday qilib, butun Kavkazortida ingliz okkupatsiyasi o'rnatildi, ularning qo'shinlari bolshiveklarga qarshi kelmadi, chunki bu yer turklar va nemislardan ozod hudud edi. General Tomson bitta batalyon bilan Maxachqa'lani egallab tog' hukumatini ma'naviy qo'llab rus ta'sirini siqib chiqarmoqchi edi.

Bu murakkab kurashda turli siyosiy kuchlar bor edi. 1917-yilning oktyabr voqealaridan keyin turk hukumati rasmiy va norasmiy ravishda Kavkaz siyosatiga aralashdi. Turkiya Kavkazni zahiradagi hudud sifatida saqlab qolmoqchi edi. 1918-yilning 30-oktyabrida yuqori lavozimli shaxslar Kavkazda o'z birodarlarini topishdi.

Tog' tashkilotlari uch tomon: Turkiya, Gruziya va Ozarbayjondan mablag' olishardi. Bir vaqtning o'zida turli siyosiy yo'nalishlarning quroliga aylanib, xalqning noroziligi yuzaga kelishi uchun zamin bor edi. Og'ir iqtisodiy sharoit, o'zaro dushmanlik mahalliy ma'muriyatning adolatsizliklari chetdan ta'sir bo'lmasa, urushga aylanmas edi.

Gruziya Nuri-poshshoning rejalaridan qo'rqardi. Nuri-poshsho yaqin kelajakda bu mamlakatni islom fanatizmi oqimlari bilan to'ldirib tashlashini aytib tahdid solardi. Ozarbayjon turk ofitserlarini qo'mondonlik tarkibiga instruktorlar sifatida yuborardi. Majlis Kereselidzini tog' respublikasi qo'shinlari qo'mondoni qilib tayinladi. Ali-hoji va Uzun-hoji Kavkaz hukumati tomonidan Chechiniston va Dog'istonga boshliq etib yuboriladi. Gruziya va Ozarbayjon chet ellik missionerlarga milliy tog' respublikasining harakatini qo'llab-quvvatlamaslikni so'rab murojat qilishdi. Xalq gvardiyasi qurultoyida Kavkaz orti xalqlarining Rossiyaga qo'shib olinishi Angliyaning ishi emasligi aytili.

Milliy ozodlik harakati rahnamosi Mustafo Kamolga Mudros bitimi imzolanganidan keyin Suriya chegaralaridan chaqirib olindi. Bu paytda u inglizlarga qarshi jang qilardi. Mustafo Kamol 13-noyabr kuni dushman floti shaharda qanday kelgan bo'lsa shunday ketishini aytdi. Uning bu so'zlari interventlarga qarshi qanchalik qattiq kurashga chog'langanidan darak berar edi. Izmirda 1919-yilning 15-mayida turklar har xil hududlarda paydo bo'lgan okkupantlarga qarshi harakatlarni boshlab yuborishdi.

Milliy kuch hisoblangan Quvvai Millie tashkiloti paydo bo'ldi. Bu yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan, zaif partizan o'triyatlari edi. Shunga qaramay, ular dushmanga qarshi kurashga bel bog'lagan birinchi tashkilot edi.

Ba'zi ofitserlar Egey tomonga yashirincha borib, u yerda vatanparvarlarni yig'ib portda askarlarni yunonlarga qarshi chiqish uchun tayyorlardi. Gollandiyalik turkolog Erik So'rrix o'zining ilmiy ishida manbalarga asoslangan holda shunday yozadi: "Vatanparvarlik chiqishlarining birinchi ishtirokchilari – partiya a'zolari edi. M.Kamolning birodarlari birlashib interventlarga qarshi kurash olib bordilar. Shunday qilib interventlarga qarshi birinchi front Anatoliyaning G'arbida paydo bo'ldi. Ayniqsa, yunonlar tomonidan Izmir, Manisa, Turgutlu, Oydin, Nazilli shaharlari egallangandan keyin ko'rina boshladi. Kamol bu paytda okkupatsiya qilingan Istanbulda faol harakat olib borardi".

M.Kamol Anatoliyaga ko'chib o'tdi. 1919-yilning 30-aprelida rasmiy ravishda to'qqizinchi armiya qo'mondoni qilib tayinlangandi. Shtab Erzirumda joylashgandi. Okkupantlardan ozod qilingan joyda ishonchli odamlardan shtab tuzildi. M.Kamolning o'zi Samsunga ketdi. Ketishidan oldin u sulton Mahmud VIning duosini oldi, Samsunga joylashgan 200 ingliz askarlari parokanda holatda edi.

Kavkazda ham inglizlarning ahvoli shunday edi. Kavkazda bo'layotgan jiddiy qarama-qarshiliklar haqida Denikinining kundaliklaridan bilib olish mumkin.

1918 yilning kuzidan boshlab, mustaqil Gruziya va bosib olingan Sochi hududlarida ruslarning xususiy va davlat mulki talon-taroj qilindi. Rossiyaga yon bosuvchi har turli unsurlar ta'qib ostiga olindi. Shu bilan birga bolsheviklarga yordam va ularni qurollantirish harakatlari amalga oshirildi. Umumiy o'g'rilik va bosqinchiliklar odatiy holga aylandi.

Sochi okrugi inglizlar bilan kelishuvga ko‘ra betaraf makon deb tan olindi. Bu muammo bo‘yicha London va Konstatinopolga Denikinining so‘rovnomalari javobsiz qoldi. Denikinining yozishicha, Sochi voqeasi hamma uchun kutilmagan natijalarga olib keldi. Sochi okrugi ingliz boshqaruvining kelishuvi va talabiga ko‘ra egallangan edi. Uokker tomonidan yuborilgan polkovnik Uayt Sochiga keldi va u yerdan “ingliz nazorati o‘rnatilishi” munosabati bilan Ko‘ngillilar ko‘shinini darxol olib chiqib ketish talabini ilgari surdi, ammo rad javobini oldi.

1919 yilning yanvarida Bzibi daryosining ikki yonini egallagan polkovnik Faynsning ingliz rotasi paydo bo‘ldi. Bu bilan Denikinining gruzin armiyasi bilan harbiy muajarosi yakun topmadi, bir oz vaqtdan so‘ng Gruzuya ko‘shini Bzibini kechib o‘tish harakatlarini qayta boshladi. 1919 yilning 4 aprelida gruzin ko‘shinlari ingliz postlari va Bzibi daryosini to‘siqsiz kesib o‘tib, Denikin ko‘shinlariga zarba berdi, shu paytning o‘zida front ortida yashillar ko‘zg‘olon ko‘tardi.

General Denikin o‘z kundaligida keltirgan bu va boshqa ma‘lumotlar, shunga guvohlik beradiki, Rossiya va Turkiyaga nisbatan intervensiyaga jalb qilingan ingliz bosqinchilari 1919 yilning boshidayoq u yerlarda intizom o‘rnatishda qiyinchiliklarga duchor bo‘lgan. Oldinda esa ularni yanada ko‘proq qiyinchiliklar kutar va o‘z kuchlari yordamida ularga bas kela olmas edi. Har qanday holatda ham Istanbuldagi ingliz qo‘mondonligi va sulton turk armiyasi jangovor generali M.Kamolning Anatoliyaning sharqiy qismiga nazorat safariga umid bog‘lashgan edi.

1919 yilning 19 mayida Izmirga yunon ko‘shinlarining kirganidan sanoqli kunlardan so‘ng, sultonning harbiy noziri Mustafo Kamol Samsunga yetib keldi va Samsun janubidagi Xavza shaharchasida o‘z qo‘shini bilan joylashib oldi. U yerdan Amasiyaga o‘tdi. Anatoliyadagi ozodlik harakatining keng ko‘lamliligida shaxsan ishonch hosil qilgach, M.Kamol uni qo‘llab-quvvatlashga qaror qildi. Shamsuddinovning fikriga ko‘ra, “Kamol o‘sha davrda mamlakatdagi ozodlik harakati podshohning “muqaddas” bayrog‘i ostida rivojlanishi kerak edi” deb hisoblagan. M.Kamol o‘z safdoshlari bilan birga bosqinchilarga qarshi milliy ozodlik harakatini boshqarish, aniqrog‘i uning harakatlarini muvofiqlashtirishga kirishdi. Uning ilk qilgan ishi, xarbiy qismlar qoldiqlari bilan aloqa o‘rnatib, ularni tinchlik bitimi talablarini bajarmaslikka chaqirdi va qarshilik ko‘rsatish zarurati haqida xabarnomalar yubordi. Shu yo‘sinda Istanbuldagi chiqishlar ommalashib ketdi.

Darvoqe, Mustafo Kamolning birinchi safdoshlari orasida kelib chiqishi cherkes boʻlgan Sulton tizimining yirik amaldorlari ham boʻlgan. Bulardan biri Anatoliyadagi qarshilik harakatida M. Kamol bilan birga qatnashgan Rauf Orbay boʻlgan. 1919 yilning may oyida Istanbuldan Anatoliyaga ketadigan yoʻlda u Shimoli-Sharqiy Anatoliyada oʻrnashgan cherkes safdoshlari bilan aloqa oʻrnatib, ularni birlashishga chaqirgan. M.Kamol safdoshlari qatoriga oʻsha davrlarda mashhur boʻlgan harbiy mutaxassis elchi Bakir Sami beyni ham kiritish mumkin.

Turkiyadagi kavkazliklarning milliy uygʻonish harakatlari nafaqat Kavkazning oʻzida roʻy berayotgan voqealar, balki muqobil Shimoliy Kavkaz va Kavkaz orti xalqlari oʻz muammolarini oʻzlari hal qilishga harakat qilishlari va ularning koʻngilli homiylari german va turk, keyinchalik esa ingliz koʻshinlari, shu bilan birga fuqarolar urushidagi ikki dushman Qizil va Oq qoʻshinlar urushining yengil koʻrinishi edi. Brest tinchlik sulhi bilan bogʻliq voqealar, Kavkazdagi mustaqil respublikalarning eʼlon qilinishi, fuqarolar urushi – bu muammolar yigʻindisini ittifoqdosh qoʻshinlar boshqarmasi va egallangan Istanbuldagi Oq qoʻshinlar qoʻmondonligi ham yechishga harakat qilar edi.

1919 yilning bahorida yuzaga kelgan vaziyat haqida A.I.Denikin koʻp yozgan. U voqealarning qatnashchisi sifatida, inglizlarning Kavkaz, Sharqiy Anatoliya va Rossiyaning janubi muammolari, birinchi navbatda, inglizlarning manfaatlari, yaʼni bu ulkan hududlarni bolqonlashtirish orqali yechmoqchi boʻlganliklarini qayta-qayta taʼkidlaydi.

Agar bunga Mosul bilan birga Eron, Iroqni qoʻshib olish rejasi birlashtirilsa, inglizlar ishtahasi cheksiz edi....

Boshlanib ketgan kamolchilar harakatining maʼnosiga kelsak, oʻz tarixining katta taniqli tadqiqodchisi Emre Kongarning yozganlariga eʼtibor qaratish oʻrinli. U inqilobning ikki qismi - *mustaqillik va Ota-turk islohatlariga eʼtibor qaratadi*. “Urushning borishida “kamolchilar inqilobi ijtimoiy va iqtisodiy emas, balki siyosiy va mafkuraviy, garchi oʻzining natijalariga koʻra u ijtimoiy va iqtisodiy inqilobga yoʻnaltirilgan edi” – deb yozadi tadqiqotchi.

1919 yilning yozi va kuzida Balikesir, Erzurum va Sivasda, oʻzini “Huquqni himoya qiluvchi jamiyat” deb atagan milliy birlashmalar kongressi boʻlib oʻtdi. Kongress ishida har xil doiralardan vakillar: mayda va yirik savdogarlar, zodagonlar, ofiserlar, advokatlar, jurnalistlar, yirik yer egalari va ulamolar qatnashdi. 1919 yilning 14 iyulidagi Izmirdagi “Olbayroq” gazetasida “Mustafa Kamol-poshsho jano-

bi oliylari Usmonli turklar harbiy xizmatidan iste'foga chiqdi" va "milliy ozodlik harakati boshida bunday hurmatli qumondonni ko'rish qanday baxt" degan xabarlar chop etildi. Erzurumda (iyul oyi oxiri - avgustda) uning boshchiligida sharqiy viloyatlari "Huquqni himoya qiluvchi jamiyat"ning kongressi so'zsiz uning tashabbusi bilan o'tkazildi.

Anatoliya xukumatining dastlabki organi Sivasda (4-11 sentyabrda) o'tkazilgan kongressda ta'sis etilgan, ijro etuvchi jamiyatning vatanparvarlari va barcha vatanparvar kuchlarni general Mustafo Kamol boshchiligida vakillik qo'mitasini tanishtirdi. Sivas kongressi mustaqillik uchun kurashning asosiy tamoyillarini aniqladi va harakatlarning keng qamrovli dasturini qabul qildi.

Bir vaqtning o'zida katta axamiyatga ega bo'lgan muammo – Antanta mavzusi qizg'in muxokama qilindi va siyosiy chora-tadbirlar qabul qilindi. Sivas kongressida vakolat tamoyilari to'g'risida bahslar bo'ldi. Ba'zi vakillar o'z takliflarini bayon etishdi.

Chetdan yordam Erzurumda qabul qilingan qaror va Sivas kongressida tasdiqlangan tamoyilga asoslangan. Erzurumda qabul qilingan bayonotning 7-bo'limida "Biz mamnuniyat bilan texnik, sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiy yordamni mamlakatimizga nisbatan adovatli maqsadni ko'zlamagan xar qanday davlatdan qabul qilamiz" – deb qayd etilgan. Bu yerda gap AQSh yoki Rossiyasi to'g'risida borayotganini turk tadqiqotchisi A.Mudarriso'g'li ta'kidlagan.

Kongress Mondros sulhi talablarini qabul qilishdan bosh tortdi va Damad Farid-poshsho boshchiligidagi sultonlik hukmronligiga e'tiroz bildirdi. Ammo bu harakatlar hali Anatoliya sultonlik humronligini Istanbul parlamentiga qarshi degani emas edi. Allaqachon paydo bo'lgan, ikki xokimiyatchilik aslida umumiy jihatlari tomonlarning da'volarisiz o'zaro tinch munosabatni saqlab turdi. Boshlangan kamolchilar harakatiga nafaqat interventlar, balki Anatoliyaning turli tumanlaridagi podsho tarafdori bo'lgan qurollangan otryadlar xam qarshi turishdi. Bu harakatlarga nisbatan nafaqat xarbiy usullar, balki ozodlik urushi podshohga qarshi qaratilmaganligini tushuntirish ishlari targ'ibotlari ham qo'llanildi.

Vakillar palatasi sulton palatasi bilan kelishgan holda deputatlar palatasi chaqirig'igacha faoliyat yuritishi darkor edi. Shu bilan birga uning joylashish hududi Anqara deb belgilandi.

Anatoliyadan deputatlar ismlari aniq bo'lishi bilanoq, ularni Istanbulga yuborilishini nazorat qilish maqsadida 1919 yilning 28 dekabrda Mustafo Kamol boshchiligidagi qo'mita Anqaraga jo'nab ketdi.

Anqara yo'li yomon axvolda bo'lganligi tufayli qor yog'ishidan mashinalar botib ishdan chiqmoqda edi. Yaqin atrofdagi qishloqqa piyoda borib, yordam so'rashga majbur bo'lindi. Qo'mitaning yetib kelishi to'g'risida Anqara aholisi oldindan habardor bo'lgan edi. Shaharda sulton hukumati rasman saqlangan, ammo vaqtinchalik hokim o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish yuritayotgan edi. Bosqinchi qo'shinlar asosan mayda ingliz va fransuz guruhlaridan tashkil topgan edi. Mahalliy hukumat va Anqarada joylashgan general Ali Fuad poshsho kelganlarni tantali ravishda kutib oldi. O'sha davr "yarim vayrona ingliz shaharchasi bo'lmish" Anqara aholisidan faqat ozchiligi kamolchilar dasturi va Sivas kongressi qarorlari to'g'risida ma'lumotga ega edi. Ammo Anqaraliklarga shu narsa ma'lum ediki, Mustafo Kamol va uning safdoshlari bosqinchilar bilan kelishmagan va ularga qarshi kuchlar yig'ayotgan edi. Shuning uchun ham 27 dekabr kuni Anqara ko'chalariga ko'plab odamlar, asosan yaqin qishloqlardan xunarmandlar, dehqonlar va hech qaysi hukumatni tan olmagan g'alayonchilar, darvishlar va talabalar chiqqan edi. Shahar muftiysi boshchiligidagi ruhoniylar kutib oluvchilarning alohida guruhini tashkil etardi.

Ko'l boshi qishlog'i yaqinida Kamol guruhini Ali Fuad poshsho va shaharning vaqtinchalik hokimi Yahyo G'olib bey kutib olib, guruh temiryo'l bekatiga yo'l oldi. Bu yerda (ingliz va fransuzlar ishtirokida) kelganlarni tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimni Anqara muftiysi Mahmud Rifat afandi olib bordi. Kamol va uning safdoshlari shahar markazidagi Hoji Bayram maschidi tomon yo'l oldilar. Shu kunning o'zida Vakillar qo'mitasi joylashuvi sifatida Anqara tanlangani e'lon qilindi.

Qo'mitaning birinchi ish kuni asosan Istanbul deputatlari bilan muxokamalar bilan band bo'ldi. Keyinchalik, Mustafo Kamolning aytishicha, barcha deputatlarni yig'ish imkoni bo'lmadi. Ayrimlari endi kelayotgan bo'lsa, ayrimlari Istanbulga qarab yo'lga chiqqan edi. Kundan-kunga guruhlar, hatto alohida shaxslarga bir gaplarni qaytarishga to'g'ri kelar edi. Bu muxokamalarda Istanbuldagi parlamentda kamolchi deputatlar olg'a surishi zarur bo'lgan Milliy Qasam loyihasi ishlab chiqildi. Anqarada o'ziga xos uch xokimyatchilik vujudga keldi. Bular: bosqinchi qo'shinlar, sultonga tobe bo'lgan xokim va

vakillar qo‘mitasi edi. Ammo bosqinchilar xukumati Anqarada o‘zining oxirgi kunlarini yashayotgan bo‘lib, bu yerda sulton xokimiyatini amalda xech kim tan olmas va na xokim, na sulton qo‘shinlari ko‘mondoni Ali Fuad poshshoning ham askarlari bo‘lmay eski qo‘shin yemirilib o‘z uylariga qochib ketgan edi. Vakillik qo‘mitasi uzoq vaqt bosqinchilarga qarshi kurash imkoniyatlaridan ko‘ra ko‘proq, g‘oyalarga suyanar edi. Kamolchilarda esa mablag‘ xam, tayyor harbiy kuch ham yo‘q edi. Partizan kuchlarining kamolchilarga bo‘ysunishi keyinchalik amalga oshdi.

1920 yilning yanvarida Kamol oldiga sulton qo‘shini oliy boshqarmasi polkovniki Ismat bey (Inonu) tashrif buyurdi. U Anqarada bir necha kun bo‘lib, asosan bosqinchilarga qarshi kurash va sulton xukumati bilan kelishuv rejalarini muxokama qildi. Poytaxtga qaytishdan oldin Ismat bey Mustafo Kamolga Istanbuldagi ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar yuborishni va‘da qildi. 1920 yilning 12 yanvarida Istanbulda Anatoliya vakillari ishtirokida sulton parlamenti deputatlari palatasi ish boshladi. Bu munosabat bilan Kamol ularning boshlig‘iga tabrik xati yubordi. Sulton va Britaniya oliy komissari parlament ochilishi bilan milliy ozodlik harakati asta-sekin susayishiga umid bog‘lagan edi. Parlamentning birinchi ish kunlari shuni ko‘rsatdiki, millatchi deputatlar “milliy kuchlar” va xuquqlarni himoya qilish jamiyatiga zarurat yo‘q deb hisoblab, Anqarada qabul qilgan majburiyatlarni bajarishga shoshilmayotgan edi. Vakillik qo‘mitasi qarorlari ham, ular tomonidan parlamenta o‘z fraksiyasini tuzish va ittifoqdoshlarga bosqinchi ko‘shinlarini Klikiya, janubiy – g‘arbiy Anatoliya, Izmir, Oydin va Frakiyadan olib chiqish talablari ham bajarilmadi. Natijada Kamol o‘z mashxur “Nutq”ida bu odamlarni yetarlicha baholab, ularni “sulton va xorijliklar oldida sudralib yuruvchi qo‘rqoqlar” deb atadi.

Xozircha esa 1920 yilning 26 yanvarida Vakillik qo‘mitasi o‘z deputatlariga Anqarada ular tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni tez suratlarda bajarish talabini yubordi. Bunga bo‘ysungan millatchi deputatlar 28 yanvar kuni o‘z fraksiyasini tuzib, Sivas kongressi asosida “Milliy Qasam” loyixasini qabul qildilar. Bu din, irq va g‘oya bilan birlashtirilgan usmonli musulmonlar ko‘pchiligidan tashkil topgan kelgusi Turk davlati tuzilishi va xududiy chegarasini belgilovchi, mustaqillik uchun kurash dasturi edi.

Kamolning muvaffaqiyatlari bosqinchilarni shunchalik bezovtalantirib qo‘ydiki, ular poytaxtni “tinch” bosqinidan xarbiy joriy qilish

bilan qurolli bosqinga oʻtdilar. Sulton xokmiyatini esa batamom kuchsiz qoʻgʻirchoq xukumatga aylantirib, podshohdan tashqari barcha oliy lavozimlarni hech qanday kelishuv va maslahatlarsiz oʻzgartira boshladilar. Fevral oyidan esa millatchilarga sulton safdoshlari ham hujumlarni qaytadan boshladilar. Shunday qilib, Istanbul chaqiriqlari asosida Shimoli-gʻarbiy Anatoliyada ularning rahbarlaridan boʻlgan Aznavur boshchiligida cherkeslar va abxazlarning Anqaraga qarshi qoʻzgʻolonlari boʻldi.

18-20 fevralda Anatoliyaga yaxshi qurollangan yunon qoʻshinlari tushirildi, 23 fevralda esa Istanbulga ingliz Oʻrta yer dengizi eskadrasi kirib keldi. 10 martda ingliz hukumati Istanbulda millatchi deputatlarni hibsga olishni boshladi. Anqaradan ingliz va fransuz garnizonlari tezkor koʻchirildi. Anqara bilan temir yoʻl aloqasi uzildi. 1920 yil 16 martda Istanbul telegrafisti Hamdi Anqaraga Mustafo Kamal nomiga tezkor xabar yoʻlladi. Unda kechasi Istanbulni bosib olish boshlangani, 1920 yilning 15 dan 16 martiga oʻtar kechasi Istanbulga hukumat binolari, kazarmalar, pochta, telegraf, harbiy omborxonalarni egallagan ingliz dengiz qoʻshini kelib tushgani haqida maʼlumot berilgan edi.

Bosqinchilik harakatlarning birinchi kunidayoq Istanbul va uning atrofida harbiy vaziyat kuchga kirdi. 18 martda deputatlar palatasi harakati toʻxtatildi, milliy ozodlik harakatini qoʻllab-quvvatlovchi deputatlar va mashhur siyosiy arboblarning xibsga olinib, Malta oroliga surgun qilindi. 10 aprelda Shayxul Islom Durrizoda Abdulloh millatchilik harakatlari kuchlarini kofirlar deb tan olinib, ularni oʻldirishni talab qiluvchi fatvo eʼlon qildi. Bunga javoban Anqara muftiysi Rifat afandi oʻz fatvosini eʼlon qildi. Unda xalifa kofirlar qoʻliga tushgani, xalqning u va uning safdoshlarini qutqarishi lozimligi, dushman davlatlar xohishiga binoan chiqarilgan fatvo qonunsiz ekanini eʼlon qildi. Uni yuzlab muftiylar va boshqa din arboblari qoʻllab quvvatlashdi.

Istanbul harbiy sudi Mustafo Kamolni sirdan oʻlim jazosiga hukm qildi. Shu tariqa Anatoliya va millatchilar xukumatini endi rasman tan olmaydigan Istanbulga qarshi ochiqdan ochiq urush boshlandi. 11 aprel kuni usmonli turklar vakillik deputatlari palatasi sulton tomonidan rasman tarqatib yuborildi. Turk fuqarolari uchun maxsus xarbiy dala sudi tashkil etildi. Davlat maxkamalari, bosmaxona, gazeta va jurnallar nashriyotlari bosqinchi xukumatning qatʼiy nazorati ostiga olindi, tinchlik va intizom esa ittifoqdoshlar polisiyasi va jandarmlari yordamida taʼminlanib turdi.

1920 yilning 25 martida Solih poshsho xukumati iste'foga chiqdi, yangi xukumatni esa 1920 yilning 5 aprelida mustaqillik harakati dushmani Damad Farid poshsho egalladi va "Erkinlik va hamjihatlik", "Angliya do'stlari jamiyati", ofiserlar jamiyati "Nigoxbon", "Islomni tiklash ligasi", "Halifalikni qutqarish qo'mitasi" kabi reaksion kuchlarga tayanib, milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashni yanada kuchaytirdi.

Istanbuldagi parlamentni kuch ishlatib tarqatishga javoban Kamol boshchiligidagi Vakillik qo'mitasi Turkiya tarixi uchun taqdirni hal qiluvchi ya'ni, Anqaradagi milliy ozodlik harakati oliy boshqarmasida yangi parlament chaqirish va uning tarkibiga oxirgi Istanbul parlamenti vakillirini kiritish qarorini qabul qildi.

Vujudga kelgan vaziyatda Vakillar qo'mitasi a'zolari tomonidan qabul qilingan chaqiriq va qarorlar, amalda birinchi Turkiya inqilobchi vaqtinchalik xukumati Anqarada o'z ishini boshlaganini bildirar edi. Qo'lga olingan Istanbuldan vatanparvarlik ruhidagi insonlarning qochishi boshlandi. Xarbiylar, jurnalistlar, amaldorlar guruh va yakka holda dushman to'siqlaridan kechib Anqaraga yo'l oldilar. Istanbul bosib olingan zaxoti tark etganlar qatorida Ismat bey ham bor edi.

Anqaradagi yangi parlament saylovlariga tayyorgarlik qiyin sharoitlarda kechdi. Davlatning ko'plab viloyatlari bosib olingan edi; ko'plab saylov okruglarida saylovlar harbiy holat munosabati bilan o'tqazilmay, ularning vakillari esa mahalliy xokimiyat tomonidan yoki mahalliy hukumatning keng yig'ilishlarida tayinlanar edi; ayrim viloyatlar saylovlarni qonuniy deb tan olishdan bosh tortdi va Anqaraga o'z vakillarini yubormadi.

Turkiya Buyuk Millat Majlisining (TBMM) birinchi chaqirig'i tadqiqotlari muallifining yozishicha: "Anatoliyada o'tkazilgan saylovlarining o'ziga xosligi shunda ediki, unda deputatlik maqomiga nomzodlarni kiritish xolati yo'q, ayrim nomzodlar o'zini o'zi tayinlar, boshqalar esa nomzod bo'lmasdan saylanib, Anqaraga borishdan bosh tortar edi".

Yangi Majlis Anqarada 1920 yilning 23 aprelida juma kuni chaqirildi. Kamol boshchiligidagi yangi saylangan majlis deputatlari oldin fransuz garnizoni boshqarmasi joylashgan Ulus maydonidagi yangi bino oldida yig'ilib, u yerdan tarixiy Xo'ja Bayram vali masjidiga bordilar va nomoz o'qidilar. Qurbonlik keltirilgandan so'ng deputatlar o'zlarining Turkiya Buyuk Millat Majlisining birinchi yig'ilishiga yo'l oldilar. Uning tarkibida endi saylangan deputatlar (312) bilan bir qatorda Istanbuldan Anqaraga qochgan yeski parlament vakillari (78)

ham bor edi. TBMMning binosi ikki qavatli bo'lib, tunda kerosinli chiroqlar bilan yoritilgan, qishda esa "burjuyka"ga o'xshash plitalar bilan isitilgan. Deputatlar orasida ofiserlar, savdogarlar, yer egalari, diniy arboblari, amaldorlar, huquqshunoslar va jurnalistlar ham bor edi. Shu tariqa birinchi inqilobiy majlisning ijtimoiy tarkibi milliy ozodlik harakatining tarkibi xususiyatini ochiq aks ettirar edi.

Birinchi yig'ilishni oqsoqol deputat Sharif bey ochib berdi, ikkinchi bo'lib Mustafu Kamol so'zga chiqdi. TBMM ishchi yig'ilishi o'z ishini 24 aprelda boshladi. Shu kuni TBMM deklaratsiyasi o'qildi va deputatlar "Milliy Qasam"ga sodiqlik ontini ichdilar. TBMM prezidiumi saylandi, uning raisi etib Mustafu Kamol tayinlandi. U bu lavozimda 1923 yilning 29 oktyabrigacha qolib, Turkiya Respublika deb e'lon qilingan kun Mustafu Kamol prezident etib saylandi.

25 aprel kuni muvaqqat hukumat tuzilib, o'zini davlatdagi yagona hokimiyat deb e'lon qildi va sulton hukumatining qarorlarini bekor qildi. Sulton hukumati bunga M.Kamol va milliy ozodlik harakati arboblari nisbatan sirdan o'lim jazosi e'lon qilish bilan javob qaytardi.

TBMMning birinchi tashqi siyosiy harakati 1920 yilning 26 apreldagi SSSR (Moskva)ga Lenin nomiga M.Kamol imzosi bilan jo'natilgan murojatda aks etdi. Unda rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatish va Turkiyaning mustaqillik uchun kurashida yordam berish takliflari berilgan edi. Turkiya o'z zimmasiga "Sovet Rossiyasi bilan birga imperialistik hukmdorlarga qarshi" kurashish majburiyatlarini olmoqchi edi. Sovet xukumati dunyoda birinchi bo'lib, TBMM xukumatini tan oldi va Turkiya bilan do'stlik munosabatlari o'rnatildi. 1920 yilning may oyida Moskvaga Anqaradan TBMMning birinchi diplomatik missiyasi yo'lga chiqdi. 1920 yilning oktabrida esa qiyinchiliklarga qaramasdan Anqaraga birinchi Sovet diplomatik missiyasi yetib keldi.

Bir oz vaqt o'tib, TBMMdagi M.Kamolning siyosiy raqiblari o'zlarini oshkor kilishdi. Anatoliya va Rumeli xuquqlarini himoya qilish parlament guruhi tuzildi. Respublika g'oyalarini tan olmagan va M.Kamolni shaxsiy diktaturada ayblagan deputatlar o'zlarini ittihadchilar deb atab, oldingi sulton tuzumini oqlovchi "Ikkinchi guruhni" tuzdilar.

7 iyun kuni TBMM Sulton tomonidan 1920 yilning 16 apreldan buyon qabul qilingan barcha kelishuv va qarorlarni bekor qiluvchi qonun chiqardi. Bu vaqtga kelib, Anqara muxolifat xukumatiga qarshi harakatlar kuchayib ketdi. Aksilinqilobchi kuchlarni bostirish uchun TBMM xukumati yunonlar bilan bo'lgan urushda qatnashgan qo'shin-

larni qayta tuzdi. Partizan guruhlaridan otryadlar va otliq diviziyalar tuzildi. Iyun oyida partizanlar “sulton qo‘shinlari”ni tor-mor qildilar va aksilinqilobiy g‘alayonlarni bostirdilar. Shu vaqtning o‘zida ular Izmit yarimorlidagi ingliz ko‘shinlarining himoya to‘siqlariga hujum qildilar. Partizanlarga ingliz floti kemalari qarshi chiqdi. Kuchlar tengsizligidan partizanlar Izmit qo‘ltig‘idan chekinishga majbur bo‘ldilar.

Partizanlarga qarshi ingliz flotining kemalari chiqdi. Kuchlar teng emasdi, partizanlar Izmit ko‘rfazidan ketishga majbur bo‘ldilar. Fransuz okkupantlariga qarshi kurashda Janubiy Afrikalik partizanlar muvaffaqiyatga erishdilar. 1920-yil yanvar oyi oxirida ular fransuz diviziyasi ustidan g‘alaba qozonib, Marash va Urfani ozod qildilar. Antepning qahramonona himoyasi to‘qqiz oy davom etdi. May oyida uning himoyachilari fransuz harbiylarining o‘n sakkizta hujumini qaytardilar. Tarsus, Adana, Pozanti, Sis, Usmoniya, Mersin shaharlarida ham okkupantlarga qarshi dahshatli jang davom etdi.

1920-yil 22-iyunda interventlar turk vatanparvarlariga qarshi butun yunon qo‘shinining yurishini uyushtirdilar hamda ularni eng zamonaviy harbiy texnikalar bilan ta‘minladi. Britaniya tomonidan to‘liq ta‘minlangan yunon qo‘shinlarining bir guruhi Izmirdan Anatoliyning ichkarisiga yurish boshladi. Boshqa guruh esa Sharqiy Frakiyaga kirib, Edirnani bosib oldi. Greklarning olg‘a yurish operatsiyasi natijasida G‘arbiy Anatoliya va Sharqiy Frakiyaning katta qismi okkupantlar qo‘liga o‘tdi.

Ushbu muvaffaqiyatlardan foydalanib, Antanta yetakchilari jahon urushining yakuniga ko‘ra mag‘lubiyatga uchragan Germaniya-Turkiya ittifoqi bo‘limini rasman mustahkamlash maqsadida tinchlik shartnomasini taqdim qildilar. Ushbu shartnoma imzolanganiga qadar Usmoniylar saltanatini katta qismi urushda g‘olib bo‘lgan mamlakatlar tomonidan okkupatsiya qilindi. Shartnoma 1920-yil 10-avgustda Parijning shimolidagi shaharchada imzolandi. Shartnomaga binoan, Sharqiy qism (Istanbul va unga qarashli tumanlardan tashqari) Turkiyadan olinib, Gretsiyaga berildi. Izmir va unga qarashli tumanlar Turkiyaga tegishli bo‘lishiga qaramasdan, Gretsiyaning qo‘l ostiga o‘tdi.

Shartnomaga ko‘ra Markaziy Anatoliyaning tog‘lik qismi Turkiyaga qoldirilgan edi. Uning poytaxti Istanbul bo‘lib, turklar tinchlik shartnomasini buzgan taqdirda ittifoqdoshlar uni ham olib qo‘yish huquqiga ega edilar.

Turkiya qurolsizlantirilishi lozim edi. Antanta tomonidan yo‘lga qo‘yilgan yosh turklar taqiqlagan kapitalistik tizim va moliyaviy boshqaruv qayta yo‘lga qo‘yila boshlandi. Moliyaviy boshqaruv uchun Turkiyaning kirim-chiqimidan foydalana oladigan alohida komissiya tuzildi. Qo‘shin va jandarmalarning soni 50700 kishi bilan chegaralangan edi. Qoshin harbiy komissiya nazorati ostida edi. A.F.Miller ta’kidlagandek, “Agar shartnoma amalga oshganida, Turkiya davlat sifatida qolmagan bo‘lar edi”.

Ushbu shartnoma “Sevr sindromi” deb nomlangan turk millatchilarining manfaatlari asosida tashkil topdi. U milliy g‘oyaning bir qismiga aylandi.

Anqara – yangi hokimiyatning asosiy markazi

Turkiya Milliy kengashi Sevr shartnomasini nafaqat ratifikatsiya qilishdan bosh tortdi, balki uni yo‘qqa chiqardi. Uni imzolagan turklar vatan xoinlari deb e‘lon qilindi. Shartnomani bekor qilish uchun kurash milliy-ozodlik harakatini yanada kengayishiga olib keldi.

Sevr tinchlik shartnomasini imzolashdan so‘ng Angliya tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanayotgan yunon qo‘shini o‘zining Anatoliya markaziga harakatini davom ettirdi. 29 avgustda Ushak qo‘lga kiritilgan. Shu bilan birga, turli sabablarga ko‘ra inglizlar turklarni qo‘llab-quvvatlamay qo‘ydi.

Bu paytda Turkiyaning sharqiy chegaralarida og‘ir vaziyat saqlanib turar edi. Holat murakkablashib borardi. Armaniston bilan bo‘lgan harbiy mojarolar urush darajasiga borib yetdi. Bu paytgacha tarqatib yuborilmagan K.Qorabakir boshchiligidagi turk qo‘shini 1920-yil sentabr-noyabr oylarida Turkiyaning noroziligini Sariqamish, Kars va Aleksandropolga bildirdi. Keyinroq Kars shartnomasiga binoan 1921-yilda Aleksandropol (Gumru) Armeniyaga qaytarildi.

Anqara uchun bunday qiyin paytlarda Sovet Rossiyasi bilan o‘rnatilgan do‘stona aloqalar muhim ahamiyat kasb etar edi. Dunyo tarixchilari Turkiya va Rossiya o‘rtasidagi aloqalardagi ikki haqiqatni tan olishadi. Birinchisi, Rossiyadagi inqilob Turkiyani 1915 yilgi Antanta shartnomasiga ko‘ra Rossiyaga bo‘g‘ozlarni berish majburiyatidan ozod qildi. Ikkinchisi, Rossiyani Serv shartnomasiga ko‘ra Turkiyaning hududiy majburiyatlarida harbiy hamkorga aylantirdi. Haqiqatda turk hududlarining Antanta tomonidan okkupatsiya qilinishi janubiy Rossiya, Qrim va Kavkaz intervensiyasi bilan bir vaqtda keta-

yotgan edi. Istanbuldagi okkupant qarorgohi bir o‘q bilan ikki qush urishni reja qilgandi.

AQShning Istanbuldagi savdo komissari osha davrda o‘z kitobida shunday yozadi: “Rossiyadagi eski tizimni ag‘darib tashlagan inqilob Turkiyadan boshqa bironta mamlakatga bunchalik tasir o‘tkazmadi. Biz Turkiyaning olamshumul qayta tug‘ilishiga guvohmiz. Agar Chor Rossiyasining yiqilishi va Sovet Rossiyasining ittifoqchilar bilan bo‘lgan dushmanligi bo‘lmaganda, kamolchilar harakati oddiy oyin darajasidan nariga o‘ta olmasdi”.

Hanuzgacha turk-sovet aloqalari qanday o‘rnatilganligi borasida aniqlik mavjud emas. Turkcha ilmiy adabiyotlarda bu haqda ayrim ma’lumotlar mavjud. Ularda aytilishicha, aloqalar 1919 yil may oyida Mustafa Kamol Anatoliyaga kelgach, Anqara hukumati V.Leninga 1920 yil aprelida rasmiy maktub yo‘llagandan so‘ng o‘rnatila boshlangan.

Nima bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘sha paytda bu juda muhim masala sifatida muhokama qilingan. Turklar o‘z vatanlarini qutqarish yo‘lida bolsheviklar bilan aloqa o‘rnatishga ham tayyor bo‘lganlar. Shu yo‘l bilan Rossiyadan harbiy va moddiy yordam olish imkoniyati tug‘iladi.

O‘sha davrlarda bir mamlakat bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish mumkin emasdi. Agar aloqalar o‘rnatilsa ham ular Kavkaz orqali bo‘lar, kutilgan natijani bermasdi. Shunday bo‘lsa ham ikki mamlakat hukumati hamkorlik rejasini tuzib qo‘yishgan, uni amalga oshirish yo‘llari ustida bosh qotirishardi.

Milliy kuchlar vakili Anvarning amakisi Xalil poshsho Birinchi jahon urishi yillarida usmoniylarning Kavkazdagi yurishlari qatnashchisi edi. U Kavkazni yaxshi bilardi. Uning sobiq hamkasbi Qorabakir M.Kamolga uni Anqara hukumatining norasmiy vakili qilib tayinlashni taklif qildi.

Rus hukumati yordam ko‘rsatishga tayyor ekanligini malum qildi. Xalil poshsho Rossiyada turk zobitlarining ozod qilinishi masalasi bilan ham shug‘ullanardi. Bu zobitlardan milliy front tarafida jang qilishga tayyor harbiy qism tuzishga erishildi. Qurol-yarog‘ning birinchi qismi dengiz orqali Trabzonga jo‘natishga erishildi, moddiy yordamning birinchi qismi esa Ozarbayjon orqali Turkiyaga jo‘natildi.

Xalil poshshoning jalb qilinishi shuni ko‘rsatar ediki, bu bosqichda milliy harakat rahbarlari va ishtirokchilari Antantaga qarshi bo‘lgan har qanday kuch yordamiga muhtoj edilar. Bundan tashqari, bu jarayonda harakatga tushib qolgan ittihadchilar Kavkazga yaqinroq

bo‘lish imkonini qo‘lga kiritishdi. Kavkaz ularni o‘ziga ohanrabo kabi tortardi.

Shimoliy Kavkaz ham turklar e’tiboridan chetda qolmadi. Bunga 1918 yilgi Kavkaz ishlariga aloqador bazi ittihadchilarning maqsadlari yaqqol isbot edi. 1920 yilda Anqara hukumati Kavkaz, Dog‘iston, Chechenistonga yo‘l oldi. Gap ismoil Haqqi Berqoqning ekspiditsiyasi haqida borar edi. 1920 yil Istanbulda Ismoil Haqqi tomonidan boshqarilgan va yuqorida aytib o‘tilgan Shimoliy Kavkaz jamiyati etnografik izlanishlar nomi ostida Dog‘iston va Chechenistonga harbiy ekspeditsiya uyushtirdi. Ekspeditsiya tarkibida kechagina sulton tarafida bo‘lgan asli Kavkazlik ofitserlar ham bor edi. Ularning vazifasi Tiflisdagi shakllangan kuchlarga mustaqil shimoliy Kavkaz Respublikasini tuzishda yordam berishda edi (1918 yil).

Endilikda bu haqda kundaliklar muallifining yozishicha ekspiditsiya Mustafo Kamol tomonidan ham ma’qullangandi. Bu “Etnografik ekspeditsiya 1920 yil 2 fevralda Istanbuldan jo‘nab ketdi va angliyaliklardan maxfiy tarzda Batumida toxtadi. Songra ekspeditsiya Shimoliy Kavkazning vaqtinchalik hokimiyati joylashgan Tiflisga keldi. Ozarbayjon da biroz turgach, Dog‘iston chegarasiga yo‘l oldi. Chegaradan o‘tgach esa goh yayov, goh ulovda yurib, Dog‘iston va Checheniston shahar va qishloqlarini kezdirdi.

Muallifning yozishicha, Istanbulga mustaqil Shimoliy Kavkaz hukumati tuzilganligi haqida kelayotgan xabarlar yolg‘on ekanini aniqlashib qoldi.

1920 yil iyul oyida Ozarbayjon majlisi sobiq raisi dr. Hasanning Ozarbayjonni va butun Kavkazni bolshiviklardan qutqarish iltimosi bilan Tiflisdagi Anvarga yozgan maktubining to‘liq matnida yozilishicha 27 aprelda ruslar Bakuga kirishadi. Xalil poshsho va boshqalar ularni ittifoqchilardek kutib olishadi va aholiga ularga qarshilik qilishga to‘sqinlik qilishadi. Keyinchalik esa Xalil poshsho va uning barcha hamrolari hibsga olinib, Rossiyaga jo‘natiladi.

Tiflisdagi ekspeditsiya a’zolari bilan Shimoliy Kavkazning tashqi ishlar vaziri Haydar Bemat uchrashadi va ularga mintaqadagi vaziyat haqida so‘zlab beradi. Yozuvlarda Mustafo Kamol hukumatining bir qancha kavkazlik haqidagi havotirlari keltirilgan. Shuningdek, muallif Tiflisdagi tasodifan Shamilning nabirasi Saidning ikki nafar suriyalik chechen bilan uchrashgani haqida ham yoziladi. Saidning u yerga borishidan maqsad Kavkazning qabilalarga bolingan va shayxlar

o'rtasida taqsimlangan xalqini birlashtirish va ruslarga qarshi yagona muholifatga aylantirish edi.

Ismoil Haqqi Trabzonga qaytib Karabekirga Shimoliy Kavkazga uyushtirilgan safar haqida to'liq malumot yetkazish kerak deb hisoblaydi. Kamolchilarning bolsheviklar bilan harbiy kelishuvi va buning uchun Kavkazdan qulay yo'lak sifatida foydalanish maqsadi hammaga ma'lum edi. Shu sababdan xabarda ekspiditsiya a'zolari neytral tomon qilib ko'rsatildi. Haqiqatdan ham Xalil Poshsho va Nuri Poshsho M.Kamolni Kavkaz respublikalarining ozodligini qo'llab-quvvatlashini iltimos qilishadi. Angliyaliklar Bolsheviklarning kavkazga kelishlari ehtimoliga gruziya mensheviklaridan arman doshnoqlari va ozarbayjon musovotchilaridan iborat front tuzmoqchi edi.

Bu haqda 1920 yil M.Kamol o'zining hisobotlaridan birida yozgan. Davlat bolsheviklar va turklar o'rtasidagi bevosita aloqani kavkaz xalqlari orqali uzishga rozi. Ular Armaniston va Ozarbayjon, Gruzuya, ehtimol Shimoliy Kavkazning ham ozodligini bolsheviklar bilan urush tufayli tan olishga tayyor. Bu bilan ular mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashadi. Agar ular bunga erishishsa, Kavkaz xalqlarini bizga qarshi devorga aylantirishadi. Agar Turkiya qurshovda qoladigan bo'lsa, qarshilik ko'rsatish imkoniyati qolmaydi. Kavkazni xitoy devoriga aylantirish rejasi, shubhasiz, Turkiyani yo'q qilish rejasi edi. Bu to'siqni buzib tashlash uchun har qanday chorani ko'rish va kavkazliklar bilan aloqa o'rnatib ularning maqsadlarini aniqlash zarur edi.

1920yil 11 aprelda rus qoshinlari Armaniston chegarasida to'plab, 26 aprelda uni buzib kirdi. 26 aprelda Mustafa Kamol TBMM nomidan Xalq Komissarlari Soveti raisi V.I.Leninga maktub bilan murojat qilib, unda Rossiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatish, u bilan imperializmga qarshi kurashishga chorladi. Yosh Turkiya Respublikasi o'z hududidagi imperialistik kuchlarga qarshi kurashda Rossiyadan yordam kutayotgan edi.

27 aprelda baku bolsheviklari milliy hukumatdan hokimiyatni ularga berishini so'radi. 28 aprelda Ozarbayjon SSR tashkil etildi. Armaniston esa Milliy doshnoq partiyasi tomonidan boshqarilardi. U Turkiya va sovetlarning birlashishi uchun yagona to'siq edi.

1920 yil noyabrda Armanistonda ham sovet hukumati o'rnatilib, Armaniston SSR tashkil etildi.

M. Kamolning 1920 yil 26 apreldagi Leninga yozgan maktubi yangi Turkiyaning Sovet Respublikasi bilan aloqalarining rasman

boshlanishi edi. 11 may kuni TBMM delegatsiyasi ilk bor rasmiy hay'at sifatida Moskvaga kelishi kerak edi. Yuqorida aytib o'tilgan to'siq tufayli delegatsiya Moskvaga faqat 19 iyulda yetib kela oldi. 24 iyulda Bekir Sami va uning o'rinbosari Yusuf Kamol Sovet Tashqi ishlar komissari G.V.Chicherin bilan uchrashdi. 14 avgust kuni turk hay'ati Lenin bilan uchrashdi. Kelishilgan yordam ikki yo'nalishda bo'ldi: 1. Qurol-yarog', o'q-dori va moddiy yordam: 2. Qoshma harbiy kuchlarni shakllantirish. 10 mln. oltin rubl miqdorida moddiy yordam belgilandi (bu 1250000 usmonli oltiniga teng edi).

1920 yilning iyulida Xalil poshsho yuz ming oltin lira miqdordagi mablag' bilan Turkiyaga qaytdi. Choparlar bu mablag'ni qiyinchilik bilan Naxchivanga olib kelishdi. Faqat 1920 yil 8 sentabrdagina oltin quymalar Erzurumga olib kelindi. Ular qoidaga muvofiq tortilib sharqiy armiya ixtiyoriga (Qorabakirga) berildi, qolgan mablag' Anqaraga jo'natildi.

Moskva bilan qat'iy aloqalar o'rnatish uchun Berlinga qochgan ittihadchilarning yo'l boshchilari Berlin sotsialistlari orqali harakat qilishardi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra bolshiviklar bilan birinchi bo'lib ittihadchilar aloqa o'rnatishgan.

Anvar poshsho Berlin qamoqxonalarida Karlo Redek bilan uchrashadi va uning ozod qilinishiga erishadi. Moskvaga Karlo tomonidan musulmonlar orasida mashhur bo'gan Anvar poshshoning taklifi katta qiziqish uyg'otdi. Tez orada u bilan hamkorlik haqida kelishuv imzolandi. Anvar poshsho Sovet Rossiyasiga borib kelishga bir necha bor urinib ko'rdi. Nihoyat 1920 yil 7 avgustda u Moskvaga yetib keldi. U bolshevik hukumatida katta qiziqish uyg'otardi.

Anvar poshshoning Moskvaga kelishi bilan bazi muammolar paydo bo'ldi. U M.Komol bilan yozishib turardi. Anvar poshsho Islom inqilobiy tashkilotining yetakchisi ham edi. U 1920 yil 1 sentabrda Bakuda ochiladigan Sharq xalqlari quriltoyiga bordi, keyin esa Berlinga qaytdi.

Ingliz turkologi Mango sovet bolsheviklari M.Kamol uchun xavfli do'stlar bo'lganligini ta'kidlaydi. U ruslarning moddiy yordami va qurol yarog' yordami komunizmga xayrihohlikni kuchaytirdi va turk millatchilari orasida birlikka salbiy tasir ko'rsatganini aytadi.

Bakir Samining Moskvadagi muzokaralari kutilgan natijani bermadi. 1920 yil 24 avgustda hamkorlik haqidagi kelishuv tasdiqlansada, Tashqi ishlar vaziri G.Chicherin Turkiya armanlarga Van va Bitlisning bir qismini qaytarishi zarurligi, 1914 yilgacha Rossiya

hududida bo'lgan viloyatlar (Sariqqamishdan tashqari) qaytarishi zarurligini aytdi. Bakir Sami Anqara bilan zudlik bilan to'gridan to'g'ri aloqa qilolmaganligi tufayli Anqaraga xabar jo'natdi. Bunga M.Kamolning javobi salbiy boldi. Chnki u Turkiyaning bir qarich yerini ham bera olmasdi.

14 dekabrda turk delagatsiyasi yo'lga chiqadi va 1921 yil 18 fevralda Moskvaga yetib keladi. 19 fevralda Turkiyaning yangi elchisi Checheringa ishonch yorlig'ini topshiradi. Sovet elchisi esa Anqaraga yetib keladi. Kavkazorti respublikalarida esa bu davrda hukumatlar o'zgairi yuz berayotgan edi. 1921 yil 14 fevralda Qizil armiya Gruziyaga yurish boshlaydi va 25 fevralda Tbilisiga kirib boradi.

Bu voqealar 1921 yil 16 martda dostlik va birodarlik bitimi imzolanishi bilan nihoyasiga yetdi. Kelishuvning kirish qismida ikki tomon ham "xalqlarning dostligi va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi" prinsiplarini qo'llab quvvatlanishi, shuningdek, ikki davlatning "imperializmga qarshi kurash borasidagi hamfikrligi" ta'kidlandi.

Rossiya bilan bo'lgan shartnomaga kelinsa, uning maxfiy qismida Rossiya Turkiyaga 10 mln. oltin rubl miqdorida yordam berishi aytilgandi. Gap faqat moddiy yordam haqida edi.

Turkiya vakillari diplomatik huquqlar bilan Novarossiysk va Batumida kelishdi. Turkiyaga moddiy yordam turli yollar bilan ta'minlandi. 1920-yil 6 oktabrda Moskvaga navbatdagi muzokaralar uchun kelgan Turkiya moliya vaziri Yusuf Kemal Bey o'zi bilan 1 mln rubl olib ketdi. Oltinlarning bunday katta partiya bilan jonatilishi keyin ham davom etdi. 1920-yil 7 noyabrdan so'ng Anqarada birinchi RSFSR elchihonasi ochildi.

Moskva kelishuvi imzolangandan keyin oradan yarim yil o'tib, Kavkazorti davlatlarida Sovet hukumati o'rnatilgach, 1921-yil 13 oktabrda Kamol hukumati vakillari bilan dostlik haqida kelishuv imzolandi.

1921-yil 2 dekabrda 1922-yil 14 yanvargacha Turkiyada bolgan M.Frunze Turkiya bilan Ukraina nomidan dostlik shartnomasini imzoladi. U M.Kamol bilan bir necha bor suhbat qildi. Turk qoshinlarining g'arbiy frontdagi qarshi hujum rejasi tuzilishida qatnashdi, qaytayotganida esa Kamoldan V.Leninga eltish uchun maktub qabul qildi.

Profesor M.S.Meyerning yozishicha, Checherin 1921-yil oktabr oyida Leninga yozgan maktubida uning etiborini chekistlarning turk diplomatlari va savdogarlariga nisbatan o'zboshimchaligi va chekistlar va maxsus organlarning Qora dengiz va Kubansk qig'oqlaridagi hara-

katlariga qaratadi. Keyinroq 1922 yil aprel oyida chekistlar diplomatik protakol me'yorlariga zid ravishda harbiy attashe uyida tintuv otkazishadi, uning yordamchisini hibsga olib hujjatlarini olib qo'yishadi.

Birinчилardan bo'lib Kamol hukumatini Sovet Rossiyasi tan oldi va o'zining diplomatik vakillarini Anqaraga jo'natdi. Sovet elchixonasining Anqarada ochilishi 1920 yilning 7 noyabrda bo'lib otdi.

1921yil 26 martda yunon armiyasi g'arbdan Anqara tomon harakat qila boshlagandi. Dastlab Adapazariga kirgan yunon armiyasi 12-20 iyulda Afyon-Qorahisor, keyin Kutahya va Eskishaharni egalladi. 1921 yilning avgust va sentabr oylarida Anqara ostonasida Sakarya daryosi boylarida og'ir janglar davom etdi. Rossiyadan kelayotgan oltinlarga kamolchilar avvalo qurol-yarog' sotib olishga harakat qilishdi. Keyinroq esa, 1921 yil 8 oktabrda Turkiya Moliya vaziri 1921 yil Rossiyadan kelgan yordam haqida parlamentga hisobot berdi.

Mamlakatning kamolchilar tomonidan nazorat qiladigan hududlari uzoq vaqt g'arbdagi omadsizliklarga qarshi tura olmadi. U yerdagi interventlar muammosi Versal shartnomasi asosida hal qilindi.

Anqara nafaqat Kavkaz muammosini hal qila oladigan, balki g'arbiy Anatoliya va Frakiyadagi bosqinchilarni to'xtatib yakson qila oladigan hamda poytaxt Istanbulni ozod qila oladigan kuchli va ishonchli armiyasiga ega bo'lish ehtiyojini sezayotgan edi. Osha davrda asosiy qurolli kuch hisoblangan partizanlar bilan kamolchilarning aloqasi va sulton qo'shinlari hamda antantaga qarshi harbiy operatsiyalar ham doimo bir maromda ketmayotgandi. Shu bilan birga, kamolchilarga qarshi qozg'olonlar Anatoliyaning goh u qismida, goh bu qismida kuzatilayotgan edi. 1920-yilda yangi parlament tuzilishi davrida qozg'olonlar Anqaraga yaqinlashdi. Bo'lu tumanida sulton tarofdorlari bo'lgan cherkeslar bosh ko'taradi. Keyinchalik ular Adapazari hududida jang qilayotgan sulton qoshinlariga qoshiladilar.

O'sha davrda kamolchilarga yordam ko'rsatgan yana bir partizan uyushmasi Yashil armiya edi. U yarim harbiy, yarim siyosiy, Turkiyada tuzilgan kommunistik guruhlariga nisbatan katta tasirga ega bo'lgan uyushma edi. Yashil armiyaning tezkor o'sishi kamolchilarni xavotirga solardi. 1920 yil oxirida kamolchilar ularni tarqatib yuborishga erishdi. Bu ish Anqara hukumatiga partizan guruhlarini birlashtirish va ularni doimiy armiyaga aylantirishda yordam berdi. 1921 yil boshlarida doimiy armiya tarkibida 90 mingdan ortiq askar to'plandi.

Kamolchilar o‘z hokimiyatlarini mustahkamlash jarayonida partizan partiyalarini boysundirish, qolganlarining faoliyatiga esa chek qoyishi orqali Turkiya kommunistik partiyasini ham tugatishga muvaffaq boldilar. Kamolchilar kommunistlarning faoliyati kuchayishidan xavotirda edilar. Shuning uchun kamolchilar 1920 yil oktabrda o‘zlarining kommunistik partiyalarini tuzadilar. Bu "Turk kommunizmi" nomini oldi va u kommunizmni "muqaddas islom aqidalari" bilan birlashtirish haqidagi shiorlar bilan chiqdi. Keyinroq, 1921 yilning yanvarida Tarabzonda partiya raisi va uning 14 nafar safdoshiga suyuqasd uyishtirildi.

Partizan guruhlarining muvaffaqiyati ham, doimiy armiyaning tuzilishi ham 1920-1921 yillarning birinchi yarmigacha kamolchilarga yordam bera olmadi va ular yunonlarni Anatiliya markazlarigacha to‘xtata olmadi. Aytib o‘tish lozimki, u davrda Kavkaz muammolari hal qilinayotgan, sovet-turk do‘stlik va birodarlik bitimi tayinlanayotgan edi. Bu davrda yunon qo‘shinlari G‘arbdan Anqara tomon yurishni davom ettirardi.

12 avgustda Mustafo Kamol boshqaruv shtabi boshlig‘i Fevzi Poshsho bilan birga Po‘latlidagi front chizigida boldi. Himoya chegarasi yoldan qaytishda uning oti birdan chochib ketadi va chavandozni uloqtirib yuboradi. Mustafo Kamol qovurg‘asi singanligi tufayli 5 kun Anqarada qoldi, keyin frontga qaytdi. 15 avgustda yunon qiroli Konstantin Anqaraga hujum qilish haqida buyruq beradi. Avgust oyining oxiri, sentabr oyining boshlarida Anqara ostonasida Saqar daryosi boylarida og‘ir janglar ketayotgandi. Rossiyadan kelayotgan oltinlarga kamolchilar avvalo qurol yarog‘ sotib olishga shoshilishardi.

TBMM (Turkiya Buyuk millat majlisi) M.Kamolni uch oy muddatga favqulodda huquqlar bilan bosh qomondon qilib tayinladi. Ismat poshsho g‘arbiy frontga qo‘mondon qilib tayinlandi. Hukumat tomonidan bir qancha qat‘iy qoidalar ishlab chiqildi. Ular tartibni kuchaytirish, mablag‘i borlarni armiyani oziq ovqat, ulov va kiyim-kechak bilan taminlashga jalb qilmoqchi edilar.

Songi hal qiluvchi jang oldidan yunon qoshinlari Turk qoshinlaridan ham son ham qurol yarog‘ jihatdan ustun edi. Turk armiyasida 40 ming miltiq, yunonlarda esa 88 ming miltiq bor edi. Turklarda 700 pulemyot, yunonlarda esa 7 ming, zambaraklar soni tuklarda 177, yunonlarda 800 ta edi. Samolyotlar yunonlarda 20 ta, turklarda esa 2 ta edi.

1922 yil 19 avgustda M.Kamol Chankaya qarorgohida harbiy harakatlarda qatnashmayotgan Turkiyaning ko'zga koringan kishilari ishtirokida qabul otkazdi. Lekin mezbonning o'zi qabulda ko'rinmadi. Keyin malum bolishicha Kamol bu vaqtda Anqaradan ancha uzoqda edi. U umumturk qarshi hujum rejasi tuzilayotgan fronda ketgandi. Qabul Anqaradagi josuslar ko'zini shamg'alat qilish uchun uyishtirildi. Kamolning roziligi bilan armiyaga mashhur yozuchi ayol Xolida Edip qabul qilindi. U 20 avgustda frontga yetib keldi.

23 avgustdan 13 sentabrga qadar Anqaradan bir necha on kilometr masofada shahar tarixidagi eng katta jang bolib o'tdi. Yunon qo'shinlari Saqar daryosining sharqiy qirg'og'ini egallashga muvaffaq bo'lishdi va temir yo'l bilan borib Po'latlini ham qolga kiritdilar. Yunon qoshinlarining birinchi qanoti Anqaraning Janubi-g'arbida harakat qilardi. Ular Haymanani egallab, 1 sentabrda Anqara tomon harakat qildilar. Ular bilan shahar orasida 50 km qolgandi. Lekin birinchi qanot qoshinlari turklarning matonatli qarshiliklari tufayli to'xtatildi. Kuchsizlanib qolgan yunon qoshinlari oldinga harakatlana olmadi. Katta qiyinchiliklar bilan yunon qoshinlari 13 sentabrda Saqar daryosi ortiga uloqtirib tashlandi. Anqara qutqarildi, tez orada G'arbiy front idorasi Sivrihisorga ko'chirildi.

1921-yil 27 sentabrda M.Kamol Istanbulda istiqomat qiladigan onasi Zubayda xonimdan maktub oladi. Unda onasi uni TBMM tomonidan berilgan Marshal unvoni va G'ozni nomi bilan tabrikladi. Saqar jangi qatnashchilarining 129 tasiga TBMM nomidan tashakkurnomalar, 234 tasiga Mustaqillik medali topshirildi. 1922-yil 26 avgustda turk tarixchilari ta'biri bilan aytganda Buyuk turk yurishi boshlandi. O'sha kuni Eskishahar ozod qilindi. Qarshi hujum shiddat bilan davom etar edi. Turklar Kutahyani ham egallaydilar. 9 sentabrda Izmir ozod qilinib, 16 sentabrda yunonlar qolidagi so'ngi turk yeri hisoblangan Bandirma ham ozod qilindi.

Izmirning ozod qilinishi Kamolning shaxsiy hayotida ham katta o'rin egalladi. O'sha kunlar u o'zining bo'ajak rafiqasi bilan tanishdi. Izmirdagi ulkan yong'in sabab unga tunash uchun joy va boshqaruv shtabi uchun qarorgoh kerak edi. Bu sabab uni nufuzli turk savdogari Muammar Ushoqzodaning honadoniga olib keldi. Uning bir qizi bo'lib, Kamol va Latifaning birinchi uchrashuvlariga Xolida Edip xonim ham guvoh bolgan edilar. Xolida xonim 1922 sentabrda Izmir ozod qilinishida hamrohlik qildi. Izmir olingan kunning ertasiga 10

sentabrda Xolida xonim Kamol bilan uchrashdi va uning koʻzlarida oʻzgacha quvonchni koʻrdi. Maʼlum bolishicha u yosh Latifa ismli xonim bilan tanishgan ekan.

Nikon marosimi kelinning otasi Muammar bey Ushoqzodaning xonadonida 1023 yil 29 yanvarda bolib oʻtdi. Kamolning guvohlari marshal Fevzi Chaqmoq va Kozim Qorabakir boldi. Latifa xonim tomonidan Mustafu Abdulhaq va Solih Boʻzoqlar boʻlishdi. Shuningdek, Izmir qozisi ham marosimda ishtirok etdi. Lekin bu nikoh uzoq davom etmadi. Avvaliga ular Anqarada ham, mamlakat boʻylab safarlarda ham doim birga boʻlishdi. Keyinchalik, birgalikda safarlar soni kamaydi. 1925-yil 5 avgustda ular ajraldilar. Bu haqda Mustafu Kamol rasman 11 avgustda hokimiyatga yozgan xatida maʼlum qildi. Otaturk va Latifa xonimning farzandlari boʻlmadi. Latifa xonim nafaqat goʻzalligi, balki aqli va atrofdegilarga boʻlgan muomalasi bilan ham hurmat va eʼtibor qozongan edi.

Latifa xonim keyinchalik yaqinlaridan biriga Mustafu Kamolning ajrashish oldidan aytgan soʻzlarini aytib bergan edi: "Latifa menga harbiy soʻzini ber, hech qaysi jurnalistga bizning birgalikdagi hayotimiz haqida soʻzlab bermaysan..."

1922-yil 18 sentabrda turklar butun Anatoliyani ozod qilishga erishishdilar. Hatto dushman tomonning bosh qoʻmondoni general Trikupis hibsga olindi. Bunday holatda milliy masala qanday hal qilinishini tasavvur qilish ham qiyin emas edi. Yunon va arman millatiga mansub kishilar bor mol-mulk, yerlari, uylari, doʻkonlarini tashlab mamlakatdan bosh olib chiqib ketishdi.

Anatoliyani ozod qilib turk armiyasi Yevropa qirgʻogʻi tomon yurdi. Bu orqali mamlakatni bututnlay ozod qilib, Boʻgʻoz Istanbul va Sharqiy Frakiyani ham qoʻlga kirirtish koʻzlangandi. Lekin ingliz qomondonligi bunga qarshi chiqib harbiy harakatlarni davom ettirishini aytib tahdid qildi. Muammoni yechishga fransuz diplomati Franklen-Buyon kirishdi. U Antantaning barcha aʼzolari nomidan turklar Sharqiy Frakiyani jangsiz olishlariga ishontirgachgina, M.kamol kelishuvga rozi boldi va harbiy harakatlarni toʻxtatdi.

1922 yil 3 oktabrda Marmar dengizi qirgʻogʻida kelishuv boyicha muzokaralar boshlandi. Muzokaralarni Turkiyadan Gʻarbiy front qomondoni Ismat Poshsho Antanta tomonidan esa Angliya-Fansiya va Italiyaning Istanbuldagi oliy komissarlari olib borishdi. Yunon delegatsiyasi muzokaralarda deyarli qatnashmadi. Bu orqali yunon interven-

siyasining asosiy mualliflari Antanta vakillari ekani va barcha oqibatlar uchun ularning javobgar ekanligi tasdiqlandi. Ittifoqdoshlar Sharqiy Frakiyaning turklarga zudlik bilan o'tishiga qarshilik qilishdi. Bunga javoban Ismat poshsho muzokaralarni to'xtatadi va qoshinlarni bo'g'ozlarga olib kelib qoyadi. Natijada shunga kelishiladiki, Sharqiy Frakiyaga kamolchilar ma'muriyati va jandarmeriyasi keladi. Ittifoq qoshinlarining Istanbuldan olib chiqib ketilishi so'nggi asosiy kelishuvlardan keyin amalga oshiriladi (1922 yil Mudaniya kelishuvidan so'ng).

Harbiy harakatlar yakunlangach, TBMM "uyda tartib o'rnatishga kirishadi, lekin bu boshqaruv tizimi ham o'zining birdamligi bilan ajralib tura olmasdi. Eng xavflisi esa Istanbul edi. Ikki hokimiyatchilik juda xavfli edi. Buning ustiga tez orada 1922 yil 20 noyabrda Tinchlik kelishuvi boyicha Lozan konferensiyasi ochilishi zarur edi.

1921 yil 20 yanvarda M.Kamol va uning guruhining taklifi bilan TBMM qabul qilgan "Uyushmalar asosi haqida"gi qonun yangi hukumatning birinchi qabul qilgan konstitutsiyasi bo'ldi. Qonun 23 moddadan iborat edi va birinchi modda "davlat boshqaruvi xalqqa tegishli ekanini takidlardi". 2-chi modda esa ijro etuvchi hokimiyat va qonunchilik taklifi TBMM tomonidan amalga oshirilishi va Turkiyani Buyuk turk millati majlisi boshqarishi va uning hukumatni tuzish huquqi borligi va qarorlar ijrosi taminlanishi, diniy masalalar, barcha qonunlar e'loni va ularga o'zgartirish kiritish yoki bekor qilish, kelishuvlar tuzish, urush e'lon qilish va mudofaa holati nazorati uning huquqi deb belgilandi. Qonun TBMM raisidan tortib deputatlar, hokimiyat, mahalliy boshqaruv organlari, hatto tuman boshqaruvchilari vazifalari haqida to'liq ko'rsatma berdi. Lekin unda Xalifa haqida hech qanday so'z ketmasdi. Interventlar bilan jang avjida kamolchilar milliy front qulashidan xavotirlanib, sultonni ag'darish va mamlakatni Respublika deb e'lon qilishga shoshilishmagan edi.

Rasmiy uyushmalar tuzish haqidagi qonun eski konstitutsiyaga zid emas, balki uni toldirardi (1876 yil qabul qilingan va 1909 yil o'zgartirish kiritilgan Mithat Poshsho konstitutsiyasi). Ushbu hujjat sultonning mamlakatni boshqarishi uchun hech qanday huquq bermas edi. Bu esa kamolchilar uchun jiddiy yutuq edi. Asosiy qonun yangi Turkiya uchun asos bolib qolaverdi. Usmonli konstitutsiyasi yangi Turkiya uchun ahamiyat kasb etar edi. Shunday bolsada, konstitutsiya mamlakat boshqaruvini aniq belgilab bera olmadi.

1922 yilda yunonlar mamlakatdan quvib chiqarilgach, yagona milliy front parchalana boshladi. 1922 yil boshlarida o'ng muxolifat (ular orasida sobiq ittihadchilar ham bor edi) 1921 yilda Mustafo Kamol tuzgan huquq himoyasi jamiyatiga qarshi guruh tuzadi. Ularning maqsadlari ittifoqdoshlar bilan kelishish va hokimiyatni sultonga qaytarishdan iborat edi. Ular 1922 yil iyul oyida Rauf beyni hokimiyat rahbari deya e'lon qilinishiga erishadilar. Ularning maqsadi ikki hokimiyatchilikka o'zlaricha chek qo'yish, TBMMni tarqatib yuborib, hokimiyatni Istanbulga, uning "qonuniy" egasi – podshohga qaytarish edi. Rauf bey "sultonga butun ruhi bilan sodiq ekanini" elon qiladi. O'z navbatida, Tavfiq poshsho boshliq sulton hokimiyati bu muammoni hal qilingan deb hisoblardi. Erishilgan g'alaba haqida Mustafo Kamolga xabar berilib, har qanday nizoga chek qoyilgani, Istanbul va Anqara o'rtasidagi siyosiy bolinishga barham berilgani aytili.

Qonunchilik taqdiri 1922 yil 1 noyabrda hal boldi. TBMM sultonlikni xalifalikdan ajratish va sultonni yo'q qilish haqida qonun qabul qildi. Sulton yo'q bo'lishi bilan uning hokimiyati o'z-o'zidan yo'q bo'ldi, ikki hokimiyatchilik barham topdi. 1922 yil 1 noyabrda sultonning chetlatilishi nafaqat majlisdagi konservatorlar, balki boshqalarni ham bezovta qilib qoygandi. Muxolifatni hal qilish uchun Kamol TBMMni tarqatib yuborish va saylovlar otkazishga erishdi.

Muxolifatning antimilliy harakatlariga check qoyish uchun, TBMMning 1922 yil 30 oktabrdagi majlisida sultonni yoq qilish va uning hukumati va tarafdorlarini davlat xoinlari sifatida sud qilish taklifi kiritildi. Bu taklif birdaniga uchta komissiya (konstitutsiya, adliya va shariat) tomonidan muhokama qilindi. Deputatlar, ayniqsa ruhoniylar sultonning yo'q qilinishiga qarshi chiqishdi. Chunki dunyoviy davlatning dindan uzoqlashishi islom asoslariga zid edi. Mustafo Kamol bu taklifni rad etdi. Uchta komissiyaning birlashgan majlisida esa Hoji Mufrid Afandi boshliq deputatlar g'olib chiqdi. Kopchilik ovoz bilan sultonning xalifalikdan chetlatilishi qarori bekor qilindi. Shundan so'ng Mustafo Kamol yuksak minbarda turib: "Hokimiyat va suverenitet kuch bilan, kerak bolsa zo'rlik bilan qolga kiritiladi. Usmonli sulolasi faqat zo'rlik bilan butun turk millatini birlashtira oldi va uni olti yuz yil boshqardi. Endi bu xalq zulmga qarshi bosh kotaradi va uni uloqtirib tashlaydi, songra oziga tegishli bo'lgan suverenitetni qo'lga oladi. Bu ish bitdi... Haqiqat baribir o'z yuzini korsatadi. Lekin bunda bir necha kishining boshi ketadi" – dedi.

Xalifalik rutbasi uchinchi shaxs tomonidan Vahdiddinning amaki-vachchasi valiahd shahzoda Abdulmajidga sultonning birinchi xotinidan tugʻilgan katta oʻgʻli va shu qatorda tirik qolgan usmoniylarning ota tomondan eng kattasiga topshirildi. U bu rutbani 1922 yil 19 noyabrda rasman qabul qildi.

Xalifalik faqat vaqtinchalik ushlab turildi. U ham bolsa "huquqlar himoyasi" boyicha majlisga tegishli, mamlakatda sezilarni ta'sirni saqlab qolgan klerikal-feodal doiralarga yon bosib qilindi. Uni Rauf bey boshliq "bosh muholifat" qollab turardi. Shuni ham hisobga olish kerakki, Istanbulda "Birlashish va rivojlanish" tashkiloti oz faoliyatini tikladi. Yosh turklar rahbarligidagi faol Istanbul gazetali Xalifa foydasiga kuchli propaganda olib borar edi. Shubha yoqki hali kamolchilar yunon intervensiyasini Anvar poshsho tirik va faol ish olib borayotgan paytda hal qilishga qodir emasdilar, ittihadchilar M.Kamolni Anvarga almashtirishga tayyor edilar.

1922 yilda yunonlar ustidan qozonilgan galaba, shubhasiz, M.Kamolning pozitsiyasini mustahkamladi. Lekin M.Kamol va ittihadchilar oʻrtasida quyidagi masalalar yuzasidan ochiq mojaro yuzaga keldi/ Bular: M. Kamol va boshqa harbiy qomondonlarning ururshdan song oʻz lavozimlaridan ketishlari, Istanbul va Frakiya ozod qilinmaganiga qaramay, Mudaniya yarashuv bitimining shoshilinch imzolanishi, M.Kamolning Turkiyani Respublika deb eʻlon qilinishi, Anqaraning Turkiya Respublikasining poytaxti bolishi kabi.

1923 yil 9 sentabrda JXP tuzildi. Shu davrda Mustafo Kamolning 9 ta tamoyili eʻlon qilinib, bular davlat himoyasi va mustahkamlanishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishni koʻzda tutardi. Har biri alohida sanab oʻtiladigan boʻlsa, bular quyidagilardan iborat edi: 1. Hokimiyatni toligʻicha xalq qoʻlida jamlash; 2. Oliy hokimiyatning bolinishsiz Turkiya Buyuk Millat Majlisida bolishi; 3. Mamlakat himoyasi millatning eng asosiy vazifasi ekani; 4. Kema ishlab chiqarishni qayta tiklash; 5. Iqtisodning rivojiga har tomonlama turtki berish; 6. Harbiy xizmat muddatini qisqartirish; 7. Urush nogironlari va ularning olilalariga moddiy yordam berish; 8. Hukumat muassasalarini qayta tuzish va tartibga solish; 9. Iqtisodga jamiyat tashkilotalari va xususiy kapital kiritilishini kuchaytirish. Bu tamoyillar 1923 yil iyun-iyul oylarida boʻlib oʻtgan TBMMning ikkinchi chaqiriq saylovlariga dastur bolib xizmat qildi.

1923 yilning yanvar-fevral oylarida Mustafo Kamol hali saylovlar tayyorgarlik bosqichida bolganda mamlakat boylab sayohat uyushtirdi. Bu sayohat Anatoliyaning katta qismini qamrab oldi. Bundan maqsad jamiyatni o'z qarashlari bilan tanihtirish edi. U avval Eshkishaharga keldi, keyin Izmirga o'tdi. U yerda Istanbuldan kelgan jurnalistlar bilan suhbatlashdi. 22 yanvarda Bursaga keldi va yana qaytib Eshkishaharga bordi. So'ngra Izmirga kelib, onasining qabrini ziyorat qildi.

1922 yil 20 noyabrda turk delegatsiyasini Ismat poshsho boshqarayotgan edi. Antanta davlatlari bilan imzolangan Lozan tinchlik bitimi chozilib ketdi. G'arb armiyasi urushda mag'lubiyatga uchrab, urush boshlanishiga sabab bolgan masalalarni tinch yol bilan erishishni afzal ko'rdi. Bundan tashqari, Qora dengiz masalasida RSFSR, Ukraina SSR, Gruziya SSR (yagona delegatsiya bilan) va Bolgariya, bazi ikkinchi darjali masalalarni hal qilishda esa Belgiya, Gollandiya, Ispaniya, Portugaliya, Norvegiya va Shvetsiya qatnashdi.

Muzokaralar boshida malum boldiki, ittifoqchilar Turkiyani iqtisodiy va siyosiy jihatdan bo'ysundirmoqchi edi. Turklar esa kapitulyatsani, moliyaviy nazorat va siyosiy aralashuvni bekor qilishni talab qilardi. Fransiya Turkiyaga qo'yilgan tashqi kapitalning katta qismiga egalik qilmoqchi edi. Angliyani esa hududiy masalalar, avvalo, Musul, shuningdek, bogozlar maqomi qiziqtirayotgan edi. Sovetlarning bogozlar boyicha pozitsiyasi Lenin tomonidan 1922 yil 27 oktabrda ingliz muxbirlariga berilgan intervyuda bayon qilindi. Uning so'ziga qaraganda, Sovet Ittifoqi bogozlarga nisbatan Turkiyani qollab-quvvatlardi. Bu urush paytida ham bogozlarning har qanday harbiy kemaga yopiqligi degani edi.

Turkiya delegatsiyasi sovetlarning taklifini qabul qilmadi. Ismat poshsho Marmar dengiziga kirilishini xohlamasdi. Sovet delegatsiyasi konvensiyaning songi bosqichi ustida ishlashdan chetlashtirildi va bu noroziliklarga sabab boldi. Shu bilan birga, Turkiya va Antanta tuzayotgan bo'gozlar konvensiyasi Qora dengiz davlatlarining hayotiy manfaatlariga zid kelardi.

1923 yilda to'rt ittifoqdosh davlat kapitulyatsiyani to'la bekor qilish, keyin teng bo'lmagan barcha shartlardan voz kechishga majbur boldi. Usmonli davlatining qarzlari yuzasidan valyuta masalasi ochiq qoldirildi. Turkiya Musuldan butunlay voz kechdi va bu masalada Millatlar ligasining bo'lajak qarorini kutishga rozi boldi. 1923 yil 24 iyulda Lozan universitetining majlislar zalida Lozan tinchlik bitimi

imzolandi. Turkiya bir qator pozitsiyalar boyicha yon bosdi. Sovetlarda norozilik uygondi. 1923 yilgi bogozlar haqidagi Lozan konvensiyasi boyicha Turkiya Bosfor va Dardanelni nazoratga olishi va Istanbulga konvensiya ijrosini nazorat qiluvchi xalqaro kuzatuvchilar guruhini kiritishi kerak edi. Bolgon davlatlari harbiy kemalari bogozga deyarli to'siqsiz kira olardi. Bu esa sovet diplomatlarining xavotiriga sabab boldi.

Lozan konvensiyasining bir qator bandi vaqt otishi bilan eskira boshladi. Shu bilan birga, Turkiya Yevropa ittifoqiga kirish uchun intilayotgan bir davrda o'z ahamiyatini yoqotmagan bandlar ham bor edi. Gap, avvalo, milliy kamchiliklar va musulmon bo'lmagan aholi haqida borardi. Ular haqida Lozan konvensiyasida batafsil aytilgan edi. 38-band har qanday kamsitish va aholining millati va dinidan qat'iy nazar ta'qib qilinmasligini taminlardi.

1923 yil 13 avgustda TBMMda kamolchilarga omad kulib boqdi. Mustafo Kamol yana bir ovozdan majlis rahbari etib saylandi va JXP dasturini ishlab chiqishda davom etdi. Yangi hukumat boshlig'i etib Fethi Okyar, Tashqi ishlar vaziri etib Ismat Inonu saylandi.

1923 yil 2 oktabrda ittifoqchilar Istanbuldan so'nggi harbiy kuchlarini olib chiqib ketganidan song, yangi hukumat bu masalani hal qilib, strategik noqulay joydan ko'chirildi. 1923 yil 13 oktabrda Anqara Turkiya Respublikasi poytaxti deb elon qilindi. Qabul qilingan qonunga muvofiq barcha diplomatik tashkilotlar Anqaraga ko'chib o'tishi lozim edi. Bu haqda barcha chet davlatlarga xabar berildi. Sovetlarga kelinsa, ularning diplomatik vakolatxonasi Anqarada faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi.

Turk delegatsiyasi sovetlarning taklifini qo'llab quvvatlamadi. Ismat Poshsho loyihaga rozilik bildirsada, Marmar dengizi hududlari bilan bog'liq harbiy masalaga qarshilik bildirdi. Sovet delegatsiyasi loyiha ishidan uzoqlashtirildi.

Turkiyaning qator masalalarda yon bosishi, sovet delegatsiyasining ba'zi masalalarda qarshilik ko'rsatishiga olib keldi. 1923-yildagi bo'g'ozlar kelishuviga muvofiq, Turkiya Bosfor va Dardanell bo'g'ozlariga o'z qo'shinlarini kiritmasligi, bitimining ijrosini tekshirish uchun xalqaro ekspertlarni Istanbulga kiritishi lozim edi. Qora dengiz bo'yi mamlakatlarining harbiy kemalari ham hech qanday to'siqqa uchramasdan kirishi kerak edi. Bu holat sovet elchilarida tashvish uyg'otdi.

Lozan shartnomasining ba'zi bo'limlari vaqt o'tishi bilan o'zini oqlamadi. Shu bilan birga, ba'zi bo'limlar o'zining faolligini saqlab qoldi. Turkiya Evropa Ittifoqiga kirishga harakat qilayotgan bir paytda musulmon bo'lmagan mayda millatlar huquqini himoya qilish masalasi ko'tarildi. Lozan shartnomasida millatlar haqidagi majburiyatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga butun bir bob ajratilgan edi. 38-moddada millatlarning dini va e'tiqotidan qat'iy nazar teng huquqli ekanliklari aytib o'tilgan edi.

1923-yil 13-avgustdagi TBMMga qayta saylovlar kamolchilarga muvaffaqiyat olib keldi. Mustafa Kamol Prezident etib bir ovozdan saylandi va JXPning dasturlarini amalga oshirishda davom etdi. Ismet Inonu majlis raisi etib, Fetxi Okyar Tashqi ishlar vaziri etib saylandi.

1923-yil 2-oktyabrda poytaxtni Istanbuldan Anqaraga ko'chirish masalasi hal etildi. 1923-yil 13-oktyabrda Turkiya davlatining poytaxti Anqara deb e'lon qilindi. Bu qonunga muvofiq barcha xorijiy elchilar Anqaraga ko'chib o'tdilar. Sovet elchixonasi ikki yil oldin Anqarada ish boshlagan edi.

Ayrim mamlakatlarning elchilari Anqaraning poytaxt deb e'lon qilinishiga qarshi chiqdilar, Angliya, Fransiya va Italiya elchilari Anqarada o'z elchihonalarni ochmasliklarini bildirishdi. Reyter agentligi ushbu masala yuzasidan 1924-yil yanvar oyida maxsus xabar yubordi. Anqara hukumati bunga javoban, turk elchilari chet ellarda qanday kutib olinsa, ular ham Anqaraga kelgan elchilarga xuddi shunday munosabatda bo'lishini ta'kidladi. Oradan bir necha kun o'tib, Anqara poytaxt deb e'lon qilingandan keyin, 1923-yil 29-oktyabrda majlis tomonidan 364-qonunga asosan konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritildi. Uning 1-bandiga asosan, hokimiyatning millatga tegishli ekanligi va Turkiya davlatining boshqaruv tizimi respublika ekanligi belgilab qo'yildi. 2-bandga ko'ra esa Turkiya davlatining dini islom, davlat tili - turk tili ekanligi, 4-bandga binoan davlat Prezident tomondan boshqarilishi, 10-bandda Prezident saylovchilar tomonidan saylanishi, 11-bandda prezidentning davlat boshlig'i hisoblanishi belgilab qo'yildi.

1923-yil 29-oktyabr kuni majlisda yashirin ovoz berish orqali Turkiya Prezidenti etib Mustafa Kamol saylandi. Ertasi kuni Ismet Inonu tomonidan respublikaning Birinchi hukumati tashkil qilindi.

IV BOB. MUSTAFO KAMOL OTATURK TUZUMINING BARPO ETILISHI

Dunyoviy davlat, dunyoviy hokimiyat

Harbiylarning g'alabasidan keyin Turkiya davlatining har tomonlama shakllanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Kamolchilar o'z davlatchilik asoslariga tayanib, sovet davlatining qonunchiligini model qilib oldi. Ammo, ko'p holatlarda bo'lgani kabi, g'oliblar orasida mamlakatni rivojlantirish borasida munozaralar boshlandi. Kamochilar o'zlarining mavqelarini mustahkamlagan sari mamlakatni yevropalashtirib din ta'siridan chiqarishga harakat qilishardi.

1923-yil 29-oktyabrda Turkiya Respublikasining prezidenti etib saylangan Mustafo Kamol bir fransuz jurnalisti bilan qilgan muloqotida "Bizning siyosatimiz, an'analarimiz, intilishlarimiz natijasida Turkiya yevropa davlatiga aylandi". M.Kamol fransuz inqilobchilari borgan yo'lni o'ziga namuna qilib oldi. Shu bilan birga har bir millat o'z qonunchilik islohatlarini jamiyat taraqqiyotidan kelib chiqqan holda va ichki vaziyat, vaqt taqozosiga ko'ra rivojlantiradi. Yevropalashtirish g'oyasi ham millatchilik kabi qabul qilindi, klerikalizmga qarshi qaratilgan g'oya oxirgi o'ringa o'tdi. Birinchi o'ringa iqtisodiy mustaqillik, industrializatsiya, g'arb mamlakatlari bilan teng huquqli aloqalar chiqdi.

Yangi Turkiyaning davlat boshqaruvini asosan kamolchilar, ularning saralangan odamlari egalladi. U paytda ommani o'z ortidan ergashtira oladigan turk ishbilarmonlarining salmog'i sezilmayotgan edi. Bular, asosan, Istanbul, Izmir, Adana savdogarlari, yunonlar, armanlar, yahudiylar edi.

Davlat ixtiyorida bo'lmagan yer maydonlari shaharlarda yashovchi kishilar, yirik boylar va o'rta hol kishilar tomonidan o'zlashtirila boshlandi. Bular jumlasiga amaldorlar, zodagonlar va harbiylar, yuqori tabaqa va shahar atrofidagi mahalliy amaldorlar edi. Ular barcha yerlar va ichki savdo-sotiqni o'z qo'llariga olishdi.

M.Kamol inqilobi har xil ko'rinishdagi, ko'char va ko'chmas mulk egaligini yo'q qilmadi, ba'li ularni har tomonlama qonuniy shakllantirdi. Birinchi jahon urushi yillarida qo'lga kiritilgan yer maydonlari yangi vujudga kelgan respublikachilar tomonidan bo'lib olingdi. Chet elliklar egallab olgan yerlar, mamlakatdan qochib ketgan yunon va arman aholi, turk armiyasining vafot etgan askarlari va zobitlarining yerlari davlat hisobida turar edi.

Majlisning bir qismini diniy ulamolar va shayxlar tashkil etardi. Ozarbayjon tarixshunosi E.Gasanov kamolchilar olib borayotgan siyosat ko'pchilik turklarning ma'naviy hayotini aniq yoritib berganligini ta'kidlaydi. U "islom diniga qarshi hech qanday munosabat bildirilmaganligi"ni aytib, islom madaniyati, an'analari turklarning madaniy va ma'naviy hayotida, adabiyotda, san'atda, falsafada namoyon bo'lganligiga urg'u beradi.

Bu paytda kamolchilarga qarshi kuchlar, islomchilar yangi davlatchilik siyosatiga moslasholmayotgan edi. 1924-yil 29-fevralda Istanbuldagi oxirgi an'anaviy yig'ilishda Turkiya xalifalik bilan xayirlashdi. Ertasi kun TBMMning navbatdagi majlisida M.Kamol islom dinidan yuz yillar bo'yi foydalanib kelinganligi, uni o'zining oldingi holatiga qaytarish kerakligini aytib o'tdi. Keyin M.Kamol tomonidan boshqa bir qator qonunlar qabul qilindi. Yangi musulmonlar idorasi tashkil etildi. Diniy o'quv muassasalari, madrasa va imom-xatib maktablari vazirlikka qarashli muassasalarga aylantirildi. 1924-yildagi respublika konstitutsiyasi 87-moddasida barchaning davlat muassalarida ta'lim olish huquqi belgilab qo'yildi.

Yangi qabul qilingan qonunga binoan eski tuzumning 144 a'zosi, jumladan 36 erkak, 48 ayol, 60 bola qonun qabul qilingan kundan boshlab o'n kun ichida Turkiyani tark etishi kerak edi. Ular turk fuqaroligini olish, ko'chmas mulk, yerga ega bo'lish huquqidan mahrum qilindilar. 1924-yil 3 va 4- mart kunlari Usmonli imperiasining oxirgi podshosi Abdulmajid Chatalja vokzaliga keltirilib, poyezdda Shvetsariyaga jo'natildi. O'sha yili kiyim kechakni tartibga solish, yevropa madaniyatiga ko'ra kiyinish haqida qonun qabul qilindi.

1925-yil avgust oyida M.Kamol Kastomone va Inego'lga tashrifi chog'ida yevropacha kiyindi. Tashrifi davomida marshal libosida yurgan M.Kamol Kostomonuda barcha musulmonlar boshqalardan ajralmasligi kerakligini aytib o'tdi. U 30-martda Anqaraga qaytgan prezident o'z murojaatida "Turkiya Respublikasi shayxlar va darveshlar mamlakati bo'lmaydi. Eng ishonchli va to'g'ri yo'l sivilizatsiyaga qarab yo'l olish" deya ta'kidladi.

TBMMning 1925-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan majlisida qabul qilingan qarorga muvofiq milliy kiyimlar kiyib yurish man etildi, diniy muassasalar yopildi. 1926-yilda ikkita qonun – "Fuqarolik haqida"gi qonun va "Jinoyat kodeksi", "Mol-mulkka egalik qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1858-yildagi "Yer kodeksi"ga o'zgartirishlar

kiritildi. Bunda Shvetsariya yer kodeksidan andoza olindi. 1926-yildagi Jinoyat kodeksining 163-moddasida davlat qonuniga zid bo'lgan har qanday holat uchun 8 yildan 15 yilgacha bo'lgan qamoq muddati belgilandi. Bunga qarshi tashviqot va targ'ibot olib borganlik uchun 5 yildan 12 yilgacha, diniy va boshqa yo'llar bilan qonunchilikka qarshi chiqqanlik uchun 5 yildan 10 yilgacha qamoq jazosi belgilandi.

Kamolchilarning qonunchiligida ayollar huquqan erkaklarga tenglashtirildi. Ko'p xotinlilikka barham berilib, oilada ayollarning teng huquqliligi, bilim olish, hukumat organlariga saylash va saylanish huquqlari kafolatlandi. Savodsiz ayollarni o'qitish va har jabhada o'zini namayon qilish huquqi ta'kidlandi.

1924-yilda 105 ta banddan iborat respublikachilar konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Huquqiy adabiyotlarda aynan ushbu hujjat 1924-yil 23-aprelda yangi davlatning konstitutsiyasi qabul qilinganligi aytilgan. Uning birinchi moddasida Turkiya Respublikasining dini – islom dini, davlat tili – turk tili va poytaxti – Anqara shahri ekanligi yozilgan.

1925-yilda Fetxi bey Bosh vazirlik lavozimidan ozod etildi. Uning o'rnini Ismet Inonu egalladi. Ertasi kun mamlakatda favqulodda vaziyat haqida qonun e'lon qilindi, mustaqil sudlar ta'sis qilindi. 1925-yilda kurdlar qo'zg'oloni bostrildi, amaldagi siyosiy partiya hukumat tomonidan taqiqlandi, ko'pchilik gazeta va jurnallar yopib qo'yildi, ayrim jurnalistlar qo'lga olindi. 1925-yil 28-iyun kuni mustaqillik sudi tamonidan shayx Said va maslakdoshlari o'lim jazosiga mahkum etildi va bu hukm zudlik bilan ijro etildi. Voqealarning rivojlanishiga qaraganda, 1920-yildagidek mamlakatda siyosiy jimjitlik boshlandi.

1926 yil 15-iyunda Izmirda Otaturkka nisbatan suyuqasd uyishti-rilayotgani haqida xabar keladi. Izmirning bir necha tumanida bir necha shubhali kishi qo'lga olinadi. Ma'lum bo'lishicha, suyuqasd rejasi bir yildan ko'proq vaqt mobaynida tayyorlanayotgan ekan. 18- mart kuni Anqara mustaqillik sudi yetib keldi. Sud boshlangunga qadar yuz kishi qo'lga olingan edi. Ularni guruh-guruh qilinib Izmirga jo'natiladi. Ular orasida yuqori lavozimdagi amaldorlar ham bor edi. Sud jarayoni 1926-yil 26-iyunda boshlanib, milliy kinoteatr zalida 11- iyul kuni hukm e'lon qilindi. 15 kishi davlat boshlig'iga suyuqastda ayblanib o'lim jazosiga hukm qilindi. Ular o'sha kun tunda Izmir markazida osib o'ldirildi. Ertasiga mustaqillik uchun jang qilgan qaxramonlar Kozim Karabakir, Ali Fuad va bir nechta kishi ozod qilindi. Ikkinchi

sud yigʻilishi Anqarada 1-avgustda boshlandi, 23- avgustda tugadi. Ushbu ayblov yuzasidan 4 ta taniqli ittihadchi, Moliya vaziri Javid, doktor Nozim oʻlim jazosiga hukm qilinib, tez orada osib oʻldirildi. Qora Kamol keyinchalik oʻz joniga qasd qildi.

1926-yilning oxiriga kelib kamolchilar oʻz hokimiyatini mustahkamlab olgan edi. Ushbu voqealarning bevosita ishtirokchisi boʻlgan I.Inonu oʻz xotiralarida sudlangan kishilarning Otaturkning safdoshlari ekanligi, voqeaning ildizlari Otaturk tomonidan qabul qilingan qarorlarga borib taqalishini aytadi.

Taniqli turk shoiri Nozim Hikmat 17 yil umrini Anotoliyadagi qamoqxonada oʻtkazdi va 1951-yil mamlakatdan qochishga mabur boʻldi. U SSSRda yashay boshladi. Yangi hukumat oʻz qudratini yanada mustahkamlab, ishchilar sinfi ustidan toʻliq hokimiyatni oʻz qoʻliga oldi. Ishchilarning siyosiy va kasaba uyushmalari tashkilotlarini tuzish huquqlari taqiqlandi. 1920-yillarda koʻpchilik kasaba uyushmalarini JXP nazorat qilar edi.

Davlat gʻoyasi

Davlat gʻoyasining namoyon boʻlishi kamolchilar davlat tepasiga kelishi bilan boshlandi. Xalifalikni tugatish, islom dinidagilarning umidlarini soʻndirish – davlat gʻoyasi deb hisoblandi. Masjiddan tashqari joylarda islom diniga oid ishlarni olib borish taqiqlab qoʻyildi. Islomchilar, shayxlari boʻlayotgan voqealarga aralashmasdan yashirin harakatlana boshladi. Agar oʻzlarini ochiqdan ochiq namoyish etsa, davlat boshqaruvi tomonidan qaqshatgich bostirilishi tayin edi. 1930-yil dekabr oyida Izmir yaqinidagi bir shahrchada islomchilarning soʻngi quroli qoʻzgʻoloni boʻlib oʻtdi. Bu qoʻzgʻoloni darvish Mehmed boshqarardi. U oʻz maslakdoshlarini “Muqaddas eʼtiqodni qaytarish, islom va shariatni qutqarish”ga undardi. Qonli toʻqnashuvda boshlangʻich maktab oʻqituvchisi Kubilay, taniqli harbiy xizmatchi, zahiradagi ofitser islom bayrogʻini koʻtaradilar. Bayroq qoʻshni machiddan olingan edi. Ular shahar maydonida toʻplandilar. Darvish soʻzga chiqib dinsiz hokimiyatni agʻdarishga chaqirdi. Olomon kelib isyonchilarga qoʻshildi. Ularning soni bir necha yuz kishi edi.

Bu yerga Kubilay boshchiligida ikkita vzvod joʻnatiladi. Kubilay osmonga qaratib oʻq uzadi. Darvesh esa Kubilayga qarab oʻq uzadi va uni oʻldirdi. Shundan keyin Kubilayning jasadi masjid hovlisiga olib kiriladi. Darvesh uning boshini kesib uzun tayoqqa qadaydi. Tez orada

yetib kelgan polk isyonchilarni tarqatib yuboradi. Darvesh va 5 nafar safdoshi otib tashlanadi. Qo‘zg‘olon tezda bostirilgan bo‘lsada, Mustafa Kamol bundan norozi edi. Menemen aholisi qotillar yaxshi kutib olingani uchun qattiq g‘azabda edi. Davlat Anatoliya atrofidagi keng maydonda jazo ishlari olib borildi.

Edirnedan qaytib kelgan Otaturk Do‘lmabahche saroyida yig‘ilish chaqirdi. Shundan so‘ng Anqaraga yo‘l oldi va davlat boshqaruvini to‘pladi. Bo‘lgan voqealarda Liberal demokratik partiyaning qo‘li bo‘lishi mumkin edi.

Sud qarori bilan 28 nafar qo‘zg‘olon ishtirokchisi qatl etildi. Uzoq yillar mobaynida armiya, politsiya, Turkiya xavfsizlik xodimlari diqqat bilan, yashirin va ochiq, islomchilarni kuzatib yurdi.

Turk millatchiligi hukmdor ideologiya sifatida aynan Otaturk millatchiligi shaklida o‘z o‘rnini topdi va turklarni millat va davlat sifatida yashab qolishiga yordam berdi. Turklar o‘zlarini millat ekanligini angladilar. Aniq sharoitlar turkizm fenomini, uning avvalgi imperiya yunon va arman aholisiga nisbatdan o‘ta shafkatsiz munosabatini aniqlashda yordam berdi.

Turk tarixchilari diqqat e‘tiborlarini Otaturk millatchiligining xususiyatlari Z.Go‘kalpning dunyoqarashidan farqlanishiga qaratganlar. Ularning aytishicha, Otaturk millatchiligida ilohiylik, respublikachilik Go‘kalpda yo‘q edi. Otaturkning g‘oyasi – turk davlati, turk millatchiligining kuchli g‘oyasi edi.

1923 yil mart oyida Go‘kalp Anqaraga M.Kamolning taklifiga binoan bosh vazirlikka taklif qilindi. Ayrim deputatlar Go‘kalpni o‘z tomoniga og‘dirib olmoqchi bo‘ldilar.

Mustafa Kamol yosh turklarni panislomchi va panturkchilikdan asrab qoldi. Shuning uchun ham uning mafkurasi Otaturk millatchiligi deb yodga olinadi. 1920-yillar oxiri, 1930-yillar turkiy millatchilikning gullab yashnagan davri edi. Kamolchilar yosh respublikaning jon saqlashi – oxirgi maqsad desalar, turonchilar uni Buyuk Turkiyaning barpo etilishida boshlang‘ich deydilar.

Mustafa Kamol boshchiligida har qanday turonchilikdan voz kechildi. Endi turk millati kim bo‘lishini aniqlay boshladi. Shuning uchun turk millatini Anatoliyaning musulmon aholisi deb aytdi. Turkiyani dunyoviy davlat deb e‘lon qilib, uni yevropa ma‘naviy rivojlanish darajasiga tenglashtirdi. Turkiya o‘zining milliy g‘oyasi, tili, madaniyati, partiyasini yaratdi.

Islohatlar jadallashdi, yevropa madaniyati targʻib etila boshlandi. Arab, fors leksikasini turk leksikasiga almashtirish harakati boshlandi. 1928 yilda M.Kamol tashabbusi bilan arab alifbosi lotin alifbosiga aylantirildi. 1928 yil noyabr oyida parlament kerakli boʻlgan qonunni qabul qildi. Dekabr oyidan boshlab esa lotin yozuviga oʻtildi. Gazetalar yangi alifboda chop etila boshlandi.

Mansabdorlar qatʻiy tarzda xalqni davlat mafkurasi – kamolizmga boʻlgan munosabatini kuzatib borar edilar. Oʻsha davrda Turkiyaning aholisi 14 mln.ni tashkil etar, aholisi koʻpmillatli, davlat tili turk tili, davlat dini – islom edi (1928). Kamchilik millatlar va musulmon boʻlmagan fuqarolarning huquqlari 1920 yilning «Milliy qasam»ida va yanada batafsilroq Lozan tinchlik bitimida koʻrib chiqilgan edi (1923). Ushbu hujjatning 38-moddasida aholining millati yoki dini boʻyicha kamsitilishi, taʻqib qilinishi taqiqlangan edi.

Keyingi moddada din va millat huquqlari aniqlashtirilgan, “din borasida farq hech qaysi turk fuqarosiga zarar yetkazmasligi, ayniqsa, fuqaro va siyosiy huquqlarda, biron-bir mansabni egallashda, yoki ishga qabul qilinayotganda eʻtiborga olinmasligi, turk fuqarolariga davlat tilidan tashqari boshqa tillarda savdo-sotiq olib borish, gazetada maqolalar yozish, sud ishlarida yoki dinda foydalanish man etilmasligi” yozib qoʻyilgan edi. Musulmon boʻlmaganlar, nasroniy va yahudiylar turli xil xayriya jamgʻarmalari, diniy marosimlar oʻtkazish yoki davlat muassasalarini tuzish, olib borish yoki nazorat qilish huquqiga ega boʻldilar. U yerda oʻz ona tillarida va dinlaridin erkin foydalanishlari mumkin boʻldi. Lekin bu huquqlar turk tilini majburiy oʻtilishiga xalaqit bermas edi. Kamchilik millat vakillarining qabriston, cherkov, sinagoyalari ham davlat himoyasiga oʻtdi.

Turkiyaga Gretsiya, Bolgariya, Yugoslaviyadan koʻchib kelganlar ham boʻlib, ular ham davlat himoyasida edi. Turk statistika maʼlumotlariga koʻra, 1921-1928 yillarda yashash uchun 463,5 ming kishi yunon oilalari yashagan – Edirne, Balikesir, Istanbul, Bursa, Izmir, Tekirdagʻ shaharlarida uy-joy bilan taʼminlandi.

Statistika maʼlumotlariga koʻra Turkiyada 1927 yilda 13 269,6 ming musulmon, 109,9 ming pravoslavlar, 81,9 ming – yahudiy, 77,4 ming arman, 39,5 ming katolik, 24,3 ming nasroniy bor edi. Ulardan 11 777,8 ming aholi turk tilida, 1184,5 ming – kurd tilida, 134,3 ming kishi – arab tilida, 119,8 ming kishi – yunon, 95,9 ming kishi – cherkas, 68,9 ming kishi – yahudiy tilida, 64,7 ming kishi arman, 11,5

ming kishi – tatar tilida so‘zlashar edi. Turkiyaning eng katta shaharlaridan biri – Istanbul shahrida 547 ming musulmon, 100 ming pravoslav, 53 ming arman, 47 ming yahudiy istiqomad qilar edi. Poytaxt aholisining uchdan bir qismi na turk, na musulmon edi.

1925 yil fevralidagi Shayx Saidning Mustaqil Kurdiston uchun boshlagan qurolli quzgoloni mamlakatni fuqarolar urushiga yaqinlashtirgan edi. Bu qo‘zg‘olon bostirilgandan so‘ng bo‘ysinmagan kurd qabilalari Markaziy va G‘arbiy Anatoliyga ko‘chirildi (1927-1929 yillar).

Islomni targib etuvchi belgilardan voz kechib, kamolchilar turk xalqini yangi belgilar ostida to‘plab xalqni shu belgilar ostida saqlab qolish uchun harakat qildi. Milliy bank tizimi, milliy aviatsiya, sement, shakar, mato ishlab chiqarish kengaydi. Birinchi tekstil zavodi qurib bitirilgandan so‘ng o‘sha vaqt iqtisodiyot vaziri – Jalol Bayar o‘z vatandoshlariga faqat milliy matodan sotib olishlarini tavsiya qildi. Milliy valyuta – lirani himoya qilish haqida qonun chiqarildi. Milliy mudofaa sanoati yaratildi.

1930-yilga kelib kamolchilar yakkapartiyaviylik avtoritar siyosati yordamida aholiga ta‘sir ko‘rsata oladigan, yevropa rivojlanish usulini Turkiya uchun zarur deb tan oladigan samarali milliy g‘oyani hayotga tadbiiq eta boshladi.

Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash choralari

Ilk bosqichda yangi davlatning iqtisodiy siyosati kamolchilarning sotsial-iqtisodiy tarkibida rivojlanmagani bilan belgilanadi. Bu davrda 14 mln aholidan 72%i qishloqlarda, 81,6%i qishloq xo‘jaligida, 5,6%i ishlab chiqarishda, 4,8%i – savdo-sotiqda, 7%i – xizmat ko‘rsatishda band edi. Qishloq xo‘jaligining milliy daromaddagi hissasi – 6,7%, ishlab-chiqarishdagi hissasi – 10%ni tashkil etardi. Temir yo‘llarning katta qismi hali ham chet elliklar qo‘lida edi. Bank ishlarida, sug‘urta kompaniyalarida, xususiylashtirish, tog‘-konchilik korxonalarida ham chet el sarmoyasi bilan boshqarilardi. Ingliz-fransuz kapitali bilan boshqariladigan davlat Ottaman banki qimmatbaho kog‘ozlar, pul chiqarish vazifasini bajarar edi. Mahalliy ishlab chiqarish hunarmandchilik va ichki savdo-sotiq bilan eng kerakli bo‘lgan kiyim-kechak va oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirar edi.

Fabrika mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlar faqat import evaziga qondirilar edi. Bir necha davlat fabrikalari bozor uchun emas, armiya

uchun yungdan tayorlangan matolar, etiklar, o‘q-dori, to‘plar, qurol-yarog‘lar yetkazib berardi. Turklar orasida uncha ko‘p bo‘lmagan nufuzli savdogar guruhlari bor edi. 1923 yilda Izmirda bo‘lgan iqtisodiy kongressda Avundukzoda Namlizoda (Istanbul), Ushaklizoda (Izmir), Kinnajizoda (Anqara)lar o‘z talab va takliflari bilan davlat hokimiyatiga milliy ishlab chiqarishni qo‘ullab-quvvatlash taklifi bilan chiqishdi.

Davlat bojxona tariflarining yomon ta‘sirini yumshatishga ham harakat qilindi. Lozan shartnomasiga ko‘ra Turkiyaga olib kiriladigan mollar 5 yilga, ya‘ni 1924-1929 yillarda 1916 yilda o‘rnatilgan narxlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu bojxona tarifi – “usmoniy tarifi” deb nom oldi. Bu imtiyoz Turkiyaga iste‘mol mollarini olib kirishni osonlashtirdi. Shunga asosan Turkiyaga import qilinayotgan tekstil va oziq-ovqat mahsulotlari 1924 yilda 70%ga yaqin, 1928 yilda esa 52%ni tashkil etdi. Tamaki, tuz, gugurt, shakar, neft mahsulotlari, spirtli ichimliklar monopoliyalari tuzildi. Davlat bu yo‘nalishlarda katta imtiyozlar berdi. 1929 yilda tashqi savdo boshqarmasi to‘lik nazorat ostiga olindi, bojxona tarifi 50%ga oshdi.

1920 yillarning oxiri 1930 yillarning boshida xususiy sarmoya haqida A.G.Okunin o‘z kitobida ma‘lumot qoldirgan. Bu ma‘lumotga ko‘ra o‘sha paytda mamlakat yomon ahvolda kelib qolgandi. 1920-1930 yillar ichida 112,8 mln. Liraga teng sarmoyali 201 ta yangi aksionerlik korxonasi tuzildi yoki qaytatdan tashkil etildi. Bular ichida 66 korxonalar xorijiy sarmoyaga asoslangan (42,9 mln. Lira).

1920-1930 yillarda tekstil sohasi rivoj topdi. Bu soha asosan paxta ishlab chiqaradigan tumanlarda (Adana va Egey) rivojlandi. Mamlakatning boshqa tumanlarida xususiy fabrika, zavod va turli korxonalar ochildi.

Shuni ta‘kidlash joizki, xususiy sektor o‘z o‘rnini saqlab qola oldi. Uning paxta, tekstil sanoatidagi hissasi 1942 yilda – 64%, 1947 yilda 53,8ni tashkil etar edi. Tekstil va oziq-ovqat sohasining ilk muvaffaqiyatlarini xususiy tadbirkorlarning bu sohada ancha-muncha daromad ko‘rganlari, qo‘shimcha imtiyozlardan foydalanganliklari bilan izohlasa bo‘ladi.

Bu davrda bank sohasi deyarli shakllanib bo‘lganiga qaramay, u xususiy ishlab chiqaruvchilarni o‘rta va uzoq muddatli kreditlar bilan ta‘minlay ololmasdi. Ish banki ham bundan mustasno emasdi. Uning kredit siyosati savdo kreditini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi.

Mamlakatda 1945 yilgacha dehqonlarga yer berish bo'yicha agrar islohat o'tkazilmadi. 1925-1935 yillarda berilgan yerlardan oddiy xalq uncha yutmadi, chunki birinchi o'rinda bu yerlar puldor dehqonlar qo'liga o'tdi. Qonunchilikda yer maydonlarining asosan yersiz, yeri 4,5 ga dan ko'p bo'lmagan dehqonlarga ajratilishi aytilgan bo'lsada, eng yaxshi yerlar – uzumzorlar, zaytun plantatsiyalari va yong'oqzorlar kim ko'p pul taklif qilsa, shularga sotilgan.

1936 yilda radio uzatuvlar davlat qo'liga o'tdi. Poytaxt Anqaraga ko'chirilgach, qurilish ishlari boshlanib ketdi. Shahar qaytadan qurila boshlandi. Eski shahar markazida ulus maydonida va uning yon atroflarida qishloq xo'jaligi banki, Ish banki, Vazirlar kengashi, TBMM-ning yangi binosi, "Anqara-Palace" mehmonxonasi barpo etildi. Ulus maydoninig pastrog'ida, Otaturk bog'i boshlanadigan hududida katta qurilish ishlari amalga oshirildi. Vaqf banki, Bojxona vazirligi, Monopoliya vazirligi, Xalq uyi, Etnografik muzey binolari qurildi.

Turkiya va tashqi dunyo

Yangi Turkiyaning butun dunyo bilan tinchlik va do'stlik muhitida yashashga intilishi haqida mamlakat yetakchilari tomonidan turli fikrlar aytilgan. Bu haqda Mustafa Kamol (Otaturk) ham ko'p marotaba gapirgan. 1920 yilda Sovet Rossiyasi Turkiyani tan oldi va unga imkon qadar yordam berishga kirishdi. 1925 yilda Parijda Turkiya uchun muhim bo'lgan do'stlik va neytralitet to'g'risidagi Sovet-turk kelishuvi imzolandi. Bunga ko'ra agar bir yoki bir nechta davlat hujum qilsa, bu davlatlardan biri (Turkiya yoki SSSR) neytralitet saqlashi kerak edi (1 modda). Taraflarning har biri bir-biriga hujumdan o'zini tiyishi va bir-biriga qarshi bo'lgan ittifoqqa, siyosiy kelishuv va bir yoki bir necha davlatlarga (2 modda) qo'shilmasligi kerak edi.

Siyosiy xarakterdagi kelishuvlar zamirida moliyaviy va iqtisodiy masalalar yotar edi.

Sovetlar tomonidan kelishuvga Sovet harbiy kemalarining qiyinchiliksiz bo'g'ozlardan o'tishi masalasi kiritishga harakat qilindi, lekin buning iloji bo'lmadi. SSSR bilan tuzilgan shartnomadan so'ng, turk diplomatlari "Turkiya g'arb va sharq o'rtasida ko'prik bo'lishini xoxlaydi" degan tezisni faol targ'ib qila boshlashdi. Bir yildan so'ng (1926) nomi qayd etilgan shartnoma imzolandi. G.Chicherin va Tavfiq Rushtu Odessada yana uchrashishni lozim topishdi. Turklar bilan uchrashuv haqida Chicherin Sovet jurnalistlariga bayonot berdi.

1926-yilning 22 aprelida Turkiya Tehronda o'zining O'rta sharqdagi azaliy raqibi bo'lgan Eron bilan neytralitet to'g'risida shartnoma imzoladi. Bu narsa Eron-Turkiya munosabatlarining me'yorlashishiga olib keldi. Bu davrgacha yuz berib kelgan keskinliklar va chegara to'qnashuvlarining asosiy sababi Turkiya va Eronda yashaydigan kurdning qo'zg'olanlari edi. Kelishuv bo'yicha taraflar bir-biriga qarshi qaratilgan hujum harakatlaridan voz kechdi. Kelishuvda tomonlarning biriga boshqa bir davlat dahl qilsa, ikkinchisining neytralitet saqlashi takidlab o'tildi. Ammo bu kelishuvga qaramasdan Eron-Turkiya munosabatlari bir necha marotaba chegaradagi vaziyatning keskinlashuvi sababli Turkiya hukumati Eronga ultimatum jo'natadi, lekin Eron buni qabul qilmadi. Eron va Turkiya o'rtasida chegaraoldi muammolar uzil-kesil 1932-yil hal bo'ldi. O'sha yili kelishuv yana bir necha oy davom etdi. Eron shohi Rizo Pahlaviy 1934-yilning iyunida rasmiy tashrif bilan Turkiyaga keldi. U Turkiya-Eron chegarasi bo'ylab Kars, Arzurum va Trabzon, Samsungacha keldi va keyin Anqaragacha poyezdda bordi. Temir yo'l vokzalida uni Otaturk va hukumat a'zolari kutib oldi. Bu uchrashuv va kelishuvlar keyinchalik Saodaba paktining imzolanishini ta'minladi. Bu paytda Turkiyaning g'alaba qozongan davlatlar bilan aloqalari boshqacha tus olgan edi.

Lozan shartnomasidan so'ng Musul bilan bog'liq hududiy masala tortishuvlarga sabab bo'ldi. Inglizlar Musulni 1918-yilda egallab olgan, lekin strategik muhim, neftga boy bu yerlar Millatlar ligasi yordamida 1920-yil Iroqqa berilgan edi. Iroq esa hali Angliyaga bog'liq edi. Turk hukumati buni tan olmasdi, chunki bu yerda asosan turklar yashardi va yangi Turkiyaning milliy chegaralariga kirardi. Lozanda bu muammo hal bo'lishi kerak edi. Shunga ko'ra, Lozan Shartnomasining 2-bandi, 3-moddasida Musul muammosining hal qilinishi uchun 5-oylik muddat belgilangan edi, agar hal qilinmasa, muammo Millatlar ligasiga olib chiqilishi aytilgan edi. 1924-yil may oyida Istanbulda ushbu muammo bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tsada, Angliya va Turkiya o'z pozitsiyalarida qoldi va muammoni hal qilish yana Millatlar ligasiga qaytdi.

Turkiya Millatlar ligasi chiqargan qarorni qabul qilmadi. Chunki Millatlar ligasi qarori Turkiya foydasiga chiqarilmagan edi. Songra Millatlar Ligasi Gaaga tribunaliga murojaat qilib, Musul muammosi bo'yicha ikki tarafga ham bajarilishi shart bo'lgan qaror chiqarish kerakligini so'radi. Gaaga tribunali Millatlar ligasini mazkur muammo

bo'yicha oxirgi qarorni chiqarishga haqqi borligi to'g'risida qaror chiqardi. Millatlar Ligasi oxir-oqibat 1925-yil 16-dekabrda chegara bo'yicha o'z qarorini chiqardi.

1926-yil 13-yanvarda Angliya-Iroq shartnomasi imzolandi. So'ngra 1926-yil 5-iyunda urushda qatnashmaslik haqidagi Angliya-Iroq-Turkiya Shartnomasini imzolandi. Shartnomada "Bryussel chizig'i" ba'zi o'zgarishlar bilan tan olindi. Lekin Musul Iroq hududida qoldi. Turkiyaga 20 yil davomida Musul neftidan keladigan foydaning 10%ini olish yoki 500 ming Funt-sterling mablag'ni o'z iqtisodiyotiga kapital sifatida kiritish huquqi berildi. Shartnomaning imzolanishi Turkiyaning Angliya va Fransiya bilan aloqalari yaxshilanishiga olib keldi.

Lozandan so'ng ham AQShning ko'magidan umid qilingan edi. Amerika diplomatiyasi Turkiya masalasida G'arb davlatlariga xayrixoh edi, lekin shunga qaramay, lozan muzakoralari davrida Kamolning atrofidagi siyosatchilar va intellektuallarning AQShdan siyosiy va iqtisodiy masalada umidlari bor edi.

Turk mualliflarining tan olishicha, Turkiya AQShga katta umid bog'lagan, chet el kapitaliga muhtojligi, iqtisodiy o'sish uchun buning juda zarurligi tan olingan edi. Ularning fikricha, Amerika kapitali "eng xavfsiz va ishonchli edi. Bu hol kamolchilarning Chester rejasini tiklashida yaqqol namoyan bo'ldi. Anatoliya hududida yangi temir yo'l liniyasini qurish va bu liniya bo'ylab tabiiy resurslardan foydalanish maqsad qilib qo'yilgan edi.

1923-yilda Chester konsessiyasi barbod bo'ldi. Chunki amerikalik investorlar Turkiyaga sarmoya kiritishni istamadi. Ularni Mosulda neft qazib chiqarish masalasi ko'proq qiziqtirar edi.

Ammo Turk-Amerika kelishuvi AQSh senatida notug'ri tushinildi. Amerikaning eng yoqtirmagan tarafi bu kapitulyatsiya rejimini bekor qilinish edi. Senatga jo'natilgan xatlarda yangi Turkiya haqida cho'pchaklar keltirilgandi. Masalan, turk hukumati "3000 ta cherkovning otxona, kazarma va fohishaxonalarga aylantirilgani yoki haramlarda yuz mingdan ortiq xristiyan ayolining qullikda saqlanayotgani va b. Mazkur kelishuv senatga 1924-yilning may oyida kelib tushdi va ancha vaqtga u yerda qolib ketdi. 1927-yilda demokratlarning tazyiqi ostida butunlay rad etildi. Diplomatik aloqalar AQShning Turkiyadagi Oliy komissari, admiral Bristal va Turkiya Tashqi ishlar vaziri Tavfiq Rushu orasidagi oddiy xat almashinuvi orqali qayta tiklandi.

Turkiyaning Gretsiya bilan aloqalarni yaxshilashi Turkiyaning iqtisodiy ahvoli, ayniqsa, Istanbul va Izmir viloyatlari uchun juda muhim edi. Bu paytga kelib Turkiyadan 200 ming yunon ko'chirilgan edi. Gretsiyadan esa 300 ming turk, Turkiyadan esa 1 mln.dan ortiq yunon ko'chgan edi. Ko'chishlar xo'jalik hayotini izdan chiqardi. Faqat Turkiya va Gretsiya o'rtasidagi do'stlik va savdo-sotiq shartnomasi muammolarga barham berdi (1930-yil, oktyabr).

1928-yildagi Italiya-Turkiya orasidagi neytralitet haqidagi kelishuv muhim ro'l o'ynadi. Turkiya Italiya bilan aloqalarni yaxshilashga kirishdi, biroq Mussolini tomonidan taklif qilingan Italyan-yunon-turk pakti imzolanmadi. Turkiya bosh vaziri Ismat Inonuning rasmiy safari ham muammoning yechimini topishga yordam bermadi.

Kamolchilarning rejasida chet el sarmoyalarini yo'q qilish vazifasi yo'q edi, lekin chet el kompaniyalarining Turkiyaning davlat tili va qonunlariga amal qilinishi kerakligi takidlangan edi. "Biz chet el kapitaliga kafolat berishga tayyormiz, faqat shartimiz ular bizning qonunlarimizni tan olishlari kerak" – degan edi kamolchilar. 1924-yilda Fransuz kapitaliga tegishli eng katta tamaki monopoliyasi yo'q qilindi. O'sha yili inglizlarning Anatoliya temir yo'li haqidagi konsessiyasi ham qabul qilinmadi. Davlatning o'zi temir yo'llarni sotib ola boshladi. To'lovlar chet el valyutasi va turk tovarlarini yetkazib berish orqali amalga oshirildi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatib turadiki, 1924-yildan boshlab, Lozan shartnomasi imzolangandan so'ng, chet el kapitali bilan shaxsiy firmalarning qayta tashkillashtirilishi va vujudga kelishida faollik ko'zga tashlanadi. Eng faollik davri 1928-29-yilga to'g'ri keladi. Kamolchilarning chet el kapitaliga munosabati aniq bo'ldi.

V BOB. OTATURK HUKUMATI VA ISLOHOTLAR.

Jahon iqtisodiy inqirozi va Turkiya

XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillari boshidagi inqiroz Turkiya Respublikasining tinchlik davridagi ijtimoiy-iqtisodiga putur yetkazdi. U qoloq bo'lgan iqtisod, milliy va shaxsiy kapitalni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutar edi. Inqiroz yillarida Turk iqtisodiyotining kuchsiz ekani va uni dunyo xo'jaligiga qaram bo'lishida o'z tasdig'ini topdi. Ijtimoiy va siyosiy ahvolning yomonlashish xavfi ortdi.

Ahmad Hamdi (Bashar) 1931-yilda o'zining "Iqtisodiy etatizm" nomli kitobida shunday deb yozadi: "Davlatimizning kop qismida

qiyinchilik, azob-uqubat, inqiroz, ishsizlik, noroziliklarni ko‘rish mumkin... Qishloqlarda, asosan, bug‘doy yetishtiradigan xavf va noxushlik alomatlari hukmron”. Bunday sharoitda, muallifning so‘zlari-ga ko‘ra, hukumat “yangi tuzumga” murojaat qilishi va o‘zzimmasiga “yangi majburiyat”larni olishi kerak. Bu asar muallifning 1930-yili noyabridan 1931-yilning martigacha M.Kamol bilan bo‘lgan davlat bo‘ylab tashriflarning yakunida yozilgan.

Yangi bank o‘z foaliyatini boshlagandan so‘ng konsortsium tugatildi va emissiya huquqi markaziy bankga o‘tdi. Bu choralar valyutaning olib chiqib ketilishini chekladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar davlat nazorati ostiga olindi. Bu esa davlat ichida valyutaning to‘planishi va monopolizatsiya qilinishiga yo‘l ochdi.

“Etatizm” terminini birinchi bo‘lib Bosh vazir Inonu qo‘lladi. 1930-yil oktabrida davlat rejasi muhokamasi chog‘ida iqtisodiyot vaziri o‘rinbosari M.Sheref milliy iqtisodiyot tushunchasi shaxsiy tadbirkorlikka ustuvorlik ta‘minlanishi, uni davlatniki bilan almashtirilishi kerakligini ta‘kidladi. U hech qachon davlat shaxsiy tashabbusga erkinlik bermasligi, bu sohalarni nazoratsiz qoldirmasligini aytdi.

Iqtisodiyotdagi etatistik tadbirlar haqida Otaturk 1931-yil yanvar oyida shunday degan edi: “Partiyamizning dasturi o‘zining yo‘nalishi bo‘yicha to‘liq demokratik xalq dasturi; shu bilan birga, u iqtisodiy nuqtayi nazardan etatistik dastur hisoblanadi”. U etatizmning shaxsiy tashabbusga qarshi emasligini ham aytib o‘tadi: “Davlatning rivojlantirishida katta savdogarlar, fabrika egalari, katta yer egalarining o‘rni bor. Yaxshi ishlaydigan va texnikani ishlatadigan kapital egalariga imtiyoz beriladi va ular qo‘llab-quvvatlanadi. Hukmron Jumhuriyat xalq partiyasining 1931-yil mayida bo‘lib o‘tgan kongressida partiyaning yangilangan dasturi qabul qilindi va uning asosida etatizm konsepsiyasi bor edi. Iqtisodiyotning lokomotivi deb sanoat sektori aytiladi va uning asosiy investori esa davlatdir. Siz bunday rejalashtiruvchilarni nima deb nomlagan bo‘lar edingiz – kommunistlar debmi, sotsialistlar, fashistlar yoki davlatchilar debmi? Ular orasida har toifaga mansub kishilar bor, bari bir-biriga qarshi, ammo ular bir masalada yakdildirlar. U ham bo‘lsa individualist va liberal iqtisodiyot tizimi o‘z umrini yashab bo‘ldi va yangi rejim izlanishlari boshlandi”.

Italiyaga tashrif buyurgan va o‘z taasurotlarini bildirgan F.R.Otay haqida shunday yozadi: “Kirib kelgan inqiroz davom etar ekan, iqtisodda yangi tartiblar ishlab chiqildi. Liberalizm demokratiyadagi

o‘z modelining haqiqiy vorisini topishga erishdi. Tabiiyki, yangi tartibga ko‘ra, u o‘zining yangi shaxsiy modelini topishni istaydi. Demokratiyaning nomiga nisbatan aytilgan tanqidiy qarashlar, qachonki, demokratlar inqirozdan hech kimga ogohlantirish bera olmaganidan so‘ng kuchayib ketdi».

Turk tadqiqotchisi Ilxon Tekeli va Salim Ilkin o‘zining Turkiya etatizmiga bag‘ishlangan kitobida juda ko‘p manbalardan misollar keltirib, unda sovetlarning dastlabki industriyalashtirish bosqichida Turkiya davlatiga ko‘rsatgan yordamining amalga oshuvini faktlar yordamida ko‘rsatib o‘tgan. I.Inonu boshchiligidagi turk delegatsiyasi vataniga qaytgach, shunday degan edilar: “SSSRda to‘qimachilik bo‘yicha mutaxassislarimiz Sharif O‘nay va Komil Ibrohim 70 dan ortiq tashkilot, qurilish institutlari, to‘qimachilik fabrikalarida tadqiqotlar olib borishdi. Tadqiqotlarning natijasi sifatida nomlari qayd etilgan mutaxassislar sho‘rolarning og‘ir sanoati kutilmagan rivojlanish oldida turibdi degan xulosaga keldilar”.

Sho‘rolarning to‘qimachilik sanoati istisnosiz ravishda fan-texnikaning so‘nggi yangiliklari bilan rivojlanishini aniqlab berishdi. Ular kelgan xulosasiga ko‘ra, Turkiya to‘qimachilik sanoati 90% o‘zgarganda Sovetlarniki 32% ta‘minlangan bo‘ladi.

To‘qimachilik fabrikalari bo‘yicha qurilish bitimi va sovet mutaxassislarining kredit masalasi bo‘yicha materiallarni tayyorlash jarayonida ular 1932-yilning 12-avgustida Turkiyaga kelishdi. Delegatsiyani «Davloyihaqurilish» tashkilotining direktori iqtisodchi olim prof. Orlov boshqardi.

Orlovning turk tomoniga ma‘ruza shaklida taqdim qilgan hisobotlar to‘plamida 1932-yil 22-sentyabr sanasi belgilangan edi. Bu Kayseridagi rus va turk mutaxassislarining uchrashuvi vaqtida tayyorlangan, o‘shanda Kayseri va Nazillidagi to‘qimachilik korxonalarining joylashuv o‘rni aniqlangan edi. Orlov Moskvaga qaytishdan oldin Istanbul universitetiga borib ma‘ruza o‘qidi. U o‘z ma‘ruzasida shuni ta‘kidladi: «Men shuni mamnuniyat bilan aytamanki, o‘z salohiyatiga ko‘ra sizning yuqori darajadagi muhandislaringizning nafaqat bizning mutaxassislardan, balki boshqalardan ham hech qanday farqi yo‘qligiga amin bo‘ldim. Ular bizga juda qimmatli yordam ko‘rsatishdi, ammo men tushuna olmayman, shunday ekan nega siz yevropaliklarni taklif etasizlar?».

1933-yilning mart oyida SSSRga turk delegatsiyasi tashrif buyurdi. Delegatsiya tarkibida Herek Rashod fabrikasi direktori, Fasi-xan Shavkat Turgʻut, ishlab chiqarish korxonasi direktori Komil Ibrohimlar bor edi. Ular 9-iyulga qadar u yerda qolib, SSSR korxonalarini borib koʻrdilar, ish jarayonini kuzatdilar. Oʻzaro fikr almashinuviga koʻra, Moskva shahrida Turk qurilish trestini tashkil etilib, unga direktor qilib Zolotaryov saylandi.

Kredit boʻyicha bitim 1934-yil 21-yanvarda tuzildi. Bu har ikki korxonaga uchun foydali edi. Sovet davlati loyihalashtirish va korxonalarni asbob-uskunalar bilan taʼminlashda katta yordam berdi. Kredit 20 yil muddatga berilib, foizsiz edi. Asbob-uskunalar hujjat kuchga kirganidan boshlab 4 yil davomida kirib turishi zarurligi belgilab qoʻyildi. Turk tomoni yilda ikki marta kredit pulini Turk lirasi qiymatida London, Nyu-York va Istanbul birjalari orqali oʻtkazishni kelishib oldi. Toʻlov miqdoriga muvofiq sovet tomoni kerakli mahsulotlarni xarid qildi.

Turkiya uchun sovetlar tomonidan berilgan kredit birinchi tajriba sanalardi. Teng huquqli iqtisodiy kelishuv usmoniylar davridagi xorijiy investorlardan olingan qarzlardan qutulib, davlatda yangi iqtisodiy bosqichga oʻtilishini taʼminlardi.

Mahmud Turgʻut oʻzining 1964-yilda yozilgan kitobida yangi rejalarining qabul qilinishi davlat miqyosida yangi bosqichdan darak berganligi, kreditlarning realizatsiya qilinishi Turkiya davlatining besh yillik rejasini amalga oshirish strategiyasiga aylangani, sovetlar taqdim etgan kredit miqdori uch barobar moliyalashtirish vositalarini oʻzida umumlashtirganligini yozadi.

1935-yilda iqtisodiyot vaziri SSSRga uzoq muddatli safar uyushtirdi. 13-iyuldan 18-avgustgacha Odessada, Moskvada, Kievda, Leningradga yangi qurilayotgan korxonalarni (avtozavod, elektrozavod), radiomarkazlarni koʻrdi. Safar nihoyasida u Odessa orqali Istanbulga «Chicherin» kemasida qaytdi.

Mamlakatdagi birinchi paxta va qogʻoz ishlab chiqarish korxonasi Qaysarida 1934-yilda, ikkinchisi esa 1937-yil 9-oktyabrda Nazilla shahrida tantanali tarzda ochildi. Unda shaxsan Otaturkning oʻzi ishtirok etdi. Jalol Bayar oʻzining chiqishlaridan birida yaqin orada yuz bergan jahon inqirozi oʻz kuchiga ishongan mamlakatlarning kelajagi qishloq xoʻjaligiga bogʻliqligini koʻrsatganini aytib oʻtdi. U xorijga mahsulotlarni eksport qilishda toʻqimachilik birinchi oʻrinni egallayot-

gani, mamlakat o'z xom-ashyosini arzimagan qiymatga berayotgani va buning evaziga tayyor mahsulotlarni qimmat narxda sotib olayotganini ta'kidladi.

Korxonalarini qurishda SSSRdan 140dan ortiq malakali kadr ishtirok etdi. Malakali mutaxassislar yetkazib berish maqsadida Texnika universiteti ta'sis etildi. Qurilishlarning nihoyasida har ikkala kombinat Sumerbankka kiritildi.

1933-yilning boshida Turkiya elchisi Ahmad Muxtarbiy ishtirokida Vashingtonda Nyu-Yorkdagi «Xayns, Ririk, Dorr va Xammond» firmasi bilan shartnoma tuzildi. 10 kishidan iborat mutaxassislar guruhiga Uolker D.Xayns boshchilik qildi. Birinchi guruh ikki kishidan iborat bo'lib, 1933-yilda 18-iyunda Turkiyaga keldi, rahbarlari esa 25-iyunda yetib kelgan edi. Asosiy hisobot 1934-yilning may oyida nihoyasiga yetdi. Shundan keyin birinchi besh yillik reja ishlab chiqildi. Bu yillar SSSR va Turkiya orasidagi savdo-sotiq munosabatlari shakllandi.

1927, 1931 va 1937-yillarda asosiy savdo-sotiq shartnomalari imzolaniib, ular urushdan keyingi yillargacha amalda bo'ldi. Do'stona va ko'p tarfli hamkorlik doirasida Sovet Ittifoqi va Turkiya juda ko'p xalqaro uchrashuvlar, kollektiv xavfsizligini saqlash uchun konferensiyalarda ishtirok etdi.

Ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvlari tajriba almashuv mohiyatiga ega edi. 1930-1931-yillarda Turkiya Tashqi ishlar vaziri Tavfiq Rashid va SSSR Tashqi ishlar xalq kommissari Litvinovlar o'zaro tashrif almashdilar. 1932-yilda SSSRga turk rahbariyati nomidan Turkiya bosh vaziri Ismat poshsho tashrif buyurdi. Ikki mamlakatning o'zaro yaqin hamkorligi o'z mohiyati bilan dunyo mamlakatlarining qiziqishini tortar edi. Turkiya davlati vakilining tashrifiga javoban 1933-yilda sovet hukumati tomonidan K.E.Voroshilov rahbarligidagi delegatsiya Turkiyaga tashrif buyurdi. 1933-yil yozda Turkiya davlatining tashkil etilganining 10 yilligi bayram sifatida nishonlandi.

Har ikkala mamlakat 1925-yilda tashkil topgan Turk-sovet shartnomasi hech qanday o'zgarishsiz qolganligini e'tirof etdi.

Hamkorlik shartnomalariga ko'ra bir qancha e'tiborli voqealar ham bo'lib o'tdi. Jumladan, Sovet rahbariyati 1924-yilda L.Trotskiyning qarashlarini e'lon qildi. 1927-yilda u siyosiy buyuroning tarkibiga kiritildi. O'sha davr siyosiy byurosi qaroriga ko'ra, u SSSRdan Turkiyaga yuborildi. U ayoli va katta o'g'li bilan birgalikda Marmar

dengizi atrofidagi Buyukada orolida yashadi. Bundan chiqariladigan xulosa shuki, Trotskiynikiga mehmonga, OGPU xodimi, qachondir Moskvadagi nemis elchisining suiqasdida ishtirok etgan Ya.G.Blyumkin tashrif buyuradi.

Millatchilik va avtoritar hokimiyat

Davlatning iqtisodiy aralashuvi juda ko‘p narsalarga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Bu ta‘sir 1930-40-yillarda turlicha yuzaga chiqdi. Jamiyat hayotida - iqtisodiy, ijtimoiy, g‘oyaviy jihat kutilmagan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

1935-yilning 1-martida TBMMning beshinchi chaqirig‘iga binoan Otaturk to‘rtinchi marta prezident etib saylandi. 1937-yilning 25-oktyabrida Ismet Inonu istefoga chiqdi. Kamolchilar hukumati bir partiyali avtoritar tuzumning bosh belgilarini o‘zlashtirib oldilar. Bu hukumat o‘zida ikki buyuk elita – harbiy va fuqarolikning byurokratik jihatlarini birlashtirgan edi. Intervensiyaning sultonlik tizimi bilan harbiy kurashida mamlakatning eng yuqori rahbarlari – prezident, bosh vazir bo‘lib o‘tgan urushning qahramonlari sanalardi. Bunday tarkibiy tashkilot bir necha yil saqlanib qoldi.

Turkiyaning chap qanoti harakatining faol ishtirokchilaridan biri Zakariyo Sertel saylovlarda asosiy ovozlari JXP vakillariga berilgani, uni saylov deb nomlash mumkin emasligi, bunday saylovlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgani, saylovchilar 25%ni tashkil etganini ta‘kidlaydi.

Zamonaviy turk tadqiqotchilari 1930-40-yillardagi avtoritar tuzimning mohiyatini o‘rganib chiqib, Turkiyaning bu yillardagi holatini vaziyat talabiga ko‘ra, majburiy, o‘tish davri bilan bog‘liq deb baholaydilar. M.Tunchayning yozishicha, bu yillarda «birpartiyali demokratiya faqat Turkiyada emas, Sovet Rossiyasida va Italiyada ham bor edi. Lozan konferensiyasidan so‘ng 1924-yilning oxirida partiyaning bir qanoti vaqtincha o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Jamiyatning asosiy mafkuraviy va g‘oyaviy, tarbiyaviy quroli turkizm edi. 1934-yil 14-iyundagi mahalliy aholi haqidagi qonunga muvofiq maxsus dastur asosida turklashtirish siyosatiga qarshi o‘zgarishlar kiritildi. O‘sha davrda Turkiya uch zonaga bo‘lingan edi: birinchi viloyatda turklar markazlashtirildi, ikkinchi zonada turk madaniyatiga taalluqli ko‘chmanchilar joylashtirildi, uchinchi zona esa qolgan tumanlarni o‘z ichiga olgandi.

1934-yil 21-iyundagi qarorga ko‘ra, bir paytda shunday qonun kuchga kirdi «Har qanday ism va familiya» faqat turk fuqarolariga berilishi, yahudiylar, yunonlar, armanlarni o‘z ana’naviy familiyalaridan voz kechishlarini talab etib, yangi familiya olishi shart etib qo‘yildi. Turkiyaning rasmiy tarixida turklarning doimo o‘z tarixlarini yaratish, xuddi «Shumer (mil. av. 4000-yillik) davlatini yoki bekliklar, xonliklar, imperiyaning turklar tomonidan tashkil etilgan degan asosni isbotlash uchun harakat qilishgani qayd etilgan.

Turklashtirish Kavkazdan chiqqan «cherkes»lardan boshlandi. Kavkazdan kelib chiqqan Turkiya aholisi usmonlilar davridan boshlab to respublika shakllangunga qadar juda muhim vazifani bajardi. Adham ismli cherkas M.Kamolga qarshi chiqqan kishi sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga tuzimga nisbatan sodiq qoluvchi kavkazlik yirik davlat arboblari, siyosatchilar, oliy darajadagi generallar yetishib chiqdi. Bulardan biri Bakir Samig‘ beydir.

Amaldorlar hukmron doiralarda, birinchi navbatda imperiyaga, so‘ngra respublikaga o‘z ta’sirini o‘tkazishardi. Zero, ko‘pgina cherkas millatiga mansub kishilarning fikriga ko‘ra, Turkiya Respublikasidagi bir partiyaviylik tizimiga ko‘ra etnik jihatdan cherkaslarning darajasi past bo‘lib, turklashtirish bunga yo‘l bermas edi. G‘arbning tazyiqi ostida turk cherkaslari o‘z partiyalari va jamiyatlari hamda Kavkaz madaniyatini tashkil etish kerak deb hisoblashardi. Vaholanki, ona tili sifatida turk tilidan foydalanishga ruxsat berilgandi. Xuddi mana shu holat cherkas xalqlarining raqsi – lazginkani yuzaga keltirdi. 1909-yilda yosh turklarning hokimiyatga kirib kelishi juda qiyin vaziyatni yuzaga keltirdi. Bunda asosiy shior sifatida usmoniylar bo‘lib, o‘zini imperiyaga sodiq deb atadilar.

Turk siyosiy faollarining fikricha, oxiri borib vaziyat qo‘ldan chiqib, Kamol Otaturk davrida milliy ayirmachilik avj oldi.

1920-1930-yillarning oxirida hayratlanarli hol yuzaga keldi. Kavkaz muammosi sovet-turk harbiy hamkorligininig so‘nggi bitimi bo‘lib qolmay, balki Lozannadan keyingi o‘lim tahdidini anglatuvchi hamkorlikni bildirardi. Ammo Turkiya bunday hamkorlikka muhtoj emasligi kunday ravshan edi.

Kavkaz konflikti harbiy madadga ehtiyoj borligini anglab yetdi. Bunga boshqa dunyo xalqlari tanqidiy munosabat bildirib, Turkiya hududiga ko‘chmanchi musofirlarning kirib kelishi katta muam-molarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Nihoyat turk maxsus xizmati va bir qancha davlatlarning elchixonalari harbiy attashelarni hisobga olmaganda Turkiyadagi kavkazlik cherkasslarning xizmatiga ehtiyoj sezila boshladi.

Shunday qilib, Turkiya hududlarida yangi sharoitlarda kelib chiqishi kavkazlik bo'lgan yangi harbiy hamkorlik yuzaga keldi. Turk hukumati o'zining millatchilik qarashlari bilan birga cherkasslarga o'z hududlarida hech qanday erkinlikni va'da qilmadi.

Turk millatchilarining fikriga ko'ra, cherkasslarning kavkazliklar bilan yakdil bo'lib o'z vatanlariga qaytib ketishlari kerak edi. 1925-yilning boshlarida Shimoliy Kavkazda kuchli qo'zg'olonlar vujudga keldi. Endilikda Turkiyada istiqomat qiluvchi mustaqillik uchun kurashayotgan kavkazliklarga qarshi Qizil Armiyaning kuchlariga talab paydo bo'ldi. Ular orasida Shomilning nevarasi Said bey ham bo'lib, u juda faol ishtiroki bilan boshqalardan ajralaib turar edi. 1932-yilning yozida Shomil bir necha bor turk harbiy razvedkasining boshlig'i Nodim bey bilan muzokara olib borib unda Sovet hududlarida razvedka bilan bog'liq bo'limlarni tashkil etish masalasini kelishib oldi. Buning uchun ayg'oqchilarni tayyorlash, narigi tomondagi odamlar bilan aloqa bog'lash kabi masalalar haqida kelishib olindi.

Fransuz elchisi Deshner, sovetlarda mavjud bo'lgan hujjatga ko'ra, o'z Tashqi Ishlar Vazirligiga Turkiya o'zining hududiy geografik joylashuviga muvofiq Kavkazning yangi tashkilotini tuzishi mumkinligini aytadi. Britaniya hukumatiga ko'ra Ajar, Naxchivon, Armaniston va Ozarbayjonning bir qismi bo'lgan tog'li Qorabog'gacha bo'lgan joylar turklarga berilishi lozim edi. Bunday bo'lmagan taqdirda turk hukumati o'z haqlarini talab etish va uni o'zlashtirish uchun kredit olishga erishishi kerak edi.

Kavkazlarning Turkiyadagi emigratsiyasiga doir masalada Kavkazdagi vaziyatni o'zgartirish uchun turk harbiy kuchlarini aralashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Hujjatlar shuni ko'rsatmoqdaki, SSSR yaxshi qo'shnichilik tamoyiliga amal qilib, kavkazliklarga o'z hududlarida harakatlanishga ruxsat berdi. Ular domiy ravishda Parij, Polsha, Chexoslovakiya va Belgiyada ham paydo bo'la boshladilar.

Saffet Engin tomonidan 1938-yilda yozilgan "Kamolizmning ma'naviy bo'shlig'i" deb nomlangan kitobda xalifalikning inqirozga yuz tutishi "dinning hech qanday siyosiy ma'nosi qolmaganligini ko'rsatdi" deb yozilgan edi.

Yevropalashtirish doirasida qilingan ishlardan biri aholining g'arb madaniyati bilan tanishib, yetarli darajada uni o'zlashtirilishini ta'minlash bo'ldi. Masalan, maorif vazirligi o'sha vatda rus va g'arb klassiklarining asarlarini ommaviy tirajda tarjima qilish masalasini boshlagan edi.

O'sha davrda M.K.Otaturkning tashabbusiga ko'ra, respublika madaniyatining o'choqlari tashkil etildi. Yevropa yo'nalishidagi drama teatri, konservatoriya, Anqara opera teatri (1949 y.), kinematografiya, muzeiylar ochildi. 1934-yilda hukumat qaroriga ko'ra, Ayasofya masjidi muzeyga aylantirildi. Tasviriy san'at va rassomchilik ham yanada rivojlandi. 1920-yillarda mamlakatda birinchi yosh moderinst rassomlar paydo bo'ldi. Birinchi ko'rgazma 1929-yilda Anqarada tashkil etildi. Unda Mustafa Kamol Otaturk ishtirok etdi.

Ba'zi asarlarda N.Erboqonning yoshlik yillari haqida yoziladi. Masalan ulardan birida Erboqonning ko'p bolali diniy oiladan kelib chiqqanligi, otasining dindor, jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi qozi sifatida davlat tizimida radikal islohatlarni olib borganligi, arab alifbosini isloh etish, azonni turkcha o'qish kabi islohatlarni olib borishda ishtirok etganligi aytiladi.

Zamonaviy turk siyosat arbobi, Turkiyaning sobiq prezidenti Turgut O'zal shunday degan: «Men o'z uyimda ham nomoz o'qiy olmaganman, yoki bunga vaqtim bo'lmagan... Natijada onam – o'qituvchi, otam – amaldor, rejimning oddiy ijrochilari edilar... Mening yodimda qolganlardan biri – shaharlarda yangi yil ballari edi. Hammaning bunday joylarga borib, raqsga tushishi talab etilardi. G'arbda shunday qilishgan... Otam va onam ixtiyoriymi yoki majburiymi, bilmadim, ammo ana shunday ballarga borishgan. O'zlaricha yangilik qilishni hohlashgan bo'lishsa kerak... Men Texnika unversitetining birinchi kursidan boshlab diniy masalalarga qiziqqa boshladim».

Hukumat Vazirlar Kengashi huzuridagi yangi davlat organi – Din ishlari boshqarmasi ish tartibini chuqurlashtirish bilan shug'ullandi. Tashkilotning Birinchi raisi Anqara shahrining bosh muftiysi Mahmud Rifat (Bo'rakchizoda) vazirlar bilan teng oylik maosh olgan, davlat avtomobilida yurgan, oliy darajadagi tadbirlarda yuqori o'rinlarda o'tirgan. 1935-yilning iyun oyida boshqarmaga tegishli maxsus qonun qabul qilinadi. Unda tashkilotning tizimi, vazifasi, ishchilar tarkibi, hokimiyatdagi o'rni belgilangan. 1937-yilgi ko'rsatmada mazkur qonun va uning ijrosi, bajarilishi bilan bog'liq masalalar to'g'risida so'z borgan.

Turk mualliflari masalaga diniy nuqtai nazardan yondashishni ma'qul ko'radilar. Fuqarolik va Jinoyat kodekslari (1926 y.), shu bilan birga Yevropa taqvimi (1926 y.), lotin alifbosi (1928 y.)ga o'tish, turli din ximatchilarini ish vaqtidan tashqari vaqtda diniy kiyimlar kiyishini taqiqlovchi (1934 y.), yakshanba kunlarini dam olish kuni sifatida belgilash (1935 y.) haqidagi qonunlar shular jumlasidandir.

Bu bilan bog'liq yana bir xusus, Hofiz Yashar (Oqur) masjidida Qur'onni ilk bor turkchada o'qidi (1932-yil). O'sha yili diniy ishlar boshqarmasiga xat bilan murojaat qilinib, Istanbul muftiylar boshqarmasi yaqin kunlar ichida nomozga chaqiruv azonini turk tilida o'qish haqida fatvo berdi.

1933-yilda Istanbuldagi Dorulfununidan diniy fakultet yopilib, adabiyot fakulteti qoshida islomni o'rganish instituti ochildi va unda tadqiqotlar olib borildi. Tarxanlining fikriga ko'ra, M.Kamol tomonidan 1930-yilda Liberal partiya tashkil etilib, unda Turkiya "diniy respublika" degan qarashga bahs qila olardi. «Din har bir insoning shaxsiy ishi sanaladi. U o'ziga din tanlashi bilan davlat ishlariga halaqit bermasligi lozim.».

Islomda qaytadan o'z-o'zini oydinlashtirib olish davri boshlangan edi. 1937-yilda diniy davlatning asosiy prinsiplari qaytadan ishlab chiqildi. Din siyosatga ta'sir o'tkazishni qatidan to'xtatdi. Ko'zga ko'ringan tariqatlar va ularning qarashlari qonundan tashqarida hisoblanib, islomning kuchi ba'zi masalalarda chegaralab qo'yildi.

Asosiy e'tibor ayollarga qaratilgandi. M.Kamol ayollarga munosabatda muloyimroq bo'lishni talab etdi. Buning natijasida bir qancha ayol oliy majlisga deputatlikka saylandilar. 1934-yilning konstitusion huquqiga ko'ra ular majlisda o'zlarining qonuniy o'rinlari, maqomlariga ega bo'ldilar. Savodsiz ayollar o'shanda 91,8%, bo'lib, ular o'qishdan mahrum etilgan edilar. Hatto erkaklar orasida savodsizlik 76% ni tashkil qilar edi.

Yuqorida hukumat tomonidan ko'rilgan choralar natijasida "shtab kvartira"ning urushdan oldingi yillarida ayrim diniy ulamolar Turkiyani tark etishga majbur bo'lishdi. Bektoshiylar ordeni rahbarlari Albaniya tomonga mavlaviylar esa Suriyaga, naqshbandiy muridlari O'rta Osiyoga, "islom xalqi" mafkurachilari o'zlariga Bosniya va Gersegovinaga yo'l olishdi.

Barcha islom tarafdorlari 1930-1940-yillarda juda og'ir yillarni boshdan kechirdi. Ammo kamolchilarning muxoliflari mamlakatning

siyosiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. 162 jinoiy javobgarlik haqidagi kodeks ham bundan mustasno emas.

Xalq o'zining shayxlari bilan maishiy doiralarda o'z o'rnini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu qonun yo'li bilan taqiqlangan bo'lib, yashirin holda yuz berardi. Diniy shiorlar ostidagi qurolli chiqishlar hokimiyatga jiddiy ta'sir o'tkazardi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi Menemen tumanida qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 1936-1937-yillarda Turkiyaning Eron bilan chegaradosh sharqiy viloyatlarida kurdlar tomonidan ham bunday ruhdagi qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi.

Bu yerda gap islomdagi nurchilar oqimi bilan bog'liq jarayon haqida ketyapdi. Bu oqimning rahnomosi diniy ulamo kurd millatiga mansub Said Nursiy (1873-1960 gg.) edi. Uning boshchiligidagi qo'zg'olonlardan so'ng u umrining oxirigacha "maxfiy tashkilot tuzish" va "hukumatga qarshi tashkilot tuzish"da ayblanib, davlatning doimiy nazorati ostida turgan. U surgunda yurgan davrida risolalar yozgan, tutqunligi haqida hikoya qiluvchi asarlar bitgan.

Keyinchalik, Nursiy va uning o'quvchilari o'z ishlarini davom ettirib, turli viloyatlarda nur-pochtachilari paydo bo'ldi. Nurchi o'quvchi, risolani qo'lga olgach, darhol uni kupaytirishga harakat qilar edi. Shu tariqa yillar davomida minglab nusxa ko'paytirilgan.

Bu vertikal tashkilot ustidan 1950-yillarda hokimiyat sud nazoratini biroz yumshatdi. 1958-1959-yillarda Said Nursiy bir qancha risolalarini e'lon qildi. Uning risolalarida diniy tartibni shariatga almashtirish taklifi o'rta qo'yilgan edi.

Ichki siyosatdagi muammolar

1930-yillarda Turkiya xalqaro siyosatda o'zining o'rnini belgilovchi qadamni qo'yib, Lozan shartnomasi prinsiplariga tayangan holda, bu ishni ado etdi. Otaturkning "Yurtda tinchlik, dunyoda tinchlik" shiori asos bo'ldi. 1932-yilning yozida Turkiya uchun juda muhim xalqaro voqea ro'y berdi. U Millatlar ligasiga a'zo bo'ldi. M.K.Otaturk hayotining so'nggi yillarida xalqaro xavfsizlikni saqlash yo'lida juda ko'p muvaffaqiyatli qarorlarni qabul qildi. Hududiy doirada 1934-yilda Bolqon paktini tashkil etdi, Afg'oniston, Eron, Iroq bilan hamkorlik o'rnatdi va 1937-yilda Saodobod paktini tuzdi.

1933-yil boshida Gitler Germaniyada hokimiyat tepasiga kelib, Yevropaga nisbatan harbiy tahdid o'tkaza boshladi. Ayniqsa, O'rta Yer Dengizi havzalarida vahima paydo bo'ldi. Turk diplomatlari 1923-yildagi Lozan Konvensiyasiga ko'ra, qirg'oqlardagi qaytadan qurollanish chorasini ko'rib chiqishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Mazkur hujjat "ingliz hujjati" sanalib, mamlakat suverenitetini saqlab, Turkiya Bosfor va Dardanellni majburiyat sifatida tanlab, Istanbulga Xalqaro konvensiya talablari ijrosini nazorat etishini kuzatish uchun komissiyasini kiritdi.

Harbiy kemalar Qora dengiz saltanatidan xoli bo'lgan, unga hech qanday cheklovlarsiz kirib olishi hech gap emas edi. Turkiyaning tashabbusiga ko'ra 1936 yilning iyun-iyul oylarida Montrodagi Xalqaro konferensiyada Qirg'oqlar masalasi bo'yicha yangi Xalqaro konvensiya ishlab chiqildi va u keyinchalik ham amalda bo'ldi. Yangi konvensiyaga osonlikcha erishilmadi.

Sovet hukumati turklardan kam bo'lmagan holda qirg'oqlar masalasiga qiziqish bildirdi va O'rta Yer dengizini Qora dengiz bilan bog'lab turuvchi qirg'oqlarga bee'tibor bo'lmadi.

Qirg'oqlarda SSSRning ham eksport bo'yicha kattagina ulushlari bor edi. Barchaga ma'lum bo'lgan va muhim sanalgan qirg'oqlar masalasi Rossiya uchun ham oldindan ahamiyat kasb etgan va Sovet Ittifoqi uchun ulkan harbiy-strategik ahamiyatga ega edi.

Turk mualliflarining yozishicha, sovet hukumati Turkiya qirg'oqlarini qurollantirish bo'yicha talablarni qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga, o'zlari ham harbiy jihatdan ta'minotni o'z zimmlariga olishdi. Ammo turklar bu taklifni qabul qilishmadi. Qirg'oqlar bo'yicha maqomni qo'lga kiritish uchun haqiqiy diplomatik muzokaralar sovet va ingliz delegatsiyalari orasida bo'lib o'tdi.

Turkiya delegatsiyasining boshlig'i Aras Turkiya Qora dengiz mamlakatlari bilan qanday munosabatda bo'lsa, O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan ham shunday aloqada ekani, shuning uchun Turkiya ko'proq bo'g'ozlar to'g'risida qayg'urishi ni ta'kidladi.

Oxir oqibatda inglizlar ham, turklar ham Sovet hukumatiga yon bosdi. Sovet delegatsiyasi Turkiya bilan hamkorlikda Qora dengiz bo'g'ozlaridan cheklanmagan holda o'z qurolli kuchlarini olib o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1936-yilda bo'g'ozlar rejimi to'g'risida yangi konvensiya imzolandi.

Turkiya bog'ozlar ustidan to'la mustaqillikni o'rnatdi. Uning nazorati butunlay Turkiya ixtiyoriga o'tdi, Bog'ozlar ustidan hukmronlik qiladigan Xalqaro komissiya inqirozga yuz tutdi. Bu yerdan mustaqil ravishda qattiq sanitar nazorati ostida barcha savdo-sotiq yo'llari o'tadigan bo'ldi.

Harbiy sudlarga tegishli bo'lgan konvensiyada belgilangandek, Qora dengizga kirmaydigan davlatlar tinchlik vaqtida kichik suv osti qayiqlari, kichik harbiy qismlar, yordamchi qismlarni 9 birlikdan ko'p bo'lmagan holatda, eng yuqori o'tish paytida 15 ming birlik tonnagacha olib o'tishga ruxsat berar edi. Qora dengizda uning tarkibiga kirmaydigan mamlakatlar 20 ming tonna, hammasi birgalikda esa 30 ming tonna yuk saqlashi mumkin edi. Ularning bu yerda qolish muddati 21 kundan oshmasligi kerak edi. Yuklar yuqorida ko'rsatilgan raqamlardan oshgan holatda, Qora dengiz floti bu raqamlarni 30 dan oshirishi mumkin edi, lekin bu ko'rsatgich 45 ming tonnadan oshmasligi kerak edi. Qora dengiz tarkibiga kiruvchi davlatlar esa 15 ming tonnagacha yukni olib o'tishi mumkin edi.

Konvensiya Qora dengiz hokimiyati talablariga to'la javob bermas, faqat uni Turkiya tomonidan boshqarilishiga imkon berardi, xolos. Bu esa Turkiya mustaqilligini qisman cheklab qo'yardi.

Ta'kidlash joizki, bu yillarda Turkiya erishgan yutuqlar faqat bo'g'ozlar ustidan hukmronlik qilish bilan to'xtab qolmadi. Bundan tashqari, 1933-yilda rumin-turk do'stlik sulhi, hujum qilmaslik to'g'risidagi Bolqon Antanta shartnomasi va boshqa turli shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama sulhlar imzolandi. Bu shartnoma va sulhlar 1934 yilda imzolandi. Birinchi jahon urushidan keyingi Bolqonlardagi holatni yaxshilash uchun harakatga Gresiya, Ruminiya, Turkiya va Yugoslaviya ham qo'shildi. Ikkinchi jahon urushi bu kelishuvlarni buzib yubordi.

Shu o'rinda muhim o'rinni 1937-yilda tashkil etilgan Saadobod sulhi tutadi. U Turkiya, Eron, Iroq, Afg'oniston siyosiy blokini tayinlagan. U Saadobod qasrida Tehron shahrida imzolangan. Bu Paktda chegaralarni buzib o'tmaslik, agressiyadan voz kechish, davlatning ichki ishlariga aralashmaslik va yana ko'plab holatlar belgilab qo'yilgan edi.

Shuningdek, yaqinlargacha o'zining dushmani deb hisoblab yurgan Fransiya bilan tuzilgan shartnoma ham Turkiya uchun muvaffaqiyatli bo'ldi. Fransiya bu payt Millatlar ligasi o'rnida Suriya hukm-

ronligini qoʻlga olgan va unga qoʻshib Xatayni ham boshqarardi. Bu hududni Turkiya ham oʻz hududi deb bilardi.

Uzoq vaqt davomida (1936-yilgacha) Turkiya bu savolga qaytmadi, vaholanki Xatayda bir necha marta turk va fransuzlar orasida toʻqnashuv boʻlib oʻtgan boʻlsa ham, 1936-yil 9-sentyabrda imzolangan franko-suriya sulhi Xatayning taqdirini oʻzgartirdi. Unga koʻra 3 yildan soʻng fransuz mandati ham, Suriya ustidan hukmronlik ham yakun topar edi. Shunga asosan, Aleksandre sanjagʻi Suriya tarkibiga kirardi. Bu holat Turkiyani Fransiyaga nisbatan adovatini qoʻzgʻatdi. Ular sanjaqning Suriya va Livan kabi oʻz mustaqilligiga erishishi kerakligini talab qildilar.

1936-yil oktyabr oyida Turkiya sanjak ustidan hukmronlik qilish toʻgʻrisida soʻz yuritdi. Bunga koʻra sanjak mustaqil ravishda Suriya hududiga tegishli boʻla olmasdi. Chunki Fransiya bilan imzolangan sulhda u sanjak ustidan hukmronlikdan voz kechganda sanjak Turkiya hukumati ixtiyoriga oʻtishi kerak edi. Yangi shartnomaga koʻra buning iloji yoʻq edi.

Bunga javoban Fransiya Sanjaqning mustaqilligini tan ola olmasdi, chunki mustaqil Aleksandrening mavjudligi va uning Suriyaga qarashliligi sulhning buzilishiga olib kelishi mumkin edi. Avvalgi sulhlarda Fransiya sanjak uchun avtonom tuzum oʻrnatgan, sanjak Suriyaga oʻtgandan keyin ham saqlanib qolgan. Turkiya Aleksandre sanjagʻini mustaqil qilishga erishib, keyinchalik uni oʻz hududiga qoʻshib olishni maqsad qilib qoʻygan edi. Shu tariqa sanjaqda uzoq davom etadigan kelishmovchiliklar yuzaga keldi.

Turkiya bilan doʻstlik munosabatlarini uzishni istamagan Fransiya hukumati keyinchalik Turkiyaga yon bosdi va 1937-yil yanvar oyi oxirida Millatlar Ligasi kengashida oʻzaro kelishuvga erishdi. Bunga koʻra Suriya, Turkiya va Fransiya qaramogʻida qoldi. Turkiya maxsus Aleksandre portida qulay sharoitiga ega boʻlib, yuklarini oʻtkazishda katta imkoniyatlarga ega boʻldi. Millatlar Ligasi kengashida Aleksandrening konstitutsiyasi, uning hududlar daxlsizligi belgilandi. 1937-yil Millatlar Ligasi kengashi konstitutsiyasi qabul qilindi va shu bilan birga Jenevada fransuz-turk kelishuvi imzolandi. Lekin, 1937-1938-yil qishda yana toʻqnashuv sodir boʻldi. 1938-yilning mart oyiga kelib koʻchalardagi kelishmovchiliklar haqiqiy turklar va turk boʻlmaganlar oʻrtasidagi toʻqnashuvlarga aylanib ketdi.

Bu paytda Fransiya Turkiyani qo‘llab-quvvatlashni istamasa-da (bu payt Ikkinchi jahon urushi boshlanish arafasida edi), baribir unga yana yon bosdi. 1938-yil 3-iyulda fransuz va turk generallari tomonidan Sanjak hududiga fransuz harbiylarining kiritilishi to‘g‘risida kelishuv imzolandi. 1938-yil 4-iyulda Anqarada turk-fransuz sulhi tuzilib, turk harbiylari Sanjak hududiga kirib keldi. 1939-yil 23-iyunda bir vaqtning o‘zida Anqara va Parijda 2 ta hujjat imzolandi. Anqara kelishuviga ko‘ra Xatay sanjag‘i to‘la-to‘kis Turkiya qaramog‘iga o‘tadi. Parij kelishuvi esa o‘zaro yordam haqida edi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, Suriya hukumati sandjakni butunlay Turkiyaga o‘tishini tan olmadi, shu kungacha bu holat Turkiya va Suriya o‘rtasidagi munosabatlarda muammolarni keltirib chiqardi.

Bolqon, O‘rta Yer dengizi, ayniqsa, Italiyadagi vaziyat Turkiyaning Yunoniston bilan o‘zaro do‘stlik aloqalarini yaxshilashga undayotgan edi. Hatto yaqin orada ular orasida to‘qnashuvlar sodir bo‘lishiga qaramasdan. 1934-yil Bolqon Antantasining tashkil etilishi, 1935-yilda Italiyaning Efiopiyaga hujumidan kelib chiqib, Yunoniston va Turkiya Angliya bilan sulh tuzadi. Buning natijasida Angliyaning Turkiyaga ta’siri kuchayib boradi va yunon-turk munosabatlari yanada mustahkamlanadi. Buning isboti bo‘lib 1937-yilda Turkiya Bosh Vaziri Ismet Inonuning Afinaga tashrifi hisoblanadi. Gresiya va Turkiya Germaniyani Bolqonlarga yurishidan xavotirga tushadi va 27-aprelda yangi kelishuv tuzadi. Bunga ko‘ra davlat qandaydir xavf ostiga tushib qolsa o‘zaro yordamlashish, qurol-aslaha bilan ta’minlash, o‘zaro tinch-totuvlik yashash ko‘zda tutilgan edi. Xuddi shunday kelishuv Angliya va Fransiya bilan ham tuzildi. Bunga ko‘ra Turkiya urush payti O‘rta yer dengizida Angliya va Fransiya tomonida bo‘lishini ta’kidladi.

Mustafo Kamol Otaturkdan keyin Turkiya. Turkiya Respublikasidagi siyosiy vaziyat

XX asrning 30-yillari oxirlab qolgandi. M.K.Otaturkning oxirgi islohatlari amalga oshirilayotgandi. 1937-yil oxiriga kelib mamlakatning birinchi prezidenti M.K.Otaturkning sog‘ligi yomonlasha boshladi. Uning jigar va buyrak xastaliklari to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishiga ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu vaqtga kelib boshqaruvda va siyosiy vaziyatda ko‘p narsa o‘zgara boshlagandi. 1937-yilning sentyabrida I.Inonu kelishmovchilik yuzaga kelganligi tufayli iste’foga chiqarildi. Uning o‘rnini Jalol Bayar egalladi.

Istefoga chiqishidan oldin Inonu shunday degan edi: “Otaturk atrofidagi odamlar Inonu shaxsiyatiga yomon munosabatda bo‘lgani uchun yarim oylik ta’tilga chiqdi, uning o‘rniga 21-sentyabrda J.Bayar keldi”.

1938-yil 26-may kuni Otaturk og‘ir xasta holida maxsus poezdda Anqaradan Istanbulga olib kelindi. O‘limidan bir necha kun oldin u albatta Anqaraga, mamlakat mustaqilligining 15 yilligini nishonlash marosimiga qaytish umidida edi. Buning uchun unga stadionda maxsus ko‘tariluvchi o‘rindiqliq ham tayyorlab qo‘yilgan edi. Lekin bu rejalar amalga oshmay qoldi. 1938-yil 29-oktyabrda Turkiya Respublikasi mustaqillik kunini prezidentsiz nishonladi. Prezident o‘z uyidan uzoqda Istanbulda Do‘lmabog‘cha saroyida o‘lim to‘shagida yotgan edi.

M.K.Otaturk oradan ko‘p o‘tmay, 1938 yil 10-noyabr kuni soat 9:15 da vafot etdi. Bu kun hozirgacha Turkiyada motam kuni sifatida o‘tkaziladi.

1938 yil 11-noyabr kuni Turkiyaning yangi prezidenti etib Ismet Inonu tayinlandi. J.Bayar boshchiligidagi yangi Vazirlar Mahkamasi tashkil etildi. Arasning o‘rniga tashqi ishlar vaziri etib Shukru Sarajo‘g‘li tayinlandi.

Otaturkning jasadi 1938-yil 19-noyabrgacha Do‘lmobog‘cha saroyida saqlandi. Keyin Izmit portidan kemada, undan keyin esa maxsus poezdda Anqaraga olib kelindi. Turk xalqi ikki kun mobaynida rasmiy marosim bilan Otaturk bilan vidolashdi. Marosimdan keyin uning qabri Etnografiya muzeyida 15 yil saqlandi. 1953 yilning noyabr oyida Otaturkning qabri Anqaradagi maxsus qurilgan mavzoley (Anitqabr)ga ko‘chirildi va o‘sha yerda dafn etildi.

Ko‘plab Xalqaro delegatsiyalar Turkiya Respublikasi prezidentining motam marosimiga 16-noyabrdan 26-noyabrgacha tashrif buyurdi, bular orasida sovet delegatsiyasi ham bor edi. Sovet kemasi Sevastopoldan Istanbulgacha suzib bordi. Istanbulda 21 marta salyut otilib, boshqa kemalar bilan birga marosimga qo‘shildi. Ular orasida – inglizlar kemasi “Moloe”, fransuzlar kemasi “Emil Bertin”, nemis kreyseri “Emden”, rumin esminsi “Rejina Mariya” va yunon larning “Gidra” kemasi bor edi.

Uning yagona qonuniy merosxo‘ri singlisi Maqbula xonim bo‘lib, u Chanqayada Otaturk bilan birga yashardi. Uning yana bir singlisi Xadicha xonim bo‘lib, u 1901-yilda vafot etgandi. Mustafo Kamol uylangan, lekin uning nikohi omadsizlikka uchrab, farzandlari ham bo‘lmagan. Otaturk vasiyati 1938-yil 28-noyabr kuni o‘qildi. Bu

yigʻin Anqaradagi 3-xalqaro sud maydonida, vazirlar, ichki va tashqi ishlar vazirlari, generallar, shuningdek, Otaturkning singlisi, Anqara prokraturasi raisi, sudyalari, advokatlar va bir necha deputatlar ishtirokida boʻlib oʻtdi. Otaturkning vasiyatida keltirilgan maʼlumotlar Levent oʻgʻli tomonidan yozilgan “Otaturk” kitobidan olingan.

Unda aytilishicha, Otaturk hisobidagi barcha boyliklar Jumhuriyat xalq partiyasiga oʻtkazilgan. Bunda uchta shart boʻlgan. Birinchisi, bu hisoblar markaziy bankda aylanma holatda boʻlishi kerak edi. Ikkinchi, undan olingan daromadlar vasiyatda sanab oʻtilgan shaxslar va tashkilotlarga topshirilishi kerak edi.

Vasiyatda alohida koʻrsatilgan shaxslardan biri Otaturkning singlisi Maqbula xonim edi. Singlisiga merosning eng katta qismi qoldirilgan. Bu vaqtda u 53 yoshda edi, 1956-yil 71 yoshida vafot etdi. U Otaturk avlodining oxirgi vakili edi. Maqbula xonimdan keyingi oʻrinda vasiyatda ismi tilga olingan kishi Afet (Inon) boʻlib, u Otaturkning asrab olingan qizi edi. U Otaturkning oxirgi kunlarida ham unga koʻmakdosh boʻlgan.

Otaturkning xastalanishi va oʻlimi nafaqat Turkiya uchun, balki Yevropa uchun ham fojia boʻldi. Bu davrda Yevropada, aniqrogʻi, Italiya, Vengriya, Ispaniya va Germaniyada fashizm avj ola boshladi.

Kamolistik rejim sharoitida, aynan kimga tayanish nomaʼlum boʻlib qoldi. Qrim urushidan keyin chiqarilgan xulosalar, yaʼni yevropalashtirish gʻoyalari orqada qoldi. Kamolistlar oʻz yoʻlini tanlab boʻlgan va allaqachon keyingi bosqichga tayyorgarlik koʻrilayotgan edi. Bu bosqich zahira sifatida dunyo revolyusiyasida ishtirok etmaslik va Angliya taʼsiri ostida qisman yevropalashish bosqichi edi. Qoʻshnichilik aloqalarini qanday oʻrnatish Otaturk davrida batafsil koʻrib chiqilgan edi.

T.Jivkov oʻz kitobida bunday inqilob bilan bogʻliq bir qator dalillarni keltirib oʻtadi. Masalan, 1934-yilning 17-iyun kuni Eron Otaturk sharafiga uyushtirilgan ziyofatdan keyin ingliz elchisi bilan qarta oʻynashni taklif etadi. Bu oʻyin ertalabgacha davom etadi. Oʻyindan keyin suhbat yanada qizgʻin davom etadi. Shunda elchi oʻrtadagi bir qancha toʻsiqlar haqida aytib oʻtadi. Bunday toʻsiqlardan biri turklarning ruslar bilan aloqasiga tegishli edi. Prezident bu borada elchining fikrini bilmoqchi boʻladi, lekin diplomatik vaziyat bunga yoʻl qoʻymaydi. Chunki oʻsha paytda Angliya va Rossiya munosabatlari tang ahvolda edi. Lekin elchi ular oʻrtasidagi doʻstlik

munosabatlarini oʻrnatishga juda katta toʻsiqlar yoʻqligini ham taʼkidlab oʻtdi. 1936-yil 8-mayda Forin ofisga joʻnatilgan bir telegrammada Persi Loren quyidagi maʼlumotlarni beradi: Otaturkka “Angliya bilan ancha yaqinlashib olibsizlarmi?” – deb savol berilganda, u: “Yaqinlashish ham gapmi, biz ularning (Angliyaning) quchogʻiga otildik” – deb javob beradi.

Turkiya va Angliya oʻzining yaqin doʻstlik munosabatlarini yaxshilashga 1936-yilning sentyabr oyida erishdi. Oʻsha yilning 4-sentyabrida Angliya qiroli Eduard VIII Turkiya Respublikasi prezidenti M.K.Otaturkni tantanali ravishda kutib oladi. 20-noyabrda yana bir doʻstlik uchrashuvi boʻlib oʻtadi. Barcha tantanalardan soʻng Turkiyada birinchi marta Angliya bilan doʻstlik aloqalari haqida yozila boshlaydi.

Shu tariqa Turkiyaning ichki va tashqi siyosatida Ikkinchi jahon urushiga eshiklar ochila boshladi. 1936-yilda Angliyaga nisbatan Turkiya Bosh shtabining ham fikri oʻzgara boshladi. Bu Turkiyaning qayta qurollanishi, tayyorgarlik boshlashida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ular toʻgʻridan toʻgʻri Angliya korxonalariga qurol-yarogʻ buyurtma qila boshladilar. Bu buyurtmalarning hajmi va chegarasi yoʻq edi. Angliyaning Montro konferensiyasidan soʻng boʻgʻozlarda harbiy qudratni oshirish, turk harbiy bazalaridan foydalanish, Izmiridagi portlarni rekonstruksiya qilish, Istanbul, Trabzon va boshqa hududlarda harbiy qismlar tashkil etish koʻrib chiqiladi. Karabuyukdagi metallurg kombinatining qurilishi uchun 1936-yil Angliya korxonasi “Brossert” tomonidan 3 mln. ingliz funt sterlingi miqdorida kredit kiritildi. Lekin, eng katta savdo-sotiq hamkori Germaniya edi. 1938-yil Germaniyaning Turkiyaga kiritgan kreditining umumiy miqdori 87mln. AQSh dollariga teng edi. Oʻsha yillar dollar bilan liraning qiymati bir xil edi.

Turkiya va Ikkinchi jahon urushi.

Mamlakat yangi boshqaruvining tashqi siyosati

1938-yil 10-noyabr kuni Mustafo Kamol Otaturkning oʻlimi mamlakatning ichki va tashqi siyosatida katta oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Prezident maqomini olish uchun bir qancha koʻzga koʻrindigan vakillar paydo boʻla boshladi. Ular orasida tashqi va ichki siyosatda sezilarli maqomga ega boʻlgan shaxslar ham bor edi. Mamlakat prezidentligi uchun Turkiyada Otaturkdan keyin ikkinchi oʻrinda turuvchi shaxs Ismet Inonu tayinlandi. Turk tarixchilari Otaturk va Inonu oʻrtasida ayrim kelishmovchiliklar boʻlganligini taʼkidlab oʻtishgan.

Bulardan biri Otaturk atrofida yig'ilgan jamoalar masalasi edi. Ular orasida idealistlar, mansabparastlar, ig'vogarlar bor edi. Inonu esa o'z qarashlari bilan ulardan ajralib turar, bundaylardan uzoqroq yurar edi.

1930-yilning o'rtalariga kelib Turkiyaning tashqi siyosati yo'nalishi Fransiya tomonga o'zgarishi, ayniqsa, Angliya bilan munosabatlarning yaxshilanishi ko'zga tashlandi. Ijtimoiy tendensiyalar mustahkamlandi. Yangi hokimiyat Angliya va Fransiya bilan yaqinlikni yanada oshirdi. Natijada Ikkinchi jahon urushidan oldin barcha uchun, shu qatorda, SSSR uchun ham shu narsa ayon bo'ldiki, Turkiyaning tashqi siyosati butunlay Angliya va Fransiya bilan hamkorlikka asoslandi.

Sovet Rossiyasining yangi Turkiya bilan harbiy hamkorligi o'tmishda qoldi. Angliya va Fransiya bilan tuzilgan hamkorliklar asosida Rossiya hukumatiga nisbatan muhtojlik qolmadi. Angliya va Fransiya sovet hokimiyati bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan bir paytda Turkiyaning hukumat boshlig'i ham Sovet Rossiyasi ishonchini suiiste'mol qiladigan darajadagi siyosat olib borardi.

Bu yo'nalishning faol ishtirokchisi yangi Tashqi ishlar vaziri lavozimiga tayinlangan shaxs Sarajog'li edi. U bu lavozimga 1938-yilda Arasning o'rniga tayinlangandi.

Urush boshlanishi arafasida Angliya va Fransiya Yevropaning fashist rejimiga asoslangan betaraflik siyosatini ilgari surdi. Germaniya bunda alohida o'rin egalladi. Angliya va Fransiya Germaniyaning hujumini SSSR tomonga yo'naltirishga urinardi. Turkiya esa bu holatni juda qiziqish bilan kuzatib turardi.

1930-yildagi voqealar shuni ko'rsatdiki, SSSR Fransiya va Angliyani o'sha paytda Mussolini va Gitler hukmronlik qilayotgan fashistik tuzumdan chetda saqlab qolishga urindi, lekin ularning ta'siridan saqlab qola olmadi. Hech qanday qarshilikka uchramay, Germaniya o'z hududiga Avstriyani qo'shib oldi. Uning keyingi qurboni Chexoslovakiya bo'ldi. Mussolini tashabbusi bilan 1938-yil 30-sentyabrda Myunxenda Buyuk Britaniya (Chemberlen), Fransiya (Dalade), Germaniya (Gitler) va Italiya (Mussolini) ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi. Unda g'arb mamlakatlari o'z ittifoqdoshi – Chexoslovakiyaga xoinlik qilib, u bilan hamkorlik aloqalarini uzdi. 1939-yil mart oyida nemis armiyasi Chexiyaga bostirib kirdi, Slovakiyani qo'g'irchoq mamlakatga aylantiradi. Markaziy sharqiy Yevropaning boshqa mamlakatlari – Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Germaniyaning ittifoqdoshlariga aylandi. Ularning fikricha, Germaniya bu urushda g'alaba qozonardi.

Turkiyaning bu boshqaruv holatiga munosabati 1939-yilda 4-may kuni yozilgan xatlarda o'z isbotini topdi. Hukumat Gitler boshqaruvi boshlanishidanoq Germaniya dinamikasini kuzatdi, uning Rim va Tokio bilan yaqinlashuvini ham inobatga olgan holda ular bilan ittifoqchilik, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarni uzishga qaror qildi.

Bu yillarda SSSRning xalqaro nufuzi – ichki holatiga jiddiy zarar yetdi. Ichki holatdagi ommaviy jazo choralari, xalq dushmanlariga nisbatan ko'rilgan holatlar, harbiy qismlarni yo'q qilinishi, bu kelishmovchiliklarga asos bo'lib xizmat qildi. Bunday holatlar Turkiyaning Sovet Ittifoqi bilan munosabat o'rnatishiga xalaqit berardi. Ko'pchilik turk siyosatchilariga SSSRdagi tuzum xavfli ko'rinda boshladi. Bundan tashqari, barcha salbiy omillar Turkiya sanoatiga xavf sola boshlagan edi.

Germaniya xavfi Angliya, Fransiya va SSSRni hamkorlik yo'lini izlashga majbur qildi. 1939-yilning bahorida ular orasida muzokaralar boshlandi. Lekin ulardan birortasi ham dushman bostirib kiringanda yordam ko'rsatish majburiyatini o'z zimmasiga olmadi. Buning oqibatida muzokaralar boshi berk ko'chga kirdi. Bunda hech qanday foyda yo'qligini bilgan Stalin Gitler bilan o'zaro hujum qilmaslik haqidagi bitimni imzoladi. Hujjat SSSR Tashqi ishlar bo'yicha xalq komissari Molotov va Germaniya Tashqi ishlar vaziri Ribbentrop tomonidan 1939-yil 23-avgustda imzolandi.

Turk muallifi Kamron Gurun bu muzokaralardagi dramatik holatlarni shunday tasvirlaydi: «Moskvadagi rahbarlarning nemislar bilan muzokaralarida ham, ingliz-fransuz harbiy muzokaralarida ham hech kim hujjatni imzolashga haqqi yo'q edi.» U 25-avgust kunidagi Voroshilovning «Hozirgi o'zgaruvchan siyosiy vaziyatda muzokaralar o'z ma'nosini yo'qotdi» degan so'zlarini ham eslatib o'tadi.

1939-yil 1-sentabr kuni Germaniya Polshaga hujum qildi. Bu ikkinchi jahon urushining boshlanganidan dalolat berar edi. 1939-yil 19-oktabr kuni Anqarada inglizlar, fransuzlar va turklar o'rtasida o'zaro qo'shnichilik va yordamga asoslangan sulhlar tuzildi. Bu hujjatga ko'ra Fransiya va Angliya Turkiyaga tahlikali kuchlar xavf solgan holatda unga yordam qo'lini cho'zishi kerak edi. Shuningdek, Fransiya va Angliya ham xavf ostida bo'lgan taqdirda Turkiya ham ularga yordam berishi kerak edi. Bu kelishuv Gresiya va Ruminiya tomonidan yanada mustahkamlandi. Lekin yaqinlashib kelayotgan Yevropadagi urush bu tinchlik sulhlarini o'z holatida qolishiga izn bermadi.

Turkiya SSSR bilan o‘zaro yordam haqida bitimlar tuzish yo‘lida ilk qadamlarni qo‘ya boshladi. Uning maqsadi g‘arb mamlakatlari bilan harbiy ittifoqni saqlab qolish bo‘lsa-da, g‘arb mamlakatlari uning taklifini jiddiy qabul qilishmadi. 1938-yilda Myunxen kelishuvi imzolandi. Stalin va Molotov bunday kelishuvga quyidagi shartlar bo‘yicha rozi bo‘lishi mumkin edi. Birinchidan, bu kelishuv Germaniya bilan to‘qnashuvga sabab bo‘lmasligi kerak edi. Ikkinchidan, bo‘g‘ozlarni nazorat qilish konvensiyasiga o‘zgartirish kiritish kerak edi. Bu o‘zgartirish mavzusi Qora dengiz tarkibiga kirmaydigan mamlakatlarning bo‘g‘ozlar orqali o‘tmasligi haqida edi. Lekin Sovet-Germaniya muzokaralari Sovet-Turk kelishuvlarini keyingi o‘ringa surib qo‘ydi. Bu tuzilgan parallel shartnomalar (Sovet-Germaniya, Sovet-Turkiya) kelishuvlari Sovet hukumati bilan Germaniya o‘rtasidagi kelishuvlarning buzilishiga olib kelishi mumkin edi. Bu orada Turkiya Tashqi ishlar vazirining Moskvaga tashrifi ham muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

Turk tarixchilarining ta’kidlashicha, SSSRning Germaniya bilan kelishuvidan keyin ularning hamkorligi yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan qaraladigan bo‘lsa, sovet neftini Germaniyaga olib kirish hajmi oshdi.

Millatlar Ligasida SSSRga nisbatan chiqarilgan hukmda, Finlandiyaga qarshi urush arafasida hamkorlar SSSRning Germaniya bilan tuzgan shartnomasini buzishga urinadilar. Buning uchun ular Baku va Botumi neft ishlab chiqarish va qayta ishlash majmualarini portlatadilar. Kochakning ta’kidlashicha, bu ishlardan boshqa maqsad: hiyla ishlatish orqali mamlakatda islom shiori ostida tartibsizliklar keltirib chiqarishni ko‘zlagan edilar. Fransuz elchisi Anqarada 1940-yilning yanvar va fevral oylarida “Buyuk Turon” rejasiga mualliflik qildi. Unda SSSRda yashovchi millionlab turkiylarni birlashtirish ko‘zda tutilgan edi. Turkiya hukumati ham bu qarorni qo‘llab-quvvatlar edi. Ushbu rejada Suriya va Iroqdan Kavkaz tomonga yurish qilish va buning Turkiya chegarasidan ham o‘tishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan edi. Inglizlar bu rejani qo‘llab-quvvatladilar. Turklar Angliya va Fransiya bilan tuzilgan bitimlar o‘z kuchida qolishiga umid bog‘lar edi.

1940-yil 26-iyunda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Turkiya Germaniyaga qarshi chiqadi, lekin mavjud bir necha holat bunga yo‘l qo‘ymaydi. Germaniya Turkiya bilan ham, SSSR bilan ikki tomonlama o‘yin qilayotgan edi.

Turkiya bilan urush e'lon qilish haqidagi savol Germaniya uchun ochiqlicha qoldi. Ikki yirik mamlakat, ya'ni SSSR va Turkiyaning birlashmoqchi bo'lganini ko'rgan Germaniya buning oldini olish maqsadida darhol Turkiya bilan o'zaro hujum qilmaslik shartnomasi bo'yicha muzokaralarni boshlaydi. Bu muzokaralar uzoq vaqt davom etadi va nihoyat, 1941-yilning 18-iyunida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi german-turk shartnomasi imzolanadi.

Tomonlar bir-birining qarorlarini hurmat qilishga qaratilgan majburiyatlarni olishdi, hudud daxlsizligi, u yoki bu hududga nisbatan noo'rin choralar qo'llash taqiqlandi, hamma savollar yuzasidan do'stlik munosabatlarini ushlab qolish majburiyatlari belgilandi. Lekin bir tomondan Germaniya o'zi qo'ygan shartlarni bajarar ekan, Turkiyaning SSSR bilan tuzgan bitimiga qarshi qarorlar ham kela boshladi.

Shunday qilib, Germaniya o'ziga janubiy tomondan himoya to'sig'i yasab olib, keyin SSSRga qarshi urush e'lon qildi.

Shundan keyin turklar urushdan chetda qolganliklarini his qilib, ko'ngil xotirjamligiga erishishdi. Turkiya davlat sifatida betaraflik pozitsiyasini saqlab qolishga urindi.

Endi Turkiya Fransiya va Angliya oldidagi burchlari haqida unutgandi. U butunlay Germaniya foydasi uchun harakat qilar. Mamlakat ichida ham Germaniya bilan hamkorlik qilishga xayrixoh tomonlar ko'paya boshladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Turkiya-Germaniya munosabatlari

1941-yilning 22-iyunida fashistlar Germaniyasi 190 diviziya (5.5 mln odam), 3 mingdan ortiq tank, 5 mingga yaqin samolyot bilan Sovet Ittifoqiga bostirib kirdi. Bu paytda German-Sovet chegarasida 62% dan 70% gacha fashist Germaniyasining harakatdagi diviziyalari joylashgan edi. Bundan tashqari, Sovet-german fronti jangovor harakatlarida italiyan qo'shinlari, ispan, xorvat, slovak, fransuz qismlari va Germaniya tomonidan egallangan boshqa davlatlardan bo'lgan ko'ngilli bo'linmalar ham ishtirok etdi. SSSRga qarshi qaratilgan yurishning harbiy-iqtisodiy ta'minotida deyarli butun Yevropa davlatlarining moddiy imkoniyatlari ishga solindi.

Cherchillning 1941-yilning 22-iyun kechasi London radiosidagi Sovet Ittifoqini qo'llab-quvvatlovchi chiqishi, 1942-yilning mayidagi SSSR bilan tuzilgan ittifoq shartnomasi va boshqa qadamlar umumiy

dushmanga qarshi kurashda Britaniya davlat manfaatlarini qanchalik jiddiy tushunishini namoyon etdi. Turkiyani o‘z tomoniga og‘dirish maqsadida barcha zarur choralarni ko‘rish haqidagi istak 1941-yilning 30-avgustida Stalinga ma’lum qilindi.

1941-yilning yozi va kuzi Sovet Ittifoqi uchun juda og‘ir kechdi. Nemis qo‘shinlari davlat hududiga 850 km.dan 1200 km.gacha masofaga bostirib kirdi. Millionlab kishilar janglarda xalok bo‘ldi, qurshovda yoki konslagerlarga tushdi. Ammo Germaniya o‘zining strategik maqsadlari bo‘lmish Moskva va Leningradni qo‘lga kirita olmadi. 1941-yilning yozida Gitlarga qarshi ittifoq tuzildi. 1941-yilning 14-avgustida AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari Germaniya va uning ittifoqdoshlariga qarshi urush maqsadlari, urushdan keyingi dunyo, asosan xududiy bosqindan voz kechish va xalqlarning boshqaruv tizimini o‘zlari tanlash xuquqi haqida Atlantika xartiyasini imzoladilar. 1941-yilning 24-sentyabrida London Ittifoqlararo konferensiyasida SSSR o‘zining Atlantika xartiyasining asosiy bandlarini imzolab, Gitlarga qarshi ittifoqning tuzilishiga zamin yaratdi. AQSh va Buyuk Britaniya SSSRga xarbiy ta’minotni yo‘lga qo‘ydi. 1941-yilda Yaponiya AQShga qarshi urush boshlagach, borayotgan urush jahon urushiga aylandi. AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar Yaponiyaga qarshi, Germaniya va Italiya AQShga qarshi urush e’lon qildi.

1941-1942-yillarda Sovet Ittifoqining holati juda og‘ir edi. RSFSRning Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo‘yi, g‘arbiy, shimoliy-g‘arbiy va bir qator janubiy viloyatlar dushman tomonidan egallangan edi. 1942-yilning yozi va kuida bo‘lgan janglar, asosan janubiy g‘arbiy yo‘nalishda olib borildi.

1942-yilning 8-noyabrida “Nemislarni Nalchikni qo‘lga olishga muvofiq bo‘ldilar” – deb, Stalin Cherchillga Kavkaz frontidagi vaziyatning og‘irlashishi to‘g‘risida ma’lumot bergan edi. Undan avvalroq Cherchill O‘rta Yer dengizida vaziyat og‘ir ekanligi, ya’ni Malta uchun jangda ingliz harbiy aviatashuvchi kreyseri cho‘ktirilganligini aytgan edi.

Germaniyaning Sovet Ittifoqiga hujumini Turkiya qanday qabul qildi? “Germaniya – SSSR urushi mamlakatda bayram kayfiyatini keltirib chiqardi. Barcha yuraklar o‘tgan besh asr tarixi, Germaniyaning g‘alabalari bilan birga urush boshladi. Barcha bir-birini tabriklab, “Bayramingiz bilan, urush uzoqlashdi” – deb yozadi Kochak. Uning zamondoshi bo‘lgan Barutchu kundaligidan quyidagilarni o‘qish

mumkin: “Majlis yo‘laklarida men vazir Sarajokni ko‘rib, “Siyosiy g‘azot bilan tabriklayman” deb aytdim u esa javoban “Birga bo‘lsin”, – dedi. Shu bilan birga Inonu xam xursand edi. Hatto kandaydir marshal kulib “Agarda urush bir haftadan so‘ng tugamasa, uyat bo‘lib qolardi.” – dedi. 22-iyundagi Popenning Berlinga yuborgan xabarnomasida unga Sarajo‘glu ko‘ng‘iroq qilib yaxshi muvaffaqiyatlar tilaganligi xaqida ma‘lumot berilgan. 1941-yilning 22-iyunda “Jumhuriyat” gazetasida Gitler Otaturkni tushunuvchi yagona yo‘lboshchi ekanligi ta‘kidlandi.

Ammo Turkiya u yoki bu tomon tarafida urushga kirmoqchi emasdi. Germaniyaning Sovet Ittifoqiga hujumidan so‘ng Turkiya o‘zining xolisligini e‘lon qildi. 25-iyunda esa bu e‘lonni Sovet hukumatiga berilgan og‘zaki nota aytdi. SSSRga nisbatan Gitlerning agressiyasidan 4 kun oldin 18-iyunda Germaniya va Turkiya o‘rtasida do‘stlik va hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Shu bilan birga 1939-yilning mayida Angliya (Fransiya bosib olingan edi) bilan ittifoq to‘g‘risidagi shartnoma o‘z kuchida edi. Bundan tashqari, 1925-yilda tuzilgan SSSR va Turkiya o‘rtasidagi do‘stlik va xolislik Parij shartnomasi o‘z kuchini yo‘qotmaganligini esga olish lozim. Bu diplomatik hujjatlarga Turkiya hukumati davlat jahon urushidan chekkada qolishga majbur ekanligini ta‘kidlash maqsadida vaqti-vaqti bilan murojaat etar edi.

Shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro ishonch qolmadi. Montrodan boshlab SSSR Turkiyaga unchalik ishonmas edi, endi esa SSSR xududida boshlangan janglardan Turkiyaning xursandchiligi Sovet boshqarmasini hayratga solayotgandi. Turkiya esa Molotov-Ribbentrop shartnomasidan so‘ng o‘zining shimoliy qo‘shnisiga nafaqat ishonmas, balki qo‘rqardi ham. Bundan tashqari, fashistlar Germaniyasi bilan boshlangan urushda yutqazish muqararligini ta‘kidlar edi ham.

Shu bilan birga SSSRning Germaniyaga qarshi urushining birinchi kunlaridanoq Turkiyani SSSR bilan birgalikda harakat qilishiga chorlovchi Angliya e‘lonlari bezovta qilar edi. Turkiya SSSRdan 1925-yilgi shartnomaga asosan ingliz-sovet shartnomalari borasida ma‘lumotlarni talab qildi. Moskva esa o‘z tomonidan Turkiyani Montro konvensiyasini buzganlikda aybladi. Aynan Montroda sovet diplomatlari xal qilgan vaziyat yuzaga keldi. Turkiya tomonidan Qora dengiz qirg‘og‘i davlatlari tarkibiga kirmagan bo‘g‘ozlar orqali Qora

dengizga kirishi ta'qiqining bajarilishi 1941-yilning iyulidayoq Turkiyaning Montro konvensiyasini buzganligi borasida Sovet va Turk tomonlari o'rtasida diplomatik muzokaralar boshlandi. 1941-yil 12-iyulidagi birinchi Sovet notasida Turkiya xukumati tomonidan 9-iyulda o'z kuchiga ega konvensiyani buzib, Qora dengizga nemis kateri "Zeefalke"ning bo'g'oz orqali o'tkazib yuborilganiga e'tibor qaratildi.

Bu boradagi yozgan xatlarda turklarning javoblarida shu narsa ta'kidlanar ediki, hukumatga bu to'g'rida hech narsa ma'lum bo'lmagan edi. Keyinroq esa "Zeefalke" kateri nemis savdo bayrog'i va tijorat kemasi boshqa dalillariga ega bo'lgan. Bu va boshqa holatlarda Sovet hukumati kinoya qilganda, u o'zgarishsiz javoblar (ya'ni gap savdo kemalari haqida ketyapti) Turkiya konvensiya shartlarini e'tibor bilan bajarayotgani va ularni buza olmasligi haqida bir xildagi tushuntirishlar olar edi. Bekorga emas, shved gazetasi "Stokgolms Tidningen" Anqaradan kelgan go'yo Angliya va Sovet Ittifoqi SSSRning Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari ustidan da'vosini qoniqtiruvchi shartnomaning imzolangani to'g'risidagi xabarni nashr etgan edi.

Germaniya tomonidan Montro konvensiyasining buzilish holatlari keyinchalik ham, Sovet qo'shinlari Qora dengiz portlaridan nemis armiyasini butunlay quvib yubormaguniga qadar davom etdi. Bu urinishlar 1944-yilda Germaniyaning o'z qo'shinlarini saavdo kemalari-ga niqoblangan uncha katta bo'lmagan yordamchi kemalar yordamida olib chiqishga qaratilgan harakatlari yaqqol sezilarli bo'ldi. Ko'p hollarda ular Popenning chin so'zi ostida o'tib ketar edilar. Ingliz va sovet diplomatlari talablariga ko'ra turklar xohishsiz ayrim kemalarni tekshira boshladi va ular qurol-yarog', elektron qurilmalar, o'q-dorilar va hatto, fuqaro kiyimini kiygan harbiylarni ham o'tkazayotgani ayon bo'ldi. Bundan tashqari, Qora dengizdan Egey dengiziga o'tayotgan "Kassel" kemasini tekshirishga to'xtatganida turklar ekipajdan rad javobini oldilar. Natijada tekshiruv o'tkaziladi va shu ma'lum bo'ladi-ki, bu yordamchi 9 mm zirhli qoplamaga ega, 30 tonnalik kran va og'ir pulemyot o'rnatmasini olib o'tayotgan harbiy kema ekan.

Shubhasiz, e'lon qilingan xolislik va Turkiya rahbar doiralarning davlatning u yoki bu urushayotgan tomonlar tarafida urushga jalb qilinishining oldini olishga qaratilgan harakatlarga qaramasdan, bu doiralarda Angliya yoki Germaniyaga xayrixoh ta'sirli guruhlar bor edi. Lekin bu guruhlar aytib o'tilgan davlatlarga nisbatan xayrixohlik yoki nafratiga qaramasdan (ularning ko'pchiligi Germaniyaga ishon-

mas edi, chunki Turkiyaga bostirib kirishidan qo‘rqar edilar), ular bir jihatdan SSSRning eng qiyin kunlarida ochiqdan-ochiq dushmanlik munosabatini ko‘rsatishida bir to‘xtamga kelishgan edi. Bularning ayrimlari ochiqdan-ochiq bu to‘g‘risida e‘lon qilishsa, boshqalari egallab turgan lavozimidan kelib chiqib, pinhona suhbatlarda aytishar edi. Nafrat faqatgina, bo‘g‘ozlar bilan cheklanib qolmasdan, sovet davlati uchun mazkur qiyin vaziyatda, yuqorida keltirilgan turk guruhlarining davlatni parchalashga qaratilgan harakatlari ayon bo‘ldi. Bu xatarning mohiyati, Germaniyaning Sovet Ittifoqiga hujumidan ikki oy o‘tib, Germaniya Tashqi ishlar vazirligining muxtor vakili Veyszekker va turk elchisi Xusrav Geredening Berlindagi suhbatida ayon bo‘ldi. Veyszekkerning 1941-yilning avgustida Ribbentropga bergan hisobotiga ko‘ra turk elchisi Sovet davlati chegarasidagi turk qabilalari to‘g‘risida aytib o‘tgan edi. U Sovet Ittifoqiga qarshi bu qabilalar orqali targ‘ibot imkoniyatiga e‘tiborni qaratdi. So‘ngra u ochiq-oydin Kavkaz xalqlarini yagona bufer davlatga birlashtirib, Kaspiy dengizidan sharqda ham yagona turkiy davlati tuzilishiga shama qildi. Gereke Bakuning butun aholisi turkiy tilda so‘zlashishini belgilab o‘tgan holda asosiy savolni o‘rtaga tashlashni cho‘zib o‘tirmadi.

Shuningdek, sovet-german urushi va Germaniya bilan do‘stona xolislikning birinchi oylaridanoq, turk millatchiligi, shovinizmi, irqchiligi, pantyurkizmi va fashizmi sezilarli darajada jadallashdi. Urushda ishtirok etmagan Turkiya reyx millatchilari va elchilarini yaqin kundagi SSSRning halokatini va fashistlarning Turkiya bilan turklar yashovchi sovetlar hududlarning Kavkaz, Qrim va O‘rta Osiyoning bir qancha qismlari bilan “bo‘lishishi” to‘g‘risida e‘tibor va ishtiyoq bilan eshitishar edi. Nazarimizda, Otaturk hayot bo‘lganida bunday vaziyat yuzaga kelmas edi. Amaliyotchi sifatida shimoldagi kommunistik tuzumga ega, o‘z respublikasiga nisbatan suv osti toshlarining mavjudligini bilar, va bu “toshlarni” hisobga olib, SSSR bilan do‘stona qo‘shnichilik aloqalarini saqlab qolish usullarini izlar edi. Har holda “do‘stona qo‘l” xotirasiga, shimoldan Kamolchilarga berilgan yordamni esga olib, xuddi shunday Moskva va Stalingrad ostonasidagi janglar vaqtida u, ayniqsa, Moskva uchun hayotiy muhim davrda o‘z vaqtida ham ko‘p bo‘lgan panturkchilarga izn berib ko‘ymas edi.

1941-yilning 28-avgustida Popen Turkiya prezidenti Inonu bilan ham suxbatlashgan edi. Bunga javoban u qat‘iy gap eshitmadi, faqatgina unga “bu mavzularda sovetlarning mag‘lubiyatidan so‘ng-

gina Turkiyaning bu haqda suhbatlashish xohishi paydo bo‘ladi” deb aytili. Bunday yarim rasmiy muzokaralarda Turkiya hukumati a’zolari ko‘p ham chuqurlashmas edilar. To‘g‘rirog‘i, bu mintaqada Turkiya bilan hamkorlik qiluvchi davlatning tuzilishidan uzoqqa o‘tmas edilar. Turkiyaning panturkiy doiralari bu hududlarni bevosita mamlakatga qo‘shilishi uchun Sovet Ittifoqiga qarshi tez suratlarda Germaniya tomonida urushga kirishga chorlar edilar. Boshqa tomondan esa Turkiya va Germaniyadagi kelib chiqishi turkiy bo‘lgan millatchi ko‘chmanchi va qochoq yo‘lboshchilar Germaniya tomonidan bosib olingan hududlarda mustaqil turkiy davlatlarni tuzishga chaqirar edilar. Germaniyaning yondashishi bundan ancha farq qilib, Sovetlar ustidan g‘alabani osonlashtirish va ularni ichidan yemirish maqsadida bosib olingan hududlarning turkiy xalqlari orasida millatchilik va mustaqillik qarashlarini qo‘llab-quvvatlovchi targ‘ibot ishlarini olib borish edi. Bu choralar tabiiy qazilmalarga boy bo‘lgan hududlarning Germaniya tomonidan bosib olinishi asosiy maqsad edi.

1941-yilning kuzida Inonu harbiy akademiya boshlig‘i Yulduz Ali Fuad Erden va sovet-german urushi bo‘yicha mutaxassis iste’fodagi general Erkiletlarni g‘arbiy frontga yubordi. Ular 15-oktyabrdan 5-noyabrga qadar Germaniyaning harbiy ittifoqdoshlari bo‘lgan Bolgariya va Ruminiya, shuningdek, bosib olingan Odessa va Nikolaev shaharlari, sovet harbiy mahbuslari lagerlarda bo‘lib, kelib chiqishi turkiy bo‘lgan harbiy mahbuslar bilan suhbatlashib, Gitler qabulida ham bo‘ldilar. Bundan sal avvalroq sentyabr oyida Berlinga “tajribali panturkist” Enverning akasi Nur poshsho Germaniya va panturkchilar o‘rtasida “yarim rasmiy” aloqalar o‘rnatish maqsadida tashrif buyurgan edi. U o‘z navbatida elchi Gereade bilan ham uchrashdi. Safarning maqsadi Kavkaz muammosi bo‘yicha Turkiya panturonchilar dasturi bilan tanishtirish edi. U xususan mazkur mintaqada siyosati Turkiya tomonidan belgilanuvchi bir necha mustaqil davlatlarni yaratishni ko‘zda tutar edi. Gap Qrim, Ozarbijon, Dog‘iston, Volga Ural mintaqasi hududi, Turkiston va Shimoliy Ozarbijon to‘g‘risida borar edi. Nuri Poshsho “SSSRning butunlay mag‘lubiyati Germaniya va Turkiya o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamligiga bog‘liq” deb ta’kidlaydi. U Vayszekkerning Kavkazni yaxshi bilishi va u yerda 100 ming kishilik qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga ishonitirmoqchi bo‘ldi.

Agarda vaziyat sovetlarning butunlay tor-mor kelitirilishini taqozo qilsa, unda bunday siyosat o‘zini oqlar edi. “Nuri Poshsho turk

hukumatini qay tarzda tasavvur etganligi noma'lum, ammo bu hukumat haqiqatdan ham mintaqada mustaqil, amalda esa Turkiya tomonidan boshqariladigan bufer turkiy davlatlarning tuzilishini e'lon qilar edi". Muallif (Kochak)ning yozishicha, Nuri poshsho maslahatiga ko'ra Germaniyada kelib chiqishi turkiy qabilalardan bo'lgan musulmonlardan xarbiy qismlar tuzilishi boshlandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 1941-yilning 21-dekabriga kelib, ko'lga olingan asirlarning soni 200 mingga yetdi. 1942-yilga kelib, ulardan milliy hududiy kelib chiqishiga ko'ra bir necha jangovor bo'linmalar tuzilib, ularning barchasi 162-turkiy diviziyaga birlashtirildi. Turkiy qismlardan tashqari, bunga arman va gruzin qismlari ham kirar edi. Gruzin va arman millatchilarning qo'llab-quvvatlashi Germaniyaning Kavkaz xalqlariga nisbatan rejalarining asosiy qismlaridan biri edi. Arxiv va komissiyalar tadqiqodlari hisobotiga ko'ra, nemislar arman va gruzin vakillariga, ularning respublikalari tuzilgandan so'ng armanlar va gruzinlar tarixiy dushman bosqinchi turklarga nisbatan muqaddas urushga tayyorgarlik ko'rishlarini e'lon qildilar.

Fashistlar tomonidan bosib olingan Sovet Ittifoqi janubiy hududlariga Turk tashrifchilarining yo'li, odatda Berlin orqali bo'lib, Gebbels yoki Gitler huzuriga tashrifsiz va deyarli majburiy muhokamalarsiz amalga oshmas edi. "Jumhuriyat" gazetasi rahbari Nodir Nodi o'zining kundaliklarida "shu paytlari fashistlar turk hukumati va jurnalistlarga qanday iltifotlar ko'rsatganliklari"ni aytadi. U armiyaga safarbar qilinganida 1942-yil Germaniyaga va keyinchalik SSSRning bosib olingan hududlariga jurnalistlar tarkibida borish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1942-yilning boshida Popenga nisbatan muvafaqqiyatsiz suiqasd uyushtirildi. 24-fevral kuni Otaturk ko'chasidan Chankaya tumaniga qarab ketayotgan kishining qo'lidagi o'ram portlaydi. Natijada bir necha odam jaroxatlanadi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, halok bo'lgan odam Yugoslaviyadan ko'chib kelgan Tokat universiteti talabasi bo'lib chiqdi. Qisqa vaqt ichida uning ikki safdoshi Abdurahmon va Sulaymon qo'lga olindi. Hibsga olinganlar Turkiyadagi sovet diplomatlari tomonidan fon Popenni o'ldirish maqsadida uyushtirilganligini e'lon qildilar. U haqiqatdan ham portlash vaqtida yaqin orada sayr qilayotgani ma'lum bo'ldi va fitnaning maqsadi Turkiyani SSSR tomonida urushga jalb qilish deb topildi.

Shundan so'ng, turk maxsus xizmati darhol ikki sovet fuqarosi – sovet oliy vakilligi xizmatchisi Georgiy Pavlov va transport operatsi-

yalari mutaxassisi Leonid Kornilovlarni qidirishni boshlaydi. Bu mudhish hodisalar haqida Yu.Baturinning “Josus ma’lumotnomasi” kitobida batafsil aytib o‘tilgan. Shuni ham aytib o‘tish zarurki, sovet josusi, Turkiyada 1941-1947 yillarda har xil unvonlarda, M.M Baklanov nomi bilan xizmat qilgan otasi Baturin M.M (1904-1978 yy.) to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotlari bilan yaxshi tanishigan Yu.M.Baturin, suiqasd sovet maxfiy xizmati tomonidan uyushtirilganligini ta’kidlamaydi. RF tashqi razvedka xizmatining rasmiy pozisiyasi to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “Arxivda Rossiya tashqi razvedka xizmati hujjatlarida bu taxminlarni isbotlovchi dalillar yo‘q”. Ammo P.A.Sudoplatovning kitobidan unga “Stalin Popenni yo‘q qilishni buyurganligi” va “suiqasd muvafaqiyatsizlik bilan tugaganligi”ni yozadi. U o‘z kitobida boshqa taxminlarni ham keltiradi. Masalan, Germaniya maxsus xizmati boshlig‘i R.Geydrixning buyrug‘i bilan Popenning orqasidan har doim kuzatuv olib borilgan (1934 yilda bo‘lib o‘tgan “uzun pichoqlar tuni” munosabati bilan) va nemis josuslik xizmati xodimi V.Xyottlyaning ta’kidlashicha, “Anqaradagi Popenga bo‘lgan suiqasd ruslarning emas, balki haqiqatdan ham Geydrexning buyrug‘i asosida” deb aytib o‘tadi. Oxir oqibat Popenning o‘limini, agarda iloji bo‘lmasa, uning chetlashtirishini nafaqat Sovet hukumati, balki ingliz va hatto Inonuga yaqin davlatning xolisligini barcha iloji bor yo‘llar bilan saqlamoqchi bo‘ladi va bir vaqtning o‘zida ikkala tomondan cho‘chigan turklar ham istar edi. Chunki Popen Turkiyaning istagi bilan elchi bo‘lgan emasdi. Bunday fitnani tashkillashtirish va uni ikki dushman pinhona to‘qnashuvi deb ko‘rsatish turk maxsus xizmati uchun oson ish edi.

Shunday qilib, Turkiya har doimgiday Germaniya va SSSRga nisbatan “do‘stona xolislik” qo‘rsatib, Sovet elchixonasiga Pavlov va Karnilovlarni unga berish ultimatumini ilgari suradi. Ular sovet maxsus xizmati xodimlari ekanligidan Turkiyaning shubhasi yo‘q edi, lekin endi davlat ularning Popenga suiqasd uyushtirganliklarini isbotlash istagida edi. Turkiyaning SSSR Oliy konsullik xizmatiga yuborgan ultimatumini rad etiladi, bunga javoban ekshududiylik maqomiga ega bo‘lgan Istanbuldagi sovet muassasasi qurshovga olinadi.

Shu kunning o‘zida, ya’ni 1942-yilning 5-martida poytaxt vokzali perronidan Anqara – Erzerum poezdi yo‘lga chiqadi. Vagonning birinchi toifa kupelaridan birida Turkiyadagi SSSR elchixonasining ikkinchi kotibi Mixail Kuznesov va savdo-tijorat vakili Leonid

Kornilovlar joylashgan edi. Oxirgi daqiqalarda kupeda ular osonlik bilan tanib olgan yana bir yo'lovchi, polisiya agenti paydo bo'ladi. Qo'shni vagondagi alohida to'rt o'rinli kupeni SSSRga diplomatik pochta olib ketayotgan, NKVDning diplomatik pochta xodimlari Nikitin va Xoxlovlar egalladi. Poezd Kayseri stansiyasiga kelib to'xtaganda diplomatik pochta xodimlari kupesiga polisiya va fuqaro kiyimidagi odamlar bostirib kiradi.

Mirshablarning boshqa guruhi Kornilov va Kuznesovlarning kupesiga bostirib kirib ularni ko'llarini qayirib, do'pposlab, mahkamaga olib ketadilar. Kornilov poezdda soldatlar tomonidan qurol ishlatishga tayyor holatda qurshovga olinganini payqaydi. Bu operatsiyaga jiddiy tayyorgarlik ko'rilganligidan dalolat beradi. Ammo, bu yerda diplomatik pochta xodimlarining aybi nimada ekanligi tushunarsiz edi.

Kayserida Kornilovni sovet tomoni e'tirozlariga qaramasdan, qo'pol kuch ishlatish yo'li bilan qo'lga olgan mirshablar oliy konsullik hududi va mussasasiga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. Shturmning muqarrarligi aniq bo'ladi. Bundan tashqari, qamal natijasida konsullikda oziq-ovqatlar tugagan edi. Mordvinov (Pavlov) qimmatli sirli hujjatlarni saqlab qolish maqsadida, o'z xohishi bilan chiqishga axd qiladi.

1942-yilning 1-aprelida sud boshlanadi. Georgiy Pavlov va Leonid Kornilov ularga qo'yilgan ayblarni qat'iy rad etdilar, ammo Abdurahmon Sayman va Sulaymon Sogal o'z ayblarini tan oldilar. Ular suiqast Sovet hukumati buyrug'iga asosan, Germaniya va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarni buzishga qaratilgan va Turkiyani SSSR tomonida turib urushga jalb etish maqsadida uyushtirilgan deb ta'kidlaydilar. Bu holda ruslar Turkiya hududidan o'zining janubiy chegarasini himoya qilish maqsadida foydalanishi mumkin edi.

Umuman olganda, sud ayblanuvchilar uchun yaxshi tusga kirmadi. Jurnalist Emin Qoraqush sud jarayoni va noqonuniy harakatlarni kuzatib bordi. U keyinchalik o'z kechinmalarida: "Sud ayblanuvchilarga advokat kerak emas deb topdi, ammo bu qaror tezda ko'zga tashlanar edi" – deb yozadi. Sud Rossiyadan ayblanuvchilarni huquqiy himoya qilish uchun kelgan yuristni rad etdi. Muallif bundan tashqari yana bir necha savol va ayniqsa, halok bo'lgan odamning shaxsini aniqlashga doir savollar javobsiz qolganini ta'kidlab o'tdi. Sud hukm chiqarishga shoshilib, 1942-yilning 17-aprelida o'z

hukmini e'lon qildi. Kornilov va Pavlovlarning har biri 20 yil qamoq jazosiga, Abdurahmon Sayman va Sulaymon Sogal esa 10 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Prokuror hukmni shikoyat qildi va jarayon dekabrda davom etdi, ammo endi Sulaymon Sogal ruslarga nisbatan bergan oldini guvohliklarini rad etadi. Bu safar hukm 20 yildan 16 yilgacha kamaytiriladi.

R.S.Korxmazyanning adolatli so'zlariga ko'ra "Germaniyaning Sovet davlatiga hujumini xursandchilik bilan kutib olib, Germaniyaning SSSR ustidan g'alabasiga o'z xohishini bildirgan", Turkiya hukmron doiralarning katta qismi Angliya yoki Germaniyaning butunlay g'alabasiga qiziqmas edi. Germaniyani Sovet Ittifoqiga qarshi urushda qo'llab-quvvatlovchi Turkiya hukmron doiralari, Germaniyani g'alaba qozonadi, ammo kuchsizlanib qolib, ingliz-german mojarosini tinch yo'l bilan hal qiladi deb o'ylashar edi.

1942-yilning yozi va kuzi nemislarning shimoliy Kavkazda muvafaqqiyatlari bilan belgilanadi. Ularning ko'shinlari Gruziya va Ozarbijonga yurishda davom etib, Turkiya chegaralariga yaqinlashishda davom etdi. Buni Sovet Ittifoqi va Turkiya hukumati e'tibor bilan kuzatib turar edi. Sovet ko'mondonligi nemislarga qarshi frontni mustahkamlash bilan birga, turk ko'shinlari bostirib kirishiga qarshi choralar qo'rishga majbur bo'ldi. Avgust oyida Oliy Shtabda ko'mondonlik qiluvchi general S.M.Shtemenko Kremlda Kavkazdagi holat yusazidan hisobot berdi. U o'z kundaligida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Nemis ko'shinlari Kaspiy qirg'og'i bo'ylab janubga Kavkaz tog'lariga qarab yurishlari ayon bo'lganida, bizning oldimizda ularni turk tarafdorlari ko'llab-quvvatlovi to'g'risidagi jiddiy savol vujudga keladi. Agarda Eron va vaziyat ko'ngildagidek bo'lsa ham, Turkiyada bu holat juda ham achinarli edi. 1942-yilda hech kim Turkiyani Germaniya tomonida turib jangga kirmasligiga kafillik bera olmas edi. Axir Sovet Ittifoqi chegarasida 26 turk diviziyasi joylashtirilgani bekordan bekorga emas edi. Turk hujumi Eron orqali Bokuga yo'l oladigan vaziyatga har ehtimolga qarshi Eron-Turkiya chegarasida kerakli choralar ko'rilmoqda edi". Kavkaz orti frontidagi kuchlarni sanab o'tib, muallif mazkur kuchlarning ancha ozligini ta'kidlar edi. Bosh shtabning taklifi bilan O'rta Osiyo va boshqa joylardan shoshilinch kuchlarni ko'chirib o'tish choralari ko'rildi.

Vaziyat chindan ham xatarli tus olgan edi. Ayniqsa, bu yerda joylashgan qurolli kuchlar va mahalliy boshqaruv organlariga qarshi

olib borilayotgan maxfiy operatsiyalar bilan belgilanar edi. Bu haqda Valter Shellenberg shunday eslaydi: “1942-1943-yillarda bizning turklar bilan olib borgan samarali harakatlarimiz natijasida, Turkiyadan Rossiyaning janubiy hududlari va Ural ortiga kelib chiqishi kavkazlik va turkiy bo‘lgan agentlarni olib o‘tishga muvaffaq bo‘ldik. Ular o‘z navbatida bizga zarur ma‘lumotlarni yetkazib turar edi. Turkiyaning Igdir shahrida nemislar qo‘y go‘shiti bilan savdo qiluvchi korxonalar bilan niqoblangan “Kavkaz” tashkilotini tuzadilar. Tashkilot katta moliyaviy, kurol-yarog‘ va kadrlar zahirasiga ega edi. Tashkilot a‘zolari Baku, Tbilisi, Kirovabad, Naxichevan va Kavkazning boshqa shaharlariga ham kirib borishdi”.

German harbiy boshqaruvi 1942-yilning Shimoliy Kavkazga yozgi hujumini tayyorlash vaqtida, o‘zining turk maxsus xizmatlarini Turkiya chegarasida qo‘poruvchi terroristik harakatlar va SSSR hududida isyonchiliklarni amalga oshirish maqsadida “Qora partizan guruhlarini” tuzishga qaratgan edi. Bunday guruhlar 1941-yilning may va avgust oylariga kelib paydo bo‘la boshladi. Nemis va turk maxsus xizmati boshliqlari bu guruhlarning harakatlarini nemis ko‘shinlarining Kavkazga hujumi bilan birga harakatlanuvini muvofiqlashtirmoqchi edi. Benito Mussolini va Gitlarning 29-30-aprelda Zalsburgdagi uchrashuvida Gitler Turkiyani sekin-asta “chiziq”qa kirib kelishini ta’kidlagan edi.

1942-yilning 22-aprelida SSSR L.Beriya imzosi bilan Davlat mudofaa ko‘mitasiga: “Turkiya ko‘mondonligi ko‘shinni Anatoliyaning barcha hududlaridan sharqiy chegaraga olib o‘tishga kirishdi. Bitlis hududidagi harbiy qismlar tez suratlar bilan Kars hududiga ko‘chirildi. Turkiya armiyasi Oliy bosh ko‘mondonligi germanparast kayfiyatda va urushga Germaniya tomonida turib kirishga moyil edi. Bu ma‘lumotlar bizga Turkiya oliy harbiy doiralaridan berilgan axborotlar asosida tuzildi” deb ma‘lumot beriladi.

General Shtemenkoning so‘zlariga qaraganda, 1942-yilning 24-avgustida Kavkaz ortida harbiy holat e‘lon qilindi. “Shimoldan barcha qo‘shin Terekda Kavkaz tizmalari oldida Tuapse va Novorossiysk yo‘nalishlarida, tartibli mudofaa uchun bir joyga jamlandi. Asosiy Boku yo‘nalishida 28-avgustda 58-armiya tuzildi. Kizlyar hududida otliq jamlanma korpus yig‘ildi. Operativ muhim bo‘lgan markazlarda mudofaa hududlarini tashkil etish kelishildi. Bunday hududarning soni uchta bo‘lib bular: Baku, Grozniy va Vladikavkaz edi”.

Terekda ayovsiz janglar borar edi. U yerda dushmanning 1-tankchi armiyasi va bir qancha armiya korpuslari hujumga o'tishgandi. Zarba birinchi navbatda baravariga Kaspiy qirg'oqlariga va Gruziya yo'liga yorib chiqishni hisobga olgan holda berilar edi. Ammo, u yerda ham bu yerda ham nemis ko'shinlari muvaffaqiyatga erisha olishmadi. Kurash Orjonikidze va Grozniy bo'sag'asida ular uchun katta yo'qotishlar va mag'lubiyat bilan yakun topdi. Dushman Baku va Grozniy neftlarigacha yeta olmadi. Shu bilan bir vaqtda o'zicha Yaqin Sharqqa ochilmoqchi bo'lgan yo'l rejalari ham barbod bo'ldi. 1943-yilning yanvarida Kavkaz Gitler qo'shinlaridan ozod etildi.

1942-1943-yillar Kavkaz uchun bo'lgan ochiq va pinhona kurashning asl manzarasini to'la tushunish uchun, Turkiya va uning tashqarisidagi eski tog'lik va kavkaz orti ko'chishlarining huddi shu vaqtda qayta harakatga kelganini esga olish joiz. 1942-yilning yozida, Vermaxtning Shimoliy Kavkazga yurishi davomida nemis qo'shinlari tomonidan Gruziya va Ozarbayjon respublikalarini bosib olinishi munosabati bilan Anqaraga Gitler tomonidan tayinlangan, ana shu ikki respublika millatiga mansub gauleyterlar yuboriladi.

G.Troshev o'sha paytda Shimoliy Kavkazdagi xatarli vaziyat haqida o'z kitobida shunday yozgan edi: "Ulug' Vatan Urushi boshlanishi bilan markaziy hokimiyatning kuchsizlanish belgilari paydo bo'lishi bilanoq, qarshilik olovi yanada alangalandi... Tez orada Sharipov va Isroilov guruhleri birlashishdi. Isyonchilar xalqqa kavkazliklar nemislarni mehmon kutganday kutayotganligi va agar ular tomonidan mustaqillikni tan olgan holdagina iltifot ko'rasatishlari haqida chaqiriq e'lon qildilar".

Kochakning yozishicha, Marshal Chaqmoqdan 1942-yilda vositachilar orqali Anqaraga Fon Popenga taklifnoma yuborilgan. Unda: "Turk qo'shinlarida Kavkaz va Ozarbajon mintaqasini yaxshi biladigan va bu yerlik bo'lgan ofiserlar ko'p. German hujumi muvaffaqiyatga erishgan taqdirda ularni u yerga yuborilishi ta'minlanadi". Chaqmoq rejasiga ko'ra agar Turkiya SSSR bilan urush boshlaydigan bo'lsa, turk ko'shinlarini birinchi navbatda Bakuga "yosh turklar" yo'li orqali yuborishi mumkin edi.

1942-yilning iyun-iyul oylari Turkiya o'zining Kavkaz chegarasida harbiy manyovrlar o'tkazib, u yerdagi ko'shinlar sonini ko'paytirdi. 10-oktyabrda hukumat boshlig'i Sarajog'lu: "Tabiiyki Oliy darajada, Turkiya-Sovet Ittifoqining turkiylarga mansub 40 million axolisiga

nisbatan befarq tura olmaydi” deb e’lon qiladi. Mintaqaning Turkiya bilan birlashtirish panturonchilarning rejalarini bu sharoitda amalga oshirish deyarli ilojsiz ekanini tushungan holda Sarajog‘lu bu mintaqalarga “kuchli turk madaniy ta’sirini” topish yo‘llari haqida aytar, “Oldin bu mintaqalardan minglab o‘quvchilarni Turkiyaga o‘qishga olib kelish darkor, o‘qish vaqtida ta’lim bilan birga shu paytgacha ularda uyquda yotgan turkiy milliy ruhni o‘yg‘otish kerak” der edi. Popenning bir xabarida shunday deyiladi: “Sarajog‘lu Sovet Ittifoqining mag‘lubiyatini chin dildan xoxlamoqda, turk xalqi yuz yillab buni kutgan. Agarda Gitler buni uddalay olsa, yangi davrni ochib beradi. Hech bir turk hatto inglizlar tarafdori Xusayn Johit Yalchin ham bu masala ustida boshqacha fikrga ega emas edi. Ruslarning yarmini yo‘q qilibgina, Germaniya bu masalani mutloq yechishi va mintaqadagi ruslashgan milliy ozchiliklarni ruslarning ta’siridan qutqarishi mumkin. Sarajog‘lu Gitler mazkur mintaqalarning kelajagini qay tarzda belgilamoqchiligini bilmasligini aytib o‘tdi. Ammo mintaqqa aholisining katta qismini turkiy irqqa mansub kishilar tashkil etishi munosabati bilan Turkiya muammoning yechimi qanday bo‘lishiga o‘z qiziqishini his qilishi tabiiy va haqqoniy bo‘ladi”. Kochak kitobining bir ilovasida 1941-1943-yillarda o‘zining doimiy mualliflari bilan panturkiy mustaqil matbuoti (“Bo‘zqurt”, “Turk yurdu”, “Jumhuriyat” va b.) qattiq e’tirozlar bildirgan edi.

Millatchilik va jahon urushi

Ikkinchi jahon urushi yillarida panturkistlik mafkurasi ta’sirining kuchayishi nafaqat turk elitesining ko‘p millatli SSSRga nisbatan tashqi siyosiy rejalarida o‘z aksini topdi, balki hukumatning ichki ishlarida irqchilikning yangilangan tamoyili va o‘zining turk ko‘rinishiga Nihal Otsiz (1905-1975 y.) tomonidan keltirilgan va ko‘p hollarda panturonchilik deb ataluvchi yosh turklarning g‘oyalariga murojaat qilgan holda namoyon bo‘ldi. Uning asarlari boshqa panturonchilar ishlari bilan bir qatorda 1930-1940-yillarning ikkinchi yarmida tegishli ro‘znoma va kitoblarda ham keng o‘rin oldi.

Bir qancha g‘arb mualliflari, masalan, Poulton Turkiya prezidenti Inonu davrida davlatda mafkura sohasida vaziyat yomonlashganiga ishora qiladi. Ular hech shak-shubhasiz Inonuni (unga ma’naviy yaqin bo‘lgan marshal Fevzi Chaqmoqni ham) “xorijliklardan nafratlanuvchi o‘taketgan millatchi” deb atashadi. Kamolchilarning barcha jamoat

joylarida ko‘zga tashlanib turuvchi “Turk bo‘lish qanday baxt” degan mashhur so‘zi shahar maktablari va butun mamlakat bo‘ylab armiya yotoqxonalarida peshlavhalarida yozib qo‘yilgan edi. Bunday sharoitlarda kurd millatchiligiga hech qanday joy qolmagan edi. Ular Kamolchilar davlatida “tog‘li turklar” bo‘lmog‘i shart edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida panislomchilik hali pinhona panturonchilik va panturkchilik ega bo‘lgan ta’sir kuchiga ega bo‘lmagan, qo‘llab-quvvatlovga ham umid qila olmas edi. Buni XX asrning oxirgi o‘n yillikdagi nufuzli diniy yo‘lboshchi bo‘lgan N.Erboqonning yoshlik yillari bo‘yicha baholash mumkin. Uning hayoti haqida hikoya qilgan muallif shunday yozadi: “Erboqon Texnika universitetida 3-bosqichda o‘qib yurgan paytida (1944y) “Reha Og‘uz, Nihol Otsiz, Fathi Tevelo‘g‘li kabi faollar boshchiligida unversitetlarda irqchi-turonchilar harakati boshlandi”. 1945-yilning 4-dekabrida mamlakatdagi tartibsizliklarda ishtirok etgan aka-uka Turgut va Qo‘rqut O‘zal kabi yosh Najmiddin Erboqon va u bilan birga o‘quvchi Sulaymon Demirel ham irqchi-turonchi yozuvchilar ta’sirini his qilishdi. Bunda Najmiddin Erboqon ham ishtirok etgan degan ehtimol bor. Buning sababi, u siyosiy tortishuvlarning faol qatnashchisi edi. Aka-uka Ozallar shunchalik faol edilarki, hatto yoqalarida ham millatchilarning bo‘ri suratli nishonini taqib yurishar edi. Ammo, Najmiddin Erboqon va Sulaymon Demirel irqchi-turonchilarni xush ko‘rish tuyg‘usidan nariga o‘tmas edilar.

Bu g‘oya iqtisodda hukumatlar ishtirokida o‘zini “samarali” ko‘rsata oldi. Davlat iqtisodiy hayotida hukmron mavqeni egallashga yo‘naltirilgan harakatlarida turk milliy burjuaziyasi nafaqat V.Kochga xos bo‘lgan usul – nufuzli sohalardan musulmon bo‘lmagan raqiblarni asta-sekin siqib chiqarishdan foydalanganlar. Ikkinchi Jahon urushi yillari savdo mulkdorlarini yunon, arman, yahudiylarning sinishiga sabab bo‘lgan mulk solig‘i (“Sarmoya solig‘i”) deb nomlangan soliq turi joriy etildi. Soliq yig‘imi qarzdorlarning mol-mulk musodarasi va arzon narxga sotuvi yo‘li bilan, undan so‘ng esa to‘lashga muvaffaq bo‘lmaganlarni sud ta‘qibi orqali amalga oshirilar edi. Sud yo‘li bilan 2 mingdan ortiq odam hibsga olinib, ularning orasida birorta ham musulmon yo‘q edi. Hibsga olinganlarning ko‘pchiligi (1400 kishi) majburiy ishlarga, to‘g‘rirog‘i tog‘-kon ishlariga jo‘natilar edi.

Vehbi Kochning yozishicha, bu soliq turklarga nisbatan ham qo‘llanilib, har bir viloyatda soliq shartlarini belgilovchi komissiyalar

tuzilgan. Shu tarzda V.Koch barcha imtiyozlarni hisobga olganda o'sha davr uchun katta pul 600 ming lira to'ldi. U bu mablag'ni hukumat urush davrida davlatga olib kirgan yuk mashinalaridan kelgan pul evaziga to'lashga muvaffaq bo'ldi.

Mol-mulk solig'ini xukumat ijtimoiy adolat uchun kurash deb baxolagan. 1943-yilda mol-mulk solig'i haqidagi partiya dasturining o'zgarishlariga tayyorlanish munosabati bilan o'tkazilgan JXPning 6-syezdida taqdim etilgan hukumat takliflarida (vazirliklar bo'yicha), shunday deyilgan: «Bu yaqinda qabul qilingan soliq bir tarafdin uch yillik iqtisodiy beqarorlashuv tufayli kelib chiqqan vaziyatda ba'zi ishchi va badavlat qatlamlarning boyishidan paydo bo'lgan ijtimoiy adolatsizlikka barham berish maqsadidan iborat bo'lsa; boshqa tarafdin, u urushning to'rtinchi yilida davlat chiqimlarini qoplashda o'sha qatlamlarning salmoqli o'rin tutishini ta'minlashni ko'zda tutadi».

Hozirgi Turkiyada bu soliq tizimini oqlab chiqadigan insonni topish qiyin. Etyen Maxchupyan 2001-yilda bu haqda shunday yozgan: "Harbiy davr ma'murlarni byudjetni to'ldirish uchun qo'shimcha manbalar qidirishga, xususan, soliqlarni ko'tarish va yangilarini joriy qilishga majbur qildi. Favluqodda soliqlar boshqa davlatlarga ham joriy etilgan edi". Biroq, aytilgandan tashqari qurilgan hamma narsa ularni mol-mulkdan ayirishni bildiradigan nomusulmon siyosatiga qarshi qaratilgan bo'ldi. Ma'murlarning ishoralariga binoan musulmonlar xavotir olishlari kerak emas, chunki uning maqsadi – jamiyatning nomusulmon qismidir. Qog'ozda chiqarilgan qonun tenglashtirilgandek ko'rinsa ham, lekin hayotda uning asosiy mohiyati soliq to'lovchilarni uch ro'yxat bo'yicha – musulmonlar va nomusulmonlarga ajratish edi. Shunday bo'lsa-da, nomusulmonlarga boshqa ikki toifa bilan qiyoslanmaydigan soliq miqdori joriy etilgan edi. Qonunni ijro etish bo'yicha komissiyalar tarkibida bitta ham nomusulmon bo'lmagan. Bu kommissiyalardan barcha to'lovchilar bo'yicha 15 kun mobaynida soliq miqdorini belgilash talab qilinar edi. Biroq, amaliyotda komissiya butun 24 soat bu bilan shug'ullansa ham, 15 kun mobaynida soliq to'lovchilarning uchdan bir qisminigina aniqlash mumkin edi. Soliqlar miqdori ixtiyoriy belgilanganligi shubhasiz. Barcha teng sharoitlarda hissador-nomusulmonlarning soliq miqdori musulmonlar solig'iga qaraganda o'rtacha o'n marta balandroq bo'lar edi. To'lovchilar ro'yxatiga kiritilganlar orasida taxminan 26 ming

odam hech qanday mol-mulkka ega emas edi. Birorta ham musulmon bunday sharoitlarda ro'yxatlarda bo'lmagan.

Pullarni to'lash muddati 15 kun etib belgilanganligi bois musulmon bo'lmagan fuqarolar o'zlarining mulklarini kim oshdi savdo bahosidan ancha kamroq narxda sotishga majbur bo'lishdi. Soliq miqdori ustida tortishish mumkin bo'lmasa ham, tadbikor – musulmonlar yashirin usullar bilan shunday qilishardi va uning tushishiga erishishardi. Soliqni to'lamagan nomusulmonlar qabul qilingan qarorga binoan jismoniy mehnatga hukm qilinardi. Ular keyin uch guruhga bo'linardi va uchta lagerga jo'natilardi. “Stanlingradda nemislarni tormor qilish, – yozadi maqola muallifi, – bu holatlarga chek qo'ygan, to'lamaganlar kechirilgan, jo'natilganlar esa uylariga qaytgan”.

Urush yillarida betaraflik sharoitida eksportdan katta foyda olindi, iqtisodda choralar kengaydi. Mamlakatning qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom ashyo dunyo krizisi davriga strategik ahamiyat kasb etadi. Bu davrda tamaki, paxta, don, qoramol, quruq meva bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar urush tufayli boshqalardan ko'ra ko'proq va tezroq boyidi. Keyingi yillar ular xususiy tadbirkorlikning peshqadami bo'lishdi.

Lekin eskport qiluvchilar orasida tez sur'atda strategik xom ashyo bo'lgan paxta yetkazib beruvchilar boyigan. Ular paxtani foyda bilan yetkazib berisha, mamlakat ichida sotishda qiyinchiliklari bo'lmagan fabrikalarga, asosan harbiy kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilarga, Sumnerbank orqali sotardi. Bu yillarda Adanada, Izmirda hozirda mamlakatda paxta ip va ip-gazlama mahsulotlarining katta qismini nazorat qiladigan hozirgi paxta qirollari million-million mablag' topishgan. Importni tashkillashtirish, eng avval investitsion mahsulotlar (mashina va uskunalar), qurilish mollari (sement va prokat (metal)), mamlakatning geografik holati, o'zaro urishayotgan mamlakatlarning uning atrofida ekanligini hisobidan katta xarajat va kuch talab qilinganligi boshqa masala. Lekin bu doirada ham yetarli dastlabki kapitalning egalik qiluvchilari, Kochning o'zi, maksimal foyda me'yorlari bo'yicha boyishning uddasidan chiqishgan. Axir sanoat mahsulotlarining, tayyor mahsulotlar va xomashyoning yirik iste'molchilari, shuningdek, qurilish buyurtmachilari DIB qaramog'idagi davlat sektori bo'ldi. Uning boshi vositachi-xususiy savdogarlar bilan hamkorlik qilib katta hajmda dastlabki kapitalni jamg'argan. Turkiya uchun davlat kapitali metamorfoziga eng xarakterli misol shaxsan Kozim Toshkent

bo'lishi mumkin. U urush yillarida "Turkiyaning shakar zavodlarini boshqarish" bosh direktori, keyinchalik, urushdan so'ng mamlakatning birinchi umummilliy xususiy bankining va uning sho'ba kompaniyalarining turli iqtisodiy tarmoqlari ta'sis etuvchisi bo'lgan.

Eslatilib o'tilgan mol-mulk solig'i ma'murlarning iqtisodiyotga va umuman jamiyat hayotiga aralashuvi masalalarida oxirgi istisno emas edi. Turkiya urushda qatnashmagan bo'lsa ham, uning butun ichki siyosati favqulodda xarakterga ega edi. 1938-1939-moliya yilida oshkora harbiy pul ajratmasi byudjet chiqim bo'limining 30 %ini tashkil etdi, 1944-1945-yillarda pul ajratmasining yarim baravar ko'proq, ya'ni 5 martadan ko'proq kattalashdi. Armiyaga chaqirish ko'paydi, 1950-yillarning oxirigacha shahar aholisining oshishi (yollanma ishchi kuchini tashkil etish ko'satgichidek) kam darajada bo'lgan. Bu "favquloddalik" 1940-yilda milliy himoya haqida, mamlakatning ichki hayotidagi ko'plab sohalari, jumladan iqtisodiyotni tartibga soluvchi qonun qabul qilinib, tizim huquqiy jihatdan qonunlashtirilgan. Shuningdek, qonunning 19-moddasi ishchi kunini 3 soatga ko'paytirishga, sanoatda bolalar mehnatidan, konlarda – o'smirlar mehnatidan foydalanishga ruxsat berdi. Bu moddaga sharhda "Vatan himoyasiga chaqirilganlar ko'proq ishlashlari lozim, hatto dam olish kunlarida ham" deb belgilab qo'yildi. 1941-yil dekabrda qabul qilingan hukumat qarorida 19-moddaga havola bilan ayollar va o'smirlarni og'ir mehnatlarda ishlatishni cheklashni rad qiladigan ayollar va o'smirlar mehnatining yangi sharoitlari belgilandi.

Urushdan keyin 1947-yilda tosh maydalashda, sement sanoatida odatdagi haq to'lanadigan ish kunini 3 soatga ko'paytirishga ruxsat etildi. Bunday o'xshash qarorlar keyinroq, 1950-yillarning boshida, Turkiyani yevropalashtirish harbiy-siyosiy hamkorlikka aylangan paytda ko'ppartiyaviy "liberal" tartibi ostida qabul qilindi. Masalan, Istanbuldagi Elmali gidrouzeli qurilishida mehnat to'g'risidagi qonunni buzgan holda 1952-yilda qurilish tugagunga qadar ish kuni ko'paytirildi. Bu kabi qarorlar 1953-yilda Izmir portida qurilish ishlari paytida, Adana, Batman, Merzifonda aerodromi qurilish paytida qabul qilindi.

Sanoat mahsulotlarini sotishga ham vaqt qat'iyani belgilab berildi. Masalan, qonunlardan birining moddalaridan birida: "Hukumat sanoat va tog'-kon korxonalarini mahsulotlarini aniq bir tannarx foizi bilan sotib olishi mumkin. Hukumat bu mahsulotlarni sotishi, taqsimlashi, jamg'arishi va transport vositasida tashishi mumkin". Davlat sotilgan

mahsulotni aniq bahoda qayta sotish to‘g‘ri deb tan oldi. Boshqa bir qancha moddalar ma‘murlarga mahsulotning tannarxini dekretlash-tirish, foyda hajmini kommission, transport uchun qo‘shimcha narx huquqini berdi. Yuvmagan jun gazlama, paxta va ip-matolar, sement, oyna, mixlar, temir, mislarning narxlari nazorat qilindi. Biroq qonun inflyatsiya va xususiy kapitalning ba‘zi guruhlarining spekulyativ (chayqovchilikka asoslangan) boyishining oldini ololmadi.

Harbiy iqtisodiyot yillarida (1944) Qishloq xo‘jaligini ta‘minlash jamiyati (“Zirai donatim kurumu”) tashkil etildi. Topshiriqlar keng qo‘yilgan edi: qishloq xo‘jaligi texnik ehtiyojlarini qondirish, uni qishloq xo‘jaligi mashinalari va uskunalari, o‘g‘itlar, agrosohani himoyalovchi vositalar bilan ham ichki imkoniyatlar, ham import hisobiga ta‘minlash. DIBning keyingi faoliyati haqiqatdan ham bu ishlab chiqarish sohasining modernizatsiyasini tezlashtirdi. Turli iste‘molchilarni neft mahsulotlari bilan ta‘minlash tashkiloti uchun, avvalambor armiya, boshqa yirik davlat birlashmasi neft Ofisi (“Petrol ofisi”) tashkil etildi.

Davlat sanoat qurilishi davom etdi, infrastrukturali obyektlar soni ko‘paydi, shifoxonalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, texnikumlar soni o‘ydi. Urush davrida qishloq institutlari deb nomlangan tarmoqlar tashkil etildi. Qishloq institutlari haqidagi qonun 1940-yil 17-aprelda qabul qilindi. 1-modda uning maqsadini belgilab berdi: “Qishloq xo‘jalik yerlari mavjud joylarda qishloq o‘qituvchilari va boshqa mutaxassislar tayyorlash maqsadida xalq ta‘limi vazirligi qishloq institutlarini ochadi”. 3-modda shunday deyilgan: Institutlarga tanlov yo‘li bilan, to‘liq boshlang‘ich ta‘limni olgan, sog‘lom va qobiliyatli qishloq bolalari qabul qilinadi. Institutlarda to‘liq o‘qish muddati – kamida besh yil”.

Qonunning birinchi besh yillik ijrosi bilan, asosan, 1940-1943-yillarda Qaysari, Malatya, Kars, Kastamonu va boshqa turli viloyatlarning qishloqlarida 18 ta shunday bilim yurtlari ochildi. Bu davrda ularda 12198 ta o‘quvchi o‘qidi va 401 ta o‘qituvchi ishladi. O‘quvchilardan 150 tasi Pular (Erzurum) qishlog‘ida, yana bir qismi (1310 tasi) Chifteler (Eskishehir) qishlog‘ida edi. Qishloq bilim yurtlarining tashkil etilishini mamlakatning demokratik kuchlari ma‘qulladi. Jurnalist, “Vatan” gazetasining noshiri Axmet Emin Yalman (1888-1972-yillar) 1944-yilda bu voqealar haqida “Ertangi Turkiyaga sayohat” deb nomlangan kitob yozdi. Bu xayrli va umid

beradigan ish deb hisoblab, turk qishloqlaridagi bunday bilim yurtlari “Bo‘lg‘usi Turkiyaning timsoli” bo‘la olishi mumkinligini tasdiqladi. Biroq bu urinish kamolchilar ma‘rifatparvarligi ruhida rivojlanmadi, u tez orada maktablarni isloh qilish yo‘lidan bordi”.

Harbiy vaziyat ma‘murlarga urushdan oldin yer islohotini o‘tkazishga yo‘l qo‘ymadi. Biroq davlat yerlarining dehqonlar qo‘liga asta-sekin o‘tish jarayoni 1923-yildan 1945-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida butunlay to‘xtamadi. Ko‘rsatilgan muddatda ma‘murlar ishlov berishga yaroqli 1,1–1,2 mln. gektarga yaqin yerni yoki boshqacha aytganda o‘sha paytdagi ishlov berilgan qishloq xo‘jaligi maydonlarining 10% ini pul evaziga yoki bepul dehqonlar mulkiga berishdi. Umumiy 270 ming oila yer egasi bo‘ldi.

Jahon urushning so‘nggi bosqichi

Ikkinchi jahon urushining bu davrida Turkiya o‘zining bosh ichki siyosiyatiga qaytib, antigitler ittifoqining asta-sekin muvaffaqiyatlarini oshirish jarayonida ulkan o‘zgarishlarga duch kelganini aytib o‘tish lozim. Shak-shubhasiz turk ma‘murlariga ham jiddiy e‘tibor qaratilgan, sovet-german frontida 1942-1943-yillarda asosiy harbiy voqea Stalingrad va Shimoliy Kavkaz hujumkorlik operatsiyasi, Leningrad qurshovini yorib o‘tish bo‘ldi. Qizil Armiya g‘arb tomon 600-700 km siljidi. Keyin 1943-yilgi yozgi-kuzgi kampaniyada hal qiluvchi voqea Kursk jangi bo‘ldi. 1943-yil mayda ingliz-amerika qo‘shinlari tomonidan Shimoliy Afrika ozod etildi.

Angliya o‘zining strategik vazifalarini amalga oshirishga erishishni nazarda tutib: Turkiya bilan hamkorlikda Sharqiy O‘rta yer dengizida va Bolqonlarda o‘zining ta‘siri, obro‘-e‘tiborini tiklab olish va bunday sharoitda Osiyo davlatini ittifoqdoshlari bilan birga butunlay tor-mor qilishni ko‘zlab Turkiyani ittifoqdosh blokka tortish harakatini davom ettirdi. 1943-yil 30-31-yanvarda O‘rta yer dengizi atrofida Yenidje stansiyasi yonida salon-vagonda U.Churchill va prezident I.Inonu o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Turk diplomati Erkinning eslashicha, “unda prezident, bosh vazir Sarajo‘glu, Tashqi ishlar vazirligi N.Menemenjo‘glu, ichki ishlar vaziri Hilmi Uran, bosh shtabning boshlig‘i marshal Fevzi Chakmak, Harbiy havo kuchlari qo‘mondoni Shefik Chakmak va men ishtirok etdik. Ikkinchi tarafdin Churchill, Tashqi ishlar vazirligi rahbari Aleksandr Kadogan, bosh shtabning boshlig‘i Alan Bruk va front qo‘mondoni qatnashdi”.

Angliya va AQShning eng muhim qarori Turkiyani, Cherchill aytganidek, “hududi, manfaatlari va huquqi samarali himoyalangan” bo‘lishi uchun qurol-yarog‘ning zamonaviy turlari bilan ta‘minlash haqida edi.

Cherchill Stalinga uchrashuv tafsilotlarini yetkazdi, unga Turkiyani “zamonaviy qurol” bilan ta‘minlash bilan bog‘liq “uzoq va g‘oyat do‘stona suhbatlar” haqida xabar berdi. “Biz Anqarada harbiy materiallarini olib kelish uchun aloqani yaxshilash uchun qo‘shma ingliz-turk harbiy kommissiyani tashkil etamiz. Agar ular Germaniya yoki Bolgariya tomonidan hujumga uchrasa, biz birgalikda ularga yordam ko‘rsatish rejasini tuzamiz” dedi. Cherchill sovet-turk aloqalari haqida gapirdi: “Ular, albatta, Sovet Ittifoqining katta kuchi tufayli urushdan keyin tushadigan holat haqida tashvishlanishgan. Men ularga mening tajribamga ko‘ra SSSR hech qachon na majburiyatlarni, na shartnomalarni buzmagani, ular uchun hozir foydali bitim tuzish vaqti kelganligini va Turkiya uchun eng ishonchli joy – bu jang qiluvchi taraf sifatida g‘oliblar yonida ekanligini aytdim. Tinchlik konferensiyasi stoli atrofida... Ular SSSR tomonidan ko‘rsatilgan har qanday do‘stona harakatga javob bergan bo‘lishlariga ishonchim komil”.

Yuqorida Turkiya hokimiyatining eng yaxshi namoyandalarining SSSRning tor-mor qilinishi va nemislarning g‘alabasi, umuman, fashizmning Yevropada g‘alabasini kutgan kunlaridagi fikrlari keltirib o‘tildi. Buning Stalinga ham yaxshi ma‘lumligi uning Cherchillga 1943-yil 6-fevralda yozgan javobidan ham tushunarli: “Sizning turklar Sovet Ittifoqi tomonidan ko‘rsatilgan har qanday do‘stona munosabatga javob bergan bo‘lishardi degan bayonotingiz munosabati bilan bizning tarafdan Turkiyaga sovet-german urushining boshlanguniga qadar, shuningdek, bu urush boshlanganidan keyin ham bir necha oy davomida Britaniya Hukumatiga ma‘lum bo‘lgan do‘stona xarakterdagi qator bayonot berilganligini aytib o‘tishim joiz. Turklar, chamasi, nemislarning g‘azablantirishdan xavfsirab javob qaytarishmadi. Siz taklif qilgan do‘stona harakat turklar tomonidan xuddi shunday qabul qilinishini taxmin qilish mumkin”.

Keyinroq ikki davlat rahbarlarining yozishmalaridan sovet va turk diplomatlari o‘rtasida o‘zaro kelishuvlar boshlanishi haqida bitim qabul qilinganligi ma‘lum bo‘ldi. Biroq bu yozishmalarda keltirilishicha, ancha keyinroq 1944-yil iyulda Stalin Cherchillga yozgan xatida shuni ta‘kidlagan edi: “Siz, albatta, bizning uch davlatimiz

Hukumati Turkiyaga ittifoqdoshlar tarafida turib Gitler Germaniyasiga qarshi urushga kirishini 1943-yil noyabr va dekabr oylarida sabot bilan taklif qilganligini eslaysiz. Bundan hech nima chiqmadi. Sizga ma'lumki, Turk Hukumati tashabbusi bilan shu yilning may-iyun oylarida biz yana Turk Hukumati bilan o'zaro kelishuvga kirishdik va ikkinchi bor ularga o'tgan yildagi uchlik ittifoq taklif qilgan taklifni aytdik. Bundan ham hech nima chiqmadi. Turkiya tomonidan u yoki bu choraga kelsak, hozirgi vaqtda bunda men ittifoqdoshlar uchun foyda ko'rmayapman. Turk Hukumati Germaniya bilan munosabatdagi mujmal va noaniq pozitsiyalar bilan bandligi sababli Turkiyani o'z holiga va o'z erkiga qo'yib, uni yana qistovlarga olmagan ma'qul. Turkiyaning Germaniya bilan urush qilishdan bosh tortish da'volari ham urushdan keyingi ishlardagi alohida huquqlari bekor qilinadi".

Inglizlarga kelinsa, Turkiyani ittifoqdoshlarga qo'shish va birgalikda harakat qilish ingliz rejalariga muvofiq muvafaqqiyatli yakunlanadigandek tuyuldi. Turkiya bilan hamkorlikda zo'r berib tayyorlanish boshlandi. Tez orada armiyani yangi qurollar bilan ta'minlanishini kuzatish va turk armiyasiga yangicha qurollanishni joriy qilishda yordam ko'rsatish uchun Turkiyaga ingliz harbiy missiyasi yetib keldi. Ingliz-turk aloqalarining keyingi rivojlanishi, 1943-yil dekabrda Qohirada Turkiyaning Gitler Germaniyasiga qarshi urushga tez orada kirishishi haqidagi mish-mishlar tarqaldi. Cherchill, Ruzvelt va I.Inonu uchrashuvidan keyin Turkiya Angliya va AQShdan qurol qabul qilib, Germaniya bilan ko'ptomonlama hamkorlik o'rnatdi.

Tehron konferensiyasida (1943-yil 28-noyabr – 1-dekabr) Germaniyaga qarshi urushda birgalikda harakat qilish, Yevropada ikkinchi frontni ochish, Polshaning urushdan keyingi chegarasi va boshqa masalalar ko'rib chiqildi. Cherchill ushbu konferensiyada o'zining Turkiya bilan hamkorlik loyihasini kuchaytirishni astoydil davom ettirdi. Tarixchi A.I.Ganusesning qayd etishicha, Cherchill birinchi yalpi majlisdayoq Turkiya haqida, uni urushga kirishga ko'ndirish haqida gapirib, "Bu Dardanell va Bosfor orqali aloqani ochish imkoniyatini bergan bo'lardi va biz ta'minotni Qora dengiz orqali yubora olardik. Bundan tashqari biz turk aerodromlaridan dushmanga qarshi kurashda foydala olardik" degan edi.

Angliya jo'natgan to'rtta kuzatuvchi soqchilar otryadi Sovet Ittifoqining shimoliy portlariga talafotsiz keldi.

Cherchill Fransiya shimolidagi ikkinchi front masalasini Buyuk Britaniyaga foydaliroq, lekin bolqon varianti – Turkiya masalasida kamroq foydali qilib o‘zgartirishga harakat qildi.

Sovet delegatsiyasi rahbari I.V.Stalin majlisda shunday degan edi: “Turkiyaga kelsak, uning urushga kirishiga ishonmayapman. Biz unga qanday bosim o‘tkazmaylik, u urushga kirmaydi”. Keyinroq Cherchillning Turkiya xususida bir necha bor eslatishlarga I.V.Stalin javob tariqasida shunday degan edi: “Turkiya Buyuk Britaniyaning ittifoqdoshi, SSSR va AQSh bilan do‘stona munosabatdadir. Turkiya biz va Germaniya o‘rtasida o‘ynamasligi kerak”.

Sovet Ittifoqi Gitler Germaniyasi va uning tarafdorlariga qarshi urushda asosiy va ancha og‘ir vazifa olib borish bilan birga, Turkiyaning bir necha bor buzgan betarafligini rasmiy e‘lon qilinishini qat‘iy himoya qilishdan manfaatdor edi.

1944-yil mart oyida ingliz va turk matbuoti munozaralaridan turk hukumati harbiy harakatlarda ishtirok etishdan o‘zini olib qochyapti va shuning uchun Angliya qurollantirishni ta‘minlashni to‘xtatayotgani va o‘zining harbiy missiyasini Turkiyadan qaytarib chaqirib olayotgani ma‘lum bo‘ldi. Nodir Nodi «1944 – yilning birinchi haftalaridan ingliz gazetalar shiddat bilan bizning betarafligimizni tanqid qilishni boshlashdi. Hatto “Tayms” ham jim turmadi: “Biz qanday ittifoqdoshmiz? G‘arbdan cheksiz yordam olgan holda, Turkiya javobga hatto barmog‘iniyam qimmilatmayapti”. Turkiya betaraflikdan bosh tortish bilan ingliz matbuotining boshlangan kampaniyasiga astasekin Agliyaning siyosiy doiralari qo‘shildi, mart oyining boshida Turkiyaning qurol va jihozlar bilan ta‘minlash to‘xtatilishi haqida ma‘lumotlar paydo bo‘la boshladi. Shundan so‘ng 20-aprelda hukumat Germaniyaga xrom sotilishini to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Lekin bu bizning ingliz ittifoqdoshlarimiz uchun yetarli bo‘lmadi. Ular bizning Germaniyaga eksportimizni butunlay to‘xtatilishi, ular bilan barcha aloqalarning uzilishi, Turkiya hududida ittifoqdoshlar uchun baza taqdim etish, ular tarafida turib urushga kirishishni talab qilishdi» deb yozadi.

24-may kuni Cherchill Parlamentning quyi palatasida quyidagilarni ma‘lum qildi: «Bizning Turkiya fevral yoki mart oyida urushga kiradi yoki bo‘lmasa havo operatsiyalari uchun baza taqdim qiladi degan umidimiz puchga chiqdi. Biz Turkiyaga AQSh va Angliyadan keltiriladigan, 1943-yilda 20 million funt sterlingga tushgan jihozlar bilan

ta'minlashni to'xtatdik». Shu bilan birga Cherchill Turkiyani tashkil etilayotgan BMTga qabul qilinishida yordam ko'rsatilishiga ishontirdi.

«Bu yarim qo'rqitish va yarim qo'llab-quvvatlash, yarim savdolar biz o'sha paytlar qanchalik kuchli tashqi siyosat muammolari bilan qarama-qarshi kelib qolganimizni ko'rsatadi. O'sha paytda nemis qo'shinlari na Bolgariyadan, na Gretsiyadan haydab chiqarilmaganligini unutmaymiz» - deb yozadi N.Nodi.

1944-yil 15-iyunda I.Inonu tashqi ishlar vaziri Numon Menemenjo'glini iste'foga chiqardi, chunki uning "Germaniya foydasiga betaraflik" siyosati endi o'zgargan xalqaro ahvolga to'g'ri kelmas edi. 6-iyunda Normandiyadagi ittifoqdoshlar ko'chirildi, SSSR hududidan fashistlarni quvib chiqarish yakun topdi, Turkiyaning Bolqon qo'shnilari hokimiyati o'zgardi. 2-avgustda Turkiya ma'murlari Germaniya bilan barcha siyosiy va iqtisodiy aloqalarni uzdi. Shundan keyin bo'shatilgan vazir nemis harbiy kemalarining bo'g'ozlar orqali o'tishiga ko'z yumganligi ma'lum bo'ldi. «Ekspert (!) tekshiruv natijasida, - deb yozadi Nodir Nodi, -nemis savdo kemalari ko'rinishi ostida Montro konvensiyasiga zid ravishda katta miqdordagi qurollar va boshqa harbiy aslaha-anjomlar tashigan yordamchi harbiy kemalar harakatlanganligi ma'lum bo'ldi». U turk ma'murlari nemis harbiy kemalarini bo'g'ozlar orqali o'tkazib qancha vaqt Montro konvensiyasini niqob qilishganini ta'kidlaydi. Bu masala xususida sovetlar tarafining ilgarigi qarshiliklari haqida hech qanday so'z aytib o'tmagan holda, inglizlarning qarshiliklari haqida yozadi.

1944-yilda mamlakatda katta ichki o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Nodir Nodining so'zlariga qaraganda Ismat Inonuning avtoritar hokimiyati va shaxsiga sig'inilishi yanada avj oldi. Ilgarigidek JXPning bosh raisi, bosh vazir va JXPning bosh kotibi nomzodlarni tasdiqlardi. Barcha nomzodlar partiya a'zosi bo'lishlari lozim edi. Pochta markalari uning portreti bilan muhrlanardi, Inonu nomli mukofotlar ta'sis etilgan, Inonu Ensiklopediyasi nashr etilgan, Istanbul shahrida Inonu stadioni qurilgandi.

1944-yil may oyida, urushning oqibati aniq bo'lganda, ma'murlar irqchilarning ommaviy faolligini cheklashga qaror qilishadi. Gazetalarda maxfiy turon tashkiloti mavjudligi va uning a'zolari hibsga olinishi boshlanganligi haqida yozildi. I.Inonuning 1944-yil 19-maydagi bayonotida «Biz – turkiy millatlarmiz, lekin biz mamlakatimizda irqchilik dushmanimiz... Turonliklar turk millatini uning

butun qo‘shnilarining dushmaniga tezda aylantirish uchun bir ming bir afsun topadi. Bizning milliy siyosatimizga mamlakat tashqarisida sarguzasht izlash niyati begonadir, mamlakat ichkarisida ham sarguzashtli kayfiyatdan qochish kerak» degan edi.

1944-yil 7-sentabrda Istanbulning favqulodda holatlar sudida irqchilik-turonchilikda ayblanayotgan 23 kishining ishi bo‘yicha, shu jumladan, panturkistlar: Nihal Otsiz, Zaki Validiy To‘g‘on, Hamza Sa‘diy O‘zbek va boshqalarning tergov boshlandi. 1945-yil 29-mart yakuniga ko‘ra 13 ta ayblanuvchi oqlandi, 10 tasi 10 yildan qamoq jazosiga mahkum qilindi. Ikki yildan keyin jazoga mahkum etilganlarning barchasi amnistiya qilindi (ular 1945-yil oktabrda ozod etilgan edi). Ular orasida yosh ofitser Alpaslan Turkesh ham bor edi. U umrining oxirigacha (1997-yilgacha) Turkiyadagi milliy harakatning rahnamosi bo‘ldi.

1975-yil martda chiqqan kitobi “Asosiy qarashlar”da Turkesh yuqorida so‘z yuritilgan sud jarayonidagi qarorlaridan bir necha parcha keltiradi. U turkiyzabon aholining katta qismi Rossiyada yashar ekan, turklarning eng katta dushmani Rossiya ekanini ta’kidlaydi.

Turk tadqiqotchisi J.Kochakning yozishicha, 1944-yil kuz oylarida sovet qo‘shinlarining Bolqonga siljishi turk ma’murlarini xavotirga soldi. Ular sovet-turk aloqalarida urush boshlanganda paydo bo‘lgan keskinlikni yumshatish uchun ba’zi choralar ko‘rishga muhtoj edi. Bu choralar qatorida 1944-yil 8-avgustdagi Turkiya parlamenti qabul qilgan, ilgari jazoga mahkum etilgan sovet fuqarolari: Pavlov va Kornilovlarning amnistiya qilinishi haqidagi qonunni ham sanab o‘tadi. Bu vaqtga qadar Pavlov va Kornilovlar turk qamoqxonasida 2 yil-u 5 oy va 6 kunni o‘tkazishdi. Bundan tashqari, Turkiyaga ko‘chib kelgan millatchi (natsisit)lar bilan hamkorlik qilishda ayblangan fuqarolar sovet tarafiga berildi. Nihoyat, 1945-yil yanvar oyida turk hukumati sovetlarga harbiy anjomlar kemasini bo‘g‘ozlar orqali o‘tkazishga ruxsat berdi.

Ba’zi turk gazetalarida sovet-turk bitimining maqsadi muhokama qilindi. Turkiyani Germaniyaga qarshi urushga kirishiga ko‘ndirishning iloji bo‘lmadi. 1944-yil kuz va 1945-yil qish oylarida g‘arbiy ittifoqchilar Turkiyaning antigitler koalitsiyasiga qo‘shilishiga turtki berishdi. 1945-yil 4-11-fevral kunlari bo‘lib o‘tgan Qrim konferensiyasida ishtirokchilar Turkiyaga tegishli ikki masalani muhokama qilishdi. Birinchisi – Turkiyaning San-Fransiskodagi konferensiyaga taklif qilinishi masalasi, ikkinchisi – Bo‘g‘ozlarning huquqiy maqomi masalasi.

Tadqiqotchi K.Gurning yozishicha, Stalin Turkiyaning qo‘li Rossiyaning yoqasida bo‘lishiga rozi bo‘lish mumkin emasligi, shu bilan birga konvensiyani ko‘rib chiqish Turkiyaning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerakligi, Tashqi ishlar vazirlari bu masalani ko‘rib chiqishi lozimligini ta’kidlagan.

U.Churchill urush e‘lon qilgan davlatlar taklif qilinishi mo‘ljallanayotganligi, urushning bunday e‘lon qilinishining oxirgi sanasi 1-mart deb ko‘zda tutilyotganini aytdi. Stalin bu taklifni qabul qildi. U.Churchill Turkiyaga xayrixohlik ko‘rsatgan. Turkiya og‘ir paytlarda Angliya bilan ittifoq tuzgan. Biroq urush borayotgan paytda u urushda qatnashadigan darajada emasligi ma‘lum bo‘ldi. Bir yil oldin urushda qatnashish taklif qilinganda bunday fursatdan foydalanmagan bo‘lsa ham, xayrixoh bo‘lgan.

1945-yil 20-fevraldagi Yalta konferensiyasi tugagandan keyin Anqaradagi ingliz elchisi turklarga Turkiya BMTning a‘zosi bo‘lishi uchun 1-martgacha Germaniya va Yaponiyaga urush e‘lon qilishi kerakligini aytdi. 23-fevraldagi Favqulodda kengashda TBMM turk TIVga Yalta konferensiyasi yakunlariga ko‘ra ittifoqdoshlar «BMT Deklaratsiyasiga qo‘shilish uchun Turkiya Germaniyaga urush e‘lon qilishini xohlashadi» xabarini e‘lon qilindi. Germaniya va Yaponiyaga urush e‘lon qilish qarori parlament tomonidan bir ovozdan qabul qilindi, shundan keyin Turkiya San-Fransiskodagi konferensiyada qatnashishga rasmiy taklifnoma oldi. 7-martda Turkiyadagi AQSh elchisi Steynxardt Turkiya TIVga tashrif buyurdi va g‘olib davlatlar nomidan Turkiya ma‘murlarini San-Fransiskodagi BMTning ta‘sis konferensiyasiga rasmiy taklif qildi.

Bu marosimlardan keyin bir necha kun o‘tib, 1945-yil 19-martda V.M.Molotov turk elchisi Salim Sarpenni TIVga taklif qilib, unga Sovet hukumati 1925-yildagi shartnomani unga tegishli qarorlar bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va jiddiy o‘zgarishlarga muhtoj shartnoma sifatida bekor qilganini rasmiy ravishda ma‘lum qildi. Uning amal qilish muddati oxirgi uzaytirishga muvofiq 1945-yil 7-noyabrda tugadi.

Sovet notalari munosabati bilan Anqaradagi Turkiya hukumati-ning majlisi bo‘lib o‘tdi, unda turk javob notasi loyihasi muhokama qilindi va tasdiqlandi. Unda yangi hujjat tuzish tayyorgarligi haqida ma‘lumot berildi. Tashabbuskor sifatida sovet tomoniga 1925-yildagi shartnomaning bekor qilinishi haqida kelasi shartnomaning asosiy mazmuni variantining taqdim qilinishi taklif etildi. Sovet va turk

diplomatlarining keyingi uchrashuvlarida turklar mo'ljallanayotgan yangi bitim loyihasi bo'yicha sovet takliflarini rasmiy ravishda so'rashdi va ulardan (Molotovdan) ish davom etayotganligi haqida javob olishdi.

1945-yil 2-mayda Qizil Armiya tomonidan Berlin ishg'ol qilindi. 8-may tunda Berlin chegarasidagi Karlsruhda german oliy bosh qo'mondonligi vakillari so'zsiz taslim bo'lish haqida Aktni imzolashdi. Ikkinchi jahon urushi tugadi. Ammo bo'g'ozlar xususidagi bahs tortishuvlar davom etdi.

Bo'g'ozlar haqidagi Xalqaro konvensiyada belgilab qo'yilgan moddalar zamonaviy talablarga javob bermas, shuning uchun u belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim edi.

Qora dengizdan yagona kirish va chiqish yo'li bo'lgan bo'g'ozlar tartibining o'rnatilishi Turkiya va Sovet Ittifoqi vakolatida bo'lishi lozim edi. Chunki ular bu yerga eng manfaatdor davlatlar bo'lib, ular dengiz savdosi va qora dengiz bo'g'ozidagi xavfsizlikni taminlaydigan davlatlar edi.

Yangi bo'g'oz tizimi Turkiya va Sovet Ittifoqi o'z xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida Qora dengiz xavfsizligini taminlashda qo'shma qurolli kuchlar tuzishi, dushmanlik qilish niyatida bo'lgan har qanday davlatni bo'g'ozga kirgazmaslikni ko'zda tutar edi.

Bu hujjatning muhokamasi Berlin konfrensiyasida ko'rilmadi, lekin uning qatnashchilari konferensiya hujjatiga quyidagilarni kiritishga muvaffaq bo'lishdi. Uch davlat hukumatlari bo'g'oz konvensiyasining zamonaviy holatga javob bermasligini e'tirof etdi. Keyingi bosqichda uch hokimiyatning bevosita Turkiya bilan muzokaralar olib borishi belgilandi.

Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, Berlindagi kelishuvdan so'ng bo'g'oz muammosining urushdan so'ng faqat Moskva va Anqaradagi ikki tomonlama muzokaralarda hal qilinmas ekan. Bo'g'oz bilan unga tegishli muammolar muhokamasiga, avvalo, Angliya va AQSh, keyinchalik Fransiya ham jalb qilindi. Lekin Qora dengiz xavfsizligi borasidagi yangi qarorlar qabul qilishning iloji bo'lmadi. Montro konvensiyasi ko'rib chiqilmadi. Voqealarning bunday rivojlanishiga asosiy ahamiyat qaratildi. Chunki ikkinchi jahon urushidan so'ng g'olib davlatlarning birligi uzoq davom etmasdi. SSSR bir tomondan, AQSh ikkinchi tomondan, Buyuk Britaniya va Fransiya uchinchi tomondan turli xil sotsial tizimlarni taklif qilishdi. Barcha davlatlar

hududlarini kengaytirishga, u yerda o'z ta'sirlari, ideallari va siyosiy tuzumlarini rivojlanishiga harakat qilishardi.

Sovuq urush ko'plab davlatlar, jumladan, Turkiyani ham siyosiy bloklar ta'sirida ish ko'rishga majbur qildi. AQSh va SSSRning tashqi siyosati bir-biriga oshkora qarama-qarshi edi. Bu o'z-o'zidan Yevropaning va dunyoning ikki siyosiy blokka bo'linishiga olib keldi. Bunday qarama-qarshiliklar qurollanish, harbiy qarorgohlar qurish (Buning oqibatida Turkiyada ham AQSh bazasi paydo bo'ldi) Yevropadagi ziddiyat, mintaqaviy va g'oyaviy maydonlar paydo bo'lishiga olib keldi.

Bunday vaziyatlarda Rossiyaning urush yillaridan so'ng asosiy vazifasi 1941-yil Germaniya uyushtirganidek qo'qqis zarbadan chegaralarni himoya qilish edi. Bu maqsad do'st davlatlardan tuzilgan blok orqali hal qilindi. Bundan tashqari, Stalin SSSRning boshqa davlatlarda qolgan qo'shinlaridan kommunistik eksporti uchun foydalanmoqchi bo'ldi. Bu maqsad Turkiyaning yaqin qo'shnilari bo'lgan Boltiqbo'yi davlatlaridan Bolgariya va Ruminiyada amalga oshdi.

22-may kuni Trumen Gretsiya va Turkiyaga yordam berish haqidagi dasturga imzo chekdi va Kongressga bu dasturni amalga oshirish uchun 400 mln. dollar ajratishni iltimos qilib murojaat qildi. Rasman Amerikaning Turkiyaga yordami 1947-yil 1-sentabrdan tegishli hujjat qabul qilinganidan so'ng boshlangan. Hukumatlar kelishuvi bilan Turkiyaga qurol-yarog', Amerika instruktorlari va keng ko'lamdagi harbiy hamkorlik, harbiy kreditlar berish va boshqalar belgilandi. 1944-1947-yillarda Turkiyaning yolg'izlanib qolishi Yevropa tomonidan emas, Trumen doktrinasi orqali okean ortidan kelgan hamkorlik bilan barham topdi. Turk tarixchilarining qayd qilishicha, ko'rsatilayotgan yordam (avto yo'llardan tashqari) faqat harbiy sohaga qaratilgan edi. Harbiy ehtiyojlar uchun mo'ljallangan bu yordam iyul oyida Turkiyaga kela boshladi (taxminan 100 mln. dollar miqdoridagi mablag'). 1947-yil oktabr oyidan boshlab Turkiyaga amerikalik harbiylar kelishuvga asosan kela boshladilar.

Turk diplomatlari G'arbning bunday harbiy choralar ko'rishiga sovetlar sababchi ekanini ta'kidlaganlar. Turkiyaning fikriga ko'ra, SSSRning bo'g'ozlar borasidagi rejasi hududiy chegaralarga bostirib kirish degani edi. Shu tariqa Turkiyaning keng ko'lamdagi harbiy siyosati mamlakatni yanada yevropalashishiga olib keldi. Bu yangi bosqich AQSh bilan hamkorlik orqali amalga oshdi. Tuzilgan modelda birinchi o'rinda harbiy siyosat turganligi sababli g'arb bilan

iqtisodiy aloqalar ikkinchi jahon urushidan soʻng qayta oʻrnatildi va tez orada harbiy siyosiy strategik ittifoqning ajralmas qismiga aylandi.

Vujudga kelgan ommaviy qarama-qarshilikda Turkiya bilan har qanday muzokara boʻgʻozlar, harbiy bazalar yoki boshqa narsalarda gʻarb davlatlarining yordamiga umid qilishi kerak emasdi va Turkiya buni yaxshi tushunardi. Oʻsha paytda bir necha turk tahlilchilari bu holat Turkiyada xavotir uygʻotgan sovet notalari 1945-yil AQSh, Angliya va SSSR oʻrtasidagi Potsdam konferensiyasi natijasi ekanini taʼkidlashdi. Boshqa tarafdin Potsdamdagi sovet tomoni bergan takliflardan biri boʻgʻozlarda himoya uchun qoʻshma turk va sovet kuchlari zarurligi haqida edi. Sovet noʻtalarida qaytarilgan eskirib qolgan konvensiyaning oʻrniga yangi ikki tomonlama shartnoma tuzish sharti va taklifi Turkiya tomonidan rad etildi. Bu savol yuzasidan soʻngi sovet notasi sovet turk kelishmovchiligi haqidagi bandni takrorlardi:

Turk hukumati avgust oyida sovet notasining 5-bandiga nisbatan ham norozilik bildirdi. Unda Turkiya va SSSR yirik davlatlar ekani, boʻgʻoz ular uchun muhim ahamiyat kasb etishi, ularning birgalikda harakat qilib Qora dengiz boʻyi davlatlari boshqa dushman davlatlar hujumiga qarshilik qilishi kerak ekani aytilgan edi.

Turk hokimiyati esa sovetlarning bu taklifi Turkiyaning suveren huquqlariga toʻgʻri kelmasligi, uning xavfsizligini yoʻqqa chiqarishi mumkinligini taʼkidladi. Turk hukumati shunday qarorga SSSR bu haqda bosh qotirgunga qadar kelib boʻlgandi va SSSR bilan oʻzaro maqbul shartlarni koʻrib chiqishga hojat ham qolmadi. SSSR va Boltiq boʻyi davlatlarining xavfsizlik choralariga keskin rad javobini bergan Turkiya hukumati oʻzining SSSR bilan doʻstona va ishonchli aloqalar oʻrnatishi toʻgʻrisidagi bayonotiga xilof ish qilardi. Shu bilan birga bunday asossiz va SSSR shaʼniga toʻgʻri kelmaydigan shubhalarni bayon qilardi.

Turkiya bildirgan bunday fikrlarga qaramay SSSR boʻgʻozdagi erkin savdo va tinchlikni faqat Rossiya va Turkiya birlashgan kuchlari taʼminlay oladi, deb hisoblardi. Bunda SSSR hukumati sovetlarning bu taklifi Turkiya suverenitetiga taʼsir qilishi kerak emas, balki, uning xavfsizligiga xizmat qilishi kerak deb hisoblardi.

Turkiyaning Sovet Rossiyasi bilan boʻgʻozni himoya qilishdan bosh tortishi Qora dengiz davlatlarining bu hududlarning xavfsizligiga munosib javob bera olmasligini bildirardi. Soʻngi urush yillarida mamlakatlar Qora dengizdan oʻz harbiy maqsadlari yoʻlida SSSRga

qarshi foydalanishgandi. O'sha paytda ular Qora dengizga bir necha harbiy va yordamchi kemalarni olib kirishga muvaffaq bo'lishgandi.

1914-yil bo'g'oz orqali Qora dengizga tushgan nemis kreysarlari Geben va Breslau rus flotiga hujum uyushtirishgandi va Qora dengiz portlarini vayron qilishgandi. Bularning bari sovetlarning bo'g'ozni himoyasida sovet-turk ittifoqi taklifida hisobga olingan edi, va bu nafaqat Turkiya, balki, boshqa Boltiqbo'yi davlatlariga ham foydali edi. Bu faqat Turkiya tomonidan amalga oshirila olmasdi. Agar Turkiya Qora dengiz davlatlarining takliflarini rad etsa boshqa biror davlat yordamiga muhtoj bo'lishi aniq edi. Bu esa Qora dengiz davlatlarining xavfsizligiga ochiq tahdid bo'lardi. Shuni unutmaslik kerakki, SSSRning Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan 2100 kilometrlik chergarasi mamlakatning muhim iqtisodiy zonalariga yo'l ochar va uning himoyasi SSSR uchun juda katta ahamiyat kasb etardi. Bularning nima uchun SSSR bo'g'oz himoyasini Turkiya bilan olib borishga intilganini ko'rsatadi.

Sovetlarning takliflarida ko'rsatilgan sabablar turk diplomatlari tomonidan so'zsiz talab deb baholandi. Bu esa davlat suverenitetiga tahdid sifatida qaraldi va taklif keskin rad etildi. Turkiyaning Qora dengiz bo'g'ozlari bo'yicha Sovetlarga so'nggi nooddiy javobi 1946-yil 18-oktabrda e'lon qilingan nota bo'ldi. Bu hujjatda oldingilaridagi kabi barcha e'tirozlar va tanqidlar rad etilgandi (SSSRning urush paytida Turkiya bo'g'oz rejimida bir necha nemis kemalarini o'tkazib yuborgani kabi tanqidlar). Kemalarning o'tkazib yuborilishi esa II konvensiyada ba'zi tushunarsizliklar va kemalarning yaxshi taniy olinmagani uchun deb ko'rsatildi. Bu turk hujjatining so'nggi qismida shunday deyilgandi; diplomatik arenada vaqt o'tkazmaslik Turkiya esa Tretey sudiga murojat qilishsa, to'liq sovetlarga qarshilik bildir-masligini e'lon qildi. Turkiya shu tariqa sud qarshisida turib bo'lsa ham konvensiya shartlarni sidqidildan bajarganligini isbotlashga harakat qilardi. Undan tashqari, konvensiyani uni imzolagan davlatlar va AQSh ishtirokida ko'rib chiqishga tayyor ekani qayd qilingandi.

Qora dengizning maxsus yopiq dengiz maqomi va bu maqomning faqat Qora dengiz mamlakatlari belgilashi rad etildi. Turk hukumati Montro konferensiyasi Qora dengiz bo'yi davlatlari maqomini belgilashi ta'kidlab o'tildi. Turkiya Qora dengiz davlatlari orasida o'z o'rniga ega edi. Lekin u O'rta yer dengizi davlatlaridan biri ekanini ham unutmagandi. Turkiyaning bo'g'ozlar muhofazasini boshqa

davlat bilan baham ko‘rishi o‘z mustaqilligini boshqa davlatlar bilan baham ko‘rishga tenglashtirilar edi.

Sovet hukumati Turkiyaning bayonotiga javob bermadi va Montro konferensiyasining amal qilish muddati tugaganda konventsiyani bekor qilish borasida murojaat ham qilmadi.

Turk mualliflarining fikricha, 1945-yildayoq Turkiyaga bosim o‘tkazish yo‘liga o‘tildi, Arman uyushmalari tomonidan Turkiyaga hududiy talablar bilan kampaniyalar uyushtirildi. Sentabr oyida Bayrut Damashq va Suriyaning boshqa shaharlarida Turkiyaga qarshi mitinglar bo‘lib o‘tdi. 1945-yil 20-dekabrda Tbilisilik ikki professor Qora dengiz qirg‘oqlarining Giresungacha bo‘lgan qismi Gruziyaga tegishli ekanligi va bu hududlarni ularga qaytarish zarurligi haqida maqola chop ettirishdi. SSSR va Turkiya o‘rtasida bayonotlar almashinuvi davom etayotgan, o‘zaro do‘stlik munosabatlari tobora barham topib borayotgan bir davrda Turkiyada yangi do‘stlikning ilk nishonalari paydo bo‘la boshladi. Bu Turkiyadagi Amerika linkordi edi.

Turkiyalik muallif Husain Bog‘chi bu borada shunday yozgan edi: “Turkiya va AQSh o‘rtasidagi yaqin aloqalar 1946-yil Istanbulga marhum elchi Munir Ertegyunni olib kelgan missuri linkordi tashrifidan boshlangandi. Bu aksiya Amerikaning Turkiya SSSR tomonidan uyushtirilgan hududdiy talablarida qarshi turishga madadini ifoda etardi, sovet xavfi Turkiyani g‘arb mammalkatlari bilan ayniqsa, AQSh bilan yaqin do‘stona munosabatda bo‘lishiga majbur qilardi”.

AQSh bilan harbiy-siyosiy kelishuv tuzgan Turkiya, keyinchalik, 1952-yil NATOga a‘zo bo‘lib o‘zining kelgusi rivojlanish yo‘lini, iqtisodiyotda ham NATO doirasida modernizatsiya yo‘lini tanladi.

Marshall rejasida AQSh bilan biror yo‘nalishda ikki tomonlama kelishuv tuzish ko‘zlangan edi. Barcha yordam olishni istagan mamlakatlar, shu jumladan, Turkiya ham ishtirok borasida Amerika bilan muzokaralar olib bordi. 1948-yil 2-fevralda Turkiya 615 mln dollar miqdorida yordam so‘radi. Turki tashqi ishlar vaziri Najmiddin Kodak Turkiyaning ushbu mavzusidagi arizasi Amerika ekspertlari tomonidan rad etilganini ta’kidladi. Bunga sabab Turkiyaning o‘z iqtisodiy muammolarini o‘zi hal qila olish qobiliyatiga ega ekanligi edi. Kodakning fikricha Turkiya bunday imkoniyatga ega emasdi. Shundan so‘ng Turkiya vakillari Parijda OEEsni ishontirishga erishdi. AQShning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi natijasida nihoyat bu yordam dasturidan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi. 1948-yilda Turkiya

AQSh bilan marshal rejasi asosida iqtisodiy hamkorlik haqida kelishuv imzoladi. 1948-yil 8-iyulda Amerikaning maxsus tashkiloti hisoblangan Xalqaro rivojlanish agentligi Anqarada o'z vakolatxonasini ochdi va Moliya vazirligi bilan aloqalar o'rnatdi. Turkiya uchun 10 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi, lekin Vashingtonga Turkiyani 300 mln dollar miqdoridagi yordamga muhtoj ekanlipsh aytili. Anqaraga birgalikda yordam dasturini tayyorlash, uning bajarilishini nazorat qilish va yillik hisobot tayyorlash uchun vakillar yuborildi.

Yevropaning iqtisodiy ahvoli bo'yicha chora-tadbirlar AQSh harbiy-siyosiy strategiyasining bir qismini tashkil etar edi. Turkiyaning ko'zga ko'ringan bank va moliyaviy muammolar bo'yicha mutaxassisi Erhan Bener shunday yozadi: "AQSh iqtisodchilari va siyosatchilari birinchi jahon urushidan keyingi xatolarini yana bir karra qaytara olishmasdi. Urush tugadi, lekin o'shanda ma'lum bo'ldiki, ufqda Amerika boshchilik qilayotgan kapitalistik iqtisodiyotning dushmani paydo bo'ldi. Bu Sovet Ittifoqi edi. Kapitalistik tizim qulashining oldini olish uchun Yevropaning kommunistik tizimga kirishiga qarshilik qilish zarur edi. Buning uchun G'arbiy Yevropani botqoqdan chiqishga yordam berish, keyin esa ochiq raqobat tizimini qata tiklash zarur edi". Bener o'z kitobida bu haqda shunday yozgan: "AQSh yordam qo'lini cho'zmasa, Yevropaning tiklanishi mumkin emas". Muallif Turkiya oltin va valyutaning katta zahiralarga ega ekanligi, urushda neytral davlat maqomida bo'lganligiga urg'u bergan, shu sababdan iqtisodiy yordamga muhtoj bo'lmagan davlat deb hisoblanishini aytgan. Turkiyaning birinchi tayyorlagan rejasi iqtisodiy holatning juda yaxshi ketayotganidan darak berardi, lekin keyinchalik bu yordam masalasiga ta'sir qilishi ma'lum bo'lgach, ahvolni juda yomon qilib ko'rsatishga to'g'ri keldi. O'sha davrda AQShda Yevropaning yordamga muhtoj davlatlari haqida maqola e'lon qilindi. Unda aytilishicha, Turkiya urushga kechikib kirganligi tufayli o'zining ishlab chiqarish nuqtalarini saqlab qola oldi. Bundan tashqari, urushga qatnashayotgan davlatga qimmat narxlarda turli xildagi mahsulotlar yekazib berib turdi. Shu sababdan, unga umuman yordam ko'rsatmaslik kerak, agar ko'rsatilsa ham eng kam miqdorda ko'rsatilishi zarur uligi aytili.

Chegaralangan, qarama-qarshi statistik ma'lumotlarga ega bo'lishiga qaramay urushdan keyingi ikki o'n yillikda ya'ni urushdan keyingi eng og'ir tiklanish yillarida Turkiya antigitler koalitsiyasi

qatnashchisi sifatida yangi harbiy-siyosiy hamkoridan 2251 mln dollar miqdordagi iqtisodiy yordam olishga muvaffaq bo'ldi.

Urushdan so'ng sovet-turk munosabatlarining eng mojaroli va hal qiluvchi nuqtasiga tegishli yana bir narsani aytish mumkin. 1953-yil 30-mayda Molotov Turkiya elchisini Tashqi ishlar vazirligiga chaqiradi va unga Sovet Ittifoqining Turkiyaga hududiy masalalarda hech qanday talabi yo'qligi haqidagi notani topshiradi. Yarim oydan so'ng 1953-yil 18-iyulda turk elchisi Moskvada Molotovga javob notasini topshiradi. Unda Turkiya Respublikasi hukumati 1953-yil 30-mayda janob Molotov tomonidan o'qib eshittirilgan va taqdim etilgan murojaatnoma bilan tanishib chiqqanligi, nota SSR Tashqi ishlar vaziri tomonidan Turkiyaning Moskvadagi elchisiga topshirilgan, Sovet hukumati so'nggi vaqtlarda SSSR va qo'shni davlatlar o'rtasidagi muammolar bilan shug'ullanayotgani aytilgan edi.

Ma'lumki, 1925-yildagi sovet-turk kelishuvi muddati nihoyasiga yetgach, bu munosabatlarni to'g'rilash masalasi bir necha yil avval ikki tomon vakillari o'rtasidagi rasmiy suhbat chog'ida to'xtatilgandi. Bu suhbatda asosiy masala Armaniston va Gruziyaning Turkiyaga nisbatan hududiy da'volari va SSSRning Qora dengiz chegaralaridagi xavfni bartaraf etish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Bu taklif Turkiya hukumati va xalqi tomonidan yaxshi kutib olinmadi. O'z-o'zidan bu Turkiya va Sovet aloqalariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Yaxshi qo'shnichilikning saqlab qolinishi va tinchlikning mustahkamlanishi yo'lida Armaniston va Gruziya hukumati bu da'vodan voz kechish mumkin degan qarorga kelishdi. Bo'g'oz masalasida SSSR o'zining avvalgi fikrini ko'rib chiqdi va SSSRning bo'g'ozlar masalasida xavfsizligi ta'minlanishi ikki tomonga ham mos keladigan tartibda bo'lishi kerak deb topildi. Shunday qilib, SSSR Turkiyaga nisbatan hech qanday hududiy da'volari yo'qligini e'lon qildi.

Turkiya hukumati SSSRning Turkiyaga nisbatan hech qanday hududiy da'volari yo'qligi haqidagi murojaatini mamnuniyat bilan bildiradi. Turkiya hukumati yaxshi qo'shnichilik aloqalari hamda tinchlik va xavfsizlikni ushlab turish va ushbu murojatda ilova qilingan shartlarning barchasi Turkiya intilgan va keyin ham intiladigan mavzular ekanligini ta'kidladi. Buning, ya'ni o'zaro aloqalarning yaxshilanganiga yana bir isbot 1959-yilda Turkiya Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri Lutfi Qirdorning SSSRga tashrifi edi. 1960-

yilda Turkiya Bosh vazirining SSSRga tashrifi esa o'sha yil 27-mayda Turkiyada bo'lgan harbiy to'ntarish tufayli amalga oshmadi.

Urushdan keyingi ichki siyosat. Ko'ppartiyaviylik tizimiga o'tish

Urushdan keyin ilk bor nafaqat tashqi siyosatda, balki Turkiyaning ichki siyosatida ham o'zgarishlar kuzatildi. Sovuq urush davrida sotsial iqtisodiy tizimni yangilash masalasi ko'tarildi. Bundan tashqari, diktaturadan ko'ppartiyalilikka, avtoritar tizimdan sekin-asta yevropalashishga o'tib borildi. Turkiya o'zining respublikachilik davri tarixiga kirib bordi.

SSSR bilan aloqalarning keskinlashuvi barcha antikomunistik tuzilmalarda erkinlik sharoitini yaratdi. 1946-yil milliylik va panturkistlik xarakteriga ega turk madaniyati jamiyati paydo bo'ldi. U turk madaniyatini chet el g'oyalarining tashqi va ichki ta'siriga qarshi ilhomlantirardi. 1950-yil N.Otsiz panturkistga shunday ta'rif beradi: "Bu turk millatining oliyiligiga ishongan, o'zining milliy o'tmishini qadrlaydigan, ayniqsa, Moskvadek azaliy dushman bilan jangda, turk millatining birligi uchun o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan turkdir".

1943-yilgi Respublika xalq partiyasining 6-qurultoyida I.Inonu shunday degan edi: "Bizning yagona yetishmovchiligimiz bu muxolifat partiyasining yo'qligidir". 1946-yil may oyida qurultoyda davlat partiyalari haqidagi barcha qonunlar qabul qilindi. Endi "doimiy rais", "yetakchi", va boshqalar shuningdek, olti yulduz ham konstitutsiyadan olib tashlandi, bir bosqichli saylovlar tizimi ishlab chiqildi. Demokratiya tushunchasiga talab oshib bordi. 1930-yilda yopilgan Liberal partiyaning yopilishi ham noto'g'ri deb tan olindi.

O'zgarishlar rasmiy mafkuraga ham, millatning diniy hayotiga ham ta'sir qildi. Turk mualliflari, masalan, I.Tarxonli bu borada shunday yozadi: "1940-yil oxirida katta siyosiy ta'sirga aylangan diniy potensialning uyg'onishi kuzatildi. Hatto Otaturkning JXP ham o'zining diniy va dunyoviy konsepsiyalarini yangilash va ancha yumshoq siyosat yuritishga majbur bo'ldi". 1946-yil dekabrda majlisda diniy ta'limni kengaytirish masalasi ko'rildi. Ba'zi deputatlarning (Tanriover kabi) bu ish komunizmga nisbatan katta qarshi kuchni shakllantirishiga ishonchi komil edi. Ma'lumot uchun shuni qayd etish kerakki, bosh vazirning so'zlariga ko'ra komunizmni shariat bilan

almashtirish kasal odamni zahardan xalos qilish uchun boshqa xuddi shunday dahshatli zahar berish bilan barobar.

1947-yil noyabrda JXPning navbatdagi yigʻinida yetatizm va dinni liberallashtirish haqida bir qarorga kelindi. Oʻsha yili ilk bor davlat tomonidan haj uchun mablagʻlar ajratildi. 1949-yil 4-5-sinf darslariga fakultativ dars qilib islomshunoslik kiritildi, Anqara universitetida esa diniy xodimlarni tayyorlash maqsadida dinshunoslik fakulteti ochildi. Avvaliga 1949-yil diniy qoʻmita Anqara va Istanbulda oʻn oʻrinlik imom xatiblar tayyorlash kursini ochdi, keyinroq bu fakultet barcha markaz shaharlarda faoliyat yurita boshladi. Siyosiy islom doirasida cheklovlar borgan sari aniqlashib bordi. Oʻziga yarasha qattiq kuchga ega boʻlgan jinoyat kodeksining 163-moddasi bir necha bor nashr qilindi, u islomni har qanday taqdirda ham siyosiy maqsadlar yoʻlida foydalanishni taqiqlardi. Koʻpchilik deputatlar bu moddaga qarshi chiqib uni "islomga qarshi tajovuz, xudosizlarni himoya qilish komunistik ruhni targʻib qilish" deya daʼvo qilishdi.

JXP 1941-yil urush davrida armiyaning urushda ishtirok etish xavfini sezib harbiy ruhoniylar institutiga ruxsat bergandi. 1945-yilda ruhoniylarga yana bir qancha yengilliklar berildi. JXPning baʼzi aʼzolari esa diniy islohotlar oʻtkazishni taklif qilishdi. Lekin majlis konservatorlarning hech qanday taklifini qabul qilmadi. Shundan soʻng ular bilan murosa yoʻli tanlandi. 1950-yil birinchi marta maqbara va boshqa turli diniy ziyoratgohlarga borishni taqiqlovchi birinchi bandga, maqbaralarni ziyorat qilish (sanʼat asarlari hisoblangan buyuk turklar maqbarasi) mumkunligi haqidagi band bilan qamrab qoʻyildi. Maktab darslariga diniy taʼlimni kiritish, imom-xatiblar tayyorlash kurslarini ochish, haj uchun mablagʻ ajratish, JXP hukumat tepasida turganida islomchilarga yaqin boʻlgan tarixchi professor Sh. Gyunal-tay vazir qilib tayinlangandan soʻng yuz berdi. Islom jurnali "Sebil-ul reshat" shunday yozgan edi: "Ertami kechmi millatning diniga boʻlgan tazyiqlar toʻxtatiladi, xalq sizlarning harakatlaringizni unutmaydi".

1950-yilgi saylovlardan avval JXP islomga qarshilik qilish harakatlarini yana yangiladi. Bu paytda siyosatda islomning qoʻllanilishi ikki partiya tomonidan amalga oshirilardi.

1945-yil kommunizm tahdidi va SSSR bilan aloqalarning yomonlashishi tufayli islom birinchi qatarga chiqib oldi. Islomiy partiyalarning butun boshli roʻyxati paydo boʻldi. 1923-yildan soʻng birinchi marta islom siyosiy hayotda ahamiyat kasb eta boshladi. Lekin shuni aytib

o'tish lozimki, bu partiyalar mustaqil islom konsepsiyalarini ko'rsatmas, jamiyatda ham jiddiy diniy harakatlar ko'zga tashlanmasdi.

1949-yil Turkiya davlat teatrning tashkil qilingandan so'ng xalq Yevropaning klassik musiqasi operasi va dramaturgiyasi bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Teatr avvaliga opera, drama, baletni o'z ichiga olgan edi. Avvaliga teatr o'z binosiga ega emasdi, tadbirlar Anqaradagi xalq uyi sahnasida qo'yilardi. 1949-1953-yillarda teatr bor yo'g'i 53 ta taqdimot qildi. Teatr uchun asosiy bino Otaturk ko'chasidan ajratildi. Bungacha sahna bo'lgan zal ta'mirlanib teatr uchun jihozlandi. Bu zalda hozirda ham spektakllar o'ynaladi. Anqara teatri repertuarida Yevropa opera va balet klassikalari, Chaykovskiy, Glazunov asarlari paydo bo'ldi. Zamonaviy turk va chet el kompozitorlarining operalari ham ijro etila boshlandi.

1933-yilda Anqarada simfonik orkestr ham ochildi, lekin uning birinchi chiqishlari qisqa bo'lardi. 1953-yil Anqarada filarmoniyaning tashkil etilishi orkestr rivojiga biroz to'siq bo'ldi. Natijada Anqara filarmoniyasiga ham bino berildi. Simfonik orkestr repertuarida Bax, Mosart, Betxoven, Chaykovskiy, Rimskiy-Karsakov, Musorgskiy, Rahmaninov, Debyussi, Ravel, Stravinsk va zamonaviy ijodkorlardan Saygun asarlari bor edi. Shunga qaramay, orkestr konsertlari Turkiyaning madaniy hayotida katta voqea bo'la olmadi.

Turkiyada drama teatrining paydo bo'lishi 1949-yil ochilgan davlat teatri bilan uzviy bog'liq edi. Davlat teatrning Otaturk bulvaridagi birinchi sahnasi "katta teatr" ochildi, ko'p o'tmay ikkinchi sahna "kichik teatr" ham ochildi. 1956-yildan bo'shab uchunchi teatr ham ishga tushdi, o'sha yili "kamer teatri" ham ishlay boshladi. 1960-yil "yangi sahna" nomini olgan davlat teatri, 1958-yil poytaxt markazida ochildi. Davlat teatrlari repertuarlarida jahon klassiklarining asarlari ham bor edi. Anqara drama teatrining asosiy repertuarini rus yozuvchilaridan Tolstoy, Gorkiy, Chexov va boshqalarning asarlari egalladi, zamonaviy mualliflarning asarlari ham o'z o'rnida ijro etila boshlandi.

Urushdan so'ng hokimiyat tezda iqtisodiy rivojlanish rejasini tuzishga kirishdi. 1946- 1947-yillarda tuzilgan rejalar qaysidir jihati bilan 1939-1943-yillar uchun tuzulgan va urush tufayli amalga oshmay qolgan rejaning davomiga o'xshardi. 1947-yilgi reja mualliflarining mahalla bitimiga binoan moddiy yordamga bog'lashga urinishlari besamar bo'ldi.

Bu yillarda nashr etilgan rasmiy maqolalarning birida shunday deyilgan edi: "Industriyashtirish g'oyasidan voz kechishga to'g'ri keldi". Gap endi urushning davlat iqtisodiga bo'lgan yomon ta'sirini kamaytirishda edi. Shu maqolaning o'zida aytiladiki" 1946-yillardan so'ng davlat hisobiga qurilgan ishlab chiqarish obyektlarini xususiyashtirishga berish haqida gap boshlandi, lekin bu hech qayerda amalga oshmadi".

O'sha yillarda mamlakatga keng ko'lamda amerikaning harbiy yodami, amerika jihozlari va mahsulotlari kirib kela boshladi. Strategik yo'llarning qurilishi, portlar, aeroportlar, harbiy bazalar, ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek, amerikaliklar uchun turar joylar qurilishi tezlashib ketdi.

Haqiqatdan ham 1940-yildan 1950-yillargacha boshqaruvchi hukumat bir partiyali tizimdan voz kechgan, hokimiyatga demokratik partiya kelganidan so'ng xususiyashtirish haqidagi bayonotlar, davlat sektorining bir tomonlama yo'nalishidan voz kechish va xususiy sektorning ham iqtisodiy rivojlanishda qatnasha olishi haqidagi so'zlar davlat miqyosida yangray boshladi. Bu davrga kelib xususiy sektor o'z kapitallarini trikotaj va quruvchi pudratchilik sohasiga kiritishga va birinchi xususiy bankni ochishga ulgurgan edi. Turkiya NATOga qo'shilgach "Marshall rejasi" va Trumen doktrinalarini qabul qilgach tizim butunlay o'zgarib ketdi.

G'arb olamining Turkiyani o'z ittifoqdoshi hamda hamkori deb tan olishi, turk hukumatini etatizm vaqti o'tib ketganini esdan chiqarmaslikka va butun jahon xususiy tadbirkorligiga o'tishga hamda turk bozorini tashqi xususiy investitsiyalarga ochishga undardi. GEOning asosiy tanqidiy nuqtasi shu ediki, u zararga ishlardi. Bu zarar esa davlat budjetidan to'ldirilardi.

GEO tarafdorlarining ta'kidlashicha, Turkiyada davlat sektori milliy iqtisodiyotning "doimiy" himoyasini, jamiyatdagi sotsial balansning optimallashtirilishini, kam ta'minlagan qatlam yoki kelajagi bor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, fan-ta'lim, madaniyatni ta'minlar edi.

Urushdan so'ng birinchi marta kelayotgan tashqi yordam bilan birgalikda tashqi savdo nazorati ancha yengillashdi. Shuningdek, kliring operatsiyalarining ham ko'lami qisqardi. G'arb bilan tashqi savdo, moliyaviy operatsiyalarning kengayishi, tashqi yordamga

bo'lgan talabning o'sishi turk hukumatining tashqi savdoni borgan sari liberallashtirishga majbur qildi.

1950-yil martda NRP o'z boshqaruvining so'nggi oylarida 1945-yil qabul qilingan yer islohatlari haqida qabul qilingan va baribir oxiriga yetmagan qonunga o'zgartirishlar kiritishdi. Uning eng asosiy qismi 17-moddasi bo'lib yersizlarga, kam yerli ijarichilarga, chorikorlar va doimiy ishchi dehqonlarga qancha yerni qayta ishlay olsa, shuncha yer berish masalasini ko'rib chiqardi. Yangilangan qonunning asoslangan yeri shunda ediki, xususiy mulk daxlsiz deb qaralardi. Katta yer egalariga xavotir solgan, nafaqat davlat balki, pomeshshiklarning yerlarini ham islohatga tortadigan 17-modda bekor qilindi. Aslida 1945-yilda qabul qilingan hujjatdan farqli o'laroq 1950-yilgi hujjatga ko'ra hatto tub islohatlar ham katta yer egalariga ta'sir qila olmasdi.

Ko'ppartiyalilik prinsipi mamlakatdagi o'zgarishlardan dalolat berardi. 1945-yil Kengash tomonidan BMTning ustavini qabul qilgach, avtoritar tizimdagi bir partiyalilik hokimiyati bo'yicha munozaralar avj oldi. Bu munozaralar Turkiyaga urushdan keyingi eng katta siyosiy mojarolarga sabab bo'ldi. Otaturk vaqtidagi so'ngi bosh vazir Bayar, deputat Adnan Menderes va JXPning ikki a'zosining so'zlariga qaraganda boshqaruvchi hukumatda Turkiya qonunchiligiga o'zgartirish kiritish talabi ortdi. Takliflar rad etilgach 4 kishi JXPdan chiqib ketdi. Lekin baribir hukumat harbiylar ustidan nazoratni kamaytirish va siyosiy holatni demokratlashtirishga majbur bo'ldi. 1946-yil Bayar va Menderes rahbarligidagi Demokratik partiya rasman siyosiy partiya sifatida ro'yxatdan o'tdi va tez orada hukumat tepasida turgan JXPga bo'lgan muxolifatning asosiy markaziga aylandi. 1946-yil TBMMga bo'lgan saylovlarda JXP 465 o'rindan 396 tasini qo'lga kiritdi, Demokratik partiya esa 61 ta o'rinni oldi, mustaqil deputatlar esa 7ta o'rin olishdi. DP kengashdan 61 joyga erishib o'z targ'ibot va talablari uchun xalq tribunasini qo'lga kiritishdi. DP JXPga qarshi asosiy raqibga aylandi.

1950-yildagi xalq saylovlarida o'rtacha 88% saylovchlar qatnashdi (8.5 mln atrofida) va ko'pchilik DPni tanladi. Unga TBMMdan 408 o'rin tegdi. JXP 69 ta o'rin oldi. Shu tariqa respublika tuzilgandan beri bayroqni qo'ldan bermay kelgan hokimiyatga chek qo'yildi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat DP partiyasi rahbarlari qo'lga o'tgach, kamolchilikning avtoritar partiyalilik davriga yakun yasaldi.

Demokratik partiya hokimiyat tepasida

Saylovlardan keyin ko'ppartiyaviylik tizimi o'z hosilini bera boshladi: butun boshli avtoritar tizim davradan ketgandan keyin I.Inonu boshliq JXP muxolifat rovida no'noq bo'lib chiqdi. Prezidentlik lavozimiga 1930 yillardan buyon ma'lum bo'lib kelgan, Otaturk hayotining oxirgi yillarida hukumat boshlig'i bo'lgan Jalal Bayar bo'ldi. Bosh vazir esa JXP a'zosi, TBMM deputati, mamlakat Janubi-g'arbidagi Oydin viloyatidagi hosildor yerlar egasi Adnan Menderes bo'ldi.

Yangi hukumat birinchi navbatda siyosiy mahbuslarni ozod qildi. Ular ichida kommunistik faoliyat yuritganlikdan ayblanganlar ham bor edi. Qamoqdan Turkiyaning buyuk shoiri – Nozim Hikmat ham chiqdi, lekin u yangi hokimiyatga ishonmasdi. U SSSRda qolishi uchun chet elga qochish, Turkiya fuqoriligidan mahrum bo'lishga majbur edi. Keyingi voqealar shuni ko'rsatdiki, turk demokratlari saylovda g'olib bo'lgan demokratlarga ishonmay to'g'ri qilgan edilar. DP va'da qilgan qonunlar qabul qilinmadi. Ular boshqaruvning avvalgi yillarida maxsus qonun bilan JXPga tegishli barcha mullukni milliyalashtirdi, shu qatorda Otaturkdan meros qolgan mullukni ham. Lekin 1960-yildagi Harbiy to'ntarishdan so'ng, konstitutsion sud JXP murojaati bilan bu qonunni bekor qildi va natijada partiya yana Otaturkning Bank aksiyalarini qaytarib oldi va o'z-o'zidan uning boshqaruv huquqini ham DP 1950-yilgi natijalarni 1945-yilda ham mustahkamlandi va o'zining parlamentdagi o'rnini kengaytirdi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida to'plangan mablag' hamda Turkiyaning urushdan keyingi harbiy-siyosiy, maishiy holat va g'arb bilan yaqin aloqalari, xususiy tadbirkorlikning rivojiga import va eksport o'sishi, vositachilik operatsiyalari, omborlar, yuk tashish, yangi qurilishlarga yangi impuls berdi. Turk savdogari va pudratchisi chet el bilan to'g'ridan to'g'ri katta biznes aloqalar o'rnatdi. Davlat sektorining xom ashyo ishlab chiqarish bazasi, kreditlari, mutaxassislaridan foydalanish imkoni ortdi. Nihoyat, mamlakatda chet el sarmoyasi kirib kela boshladi. Avval davlat kapitali keyinchalik esa xususiy tadbirkor kapitali va bu kapital to'g'ridan to'g'ri xususiy kapital tomonidan foydalaniladigan moliyaviy manbalarning kengayishiga sabab bo'ldi.

Tijorat kapitali bu manbalarni sanoat qurilishing doimiy ta'minlanishiga sarflardi.

1950-yillar xususiy tijorat kapitalining sanoatlashuvidagi burulish nuqtasi hisoblanardi. Hali 1950-yillar boshlarida koʻzga koʻrinarli tadbirkorlar barmoq bilan sanalardi. 15 yil ichida xususiy sanoat kapitali oʻzini yirik tijorat kapitaliga teng deb hisoblay olardi.

Toʻqimachilik sanoati milliy mahsulotlar, paxta eksporti, shuningdek, davlat sektorida tayyorlangan va malaka oshirgan mutaxassislar orqali rivoj topdi. Bu sohada Turkiyaning ikki viloyati Egey va Adana-Mersinda rivojlanish boʻldi. Tekstil sanoatida urchuqlar soni ortdi, davlat sektorida 1949-1960-yillarda 146 mingdan 217 minggacha, xususiy sektorda esa 140 mingdan 544 minggacha ortish yuz berdi. 1950-yillarda davlat sektori paxtadan ishlanadigan matoning 77.4 %ini, paxtaning esa 55.2 %ini ishlab chiqardi, lekin 1960-yillarda bu koʻrsatkichlar 30 va 29.5 % gacha pasayib ketdi.

Yangi yoʻnalishlarga ega boʻlishga ulgurgan boshqa bir soha esa chet el bilan hamkorlikdagi yirik turk kapitali nazoratidagi import va yigʻuv operatsiyalari edi. Yigʻish va ishlab chiqarish avvaldan, gʻarb monopoliyalariga bogʻliq edi. Ular kredit kanallaridan va Turkiyadagi vasiyliklariga yordamni faol ravishda qoʻllay boshladilar. Bu oqimning yetakchilari avtoyigʻish, elektroyigʻish va boshqa kompaniyalar edi. ayniqsa, bu oqimlarning boshlangʻich tuzilish davrida ular ishbilarmon bank yordamiga koʻz tikishar va uning hissalarini sifatidagi ishtirokisiz oʻtib ketilmadi.

Xususiy ishlab chiqarish qisqa muddatda kichik tadbirkorlik firmalaridan tortib katta sanoat kombinatlari hisobiga har tomonlama quloq yoza boshladi. Litsenziyalik texnikalar yigʻilishi, turar-joy va ofislar qurilishi koʻplab kichik xususiy firmalarni tor doiradagi mutaxassislikda malaklashtirdi. Xususiy sanoat kapitali mustaqil taʼsir kuchi, qiziqishlari va maqsadlariga ega kuchga aylanib borardi.

Nihoyat 1940–1950-yillar bu haqiqatda DP shiorlarini faol qoʻllab-quvvatlovchi va turk burjuaziyasining oltin asri edi. Savdo va qurilish operatsiyalarida endi Turkiyaning yirik importyorlari, yetkazib beruvchilari asosiy oʻrinda edi. Foydaning ham asosiy qismi ham ularda edi, xom ashyo yetkazuvchilariga ham yaxshi foyda qolardi (Amerika va Yevropa bozorlariga paxta). Yangi sohalar nafaqat import, texnik xizmatlar asosida ham shakllandi. GEO ishtirokidagi qoʻshma davlat va xususiy kapitallardan iborat firmalar tashkil qilindi. Davlat sektoriga savdo, paxta eksporti, quruq meva va yongʻoq boʻyicha katta-katta korporatsiyalar jalb qilindi.

Bunday holatlarda DP hukumatga kelgach davlat kapitalini chegaralash va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bong ura boshladi. Lekin DP baribir davlat korxonalarini xususiylashtirmadi. Bu turk iqtisodchilarining fikricha, ularning nafaqat sanoat miqyosida o'ziga xos ahamiyati uchungina emas, balki sotsial sohadagi ahamiyati tufayli hamdir. GEO himoyachilari ta'kidlaydiki, davlat sektori Turkiyada milliy iqtisodni qo'llash va ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamni yoki kelajagi bor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, fan va madaniyatni doimiy ta'minlash funksiyasini bajaradi. Sezilarli darajadagi g'arbdan kelayotgan yordamning faqat bir qismiga sanoatni rivojlantirish banki orqali xususiylashishi mumkin edi. U 1950-yilda Amerikaning Xalqaro rivojlanish agentligi ishtirokida tuzilgan va g'arb kreditining asosiy qismini GEOga yetkazishga majbur edi. Shu bilan birga tan olinadiki, 1950-yillarda investitsiyalar aylanma yo'l bilan xususiy tadbirkorlikni kengaytirishga ishlatilardi.

Shunday bo'ldiki, u davrda yangi hukumat hech qanday davlat korxonasini xususiylashtirishga qodir emas ekan, aksincha, 1950-yillarda agro soha va energetika bilan bog'liq yangi iqtisodiy davlat korxonalari paydo bo'ldi. To'g'ri bu safar ulkan aksiadorlik jamiyati maqomida edi va ba'zida xususiy kapital jalb qilindi. Shunday qilib bu bosqichda davlat aktsiyadorlik jamiyatlari: PTT (pochta, telefon, telegraf) morexod banki, dengiz yetkazmalari, mamlaktda neft qazib olishni boshlagan Turkiya nefti, turizm banki va boshqalar paydo bo'ldi. 1950-yillarda Turkiya sanoatida qo'shma va xususiy korxonalar bir vaqtda rivoj topdi.

1953-yilda GEO o'z kapitali bilan barcha yirik portlarni boshqaruvi Turkiyaning davlat temir yo'llarini qo'lga kiritdi. 1954-yil tuzilgan "Turkiya nefti" davlat korxonasining 51 % aksiyasi g'aznada qolgani esa Etibank, Ish banki pensiya jamg'armasi nazoratida edi. Bir yildan so'ng tashkil qilingan shirkatning aksionerlari yirik davlat korxonalari bo'ldi. O'shanda 1955-yil havo yo'llari davlat boshqarmasi aksiadorlik jamiyatiga aylantirilgandi. Uning aksiyalari g'azna ixtiyorida edi, lekin ularni yuridik va jismoniy shaxslarga sotish mo'ljallangandi. Bunday misollar kam emas. Ba'zi GEOlarning esa mustahkamlash zarur edi, masalan, 1957-yil Etibank tizimidan ko'mir korxonalarini chiqarib yuborildi va yangi mustaqil GEO "Turkiya ko'mir shirkati" tuzildi. 1950-yillarda g'arb maslahatchilari taklifi bilan qishloq xo'jaligi sohasida ancha jiddiy o'zgarishlar o'tkazildi.

Hokimiyatdagi DP 1955-1957-yillarda agrar islohotga qo‘shimchalar qabul qilindi. Unda asosiy mavzu davlat fondidagi qarovsiz yerlarni taqsimlash va o‘zlashtirish borasida edi.

Turkiyaning agrar islohoti boshqa davlatlarga qaraganda ancha kichik bo‘lsa ham, katta yer egalariga tegib o‘tdi. Bunga agrar islohot fondi tashkil qiluvchi yerlar tahlili ham guvohlik beradi. 1950-1960-yillarda ya’ni DP hokimiyat tepasida bo‘lgan vaqtida bu fond quyidagi manbalardan tuzildi.

Turkiyada agrar islohotga asos qilib deyarli faqat davlat yer fondi olindi, xususiyl yerlarning qayta taqsimlanishi esa deyarli amalga oshmadi. Lekin baribir uning qishloqlarning feodal qatlamiga bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini sezmaslikni iloji yo‘q. Islohot ularning kapitalistik davrdan oldingi tuzilmalardan zamonaviy xo‘jalik shakllariga o‘tishlarini to‘g‘ri munozara yo‘li bilan emas balki, musodara qilish tahdidi bilan tezlashtirdi. Albatta, bu tahdid shubhasiz, pomeshchik qatlamini kapitalistik davrda qayta shakllanishini tezlashtiruvchi uyg‘onish nuqtalaridan biri edi.

Yer islohoti ma’lum darajada qishloqning boshqa bir qatlami – dehqonlarni o‘z ta’siriga olib o‘tdi va ularda kurashsiz mulkdor bo‘lib qolish borasida sarob uyg‘otdi. 1947-yildan islohot deyarli qilingandek ko‘rsatilgandi. 1960-yilgi davlat to‘ntarilishigacha dehqonlarga sotib olish sharti bilan 1937 ming *ga* bo‘sh va o‘zlashtirilmagan yerlar hisobidan maydon ajratildi. Undan tashqari qishloqlarning umumiy foydalanuviga 1440 ming *ga* yaylov va o‘tloqlar berildi. Bular sezilarli darajada noqulay va hosilga kirishi uchun katta mehnat va kuch talab qilardi. 368650 ta oila yer oldi (bu umumiy yer egalarining 12 % edi.), agar yersiz va kichik yerli dehqonlarni hisobga olsa (1952-yil qaydlariga ko‘ra qishloq aholisining uchdan ikki qismi), bu juda kichik ko‘rsatkich edi.

Davlatning qishloq xo‘jaligiga ko‘rsatgan asosiy yordami: mahsulotning bir qismini kafolatlangan narxlarda sotib olish, imtiyozli kreditlar, xo‘jalikni qulay sharoitlarda mashina va jihoz-anjomlar bilan ta’minlash edi. Shunday qilib, ish kredit masalasisiz amalga oshmas ekan, 1948-yildan boshlab Turkiya qishloq xo‘jaligiga marshall rejasi bo‘yicha yangi kreditlar kela boshladi. Traktorlarning sezilarli miqdordagi importi boshlandi, bu esa katta ko‘lamdagi o‘zlashmagan yerlarga ishlov berish imkonini yaratar edi.

1948-1965-yillarda to'g'ridan-to'g'ri qishloq xo'jaligiga ishlatilgan chet el yordami 586.2 mln dollarni tashkil qilardi va uning uchdan biri AQShga tegishli edi. Bu mablag'lar: xo'jalik binolari qurilishi, import va zararkunanda hashoratlar uchun kimyoviy ishlanmalarga, qishloq xo'jaligi mashinalari va ehtiyot qisimlarini fermer xo'jaliklari ish uslubini yaxshilashga, qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislarning tayyorlash va boshqalarga sarflandi.

Turkiya qishloq xo'jaligida traktor va boshqa mashinalarning qo'llashiga boshlashi texnik taraqqiyotni rivojlantirdi. Agrar 1948-yilga butun mamlakatda 2000 ga yaqin traktor bo'lgan bo'lsa, marshall rejasi ishga tushgan yillarning soni o'sishga qarab ketdi. Ularning o'sishi tezligiga qarab ketdi. Ularning o'sish tezligi taxminan bunday: 1958-yil 35 ming, 1956-yil 47 ming atrofida, 1960-yil 52 ming va 1970-yil deyarli 106 mingga yetdi.

Traktorlarning bunday darajada ishlatilishi ishlov beriladigan maydonlarning sezilarli oshishiga sabab bo'ldi, 1951-yil 15.5 ming ga trakto'rlarda 1.8 mingga 1970 yil 24.3 ming ga dan 3 ming ga, bunda yetishtiriladigan mahsulotlar va kimyoviy o'g'itlarga ham ko'rindi. 1962-1972-yillarda ularning qo'llanilishi 10 martagacha oshdi. Rasmiy statistik ma'lumotlar berishicha, 1950-1970-yillarda g'alla ikki barobar oshdi, shakar lavlagidan uch barobar, paxtadan ham uch barobar ko'p hosil olindi.

Shubhasiz, Amerikaning iqtisodiy yordami turk iqtisodiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Umumiy yakun ma'lum: mamlakat feodalizm qoldiqlari, shu qatorda davlat sektori tugatilishi, xususiy tadbirkorlik rivojiga sharoit yaratish va keyinchalik bozor iqtisodiyotiga o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga AQShning siyosiy strategik yordamlariga qaramay ham ular eksport orqali yaxshi foyda qildi.

O'sha davrlarda davlat kapitalining kelajak etatizmi turk va chet el nazariyotchilarining boshlarini qotirardi. Ko'zga ko'ringan turk iqtisodchisi Usmon Okyar shunday yozgandi: "Liberallashtirish bayrog'i DP tomonidan hukumat tepasiga kelgan vaqtdan 1946-yildan ko'tarildi va 1950-yilgi mustahkamlanishdan so'ng u siyosatni ichki tashqi savdoga jalb qilishga urindi, lekin 1952-yildan so'ng bu loyiha borgan sari surila bordi, davlat ishtiroki barcha sohalarda kerak bo'la boshladi, yangi GEOlar tuzildi. Liberal oqimlar o'zgardi, qonunchilikka ham munobat o'zgardi, ayniqsa, tashqi savdo chet el kapitali bo'yicha o'zgardi". Turkiyaning o'ziga to'q ekanligi va tashqi kapital

xavfi borasida g'oyalar yengillashdi. Shu sabab marshall rejasi bo'yicha iqtisodiy yordam yaxshi kutib olindi. So'z borayotgan davrdagi asosiy tijoriy hamkorlar borasidagi ma'lumotni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Turk manbalarida kelishicha 1970-yillarda iqtisoddagi umumiy tashqi investitsiya 25.4% ni tashkil qilardi. Taxmin qilish mumkinki, urushdan keyingi dastlabki yillarda bu ulush sezilarli darajada yuqori edi va uning asosiy qismini AQSh ta'minlardi. 1948-1967-yillarda importning o'rtacha foizi: 47% investitsion tovarlar, 40% xomash-yolar, 13% maishiy mahsulotlar, lekin 1953-yil maishiy tovarlarga bo'lgan ehtiyoj oshib ketdi va 25% foizga yetdi.

Shu yillarning o'zida Turkiyada tashqi kapital kirishi bo'yicha yangi tarixiy bosqich boshlandi: 1954-yil tashqi kapital va neft kengaytirish borasida qonun qabul qilindi. To'g'ri ularda hali foyda bo'yicha ko'plab cheklov bor edi. Haligacha g'arb davlatlaridan, ayniqsa, AQShdan olinadigan kreditlar va yordamlar (yiligacha 200-300 mln. dollar), nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va infrastrukturasi asosiy modernizatsiyasi asosiy manbasi bo'lib qolardi.

Marshall rejasi bo'yicha ajratilgan formalar har yili o'zgarib turdi. 1950-yillargacha bu yordam asosan qarzlarni hisobida taqdim qilindi. Bu Turkiyaning katta qarzigacha ishora qilardi. DP hukumati o'z hisobotlarida ta'kidlashicha ko'rsatilgan muddatda hokimiyat tepasiga kelgach, kelayotgan yordamni har yil oshib borishiga va uning 100% darajada beg'araz bo'lishiga erishgan. Lekin kechroq 1960-yil harbiy to'ntarishdan so'ng umumiy bozor bilan aloqalarning yaxshilanishidan so'ng beg'araz yordam yildan-yilga kamayib 0 ga tushib qoldi. Qarzlarga kelinsa, ularning uzoq muddatda qaytarish foizi 2.5 % ni tashkil qilardi.

Marshall rejasi bo'yicha Turkiyaga Amerikaning qishloq xo'jaligi mashinalari yetkazib berilgandi. Bular traktorlar, energetika va sanoat anjomlari, kemalar, kimyoviy moddalar, dori va boshqalar. Marshall rejasi bo'yicha ajratmalar Turkiya iqtisodining barcha sohalarida, katta loyihalarda, mavjud korxonalar ta'mirida, ularga ehtiyot qism yetkazishda faol qo'llanildi. Ko'rsatilgan yordam iqtisodning asosiy sohalarini: savdoda, sanoatda, infrastrukturada va qishloq xo'jaligi rivojida birinchi darajali tashkilotchiga aylandi. Uning asosiy qabul qiluvchisi davlat sektori, keyin xususiy sektor (avvalo Amerika hamkorligidagi) bo'ldi. Marshall rejasi katta ko'lamdagi investitsiyani mexanizatsiyaga, kam bo'lmagan darajada feodal tartibni saqlab

qolgan qishloq xo'jaligiga, energetikaga, yo'llar qurilishiga, tekstilga, shakar va boshqa qishloq xo'jaligi yo'nalishlariga ham kiritdi.

Ajratilgan yordamning deyarli 100 % darajada davlat sektoriga kelib tushishi Turkiyada o'ziga xos industriallashishni ta'minladi. Yordamning asosiy egalari GEO nazoratidagi mamlakatning yirik korxonalari – Etibank, Semurbank, temir yo'l, moliya vazrligi, sog'liqni saqlash, avtomobil yo'llarini boshqarish, davlat boshqaruvidagi katta sektorlar, masalan, bug'doy tijoratida monopoliyani ushlab turuvchi Ofis o'zimlik yog'i va shu kabilar. Bu yerda o'ziga xos oqim Ofis orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashish edi. Ularning kichik bir qismigina xususiy tadbirkorlikka yo'naltirilardi.

Qayd qilib o'tish kerakki, Turkiya noharbiy yo'llar bilan ozmuncha mablag' qo'lga kiritdi, avvalo, tashqi yordam agentligidan shuni nazarda tutish kerakki, ular Amerika yordamining bir qismini tashkil qilardi. 1948-1959-yillarda Turkiya qo'lga kiritgan yordamning 3/2 qismini to'g'ridan-to'g'ri harbiy yordam tashkil qilardi, shu tufayli Turkiya yarim milliondan ko'proq askar saqlash va tarbiyalash imkoniga ega bo'lishdi. Uning hududida NATOning harbiy havo va harbiy dengiz bazalari joylashgandi va raketa uchirish maydonchasi, radiolokatsion uskunalari va eshitish moslamalari o'rnatildi.

Iqtisodiy yordamning harbiy jihatdan Turkiya NATO aloqalari bilan uzviy bog'liq. Avval boshdan NATOning ba'zi a'zolari Turkiyaning bu tashkilotga kirishiga qarshi edilar. Bunga Turkiyaning geografik joylashuvi bahona qilingandi. Agar Atlantika ittifoqi Turkiya qo'shilishi bilan kattalashadigan bo'lsa, ularning himoyasi shunchaki ilojisiz bo'lardi. Shu vaqtning o'zida Amerika Turkiyani qabul qilishga tayyor edi, chunki u yagona SSSR bilan chegaradosh davlat edi va SSSR chegaralari atrofida harbiy baza qurish imkonini yaratardi. Turkiya bu shartlarga ikki yil vaqt ketkazdi va maqsadiga erishdi.

Turkiyaning g'arb mamlakatlari bilan harbiy-siyosiy ittifoqida bazi muhim joylarini aytib o'tish kerak. Masalan, 1950-yildagi iyul jo'natish aksiyasi tez orada Turkiyaning katta harbiy yo'qotishiga olib keldi, lekin bu Turkiyaning NATOga a'zolicini tezlashtirdi. Sovet rasmiy gazetasi "Pravda"ning yozishicha, 1951-yil dekabrda "O'tgan yilning noyabr oxirida koreys xalq qo'shinlarining hal qiluvchi jangi bo'lib o'tdi va xitoy ko'ngillilari turk brigadasini tor tog' yo'lida deyarli yakson qilishdi, bu birinchi, lekin ularning koreyadagi oxirgi qora nuqtasi emasdi. To'rt minglik armiyani deyarli uch marta to'ldirishga to'g'ri keldi.

Biroz keyinroq 1955-yil Turkiya mintaqaviy Yaqin Sharqdagi SENTO harbiy-siyosiy blokiga a'zo bo'ldi. 1958-yil Iroqning Paktdan chiqib ketishi bilan SENTO ning bosh qarorgohi Anqaraga ko'chirildi.

Turkiya 1956-yil anglo-franko-isroil Misrga bo'lgan agressiyasida qo'llab-quvvatladi. Boyar va Menderes AQShning ba'zi arab malakatlari bilan bo'lgan mojarosida qo'llab-quvvatladi. 1948-1959-yillarda Turkiyaning Amerikadan olgan 2.9 mlrd. dollarlik katta qismi to'g'ridan-to'g'ri harbiy yordam edi. Butun infrastruktura NATO harbiy strategik rejalariga mos ravishda yangilanib bordi.

Turkiyaning rasmiy statistikasi bo'yicha 1965-yilda Turkiyada yashovchi chet elliklarni asosan mehmonlar tashkil qilardi. Ular AQSh dan bo'lib, 26.4 ming kishi edi. Ular, asosan Istanbul, Samsun, Trabzon va boshqa katta shaharlarda o'rnatilgan harbiylar edi. Ular Qora dengiz, Zonguldak, Sinop, Samsun, Trabzon shaharlari chegarasidagi xavfsizlikni taminlashardi. Bularning bari uning qo'shnilari, avvalo, Sovet Ittifoqiga qarshi edi. Turkiyaning SSSR bilan notalar almashinuvida ta'kidlagan, u hech qachon o'z hududida chet el bazalari bo'lmasligiga yo'l qo'ymasligi haqidagi so'zlari yolg'on bo'lib chiqdi.

Tan olish lozim, 1940-yil oxirlari va 1950-yilllar turk va SSSR o'rtasidagi eng mojaroli va qaltis davr edi. Sovet propagandasi Turkiyani doimo, Germaniya tarafdori bo'lganini endi esa Amerikaning vassalligiga aylanib, uolstrit merosi bo'lib qolganini bong urardi. Turkiya ham jim o'tirmasdi, ularning kitob do'konlari "qizil xavf" va "sovet imperializmi haqidagi adabiyotlarga to'lib ketgandi. Antisovet harakatlarining birinchi qatorida panturkistlar turardi.

1953-yil Stalin vafotidan so'ng yangi Sovet hukumati G'arb bilan aloqalarni yaxshilash yo'lini qidira boshladi. Shu qatorda Turkiya bilan ham aloqalarni yaxshilash yo'li qidirila boshlandi. 1953-yil 30-mayda Sovet hukumati tomonidan Turkiyaning Moskvadagi elchisiga murojaatnoma topshirildi. Lekin bu murojaatga darrov javob berilmadi, u bir qancha muddat javobsiz qoldi. Amerika yordami boshlangandan so'ng turklar arablarning ozodlik kurashiga yordam qo'lini cho'zishni to'xtatdilar va Isroilni mustaqil deb tan oldilar, hatto turk yahudiylariga Isroilga ko'chib o'tishga ruxsat berdilar. Turkiyaning boshqa xatosini esa u Osiyo va Afrikaning o'z ozodligi uchun kurashayotgan davlatlariga siyosiy yordam ko'rsatmaganligida deb hisoblardi. Masalan, Turkiyaning 1949-yil yanvarida Indoneziyaga yordam konferensiyasida qatnashmagani, hukumat buni u mintaqa-

ning Turkiyadan uzoq ekanligi va Turkiya Yevropa davlati ekani bilan izohlashdi. U yerga hatto kuzatuvchi ham jo‘natilmadi.

Demokratik partiya boshqaruvi yillarida JXP tomonidan boshlagan mamlakat hayotida diniy faktorni rivojlantiruvchi yangi tadbirlar qabul qilish davom etdi: azonni arabcha o‘qishga ta’qiq bekor qilindi. Dinshunoslik darslari o‘zining majburiyligi saqlagan sari o‘quv tizimining ajralmas qismiga aylanib qoldi. Imom xatiblar uchun Anqara, Istanbul, Marash, Konya, Yaysarida yangi maktablar ochildi va birinchi bor dinshunoslik darslari o‘rta maktab o‘quv tizimiga kiritildi. Bunday holat Turkiya qurolli kuchlari boshqaruvchilarida yanada ko‘proq norozilik uyg‘otdi. Harbiylarning bir qismi amin ediki, DP siyosati Otaturk prinsplarini oyoqosti qilayotgandi, armiya-ning respublika shakllanishidagi hal qiluvchi ahamiyatini tan olmayotgandi, faqat yangi boshqaruv sinfi manfaati uchun ishlardi.

O‘sha yillarda jamiyatni sosial muammolardan chalg‘itishning yana bir yo‘li o‘ta kuchli ruhdagi milliylik – panturkizm edi. Mamlakatda turk bo‘lmagan aholiga nisbatan yangi dushmanchilik o‘choqlari paydo bo‘ldi, ayniqsa, tadbirkor qatlami orasida. Ulardan biri 1955-yil 6-7-sentabrda Istanbul, Izmir, Anqara shaharlarida shaharning yunon, arman, yevropalik aholiga qarshi avj oldi. R.P.Kondakchi yozganidek, to‘palon Menderes va Zorlu tomonidan uyushtirilgandi. 1955-yil 24-avgustda Menderes Istanbulda “Liman” restoranida yunonlarga qarshi otashin nutq so‘zladi. Sentabr boshida u “Kipr – Turkiya” jamiyati rahbarlari bilan uchrashdi. Menderes Kipr bo‘yicha London konferensiyasi vaqtida Turkiya pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun jamiyat faoliyatini faollashtirishni so‘radi. Dasturga bevosita Salonikdagi turk konsulxonasi sifatida faoliyat yuritgan Otaturk uy muzeyining portlashi sabab bo‘ldi. Salonik konsuli Bali va uning yordamchisi Chetiner bino ostiga bomba qo‘yib uni portlatishdi va aybni yunonlarga ag‘darishdi. Bu xabar, buni sabrsizlik bilan kutayotgan va dasturlarida joy ushlab turgan kechki gazeta va eshittirishlar orqali mamlakatlarda bo‘ylab yashin tezligida tarqadi.

Ikki hafta mobaynida yigirma ming kishilik olamon Istanbul va Izmirda yunonlar, yahudiylar va armalarning do‘konlarini talashdi. 73 ta cherkov, ikkita yunon ibodatxonasi yoqib yuborildi. Yunon patriarxlarining qabrlari ochildi, ularning suyaklari esa Gretsiya tomonga qarab otildi. Shuningdek, xristianlarning Shishli qabiristoni ham oyoqosti bo‘ldi va 24 ta yunon maktabi buzildi. Armanlarga ham

sezilarli zarar yetkazildi. Arman patriarxi binosiga hujum qilindi, bir necha cherkov va 8 maktab buzildi. Shu qatori olamon yevropa sinagogasiga ham hujum qildi va bosh ravvin binosiga ham yetib bordi. To‘palon vaqtida 3 kishi o‘dirildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, olti yuzta odam yaralangan. Umumiy yetkazilgan zarar 250-300 mln. lira miqdorida edi, lekin Turkiya hukumati buni 69.578 mln. lira miqdorida deb ko‘rsatishdi. Bu to‘palon uyushtiruvchilari Menderes hukumati esa kommunist deb e’lon qilindi.

Olamon o‘sha davrda milliylik ruhi bilan yo‘g‘rilgan “Kipr Turkiyaniki” shiori bilan chiqishgandi. Jamiyat orasida bosqinchilik chiqishi atayin uyushtirilgan degan fikr paydo bo‘ldi, chunki ma’sul organlar ishga darrov aralashishmadi.

Sezilarli harbiy xarajatlar, 1950-yillardagi Turkiyani AQShga harbiy va iqtisodiy qaramligi, yuqorining yirik turk burjuaziyasi va pomeshshiklari tomonidan egallanishi inflyatsiya, qimmatchilik, ishsizlik kuchayishiga olib keldi. M.Singer o‘sha yillar monitoringini quyidagicha tasvirlaydi: “pul massasi yiliga o‘rtacha 19.2%ga shunda inflyatsiya 10.5% edi, qolgan 6% haqiqiy iqtisodiy o‘shish, 0.7% statistik xatolik “. 1946-1952-yillarda yillik narx o‘shishi 2.2% , keyingi 1953-1959-yillarda o‘rtacha yillik narx o‘shishi 17% edi. M.Singerning aytishicha, DP davrida inflyatsiya Turkiyaning asosiy muammosiga aylandi.

“Chaqiruv bir necha marta aytilib, keyin bu murojaat uzatildi. Inqiroz sababli bu fojiali voqeaga bizning demokratlarimiz shu inqirozga tushib qolganligi uchun deb baholandi. Shuningdek, fuqarolar urushi boshlanmasligi uchun turk harbiy kuchlari bu hokimiyatni o‘z zimmasiga oldi. Bu murojaatnomada harbiylarning qo‘llab-quvvatlanishi aytili. Yakuniy qism murojaatnomasi Turkiyaning qo‘shinlari va butun dunyoga aytili. BMTga ishonch prinsipini Otaturk tomonidan tasdiqlangan edi. Biz hamma qo‘shnilarimiz va burchlarimizga sodiqmiz. Biz NATOga ishonamiz va a’zo bo‘lamiz. SENTOga kiramiz”. Shundan keyin majlis tarqatilishi e’lon qilinib, hokimiyat qo‘lga olinib va siyosiy faoliyatni cheklab qo‘yildi.

Tunggi qo‘zg‘olonda Adnan Menderes va moliya vaziri Hasan Po‘latkan eski shaharda tanishdi. Anqaradagi voqealar paytida, ertalab tongda ular Kutahyaga kirib kelishdi. Yo‘lda harbiy samolyotlarni ko‘rishdi va bu samolyotlar Bosh vazir mashinasi ustidan uchib o‘tdi. Menderes Kutahyada hokimiyat ag‘darilishini bildi. Shu zahoti

Menderes gubernatorining uyiga bir guruh ofiserlar kelib uni qo‘lga olishni buyurdi. Sobiq davlat arboblari soqchilar nazorati ostida Eski shaharga, undan keyin Po‘latkan bilan birga Anqararga olib ketishdi. 27-may 16.00 da Turkiya radiosida general Jamol Gursel takroran harbiylarning shu voqeda ishtirok etganligini tushuntirdi.

1960-1970-yillarda mamlakadagi harbiy tartib xususida

1960-yildagi harbiy to‘ntarilish oqibatida Otaturk prinsiplariga qaytib rahnamolikdagi armiya davlat to‘ntarilishini amalga oshirdi. Amaldagi hokimiyat qamoqqa olingach, generallar ularning saflarini mustahkamlashni favqulodda amalga oshirdilar. 1960-yilning noyabrda tubdan bo‘linish tarafdorlarini, jumladan, A.Turkesh, 14 ishtirokchi mavqeyidan ozod etildi. A.Turkesh 1963-yilning fevral oyigacha Dehlida turk elchisi sifatida faoliyat yuritdi.

Qonunga binoan ovoz berish huquqini 12735 ming kishi oldi, referendumda 10323 ming saylovchi ishtirok etdi: konstitutsiya tarafdorlari 6349 ming, qarshilar – 3934 ming. Ovozlarni taqsimlash shuni ko‘rsatdiki, asosan Turkiyaning g‘arb va shimolidagi viloyatlarda sobiq DP tarafdorlarining kuchli ta‘siri sezildi.

1961-yilgi konstitutsiya avvalgi 1924-yilgi konstitutsiyadan tubdan farq qilardi. U o‘ziga davlatdagi o‘zgarishlarni aks ettirardi, u siyosiy erkinlikdan foydalanishga qisman bo‘lsada, yo‘l ochib berdi.

Yangi konstitutsiya Turkiya respublikasini milliy demokratik sotsial huquqli davlat deb tanitdi, siyosiy partiyalar va boshqa demokratik erkinliklarni tashkil etish huquqini berdi.

Zamonaviy respublika demokratik boshqaruv usuli joriy etildi va qonun qabul qiluvchilarning, ijro etuvchilarning va sud hokimiyatining erkinligi ta‘minlandi. Konstitutsiya aslida demokratik emas edi. Masalan, milliy ozodchilikni muammolarini hal qilmas edi. Asosan, kurdlarning siyosiy islomga va qonuniy faoliyatga yo‘l ochardi. Shu bilan birga unga aytib o‘tilgan huquq va erkinliklar davlatning demokratik kuchlariga ba‘zi bir erkinliklarni berar edi. Asosan, quyidagi prinsplar ta‘kidlab o‘tildi: ilm olish huquqi, diniy erkinlik. 19-bandida diniy hissiyotlarni siyosiy va shaxsiy maqsadlarda ekspluatatsiya qilishni man qilardi.

Manaviy rivojlanayotgan Turkiya davlatining siyosiy prinsplari alohida ta‘kidlab o‘tildi va avvalo, davlatning siyosiy-iqtisodiy shakllanishiga ahamiyat berildi.

Turkiyadagi ommaviy huquq tadqiqotchilarining fikr-mulohazalariga qaraganda, konstitutsiyaviy holatda “Ayrim mulkchilikka asoslangan, belgilangan iqtisodiy tuzilma va uning mustaqil faoliyati, shu bilan birga bu tuzilma yangi kapitalistik model barham beruvchi muayyan prinsiplarni tashkil qiladi va tartibga soladi. Konstitutsiyaning 36-moddasiga ko‘ra 1961-yilda shuni e‘lon qilindiki, “Har kim meros qoldirish va merosga egalik qilish huquqiga egadir”. Qayd etilishicha, davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi xususida belgilab qo‘yilgan maxsus cheklovlar alohida qayd etilmagan, 53-moddada esa iqtisodiy me‘yorlar va ijtimoiy davlat majburiyatiga muvofiq “iqtisodiy taraqqiyot va moliyaviy manba” belgilab qo‘yildi. Tan olish kerakki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga keng aralashuv huquqi, Turkiyada rivojlanish darajasi g‘arbiy burjua tizimiga ega bo‘lgan mumtoz shaklidan farq qiluvchi eng muhim dalil ekanligi shubhasiz.

1961-yilgi konstitutsiyaga asosan, Turkiya ijtimoiy qatlami barcha darajadagi amaldor va byurokratlar talablarida ana shunday e‘tiborlik jihatidan muhimlik ta‘kidlangan. Ushbu hujjat davlat ma‘muriyatining turli xil pog‘onalaridagi holatni va davlat xizmatchilarining maqomi va javobgarligini turli xil holatni o‘z ichiga oladi, maxsus turdagi jamiyat iqtisodiy tashkiloti xizmatchilariga tegishli asosiy maydon tuzildi.

1961-yil 24-sentyabrdan mamlakatda rasmiy saylov ishlari boshlandi, parlament saylovlari uchun quyidagi 4 ta partiyaqa ishtirok etishga ruhsat berildi. Bular: Jumhuriyat Xalq Partiyasi, Adolat Partiyasi, Yangi Turkiya Partiyasi va Respublika Milliy dehqonchilik partiyasi edi. Qolgan partiyalar o‘zlarining saylovoldi yig‘ilishlarini kerakli ko‘rinishda tashkil eta olmadilar. Saylov natijalariga ko‘ra, Milliy Assambleyada JXP 173 o‘rin oldi, Senat esa 36.

DP ning davomchisi sifatida e‘tirof qilingan Adolat partiyasi quyi palataga 158 ta, yuqori palataga esa 70 ta o‘rinni egalladi. Qolgan o‘rinlar bir muddat bir amallab kun kechirgan va keyinchalik boshqa partiyalarga aylangan partiyalar o‘rtasida bo‘lib berildi. Partiyalar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar uzoq vaqt ittifoqchi hukumatni shakllantirishga yo‘l qo‘ymadi. Shuningdek, qiyinchilik vaziyatlari, prezident va boshqa mamlakt rahbarlarining saylovi to‘g‘risidagi aloqalar. Biroq, keyin Turkiyaning harbiy prezidenti J.Gursel bo‘ldi, hukumat tepasiga esa JXP ning rahbari I.Inyonu tayinlandi.

Harbiy elita va g'arbiy hamkorlar nazorati ostidagi jamiyatni rivojlantirish yo'llarini qidirish ishi ichki qarama-qarshiliklarning va ichki ziddiyatlar sovuq urush sharoitida bo'lib o'tdi. Siyosiy kurashlar urbanizatsiya, kichik burjuaziya, ishchi byurokratiyaning o'zining ta'sirini yo'qotishdan qo'rquvi g'arbiy konsepsiya va ommaviy madaniyat, oddiy dindorlarning ta'siri ostidagi qarama-qarshiliklar tufayli keskinlashdi. Bunday holat turk jamiyatida butunligicha 1960-yillarning o'rtasida namoyon bo'ldi. Birinchi koalitsion hukumatga JXP va APning namoyandalari kirgan, uning dasturida "hukumatning maqsadi – ozodlik sharoitida tez ko'tarilishni ta'minlash va yaqin kelajakda peshqadam mamlakat darajasiga yetish", – deb aytilgan. Bu maqsadga yetish uchun iqtisod, davlat va xususiy sektorlarning ham ichki jamg'arish, ham tashqi kapital hisobiga kapitallikni ko'rib chiqildi. Hukumat dasturining ichki siyosat doirasi hukumat Turkiya-ning g'arbiy blokka kiradigan mamlakatlar bilan aloqasini rivojlantirish uchun imkon qadar jadallashtirishi aytildi.

1965-yil oktyabrdagi ma'murlar fuqaroligi ikkinchi saylovida AP majlisida (450 dan) 240 o'rin olib, katta muvaffaqiyatga erishdi va S.Demirel boshchiligida bir partiyali hukumat tuzishdi. JXP 134 o'rin oldi, qolgan o'rinlar mayda partiyalarga taqsimlab berildi. 1960-yilning mart oyida har ikkala palataning qo'shma majlisida, bunda xasta J.Gurselning mansabi almashtirilib, turk armiyasi bosh shtabining boshlig'i Javdat Sunay Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi.

Adolat Partiyasi burjuaziya, pomeschik va o'rtahol dehqonlarning ovozi bilan saylovda g'alaba qozondi. Bu dasturning asosiy vazifasi: shaxsiy majmuani rivojlantirish, chet el investisiyasini rag'batlantirish va o'rtahol dehqonlarga kredit berish kabilar bo'ldi. Bunday paytda Adolat partiyasining asosiy raqobatchisi bo'lgan Jumhuriyat Xalq partiyasi ham o'zining qat'iy o'rnini ushlab turgandi, kamsitilishi bilan o'zining shiorida butun turk jamoasi nomidan o'z fikrini bildirmoqchi bo'lgan edi.

Bu partiya 1965-yilda birinchi parlament saylovida ishtirok etdi. Turkiya Ishchilar partiyasi 15ta joyda faoliyat yuritganligi tufayli, ular parlamentda o'z fraksiyasiga ega bo'ldi. Turkiya Ishchilar partiyasining taniqli arboblari Turkiya ijtimoiy harakati a'zosi Mehmet Ali Aybar va Behije Boran edi.

Respublika dehqonlar milliy partiyasi 11ta joyda faoliyat yuritgan va majlisning o'ng qanotidan mustahkam o'rin egallagan. 1965-

yilning avgust oyida sobiq A.Tyurkesh qaytdi va o'lka harakatiga boshchilik qildi.

Turkiya rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 1965-1971-yillarda uning respublika tarixidagi eng yorqin davrlardan biri Adolat Partiyasi bo'lgan davr edi. O'sha paytlarda iqtisodiy pasayish, pulning qadrsizlanishi, erkinlikning himoya qilinishi, jamiyat tashkilotining faoliyati mustaqil tashqi siyosat bo'lgan.

1960-yillarning yarmidan Turkiyada siyosiy vaziyatda e'tiborga arziydigan biror tarixiy yangilik ko'zga tashlanmadi. Demirelning boshqaruv davrida mamlakatda avvalgiga qaraganda noodatiy o'zgarishlar yuz berdi. Bir necha yil avval I.Inonu davrida Turkiyadagi "Jumhuriyat" gazetasida paydo bo'lgan sotsializm haqidagi maqolaning muallifi, gazetaning mas'ul muhariri sud qilindi. Besh-olti yil o'tganidan so'ng Demirel davrida sotsializm so'zi zamonaviy so'z bo'lib, sotsialistik kitoblar o'quvchilar tomonidan katta qiziqishga sabab bo'ldi. Marks, Engels, Lenin asarlarining turk tilidagi tarjimalari paydo bo'ldi.

1967-yilda Turkiya ijtimoiy-islohiy konfederatsiyasi Turkiya kasaba ishchilari inqilobi Konfederatsiyasini tashkil qildi. 1967-yilning iyun oyida TBMM ishchilar harakati bosimi ostida yangi mehnat qonuni qabul qilindi va unda ba'zi bir ishchilar doirasi ko'rib chiqildi. Ish tashlashda ishchilar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy talablarni ham o'rtaga tashladilar.

Bu inqilobdan chiqish yo'lini qidirgan JXPning o'sha paytdagi yetakchisi I.Inonu "so'lchi markaz" shiori ostida tashkil qilingan partiyada so'l guruhni ushlab turishga majbur bo'ldi. Bu partiya qanotlari B.Ejevit boshchiligida tashkil qilindi. 1966-yilda JXPning 18-seydzida Ejevit gruppasi mahalliy partiyaviy tashkilotdan yordam oldi, Ejevitning o'zi esa partiya raisi etib saylandi. Bunday muvaffaqiyatdan so'ng Ejevit "so'lchi markaz" shiorini saqlab qolish to'g'risidagi bahsda faol qatnashdi. Ba'zi huquq organlarida nashrga chiqqan Ejevitning so'zlari hatto "sotsialistik" kabi baholandi.

Yevropa imkoniyatlari 1960-yilda qayta Turkiya tashqi siyosiy yo'li bilan AQShdan to iqtisodiy jamiyatiga ega bo'lgan Yevropaga cha yordam berdi. Turk xalqi shafqatsiz, Amerika ishlaridan anchagina charchagan edi va uning kelajagi endilikda Yevropa urushidan keyin oyoqqa turgan YeS bilan bog'liq degan xulosaga kelinadi. Turkiyaning yevropalik hamkorlari o'zlarining tarafdorlari bilan 1962-

yil iyulda Turkiyaga yordam ko'rsatish to'g'risidagi qarorni qabul qilidilar. Erxon Benerning yozishicha, bu o'lchov Turkiya aloqalarida munosib kredit siyosatining yordami bo'lishi kerak, moliya tezligida uning iqtisodiy o'sishi bo'lishi kerak. Bu muzokaralar 1963-yil 12-sentabrda Anqarada imzolandi. Birlashma haqidagi kelishuvda esa 1964-yil 1-dekabrda bor kuch kuch bilan nutq so'zlandi. Anqara shartnomasi eng muhim turk-yevropa hamkorlik hujjatlar ba'zasi bo'lib qoldi. Bunda Turkiya va YeSning birlashish maqsadi aniqlangan va tarafdorlari orasida o'zaro ta'sir ko'rsatgan.

Ayrim vaqtlarda tavsifnoma uchun, majburiy ravishda tuzilgan rejani o'rnatish uchun davlat iqtisodiyot sektorining mavjudligi tufayli Turkiya sharoitida rejalashtirish xolisona bo'lishi mumkin edi. Ayni vaqtdagi va zarur bo'lgan mablag' davlat muassasalaridan keyingi asosiy o'rinni egalladi.

1960-yillarning boshlarida Turkiyaning tashqi dunyo bilan savdo munosabatlari import tizimi asosida shakllantirildi, shu tufayli masalan, ishlab chiqarish sanoati ko'rsatkichlaridan foydalanish yo'lga qo'yildi. Avvalgidek, tashqi savdo taqchilligi yechilmaydigan muammo bo'lib qolaverdi, u turk lirasining qadrsizlanishiga bo'lgan davriy munosabat sabablaridan biri bo'lib qolaverdi. Turkiya iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyasining kirib kelishi unchalik katta emas edi, yiliga 10 mln. AQSh dollaridan oshmas edi. Bevosita moliyaviy yordam boshqa ko'pchilik xorijiy mamlakatlarnikidan yuqori turardi.

O'zining g'arbdagi hamkorlari bilan birgalikda hukumat bu shaharlarda shu yillarda yuzaga kelgan yetishmovchiliklarni hal qilish usulini topishga harakat qilishar edi. Davlat sektori endi iqtisodiy rivojlanish lokomotivi vazifasini bajara olmas va bajarishi kerak emasdi. O'sha vaqtda hatto eng katta mamlakatning xususiy kapitali ham bu rolni bajara oladigan vaziyatda emasdi. Hech bo'lmaganda og'ir sanoat, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning muhim sohalarini hal qila oladigan holatda emasdi. 1960-yilda kuchli chaqiruvlari bilan turk burjuaziyasiga murojaat qilgan mashhur sotsiolog, bozor iqtisodiyotining bosh rahnamosi bo'lgan Ahmet Hamdi Bashar o'zi chop ettirgan "Barish dunyalari" jurnalida hokimiyatda saqlanib kelayotgan byurokratiya hukmronligiga chek qo'yishga qaratilgan, "ekilmaydi ham, o'rilmaydi ham" shiori bilan jamiyatning siyosiy va iqtisodiy hayotida o'zining rahbarligini o'rnatdi. Biroq, kirib kelayotgan yanada shiddatli rivojlanish Turkiya hukumatining aynan

“Yevropadagi aloqa yo‘li”da davlat sektorini tarqatib yuborgan iqtisodiyotga davlat aralashuvini saqlab qolish kerakligini aytib turar edi. Turk iqtisodchilari, davlat vakillari, hatto davlat sektori korxonalari, eng kattalari ham YSdagi Yevropalik ishlab chiqaruvchilar raqobatiga bardosh bera olmasliklarini tan oldilar.

Ayrim qismlarda hatto jahon xo‘jalik miqyosida o‘zining nisbatan kam quvvatligi bilan ajralib turardi. Mamlakat sarmoyasining umumiy sarmoya keltiruvchi yo‘lga o‘tkazishdagi harakatlari, ya’ni qora va rangli metallurgiyani, neftni qayta ishlash, neft himoyasi, energetika o‘tkazish muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Lekin shunga qaramay, ko‘rsatilgan yillarda iqtisodiy sarmoya keltiruvchilar sektorlarining yuksalishi ortdi: ayrim katta banklarning kelib chiqishi 1940-1950-yillardagi yer islohotlari ta’minlanishining sekinlashdi, lekin yildan-yilga ishchi kuchi va agrosferada tovar doimiy o‘sib bordi. Xususiy sarmoya o‘sha paytda tan yig‘ilib boradigan kapitaldan voz kechmasdan, sotuv va ketma-ket qurilishlar, davlatga yo‘naltirilgan tekstil, oziq-ovqat va avto qopqoqlarni ishlab chiqarishni, maishiy texnika va g‘arbiy belgili radiotexnikalari va boshqalar rivojlandi.

Turkiyaning tashqi siyosatida ko‘rinib turgan keskin o‘zgarishlar 1964-yilgi Kipr o‘zgarishlari davrida mamlakat atrofidagi ishonchli hukmronlarning stress holati natijasida kelib chiqdi. Yunon va turk aholi o‘rtasida navbatdagi qurolli to‘qnashuvlar vaziyat talabi bilan yomonlashgan paytda Kipr, Gretsiya va Turkiya mustaqilliklariga qarshi xoinona dushmanlik bilan NATOning ittifoqchisi ikki mamlakat bir-biriga qarshi urush uchun tayyorgarlik boshladi. Bu Amerika NATO rahbarlarini kuchli vahimaga soldi. 1964-yil 4-iyunda AQSh Prezidenti hayrat va sarosimadagi turk rahbarlarini tor-mor qilgan ikki tomon o‘rtasida murosa foydasiga shunday bir bahs bilan murojaat qilib, I.Inonuga shaxsiy noma yubordi. Jonson shunday yozadiki, Sovet Ittifoqining to‘qnashuvlarida Amerika Qo‘shma Shtatlari, uning sodiq ittifoqchisi yordamga kelmagan deb boshlangan muqaddimada gap: “Bizning NATO ittifoqchilarining ma’qullashi va to‘liq roziligi tasdiqlangan holda boshlangan Turkiya harakati” haqida ketadi. Bu kuchli "bahs" Kiprni portlatishdan tashqari Turkiya qurolli kuchlariga ham ta’sir qildi, ular na Kiprga va na Gretsiyaga hech qanday qarshi harakat qilishmadi.

Hukumat koalitsiyasi va siyosiy kurash

1960-yilning soʻngida oʻlkada talabalar namoyishi keng quloqch boʻldi. Bu harakatning birinchi toʻlqini 1968-yilning iyunida talabalar gʻalayonining toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsiri ostida Fransiyada koʻtarildi. 1968-yilning 10-iyunida Anqara universitetining til, tarix va geografiya fakulteti talabalari fakultet binosini egallab, oʻlkada oliy taʼlim islohoti haqidagi talabnomani koʻrsatishdi. Bu harakat Anqaradagi boshqa oliy taʼlim muassasalarida shunga oʻxshash voqealarning sodir boʻlishiga turtki boʻldi: 11-iyunda talabalar Anqara universitetining huquqshunoslik fakultetini egallashdi, 13-iyunda esa texnika fakulteti talabalari mashgʻulotlarni toʻxtatdi. Bosh vazir Demireleya parlament kengashidagi partiyalar guruhining “xavfli holat” haqidagi haqqoniy qarorini tan olishga majbur boʻldi. Bu vaqtda Anqaradagi talabalar harakati goh bosilib, goh keng tus olib, doimiy oʻsishda boʻldi.

Harakat Oʻrta Sharq Texnika universiteti, Xojatpepa universiteti va Anqara Politexnika universitetiga ham yoyildi. Talabalar universitet binosini egallab, mashgʻulotlarga qatnashishmadi. Ular boshlagan shiorlar soni ham kengaya bordi. Namoyish koʻpgina Amerika va hukumatga qarshilarning eʼtiborini jalb qildi. 1970-yilda antiamerika kayfiyatidagi talabalarning namoyishi saqlab qolingan edi. 1970-yilning 29-aprelida anqaralik talabalar 1960-yilgi harbiy oʻzgarishlarning 10 yilligi munosabati bilan talabalik namoyishini oʻtkazish uchun shahar markazidagi Qizil Oy maydonida norozilik chiqishini oʻtkazdilar. Oʻsha kuni “Yangi milliy ozodlik kurashi”ning yosh kurashchilari va shahidlarni xotirlash kuni deb eʼlon qilindi. Norozilik chiqishi “Mustaqil Turkiya”, “Demokratiya” shiorlari ostida boʻlib oʻtdi. 1970-yilning 29-aprelida Yosh Milliy Turkiya Ittifoqini boshqarish antikommunistik ruh va millatchilikni qoralovchi shiori ostidagi ichki norozilik kayfiyatini shakllantiruvchilar qoʻlida edi. 25-may kuni Anqara universitetining huquqshunoslik fakultetida fakultet talabasi “qonunan” oʻldirilgan edi. Uning dafn marosimi poytaxtdagi Otaturk xotirasiga bunyod etilgan Zafar maydonida uchta universitet talabalarining ommaviy noroziligiga aylanib ketdi.

1969-yil 16-fevral kuni AQShning 6-floti va imperializmga qarshi eʼtiroz bildirgan Mustafo Kamol sharafiga namoyish tashkil qilindi. Tayoqlar bilan qurollangan soqolli namoyishchilar miting uyushtirgan kunda Turan Erdogan va Turgut Aymach oʻldirildi va oʻn kishi yarador boʻldi. Bu kun “qonli yakshanba” nomini oldi.

Ushbu dalillar DP monopoliyasining tugashiga olib keldi. 1960-yil o'rtalarida o'zining siyosiy partiyalarida radikallar-panturkistlar va islomchilarni rasmiylashtirish boshlandi. Biz yoshlar milliy radikal faoliyatini 1960-yilgi keskinlashuvga qadar belgilagan edik. Nima bo'lsa ham, turk elitasi xalq talabi bilan tartibga solinmadi, u hukm surishi kerak bo'lgan yevropalashuvning keyingi boshqichi bo'lgan hukm, sovuq urushdan keyin judayam tez oshkora chaqirila boshlandi. Taqsimotda berilgan Lozan shartnomasida biz xalq talabiga binoan Turkiya xalqaro majburiyatlari haqida yozgan edik. Turkiyaning bunday majburiyatlari mutlaqo bajarilmasligi aniq edi.

O'sha yillarda tashqi mustamlakachilik kurashlari ikki yuqori nu-fuzli Nihal Otsiz va Alparslon Turkeshning bunday harakatlari birla-shuvi ostida o'z o'rnini mustahkamladi. Turkiyada N.Otsiz (1905-1975-y.) "o'zining tashqi mustamlaka kurashida musulmon element-lari yo'q qilib yuborilgan"ligini ta'kidlash bilan birga "turonizm yetakchilaridan biri" sifatida e'tirof qilindi.

Uning faoliyati adabiy asarlar, jurnal maqolalarida o'z qarash-larini targ'ib qilgan davr, ya'ni 1930-1950-yillarga to'g'ri keladi. U matbuotda o'zining demokrat yozuvchi Sabohatdin Aliga qarshi chiqishlari bilan mashhur bo'lgan.

Yana bir millatchi A.Turkesh edi. U Turkiyaga qaytishi bilan ra-dikal millatchilar, panturkistlar, panturonistlar orasida faol siyosiy rahbar sifatida kurashlarda qatnashdi va oxir-oqibat 1967-yildan bosh-lab to umrining oxiriga qadar mamlakatning ko'zga ko'ringan siyosiy rahbarlaridan biri bo'lib qoldi. 1969-yilda u Adanadan deputatlikka nomzod bo'ldi, 1975-1977-yillardagi saylovlarda partiyasining g'ala-basidan so'ng, bosh vazir o'rinbosari va davlat vaziri lavozimi darajasiga erishdi. Panturkizm tarfdorlari kommunizm va sovetizmga qarshi targ'ibotlari sababli, alohida ajralib turishar edi va bu narsa jinoiy javobgarlikdan qutulib qolishlariga sabab bo'lar edi. Turkiya uchun doimiy ravishda xavf solib turuvchi Rossiya millatchi radikallar uchun kommunizmga qarshi ashaddiy dushman bo'lib qoldi.

Yangi konstitutsiya qabul qilinganidan keyingi vaziyatni pantur-kist guruhlar o'z siyosiy partiyasini tuzishga qulay vaqt deb bildilar. Turkesh 1965-yilda Dehlidan qaytganidan so'ng, uning yaqin taraf-dorlari Respublika dehqonlar milliy partiyasi boshqaruvini nazoratlari ostiga olishdi. Sobiq radikal guruhning 14 a'zosidan 9 nafari partiya tarkibiga kirdi va tez orada partiya rahbariyati va shiorlari o'zgardi,

A.Turkesh uning rahbari bo'ldi. Partiyaning yangi dasturlari "yangicha davlat tartibi"ni tuzishni ko'zda tutar edi, ayniqsa yoshlarga katta e'tibor berilib, ulardan kuchli harakatdagi yoshlarga aylantirilgan "jamo" qurish haqidagi fikrlar ham bo'lgan. 1969-yil fevralda Respublika Dehqon milliy partiyasi (RDMP) Millatchilar harakat partiyasiga o'zgartirildi.

Noroziliklar talabalarning chiqishlari bilan cheklanib qolmadi. 1970-yil iyunda DISK inqilobiy kasaba uyushmalari chaqirig'i bilan hukumat qatag'onlarga qarshi Istanbulda 100.000 ga yaqin ishchi namoyishga chiqdi. Bu turk ishchilarining mamlakat tarixidagi eng katta namoyishi bo'ldi.

Mamlakatdagi holatning bunday tus olishi boshqaruv hokimiyatini yanada sarosimaga soldi, so'l harakatning o'sishi Turkiyada ekstremizm jarayoni yuzaga kelishiga olib keldi. Politsiya yordamida talabalarni tarqatib yubormoqchi, ish tashlovchilarni to'xtatmoqchi bo'ldilar, ammo Menderes va uning tarafdorlari taqdiri hali hanuz ko'pchilikning xotirasida saqlanib qolganligi sababli ular bunday tavakkalchilikka yo'l qo'ya olmadilar.

1969-yilning oktabrida milliy palata TBMMga bo'lgan yangi saylovlar APga omadli keldi (256 ta o'rin, JXPda esa 143 ta o'rin), lekin bu kam sonli partiyalarni umidsizlikka tushirdi. Saylov natijalari mamlakat siyosiy hayotidagi yetakchi vazifani tasdiqladi. Bosh vazir Demirelya o'z lavozimida qoldi.

Mamlakatdagi qarama-qarshiliklar bilan o'tayotgan bu demokratik jarayonlar reaksiya namoyishlari, politsiyachilarning fitnalari, devor ortidagi nohaqliklar va demokratlarning sud jarayonlari bilan birgalikda kechdi. Terroristik chiqishlar – bosh ko'tarishlar, odam o'ldirishlar va o'g'irliklar hokimiyatga barcha so'l oqimdagilarga qarshi jazo chorasini ko'rishga turtki bo'ldi. Talabalar, ishchilar, kasaba uyushmalari harakatining uyg'onishi 1960-yilning oxiri 1970-yilning boshlarida jamiyatning kichik o'troq aholisi qatlamini siyosiydash-tirish, shuningdek nafaqat radikal oqimdagilar, balki islomchilarning shikoyatlari bilan birgalikda kechdi. Mamlakat tarixidagi ilk islomiy partiya – Milliy Salomat partiyasi 1970-yilning yanvarida qonuniy tarzda tuzilgan edi. Islom tadqiqotchisi M.A.Og'ao'g'ullari ushbu hodisani baholab shunday yozgan edi: «Otaturk davrida islom diniga masjiddan tashqarida e'tiqod qilish jazoga loyiq harakat sifatida qaralardi». Ushbu doimiy ketma-ketlikda o'zgarib boruvchi partiya-

ning asoschisi va rasmiy boshqaruvchisi Najmiddin Erboqon (1926-yil) edi. Erboqonning taqdiri va ish faoliyati Turkiyadagi aynan viloyatlardagi kichik mulkdorlik va tadbirkorlikni aks etirar edi.

1969-yil Erboqon, asosan, kichik tadbirkorlarning ovozi bilan ittifoq palatasining vakili bo'lib saylanadi. U katta kuch bilan o'z lavozimidan olib tashlandi. 1969-yilgi saylovda partiyaga qabul ham qilinmadi. Mustaqil nomzod sifatida Konyada qo'llab-quvvatlashlari tufayli 1969-yili deputatlikka qabul qilindi. 1970-yilning yanvar oyida o'zining 17 ta safdoshi bilan birga milliy nizom partiyasining rahbari etib saylandi. Bu partiya o'zida konservativ islom jamiyatidagi to'dalarning siyosiy qiziqishlarini aks ettirarar, Istanbul o'sha davrda uning markazi hisoblangan. U "Milliy qarash" nomi bilan atalgan. Bir necha yildan keyin bu "Milliy qarash" Germaniyada qayd etildi. Keyin Germaniyada ularining ta'siri yanada kuchaydi.

Erboqonga partiyaning boshqaruvi taklif qilindi. Partiyaning asosiy maqsadi rivojlangan butun dunyoga namuna bo'la oladigan partiyaning tuzish edi. Uning dasturida zodagonlar jamiyati islom jamiyatiga qarshi ekanligi yozilgan edi. Erboqon o'z bayonotlarida umumiy bozorni, Yevropa jaamiyatini, katta boylarni tanqid qildi. Erboqon bu jamiyatga kirish Turkiyani mustamlakalashtirish va diniy tariqatni faollashtirishga olib keladi derdi. Undan oldin 1971-yil bu g'oyaning tarafdori bo'lgan nurchi qo'lga olingan edi. Qamoqqa olinishining sababi Izmir masjidlariga nursizm g'oyalarini targ'ib qilgani edi. Bular Turkiya davlatiga qarshi qo'yilgan edi. Nursizمنىning maqsadi yoshlarda Otaturkni dinning dushmani qilib ko'rsatish edi. U 8 oydan so'ng ozodlikka chiqarildi.

Yangi Demirel hukumati ijtimoiy hayotni saqlab qolish maqsadida Istanbul va Izmirda o'n yillik ta'limni joriy etish to'g'risida qaror qabul qildi. Lekin bu narsa yordam bermadi va 1971-yil 12-martda prizident armiyasi "ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar, o'ta og'ir urushlar, anarxiyaga aralashuvni aks ettirgan mamlakat hukumati va parlamentdagi faoliyatlari, dunyoqarashi va pozitsiyasi natijasi"da ko'rsatilgan oliy harbiy bosh qo'mondonlik bayonnomasini topshirdi. Unda "konstitutsiyada ko'zda tutilgan islohatlar amalga oshmaganligi sababli, Turkiya Respublikasi kelajagi jiddiy tahdid ostida" ekanligi ta'kidlangan edi.

Demirel hukumati iste'foga chiqarildi, favqulodda vaziyat joriy qilindi va harbiy qism nazorati ostidagi yangi Vazirlar mahkamsi

shakllantirildi. Hokimiyatga qarshi kuchlarga barham berildi. Ishchilar partiyasi ta'qiqlandi va uning rahbari 15 yillik qamoq jazosiga mahkum qilindi. Ko'payib borayotgan yoshlar tashkiloti va minglab mahbuslar tarqtib yuborildi. Ko'pchilik bosma nashrlar ta'qiqlandi. 1973-yil parlament saylovlariga qadar ma'lum darjadagi, shuningdek, banklarni talash yo'lidagi ekstremistlar va anarxistlarni yo'ldan ozdirish, odamlarni o'g'irlash va qatl qilish kabilarga qarshi jazo choralari amalga oshirildi. Milliy nizom partiyasi rahbari Erboqon muayyan muddatga chet elda bo'lishga majbur bo'ldi.

Radikal siyosiy hayot

1973-yil oktyabrda mamlakatda Turkiya Buyuk Millat Majlisiga saylovlar o'tkazildi. Unda eng yuqori, ya'ni umumiy ovozlardan uchdan birini MRP partiyasi oldi. "Adolat" partiyasi 30% ovozga ega bo'ldi. Uchinchi o'rinni N.Erboqon rahbarligidagi islomiy partiya – Milliy Salomat (qutqarish) partiyasi egalladi (11,9%).

1974-yilning yanvar oyiga borib, JXPga yangi yetakchi etib B.Ejevit saylandi. Najmiddin Erboqon bosh vazir o'rinbosarligiga tayinlandi. Qo'shma hukumat dasturida davlat sektorini mustahkamlash zarurligi ta'kidlanib, 18 yoshda saylash huquqiga ega bo'lish aytib o'tildi. Kipr masalasi bo'yicha Turkiya-Kipr Federatsiyasi pozitsiyasi tasdiqlandi. Yangi hukumat "umumiy bozor" munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga va'da berdi, chunki mavjud kelishuvlar Turkiya manfaatlarini hisobga olmasdan tayyorlangan edi.

N.Erboqon va B.Ejevit partiyalari koalitsiyasi mastahkam ittifoq edi. Bu hukumat koalitsion hamkorlar orasida doimiy kelishmovchiliklar yuz berib turgan murakkab sharoitda jamiyatni boshqardi.

1974-yil 15-iyunda Kiprda yunon harbiylari uyushtirgan fitna yuz berdi. Arxeyepiskop Makariosning hukmronligi tugatildi. Qonunda ko'rsatilganidek, Turkiya 1959-yilgi Turkiya-London kelishuviga muvofiq Ejevit hukumati 20-iyulda Kiprga harbiy kuchlarni yubordi.

Hukumat tashqi siyosat sohasida Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik bitimida faol qatnasha olishga tayyorligini e'lon qildi. Bu NATOga bo'lgan ishonchni ifodalar edi. Sobiq ittifoq bilan o'zaro hurmat ruhida qo'shnichilik davom etdi. Turkiya eng asosiy e'tiborni arab davlatlariga qaratdi.

Deyarli ikki yil Milliy front hokimiyatining tepasida bo'lgan, uning eng katta partiyasi hisoblangan Adolat partiyasi davlatdagi

ahvolni mustahkamlash, har qanday qiyinchilikka bardosh berish, ittifoqda, parlamentda, davlatda va jahon arenalarida bo‘lishga harakat qildi. Parlamentdagi partiya fraksiyasi orasidagi ixtiloflardan davlat aziyat cheka boshladi, konstitutsiya qo‘pol ravishda buzila boshladi, korrupsiyaga yo‘l ochildi. 1971-1973-yillarda favqulodda holatni qayta tiklash zarurati yuzaga kela boshladi.

JXP Turkiyaning Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga yon berishidan xavotirda edi, chunki buning natijasida Turkiya sanoati rivojlanmay qolishi mumkin edi. Shuning uchun Turkiya bilan “Umumiy bozor” munosabatlariga o‘zgartirishlar kiritish talab qilinayotgan edi.

Turkiyaning so‘l kuchlari haqida gapirganda, Ishchi partiyasi tuzilganini aytib o‘tish lozim. Uning raisi etib Behid Boran saylangan edi. So‘l partiyalar va ba‘zi talabalar guruhi o‘ng kuchlar, davlatda fashizmning qaror topishi va Turkiyada amerikacha qarashlarga qarshi chiqishlar boshlandi. 1976-yilning 1-may kuni Istanbulda demokratik shiorlar ostida minglab namoyishlar bo‘lib o‘tdi. 1-sentabr kuni bir qator ilg‘or tashkilotlarning tashabbusi bilan birinchi marta Anqarada “Tinchlik kuni” nishonlandi.

Parlament va uning atrofida siyosiy partiyalararo kurashlar natijasida paydo bo‘layotgan qiyinchiliklardan tashqari, hokimiyatga iqtisodiy holatlar – inflatsiyaning o‘sishi va Turkiya tashqi qarzining oshib borishi, ba‘zi import mollar narxining ko‘tarilib ketishi, neft narxining ko‘tarilishi ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. 1976-yilda tashqi savdo zarari 35 mlrd. dollarni tashkil etayotgan edi.

Eksportni kengaytirish maqsadida, davlat 1975-1976-yillarda sekin astalik bilan liraning dollarga nisbatan kursini 20% ga (1 dollar 16 liradan balandroq edi) tushirdi. Ma‘lumki bu zararning katta qismi “Umumiy bozor”dan kelib tushardi. “Umumiy bozor” davlatlari bilan Turkiya davlati o‘rtasidagi munosabatlar bu yagona qiyinchilik emas edi. Turkiya davlati Turkiya eksporti uchun kvotalarni ko‘tarishini (“umumiy bozor”dan talab qildi.) an‘anaviy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini Yevropaga eksport qilishdagi ba‘zi to‘siqlarni kamaytirish, shuningdek Turkiyaga moliyaviy yordamni oshirish, oldin tuzilgan “ishchilarning erkin harakati” shartnomasini “to‘qqizlik”ka kiruvchi davlatlarda bajarilishini va ishchilarni ishga joylashishlarini kafolatlashlarini “Umumiy bozor”dan talab qildi.

Turkiya-amerika munosabatlarida oldingi osoyishtalik qolmagan edi. Shu bilan bir qatorda Turkiyaning tashqi qarzlarini o‘z vaqtida

to'lashi, shu bilan birga eski qarzlarni har yili o'rtacha 300 mln. dollar miqdorida to'lanishi bevosita AQSh bilan bog'liq edi. 1974-yildagi Turkiyaning Kiprdagi harakati tufayli AQSh Kongressi 1975-yil fevralida Turkiyaga Amerika qurolini yetkazib berish bo'yicha harakatlarini boshladi. Bunga sabab etib, Turkiya bu qurollarni Gretsiyaga qarshi foydalanishi aytib o'tildi. Qo'shma Shtatlarning bu harakati 1975-yilning aprel oyida "Milliy front" hokimiyatining dasturida muhokama qilindi. Hokimiyatga kelgach, u Kongress oxir-oqibat o'z qarorini qayta ko'rib chiqishni kutgan edi. Biroq 1975-yilning iyulida AQSh Kongressi 223 ovoz 206 ovozga qarshi ovoz bilan Embargo dasturini olinishiga erishildi. Javob chorasi sifatida Demirel hokimiyati AQSh bilan hamkor muhofaza harakatini, shuningdek, 58 boshqa ikki tomonlama bitimlarni to'xtatilishini e'lon qildi. Tez kunda Turkiya hokimiyati bu bazalarda o'z nazoratni o'rnatdi. 1976-yil mart oyiga kelib, ikki tomon o'z munosabatlarini yaxshilashga va yangi Turkiya-Amerika muhofaza bitimini tuzishga erishdi.

1977-yilning iyunida parlamentning muddatidan oldin o'tkazilgan saylovlarida JXP 213 ovoz olib birinchi o'ringa chiqadi, biroq bu yakkapartiyaviy hukumat tuzish uchun kamlik qilar edi. Shunda B.Ejevit va S.Demirel navbatma-navbat boshqaradigan hukumat o'z faoliyatini davom ettiradi. 1979-yilning oktabrida hokimiyat tepasiga kelgan yakkapartiyaviy S.Demirel hukumati boshqa partiyalarning deputatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. 1980-yilning yilning 24-yanvarida bu hokimiyat tomonidan yangi dastur tuzilib, Turkiya bozor iqtisodiyotiga qat'iy qadam qo'ya boshlaydi. Bu 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyotda milliy strategiya, ishlab chiqarish, tashqi savdo, bank va boshqa sohalarni tubdan qayta ko'rib chiqish jarayoni boshlanganidan dalolat berar edi. Biroq uning amalga oshishiga jamiyatdagi nizolar va siyosiy vaziyat xalaqit berayotgan edi.

NATOning ikki a'zosi – Gretsiya va Turkiya orasidagi munosabatlar tobora yomonlashdi, har biri alohida tayyorgarlikni boshladi. 1974-yil 24-iyulda barcha davlatlar Kiprning mustaqilligi, hududning barqarorligi va mustaqilligini hurmat qilinishi kerakligi, xorijiy qo'shinlarning oroldan olib chiqib ketilishi lozimligini ta'kidlashdi.

1974-yil 14-avgustda Turkiya Kiprdagi harbiy harakatlarni kuchaytirdi va orol hududining 40% gacha qismini egalladi. 1975-yil sharqda, Turklar tomonidan Kiprdagi belgilangan qism boshqaruvi o'zini – Kiprdagi Turk Federal boshqaruvi deya e'lon qildi. Buni faqat Turkiya tan oldi.

Gretsiya bilan munosabatlar esa, Kipr so'rovlari sababli oz bo'lsada tiklandi, Egey dengizi borasida bir qator muammo vujudga keldi, 1973-yilda Egey dengizidan neft topilgan kunlarda muammo paydo bo'lgan edi. Gretsiya ortidan Turkiya ham dengizdagi qidiruv ishlariga kirishdi, shundan so'ng Gretsiya Turkiyani qonunbuzarlikda aybladi. Bu davrda Ejevit boshqaruvini ko'plab turkiyaliklar qo'llab-quvvatladilar, ammo bir necha demokratik guruh turk armiyasining Kiprning mustaqilligini himoya qilish, kipr-turk aholisini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash uchun lozim deb hisobladilar. Ejevit tezkor parlament saylovlari va bir partiyalik boshqaruvni ishlatishga qaror qildi.

1974-yilning sentabrida Ejevit hukumati istefoga chiqdi, JXP boshqaruvining kelishuviga qaramay, davlatni mustahkamlash haqidagi ko'rsatmalarning amalga oshirilishi masalasi muhokama qilinmadi. JXP parlamentda muddatdan oldin bo'lib o'tgan saylovlarda o'z maqsadiga erishdi, navbatdagi 1997-yilgi saylovlarga qadar hukumat o'z atrofiga hukmron partiyalarni to'plab birlashtirib, saylovlargacha ularni saqlab turishga intildi, bundan ko'zlangan maqsad uch yil ichida o'zining qoloqlashib qolgan holatini tiklab olishga umid qilar edilar. 1975-yil aprel oyining boshlarida olti oylik inqirozdan so'ng Milliy Kengashda hukmron partiyalar orqali, tashkil etilgan "Milliy front"ga S.Demirel rahbar etib saylandi. Uning ish dasturida davlat hududida kommunist va anarxiyaga qarshi kurash, ijtimoiy adolatning ta'minlanishiga harakat qilish Turkiyada qisqa muddatda sanoatlashgan davlatni tashkil etishga erishish maqsadlari keltirilgan edi.

Dasturda davlatning iqtisodiy rivojlanishini tizimli reja asosida amalga oshirish aytilgan. Unda O'rta Sharq, Osiyo va Afrika davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish va'dasi ham keltirilgan. O'lkaning asosiy iqtisodiy-ijtimoiy o'sishi davlatning sanoatlashuvi deb atalishi milliy harbiy va og'ir sanoatini yaratdi.

Bu yillarda, siyosiy rahbarlar xususiylashtirishni boshlash, xususiy sektorning qo'llab-quvvatlashini e'lon qilinib, davlat tasarrufidagi korxonalar mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi bo'lganligi sababli, davlatni iqtisodiy rivojlantirish turli iqtisodiy masalalar doirasida ijroiya hokimiyati tomonidan amalga oshirilishi alohida ta'kidlandi.

Ko'rib turganimizdek, barcha investitsiyalarning deyarli yarmi davlat sektori ulushiga to'g'ri kelgan. Davlat sanoat korxonalari Turkiyada zamonaning asosiy korxonalari bo'lib qoldi. Bu xususiy

kapitallar hali o‘ziga yirik mablag‘larni olmagan metallurgiya va neft-kimyotarmoqlariga tegishli edi.

Kuchli nazoratning mamlakat bank tartiblariga nisbatan amalga oshirilishi davom etdi. Davlat tasarrufidagi banklar barcha turk banklariga va bank operatsiyalari qatnashchilariga 89% va 50.5% barcha zahira banklar (Markaziy bankdan tashqari)ga to‘lashga to‘g‘ri keldi. Davlat banklarining mavjud tegishli yirik tadbirlari yordamida bank kreditlarining katta qismi nazoratda bo‘ldi va nafaqat davlat sektori faoliyatini mablag‘ bilan, balki xususiy kreditlar bilan ham ta‘minladi. Aniqrog‘i, davlat butunlay shahar (Xalq banki) va qishloq (Qishloq Xo‘jalik banki) mayda ishlab chiqarishni kreditlashni davom ettirdi.

Turkiya davlat sektori mamlakatda elektroenergiya ishlab chiqarish va barcha turdagi issiqlik va gidroelektorstansiyalarning davlat tasarrufida bo‘lishini nazorat qildi. Temir yo‘llar, barcha harakatlanuvchi qismlar, dengizdan o‘tuvchi kemalar va barcha shahar ichki yo‘nalishlari, mamlakat dengiz transportining ulkan qismi, transport va shu kabi xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlari butunlay davlat tasarrufiga o‘tdi. “Turkiya havo yo‘llari” havo yo‘llari va havo flotini nazorat ostiga oldi. Bir vaqtning o‘zida barcha xalqaro yuk va yo‘lovchi tashuvchi mashinalar, shuningdek shahar ichki yuk va qisman yo‘lovchi tashuvchi mashinalar ham xususiy avtomobil korxonalariga qo‘lida edi. Shahar avtobus, trolleybus va tramvay qatnov yo‘llari o‘zini-o‘zi boshqarish transportlariga xizmat ko‘rsatdi. Turkiya katta yo‘llari davlat qo‘l ostida qoldi.

1975-1977-yillarda iqtisodiy o‘rta sur‘atda 7% dan yuqori bo‘ldi: qishloq xo‘jaligi va sanoatda ishlab chiqarish quvvati oshdi. “Yashil inqilob” o‘z samarasini berdi, Turkiya o‘zini-o‘zi oziq-ovqat bilan ta‘minlay oladigan davlat maqomiga erishdi. Bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotda tahlikali holat boshlandi: YaMM (Yalpi Milliy Mahsulot)dagi zarar 6.5% ni tashkil etdi. Neft narxining intensiv o‘sishi boshlandi, yalpi o‘rtacha yillik o‘rta deyarli 17%ni tashkil etdi. YaMM da tashqi iqtisodiyot investitsiyalarining ulushi 6%ga yetdi. Natijada tashqi qarz tezda o‘rdi: 1973- yildan 1980-yilgacha u 4.6 marta o‘rdi, 15.3 mlrd ni tashkil etdi. Shu sababli uning tuzilmasi qaltis o‘zgarishga yuz tutdi, qisqa muddatli qarzlarni ko‘payib ketdi: 1970-yillar boshida u unchalik katta bo‘lmagan edi, o‘n yillik o‘rtalarida esa jami qarzning to‘rttdan bir qismiga yetdi, 1977-yilga kelib Turkiyaning tashqi qarzi 58%ni tashkil etdi.

T.O‘zalning “Oq inqilobi”. XX asrning so‘ngi 10 yilligida Turkiya

1980-yil 12-sentabrda Oliy harbiy qo‘mondonlik hukumatni o‘z qo‘liga oldi. Generallar tomonidan Harbiy Bosh shtab boshlig‘i K.Evren rahbarligida Milliy Xavfsizlik Kengashi tashkil qilindi, parlament tarqatib yuborildi, Sulaymon Demirel esa hokimiyatdan chetlatildi, siyosiy partiyalar faoliyati ham taqiqlandi. Islom Milliy qutqarish partiyasi va Millatchi harakat partiyasiga qarshi prokurorlar tergov jarayonlarini boshlashdi. So‘l partiyalar ham qattiq ta‘qib ostiga olindi. 1971-yilda bo‘lganidek, Turkiya ishchilar partiyasini tuzish taqiqlandi. Milliy Xavfsizlik Kengashi namoyishlarni taqiqladi va davlatda ta‘sir doirasi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turuvchi kasaba uyushmasining DISK konfederatsiyasini taqiqladi. Ijtimoiy hayot va kasaba uyushmasining siyosatga aralashmasligi tarafdori bo‘lgan yagona uyushma “Turk-Ish” bo‘ldi. Sharqiy tumanlarda kurdarga qarshi ikki tarafdin ham minglab harbiylar ishtirok etgan harakatlar amalga oshirildi. 1981-yilning oktabrida barcha partiyalarni tarqatib yuborishga qaror qilindi. Bu jarayon MXKga yangi guruhlar va ular asosida yangi partiyalar tashkil qilishga aralashish imkonini berdi.

Harbiy tartib boshqaruvchisi Kenan Evrenning kongressdagi nutqida juda ko‘p e‘tibor Kamolizm prinsiplariga, Otaturkning fikrlariga qaratildi.

Xususiy tashabbuskorliklar tarafdori bo‘lgan professor Usmon Okyar o‘zining katta ma‘ruzasida shuni eslatib o‘tadiki, kamolistlar etatizmga jamoaviy va iqtisodiy haqiqatlarni hisobga olgan holda yondashishdi. Rivojlanayotgan davlatlarning davlat sektorlarida 2 ta qarash bor. Davlat sektori xususiy sektordan farqli o‘laroq milliy qarashlar bo‘yicha harakat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat sektori tengi yo‘q va buyukdir. Davlat sektorining boshqa yo‘nalishi esa qoloq iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. “Davlat – bu maqsad emas, u bir vosita, uning boqiyliqi va tengsizliqi haqida gap bo‘lishi mumkin emas”.

1982-yilning noyabr oyida Turkiyaning yangi konstitutsiyasi referendum yo‘li bilan qabul qilindi. Unda Turk davlatining respublikaviy, demokratik, huquqiy mavqelari tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda shaxs erkinligi, asosiy haq-huquqlar, xususiy tadbirkorlik erkinligi, mol-mulkka egalik huquqlari ham tasdiqlandi. Shu bilan bir

qatorida agar kerak bo'lganda, shaxsiy mulklarni sotib olish yo'li bilan qaytarib olish huquqi saqlanib qoldi. Unda xalqaro kapitallashtirishning sanoat va savdo-sotiq aloqalarida katta hajmdagi kapitallar asosiy o'rin tutmasligi ta'kidlandi. Yaqin kelajakdagi rivojlanish harakatlari keyingi besh yillikda o'z o'rnini topdi.

1980-yilgi qonunlarda xalqaro birlashish, davlat korxonalari, davlat-xususiy yoki xususiy-davlat mulklaridagi aksiyalarning davlat hissasi xususiylashtirilib, savdo kodeksiga birlashtirilishi davlat tarixida birinchi bor rasmiy ravishda amalga oshirildi. Bu paytda hukumatning katta qadami – T.Ozalning 1986-yilgi Turkiyada xususiylashtirish kodeksi haqidagi 3291 sonli qarorining kiritilganligi bo'ldi. Qonunning 5-bandiga binoan, davlat korxonalari yoki muassasalari o'z faoliyatlarini erkin olib borish, shaxsiy mulkka ega bo'lish hamda yakka yoki uyushgan tartibda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1980-yilning ikkinchi yarmi 1990-yil boshlaridagi ko'rsatmalarga ko'ra to'la bo'lmagan va qisqacha iqtisodiy sohadagi o'tkazmalar haqiqatda islohot o'tkazish borasidagi harakatlar Turgut O'zal aytganidek bo'lganini ko'rsatadi. 1930-yillarda amaldagi qonunlardan davlatning valyuta ustidan bosimi, import tartibotini erkinlashtirish, chet el kapitali faoliyati, importni kengaytirish va davlatning iqtisod-narxlariga ta'sirini sezilarli darajada cheklash edi.

T.O'zalning mo'ljali xususiy sektorlar daromad ololmayotgan hududlarda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash edi. O'sha paytda gap sanoat himoyasi, kommunal xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, sanoatning umumiy tuzilishi kabi qator sohalar haqida borardi. Xususiylashtiriladigan barcha sohalar mahalliy aholi va immigrantlar uchun xususiy kapitallarni ochishni qonuniylashtirdi.

Xususiylashtirishda birinchi qadamlarning omadli bo'lishi uchun Istanbul fond birjasida hukumat aksiyalarini o'ta daromadli kompaniyalar Netash va Teletash kabilar sotishni yo'lga qo'ydi. Millatchi harakat partiyasi rahbari A.Turkesh to'ntarishdan keyin, ikki kundan so'ng qo'lga olindi va yuzlab partiya a'zolari bilan birga qamoqqa solindi. 587 ayblanuvchi orasida 16 ta rahbar ham javobgarlikka tortildi, tergov 6 oy davom etdi.

1980-yilgi harbiy to'ntarishda qamoqqa olinganlar orasida diniy harakat rahnamosi N.Erboqon ham bor edi. U 8 oydan so'ng qamoqdan ozod etiladi va 1987-yildan boshlab yana siyosatga qaytadi.

Bu davr matbuotida ko‘pincha Fathulloh Gulen ismiga juda ko‘p duch kelina boshlandi. U diniy jamoa rahnamosi, nursizm oqimi vakili edi. Faik Bulut bir kitobida (“Qo‘shin va Islom”) 1970-yil konstitutsiyaga qarshi harakatlarda nurchilar tariqatining keyingi vorisi Said Nursiy, Fatxulloh hoji nursizm oqimining faol vakili ekanligini aytib o‘tgan edi. 1980-yil 13-sentabrda harbiylar F.Gulenni qamashga harakat qilishadi, lekin u yashirinishga muvaffaq bo‘ladi. 1986-yilda Xavfsizlik hizmati Gulenni yana bir bor qo‘lga oladi, ammo tezda qo‘yib yuboradi. bunga sabab T.O‘zalning aralashuvi edi, chunki aynan O‘zal davrida “Gyulening yulduzi porlay boshlaydi” uning maqsadi biznesga katta sarmoya kirgizish, maorifga homiylik qilish edi.

1980-yil 24-yanvardan harbiylar qattiq tartib o‘rnatib, iqtisodiy muvozanat dasturini o‘rnatishdi. Iqtisodiy o‘sish harakatini yangilash yo‘lida ko‘pgina eski prinsiplaridan voz kechish, xususan, davlatning iqtisodga aralashuvini cheklash yo‘lida mamlakat elitasining ko‘pi norozi bo‘ldi. Shu bilan birga muayyan liberalizm faollari ham “davlat vatanparvarligiga umuman qarshi chiqib bo‘lmaydi” bu “tijoratchilar uchun oxiri yomon oqibatlariga olib kelishi mumkun”, degan fikrni ilgari surishdi.

1981-yilda Izmirda bo‘lib o‘tgan Ikkinchi iqtisodiy yig‘ilishda harbiy tartib-intizom bilan “aralash iqtisodga” o‘tish yo‘llari (birinchi prezident Otaturk fikrlari (qarashlari) bilan bir xil edi) ko‘rib chiqildi. Turgut Ozal etatizm siyosati Turkiya uchun o‘tib bo‘lgan ish va u “mamlakat iqtisodining o‘sishi uchun asos emasligini ta’kidladi.

1980-yillar oxirida Turkiya ichki siyosatining bosh vazifasi – 1987-yilning noyabr oyida bo‘lib o‘tgan parlament saylovlaridan so‘ng demokratik siyosiy hayot, fuqarolik boshqaruvini kuchaytirish edi.

Muxolif harakatlar sezilarli darajada o‘rdi, mamlakatda faol guruhlar yuzaga keldi.

T.Ozal mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni yo‘lga qo‘ydi. Oliy ta’lim, maktab o‘quvchilari va internetda ta’lim oluvchilarga katta mablag‘, stipendiyalar ajratildi.

Turkiyaga asosiy iqtisodiy yordam G‘arbiy Germaniya tomonidan berildi. Bu yordam 1986-yilda taxminan 1450 mln.ni tashkil etdi. Germaniya Turkiyaga dengiz bandargohini yangilash, suvosti kemalarini qurishda katta yordam berdi.

O‘sha davrda (1986) Germaniyada 1,5 mln. turk yashar edi.

1987-yili Turkiya YeIga qabul qilishlarini so‘rab murojaat qildi, ammo g‘arb mutaxassisleri Turkiyaning iqtisodiy tizimi YeIga qo‘shilish uchun tayyor emas deb topdi. Shuningdek, Yevropa Turkiyadan demokratiyaga oid muammolar va mamlakatdagi inson huquqlari bilan bog‘liq muammolarning hal qilinishini talab etdi.

80-yillarda Turkiya tashqi siyosatining muhim masalalaridan biri qo‘shni Gretsiya bilan aloqalar edi. Bundan bosh maqsad 1983-yil 15-noyabrda Shimoliy Kipr Respublikasini tashkil qilish edi.

Turkiyaning Eron va Iroq davlatlari bilan hamkorligining bosh maqsadi – kurdlar harakatini bartaraf etishdan iborat edi. Turkiya 1984-yil Eron va Iroq davlatlariga harbiy lashkarini shu davlatlar chegarasidan olib o‘tib, kurdnlarni bartaraf etish taklifini bildirdi. Eron bunga rozilik bildirmadi, ammo Iroq bilan chegaradagi hududda shu kabi ishlar (operatsiyalar) o‘tkazildi.

Sovet davlati va Turkiyaning munosabatlari o‘n yil mobaynida Turkiyaning bosh vaziri B.Ejevit tomonidan o‘rnatiladi. Iqtisodiy va texnikaviy munosabatlar rivojlantirildi, savdo-sotiq, madaniy aloqalar yaxshilandi. Ko‘p o‘tmay SSSR harbiy kuchlari kiritilgani sababli SSSR va Turkiya munosabatlarida muammolar paydo bo‘ldi, shunga qaramay, iqtisodiy munosabatlar davom etdi.

1986-yilda SSSR va Turkiya munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning uchun T.O‘zal Sovet Ittifoqiga tashrif buyurdi. Turkiyaning bosh vaziri bilan o‘tkazilgan uchrashuv jarayonida davlatlararo munosabatlar ko‘rib chiqilib, ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni yaxshilash, qo‘shnichilik aloqalarini yanada mustahkamlash, davlatlararo tushunmovchiliklarga chek qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi.

Turkiya va sovuq urishining tugallanishi

1980-1990 yillar davomida davlat siyosatida navbatdagi o‘zgarishlar kuzatildi. K.Evrenning prezidentlik lavozimining muddati tugashi sababli, 1989-yilning oxirlarida uning o‘rnini T.Ozal egalladi va u Mesut Yilmazga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Davlat siyosatiga kiritilgan o‘zgarishlarni amalga oshirish liberallashtirish qiyin kechdi, islomiy kuchlar tobora mustahkamlanib, harbiy kuchlarga ochiqchasiga hujum uyushtirishmoqchi edi.

1993-yil bahorda T.O‘zal vafot etdi, S.Demiral Turkiya Respublikasining prezidenti etib saylandi va uning TYPdagi o‘rnini Tansu

Chiller egalladi. T.O‘zal vafotidan oldin, “Kurdarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lish”ni ta’kidlagan edi.

1990-yil o‘rtalarida ahvol yomonlashgan edi. Mamlakatning siyosiy kuchlari bo‘layotgan holatni turli xil talqin qilishdi va xalqqa o‘zlarining yangi siyosiy-iqtisodiy rejalarini taklif qilishdi. Turkiya AQSh bilan o‘zining yuqori darajadagi aloqalarini saqlab qoldi.

Shunisi aniq bo‘ldiki, G‘arb bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlar saqlanib qoldi. Aynan shu payt, ya’ni 1992-yil yanvarda Turkiya Tashqi ishlar vazirligi qoshida turk hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tashkil etildi. Bu tashkilot o‘z ishiga bir nechta turk respublikalaridan tarixchilar, filologlar va tilshunoslarni jalb qildi. Tashkilot bir qancha sobiq sovet respublikalari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi yirik dasturlarni amalga oshirishga kirishdi.

Turgut O‘zaldan so‘ng mamlakatning yangi rahbarlari korxonalarni xususiylashtirishni davom ettirdilar, ammo uning natijasi kutilgandek bo‘lib chiqmadi. O‘zal qabul qilgan qonunlar tezlik bilan joriy etilmagan va konstitutsiyaning doiradan chiqib ketishiga olib boradigan hamma yangi qonunlar va qonunosti hujjatlarning qayta ishlanishiga ehtiyoj sezilgan.

Cho‘zilib ketgan xususiylashtirish jarayoniga ketgan sarfxarajatlar sezilarli bo‘lgani aniqlandi, xarajatlarning boshqa ko‘lamda bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Ularni sotish masalasini ko‘tarish oson bo‘lmaganligi, nafaqat ularning ko‘lami va narx-navosi balki, yetarli darajada samarali ijtimoiy institut sifatida o‘n yillar davomida shakllangan mamlakat miqyosida har biri alohida hamda umumiy holatga ega bo‘lishi ham sabab bo‘ldi. Butun mamlakat bo‘ylab yoyilib ketgan turk sanoatlashtirish bayroqdorlari gohida viloyatdagi madaniy (shahar) hayotning yagona markazi, o‘tmish iqtisodiy taraqqiyotining yagona ramzi edi. Xususiylashtirilgandan so‘ng bu korxonalar va fabrikalarni ularni yopilishini aytmaganda ham, ularni qaytadan ishga tushirish, xodimlarni qayta tayyorlash, hamda ular sonini kamaytirish masalasining o‘zi mamlakatdagi siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin edi.

1994-yil 27-noyabrda barcha turdagi davlat mulkini xususiylashtirishga qaratilgan yangi qonun (4046-qonun) kuchga kirdi. Uning ijrosi oldingidan kam bo‘lmagan qiyinchiliklar bilan (muammolar) amalga oshirildi. Shu bois 1995-yil 6-mayda davlatga tegishli bo‘lgan “turk telekommunikatsion A.Sh” (“Turk Telekom”)ning 49 %ni sotish

prinsiplarini (qonun-qoidalar) belgilab beruvchi alohida yangi 4107 - qonunini qabul qilishga to'g'ri keldi. Biroq 1996-yil 29-fevraldayoq Konstitutsion sudning qarori bilan 4107 – qonunning ba'zi moddalari bekor qilindi. Doimo amerikaliklar tomonidan Telekomni xususiylashtirishga oid bo'lgan talablar qo'yilardi. Eregliy metallurgiya kombinati, Sumerbank, Turban (Turizm), Petkim, Turk havo yo'llari, Petrol ofisi (neft mahsulotlarini sotish, yoqilg'i quyish shahobchalari), Chernomorsk mis eritish kombinati, Sivas metall kombinati, shuningdek, TuprASh neftni qayta ishlash zavodiga tegishli bo'lgan bir qancha elektr stantsiyalari kabi katta tashkilot va uyushmalarning aksiyalarini xususiylashtirishga oid bo'lgan rasmiyatchiliklar juda sekin amalga oshirilardi.

Ko'rinib turibdiki, "Farog'at" partiyasiga ovoz berishga turk xalqini nafaqat diniy sabablar chorladi, balki, buning yana bir sababi partiya rahbarlarining sotsial adolat, tahqirlangan va kamsitilganlar borasidagi shiorlari katta foyda berdi. Siyosiy raqiblar bo'lgan korrupsiya bilan aloqalar, to'xtovsiz qurolli to'qnashuvlarga va o'zaro foydasiz siyosiy tortishuvlarga botib ketgan "To'g'ri yo'l partiyasi" ham, Xalq partiyasi ham Turkiyaning qashshoq xalqi haqida umuman unutib qo'yishgan edi. O'sha davrlarda turk sotsiologlari qismi haqida shunday ma'lumot keltirishadi: "Xalqning 48% i kambag'alchilik arafasida, 23%i esa umuman qashshoq qismni tashkil etadi". Dunyo gazetasi asoschisi, M.Milen shunday yozadi: "Siyosiy kurashning shovqini hech qanday foyda keltirmadi, faqatgina inflyatsiyaning kuchayishi va o'g'rilikning ko'payishiga olib keldi".

"Farog'at" partiyasi o'z yutuqlariga osonlikcha erishmadi. Chunki o'sha davrda qurolli kuch va PB o'rtasidagi mojaro qaltis tus olgan va axborot vositalarining asosiy muhokama maydoniga aylanib qolgan edi. Yilmaz-Chiller koalitsiyasi uzoq davom etmadi. Lekin uning davrida harbiylarga Isroil bilan harbiy kelishuv imzolashga muvaffaq bo'lindi.

1995-yilgi parlament saylovlarida partiya 2,3 mln. (8%) ovoz oldi va parlament partiyasiga aylanish imkoniyatini beruvchi baryerni oshib o'tishiga bir bahya qoldi. Turkesh buni e'tirof etdi va bunday fakti kamaytirib ko'rsatmaslikka chaqirdi. Faoliyatini qayta boshlagan "Ideal markazi" jurnali har galgi sonining ichki sahifalarida 1997-yil 4-aprelda vafot etgan "qo'mondon nomidan" vatanparvarona chaqiriqlarni chop etib bordi.

T.O‘zaldan keyingi hukumatning yangi rahbarlari davlat korxonalarini xususiylashtirishda davom etishdi, ammo buning natijasi kutilganidan ancha yiroqda edi. Boshlangan ishlarning bunday muvaffaqiyatsizligi asosiy sabablardan biri sifatida, O‘zal tatbiq etgan qonunlarning darhol bozorni egallamagani va darrov foyda keltirmagani, balki tatbiq etilgan qonunlar va hatto Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritishni talab etgan yangi qonun-qoidalarni ishlab chiqishga muhtoj bo‘lganliklari dalili bo‘la oladi. Butun mamlakat bo‘ylab tarqalgan hukumat sektorining ko‘p sonli boshqaruv tuzilmalari hokimiyatning markaziy apparati va uning mahalliy organlari bilan birlashgan holda, o‘zlarining amallari bilan xayrlashishni istashmasdi – korrupsiya mojarolari, “yasama” savdolar haqida OAVda doimiy ravishda axborot berib borilardi.

Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, 1985-yildan boshlab davlat mulkining xususiylashtirilgan obyektlari ro‘yxati 211 taga yetgan, bunda ularning yarmi 1998-yilga qadar to‘la xususiylashtirilgan. Turkiya savdo va ishlab chiqarish palatalari kengashining rasmiy hisobotiga ko‘ra, 1998-yilning boshida Xususiylashtirish boshqarmasi 122 paket aksiyalar yoki obyektlarning o‘zini sotishni amalga oshirgan. Ulardan 155 tasi davlat maqomini yo‘qotgan, 17ta obyektida esa davlat ishtiroki saqlab qolingan.

Islom va dunyoviy boshqaruv

Turkiyada 1995-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlari-dan so‘ng majlisda katta bo‘lmasada farq bilan «Farog‘at» partiyasi islomiy partiyaning ustunligini ta’minladi. U Majlisdagi 550 o‘rindan 158 tasiga ega bo‘ldi, undan keyin To‘g‘ri Yo‘l Partiyasi (TYP) – 135 o‘rin, uchinchi o‘rinni esa Masud Yilmaz boshchiligidagi Ona Vatan partiyasi (132 o‘rin) egalladi. Ushbu ilg‘or partiyalardan keyin esa ikki so‘l markaziy partiya – B.Ejevit boshchiligidagi Demokratik so‘l partiya (DSP) (76 o‘rin) va D.Baykalning Respublika Xalq partiyasi (49 o‘rin) bo‘ldi. Qolgan partiyalar, jumladan, A.Turkesh boshchiligidagi millatchi partiya o‘n foizli chegaradan o‘ta olmadi va majlisga kirmadi. «Farog‘at» partiyasining g‘alabasi mamlakatning butun dunyoviy qatlami – harbiylar va fuqarolarni oyoqqa turg‘izdi. 1996 – yil davomida Turkiyada shariat rejimining tiklanishi haqida turli xavotirli gaplar tarqaldi. Shu bilan birga, ko‘plab mualliflar Otaturk tomonidan joriy qilingan G‘arbgaga – Yevropaga yo‘l bugungi kundagi

inson huquqlari borasidagi cheklovlar, siyosiy tus olish xavfi sabab diniy faoliyatni cheklash bilan mos kelmasligini ta'kidlashgan.

Turkiyada "yengil islom" qabul qilinishi haqida fikrlar tarqaldi. Uning g'oyasi AQSh tomonidan qo'llab quvvatlanib, nafaqat Turkiya, balki musulmon dunyosining boshqa davlatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda joriy qilinishi lozimligi aytilgandi. Ikki ilg'or mamlakatning Farog'at partiyasi (FP) ga saylov oldidagi va keyingi munosabatini baholab, xulosa qilish mumkinki, ular nafaqat dunyoviy prinsiplarni shariat rejimining xavfidan himoya qilishga intilganlar, balki xavfli siyosiy raqiblarini kuchsizlantirishga intilganlar. Biroq shu narsa aniqki, Turkiya saylovchilarining beshinchi qismini «Farog'at» partiyasiga ovoz berishga faqat diniy sabablar undamagan. Ularning muvaffaqiyatini avvalambor, ijtimoiy adolat, "xo'rlanganlar va tahqirlanganlar"ni himoya qilish shiorlari ta'minladi. Jamiyatning kambag'al qatlamini To'g'ri yo'l partiyasi (TYP) ham, Onavatan partiyasi (OVP) ham, raqiblari ta'kidlaganidek, korrupsiya, o'zaro befoyda nifoqlarga o'ralashib qolib, unutib qo'ydilar. Turk sotsiologlari mamlakatning eng kambag'al qatlami hayotining quyidagi yashash sharoitlarini keltirdilar: kambag'allik chegarasida qolgan oilalarning umumiy ulushi 1994-yilda 48 %ga yetdi, jumladan, 23% oilalar aholining eng kambag'al qatlamini tashkil qilgan. "Dunya" gazetasining sharhlovchisi M.Melen saylovlardan keyin shunday yozgan: "Siyosiy urush hech qanday foyda keltirmadi, faqat inflyatsiya va o'g'rilikka olib keldi. Xalq bularni ko'rib turibdi va masjididan boshqa hech qanday umidi qolmadi".

«Farog'at» partiyasi saylovdagi o'z muvaffaqiyatini tezda amalga oshira olmadi, chunki armiya va FP bilan nizo yanada o'tkirlashdi va OAVda keng muhokama mavzusiga aylandi. Yilmaz – Chillerning yuzaga kelgan dunyoviy koalitsiyasi uzoq vaqt davom etmadi, biroq uning davrida harbiylar Isroil bilan harbiy hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolashga erishdilar. Bu 23-fevralda Tel-Avivda maxfiy tarzda yuz berdi. Turklarning vakili sifatida Turkiya Genshtabi rahbari o'rinbosari Chevik Bir, Isroil vakili sifatida esa Isroil Mudofaa vazirliklari rahbarlari qatnashdilar. Kelishuv tarixda birinchi marta ikki mamlakatga nisbatan hamkorlikdagi harbiy o'quvlar, manevrlar o'tkazish, chegaraviy elektron razvedka dasturini amalga oshirishda davlat harbiy kuchlarining o'zaro birlashuvini nazarda tutgandi. Turk-Isroil birlashuvi haqida turk jurnalisti Birandning yozishicha, Turkiya

uchun bu arab mamlakatlari bilan, jumladan Misr bilan munosabatlarning yomonlashuvini anglatardi.

Ikki dunyoviy partiya orasidagi partiyalararo va shaxsiy nizolar tugamadi va koalitsiya 1996-yilda parchalandi. Undan soʻng N. Erboqon T.Chiller bilan yangi koalitsiya haqida kelishuvga erishdi, TYP va FP oʻrtasidagi kelishuv vazir lavozimida bir partiya bilan boshqa partiya rahbarlari navbat bilan almashinib turishlarini nazarda tutardi. Koalitsion hukumatni birinchi boʻlib Erboqon boshqardi. U boshlangan 7-besh yillik doirasida (1996-2000) taklif qilinuvchi “kapital omonatlari manbalarini aniqlash boʻyicha paketlarni aniqlash” tizimi orqali iqtisodni sogʻlomlashtirish dasturini qabul qildi. 1997-yilning boshiga kelib hukumat 4 ta shunday paketni taklif qildi, ularning barchasi iqtisodiyotni sogʻlomlashtirishning asosiy quroli sifatida xususiylashtirishni tezlashtirish, ushbu jarayonga davlat yer maydonlari, GEOga tegishli binolarni keng jalb qilishni nazarda tutilar edi. 1996-yil yakunlariga koʻra, mamlakatda iqtisodiy oʻsish 8%ni, inflyatsiya darajasi 80%ni tashkil qildi. 1990-1996-yil oraligʻida tashqi qarz 49 mlrd. dollardan 76 mlrd. dollarga yetib, milliy daromadning 40%ini tashkil qildi. Energiya tashuvchilari, avvalambor, neft xomashyosi va neft mahsulotlari, tabiiy gaz importiga bogʻliq energetika iqtisodning eng zaif sohasi boʻldi.

Yangi hukumat 1997-yilda iqtisodiy oʻsish 8%ga oʻsishi, inflyatsiya esa 85%dan 60%ga pasayishi mumkin deb hisoblardi. Erboqon va Chiller koalitsiyasining tashqi siyosatida esa, Erboqonning majlisdagi muvaffaqiyati Turkiyaning nafaqat Saudiya Arabistoni vakilligidagi musulmon davlatlar, balki shialar Eroni bilan ham munosabatlarining yaxshilanishiga olib keldi. Shubhasiz, bunday qulay sharoitda turk dindorlari oʻzlarining madaniy faoliyatini nafaqat Turkiyada, balki Markaziy Osiyoda, Kavkazortida va Rossiyaning turk tilida soʻzlashuvchi hududlarida kengaytirishga intilganlar. Ushbu dunyoviy-islomiy koalitsiya uchun bosh vazir lavozimini egallagan Erboqon partiyasining Milliy yoyilish konsepsiyasi, yaʼni shariatga yanada ochiqroq chaqiriq qilish, uni qoʻllab-quvvatlash maqsadida mitinglar uyushtirishga intilishlari muhim va xarakterli edi. Harbiylar va dunyoviy qatlamning asosiy qarshi choralari tarixga “28-fevral choralari” nomi bilan qoldi (28-fevralda qabul qilingan «Farogʻat» partiyasini dunyoviy rejimga qarshi dushman sifatida taʼqiqlash, uni hukumatdan chetlashtirish haqidagi qatʼiy talablar).

1997-yil iyunda kuchaygan siyosiy inqiroz natijasida Erboqon-Chiller hukumati iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 12-iyulda majlis navbatdagi – dunyoviy koalitsion hukumatning ta'sis etilganligini tasdiqladi. Erboqon tarafdorlarining ijtimoiy faolligi yana Germaniyaga ko'chdi. Germaniyada istiqomat qiluvchi turk publitsisti shunday yozgan edi: “Germaniyadagi deyarli barcha diniy muassasalar turklar tomonidan tuzilgan... va kelajakda Germaniyada musulmonlikka qudratni faqat turklar beradi”. U shuningdek, agar ilgari turk xalqi islomga yaxshi munosabatda bo'lsa, endi hamma narsa o'zgarganligini alohida ta'kidlagan. Buning sabablaridan biri – ushbu din va islomdagi farzlar haqida tasavvur va bilimning yetishmasligidir. “Boshqa sabab – ba'zi musulmon guruhlarining german jamiyatiga dushmanona munosabatda bo'lganligidir.

Nemis politsiyasining 1993-yilgi ma'lumotlariga qaraganda, kurd tarafdorlari soni 5 mingga yetgan. Turk millatchilari esa “bo'z bo'rilar”ni hisobga olganda 5 ming, turli turk musulmon guruhlarini – 17 mingni tashkil etgan. Turk manbalarida esa Germaniyadagi ko'plab turk va aralash korxonalar birlashmalarining nomlari keltirilib, ularning Germaniya iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Bir manbaga ko'ra, Germaniyada 60 ming turk tadbirkori 350 ming nemis ishchisini ish bilan ta'minlagan.

Shuningdek, Turkiya OAVlarida turklarning Germaniyada malakali ishchilar sifatida kelib, hozirgi paytda biznesning ko'plab sohalarida ish beruvchilar, kichik, o'rta va yirik korxonalar egalariga aylanganini ta'kidlagan. Ko'plab turklar uchun Germaniya farovonlik va tinchlik manbaidir. Yevropadagi turk migrantlari ongini egallaganlar esa turli siyosiy yo'nalishdagi birlashmalarda, masjidlar qoshidagi birlashmalar, “idealistlar” va “bo'z bo'rilar”ning milliy “o'choqlarida”, talabalar birlashmalarida va yirik shaharlardagi universitetlardagi guruhlarda faoldirlar.

1996-yil holatiga ko'ra, Yevropada uyushmalar va masjidning soni 1994-yilning o'zidayoq 59 taga yetgan, a'zolarning soni esa mahalliy bo'limlarda 8 mingtaga oshib, 38128 kishini tashkil etgan. Yevropadagi turk diniy uyushmasining soni 128830 kishiga yetgan.

Ushbu firma va masjidlardan olinayotgan mablag'lar Turkiya, Bosniya va boshqa joylarga borib tushardi, buni Erboqonning jiyani – Mehmed Sabri Erboqon boshqarardi. U tadbirkorlik ham qilar edi – oziq-ovqat firmalari 480 masjidida o'z bo'limlariga ega edi. Har biri

kuniga 20-30 ming AQSh dollari miqdorida aylanma mablag'ga ega, ulardan soliqlar olinmasdi. "Milliy qarash"ning Yevropadagi faoliyatining ko'lami haqida yanada qiziq ma'lumot "Jumhuriyat"da keltirilgan: Yevropaning 252 shahridagi lagerlar va maktablar asosan Germaniyada joylashgan bo'lib, ularda 14 ming o'quvchiga shariatdan dars berilgan. Ba'zi o'quv markazlarida Qur'on va siyosiy islom o'rgatilgan. 126 maktab Germaniyaning 29 yirik shahri – Kyoln, Gamburg, Myunxen, Shtutgart, Berlin va boshqa shaharlarida darslar olib borgan. Markazi Braunshveygda joylashgan bolib, u tashkilotning Germaniyadagi yirik vakolatxonasi. O'qituvchilardan biri yozgi kurslarda chop etilayotgan material muallifiga bu yerda din darslaridan tashqari siyosiy islom darslari ham o'qilishini aytib o'tgan.

Boshqa nufuzli uyushma – Fatxulloh Gulen jamiyatining e'tibori Markaziy-G'arbiy Yevropa emas, Kavkazorti, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasiga qaratilgandi. Ushbu jamiyat faoliyatining yaqqol isboti Gulenga tegishli "Zamon" gazetasidir. Uning Yevropadagi nashri "Avrupa-Zamon" 1990-yildan boshlab Frankfurt-da 13 ming tiraj bilan 20 mamlakatda, jumladan, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Belgiya, Daniya va Shveysariyada tarqatilgan. 1998-yildan boshlab gazeta o'zining xususiy tipografiyasida chiqarila boshladi. "Zamon" 1994-yildan boshlab AQShda, Nyu-Yorkda "Zamon-Amerika" haftaligi sifatida 3 ming nusxa tiraj bilan chiqarilib, Kanadada ham tarqatilgan.

Turklarning G'arbiy Yevropaga migratsiyasi tadqiqotchilari Faruk Shen va Sedef Koray ikki turli madaniyat – islom va xristianlikning sivilizatsion kelishuvi chegarasi haqidagi murakkab mavzuga qo'l urganlar. Ular 1993-yilda "turk, boshqacha aytganda, islom madaniyati Yevropada barcha sohalarda o'z o'rniga ega bo'ldi. U yerda turk gazetalari, turk tilidagi kanallar, o'quv markazlari, islom maktablari, sport uyushmalari, siyosiy tashkilotlar paydo bo'ldi».

Bir qator Yevropa mamlakatlarida turk masjidleri politsiya nazorati ostiga tushib qoladi. 2000-yilda Gollandiyada "chaqmoq" operatsiyasi bo'lib o'tadi va uning doirasida mamlakatning turli shaharlarida uylarda tintuv o'tkaziladi, 23 kishi (turk) qo'lga olinadi. Qurol, qo'l granatalari, giyohvandlik moddalari, katta miqdorda pul mablag'lari topiladi. Politsiya qo'lga olingan odamlarning giyohvand moddalar savdosi, odam savdosida ayblanayotganini ma'lum qildi. Turkiya hukumati qoshidagi Diniy ishlar bo'yicha boshqarma ham faol ish

yuritdi. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida 1200 masjid qurildi, tashkil qilingan Qurʻon kurslarida 55 ming turk bolasi tahsil olardi. Ushbu boshqarma nazorat qiluvchi uyushmalar tikish-bichish kurslari, kompyuter kurslari, chet tillari va turk tilini oʻqitish kurslarini tashkil qildi. Vakillar shifoxonalar, qamoqxonalar, yordamga muhtojlarning uylariga borar, qiyin ahvoldagi turk fuqarolariga ruhiy va psixologik yordam berar, taʼziya marosimlarini oʻtkazar edilar.

XXI asr boshida mamlakatning ichki va tashqi siyosatida yuzaga kelgan asosiy muammolar

Yangi koalitsion hukumatning bosh vaziri lavozimini Ona Vatan partiyasi rahbari M.Yilmaz, bosh vazir oʻrinbosari lavozimini esa B. Ejeviy egalladi. 1998-yil fevral oyida Konstitutsion sud Farogʻat partiyasining yopilishi haqida qaror qabil qildi. Bu “dinga asoslangan tuzum”ga chaqirgan Erboqon va tarafdorlarining siyosiy faoliyat huquqidan mahrum qilinganligini anglatar edi. Soʻngra esa Farogʻat partiyasi oʻrniga tez orada Erboqonning ilgarigi izdoshi Rejai Kutan boshchiligidagi Fazilat partiyasi tuzildi. Partiya rahbari partiyaning maʼnaviy boshqaruvi Erboqonning qoʻlida qolganligini aytdi.

Harbiylarning keyinchalik davom etgan hukumatga tazyiqlaridan soʻng, dunyo OAVdagi koʻplab sharhlarda 28-fevral qarorlari “bajarilmayotgani” va shariat tarafdorlari oʻzlarining partiyalari, vaqf, maktablar, xoldinglarini tuzib saqlab qolayotganliklari va demokratiyaga asoslangan respublikani barbod qilishga qodir ekanliklarini yozdilar. Masalan, Yakub Kepenek siyosiy islom yanada kengayib borayotgani va oʻz ichida yengil koʻrinishlardan boshlab juda qattiq shakllargacha, ochiq arab tilidagidan yopiq turk millatparastligigacha parchalangani haqida yozgan. “U aslida jamiyat oldida yangi istiqbollarni, kompleks iqtisodiyotni, XXI asr ijtimoiy, siyosiy va madaniy dasturni ochishga qodir emas”. Shu bilan birga, Kepenekning taʼkidlashicha, “siyosiy islom kundan kun jamiyat ustidan boshqaruvni oʻz qoʻliga olmoqda. Hukumat amaldorlarining ochiqdan ochiq qoʻllab-quvvatlashi ostida davlat strukturalari shariat kadrlari qoʻliga oʻtmoqda... Bu hamma yerda sodir boʻlmoqda – taʼlimdan mudofaagacha, sogʻliqni saqlashdan vali va kaymakam lavozimlarigacha. Soʻnggi paytlarda bir narsa yanada oydinlashmoqda – Turkiyada maʼnaviy hayot kundan-kun islomiy tarafga qarab ogʻib bormoqda”.

Fazilat partiyasi Erboqon bilan aloqalarni uzradi. Uni oʻzining maʼnaviy yoʻlboshchisi deb hisoblashda davom etdi. Hukumat Fazi-

latning kadrlarini sud kuzatuviga olish tadbirlarini ko'rib, 1998-yilning sentyabri oxirida yangi partiyaning eng faol ishtirokchisi Farog'at partiyasining sobiq a'zosi Rajab Tayyip Erdog'onning 1994-yilda esa Istanbul shahar munitsipalitetini qo'lga olib 10 oyga qamoq jazosiga hukm qilinishiga erishdi. Aybnomada u 1997-yil 6-dekabr-dagi chiqishida JKning 312-moddasida ko'rsatilgan aholini dushmanlik va nafratga chaqirmaslik bandini buzganligi aytilgan edi.

1999-yil parlament saylovlari natijalariga ko'ra, Fazilat islomiy partiyasi majlisda uchinchi o'ringa tushib qoldi. Qo'lga kiritilgan ovozlar bo'yicha birinchi o'rinni Ejevitning So'l Demokratik Partiyasi (22,1%), ikkinchi o'rin A.Turkeshning izdoshi Davlat Baxcheli boshchiligidagi MHP (17,9%), uchinchi o'rin – Fazilat partiyasi (15,4%), to'rtinchi o'rin Ona Vatan partiyasi (13,2%), beshinchi o'rin esa TYP (12%) ga tegdi. Fazilat partiyasining ushbu saylovlarda muvaffaqiyatni qo'ldan boy berishining sabablari, islomchilarning fikricha, sobiq Farog'at partiyasining qolgan rahbarlari e'tiqod qiluvchilarning ishonchidan ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun emas, o'zlarining moliyaviy qudratini mustahkamlash uchun foydalanganlar. Ba'zi tariqatlar va uyushmalar o'zlarining quyi strukturalaridan ajralib qolishdan qo'rqa boshladilar. Bu rahbarlar, jumladan Erboqon va Kutan, partiya rahbariyatiga Erdog'onni kiritishdan bosh tortdilar, bu esa ularning hukmronlikni o'zlarida saqlab qolish istaklarini ko'rsatar edi.

Fazilat partiyasi XX asr oxirida mamlakatda islomni qonuniy tarzda targ'ib qiluvchi so'nggi partiya bo'ldi: 2001-yil iyunda Konsitutsion sud qaroriga ko'ra u ham boshqa partiyalar yopilgani sababli yopib qo'yildi. Shundan so'ng uning tarafdorlari kirib kelgan XXI asrda yangi hayot boshlashga qaror qildilar. Ular allaqachon parlamentda o'zlarini "an'ana va yangilik tarafdorlari" kabi ikki partiyaviy guruhga ajratdilar. Fazilat partiyasi taqiqlangandan so'ng, ikkala guruh ham o'z mistaqil islomiy partiyasini tuzib rasmiyalshdi. Birinchi guruh Saodat partiyasini tuzdi. Bu partiya rahbari Rejai Kutan Erboqonni qattiq hurmat qilgan. U esa partiyaning faol qo'llab-quvvatlagan. Ikkinchi, "yangilanish tarafdorlari" o'zlarini yengil islom tarafdorlari deb e'lon qildilar va Adolat va Taraqqiyot ("Adalet va Kalkinma") partiyasini tuzdilar va rahbar sifatida R.T.Erdog'anni sayladilar. O'sha paytdan boshlab Erboqon va uning kamchilikni tashkil etayotgan tarafdorlari, jumladan, R.Kutan ijro hokimiyatiga kira olmadi.

XX asr oxirida Fatxulloh Gulen boshchiligidagi nurchilar faollik ko'rsata boshladi. Bir yarim yillik prokuror tergovidan so'ng Genshtab boshlig'i general Qivriqo'g'lining 2000-yil 30-avgustda F. Gulenni oxir-oqibat sudda javobgarlikka tortish haqidagi so'rovi shovshuvga sabab bo'ldi. Ertasi kuni davlat xavfsizligi sudi prokurori N.M.Yuksel sudga F.Gulenga nisbatan 79 betli aybnomani taqdim etdi. Biroq, sud sirtqi xarakterga ega edi, chunki ayblanuvchi bir yarim yil davomida AQShda davolanayotgan edi.

Aybnomada ta'kidlanishicha, Fatxulloh Gulen "O'ziga tegishli bo'lgan maktablar, internatlar va kurslarda ta'lim olgan kadrlar yordamida Otaturk prinsiplarini inkor qilishga va dunyoviy respublikaga barham berib, shariatga tayanuvchi jamiyat qurishga intilgan". Ayniqsa, Gulen guruhining Harbiy kuchlar tarkibiga "so'zsiz va chuqur kirib borishi" kuzatilgan. Ayblovlarda video kassetalar, maktablarning O'rta Osiyodagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar, Maltepa-dagi harbiy litsey, davlat muassasalari, jumladan, ta'lim va xavfsizlik organlariga kirib borishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xorijda maktablar tuzishdan maqsad – o'sha mamlakat uchun ma'muriy kadrlarni tayyorlash, kelajakda ularning bu paytgacha islom mamlakatiga aylanuvchi Turkiyaga xayrixohligini ta'minlash edi. Ayblovning xulosa qismida dunyoviy rejimni islomiy rejim bilan almashtirishni maqsad qiluvchi tashkilotni tuzish bo'yicha faoliyat uchun, terrorizmga qarshi kurash haqidagi Qonunning 7-moddasi birinchi bo'limiga binoan, F.Guleni 5 yildan 10 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilindi.

Fatxulloh Gulen ishi bo'yicha birinchi sud ishi 2000-yil 16-oktyabrda Anqara davlat xavfsizligi sudida AQShda yashovchi javobgar shaxs ishtirokisiz o'tkazilgan. AQSh va Turkiya o'rtasida imzolangan huquqiy aktlarga ko'ra, Amerika tomonidan saylangan prokuror 6-noyabrda F.Gulenni so'roq qilgan.

1999-yil 18-aprel saylovlari natijalarida esa islomiy kuchlar tomonidan 1997-yilda keltirilgan chuqur siyosiy inqiroz, u bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan jamiyatdagi kuchli qarshilik, Farog'at partiyasi va tariqatlarning mamlakatda dunyoviy tuzumni yo'q qilishga urinishlarini tasdiqlovchi salbiy faktlarning e'lon qilinishi yaqqol ko'zga tashlanayotgan edi. Bir turk jurnalida aytilganidek, "Bizning jamiyatimizga tahdid soluvchi siyosiy beqarorlik yaxshilik olib kelmadi, jamiyat ulardan charchadi". Farog'at partiyasidan keyin sahnaga chiqqan Fazilat partiyasi 15,4% ovoz olib, 3-bo'ldi va

majlisda o'zining ustunligini yo'qotdi. Saylovlardan so'ng Harbiy Genshtab rahbari X.Qivriqo'g'li 1997-yil 28-fevralda boshlangan jarayonning hali tugamaganligini ta'kidladi.

O'sha paytda muhim qarorlar qonun darajasiga chiqmadi. 1999-yil 28-aprelda o'zlarining yetakchilari bilan Demokratik So'l Partiyasi, Milliatchi Harakat Partiyasi (MHP) va Ona Vatan partiyalari ishtirokida Turkiyaning 58-hukumati tuzildi. 1999-yil saylovlarida Ejevit (22,1 %)ning Demokratik So'l Partiyasidan keyin ikkinchi partiya bo'lgan MHP o'zini jamiyatda ommalashishi va milliy meros panturonizm doktrinasi borasida qayg'urar edi. A. Turkeshning vafo-tidan keyin partiyani Anqara Iqtisod va savdo Akademiyasi bitiruvchisi, G'ozi Universiteti iqtisodiyot fanlari doktori Davlat Bah-chali (1948 yilda tug'ilgan) partiya boshqaruvini o'z qo'liga oldi. Ejevitning uch partiyadan iborat koalitsion hukumatida Ejevit o'rinbosar va davlat vaziri lavozimlarini egalladi. Hukumatda uning safdoshlari muhim bo'lgan beshta vazir lavozimi, mudofaa vaziri, jamoat ishlari, sog'liqni saqlash, transport va telekommunikatsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo vazirliklariga ega chiqdi. Diniy jamoalarga yon bosgan holda ular uchun bir qator shaharlarda "mafkuraviy" ta'lim olayotgan talabalar uchun yotoqxonalar ochildi va "men-turkman, men-musulmonman" deganlarning barchasi qabul qilinar edi. Keyingi chiqishlarda MHP ning parlamentar guruhi o'rinbosari Omer Ezgining bayonotini misol qilish mumkin. Uning fikriga ko'ra, agar Yevropa Ittifoqi Turkiyaga nisbatan bo'lgan talablari sababli mamlakatning ikkiga bo'linib, hududiy yaxlitlikka xavf solinsa, Turkiya bu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi imkonsiz deb baholandi. Ona Vatan Partiyasi raisi va bosh vazir o'rinbosari M.Yilmazning mamlakat janubiy-sharqiy hududi (kurdlar muammosi) muammolarini hal etishda Yevropa Ittifoqi moliyaviy yordami shartlari to'g'risidagi MHPning hukumat a'zolari tomonidan tanqidga uchradi. "Agar Yevropa Ittifoqi bizga nima qilish kerak, nima qilmaslik kerakligini o'rgatadigan bo'lsa, biz ularsiz ham eplaymiz" - deb Omer Ezgi Yevropa Ittifoqi talablariga MHP sira ham rozi bo'lmasligini aytdi.

U Ojalan va uning safdoshlariga nisbatan o'lim jazosini bekor qilish haqidagi Yevropa Ittifoqi talabiga norozilik bildirdi. Agar bu shartlar bajarilsa, Yevropa Ittifoqi bizni qabul qilmay qo'ya qolsin. Yevropa Ittifoqi mamlakat hududiy yaxlitligiga daxl qilsa, MHP unga qo'l cho'zmaydi. Hukumatda o'z partiyasini tamsil qilayotgan partiya

liderlari o'z partiyasi vakili, 1980-yilda harbiy to'ntarishlar natijasida sudlangandilar shafqatsiz terrorchi Haluk Kirjining amnistiyasiga erishishga harakat qilishdi. Biroq amnistiyaga erishish sayi-harakatlariga boshqa siyosatchilar qarshilik qilishgani uchun o'ylagan niyatlatiga erishmadilar.

Yangi hukumatning muhim tadbirlaridan biri xususiylashtirish edi. Yangi hukumatda shu ishlarga mas'ul davlat vaziri Yuksel Yalova o'zining partiyasi MHPning xususiylashtirish siyosatiga qarshilik qilish maqsadi bo'lmaganligini ta'kidlab: "Men o'zimning siyosiy kelajagimni xususiylashtirishni bekor qilish bilan bog'lamayman. Men uchun Turkiyaning kelajagi siyosatdan ustunroq" – degan edi. Vazirning tasdiqlashicha, Xususiylashtirish boshqarmasi portfelida 74 ta sotishga tayyor turgan davlat mulklari aksiyalari mavjud bo'lib, 2000-yilda sotiladigan mulklardan 74 tadan 25 taga tushirilgan holda 5,3 mlrd. AQSh dollarigacha qiymatni chiqarish kutilmoqda. Davlat sektoridan yog'ochga ishlov berish, qora metallurgiya, turizm, o'g'it ishlab chiqarish, kemasozlik sohalari nazarda tutilgan edi.

"Milliyet" gazetasida 2000-yilda savdolashuv yoki birja orqali sotilishi kerak bo'lgan mulklar sanab o'tildi: yopiq savdo orqali Petrol ofisining 51%i, Yarimjadagi Petkim neftkimyo kombinati, Etime-sutdafi yog'ochni qayta ishlash zavodi, yopiq birja savdosi orqali investitsiya kiritish sharti bilan Isdemir metallurgiya kombinati, Qoradengiz mis eritish kombinati yer uchastkalari, "xalq" savdosi (fond birjasi orqali) Tyuprash neftni qayta ishlash zavodi, Turk havo yo'llari va Istanbul kimyoviy o'g'itlar zavodi aksiyalar bloki, SEKA selluloza kombinati mulklari va b.

Yuqorida sanab o'tilgan obyektlardan shu narsa ma'lumki, xususiylashtirish ro'yxatiga kiritilgan bo'lsada, ularning aksari uzoq vaqtgacha davlat qo'l ostida qolgan. Turkiyaning hukmron elitasi 1980-yillarning ikkinchi yarmidan davlat mulklarini xususiylashtirish orqali bozor munosabatlariga o'tishning shartlarini bajarishda katta qadamlar tashlagan. Bu borada yutuqlarga erishilganligiga shubha yo'q. O'tgan yillar davomida davlatning iqtisod ustidan monopoliyasi va huquqiy ustunligi bekor qilindi.

Xususiy tadbirkorlik tekstil, oziq-ovqat, avtomobilsozlik, elektronika va maishiy texnika, poligrafiya, turizm, qurilish, uncha katta bo'lmagan moliya tashkilotlari, banklar va turli fondlarni o'z ichiga olgan edi.

Davlat sektorining iqtisodiyotdagi o‘rnini to‘liq bekor bo‘lganligi haqida gapirishga hali erta edi. 1990-yillar statistik, rivojlanish rejalari va iqtisodiy hisobot ma’lumotlarida davlatning jiddiy iqtisodiyot sohalarida, inflyatsion jarayonlar, davlat mulklari byudjet holati, davlatning sanoat va ijtimoiy infrastrukturadagi roli, qishloq xo‘jaligi va texnologiyalarning rivojlanishidagi ta’sirini alohida ta’kidlash mumkin.

Turli sabablarga ko‘ra, XXI asr boshlarida energetika, temir yo‘llar, havo yo‘llari, dengiz portlari, quvur yo‘llari, aerodromlar, mudofaa kompleksi va aloqa sohalari qisman yoki, to‘liq davlat nazoratida edi. Davlat sezilarli darajada chetdan g‘alla, tamaki, choy, spirt, shakar, agrotexnika, kimyoviy o‘g‘itlar, chorva va qimmat urug‘larni import sifatida sotib olinishini nazorat qilar edi. Turkiya davlat banklari orasida eski banklardan Markaziy bankdan tashqari Qishloq Xo‘jaligi banki va Xalq banki qolgan edi. Davlat qo‘li ostida shahar va qishloq hududlarida kam bo‘lmagan yer hududlari jamlangan edi. Xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy sohada kichik yutuqlarini sanab o‘tish mumkin, masalan: sog‘liqni saqlash, klinikalar, ta’lim sohasi davlat tomonidan hali ham moliyalashtirilsada, xususiy kollejlari va universitetlar faoliyat olib borardi. Turk statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, davlat davolash majmualari, maktablar va universitetlar to‘laligicha davlat hisobidan ta’minlangan bo‘lib, ular qatoriga ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanadigan markazlardan eng yirigi hisoblangan TUBITAKni keltirish mumkin.

XX asrning oxirgi yillarida 1995-yildagi iqtisodiy o‘sishtan keyin 1999-yilga kelib bir qancha muammolar yuzaga keldi. O‘zining xususiyat ko‘lami va jamiyat hayotiga ta’siri bilan mamlakat tarixida hisob bo‘yicha oltinchi, Ikkinchi jahon urushidan keyingi bo‘lgan iqtisodiy inqiroz kuzatila boshlandi. Bu yerda davlat sektori qarzi va foizlarining o‘sishi, ichki talabning kamayishi, kapital kiritilishning kamayishi, 1999-yilgi saylovlar arafasida siyosiy beqarorlik, mamlakat g‘arbida yuz bergan zilzila oqibatlarini va turizmning qisqarishi kabi omillar o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

1999-yil sektorlar bo‘yicha pasayish ko‘rsatkichlari quyidagicha edi: qishloq xo‘jaligida - 4,6%, qazib chiqarish va qayta ishlash sanoatida - 5%ga, xizmatlar sohasida (qurilish, savdo va kommunikatsiya) - 5,1%. Umuman olganda, YaIM 1999-yilda 6,4%ga tushib ketdi. Iste’mol kamaydi, investitsiya hajmi qisqardi, tashqi talab tushdi. Davlat sektorida ichki talab hajmi 4,1%ga, xususiy sektorda

19,6%ga kamaydi. Sanoat quvvatlaridan foydalanish 1998-yilda 76,5%ga, 1999-yilda 72,3%ga tushdi. Bu ko'rsatkich xususiy sektorda 69,7%ni tashkil etdi.

1999-yildagi saylovlardan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan koalitsion hukumat inqirozdan chiqish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirdi, lekin Turkiyaning o'zida va G'arbda ham sezilarli muvaffaqiyatga erishilmaganligi tan olindi. XVF tomonidan taklif qilingan 2000-2002 yillarda barqarorlashuv dasturini amalga oshirish uchun "kamarlarni tortish" siyosati boshlatildi. 2001-yilning Turkiya uchun qiyin kelishi OAVda ko'p yozildi. Ichki qarzlari 40 mlrd, tashqi qarzlari 120 mlrdni tashkil qilayotgan edi. Turkiya 10,045 mlrd.lik tashqi qarzni uzdi. 2001-yil yangi hukumatning ishga kirishishi oldidan bosh vazir bir matbuot konferensiyasida mamlakatning noyabr va dekabr oylarida murakkab iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan o'tkazganligi, yangi hukumatning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy adolat ekanligi ta'kidladi. XVFnin shoshilinch 10 mlrd AQSh dollaridan iborat moliyaviy yordami bekor qilindi. Hukumat yangi samarali yordam mablag'larini qidirib byudjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida xususiylashtirishni tezlashtirishdi.

Istanbul Savdo palatasi 2001-yil iqtisodiyotning real sektorida bank inqirozi narxlarning oshishiga olib kelishini bashorat qildi. Iqtisodiy bashorat mualliflaridan birining fikricha, valyuta tushumini oshirish, bandlikni ta'minlash va daromadlarni oshirish uchun turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqish kerak edi. Muallifning tavsiya qilishicha, Rossiya va Xitoy, hatto Iroq, Eron va Suriyaga eksportni amalga oshirishni kengaytirish kerak edi. "Turkiya yaqin qo'shnilari bilan savdo aloqalarini o'rnatib bo'lmaydi deb hisoblashni bas qilish kerak. Ayni vaziyatda ham Turkiya tovar va xizmatlarni eksportini Iroq, Eron va Rossiyaga qisqa muddatda 15 mlrd. AQSh dollarigacha chiqarishi mumkin edi.

Inqirozning ilk ko'rinishlari 2001-yil boshlarida ko'zga tashlana boshladi. Turk matbuoti shunday sharoitda Turkiya qiyinchilik bilan erishilgan mintaqa yetakchiligini saqlab qola oladimi degan masalani ko'tardi. "Milliyet" gazetasi tahlilchisi yil boshida "Nega biz dumga osilib qoldik?" degan so'rovi orqali asosiy sabablar qilib siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik va korrupsiyaga ishora qildi. "Agar fikrlashimizni o'zgartirmasak, Turkiya Yaqin Sharqdagi ikkinchi darajali mamlakatga aylanadi" deya ta'kidladi. So'nggi 50 yillik iqtisodiy

o‘shish dinamikasini baholagan prof. Erdog‘an Alkin turk iqtisodiyoti boshlang‘ich nuqtasi kuchsiz boshlanishini hisobga olinmasa, yillik o‘rtacha 5% lik o‘shishga erishganligini sezilarli ijobiy baholash mumkinligini ta’kidladi. Shu sababli ta’lim tizimini to‘liq o‘zgartirish, texnologiyalarni rivojlanishida ortda qolib ketmaslik, davlatning iqtisodiyot ustidan nazorati imkoniyatini cheklash kerakligiga urg‘u berildi.

Tahlilchi Metin Munir "Aktyuel" jurnalida "Turkiyada inqiroz odatiy holat" deya qayd etadi. U 2000-yildan boshlab XVF bilan iqtisodiy barqarorlashtirishning uch yillik (2000-2002-yy.) dasturiga ko‘ra, inflyatsiya darajasini tushirishga kelishilgan edi. Biroq, dastur ijrosi bajarilishi bilan Turk lirasining kursi erkin qo‘yib yuborildi. Devolvatsiya yuz berishi natijasida 2000-yillarda inflyatsiya taxmin qilinganidek 25%ga emas, 35%lik darajasigacha chiqdi. Inqiroz ijtimoiy qatlamni to‘liq qoplab, Turkiyada anchadan beri kuzatilmagan qashshoqlik va korrupsiyaga qarshi norozilik namoyishlari yuz berishiga sabab bo‘ldi. Hukumatga qarshi ommaviy ko‘p sonli norozilik chiqishlari Istanbulda, Bursada mayda savdogarlar chiqishi bo‘lib o‘tdi.

Zamonaviy Turkiyaning ichki va tashqi siyosati

So‘nggi yillarda Turkiyaning iqtisodiy jihatdan shiddat bilan rivojlanishi va mamlakatdagi siyosiy hayotning demokratlashishi, uning nafaqat musulmon olamida, balki butun boshli rivojlanayotgan mamalakatlar uchun iqtisodiy-siyosiy modelga aylanishiga sabab bo‘lgan edi. Bunday ijobiy pozitsiyadan foydalangan Turkiya, o‘zining siyosiy ambitsiyalarini yaqin qo‘shni mamlakatlarga yoya boshladi. Rivojlanishning asosiy sababchisi bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy tizimga zarar yetkazmaslik va uni ushlab turish maqsadida Turkiya o‘zini o‘rab turgan siyosiy jihatdan beqaror qo‘shni mamlakatlar hamda o‘zining Yevropa va Osiyo, Shimol va Janub o‘rtasidagi siyosiy-geografik pozitsiyasi (bir vaqtning o‘zida ham qulay, ham xavfli joylashish) tufayli to‘qnashuvlardan saqlanish maqsadida zamonaviy tashqi siyosiy konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Konsepsiyaning asosini "qo‘shnilar bilan nol muammo" g‘oyasi tashkil qilgan edi. Paradoksal ravishda o‘zining qo‘shnilari bilan nol muammo shiori bilan mashhur bo‘lgan bu konsepsiya o‘z shioriga tamomila teskari natijalarni berdi. Bunga sabab Turkiya siyosatchilarning uzoqni ko‘ra bila olmaganliklari va bugungi zamonaviy Turkiyaning rivojlanishi, siyosiy ambitsiyalari va geografik joylashu-

viga ko‘ra nafaqat qo‘shni mamlakatlar bilan, balki xalqaro miqyosda ham dushmanlar orttirishi turgan gap ekanligini tushunib yetmaganligidadir. Hozirgi Turkiya siyosiy va iqtisodiy holatiga ko‘ra hamma bilan birdek do‘st bo‘lishga qodir bo‘lgan neytral davlatga aylana olmasligi oldindan ma'lum edi. Bunday reallikka ko‘z yumgan holda mamlakatning siyosiy pozitsiyalarini abstrakt va tushunarsiz belgilash, Turkiyani nafaqat hamma bilan do‘stlikni saqlab qolishiga yordam bermadi, balki uni hamma bilan dushmanga aylanishiga olib keldi.

Xalqaro ziddiyatlar

Turkiya tashqi siyosatidagi muammolarhaqida so‘ramiz. Xalqaro miqyosda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, Turkiya geografik jihatdan bir nechta geopolitik tuzilmalar orasida joylashgan bo‘lib, bu joylashuv avvalo uning iqtisodiy rivojlanishida asosiy ustun bo‘lsa, boshqa tomondan xalqaro maydonda bu joylashuv Turkiyaning doimiy ravishda siyosiy muhokamalarga duch kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki u ko‘pincha turli geopolitik tuzilmalarnig uchrashuv joyiga aylanib qoladi. Bunday holda to‘g‘ri tanlovning o‘zini topish qiyin, faqat kamroq zarar keltiradigan tanlovni amalga oshirish mumkin. Janubda Arab dunyosi, Shimolda Rossiya, G‘arbda Yevropa Ittifoqi Sharqda Eron va O‘rta Osiyo – ikkilanmasdan aytish mumkinki, Turkiyaning geografik joylashuvi ayni paytda uning tashqi siyosati murakkablashishiga sababdir.

Ko‘pchilik mutaxassislar Turkiyaga tashqi siyosat nuqtai nazaridan beqaror mamlakat deya qaraladi. Bir hisobdan, tarixan bu to‘g‘ri tashxis, lekin masalaga yaqinroqdan nazar tashlansa, tashqi siyosatdagi o‘zgaruvchanlik Turkiya tomonidan xohlab qilinganini emas, balki xalqaro maydondagi o‘zgarishlar Turkiya tashqi siyosatidagi pozitsiyalar tez-tez yangilanishiga sabab bo‘lganini ko‘rish mumkin. 1952-yilda Turkiyaning NATOga a‘zo bo‘lishi uni G‘arbgga intilayotgan mamlakat sifatida ko‘rsatishi mumkin, lekin o‘sha davrdagi dunyodagi ikki qutbli ideologik siyosiy lager nazarga olinsa, Turkiya oldida boshqa tanlov yo‘q edi. Turkiyaning G‘arb mamlakati emasligi dastlab 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan, Turkiyaga nisbatan G‘arbda teng huquqli sherik sifatida emas, balki NATOga Sovet Ittifoqiga qarshi kurashish uchun qabul qilingan “begona” mamlakat yoki taktik sherik sifatida qarash boshlanishi bilan, so‘ngra esa Yevropa Ittifoqiga a‘zolikning rad qilinishi bilan ko‘rinib qoldi.

Ayni paytda Turkiyaning Arab dunyosida ham qiladigan ishi qolmaganligi Arab bahori va undan soʻngi Musulmon Birodarlarining siyosiy magʻlubiyati bilan koʻrsatib berildi. Tarixiy jihatdan Usmoniylar Imperiyasining hududini tashkil qilgan bugungi Arab mamlakatlarning deyarli barchasida Turkiyaga yo dushman yoki raqobatchi koʻzi bilan qaraydigan hukumatlar oʻrnashib oldi. Suriyadagi fuqarolar urushi va undagi Turkiya strategiyasining boshi berk koʻchaga kirib qolishi uning Arab dunyosi bilan ham siyosiy va ham geografik jihatdan uzilib qolishiga olib keldi.

Eron va Rossiya oʻziga yarasha geopolitik tuzilmalar boʻlganligi tufayli va Kavkazda joylashgan Armaniston, Rossiya va Eronning kuchli taʼsiri bu hududda ham Turkiyaning kelajakdan koʻp umid qilmasligini koʻrsatadi. Garchi Oʻrta Osiyoda xalqlar kelib chiqishlariga koʻra oʻzlarini turkiy xalqlar sanasada, siyosiy jihatdan bu mamlakatlar Turkiyadan tubdan farq qiladi.

Yevropa Ittifoqi va Turkiya munosabatlari haqida saytlarda maqolalar koʻp. Turkiyaning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi uzoq tarixga ega. 1987-yildayoq Turkiya Yevropa Ittifoqining oldingi koʻrinishi boʻlgan Yevropa Hamjamiyatiga kirish uchun oʻz kandidatini koʻrsatgan. Ikki tomon oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar juda ham muhim boʻlib, masalan 2012-yilda Turkiyaga chetdan keladigan investitsiyalarning 75% Yevropa Ittifoqidan kirib kelgan va Turkiyaning 40% eksporti Yevropa Ittifoqiga qaratilgan. Iqtisodiy va tarixiy yaqinlikdan tashqari Turkiya YIga eng koʻp sonli immigrantlarni joʻnatadigan mamlakatlardan biri hisoblanadi, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari 3 milliondan ortiq Turkiya fuqarolari istiqomat qiladi, shulardan faqat 1,6 millioni Germaniyadadir. Hozirgi kunga kelib Turkiyaning Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirish masalasi deyarli kun tartibidan olib tashlangan, bunga bir qancha sabablar mavjud. Turkiyadagi shaxsiy va matbuot erkinliklariga davlat tomonidan xavf solinayotgani, Arman genotsidini Turk hukumati tomonidan tan olinmasligi va Yevropa Ittifoqini hozircha oʻz hududlarini kengaytirmaslikka qaror qilgani Turkiyani YIga qoʻshilishiga toʻsqinlik qilyapti. Turkiya Yevropa Ittifoqiga hozircha qoʻshila olmasligini tushunib yetgandan soʻng, uning Ittifoqqa qarshi reaksiyasi keskin boʻldi. Mamlakatda Yevropa Ittifoqi qadriyatlariga qarshi oʻlaroq diniy va milliy qadriyatlarni kuchaytirishga eʼtibor berildi. Shu davrgacha kamolistlar tomonidan qora satrlar bilan bitilgan Usmoniylar imperiyasi tarixi va uni islom

dunyosi peshvoligi bo'lganligi haqidagi nutqlar hatto yuqori siyosiy doiralarga ham kirib keldi. Bundan tashqari, Turkiya Yevropa Ittifoqidan uzoqlashgan holda Rossiya va sanksiyalar ostidagi bo'lgan Eron bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirgan edi. Suriyadagi inqirozda IShIDning kuchayishi va unga qarshi kurashayotgan eng muhim kuchlardan biri Kurdlarning G'arbliklar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi G'arb va Turkiya munosabatlarini uzil-kesil sovushiga olib keldi.

Rossiyaning Suriyaga kirib kelishi va Turkiya tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan Suriya turkmanlari ustiga bomba tashlanishi Turkiyani Rossiyaga bu hudud unga tegishli ekanligini bildirib qo'yishiga olib keldi. Bu ishora Su-24 bombardimonchi samolyotini urib tushirish orqali bildirildi. Bundan tashqari, Parijdagi 13-noyabrdagi terroristik hujumlardan so'ng, Yevropa Ittifoqi asta-sekinlik bilan Rossiya bilan Suriya inqiroziga yechim topish uchun yaqinlasha boshlagan edi. Su-24 samolyotini urib tushirish orqali Turkiya o'zi a'zo bo'lgan NATO ittifoqi va Rossiya o'rtasida mojaro chiqarish orqali bu yaqinlashishni to'xtatishni rejalashtirgan edi. Lekin NATOning bu voqeaga nisbatan reaksiyasi Turklar kutgan natijani bermadi, garchi rasmiy jihatdan NATO Turkiyani yonining olgan bo'lsada, norasmiy tomondan u Turkiya uchun Rossiya bilan to'qnashuvga kirishmasligini bildirib qo'ydi. Ushbu voqea Turkiya uchun yana bir bor uning G'arb mamlakatlari bilan munosabati va NATOga a'zoligi faqatgina uning tarixiy va geografik jihatdan sobiq Sovet Ittifoqiga munosabatining mahsuli ekanini bildirib qo'ydi.

Mintaqaviy kelishmovchiliklar

Turkiya mintaqaviy jihatdan deyarli barcha qo'shnilari bilan dushman mamlakatga aylanganga o'xshaydi. Bugungi kunda Turkiya o'zi kutmagan holda o'z chegaralari bo'ylab dushmanlar halqasini yaratib o'zini-o'zi ularga asir qilib qo'yganday. Hozirgacha Turkiya bilan katta kelishmovchiliklarga duch bo'lmagan qo'shnilardan biri Gruziya bo'lib, u Turkiya uchun nafaqat Kavkaz, balki O'rta Osiyoga ham yo'l ochib beruvchi yo'lakdir. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar almashinuvi 1995-2015-yillarda 20-barobarga oshgan, shuningdek, Turkiya Gruziyadagi Batumi va Tbilisi aeroportlarini qurilishida asosiy homiy bo'lgan. Gruziya Turkiya uchun Ozarbayjondan keluvchi temir yo'llari va quvur transportlarini Turkiya hududi orqali o'tkazish uchun asosiy mamlakatdir. Lekin Turkiya va Gruziya hamkorligi sof

iqtisodiy maanfatlar ustiga qurilgan bo'lib, har qanday siyosiy o'zgarish bu hamkorlikka chek qo'yishi mumkin. Gruziya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil qiluvchi YIga va NATOga a'zolikka qabul qilinish uni kelajakda Arman genotsidini tan olishi yoki Ozarbayjondagi Qorabog' masalasiga Yevropa Ittifoqi nuqtai nazaridan yondashishiga olib kelishi mumkin. Bunday o'zgarish ikki davlat o'rtasida sovuqchilikni keltirib chiqarishi turgan gap. 2014-yilning fevral oyida Gruziya prezidenti Georgiy Margvelashilining Yerevandagi Arman genotsidi xotirasi uchun qurilgan Tsitsernakaberd yodgorligiga tashrif buyurishi va genotsid qurbonlari xotirasiga atab ko'chat o'tqazishi Turkiya va Gruziya orasidagi munosabatlarni qanchalik nozik ekanligiga yana bir isbotdir.

Turkiya va Armaniston o'rtasidagi munosabatlar hech qachon yaxshi bo'lmagan. Chunki Turkiya haligacha 1915-yilda armanlarga qarshi qilingan genotsid va uning oqibatida 1 milliondan ortiq armanlar halok bo'lgan degan da'voni tan olmagan. Tarixning vazni faqatgina ikki davlatning yaqinlashishiga xalaqit berib qolmasdan, so'nggi yillarda ushbu muammo yuzasidan Turkiyaning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga sabab bo'lmoqda. 2015-yilda arman genotsidining 100-yilligini xotiralanishi va bunda Turkiyaning deyarli barcha hamkorlarining ishtirok etishi Turkiya uchun qaqshatqich siyosiy zarba bo'ldi. Turkiya uchun arman genotsidini tan olish katta siyosiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Bunday voqea o'z-o'zidan Armaniston tomonidan Turkiya hududiga da'volar paydo bo'lishi va albatta xalqaro qonunlarga ko'ra, Turkiya tomonidan genotsid qurbonlari uchun katta miqdorda tovon to'lanishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, Armaniston va Turkiya munosabatlari yaqin kelajakda tuzalmasligi va chegaralar yopiqligicha qolishi mumkin.

Turkiyaning hudud jihatdan eng katta qo'shni bo'lgan Eron bilan aloqalari iqtisodiy hamkorlikdan nariga o'tmagan. Eron Turkiyaga neft yetkazib beruvchi davlat sifatida birinchi va gaz yetkazib beruvchi sifatida ikkinchi o'rinni egallaydi. 2012-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun Kars (Turkiya) va Jolfa (Eron) shaharlari orasida temir yo'l liniyasini ishga tushirishga qaror qilinadi, shu loyiha bilan birgalikda ikki davlat chegarasida erkin tovar almashish zonasi tashkil etiladi. Turkiyaning Eronga bo'lgan munosabati har doim G'arb mamlakatlaridan farqli bo'lgan. Masalan, Anqara Eronga qarshi G'arb sanksiyalariga BMTda

qarshi ovoz bergan, Eron va G'arb o'rtasidagi muzokarachi davlatga aylanishga harakat qilgan. Bunga sabab Turkiya ham Eron kabi o'zining Yadro stansiyalarini rivojlantirishga harakat qilyotganida va Eronga qarshi sanksiyalarini olib tashlanishi Turkiyaning iqtisodiy o'sishiga katta turtki bo'lgan bo'lar edi. Shu paytgacha Turkiya Eronga qarshi Xalqaro sanksiyalarni chetlab o'tib, u bilan noqonuniy tarzda iqtisodiy hamkorliklarni amalga oshirganligi haqida axborotlar tarqagan. Lekin ikki davlat o'rtasidagi siyosiy qarashlarning keskin farq qilishi va Eronning Turkiya o'ziga dushman deb biladigan Suriya, Iroq va Armaniston bilan yaqin hamkorliklari so'ngi yillarda ikki mamlakat orasiga sovuqchilik soldi. Ayniqsa, Suriya inqirozi boshlangandan beri, Eronning Bashar al-Asad va boshqa shia kuchlariga to'g'ridan-to'g'ri yordam qo'lini cho'zishi, kurdlar armiyasiga ISHID-ga qarshi kurashishda harbiy ko'mak berishi va xalqaro maydonda Bashar rejimini himoya qilib chiqishi Eron va Turkiyaning bir-biridan uzoqlashishiga olib keldi. So'ngi voqealar - Turkiya qo'shinlarining Iroq hududlariga kirib borishi esa turk-eron munosabatlarini yanada chigallashtirdi.

Turkiya Iroq bilan munosabatarda doim ehtiyotkor bo'lgan. Birinchidan, geopolitik sabablarga ko'ra na Saddam Xusayin davrida va na undan keyingi shialar rejimi davrida Turkiya Iroqni o'ziga do'st mamlakat deb bilgan. Bundan tashqari, Saddam Husayin davri va AQShning Iroqqa harbiy intervensiyasi davomida Turkiya G'arb qo'shinlarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlab, urushda ular uchun orqa bazalar va ba'zida askarlar bilan ham ta'minotchi vazifasini bajargan. AQSh tomonidan Bag'dodda shialar rejimini o'rnatilishi va buning ustiga Iroq shimolida Kurdiston avtonom viloyatiga asos solinishi turklar uchun siyosiy falokatga teng edi. Turkiya Iroqdagi Kurdlar avtonomiyasi Turkiyada yashovchi kurdlarni Turkiyadan mustaqil bo'lish uchun harakat qilishiga sabab bo'ladi deb o'ylab Iroqdagi kurdlarga qarshi strategiyani emas, balki ularni o'ziga jalb qilish strategiyasini qo'llaydi. Kurdiston avtonom viloyati tashkil etilgandan beri Turkiya hukumati bu hududda keng miqdorda investitsiyalarni amalga oshiradi: aeroportlar, quvur transporti, minglab turk-kurd tadbirkorlik tashkilotlariga asos solinishi shular jumlasidandir. Bu strategiya orqali Turkiya nafaqat o'z hududida istiqomat qiluvchi 15 million kurd aholisi orasida Turkiya hukumati haqidagi tasavvurni yaxshilashni, balki Kurdiston avtonom viloyatini

Bag‘doddagi shialar rejimidan, o‘z navbatida esa Eron dan uzoqlashtirishni ko‘zda tutgan edi. Lekin Suriyadagi fuqarolar urushi oqibatida turli xil kuchlarning mintaqada paydo bo‘lishi Turkiyani ushbu strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. ISHIDning Iroq va Suriyadagi kurdlar hududlariga hujumlari kuchayishi natijasida nafaqat iroqlik va suriyalik kurdlar, balki Turkiyadagi kurdlar ham o‘z qardoshlari bilan birodorona harakat qilishga kirishib ketadi. Ko‘p yillardan beri Turkiya bilan muxolifatda bo‘lgan va Turk rasmiylari tomonidan terroristik guruh deb qaraladigan PKK (Kurdiston ischilar partiyasi) o‘z qo‘shinlarini Iroq va Suriyaga kurdarga yordam tariqasida jo‘natadi. Bundan Turkiya qattiq xavotirga tushadi. Azaldan Suriya, Iroq, Eron va Turkiya hukumatlari tomonidan birlashishga yo‘l qo‘yilmayotgan kurdlar orasida o‘zaro yaqinlashish yuz bera boshlagani va bu yaqinlashish asosida ularning milliy birligi yotishi ayniqsa Turkiya uchun qo‘rqinchli holat edi. Bunday vaziyat Turkiyaning Iroqdagi tashqi siyosati boshi berk ko‘chaga kirib qolishiga olib keldi. Endilikda Turkiya na Basharni qo‘llab quvvatlayotgan Bag‘doddagi hukumatni va na Kurdlarni yagona rasmiy uyushmasi bo‘lgan Iroqdagi Kurdiston viloyatini qo‘llab quvvatlay olmas edi. Chunki ikki holat ham birdek uning manfaatlariga zid edi.

Suriya va Turkiya munosabatlari haqida Suriya inqiroziga bag‘ishlangan ishlarda ko‘p marta to‘xtab o‘tilgan. Albatta, Turkiya va Suriya munosabatlari deganda, avvalambor, bu ikki davlatni legitim tarzda aks ettiruvchi hukumatlar haqida so‘z yuritish kerak. Hozircha bu hukumat Suriyada Asad rejimi, Turkiyada esa “Adolat va taraqqiyot” partiyasi hukumati. Ikki rasmiy tomonning aloqalari Suriyadagi fuqarolar urushining boshidayoq tiklab bo‘lmas darajada buzilgan edi. Bugungi kunda qadar ko‘p narsa o‘zgarmadi. Aksincha, Turkiya Asad bilan kelishish strategiyasidan butunlay voz kechib, unga qarshi bo‘lgan har qanday alternativdan iloji boricha foydalanishga harakat qilmoqda.

Ichki nizolar

Turkiyaning ichki siyosatiga nazar solinadigan bo‘lsa, 2015-yil yaxshi yil bo‘ldi deyish qiyin. “Adolat va taraqqiyot” partiyasi o‘z saylovchilari safini kengaytirish uchun yillar davomida kurd aholisi uchun imtiyozlar yaratishga harakat qildi. Hatto Kurd siyosiy partiyasi va telekanallari Turkiyada qonuniy deb e‘lon qilindi. Lekin ushbu yondashuv partiyaning o‘ziga qarshi ishladi, chunki Kurdlarning

siyosiy partiyasi 2015-yil iyundagi parlament saylovlarida nafaqat kurd aholisi yashaydigan hududlarda, balki boshqa viloyatlarda ham eng ko‘p ovoz to‘pladilar, ovoz ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Umumiy ko‘rsatkichga ko‘ra, Kurdlar partiyasi so‘ngi saylovlarga solishtirganda 80% ko‘proq ovoz to‘plagan edi. Bunday natija so‘nggi yillarda har doim “Adolat va taraqqiyot” partiyasining g‘alabasi bilan tugaydigan saylovlar muvozanatini izdan chiqardi va tomonlarning o‘zaro kelishib, koalitsion hukumat tuza olmasliklari oqibatida shu yilning noyabr oyida qayta saylovlar o‘tkazildi. Ikkinchi saylovlarda “Adolat va taraqqiyot” partiyasining qo‘li baland keldi, lekin ushbu g‘alaba uchun Turkiya ko‘p qurbonlar berdi. Birinchi saylovlardan so‘ng iyul oyida Turk armiyasi Suriya va Iroqda kuchayib kelayotgan IShID qo‘shinlarini bombardimon qilishga qaror qildi. Lekin bombalar nafaqat IShID qo‘shinlari ustiga, balki Iroqdagi Kurdiston viloyatida joylashgan Kurdlarning harbiy bazalari ustiga ham yog‘dirildi. Bu orqadan hujum Turkiya ichkarisida joylashgan, ta‘qiqlangan Kurd ishchi partiyasi bilan hukumat kuchlari o‘rtasida 2004-yilda imzolangan o‘t ochmaslik haqidagi kelishuvni buzilishiga olib keldi. Kurdlar bilan bo‘layotgan to‘qnashuv Suriyadagi urush bilan qo‘shilib, Turkiya yangi mojarolar markaziga aylanishidan qo‘rqish tufayli, aholi orasida “Adolat va taraqqiyot” partiyasini barqarorlikni kafolatlovchi partiya sifatida qo‘llab-quvvatlash ommalashdi. Partiyaning g‘alabasi qaramay, 2015-yildagi otaturkchilar, Kurd partiyasi va boshqa so‘l kuchlarning kuchayishi “Adolat va taraqqiyot” partiyasining siyosiy obro‘cini tusha boshlaganidan dalolat edi.

Xo‘sh, nima uchun tashqi siyosatda bunday katta xatoliklar yuz berdi? Birinchi navbatda, Turkiya o‘z kuchi va ittifoqchilari bilan munosabatlariga ishondi. U iqtisodiy va harbiy jihatdan rivojlanib kelayotgan mamlakat bo‘lishiga qaramay, yillar davomida boshqa mamlakatlardan barqaror ittifoqchilik munosabatlarini o‘rnata olmadi. Ichki va xalqaro maydondagi siyosiy o‘zgarishlarga nisbatan Turkiyaning siyosiy pozitsiyalari va sheriklari tez-tez o‘zgarib turdi. Bu esa unga ma‘lum bir o‘ziga teng sherik bo‘la oladigan mamlakat bilan yaqindan mintaqaviy ittifoq tuzishga yo‘l bermadi.

Turkiya O‘rta Osiyo, Sharq va Yaqin Sharqqa “Katta og‘a” sifatida kirib kelishga harakat qildi, boshqa o‘zidan kuchli bo‘lgan kuchlar (Rossiya va Yevropa Ittifoqi) bilan esa yetarlicha yaqinlasha olmadi. Muammoning asosi, aslida, Turkiyaning tarixiga borib taqaladi. Xuddi

geografik joylashuvi kabi, Turkiya o‘zligini aniqlashda ham arosatda qoldi. Arablar uchun Turkiya yetarlicha musulmon emas, O‘rta Osiyoliklar uchun yetarlicha turkiy emas va yevropaliklar uchun yetarlicha yevropalik emas. Bunga Turkiyaning Usmoniy imperiyasi va uning shonli tarixidan butunlay uzila olmagan tufayli kelib chiqayotgan keng qamrovli siyosiy ambitsiyalari qo‘shilib, endigina xalqaro maydonga yorqin rivojlanayotgan davlat sifatida kirib kelayotgan mamlakatni siyosiy beqarorlikka yaqin keltirib qo‘yishi mumkin.

So‘ngi so‘z o‘rnida

Yangi XXI asrning ilk yillarida mamlakat siyosiy hayotida kutilmagan o‘zgarishlar yuz berdi: 2002-yildagi umumxalq saylovlari natijasida liberal islomiy partiya – Adolat va Taraqqiyot partiyasi mamlakat tepasiga keldi. Saylovlarda 34,2% ovoz olgan ushbu partiya hukumatni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Undan oldingi hukumat tarkibiga kirgan barcha partiyalar hukumatni shakllantirishdan chetda qoldi. Birgina JXP umumiy mandatning 10%lik to‘sig‘idan o‘ta olganligi va umumiy saylovning 19,3%ini to‘play olganligi sababli parlamentda muholidatni yuzaga keltirdi. Shunda ham uning o‘rni majlisda sezilarli bo‘lmadi. Aholining bir qismi Turkiyada hokimiyat tepasidagi partiya o‘zining islomiy asoslari bilan ko‘p yillik Mustafo Kamol Otaturkning Turkiya Respublikasiga tamal toshi qo‘ygan dunyoviylik (lâiklik) tamoyillariga daxldor bo‘lish yoki bo‘lmasligi masalasiga qiziqmoqda.

XULOSA

Turkiyaning XX asrda rivojlanish tarixi tahlil qilinar ekan, uning Usmoniylar imperiyasi qulagach va mustamlaka va harbiy yurishlardan soʻng yangi turk hukumati, siyosiy elita davlat mustaqilligi va mustahkamligini saqlashda oʻzida kuch topa olganini taʼkidlash joiz. Shu qatorda XIX asrda usmoniylarning yevropalashishi oʻrni yangi turk hukumati-ning modernizatsiyalshuvi jarayoni egalladi. Dunyoviylik va millatchilik mafkurasi usmoniylik, shariat va gʻazovot oʻrni egalladi. Mustafa Kamol Otaturk va uning tarafdorlari turk jamiyatini modernizatsiya qilishdek yuksak tarixiy vazifani bajarishga kirishdilar. Oʻtgan salkam bir asr davomida rivojlanish bosqichidan oʻtdilar. Ayniqsa, ilk davrlarda inqilobiy qadamlar mamlakatning dunyoviyliigi va iqtisodiyoti hamda sanoatining toʻgʻri yoʻlga tushib olishini taʼminlab berdi. Jamiyatning qadriyatlarini dunyoviy-nylashishi muvaffaqiyatli olib borilgan boʻlsada, bu jarayonlarning millatchilik va panturkizmga ogʻish ruhida kechganligini aytish mumkin.

Ushbu kitobda Turkiyaning ichki va tashqi siyosatiga baho berishga harakat qilindi. Tashqi siyosatning aspektlariga baho berishda imkon boricha sobiq SSSR tarqalgandan keyin Rossiya va Turkiya munosabatlari- ga alohida eʼtibor qaratilgan. Bu munosabatlarning harakatlantiruvchi kuch faqat iqtisod emas, siyosat va mafkura ham edi. Kitobda 1990-yillarda Turkiya va Kavkaz, Turkiya va Rossiyadagi turkiy xalqlar kabi muhim masalalarga eʼtibor qaratildi.

1930-yillarda olib borilgan etatizm (davlatchilik) islohatlari davlatga katta sanoat korxonalarini tuzishga imkon berdi. 1980-yillarda T.Oʻzal tomonidan olib borilgan islohatlar natijasida Turkiya dunyoga oʻz eshiklarini ochib berdi. Sanoat sihlab chiqarishda, infrastruktura va bank-kredit sohasida davlat monopoliyasi bekor qilindi, mamlakat ichki, tashqi savdo va qurilish sohasida xususiy tadbirkorlikka katta eʼtibor berdi. Ayni vaqtda ogʻir sanoat, oziq-ovqat va ijtimoiy infrastruktura, mudofaa sanoati, texnologiyalar rivojlandi.

XXI asr boshlarida mamlakat Yevroosiyoning industrial-agrar qudratiga ega boʻldi. Turkiya aholisi 70 mln.ga yetdi. Aholi jon boshiga YaIM 3 ming dollarga yetdi. Yevropa va Osiyoni bogʻlab turuvchi iqtisodiyot va savdo-transport oʻz rolini qoyilmaqom bajara boshladi.

Turkiya anchadan beri Yevropa Ittifoqiga aʼzo boʻlishga daʼvogarlik qiladi. Unga toʻsqinlik qiluvchi omil – iqtisodiyotning modernizatsiyaga muhtojligi, davlat va jamiyatning demokratlashuvidagi kamchiliklar hisoblanadi. Turk intelligentsiyasining bir qismi dunyoqarashining keskin

millatchilik va islomiylikka moyilligi kuchli boʻlib, mamlakatni modernizatsiya qilishga toʻsiq boʻlmoqda. Millatchilik turk elitasining deyarli sakson yillar oldin gʻarbliklarga oʻzini koʻrsatish va mustaqillikni mustahkamlashda yordam bergan. Milly manfaatlar doirasida yuqoridagi mafkurani jangovarlik ruhida millatni saqlab qolish uchun hozirda agressiv vaziyatda bu mafkuradan foydalanishning nafi yoʻq. Chunki sovuq urush allaqachon nihoyasiga yetgan.

Turk jamiyati nufuzli qatlamning 1990-yillarning oxirida madaniy hayotida siyosiy islomga nisbatan yaqinlashuv saqlanib qoldi. Bundan asosiy maqsad Turkiyada mavjud dunyoviy huquqiy asosni shariat tuzumiga oʻzgartirishga intilish edi.

GLOSSARIY

AJAM (arab. – “arab emas”) - arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon, Eron ham “Mulki ajam” deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar “ajamiy” deb atalgan. Keyinchalik A. nomi faqat eronliklarga nisbatan qo‘llanilgan, Eronni esa, A. yoxud Ajamiston deb ataganlar.

AL-AZHAR, Azhar (al-Jome’ - al-Azharning qisqa nomi) - Qohiradagi jome masjid, universitet, o‘rta va o‘rta maxsus bilim yurtlarini o‘z ichiga olgan yirik rasmiy diniy muassasa.

AMULET - misrliklar fikricha, mabodo inson o‘zi bilan birga olib yursa, yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi kichik buyumlar; tumor.

ANIMIZM - insonni qurshab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e‘tiqod.

AQSO MASJIDI (arab. – “uzoqdagi masjid”) - Quddus (Ierusalim) sh.dagi yahudiylik an‘anasida muqaddas hisoblangan qad. Ibodatxona (Sulaymon ibodatxonasi). Qur‘onda shu nom bilan tilga olingan. Islomdan ilgari arablar, undan keyin musulmonlar jamoasining a‘zolari A.m. tomonga qarab ibodat qilganlar. 624 y.da Makkadagi Ka‘ba qibla deb e‘lon qilingandan keyin u tomonga qarab ibodat qilish to‘xtatilgan. Keyinchalik 7-a. oxiri - 8-a. boshida xalifa Abdumalik tomonidan bu yer Haram ash-Sharif deb atalgan va islom ibodatxonalari majmui barpo etilgan. Hadislarda keltirilishicha A.m. islomdagi uchta muqaddas masjid (Makka va Madinadagi masjidlar qatorida)dan biri.

BOTINIYLAR (arab. “botin” – “ichkari”, “yashirin”, “sirli”) - 1) islomdagi mafkuraviy oqimlardan birining tarafdorlari. 8-a.da vujudga kelgan. Bu oqim tarafdorlari Qur‘on oyatlari va hadislarni zohiriy va lug‘aviy talqin etishga qarshi chiqqan. Ularning iddaolaricha, oyat va hadislarning zohiriy ma‘nolarini emas, balki yashirin mazmunlarini olish zarur. Bu aqida bilan ular islom shariatiga qarshi chiqqan bo‘ldilar. Zero, shariat hukmi bo‘yicha oyat, hadis va b. barcha manbalarning iboralari, u qaysi tilda bo‘lmasin, zohiriy, lug‘aviy va istilohiy ma‘nolariga asoslangan holda talqin etiladi. Ba‘zi fasohat, kinoya, tanbeh, istiora, ishora kabi so‘z o‘yinlari, “mutashabih” oyatlar va tasavvufiy talqinlar bundan mustasnodir. Islomning “Ahli sunna val jamoa” aqidasi binoan, B. shariatga xilof e‘tiqodda bo‘lgani uchun

dinsizlar qatorida sanalgan. 2) Tasavvufda zohirdan ko'ra botin islohihga ko'proq e'tiborni qaratuvchi kishilar (yana q. Zohiriylar).

BUDDAVIYLIK - miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy talimot.

BUT (fors.), *s a n a m* (arab.), butparastlik - xudoni tasvirleydigan va uning timsoli deb sig'iniladigan moddiy buyum (ko'pincha xudolarning tosh, yog'och, sopol va b. narsalardan yasalgan haykalchalari, rasmlari, tasvirlari va b.). Islom dini shakllanishidan oldin Arabiston ya.o.dagi qabilalarda butparastlik rasm bo'lgan, ya'ni har bir qabila o'z xudosi, uni ifodalovchi B.ga topingan. Bunday B.lar Makkadagi diniy ibodatxona - Ka'badada 300 dan ortiq edi. Islom dini shakllanib, yakka xudoga sig'inish paydo bo'lgandan so'ng B.lar Ka'badan chiqarib tashlandi. Xristianlik, buddizm kabi dinlarda ham B. (mas., xristianlikda ikona, krest(xoch)ga, buddizmda kichkina haykalchalarga sig'inish) saqlanib qolgan. Ko'pxudolikka e'tiqod qiladigan qabilalarda, xususan, Afrikadagi ayrim qabilalarda B.ga sig'inish hali ham bor.

BUVAYHIYLAR - G'arbiy Eron va Iroqda hukmronlik qilgan sulola (932-1055). Asoschilari - aka-uka Ahmad, Hasan va Ali. Ularning otasi Buvayh (sulola nomi shuning ismidan olingan) Eron podshohi Bahrom Go'r naslidan bo'lib, Daylam (Gilon viloyatining tog'lik qismi)dan jangari qavmlar sardori edi. Shu boisdan mazkur sulola vakillari "daylamiylar" deb ham atalgan. Saljuqiylarning 1055 y. qilgan bosqini, bu sulola hukmronligini butunlay tugatgan.

DEGRADATSIYA - tanazzul, zavol topish, inqiroz.

DELTA - Nil daryosi o'rtayer dengiziga quyilayotganda uchburchak-simon yalpi manzarani yuzaga keltiruvchi makon.

DEMOKRATIYA - har bir fuqaro o'z mamlakatini boshqarish masalasi bo'yicha o'z fikrini bayon etadigan, shuningdek, davlat boshqaruvida ishtirok etadigan ijtimoiy tuzum.

DINASTIYA (*sulola*) - birin-ketin hukmronlik qiluvchi podshohlar urug'i; sulola vakillari ko'pincha bitta nom bilan aytilgan, masalan, Ahamoniylar.

DISKREDITATSIYA - obro'sizlanish, obro'-e'tiborni yo'qotish, badnom bo'lish.

DRUZZLAR - shialikda vujudga kelgan firqa (diniy guruh). Asosan, Livanda va Suriyada yashaydi. Ularning qarashlari Ismoiliiylar qarashlariga yaqin. Firqa fotimiylar xalifasi Hakim (996-1021 y. hukmronlik qilgan) davrida paydo bo'ldi. Hakim umrining oxirida

o'zini xudo deb e'lon qilgan va o'ziga e'tiqod qilishni talab etgan. U sirli ravishda o'lgach, Livan va Antilivan tog'larida yashovchi xalqlar unga xudo deb e'tiqod qila boshlagan. Druz nomi xalifa Hakimning targ'ibotchilaridan bo'lgan Nishtegin Daroziy (1019 y. v.e.) ismi bilan bog'liq. Druzlar Suriya xalqining 1925-27 y.larda fransuzlar hukmronligiga va 1958 y.da Isroilga qarshi chiqishlarida faol ishtirok etishgan. Hozirgi vaqtda Druzlar Livan milliy-vatanparvar kuchlari tarkibida jamiyatni qayta qurish uchun kurash olib bormoqda.

ELLINLAR - qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

FOTIMIYLAR (909-1171) - Ismoiliy xalifalar sulolasi; o'zlarini Ja'far as-Sodiq (765 y.v.e.) o'g'li Ismoil orqali Ali va Fotima avlodi deb hisoblaganlar. Sunniy muarrixlar F.ning Ali avlodi ekanliklarini rad etib, ularni Ubaydiylar ya'ni Ismoiliylar imomi Ubaydulloh al-Mahdiy (F. sulolasi asoschisi) avlodlari deb hisoblaydilar. F. Sitsiliya, Marokash, Misr, Falastin va Suriyaning bir qismini egallashga muvaffaq bo'lishgan. 971 y. ular Misrning yangi poytaxti - Qohiraga asos solganlar. Makka va Madinani o'zlariga tobe etgan F. Bag'dodni bosib olib, Abbosiylarni taxtdan ag'darish va o'zlari hukmronligidagi yangi xalifalik barpo etishni rejalashtirganlar. Qohirada ular markaz tashkil etib, u orqali F. o'zlarining tashviqot ishlarini olib borganlar. 11-a. o'rtalarida Yamanda Ismoiliylarning Sulayhiylar sulolasi qaror topgan. F.ning ta'siri asta-sekin susaya boshlagan, bu faqat Saljuqiylarning kuchayishi bilan bog'liq bo'libgina qolmay, Ismoiliylar mafkurasining tanazzulga uchrashi bilan bog'liq edi. Vizantiya, ayniqsa, salbchilar bilan bo'lgan urushlarda toliqqan F. davlatida yollanma gvardiya (mamluklar) tasiri kuchaygan. Kurd amiri Salohiddin hokimiyat tepasiga kelgach, Abbosiy xalifalar hukmronligini tan olgan va Ismoiliylar davlati asta-sekin sunniylar davlatiga aylangan.

FRESKA - selgimagan suvoqqa chizilgan rasm.

GILGAMISH - Mesopotamiyaning afsonaviy qahramoni, tarixiy shaxs, Uruk shahri podshosi.

HANIF (arab. – “chinakam e'tiqod qiluvchi”, “taqvodor”) – haqqa moyil yakkaxudolikka e'tiqod qiluvchi taqvodor odam. Musulmonlar rivoyatiga ko'ra, islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig'inishni rad etgan, zohid, yakkaxudoga astoydil ishongan, lekin xristianlikka ham, yahudiylikka ham qo'shilmagan va Ibrohim (a.s.) dinlarida bo'lgan odamlarni H. deb atashardi. Qur'onda Ibrohim (a.s.)

ham H. deb nomlangan, uning chinakam yakkaxudolikka asoslangan dinini Muhammad (s.a.v.) tiklagan, deb hisoblanadi. 8-9-a.lardan boshlab H. ko‘pincha “musulmon”, islom esa, haniflik dini ma’nosida ishlatilgan. So‘fiylar ham o‘zlarini H. deb atashardi.

HASHSHOSHIYLAR (arab. – “hashish chekuvchilar”, “giyohvandlar”) - Ismoililar ichidagi yashirin terrorchilik bilan shug‘ullangan firqa tarafdorlari. 11-a. oxirida Eronda Ismoililar harakatining bo‘linib ketishi natijasida paydo bo‘lgan. Asoschisi - Hasan ibn Sabboh (1124 y. v. e.). Eronning shim.-g‘arbidagi tog‘lar orasida joylashgan Alamut qal’asi H. jamoasining markazi bo‘lgan. H. harakati Suriya va Livanda, keyinchalik Hindistonda ham tarqalgan. U O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi qarmatlar harakati bilan uzviy bog‘liq. H. xalifalik va saljuqiylarga qarshi kurashgan. H.ning rahbarlari o‘z dushmanlarini o‘ldirishni siyosiy kurashning asosiy vositasi deb bilgan. H. goyat yashirin holda ish ko‘radigan va tarmoqlangan terrorchilik tashkilotini vujudga keltirgan. Uz maqsadlarini amalga oshirish (hukmdorlar, podsholar, qirollar va yirik namoyandalarni o‘ldirish)da fidoyilar (qashshoq dehqon va shaharlik yoshlar)dan foydalangan. Terrorchi (fidoyi)larga giyohvand moddalarini iste’mol qildirib, o‘lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan. Birmuncha davr H. ko‘p hukmronlarga dahshat solib turgan, ulardan ko‘plari (jumladan ayrim Yevropa mamlakatlari imperatorlari va qirollari ham) o‘z jonini saqlash uchun H.ga to‘lov to‘lab turgan. 1256 y. mo‘g‘ul istilochilari Alamutni bosib olib, Eronda H. jamoasiga barham bergan. 1273 y.da mamluklar qo‘shini Suriya va Livandagi H.ning oxirgi tashkilotlarini tugatgan.

IBN RUSHD Abdulvalid Muhammad (lot. Averroes) (1126, Kordova - 1198.12.12, Marokko) - arab faylasufi va tabibi. Andalusiya va Marokashda yashagan, qozi va saroy hakimi bo‘lgan. Aristotel asarlariga sharxlar yozgan. Razoliy ta’limotiga qarshi “Tahofut ut-tahofut” (“Raddiyatni rad etish”) asari bilan falsafada muayyan o‘rin tutadi. I. R. moddiy dunyo abadiy, uning boshi xam yo‘q, oxiri ham bo‘lmaydi, degan. Lekin, uningcha, moddiy dunyo fazoda cheklangan. Xudoning borligini tan olgan I. R. uning olamdan oldin bo‘lganligiga ishonmagan va xudo yaratilgan olam bilan birga abadiy, deb hisoblagan. U ruh o‘lmaydi, oxirat bor degan gaplarga qarshi chiqqan. I. R. - ikki haqiqat nazariyasini ilgari surib, bilimni e’tiqodga, falsafani ilohiyotga qarama-qarshi qo‘ydi hamda fanning, inson

aqlining roliga yuqori baho berdi. I. R. kishi oliy kamolotga zikru sano orqali emas, balki ilmiy-falsafiy bilim orqali erishadi, deb hisoblagan. O'z davrining ilg'or kishisi bo'lgan I. R. adolatli jamiyat qurishni, xotin-qizlarga teng huquq berilishini, hurlik g'oyalari targib qildi. I. R. g'oyalari o'rta asr falsafasiga katta ta'sir ko'rsatdi. I.R. 7 jildli qomusiy tibbiy asar "Kitob al-kulliyot" (tibbiyot bo'yicha umumiy qo'llanma) muallifidir.

IBN TUMART, Muhammad ibn Abdurahmon (1078 yoxud 1081-1130) - Shim. Afrikadagi "al-Muvahhid" harakati rahbari va sulolasi asoschisi. Susa (Jan. Marokash)da tug'ilgan. Ko'pgina muarrixlar uning shajarasini Ali ibn Abu Tolibga bog'laydilar, biroq Ibn Xaldun uni barbarlardan deb hisoblaydi. 1106 y. I.T. Qurtubaga kelib fiqh bilan mashg'ul bo'lgan, 1108 y. Iskandariyada mashg'ulotini davom ettirgan, bir muncha vaqt Bag'dodda tahsil olgan. Sharqda I.T. ash'ariylarning izchil izdoshi bo'lgan, hadislarga tayanmay mustaqil hukm chiqarishga qarshi chiqqan. Dinni poklash, uning asl, ilk manbalariga qaytish (usul) haqidagi va'zlari natijasida uni Bijayndan quvg'in qilishgan. 1120 y. Marokashda al-Muvahhid amiri Ali ibn Yusuf (1106) I.T. bilan mahalliy ulamolar o'rtasida munozara uyushtirgan. Ulamolarning I.T. qarashlariga bo'lgan noroziligi shu qadar bo'lgan-ki, u hibsga olinishdan zo'rg'a qutilib qolgan. Shundan e'tiboran I.T. dinni poklash shiori ostida "al-Muvahhid"ga qarshi ochiqan-ochiq siyosiy qarshi chiqqan (11-a. o'rtasi - 1147). Uni ko'plab barbar qabilalari qo'llab quvvatlashgan. Uch-yillik urushdan so'ng u Nfis daryosining yuqori oqimidagi tog'li Tinmalal qal'asi (Marokashdan 75 km jan.da)da o'rinishib olgan. U har tomondan Muhammad (s.a.v.)ga o'xshashga da'vo qilgan. Tinmalalga ko'chishni hijrat, yaqin safdoshlarini - ashoblar deb atagan va b. O'zini gunohlardan xoli imom va Mahdiy deb atagan. 1130 y. Marroqashni 6 kun muvaffaqiyatsiz qamal qilgach, I.T. qo'shini tor-mor keltirilgan, bir ozdan so'ng o'zi ham vafot etgan. Uning vafot etganini yaqin do'sti va yordamchisi Abdulmo'min harakatga rahbarlikni o'z qo'liga olgunga qadar (1132 y.) yashirishgan. I.T.ning Tinmalaldagi qabri 16-a.gacha ziyoratgoh bo'lgan.

IBN XALDUN Abdurahmon Abu Zayd ibn Muhammad (1332, Tunis - 1406, Qohira) - arab tarixchisi va faylasufi. Ibn Rushdning izdoshi. 1349-75-yillarda Tunis, Fes, G'arnota, Bujjoya (Jazoir) hukmdorlari saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan. 1382 y. Misrga

kelib, mudarrislik qilgan, umrining oxirida molikiylar mazhabini qozisi bo'lgan. Asosiy asari: "Kitob ul-ibar" ("Ibratli misollar kitobi", 1370). Asarda I.X. jamiyat taraqqiyoti xususida o'z fikrlarini hamda Sharq musulmon xalqlari (xususan, Mag'rib) tarixini bayon qilgan. I.X. kishilar hayot tarzidagi tafovutlarni, asosan, geografik va b. moddiy omillarga bog'liq deb hisoblagan. Asarda I.X. o'z tarixiy-ijtimoiy nazariyasini bayon qilib, axloq va ijtimoiy muassasalar kishilar turmushi bilan bog'liqligini hamda mehnat va kishilarning o'zaro munosabati jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. I.X. tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi haqida fikr yuritgan.

IBODIYLAR, abodiylar - xorijiylarga mansub 4 asosiy firqa (jamo)ning eng "mo'tadil" hisoblangan qismi, Abdulloh ibn Ibod (yoxud Abod) (7-a.ning 2-yarmi)ning izdoshlari. 684 y. Basradagi xorijiylar orasida bo'linish sodir bo'lgan: azraqiylar Umaviylarga qarshi chiqishgan, Abdulloh bo'lsa, Basrada qolib, qurolli kurashdan voz kechgan va xorijiylarning "mo'tadil" qanotiga rahbarlik qila boshlagan. I. firqasining haqiqiy asoschisi va rahnamosi Jobir ibn Zayd (Ummonda tug'ilgan, 717 y.v.e.) edi. 9-a. oxirigacha Ummon I.i mustaqil bo'lishgan, so'ngra mamlakat yana Abbosiylar tasarrufiga o'tgan, lekin 11-a. boshidan e'tiboran I. Ummonda yana hokimiyat tepasiga kelganlar. Hozirda bu mamlakat aholisining yarmidan ortig'ini I. tashkil etadi. I. diniy-siyosiy dasturi asosini imomat haqidagi ta'limot tashkil qiladi. I. imomatning mavjud bo'lishi shart emas, bir vaqtning o'zida islom dunyosining turli qismlarida bir necha imomlar bo'lishi mumkin deb hisoblaganlar. Imom shayxlarning maxfiy kengashi tomonidan saylanib, bu qaror xalqqa e'lon qilingan. Ko'pincha saylovlar bitta qabila yoki urug' doirasi bilan cheklanib qolgan. I. imomi - hokim (lashkarboshi, qozi, faqih) ham bo'lgan. I. aqidasi sunniylar va mutaziliylar aqidasi tamoyillar aks etgan. I. Odamlarning qilmishini vujudga keltiruvchi Allohdir, deb biladilar. Siyosiy va diniy sabablarga ko'ra, kishini o'ldirishni rad etganlar. I. ta'limoti tarafdorlari garchi ko'p mamlakatlarga tarqalgan bo'lsalar-da, ular diniy sohada ham, siyosiy sohada ham yakdil bo'lmaganlar. Hoz. Shim. Afrikada, Ummon, Zanzibar o.da I. jamoalari mavjud. Ularning diniy e'tiqod va marosimlari sunniylik va shialikdagi oqim, firqalardagi e'tiqod va marosimlardan o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi.

IDRISIYLAR, banu Idris - Mag'ribdagi birinchi Alaviylar sulo-

lasi (789-926). Asoschisi - Idris I, Hasan ibn Alining chevarasi, Madinada Abbosiylarga qarshi Alaviylar qo'zg'oloni (786) qatnashchisi bo'lib, ta'qibdan qochib Shim. Marokashga eson-omon yashiringandi. Barbar - zenatlar sardorlarining qo'llab-quvvatlashiga tayanib, markazi Ulili bo'lgan kichik davlat barpo etgan (788), Ulili yaqinida yangi shahar - Fes qad ko'targan. Idrisning ukasi Sulaymon, bir oz vaqtdan so'ng markazi Tlemsen sh. (G'arbiy Jazoir) bo'lgan yana bir davlatga asos solgan. I. davlatining ravnaqi Idris II (808-828) va uning o'g'li Muhammad (828-836) hukmronliklari davriga to'g'ri kelib, bu davrda davlat hududi baland Atlas tog'laridan shim.-garbdagi butun hududni qamrab olgan. Bu davrda Fes va Tlemsen juda tez taraqqiy etgan, yangi shaharlar vujudga kelgan. Idris II davlatni ko'p sonli merosxo'rlari o'rtasida taqsimlagan, bu o'zaro nizolarni keltirib chiqargan. 917 y. Fotimiylar Yahyo IV ni tor-mor keltirganlar, u tobelikni bo'yniga olgan, lekin 919-920 y.da qamoqqa olinib, qatl qilingan. Fotimiylar va Umaviylarning Marokash uchun olib borgan uzoq kurashlaridan foydalanib I. Rifdagi mulklarini saqlab qolganlar. 974 y. Umaviylar so'nggi I.ni asir olishgan. Ulardan biri, al-Hasan, Qohiraga qochib borib, Fotimiylarni yordam berishga ko'ndirgan, biroq yana asirga tushib qatl etilgan. 1010 y. I.ning uzoq tarmoqdaridan biri -Hammudiylar Malaga va Alxesirasni egallab, u yerda viloyat hokimi sifatida 1057 y.gacha hokimlik qilishgan. Marokashda I.ning avlodlari (shariflar, mahalliy lahjada- shorfa) ko'pchilik bo'lib, hozirgacha ta'sir kuchiga ega.

ILTIZOM – aholidan biror turdagi yig'im yoki soliq undirish huquqini hukumatdan sotib olish va sotib olingan shunday huquq.

IMOMIYLAR - shialikdagi asosiy oqimlardan birining tarafdorlari, Ali avlodiga taalluqli 12 imomni tan oluvchi mo'tadil shialar. I. 11-imom Hasan al-Askariy vafoti (873 y.)dan keyin uning yosh o'gli Muhammadni oxirgi, 12-imom deb tan oladilar. Rivoyatlarga ko'ra, bu imom yo'qolgan (tarixda o'ldirilgan bo'lsa kerak) deb hisoblanadi. I. uni "yashiringan imom", ya'ni Mahdiy deb e'lon qilib, u qaytib kelishi bilan adolat tantana qiladi, deb hisoblaydilar. "Yashiringan imom"ga e'tiqod I.ning asosiy aqidalaridan biridir. Ular imomat ta'limotini asosiy qoida sifatida ilgari suradi, imomning saylab qo'yilishini rad etadi. Ular o'zlarining hamma imomlarini "jabrdiyda" deb biladi va ularga e'tiqod qiladi. I. shialarning ancha ko'p tarqalgan qismidir. I. ta'limoti hoz. Eronning davlat dini hisoblanadi. I. Iroqda aholining deyarli yarmini

tashkil etadi. I. jamoalari Livan, Kuvayt, Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Afgʻoniston va b. Mamlakatlarda bor.

INKVIZITSIYA – katolik cherkovining asoratiga qarshi kishilarni taʼqib va sud qilish uchun 13-19 asrlarda taʼsis etilgan sud-politsiya tashkiloti.

IQTOʻ (koʻpligi iqtaʼot; “aqtaʼa” feʼlidan – “kesmoq”, “taqsimlab bermoq”)- maʼlum hududdan xiroj olish huquqini davlat tomonidan biror shaxsga berilishi. Yer boʻlib berishlar Muhammad (s.a.v.) hayotliklari davrida ham qayd etilgan va ayniqsa Usmon (r.a.) davrida (644-656) keng tarqalgan. Odatda davlatga qarashli egasiz va tashlandiq yerlar merosiy va musodara qilish huquqi bilan biror kishiga xususiy mulk (muqta) tariqasida berilgan. Bu yer uchastkalari qatiʼa deb atalib mulkka oʻxshash boʻlgan, inʼom etish hodisasining oʻzi esa iqtoʻ deb atalgan. Aksariyat hollarda muqtaʼ (muqtadorlar) yerga oʻzlari ishlov bermaganlar, balki yerni oʻsha joydagi ijaradorlar bilan qoʻshib olganlar yoki sugʻorishga mablagʻ sarflab, oʻzlashtirilgan yerni ijaraga berganlar. Muqtaʼ yerdan ushr toʻlagan, unga yer soligʻi deb emas balki zakot sifatida qaralgan. Haqiqiy, mumtoz I.da, yaʼni xiroj olinadigan yer berilgan taqdirda, muqtaʼ xiroj bilan ushr oʻrtasidagi farqni oʻz foydasiga olgan. Ilk fiqhshunoslar (Yahyo ibn Adam, Abu Yusuf) faqat ana shunday I. shaklini biladilar. Moʻgʻullar davrida I. istilohi rasmiy suratda ishlatilmasdan, uning oʻrniga suyurgʻol - merosiy qilib berilgan yer mulki va tuyul (tiul) - vaqtinchalik yoki umrbod muddatga berilgan yerni anglatuvchi istiloxlar ishlatila boshlangan.

ISLOM EKSTREMIZMI - islomning qad. gʻoyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yoʻli bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan boʻlib, muayyan mazhab taʼlimotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va koʻpincha muayyan siyosat va iqtisodiy manfaatlarni taʼminlash maqsadida amalga oshiriladi. Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim - xorijiy harakati edi. Xorijiy Ali ibn Abu Tolib bilan Umaviylar davlatining asoschisi Muoviya oʻrtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali toʻxtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun unga qarshi boʻldilar. Xorijiylardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy 661 y.da 4-xalifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib oʻldirdi. Xorijiyalar Umaviylar va Abbosiylar xalifaligiga qarshi urush olib borib, juda koʻp musulmonlarning oʻlimiga sabab boʻldi. Zamonlar oʻtishi bilan ular barcha islom jamoasining qarshiligiga

uchradi. 10-a.da O'rta Sharqda Hamdon al-Ash'as "al-Karomita" deb atalgan diniy-siyosiy harakatga asos soldi. Bu harakat vakillari boshqa mazhablar tarafdorlarini o'ldirish siyosatini olib bordi. 12-a. boshida Ismoiliylardan Hasan Sabboh (1124 y.v.e.) va uning tarafdorlari o'z diniy g'oyalari va siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun qurol ishlatish, qatl qilish, yo'lto'sarlik, terrorchilikdan foydalanib kelgan. Ularning asosiy qarorgohi va markazi Alamut qal'asi (Eron)da bo'lgan. Ular hashish (giyohvandlik moddasi)ni qo'llash yo'li bilan fidoyilarni tarbiyalab, o'z muxoliflarini o'ldirishga buyurgan. Keyinroq Alamut qal'asi Xulogu tomonidan zabt etilib, ularning terrorchilik va siyosiy faoliyatiga barham berildi. 18-a. o'rtalarida hanbaliy mazhabining ayrim vakillari ta'limotidan foydalanib, Muhammad ibn Abdulvahhob (1703-1794) diniy ekstremistik harakat – vahhobiylikka asos soldi. Keyingi yillarda vahhobiylar harbiy tayyorgarlikdan o'tib, Tojikiston va Chechenistonda qo'poruvchilik, terrorchilikni kuchaytirdilar.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI - Qur'on va hadislarni so'zmaso'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. I.f. vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari (I.f. nomi shundan) jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar "fundamentalistlar" deb atalmoqda. I.f. turli yo'nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilar terroristik usullar bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o'zlarini namoyon etsalar, boshqalari targ'ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'lim, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, ayniqsa, foydalanish oson bo'lgan audio-video kassetalarni tarqatish bilan shug'ullanadi. I.f.ga xos bo'lgan g'oyalar - g'arb turmush tarzi va g'arb tovarlarining iste'moliga qarshi kurash, dinsiz yoki "sof islomdan chekingan" davlat rahbarlarini jismonan yo'q qilish (eng yorqin misol - Anvar Sadatga uyushtirilgan suiqasd), islomda "shirk" (butparastlik)ka barham berishdir. I.f. talqinida aziz-avliyolar qabrlarini e'zozlash (masalan, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf tariqatlari asoschilari ruhini hurmatlash) ham butparastlikka kiradi. Hoz. davrda I.f. vakillari butun dunyoga yoyilib, turli yo'llar bilan bir davlatdan boshqa davlatga o'tishga, har yerda o'z maslakdoshlarini topishga intilmoqda.

ISMOILIYLAR - shialik ichida vujudga kelgan asosiy firqalardan

birining tarafdorlari. I. harakati 8-a. oʻrtalarida boshlangan. 10-11-a.larda Yaqin va Oʻrta Sharqda keng tarqalgan, imom Jaʼfar as-Sodiq vorisi masalasi yuzasidan shialar oʻrtasida kelib chiqqan ixtilof bilan bogʻliq. I. turli davrlarda, turli mamlakatlarda har xil nom bilan atalgan: botiniylar, sabʼiylar, taʼlimiylar, mulhidlar va h.k. I. shakllanishi Arab xalifaligida ziddiyat va xalq qoʻzgʻolonlarining kuchayishi oqibatida roʻy bergan. Shialikning baʼzi tarafdorlari Abbosiylar bilan hamjihat boʻlib, boshqa bir guruh shialar esa, Abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirishda Jaʼfar as-Sodiqning toʻngʻich oʻgʻli Ismoilni yettinchi imom deb tan olib, uning atrofiga jipslashdi. Ammo, Imom Jaʼfar maishatga berilgan Ismoil oʻrniga kichik oʻgʻli Muso al-Kozimni voris etib tayinladi. Bundan norozi boʻlgan Ismoil tarafdorlari uning vafotidan (762) keyin oʻgʻli Muhammad ibn Ismoilni imom deb tanidi, shu tariqa imomlikni Ismoil avlodida saqlab qolish tarafdorlari oʻzlarini Ismoiliylar deb atay boshladi. Muhammad ibn Ismoil vafot etgach, uning tarafdorlari oʻrtasida kelishmovchilik chiqdi. Baʼzilar uni oxirgi - yettinchi imom deb bilib Mahdiy sifatida qayta tiriladi, deb ishondi. 9-a. 2-yarmidan bu taʼlimot tarafdorlarini qarmatiylar deb atay boshladilar. Taʼqibotlardan Suriya, Xuroson va boshqa mamlakatlarga qochgan ikkinchi guruh botiniy (mahfiy) imomlar nomini oldi. Ularning faol daʼvatlari tufayli Shim. Afrikada Fotimiylar halifaligiga asos solindi. 10-a. oxirida Magʻrib, Misr, Suriya, Falastin, Hijozda I. hokimiyati oʻrnatildi. 11-a. oxirlarida I. oʻrtasida taxt vorisligi xususida nifoq chiqib, ular nizoriylar bilan mustaʼliylarga boʻlinib ketdi. Nizoriylar Fotimiylar xalifaligiga kirmaydigan sharqiy islom mamlakatlari (Eron, Suriya va b.)da ustun edi. Mustaʼliylar esa, Misr va gʻarbiy islom mamlakatlarida hukmronlik qildi. Hindiston (Bombay)dagi hoz. I. jamoalari mustaʼliylarning maʼnaviy vorislari-dir. 11-a. oxirlarida Suriya, Livan, Iroq va Eronning togʻli joylarida harakat qiluvchi nizoriylar taʼqibotlardan qochib, asta-sekin Hindistonga koʻcha boshladi. 19-a.ning 1-yarmidan nizoriylarning maʼnaviy rahbari Ogʻaxon unvoni bilan yuritiladi. Nizoriylarning Hindiston va Keniyadagi qarorgohlaridan turli mamlakatlarga nizoriylar taʼlimotining targʻibotchilari yuboriladi. 17-a. boshlarida mustaʼliylarning ham diniy markazlari Hindiston (Gujarot)ga koʻchdi. Hindistonga borib oʻrnashgan mustaʼliylar dovudiylar deb, Yamanda qolganlari esa sulaymoniyalar deb atala boshladi, ular oʻrtasida hech qanday aqidaviy tafovut yoʻq. Umuman, I. taʼlimotiga kelganda, u ikkiga: zohiriy

(tashqi) - ochiq va botiniy (ichki) -maxfiy ta'limotlarga bo'linadi. Zohiriy ta'limot shialarning umumiy ta'limotidan kam farq qiladi, u firqaning maxfiy ta'limotidan bexabar bo'lgan oddiy I. ommasiga mo'ljallangan. Botiniy ta'limotni movarounnahrlilik an-Nasafiy (942 y. v.e.) asoslab berdi. Unga ko'ra, mutlaq xudo o'zidan quyi bo'lgan 7 ta pog'onani ajratadi (emanatsiya), ya'ni: mutlaq xudo, olamiy aql, olamiy jon, birlamchi materiya, fazo, vaqt va komil inson (ya'ni payg'ambar). Kamolotga erishgan inson (al-inson al-komil), I. ta'limoti bo'yicha, o'zida "olamiy ahd"ni aks ettirgan notiq (gapiruvchi) bo'lib, u payg'ambar maqomida bo'ladi va vahiyini insonlarga yetkazib beradi, o'zida "olamiy jon"ni aks ettirgan somit (jim turuvchi) esa, oyatlardagi botiniy mazmuni tushuntirib beradi. I. tasavvurida insoniyat tarixi Odamatodan Qoimgacha bo'lgan "buyuk davr"dir. U 7 "fitra"dan iboratki, ularning har biriga muayyan notiq (payg'ambar) to'g'ri keladi: Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Muso (a.s.), Iso (a.s.), Muhammad (s.a.v.). Har bir payg'ambar davri-ning yettinchi imomi keyingi payg'ambar (notiq)ga aylanadi. Demak, Ismoilning o'g'li Muhammad - yettinchi imom, u Qoim qiyofasida yettinchi payg'ambar bo'lib kelishi va "qiyomat qoim" gacha hukm surishi kerak. I. ta'limoti, xususan, qarmatiylar mafkurasi islom dini-ning o'ta so'l maslagi bo'lgan. O'rta asr tafakkurining yirik namoyan-dalari Rudakiy, Ibn Sino, Abu-l-Alo al-Ma'arriy va b.ga qarmatiylar mafkurasi ta'sir ko'rsatgan. Mashhur shoir va mutafakkir Nosir Xisrav esa, I.ning yirik namoyandalaridan biri edi. Hoz. davrda nizoriylar Suriya, Eron, Afg'oniston shimoli, Tog'li Badaxshonda, musta'liylar Yaman, Hindiston, Pokiston, Misrda, druzlar Suriya va Livanda bor.

IYEROG'LIFLAR - qadimgi yunonlar misrliklar yozuvini shun-day atashgan; "muqaddas bitiklar" ma'nosini anglatadi.

JIZYA (arab. – "jon solig'i") - dastlab arab xalifaligida, keyinc-halik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, O'rta Osiyo)da musul-mon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon soligi. J. balogatga yetgan-larga solingan (qariyalar, ayollar, bolalar, qul va ishga yaroqsizlar esa J.dan ozod qilingan). J., asosan, pul va natura tarzida undirilgan. J. 3 xil bo'lib,-yilda bir marta olingan. Ishga yaroqli er kishidan 12 dirham, o'rta holdan 24 dirham, boydan esa 48 dirham olingan. Zero, musulmon davlati, musulmon bo'lmagan fuqarolarni ham huquqlarini himoya qilishi, ularni tashqi va ichki tajovuzdan saqlashi lozim. Shuning evaziga undan J. olinadi. 48 dirham beruvchi har oyda 4

dirhamdan, 24 dirham beruvchi har oyda 2 dirhamdan, 12 dirham beruvchi har oyda 1 dirhamdan beradilar. Agar ular islomni qabul qilsalar J.dan ozod qilinganlar.

JOHILIYA (arab. “bilimsizlik holati”, “jaholat”) - arablar tarixining islomdan ilgari davriga berilgan nom. Aniqroq qilib aytganda, odamlar hayotida Iso (a.s.) bilan Muhammad (s.a.v.) oraliq idagi payg‘ambarsiz o‘tgan davr tushuniladi. J. tushunchasi Qur‘onning bir necha suralarida uchraydi (“Oli-Imron”, 154; “Mo‘ida”, 50; “Ahzob”, 33; “Fath”, 26). J. atamasining paydo bo‘lishiga muayyan sabablar bor edi. Zero, islomdan oldingi arablarning ko‘pchiligiga “jahl” tuyg‘usi xos edi. Bu boshqalarga nisbatan beshafqat va vahshiyona munosabatda bo‘lishda o‘z ifodasini topardi (qasos olish zarurati, go‘dak qizlarni tiriklayin ko‘mish, o‘zga qabila vakiliga dushman sifatida qarash va b.). Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo‘ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o‘sha davrni haqli ravishda J. deb atagan. Bundan tashqari, J. davri arablarining diniy tasavvurlari ham kam taraqqiy qilgan, sodda holda bo‘lgan. J. arablari narigi dunyoga ishonmasdi. Islom g‘alabasidan so‘ng ular “dahriy”lar yoki “mushrik”lar (Allohga boshqa xudolarni sherik qiluvchilar) degan nomlarni oldi.

KOHINLAR - ibodatxona ruhoniylari.

KOLONIYALAR - o‘z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.

MAHDIY (arab. – “Alloh tomonidan to‘g‘ri yo‘lga yetaklanuvchi”) - islomda zamona oxir bo‘lganda yerga qaytib kelib adolat o‘rnatadi, deb tasavvur etiladigan payg‘ambar. Shialikda M.ga e‘tiqod qilish katta o‘rin egallagan.

MAJUSIYLIK - 1) Majusiy - quyosh yoki olovga sig‘inuvchi odam. Islom dini kelmasdan burun ajam xalqdari M. e‘tiqodiga mansub edilar. M. kalimasi quyosh yoki olovga sig‘ingan kishilarda hozirga qadar atama sifatida qo‘llaniladi. 2) yakkaxudolik (monoteizm) paydo bo‘lgunga qadar vujudga kelgan diniy e‘tiqodlar, marosim va bayramlarni ifodalash uchun ishlatilgan.

MAMLUK (“egallik qilinadigan kishi”) - qul, sinonimi abd, lekin undan farqli o‘laroq hech qachon ko‘chma ma‘noda qo‘llanilmaydi (mas., “Allohning quli” kabi). Dastlab M. - tug‘ma quldan farqli ravishda faqat qo‘lga kiritilgan qul. Qur‘onda bir marta abd mamluk (16:75/77) shaklida uchraydi. M.lar deb harbiy qo‘shinda xizmat

qiluvchi qul-jangchilar atalgan. Ular ko‘pincha yuqori harbiy lavozimlarni egallab, bu bilan hatto ozodlikka ham erishganlar. 9-a.dan g‘ulom (o‘smir, qul-jangchi) so‘zining sinonimi sifatida, lekin odatda oq g‘ulomlarga nisbatan qo‘llanilgan; 12-13-a.larda M. atamasi Suriya va Misrda g‘ulom istilohini siqib chiqargan. Ayyubiylardan bo‘lgan M. amirlari 1250 y. Misrda hokimiyatni qo‘lga olgan bo‘lib, ular 14-a. o‘rtalarigacha rasman Abbosiylardan bo‘lgan xalifalarning amirlari hisoblanganlar, so‘ngra mutlaqo mustaqil hukmdorlarga aylanishgan. 1250-1290 y.larda hukmronlik qilgan sultonlar M.larning Bahriy sulolasiga mansub; Burjiy M.lari (1382-1517) o‘zaro qonqarindoshlik rishtalari bilan bog‘lanmaganlar, ular guruhbozlik asosida birlashganlar. Butun mana shu davr mobaynida qullardan chiqqan sultonlar o‘z qo‘shinlarini M.lar - turklar va kavkazliklardan to‘ldirganlar. Usmoniylar tomonidan Misr bosib olingach (1517 y.), M.lar mamlakatning harbiy mulkdor yuqori tabaqasi sifatida saqlanib qolishgan; Istanbuldan tayinlanadigan posho mamlakatni mamluk amirlaridan tashkil topgan kengash yordamida boshqargan. 1805 va 1811-yillarda turk lashkarboshisi, albanlardan bo‘lgan Muhammad Ali Qohirada mamluklarning barcha rahbarlarini qirib tashlagan.

MARONIYLAR, al-Maruniyun (al-mavorina) - Shim.-G‘arbiy Suriya va Shim. Livan aholisi orasidan 5-8-a.larda ajrab chiqqan etnokonfessional xristian-uniat guruhi tarafdorlari. Suriyalik zohid Maron yoki Marun (4-5-a. boshi) nomidan. M. marosimlari suryoniy xristianlikning g‘arbiy (yakoviylar) va sharqiy (nestoriylar) tarmoqlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Ibodatda hozirda o‘lik suryoniy tili qisman qo‘llaniladi. Ijtimoiy tashkilotida islomning ta’siri bor (mas., cherkov vaqfi, ba’zi sunniy huquqiy me’yorlar va b.). Yuhanno Marun (taxm. 700 y. v.e.) M.ning birinchi patriarxi, ularning mustaqil cherkovining asoschisi hisoblanadi. 7-a. oxirida M.ning aksariyati Suriyadan Livanga ko‘chgan. 12-13-a.larda M. salibchilarni qo‘llab-quvvatlagan, Rim kuriyasi bilan aloqa bog‘lagan, natijada uniya (ittifoq) barpo etilgan (18-a.da uzil-kesil). 17-18-a.larda M. yashaydigan hududlar Usmoniylar imperiyasining bir qismi bo‘lgan Livan amirligiga qo‘shib olingan. M.ning ba’zi dunyoviy zodagonlari yer mulklari - iqtolarga ega bo‘lishgan. Hukmronlik qilayotgan amirlarning Shibahlar sulolasi xristianlikning maroniy tarmog‘ini qabul qilganlar. Usmoniylar M.ga amalda muxtor jamoa-millat maqomini berishgan, u rasman 1841 y. e’tirof etilgan. Yahudiy katoliklar Yaqin Sharqqa suqilib kirayotgan-

larida, M.ga suyanishga harakat qilishgan, shu maqsadda tog‘li Livandagi jamoalar o‘rtasidagi nizolardan foydalanishgan. 19-a.da maroniylar cherkovi mamlakatdagi eng yirik mulk egasiga, patriarx esa, eng obro‘li rahbarlardan biriga aylangan. “Milliy pakt” (1943)ga ko‘ra, Livan prezidenti faqat M.dan bo‘lishi mumkin, bundan tashqari boshqa muhim lavozimlar ham M. ixtiyoriga berilgan. M.ning aksariyati qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy xizmat, sanoatda band. Livandan tashqari M.ning ozgina qismi doimiy ravishda Suriya, Kipr, Isroil, Iordaniyada ham yashaydi. M.ning ko‘pchiligi muhojirlikda. Ular Livanda konfessional tuzumni saqlab qolish uchun kurashib, etnik mojarolarni keltirib chiqarmoqda, M.ni arab dunyosidan ajratib olishga intilmoqda.

MAZHAB (arab. – “yo‘nalish”, “oqim”, “yo‘l”, “ta’limot”), shariat mazhablari - islomda diniy huquq tizimlari va yo‘nalishlari. 8-9-a.larga kelib shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik - fiqh sohasida juda ko‘p M.lar yuzaga kelgan. Hoz. vaqtda sunniylikda to‘rtta M. - hanafiylik, molikiylik, shofi‘iylik, hanbaliylik (M.lar nomi ularning asoschilari: Abu Hanifa (Imomi A‘zam), Molik ibn Anas, Shofi‘iy, Ibn Hanbal nomidan olingan), shialikda bir M. -ja‘fariylik (asoschisi - Ja‘far as-Sodiq) saqlanib qolgan. Shariat M.lari diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikdagi to‘rttala M. ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to‘rt mazhab bo‘yicha alohida dars o‘qitiladi. M.lar umuman an‘anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofi‘iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) M.lari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning huquqiy hayotida ja‘fariylik M.i o‘z mavqeini ma’lum darajada saqlab kelmoqda. O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda hanafiylik M.i keng yoyilgan.

MIXXAT - shumerlar va forslarning qadimgi yozuvi.

MOZAIKA - rangli sopol yoki shisha parchalaridan devorda yoki polda ishlangan suvoqqa qadalgan manzarali rasm.

MU‘TAZILIYLAR, mu‘tazila (arab. – “ajralib chiqqanlar”, “uzoqlashganlar”) - islomdagi ilohiyot oqimlaridan biri. 8-a. o‘rtasida Arab xalifaligida vujudga kelgan. Asoschilari Vosil ibn Ato (699-748) va Amr ibn Ubayd (762 y. v.e.). Ular o‘z guruhi bilan ustozlari Hasan

al-Basriy (728 y. v.e.) maktabidan ajralib chiqqan. M. Qur'anni diniy haqiqatning manbai deb e'tirof etadi, uni so'zma-so'z emas, majoziy talqin qiladilar, rivoyatlarga ko'r-ko'rona ishonishga qarshi chiqadilar. M. qadariylarning inson iroda erkinligi haqidagi ta'limotini rivojlantirdilar va asosladilar. Ular 9-a.da o'zlarining aqidalar tizimini yaratdilar. Bungacha islomda davlat dini va barcha uchun majburiy deb e'tirof etilgan yagona aqidalar tizimi bo'lmagan. Chunki, dastlabki ikki yuz-yillik davomida islom turli fikr, maktab, mazhab, huquqiy firqalar yig'indisidan iborat bo'lgan. Shuningdek, xalifalar diniy, siyosiy muxolifatdagi harakat (xorijiyalar, shialar va b.)ga qarshi kurashuvchi mafkuraviy qurolga zarurat sezayotgan edi. Shuning uchun xalifa Ma'mun (813-833) M. ta'limotini davlat dini deb e'lon qildi. Xalifa farmoni bilan barcha qozilar, ilohiyotchilar, amaldorlar shu e'tiqoddami yoki yo'qmi, sinab ko'rildi. M. aqidasini (xususan, Qur'onning yaratilganini) tan olmaganlarni ishdan bo'shatdi, hatto o'lim jazo chorasini qo'lladi. Maxsus jazo muassasasi – “mihna” tashkil etdi. Ammo, majburiy choralarga qaramasdan M. ta'limoti xalifalikda umuman qabul qilinmadi, xalifa Mutavakkil (847-861) davrida esa, M. ta'limoti “shakkoklik” deb e'lon qilindi. M. aqlidrokni ilohiyot asosi deb e'tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan, o'zlarini yakkaxudolik (tavhid) va adolat (adl) tarafdorlari, deb atagan. M.ning asosiy g'oyalari vaqti kelib shia ilohiyotchilari tomonidan o'zlashtirib olindi. Keyinchalik Iroq va Eronda 11-12-a.larga, O'rta Osiyoda 13-14-a.larga kelib yo'qolib ketgan.

MUMIYOLANGAN JASAD - dafn etishga tayyorlangan, maxsus uzoq saqlanuvchi moddalar qo'shilmalari bilan ishlov berilgan jasad.

MUROBITLAR (arab. – “rabotda yashovchilar”) Shim. Afrikadagi zohid, darvishlarning harbiylashgan diniy jamoasi a'zolari. 11-12-a.larda M. Marokashni zabt etgan va Al-Murobit sulolasi va davlatiga asos solgan. Keyinroq musulmon avliyo, yo'lboshchilarini yoxud darvish jamoalarining tashkilotchilarini ham M. deb atashgan.

MUSHAF (arab. - sahifalangan) - xalifa Abu Bakr Siddiq, (r.a.) davrida Qur'anni kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozilgan to'plami, sahifalangan Qur'on. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.)ning davrida ko'chirilgan Qur'on nusxalari M.lar deb nomlangan. Keyinchalik kitob shaklidagi Qur'onning har bir nusxasi M. deb nomlanavergan. Shu ma'noda M.larni tahoratsiz ushlab, ular bilan tahoratxonaga kirish man qilinadi. Toshkentda O'zbekiston musulmonlari idorasida

saqlanadigan Qur'onning qad. qo'lyozmasi (7-a.) ham M. Nusxalaridan biridir.

NOMLAR - Misrdagi ilk davlatlar.

PAPIRUS - poyasining mag'izi yozuv yozishga material tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish.

PIKTOGRAFIK YOZUV (lotincha "pictus" – "rasmli" va yunoncha "grapho" – "yozaman", "rasmli yozuv") - ma'lumotning umumiy mazmunini rasm orqali yoki rasmlarni ketma-ketligi orqali eslab qolish maqsadida tasvirlash. Bu yozuv neolit davridan beri ma'lum bo'lib, biron-bir tilning yozuv vositasi hisoblanmaydi.

PIRAMIDA - mahobatli tosh inshoot, fir'avnlarni maqbarasi.

QARMATLAR - Ismoililarning asosiy shahobchalaridan biri tarafdorlari. Q. harakati 9-a. oxirida Jan. Iroqda vujudga kelgan, Suriya va Yamanga tarqalgan, dehqonlar, ko'chmanchi badaviylar va hunarmandlardan tashkil topgan. Harakat o'z nomini uning rahbari va tashkilotchisi Hamdon ibn al-Ash'asning laqabi Qarmat (yoxud Qarmatuya, Qirmit)dan olgan. Uning ma'nosi manbalarda turlicha ("kalta oyoq", "qizil ko'z" va b.) izoxlangan. Biroq, Hamdongacha ham Qarmatiya nomi bor edi, bu esa, Hamdon o'z laqabini o'sha davrda mavjud bo'lgan shialikning biron-bir tashkiloti nomidan olgan deb hisoblashga asos bo'ladi. Ular Abbosiylar xalifaligiga qarshi qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan. Q. yerga jamoa egaligini, umumiy (qullardan tashqari) tenglik g'oyalarini targ'ib etishgan. Ular islom marosimlarini bajarmagan, shariat qoidalarini tan olmagan, ularda masjidlar bo'lmagan. Q. musulmonlarning ziyoratgohlari (mas., Ka'ba va u yerdagi "qora tosh" - hajar al-asvad)ni bid'at deb hisoblagan. 899 y. Q. Bahraynni bosib olib, al-Aqsoda (Sharqiy Arabiston) o'z davlatini tuzgan, bu davlat 11-a. oxirigacha mavjud bo'lgan. 930 y. haj vaqtida Q. Makkaga hujum qilib, uni talon-toroj etishgan, hajga borganlarni o'ldirishgan, bir qismini qul qilishgan, u yerdagi "Qora tosh"ni parchalab, o'lja qilib olib ketishgan (20-yildan so'ng qaytarilgan). Bu hol keng xalq ommasini Q.dan chetlashtirgan. 11-a. oxiri - 12-a. boshlarida Iroq va Eronda ularga qarshi shiddatli kurash boshlangan va Q. harakati bostirilgan. Keyinchalik Q. Ismoililarning boshqa oqimlariga qo'shib, yo'qolib ketgan.

RABOT - 1) 7-10-a.larda Kichik va O'rta Osiyo hamda Shimoliy Afrikaning musulmonlar va xristianlar (yoki butparastlar) yonma-yon yashagan hududlarida vujudga kelgan harbiy istehkomlar yoki qal'a-

lar. R.larda istiqomat qilgan musulmonlar odatda ko'ngillilar sifatida g'ayridinlarga qarshi urushlarda qatnashganlar. 11-12-a.larda Marokashda paydo bo'lgan al-Murobit harakati va davlati o'z nomini R. atamasidan olgan. Ayni vaqtda Eronda R. o'zining harbiy ahamiyatini yo'qotdi va darvish-qalandarlarning qarorgohi -xonaqohlarga aylandi. Keyinchalik R.ning aynan shu ma'nosi butun musulmon dunyosiga yoyildi. 2) O'rta asrda musulmon shaharlari ichkarisidagi omborxonalar, karvonsaroylar yoki shahar tashqarisidagi bozorlar.

REKONKISTA - (ispancha "Reconquista", "reconquistar" – "jang bilan qaytarib olmoq") - arablar (aniqrog'i mavrlar) bosib olgan hududlarni Pireney yarim oroli tub aholisi tomonidan 8-15 asrlarda jang bilan qaytarib olinishi.

SALMON al-FORSIY, Abu Abdulloh Salmon al-Forisiy (? - 658) - sahoba; Rasululloh (s.a.v.)ning mavlolaridan. Asli isfahonlik. Din qidirib safarga chiqqan. Majusiy dinidagi otasidan qochgan. Avval nasroniy diniga kirib, bir necha vaqtdan keyin Madinaga borib, islom dinini qabul qilgan. 627 y.dagi Xandak jangida aynan S. al-F. Muhammad (s.a.v.)ga Madina sh. atrofiga xandaq qazishni va unga kamonchilarni joylashtirishni maslahat bergan. Arabistonda ilgari ko'rilmagan bu yangi taktik usul makkaliklar harbiy kuchining asosiy zarbdor qismini tashkil etgan badaviylar otliq qo'shinining jangovarlik imkoniyatlarini ancha pasaytirgan. Bu ular uchun kutilmagan hol bo'lib, sarosimaga solgan, natijada musulmon qo'shini zafar qozongan. S. al-F. tasavvufning asoschilaridan biri hisoblanadi. Shialar S. al-F.ni Alining sodiq safdoshi sifatida juda qadrlaydilar. Madoin sh. (Iroq)ga hokim bo'lganda, bo'ya to'qib sotib, o'z mehnati evaziga tirikchilik o'tkazgan; maoshini muhtojlarga sadaqa qilgan. Rasuli Akram (s.a.v.)dan ko'plab hadislar rivoyat qilgan.

SHAHAR-DAVLAT (*polis*) - tevaragidagi hududlarni tasarrufiga olgan o'zini o'zi boshqaruvchi shahar; Qadimgi Yunoniston va Rimdagi kichik mustaqil davlat; polisda hokimiyat teng huquqli fuqarolar qo'lida bo'lgan.

SHAYXULISLOM - muayyan mamlakatda islom tashkilotlari boshlig'i - oliy diniy unvon. Faxriy unvon sifatida 10-a.dan u yoki bu faqih yoxud so'fiyga nisbatan ishlatilgan. 13-a.dan keyin muntazam suratda qo'llanilgan. Buxoro xonligi, Turkiya (16-a.dan 1924 y.gacha) va b. davlatlarda Sh. - eng oliy diniy lavozim. Bunday lavozim va unvon musulmon mamlakatlarining ba'zilarida uchraydi. Shialikka

mansub diniy boshqarma rahbari ham Sh. unvoni bilan yuritiladi. Sunniylikka mansub boshqarmalarning rahbarlari muftiy unvoniga ega.

SHIALIK (arab. – “guruh”, “tarafdorlar”) – islomdagi asosiy yo‘nalishlardan biri. O‘zining keng yoyilishi jihatdan sunniylikdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Shialik VII asr o‘rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan.

874-878 y.lar orasida 7-9 yoshida bedarak yo‘qolgan 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular “yashiringan” hisoblaydi, zamona oxir bo‘lganda uning qaytib kelishini va adolat o‘rnatishini kutadi (imomi Mahdiy, imomi oxir zamon). Sh. hoz. vaqtda Eronda hukmron e‘tiqod hisoblanadi. Iroq, Afg‘oniston, Hindiston va Pokistonda shialar bor. Ozarbayjon va Tojikistonda (Pomirda Ismoililar) aholining muayyan qismi Sh.ka e‘tiqod qiladi.

SIFFIN JANGI - Yuqori Mesopotamiyada, Frot daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo‘shini bilan Shom (Suriya) hokimi Muoviya qo‘shini o‘rtasida sodir bo‘lgan jang (657 y. yozi). To‘qnashuvga 656 y. uchinchi xalifa Usmon (r.a.) o‘ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya tarafdorlari o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo‘lgan. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo‘lgan Muoviya xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.)dan aybdor jinoyatchilarni topshirishni talab qilgan. Muoviyaning janjalni hakamluk sudi yordamida tinch yo‘l bilan hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilishi bilan jang to‘xtatilgan. Sudda Muoviya vakili Ali (r.a.)ning taxtdan voz kechishiga roziligini olishga erishgan. Ali (r.a.) qo‘shinining bir qismi uni g‘alabani qo‘ldan boy berganlikda ayblab, qo‘shinni tark etgan. Bu guruh xorijiy harakatini boshlab bergan.

UHUD JANGI (Uhud - Madina sh. yaqinidagi tepalik nomi) - 625 y. 23 martda Uhud tepaligida musulmonlarning makkaliklar bilan bo‘lgan jangi. Badr jangida makkalik mushriklar mag‘lubiyatga uchragach, musulmonlardan o‘ch olmoqchi bo‘lishgan. Makkaliklar 3000 ga yaqin jangchidan iborat bo‘lib, jumladan 200 ta otliq askar, 800 ta sovut kiygan jangchi, Muhammad (s.a.v.)ning esa, 700 ta piyoda askarlari bo‘lib, shulardan 100 tasida sovut bo‘lgan. Makkaliklar jang maydonida yaxshi mavqeni egallagan edi. Muhammad (s.a.v.) ham askarlarini kerakli joyga joylashtirib tepalik tomonini qo‘riqlash uchun 50 ta kamonchini qo‘yib, ularga bu yerdan hech yerga siljimaslikni tayinlaganlar. Jang dastlabki paytda musulmonlar foydasiga hal bo‘la boshladi. Ular ayni dushmani ta‘qib etadigan paytda

gʻanimat (oʻlja) toʻplashga tushdilar. Kamonchilar ham oʻljasiz qolib ketmaslik niyatida oʻz turgan joylarini tashlab ketdi. Bundan foydalanган makkaliklarning Xolid ibn Valid boshchiligidagi otliq qoʻshini musulmonlar qoʻshini orqa tomoniga oʻtib hujum qildi. Bu jangda musulmonlar koʻp talafot koʻrdi: Muhammad (s.a.v.) qurshovda qolib, yaralanganlar, 70 dan ortiq kishi halok boʻlgan. Makkaliklar esa, 19 kishisini boy berdi. Musulmonlar bu jangda raqib ustidan yengilgina gʻalaba qozonamiz deb oʻylashgan edi. Musulmonlar muvaffaqiyatsizlikka uchraganligining sababi Qurʻon oyatlarida bayon etilgan (3:145/152 - 169/175).

VARVAR - dastlab: yunon tilida soʻzlashmaydigan har qanday chet mamlakatlik kishi; keyinchalik bu soʻz madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan boʻldi.

XALIFA (arab. – “oʻrinbosar”, “noib”) - ilk islomda jamoa hayotini shariat boʻyicha tartibga solish va Alloh taolo koʻrsatmalariga musulmonlar tomonidan amal etilishini nazorat qilish uchun saylab qoʻyilgan musulmon jamoasi rahbari. X. baʼzi vazifalarda vafot etgan Muhammad (s.a.v.)ning oʻrinlarini bosadi, deb hisoblangan, keyingi har bir X. esa, shu vazifada oʻzidan oldingisining oʻrnini bosishi kerak boʻlgan. Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin safdoshlari Abu Bakr Siddiq, birinchi X., keyingalari Umar, Usmon, Ali boʻlishgan. Ularni xulafoi roshidin, yaʼni toʻgʻri yoʻldan boruvchi X.lar deb atashgan. Ali va Muoviya oʻrtasidagi kurash davrida musulmon jamoasining boʻlinishi sodir boʻlgan, Ali tarafdorlari shialikka asos solishgan. Ular musulmon jamoasida hokimiyat faqat imom hisoblangan Ali va uning avlodlariga tegishli boʻlishi lozim deb hisoblaganlar. X. unvonini shialar tan olmaydilar. Alini dastlab qoʻllab-quvvatlaganlar ichidan xorijiyalar ajrab chiqqan, ular X.ni saylash tamoyilini qatʼiy himoya qilishgan. Sunniylikni tashkil etgan musulmonlar jamoasining aksariyat qismi Umaviylar sulolasidan boʻlgan X.larni yoqlab chiqdi; bu sulola oʻrniga 8-a. oʻrtasida Abbosiylar sulolasi kelgan. Abbosiylar asta-sekin real hokimiyatni qoʻldan boy bera boshlaganlar, 13-a.da esa, Bagʻdod moʻgʻullar tomonidan bosib olingach va X. Qohiraga qochib ketganidan soʻng (u yerda 10-11-a.da fotimiylar hukmron edi), amalda hech qanday hokimiyatga ega boʻlmay qolishgan. 16-a.da turk sultonlari oʻzlarini X. deb atay boshlaganlar, bu holat 1924 y.gacha, yaʼni Usmoniylar saltanati tugaguncha davom etgan.

XIROJ, xaroj (arab. – “solig”) - 1) oʻrta asr musulmon davlatlarida yer soligʻi. Dastlab X.ni Arab xalifaligida faqat gʻayridinlar toʻlashgan. Musulmonlar ushr soligʻi toʻlaganlar. Keyinchalik yer egalari, asosan, musulmonlar boʻlgach, X. umumiy yer soligʻiga aylangan. X. alohida shaxsdan yoki jamoadan (butun qishloq ahlidan) olinishi mumkin boʻlgan. Soʻnggi oʻrta asrlarda u turli nomlarda atalgan. Usmonli turk imperiyasida X. deb musulmon boʻlmaganlardan olinadigan jon va yer soliqlari aytilgan (yana q. Jizya); 2) Oʻrta Osiyoda oʻrta asrlarda davlat yerlaridan toʻplangan soliq. Oʻrta Osiyoda 8-a.da islom dinining tarqalishi jarayonida joriy etilgan, shariatda qonunlashtirilgan edi. Zamonaviy soliq tizimining amalga kiritilishi bilan X. yigʻish yoʻqolib ketdi.

XUMS (arab. – “beshdan bir”) - islom anʼanasida musulmon qoʻshinlari qoʻlga tushirgan oʻljalarning beshdan bir qismi. Uni avval Muhammad (s.a.v.) ixtiyoriga, keyinchalik xalifalar xazinasiga (q. Bayt ul-mol) ajratilgan, qolgan qismini harbiy boshliqlar oʻzlari va lashkarlarga taqsimlaganlar. Bu qoida ilk islom davridayoq Qurʼon oyatlarida (8: 42) bayon etilgan va shu asosida amalga kiritilgan, u oʻrta asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida qoʻllanilgan. X. sifatida toʻplangan mablagʻlarning beshdan bir qismi avval Muhammad (s.a.v.) va uning avlodlarini taʼminlashga, shuningdek, qoʻshinlar xarajatlariga sarflangan. Xalifalar va keyingi hukmronlar davrida X. xazinaga tushgan.

XUN - oʻldirilgan urugʻ aʼzosi uchun olinadigan qonli oʻch, qasos.

XURRAMYILAR, xurramiya (fors. xurramdin – “xush, xurram eʼtiqodga ega”) - sunniylikka qarshi boʻlgan moniylik-mazdakiylikka xos oqimlarning umumlashma nomi. 8-10-a.larda Eronda X. shiori ostida gʻalayonlar boʻlgan. Zardushtiylik muhitida - bidʼatchi sekta boʻlib, nomi zardushtiylarning oʻzlarini atashlari - bexdin – “yaxshi eʼtiqod egasi”ga aynan mos keladi. Nizomulmulkning taʼrifiga koʻra, X. islom dushmani, ular nafaqat shariatni, balki umuminsoniy axloqiy normalarni ham inkor etganlar, ular barcha man etilgan narsalar joiz deb, jumladan, boshqalarning mol-mulki va hatto ayollariga egalik qilishni ham joiz deb hisoblashgan. Ular Abu Muslim, Mahdiy, Abu Muslimning qizi Fotimaning oʻgʻli Feruzga ibodat qilib, butun faoliyatlarini islomni buzishga qaratganlar. Ular zardushtiylarning goyaviy merosxoʻri boʻlganlar. X. mafkurasining asosini dualizm - yorugʻlik bilan zulmat oʻrtasidagi kurash tashkil qilgan. Ular kishi-

larning umumiy tengligi, soliq va majburiyatlarni bekor qilish, moddiy boyliklarni teng taqsimlashni yoqlab chiqishgan. Nazariy jihatdan X. yovuzlikka qarshi qurolli kurashni inkor etadilar, amalda esa, 8-10-a.da xalifalikdagi barcha qurolli xalq harakatlarini qo'llab-quvvatlashgan. 10- a.da xalifa qo'shinlari X. qal'alarini tor-mor keltirgach, X.ning aksariyati shialikka o'tgan. 15-a.dan keyin X. atamasi manbalarda uchramaydi.

ZAKOT (arab – “tozalash”, “sadaqa berish”) - mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning besh asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka nisobga ega bo'lgan musulmon Z. beradi. Uning miqdori (85 gr. oltin miqdoridagi mablag). Mazkur mablag kishining o'zi va qaramog'idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lishi lozim. Bu mablag'ga kishining jamg'armasi, do'kondagi sotiladigan mollari, sotaman deb olib qo'ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Qur'oni karimning ayrim suralarida Z. namoz bilan yonma-yon zikr etilgan. U-yilda bir marta berilishi shart bo'lgan xayr-ehson (sadaqa) qatoriga kiradi va ayni vaqtda ibodat hisoblanadi. Beriladigan Z. miqdori mablag'larning $\frac{1}{40}$ ulushi (2,5%)ga teng; Zotan Z.ning asl hikmati faqir va muhtojlarning hojatlarini chiqarmoqdir. Z.ni bera olmaydigan musulmonlar olishga haqli, avval Z. qarindoshlar orasidagi muhtojlarga, unday qarindoshlar bo'lmasa, so'ng boshqa kambag'al, qarzdor, musofirlarga beriladi. Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan Z. miqdori bir oz boshqacharoq belgilangan.

ZIKKURAT - tepasida ibodatxonasi bolgan zinapoyali yirik minora.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алиев Г.З. Турция в период правления младотурок. М., 1972.
2. Ближний Восток: проблемы региональной безопасности. М., 2000.
3. Внешнеэкономические связи Османской империи в новое время (конец XVIII - начало XX в.). М., 1989.
4. Гасанова Э.Ю. Лаицизм и ислам в республиканской Турции. Баку, 2002.
5. Гасратян М.А., Орешкова С.Ф., Петросян Ю.А. Очерки истории Турции. М., 1983.
6. Георгиян Э.А. Турецкая Республика. Основные институты государственного строя. М., 1975.
7. Еремеев Д.Е. Турция в годы Второй мировой и «холодной» войн (1939-1990). М., 2005.
8. Еремеев Д.Е. Становление республиканской Турции (1918-1939 годы). М., 2004.
9. Еремеев Д.Е., Мейер М.С. История Турции в средние века и новое время. М., 1992.
10. Ислам и общественное развитие в начале XXI века. М., 2006.
11. История Востока. Т. IV. Восток в новое время (конец XVIII -начало XX вв.). Кн. 1, 2. М., 2004.
12. Киреев Н.Г. История этатизма в Турции. М., 1991.
13. Курпалидис Г.М. Государство Великих Сельджукидов. М., 1992.
14. Мейер М.С. Османская империя в XVIII веке. Черты структурного кризиса. М., 1991.
15. Петросян Ю.А. Османская империя. Могущество и гибель. М., 1990.
16. Турция в XX веке. М., 2004.
17. Турция в новых геополитических условиях. М., 2004.
18. Турция между Европой и Азией. Итоги европеизации на исходе XX века. М., 2001.
19. Турция. Современные проблемы экономики и политики. М., 1997.
20. Шахинлер Менгер. Кемализм: зарождение, влияние, актуальность. Пер. с французского. М., 1998.
21. Almanac Turkey. 1977-1983. Ankara, Turkish Daily News.

22. Bağcı H. Türk Dış Politikasında 1950'li Yıllar. Ankara, 2001.
23. Barlas Mehmet. Turgut Ozal'ın Anıları. İstanbul, 2001.
24. Kadırcı Musa. Tanzimat Döneminde Anadolu Kentleri'nin Sosyal ve Ekonomik Yapıları. Ankara, 1991.
25. Devrin Yazarlarının Kalemile Gazi Mustafa Kemal. I-II. İstanbul, 1981.
26. Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye'de İslamcılık. İzmir, 1997.
27. Eldem V. Osmanlı İmparatorluğu'nun İktisadi Şartları Hakkında bir tetkik. Ankara, 1970.
28. Ergil D. Milli mücadelenin sosyal tarihi. Ankara, 1981.
29. Esmer A. Siyasi tarih (1919-1939). Ankara, 1953.
30. Gökalp Z. Turkish Nationalism and Western Civilization, N.-Y., 1959.
31. İnönü İsmet. Hatıralar, 2. Kitap. Ankara, 1987.
32. Islam in Modern Turkey. Religion, Politics and Literature in a Secular State. L.-N.-Y., 1991.
33. Türkiye, Siyaset Dergisi – Yaz, 2003.
34. Қодиров З.М. Султон Санжар даврида (1118-1157) Салжуқийлар давлатининг ички ва ташқи сиёсати / Шарқшунослик. Востоковедение. Oriental studies.-Тошкент, 2016. № 4
35. Қодиров З.М. Биринчи салиб юриши ва Салжуқийлар/ Шарқ машъали.-Тошкент, 2017. № 1
36. Қодиров З.М. Салжуқийлар тарихи туркиялик олимлар нигоҳида / ТДШИда ўтказилган “Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. № 2,- Тошкент, 2016 йил май.
37. Қодиров З.М. Замонавий Туркия сиёсий ва иқтисодий ҳаётида ислом омили / ТДШИда ўтказилган “Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. № 3,-Тошкент, 2017 йил май.
38. Қодиров З.М. Салжуқий Алп Арслон ҳукмронлиги даври Ибн ал-Асир ва Саид Мубошир Сулаймон Косоний талқинида/ Шарқшунослар анжумани. Илмий тўплам.-Тошкент, 2010 йил.

МУНДАРИЖА

KIRISH	3
I-BOB. KICHIK OSIYO QADIMGI DAVRDA	5
Qadimgi turklar	5
Xett davlati	16
Frigiya va Lidiya	26
Forslarning Kichik Osiyoga yurishi	30
Kichik Osiyodagi etno-madaniy jarayonlar.....	32
II-BOB. KICHIK OSIYO O'RTA ASRLARDA	49
Buyuk saljuqiylar davlatining tashkil topishi va kengayishi	49
Anatoliyada saljuqiylar davlatining tashkil topishi va salib yurishlari	69
Anatoliya saljuqiylar davlatida markaziy va mahalliy boshqaruv, harbiy-siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim, qo'shin va harb ishi	84
Mo'g'ullarning G'arbiy Osiyoga yurishlari, saljuqiylarning mag'lubiyati va uning oqibati.....	96
Usmoniylar imperiyasi	121
III-BOB. USMONIYLAR IMPERIYASI YANGI DAVRDA	138
Islom dinining tarixiy taraqqiyotga ta'siri	138
XIX ASR – XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA	151
Turkiya Birinchi jahon urushi yillarida	173
IV-BOB. TURKIYA ENG YANGI DAVRDA	179
Respublika sari mashaqqatli yo'l.....	179
Imperiyaning so'nggi kunlari	179
Anqara – yangi hokimiyatning asosiy markazi	192
IV BOB. MUSTAFO KAMOL OTATURK TUZUMINING BARPO ETILISHI	208
Dunyoviy davlat, dunyoviy hokimiyat	208
V BOB. OTATURK HUKUMATI VA ISLOHOTLAR	219
Jahon iqtisodiy inqirozi va Turkiya.....	219
Mustafo Kamol Otaturkdan keyin Turkiya	233
Turkiya Respublikasidagi siyosiy vaziyat	233
Turkiya va Ikkinchi jahon urushi	236
Mamlakat yangi boshqaruvining tashqi siyosati	236

Ikkinchi jahon urushi davrida Turkiya-Germaniya munosabatlari	240
Millatchilik va jahon urushi.....	252
Jahon urushning so‘nggi bosqichi	258
Urushdan keyingi ichki siyosat	272
Ko‘ppartiyaviylik tizimiga o‘tish	272
Demokratik partiya hokimiyat tepasida.....	277
1960-1970-yillarda mamlakadagi harbiy tartib xususida	287
Hukumat koalitsiyasi va siyosiy kurash	293
Radikal siyosiy hayot	297
T.O‘zalning “Oq inqilobi”. XX asrning so‘ngi 10 yilligida Turkiya	302
Turkiya va sovuq urushining tugallanishi	305
XXI asr boshida mamlakatning ichki va tashqi siyosatida yuzaga kelgan asosiy muammolar	313
XULOSA	329
GLOSSARIY	331
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	352

Tuzuvchilar: s.f.n. **N.A. Abdullayev**
katta o‘qituvchi **Z.M. Qodirov**
kata o‘qituvchi **X.X. Hamidov**
Sh. Ikromov

Mas’ul muharrir: *t.f.n. K.S. Azimov*
Taqrizchilar: *t.f.n. U.A. Abdullayev*
t.f.d. S.B. Shodmonova

Texnik muharrir: *Z. Alimov*
Kompyuter verstkasi: *H. O‘ktamova*

Bosishga ruxsat etildi 20.12.2018.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli 22.25 b.t. 50 nusxada bosildi.
Buyurtma № ___ Toshkent davlat sharqshunoslik
institutining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Shahrizabz ko‘chasi, 25